



“ILM-FAN VA TA'LIM-TARBIYANI RIVOJLANTIRISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR”

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

MATERIALLAR TO'PLAMI



2025-YIL 5-6 MAY FARG'ONA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

SIRTQI BO‘LIM

IJTIMOIV-GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI

**“ILM-FAN VA TA‘LIM-TARBIYANI
RIVOJLANTIRISHDAGI ZAMONAVIY
YONDASHUVLAR”**

mavzusidagi

XALQARO ILMIV KONFERENSIYA

MATERIALLARI

(2025-yil 5–6-may)

Farg‘ona – 2025-yil

UDK: 37.011.3-051:005.336.2

“Ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi zamonaviy yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. – Ilmiy nashr. – Fargʻona: FarDU, 2025 529 bet

Tashkiliy qoʻmita:

B.Sh.Shermuhammadov,
Y.I.Axmadaliyev, A.A.Tojaliyev,
S.S.Abdullayev

Tahrir hayati:

Z.Xolmatova, D.Xolikova,
D.Qoʻldasheva, M.Yusupova,
A.Vosiljonov, M. Jabborova

Rektor tabrigi

Farg'ona davlat universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Bahodirjon Shermuhammadovich Shermuhammadov

**BILIMLI VA MALAKALI YANGI AVLOD KADRLARINI TARBIYALASH
ASOSIY MAQSADIMIZDIR**

Assalomu alaykum, aziz mehmonlar!

Hurmatli ustozlar va qadrli yoshlar!

Avvalo, barchangizni bugungi kundagi oliy ta'lim tizimida olib borilayotgan yuksak islohotlar va ularning salmoqli natijalari bilan tabriklashni joiz deb, bilaman. Negaki, jamiyatdagi har qanday maqsad va islohotlar natijadorligiga ilm-fan bilan yetib borilishi, ta'lim va tarbiya uyg'unligidagi oliy ta'lim mamlakat uchun munosib yangi avlod kadrlarini tarbiyalashga qodir ekanligini barchamiz to'g'ri anglab turibmiz.

Ta'kidlash kerakki, mamlakatimizda ilm-fanga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, ta'lim sohasida ulkan o'zgarishlar, yangilanishlarga boy bo'ldi. Bilim dargohlarining qiyofasi tubdan o'zgarib, moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Bu o'z navbatida, ta'limning sifati va darajasini oshirgan holda, yoshlar o'rtasida oliy ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirdi. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham yurtimiz obro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Sohaga doir bir qator qonunlar, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham oliy ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish belgilangan. O'tgan qisqa davrda ushbu Konsepsiya sohada ta'lim sifatini oshirish yo'lida tub islohotlarni olib borishga imkon bermoqda.

Faxr bilan aytish mumkinki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida oliy ta'lim tizimiga qaratilayotgan ulkan e'tibor, oliy ta'lim muassasalarining xalqaro va milliy tajribalar asosida takomillashtirishga doir islohotlar bugun Farg'ona davlat universiteti misolida yaqqol ko'rinmoqda.

Barchangizga ma'lum, bu yil o'zining qutlug' 95 yoshini qarshi olayotgan otaxon oliyoghimiz juda salmoqli, Yangi O'zbekiston taraqqiyotiga mos qadamlar bilan rivojlanib bormoqda. Universitetimiz nomi o'nlab xalqaro reyting va indikatorlardan ilgarilab borayotgani,

Ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi zamonaviy yondashuvlar

xalqaro kuzatuvchilarning yuksak bahosi va e'tirofiga sazovor bo'lib kelmoqda. Albatta, har bir yangilanish, har bir yutuq va samara ortida shu oliy dargohda mehnat qilayotgan fidoyi va jonkuyar, haqiqiy ilm va ma'rifat sohibi bo'lgan professor-o'qituvchilarining o'rnini alohida ta'kidlash zarur. Qariyb 35 mingga yaqin talaba-yoshlarimiz bugun ushbu muqaddas dargohda oliy ta'lim olish, mukammal bilim va ko'nikmaga ega kadr bo'lib yetishish maqsadi bilan yashar ekan, ular har jabhada ustozlarning ilmiy salohiyatiga tayanadilar, suyanadilar. Xalqaro talablarga mos, eng so'nggi zamonaviy texnologiyalar ko'magida olib borilayotgan dars mashg'ulotlari, shuningdek, fakultetlar va kafedralar kesimida doimiy ravishda o'tkazib kelinayotgan respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalar va ularda yosh tadqiqotchi talabalarimiz, magistrant va doktorantlarimizning faol ishtiroki ham bizni bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashdek katta maqsadimizga yanada yaqinlashtirmoqda. Bu kabi ilmiy-amaliy anjumanlar professor-o'qituvchilarimiz faoliyatining ilmiy natijadorligini oshirish bilan yosh va iqtidorli, izlanuvchan olimlarni kashf etishga, qolaversa, xalqaro oliy ta'lim muassasasalari bilan ilmiy aloqalarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi, deb ayta olamiz.

Bugun Farg'ona davlat universitetining Sirtqi bo'limi Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'tkazilayotgan "Ilm-fan va ta'lim-tarbiyani rivojlantirishdagi zamonaviy yondashuvlar" mavzusidagi xalqaro ilmiy amaliy konferensiyaning o'tkazilishi ham ana shu ezgu maqsadlarga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Ushbu anjuman O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 29-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida belgilangan ta'lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, innovatsion loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish borasidagi vazifalarni amalga oshirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda, konferensiyaning sho'ba va yo'nalishlari bo'yicha mahalliy va xalqaro ma'ruzachilarning chiqishlari ushbu jarayon mohiyati va ilm-fan taraqqiyotining mamlakatlar istiqbolidagi o'rni haqida batafsil xulosalar berishiga katta ishonch bildiraman va anjuman ishiga muvaffaqiyatlar tilayman!

Jonajon universitetimizning ilmiy salohiyati, yoshlarimizning ma'naviy va ma'rifiy kamoloti yanada yuksalaversin!

**1-YO'NALISH. TA'LIM SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA
INNOVATSION VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN
FOYDALANISH**

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA GENDER YONDASHUV ASOSIDA
SHARQONA TARBIYANI SHAKLLANTIRISH.**

Egamberdieva Turg'unoy Ahmadjonovna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasiga yuklatilgan xalqaro hujjatlardagi gender tenglik me'yorlarini joriy etish monitoringi hamda ularning tavsiyalarini amalga oshirish holatini kuzatish zamonaviy maktabdagi ta'lim jarayonining gender asosidagi tahliliga asoslanadi.

Kalit so'zlar: gender, xabardorlik, ta'lim, trening, tarbiya, maktab va oliygoh, strategiya, erkak va ayol, o'qitish, tarbiyaviy jarayon, maktab va universitet, yondashuv, ayol va erkak.

Dunyoning yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari va xalqaro institutlarida o'quvchilarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning tarbiyasini takomillashtirishga doir metodikalarni yangilash, inson qadr-qimmatini ta'minlash, jinsdan qat'i nazar teng huquqlilikka erishish, ijtimoiy stereotiplarga qarshi kurashish va ta'lim tizimini Sharq qadriyatlarini hamda G'arb madaniy jihatlari asosida tashkil etish yo'lida keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Ular gender pedagogikasi asosida tashkil etilgan bo'lib, har bir jamiyatning madaniy qadriyatlarini va mental xususiyatlariga mos individual yondashuvni talab etadi. Bu esa zamonaviy pedagogikada gender yondashuv imkoniyatlaridan oqilona foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida gender tenglik siyosatini davom ettirish, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash bo'yicha islohotlar olib borish, jamiyatda ayollarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlikka murosasiz munosabatni shakllantirish, ayollarning huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi bir qator tashkiliy-huquqiy mexanizmlar ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzurida "Gender tenglik masalalari bo'yicha komissiya", "Ayollar va qizlar ishlari bo'yicha qo'mita" faoliyat yuritmoqda. Ushbu islohotlar asosida ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash, ta'lim oluvchilarga nisbatan bosimni bartaraf etish, gender asosidagi ta'limni yo'lga qo'yish, jinsiy kamsitishga qarshi innovatsion metodikalarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biridir.

Zamonaviy jamiyatda Sharqona tarbiyani shakllantirish, tarbiya tizimini takomillashtirish masalalari yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashtirish sharoitida milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy birdamlikni ta'minlash zarurati kuchaymoqda. Sharqona qadriyatlarga asoslangan tarbiya modeli millatlararo totuvlik va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Sharq tarbiyasi qadimdan shakllangan bo'lib, u Sharq xalqlarining madaniy an'alariga asoslangan qadriyatlarni ifoda etadi. Sharq xalqlariga xos bo'lgan bag'rikenglik, sabr-toqat, kelishuv orqali muammolarni hal qilish, samarali mehnat, mehr-oqibat va hamjihatlik kabi fazilatlar insoniyat hayotida tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bunday xususiyatlar insonni qat'iyatli, iroda sohibi, mustaqil fikrlaydigan, jismonan sog'lom va ruhiy jihatdan bardoshli qilib tarbiyalaydi.

O'zbek xalqida azaldan oila, ota-ona va er-xotin o'rtasidagi munosabatlar muhim ahamiyat kasb etgan. Abu Ali ibn Sino o'zining "Tadbir al-manazil" asarida oilaviy tarbiyada er-xotinning axloqiy xususiyatlarini alohida ta'kidlagan. Uning fikricha, tarbiyachi o'z shaxsiy namunasida bolaga ijobiy ta'sir ko'rsatmog'i lozim.

Jamiyatimizda o'g'il va qiz bolalarning ta'limiy faoliyatidagi farqlarni hisobga olish tarbiya samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Gender yondashuv pedagogika va psixologiyada amaliy jihatdan qo'llanilmoqda. Xususan, jinsiy tarbiya va kognitiv xususiyatlarning hisobga olinishi tarbiya jarayonida sezilarli o'zgarishlarga olib kelmoqda.

Gender yondashuvni hisobga olgan holda ta'limiy faoliyatni tashkil etish – bu o'quvchining kelajak hayotiga tayyorlovchi ta'limiy va tarbiyaviy vositalarning majmuasidir. Bu boradagi yondashuv psixologik-pedagogik asosga ega bo'lib, o'quvchilarning intellektual salohiyati va ongini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ta'limdagi gender yondashuv o'g'il va qiz bolalarning qiziqishlari, intellektual salohiyatlari va ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish imkonini beradi. O'quv jarayonida genderga xos psixologik farqlarni inobatga olish ularning shaxsiy o'ziga xosligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim-tarbiya jarayonida gender yondashuvni hisobga olish natijadorlikni oshiradi. Bu yondashuvda o'g'il bolalar odatda yangi, noodatiy yechim izlaydi, natijaga yo'naltirilgan bo'ladi. Qizlar esa muloqot qobiliyatiga ega bo'lib, muvaffaqiyatsizlikdan saqlanishga intiladi.

Mazkur tadqiqot natijasida taklif etilgan pedagogik model gender yondashuv asosida o'qituvchilarning bilim faoliyatini tashkil qilishga yo'naltirilgan. U quyidagi besh asosiy blokdan iborat: maqsadli blok, nazariy-metodologik blok, mazmuniy-jarayonli blok, tashkiliy-amaliy blok va natijalarni baholash bloki.

Shuningdek, gender yondashuv asosida ta'lim mazmunini ishlab chiqish, modifikatsiyalangan dasturlarni yaratish, genderga yo'naltirilgan mavzularni kiritish, psixologik maslahatlar, seminar va treninglar o'tkazish orqali bu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyot:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash mamlakat rivoji va xalq farovonligining kafolati. Toshkent, O'zbekiston, 2017, 48 b.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son Farmoniga
3. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 190-195.
4. Dilobarkhon, K. (2019). The importance of modern innovation in education. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
5. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". *PEDAGOGICAL SCIENCES*, 22.
6. Maxsitovna, K. D. (2022). Pedagogical Problems of Child Raising in the Uzbek Family. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 542-546.
7. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATION FIKRLASH KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 139-144.
8. Xolikova, D. (2021). Vozmojnosti diagnostiki effektivnosti kompensatsionnogo podxoda v obuchenii. *Obuestvo i innovatsii*, 2(9/S), 239-252.
9. Kholikova, D. M. (2021). THEORETICAL AND METHODOLOGICAL BASIS OF INCREASING INNOVATIVE THINKING IN STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (5), 422-424. ISSN: 2776-1010 Volume 4, Issue 5, May 2023
10. Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN HIGHER EDUCATION STUDENTS. *Theoretical & Applied Science*, (6), 549-552.

11. Kholmatova, Z. T. (2022). PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF GENDER ASPECTS OF EDUCATION. *ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW* ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 60-65.
12. Kholmatova, Z. T., & Kholikova, D. M. (2022). MODEL OF DEVELOPING AND DEVELOPING INNOVATIVE THINKING SKILLS IN STUDENTS. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 190-195.
13. Xolmatova, Z. T., & Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVASION FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH MODELI. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(4), 139-144.
14. Kholmatova, Z., & Axmadaliyeva, M. (2022). Healthy lifestyle (HLS)-The basis of valeology in kindergarten. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 136-139.
15. Kholmatova, Z., & Olamnazarova, F. (2022). Problems of the communicational approach of language teaching in the primary class. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 11(9), 140-144.
16. Tillavoldievna, K. Z. (2022). Problems of Family Education in People's Pedagogy. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 535-541.
17. Xolmatova, Z. T. (2022). TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YO'NDASHUV DAVR TALABI. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(3), 134-140. ISSN: 2776-1010 Volume 4, Issue 5, May 2023
18. Tillavoldievna, K. Z. (2022). Problems of Family Education in People's Pedagogy. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 5, 535-541.

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM: TARAQQIYOT VA XALQARO INTEGRATSIYA SARI

Tojaliyev Abduqosim Abduhakimovich

*Farg'ona davlat universiteti sirtqi bo'lim boshlig'i
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Har qanday maqsad va islohotlar natijadorligiga ilm-fan bilan yetib boriladi. U qayerda rivojlanmasin, paydo bo'lmasin, jahon taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Buni rivojlangan davlatlar yuksalishida ilm-fan asosiy omil vazifasini o'tayotganidan ham ko'rish mumkin.

Shu bois, mamlakatimizda ilm-fanga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, ta'lim sohasida keyingi olti yilda ulkan o'zgarishlar, yangilanishlarga boy bo'ldi. Bilim dargohlarining qiyofasi tubdan o'zgarib, moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi. Bu o'z navbatida, ta'limning sifati va darajasini oshirgan holda, yoshlar o'rtasida oliy ta'lim olishga bo'lgan ishtiyoqni kuchaytirdi.

Ilgari oliygohlarga o'qishga kirish juda qiyin edi. Kvotalar kam, qabul imtihonlarida turli muammolar bor edi. Yurtimizda bu masalalar hisobga olinib, oliy ta'limga qabul kvotasi yildan-yilga oshirilmoqda. Bu, o'z navbatida, yoshlarni bilimli, malakali, jahon taraqqiyotiga mos mutaxassislar etib tayyorlash, ularning hayotda o'z o'rnini topishiga xizmat qilayotir.

Mamlakatimizda yoshlarning oliy ta'lim olishiga katta sharoitlar yaratib berilyotgani tufayli oliy ta'lim muassasalari soni 2,5 barobarga ortib, 200 tadan ortdi. Qamrov darajasi esa 9 foizdan 41 foizga oshdi. Eng muhimi, oliy ta'lim olish uchun imtiyozli kreditlash tizimi, ayollarga foizsiz kredit ajratish amaliyoti joriy qilindi.

E'tibor bering, 2017-yilga qadar oliy ta'lim muassasalarida grant o'rinlari soni faqat qisqarib kelgan bo'lsa, so'nggi yetti yilda grantlarni ko'paytirish yo'lidan borildi. Xususan, o'tgan davrda oliy ta'limga ajratilgan davlat grantlari soni 75 foizga, ehtiyojmand oilalar farzandi bo'lgan xotin-qizlar uchun davlat grantlari soni ikki baravarga oshirildi.

Oxirgi olti-yetti yilda ta'lim tizimida uzoqni ko'zlab amalga oshirilgan islohotlar nafaqat mamlakatimizda katta ijobiy o'zgarishlarga olib keldi, hatto xalqaro maydonda ham yurtimiz obro'-e'tiborini yangi bosqichga olib chiqdi. Sohaga doir bir qator qonunlar, Prezident farmon va qarorlari qabul qilindi.

Birgina 2020-yilda "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning qabul qilingani davlatimizning shu boradagi maqsadlarini aniq ifodalab berdi, desak mubolag'a emas. Ushbu hujjatda ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Masalan, qonunning 5-moddasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi belgilab qo'yildi. Bu nima degani? Bu har bir yosh o'zi istagan oliy ta'lim dargohida o'qiydi, ta'lim oladi, degani. Hujjatning 11-moddasidan esa oliy ta'lim bo'yicha alohida qoidalar o'rin olgan.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ham oliy ta'lim sohasida davlat xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish belgilangan. O'tgan qisqa davrda ushbu Konsepsiya sohada ta'lim sifatini oshirish yo'lida tub islohotlarni olib borishga imkon berdi.

Davlat dasturi doirasida davlat oliy ta'lim muassasalarida ularning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha masofaviy ta'lim shakli joriy etish, davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari faqat davlat granti bo'yicha tasdiqlanishi, respublikada faoliyat yuritayotgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari hamda nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida davlat granti asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha 1000 ta o'rin ajratish belgilangan. Bu vazifalarning ijrosi ham qamrov darajasini oshirish, ertamiz egalarining orzu-istaglarini ro'yobga chiqarishga xizmat qilishi aniq.

Bular hali hammasi emas. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 51-moddasida Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqliligi, oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga egaligi belgilab qo'yildi.

Bu esa mamlakatimizda yoshlar siyosati ustuvor ekanligiga zo'r ishoradir. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad iqtidorli yoshlar uchun davlat granti asosida bakalavriat va magistratura bosqichida ta'lim olish orqali hayotda o'zlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatini kengaytirishdir.

Albatta, ta'lim sohasiga bu darajada katta e'tibor qaratilayotgani bejiz emas. Binobarin, yurtimizni taraqqiyotning yangi bosqichiga olib chiqish, barcha kuch-g'ayratni birlashtirish va fidokorona mehnat qilish orqali Yangi O'zbekistonni, pirovardida, Uchinchi Renessans po'ydevorini bunyod etish mumkin.

Bundan tashqari, xalqaro miqyosda ham ta'lim sohasida yetakchi o'rinlarni egallash maqsadida ko'plab tanlovlarda oliy ta'lim muassasalarining faol ishtiroki ta'minlanmoqda. Birgina misol, yurtimizdagi 28 ta oliy o'quv yurti TOP-1000 talik reytingga kirish uchun da'vogar sifatida qayd etildi. Ushbu reytingda universitetlarning 4 ta yo'nalishdagi samaradorlik ko'rsatkichlari baholandi. Tanlovda belgilangan ushbu mezonlardan ham ko'rinib turibdiki, oliy o'quv yurtlaridagi o'quv va tashkiliy samaradorlik sezilarli o'sib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlarni nodavlat ta'lim xizmatlari, jumladan Yevropa davlatlaridan Germaniya, Buyuk Britaniya va Osiyo mamlakatlaridan Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya tizimi turlicha tashkil etilgan bo'lsa-da, ulardagi o'quv, o'quv uslubiy ishlari tashkil etilishi ham ijobiy tomonlari bilan ajralib turadi.

Ushbu xalqaro kuzatuvlar natijasida mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini ham yangi bosqichga olib chiqish davri keldi. Chunki biz zamonaviy bilim va texnologiyalarni egallagan avlodni kamol toptirishimiz lozim. Birinchi ish esa aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinganlik darajasini muttasil oshirib borishdan iborat bo'ladi.

Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimiga nodavlat va xususiy sektorning, ko'plab xorijiy oliy o'quv yurtlari va filiallarining kirib kelishi ijobiy holat bo'ldi. Bir jihatdan oliy ta'limning qamrovi kengaysa, ikkinchidan, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari o'rtasida ijobiy ma'nodagi o'zaro raqobatni ta'minlaydi, tizimda bozor qonunlari ishlay boshlaydi.

Umuman olganda, mamlakatimiz ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos yuqori malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Maqsad bitta: oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish hamda zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat.

К ПРОБЛЕМЕ СОСТОЯНИЯ КОГНИТИВНЫХ ФУНКЦИЙ СТУДЕНТОВ В КОНТЕКСТЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СМАРТФОНА

Лактионова Елена Борисовна

доктор психологических наук, профессор, заведующий кафедрой психологии развития и образования, Российский государственный педагогический университет им. А. И. Герцена

Пежемская Юлия Сергеевна

кандидат психологических наук, доцент кафедры психологии развития и образования, Российский государственный педагогический университет им. А. И. Герцена

Знова Елизавета Геннадьевна

студентка магистерской программы «UX-аналитика и проектирование информационных систем» Санкт-Петербургского филиала Национального исследовательского университета «Высшая школа экономики»

Аннотация: Актуальность исследования состояния когнитивных функций студенческой молодёжи в контексте экранного времени смартфона и погруженности в интернет-среду обусловлена возрастающим влиянием интернет-среды на учебную продуктивность студентов. Научные исследования выявляют снижение академической успешности студентов при длительном, интенсивном и «многозадачном» использовании цифровых устройств. В качестве наиболее уязвимых определяют когнитивные функции, которые лежат в основе саморегуляции и опосредуют учебную успеваемость. Цель исследования: пилотажная оценка и сравнительный анализ состояния когнитивных функций студенток с разным уровнем экранного потребления и погруженности в интернет-среду.

Ключевые слова: экранное время, когнитивные функции, внимание, память, когнитивный контроль, погруженность в интернет-среду, студенты.

TO THE PROBLEM OF THE STATE OF COGNITIVE FUNCTIONS OF STUDENTS IN THE CONTEXT OF SMARTPHONE USE

Abstract: The relevance of the study of the state of cognitive functions of student youth in the context of their immersion in the Internet environment and smartphone screen time is due to the increasing influence of the Internet on students' academic productivity. Scientific studies reveal a decline in students' academic success with prolonged, intensive and "multitasking" use of digital devices. The purpose of the study: assessment and comparative analysis of the state of cognitive functions of female students with different levels of screen consumption and immersion in the Internet environment.

Keywords: screen time, cognitive functions, attention, memory, cognitive control, internet immersion, students.

Современные научные исследования особое внимание уделяют воздействию информационной среды на индивида и общество. В настоящее время жизнь человека

неразрывно связана с интернет-пространством. Использование возможностей информационно-коммуникативных технологий стало особенно важным как для системообразующих структур общества, таких как образование и здравоохранение, так и для индивидуальных потребностей каждого человека (удаленная работа, онлайн-покупки продуктов и лекарств и т.д.).

Воздействие интернета на человека настолько глобально, что в настоящее время сложно дать однозначную оценку его влияния. Одни исследователи считают, что интернет оказывает негативное влияние на личность человека, в то время как другие выделяют значительные положительные изменения в психологической сфере личности, рассматривая его как формирование «расширенного сознания» или «расширенного мышления» [1]. Цифровая среда также рассматривается исследователями как новый фактор социализации, изменяющий привычные паттерны поведения, коммуникации, обучения и совладания с проблемами [2]. Планово изучаются аспекты, которые интернет-среда может предложить для повышения качества жизни человека, а также для эффективного использования в профессиональной сфере, например, педагогической [3; 4]. В рамках анализа взаимодействия человека с информационной средой особое внимание уделяется её влиянию на ценностные, смысловые и мотивационные аспекты личности, исследуются характеристики личности, склонной к различным формам девиантного поведения в интернет-среде [5]. Активно разрабатывается научное направление исследований человек-компьютерное взаимодействие, большая часть исследований данного направления посвящена поведенческим аспектам [6].

Отмечается недостаточность исследований погруженности в интернет-среду в контексте когнитивных функций учащейся молодёжи, которые были бы актуальными и востребованными для разработки научных основ практик обучения [7], позволяющих снизить «негативное воздействие интернета и использовать его возможности для формирования благоприятных нейрокогнитивных изменений» [8].

Когнитивная сфера человека в студенческом возрасте достаточно сформирована для эффективной обработки больших объёмов информации. «Основные когнитивные функции в студенческом возрасте устойчивы, но при этом сохраняют пластичность, широкие адаптационные возможности, способность к повышению эффективности при тренировке, рациональном планировании интеллектуальных нагрузок, оптимальной конфигурации средовых факторов» [9, с.60].

Влияние на когнитивные процессы могут оказывать различные биологические, личностные факторы и факторы среды. Негативные средовые факторы, в том числе факторы интернет-среды, могут помешать в полной мере раскрыть потенциал когнитивных функций, снизить способности к овладению новыми навыками, умениями, профессиональными компетенциями [10].

Экранное время или экранное потребление – это время, проведенное пользователем за экраном смартфона, которое фиксируется приложениями смартфона и отражает объективные показатели погруженности человека в интернет-среду. Такие приложения смартфона позволяют осуществлять родительский контроль за временем, проводимым несовершеннолетним ребенком в интернет-среде. В настоящее время исследование уровня погруженности и вовлеченности в интернет-среду и его воздействия на когнитивные функции обучающихся представляет собой вопрос, имеющий важное значение, особенно в обсуждении академической успешности и общей эффективности обучения студентов вузов.

Экранное время как объективный показатель погруженности человека в интернет-среду может отличаться от субъективного ощущения времени погруженности. В связи с этим важно одновременное исследование объективных и субъективных показателей погруженности в интернет-среду.

Существует определенный пул современных исследований цифровой среды, посвященный вопросам влияния интернета и использования смартфонов на когнитивное функционирование детей и подростков [11, 12, 13]. В качестве наиболее чувствительных к воздействию экранного времени рассматривают такие когнитивные процессы человека, как внимание, память и способность к отсроченному подкреплению, которые лежат в основе саморегуляции и во многом определяют академическую успеваемость [14, 15]. Немногочисленные нейрофизиологические исследования показывают, что у взрослых пользователей даже после кратковременного использования Интернета, например, осуществления онлайн покупок в течение пятнадцати минут, внимание пользователя перестраивается и начинает фокусироваться на деталях, упуская целое.

Таким образом, исследования показывают, что длительное экранное потребление и погруженность человека в интернет-среду могут приводить к формированию нерациональных поведенческих стратегий у пользователей, приводящих в конечном счете к перестройке когнитивных процессов, уменьшению когнитивных возможностей.

Данное исследование носило пилотажный характер. Целью исследования являлась оценка и сравнительный анализ состояния когнитивных функций девушек студенческого возраста с разным уровнем экранного потребления и погруженности в интернет-среду.

В рамках исследования изучались когнитивные функции, измеряемые при взаимодействии с интернет-средой: восприятие, внимание и память. Дополнительно, для оценки состояния когнитивной сферы производилась оценка когнитивного контроля и исполнительных процессов в целом.

Гипотеза исследования заключалась в предположении о существовании различий в состоянии когнитивных функций у студенток с разным уровнем экранного потребления.

Проведение диагностики состояния и продуктивности основных когнитивных функций: память, внимание и восприятие, когнитивный контроль с помощью следующих методик: «Заучивание 10 слов» (Лурия А. Р.); «Корректирующая проба» (Бурдон Б.); «Тест последовательных соединений» (ТМТ), часть А (Рейтан Р. М.); Тест «Go–No Go» (Дондерс Ф.); Тест Струпа (Струп Д. Р).

Выборку составили 45 студенток, обучающихся в институте психологии РГПУ им. А. И. Герцена и использующих модели смартфонов, отображающих статистику экранного времени. Средний возраст респондентов составил 21 год. Процедура диагностического исследования происходила индивидуально с каждым респондентом, в первой половине дня (до 14:00), для сокращения побочных влияний в процессе диагностики. Также для исключения излишнего утомления респондента порядок предъявления сложных когнитивных методик чередовался с более простыми. Среднее время проведения индивидуальной диагностики составило 25 минут. Следует также отметить, что все респонденты принимали участие в исследовании после информирования об исследовании и выразили личную заинтересованность в своём участии, т.е. дали мотивированное согласие.

При анализе данных со смартфонов респондентов был выявлен средний показатель общего экранного времени за неделю – 48 часов 40 минут (2920 минут), при пересчете на ежедневное экранное потребление – 6,9 часов в день. Наиболее популярными приложениями в выборке оказались: Telegram, VK, Instagram. Ими пользуются 95%, 79% и 64% респондентов выборки соответственно. Наиболее затягивающими пользователя приложениями являются различные игры, YouTube и мессенджеры, в которых пользователь проводит от 8 до 12 часов в неделю.

Далее выборка пользователей была разделена по уровню общего экранного потребления в соответствии со средним значением и стандартным отклонением на три группы:

1. Пользователи с высоким уровнем общего экранного времени –используют смартфон более чем 64 часа в неделю, что в среднем составляет более 9 часов в день – 19%;

2. Пользователи со средним уровнем общего экранного времени –используют смартфон от 33 до 63 часов в неделю (от 4,7 до 9 часов в день) – 71%;

3. Пользователи с низким уровнем общего экранного времени – используют смартфон менее 33 часов в неделю (менее 4,7 часов в день) – 10%.

Для сравнения показателей продуктивности таких когнитивных функций как концентрация внимания и средний объём памяти между группами с различным уровнем экранного потребления был проведен дисперсионный анализ. По результатам дисперсионного анализа можно сделать вывод о существовании достоверных различий между респондентами с разным уровнем общего экранного времени по показателям концентрации внимания и объема памяти, однако требуется увеличение объема выборки для проведения полноценного сравнительного анализа между группами.

Выявлено, что респонденты с высоким уровнем экранного потребления более 64 часов в неделю обладают сниженной точностью исполнительных процессов, скоростью восприятия, и переключаемости внимания в сравнении с респондентами других групп. Индекс точности внимания данных респондентов ниже, чем у респондентов со средним уровнем экранного потребления. Отметим, что результаты данной группы несколько выше, чем результаты у группы с низким уровнем общего экранного времени, однако, последующее попарное тестирование данных групп Н-критерием Краскелла-Уоллиса не показал значимых различий, что говорит о высоком вкладе в общую значимость различий именно с группой со средним уровнем общего экранного времени.

Респонденты с высоким уровнем экранного потребления не выполнили установленные нормативы. В группе респондентов с низким и средним уровнем экранного времени смартфона результаты теста соответствуют нормативным показателям МССВ для возрастного промежутка 20-29 лет. В связи с этим, можно предположить, что скорость восприятия существенно снижена у респондентов с высоким уровнем экранного потребления, однако, данный результат требует более детального изучения в будущем (возможно респонденты показывают худший результат при предъявлении методики на бумажном носителе, а при предъявлении в электронном виде их результаты улучшатся).

Участники исследования со средним уровнем экранного потребления, в большинстве тестов показывают более высокие результаты: у них выявлена лучшая скорость восприятия, более эффективные показатели внимания (переключение и индекс точности).

В группе респондентов с низким уровнем экранного времени смартфона, в связи с малочисленной выборкой, нельзя сделать определенные заключения о продуктивности когнитивных функций.

Подводя итоги проведенного пилотажного исследования, можно обозначить перспективы его продолжения в контексте развития когнитивных функций студентов и школьников на разных ступенях образования через расширение выборки, сравнение разных групп по возрасту и полу, анализу характера использования Интернета и целей использования обучающимися социальных сетей.

Важно также отметить, что участие в исследовании может рассматриваться как первичная профилактика технологической зависимости. Полученные результаты являются информативными для респондентов, поскольку позволяют им оценить уровень погруженности в интернет-среду в контексте психогигиены собственной когнитивной сферы.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Nijssen S. R. R., Schaap G., Verheijen G. P. Has your smartphone replaced your brain? Construction and validation of the Extended Mind Questionnaire (XMQ) // PLoS ONE. 2018. Vol. 13, issue 8: e0202188. <http://doi.org/10.1371/journal.pone.0202188>
2. Пежемская Ю. С., Сомова Н. Л., Гусева В. В. Онлайн- и офлайн-копинг-стратегии школьников с разным уровнем проблемной отягощенности // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. 2023. № 207. С. 176–190. <http://doi.org/10.33910/1992-6464-2023-207-176-190>
3. Тумалев А. В., Головки А. А. Влияние цифровых технологий на качество профессиональной подготовки будущих учителей // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. 2023. № 207. С. 28–36. <http://doi.org/10.33910/1992-6464-2023-207-28-36>
4. Сигачев М. Ю., Галимов А. М. Цифровая образовательная среда: подготовка будущих педагогов по физкультуре и спорту к взаимодействию с учащимися // Известия Российского государственного педагогического университета имени А. И. Герцена. 2023. № 208. С. 115–127. <http://doi.org/10.33910/1992-6464-2023-208-115-127>
5. Зекерьяев Р. И. Психологические особенности эмоциональной направленности личности, склонной к кибербуллингу // Психология человека в образовании. 2023. Т. 5, № 3. С. 426–434. <https://doi.org/10.33910/2686-9527-2023-5-3-426-434>
6. Carroll J. M. (ed.) HCI Models, Theories, and Frameworks: Toward a Multidisciplinary Science. Elsevier Inc. 2003. 551 p. <https://doi.org/10.1016/B978-1-55860-808-5.X5000-X>
7. Пежемская Ю. С., Петрова Т. В., Ши Х., Сюй Ю. Дополненная реальность в практике повышения успешности обучения студентов из Китайской Народной Республики // Психология человека в образовании, 2023. Т. 5, № 1. С. 43–61. <https://doi.org/10.33910/2686-9527-2023-5-1-43-61>
8. Баранская Л. Т., Горбов А. А., Грипич Е. Д. Влияние интернет-технологий на когнитивную деятельность студентов и учащихся // Вестник УГМУ. 2021. № 1(52). С. 72–76. URL: <https://usma.ru/vestnik/vliyanie-internet-texnologij-na-kognitivnuyu-deyatelnost-studentov-i-uchashixsya/> (дата обращения 25.12.2023)
9. Кузнецов В. В., Косилов К. В., Костина Е. Ю., Карашук Е. В., Федорищева Е. К., Барабаш О. А. Оценка когнитивных функций студентов медицинских университетов в процессе обучения, связанная с состоянием их здоровья // Исследования и практика в медицине. 2021. Т. 8, № 1. С. 85–96. <https://doi.org/10.17709/2409-2231-2021-8-1-9>
10. Акопова М.А. Развитие когнитивных компонентов академических способностей студентов педагогических специальностей // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал). 2015. Т. 8, № 52. С. 268–278. <https://doi.org/10.12731/2218-7405-2015-8-22>
11. Вятлева О. А. Влияние использования смартфонов на самочувствие, когнитивные функции и морфофункциональное состояние центральной нервной системы у детей и подростков (обзор литературы) // Вопросы школьной и университетской медицины и здоровья. 2020. № 1. С. 4–11. EDN: ZPMQWA
12. Каркашадзе Г.А., Намазова-Баранова Л.С., Вишнева Е.А. и др. Цифровые устройства и когнитивные функции у детей // Вопросы современной педиатрии. 2021. Т. 20, № 6. С. 506–520. <https://doi.org/10.15690/vsp.v20i6.2357>
13. Новикова И. И., Зубцовская Н. А., Лобкис М. А., Кондращенко А. И. Оценка влияния мобильных устройств связи на когнитивные функции учащихся // Здравоохранение Российской Федерации. 2022. Т. 66, № 3. С. 227–231. <https://doi.org/10.47470/0044-197X-2022-66-3-227-231>

14. Firth J., Torous J., Stubbs B., Firth J. A., Steiner G. Z., Smith L., Alvarez-Jimenez M., Gleeson J., Vancampfort D., Armitage C. J., & Sarris J. The “online brain”: how the Internet may be changing our cognition // *World psychiatry: official journal of the World Psychiatric Association (WPA)*. 2019. Vol. 18, issue 2. P. 119–129. <https://doi.org/10.1002/wps.20617>

15. Wilmer H. H., Sherman L. E., & Chein J. M. Smartphones and Cognition: A Review of Research Exploring the Links between Mobile Technology Habits and Cognitive Functioning // *Frontiers in psychology*. 2017. Vol. 8, issue 605. P.1–16. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2017.00605>

TALABALARDA IJTIMOYIY DAXLDORLIK FAZILATINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI VA PEDAGOGIK JIHATLARI

Abdullayev Sobirjon Soxib o‘g‘li

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirish zarurati, uning yoshlar ongida ijtimoiy mas‘uliyat, burch va majburiyatlarni shakllantirishdagi o‘rni yoritiladi. Global tahdidlar va migratsiya jarayonlari fonida ijtimoiy daxldorlikning ahamiyati, ta‘lim tizimida mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Xususan, oliy ta‘lim tizimida adolatli va erkin ta‘lim muhitini yaratish, intellektual salohiyatni oshirish va yoshlarni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash zarurligi ta‘kidlanadi. Shuningdek, globallashuv va axborot asrining salbiy ta‘sirini yengishda ijtimoiy daxldorlikni shakllantirish muhim omil sifatida ko‘rsatilib, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarning roliga alohida e‘tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy daxldorlik, ijtimoiy mas‘uliyat, intellektual salohiyat, globallashuv, milliy qadriyatlar, axboriy tahdidlar

O‘zbekistonning yangi rivojlanish bosqichida talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini rivojlantirish orqali yoshlar ongida ijtimoiy mas‘uliyatni, burch va majburiyatlarni anglashlariga doir pedagogik vazifalarni ham bajarish mumkin. Bugungi kunda butun dunyoda ro‘y berayotgan inson ongi va qalbi uchun kurash jarayoni yoshlarda daxldorlikni rivojlantirish, mas‘ullik va vatanparvarlikni shakllantirish dolzarblik kasb etmoqda. Zero, “ayni vaqtda dunyoning ba‘zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o‘z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda”[21;111-b]. Shuning uchun ham jamiyatda ijtimoiy daxldorlik mas‘uliyatini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari bilan birga ularning ijtimoiy vazifalari nima ekanligini tushuntirish, o‘rgatish, ta‘lim orqali singdirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mazkur vazifalarning tarkibiy qismi sifatida talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini shakllantirish pedagogik jarayonning muhim ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda oliy ta‘lim tizimidagi pedagogik jarayonning asosiy kamchiliklaridan biri adolatli va erkin ta‘lim olish va ta‘lim berish muhitining mavjud emasligi, ta‘lim berish metodikasining juda esiligi bo‘lib qolmoqda. Chunki bugungi zamon kadrlar tayyorlash tizimidan yangicha bilim va ko‘nikmalarga ega mutaxassislarni talab etmoqda. Davlatimiz rahbari fikrancha, “biz ulug‘ bobolarimizning munosib davomchilari bo‘ladigan yetuk insonlarni tarbiyalash masalasiga, afsuski, yetaricha e‘tibor bermadik. Holbuki, intellektual va madaniy salohiyatning qanday noyob boylik ekanini, nodir talant egalarini tarbiyalab kamolga yetkazish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini unutishga haqqimiz yo‘q. Rivojlangan mamlakatlar bugungi yuksak taraqqiyot darajasiga aynan shuning hisobidan yetgani – bu ham haqiqat”[21;140-b].

Shuning uchun birinchi navbatda yoshlarni intellektual salohiyatini oshirish, bilim va e'tiqodini mustahkamlash bilan birga ularda daxldorlik fazilatlarini shakllantirimasak, ularning salohiyatidan, bilim va iqtidoridan boshqa davlatlar foydalanishi, kadrlarni chetga chiqib ketishiga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Zero, "mamlakatimizda katta ilmiy salohiyatga ega bo'lgan ayrim olimlar, iste'dodli yoshlar o'rtasida xorijiy davlatlarga ketib qolish holatlaari ham yo'q emas. Qancha-qancha o'zbek yigitlari, o'zbek qizlari bugun chet ellarda yirik kompaniya va banklarda, nufuzli universitetlar, xalqaro tashkilotlarda katta-katta lavozimlarda xizmat qilmoqda. Men shaxsan o'zim xorijiy mamlakatlarga safarim chog'ida o'nlab ana shunday vatandoshlarimiz bilan uchrashib, muloqotda bo'ldim"[21;140-b]. Darhaqiqat, ko'plab yoshlarni, yetuk kadrlarni va kuchli mutaxassislarni chet davlatlarga chiqib ketib qolishi, o'z ish faoliyatini o'sha joylarda davom ettirishini bir qarashda unchalik yomon tomoni bo'lmasligi mumkin, aksincha, ular bu davlatlarda ishlab, yurtiga, oilasiga yaxshigina moddiy ko'mak bo'layotgani ha aniq. Biroq ularning aql-zakovatidan, bilimidan, kadr sifatida salohiyatidan uni o'n yillab o'qitgan mamlakat emas, boshqa davlatlarni foydalanishi ham adolatdan bo'lmaydi. Bu borada davlatimizdagi ijtimoiy adolat, kadrlarga bo'lgan munosabat, ularning o'z iqtidorlarini namoyon qilishlariga berilayotgan imkoniyat, ishga qabul qilishda va kadrlar tanlovidagi halolik va shaffoflikning ham unchalik qoniqarli emasligi bu holatlarni kelib chiqishiga ham ta'sir ko'rsatdi, albatta. Biroq bugungi islohotlar zamonida adolatli ijtimoiy muhitni, qonun ustuvorligini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bilan birga ularda daxldorlik hissini shakllantirishimiz ham muhim ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib qoldiqda. Bunday vazifani albatta ta'lim tizimiga yuklash, ta'lim berish metodikasini o'zgartirish bilan yoshlarga ta'sir ko'rsatishning yangicha tamoyillarpini shakllantirish, vatanni sevish, unga xizmat qilish va vatan bilan bog'liq ekanligini har doim anglashlariga o'rgatish muhim vazifalardan biridir.

Jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni shakllantirish uchun avvalo ijtimoiy daxldorlikni shakllantirish zarur. Bu orqali jamiyat a'zolarida ijtimoiy mas'uliyatni va burchni shakllantirish, va natijada g'oyaviy-mafkuraviy birlashuvni shakllantirish dolzarb vazifalaridan biridir. Zero, "ayni vaqtda yana bir haqiqatni ham hech esdan chiqarmasligimiz kerak. Eng katta, bebaho boyligimiz bo'lgan tinchlikka raxna solish, turli xalqlar[23;149-b] o'rtasida urush olovini yoqish, milliy va diniy ziddiyatlarni avj oldirishga urinayotgan kuchlar ham yo'q emas. Bunday yovuz kuchlarga qarshi kurashda avvalo doimiy hushyorlik va ogohlik, jag'olatga qarshi- ma'rifaat, butun xalqimizning birligi va hamjihatligi hal qiluvchi rol o'ynaydi". Shuningndek, jamiyatda plyuralistik dunyoqarash va tolerant munosabatlarni o'rnatish, ta'lim jarayonida ijtimoiy beqarorlikni shakllanishining salbiy oqibatlarini ko'rsatib berish orqali yoshlarda mansublik va daxldorlikni oshirish mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda talabalarda ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini shakllantirish orqali ularni turli tahdidlar, xurujlar va boshqa axboriy tajovuzlarga qarshi mustahkam pozitsiyada tura olishlarini tarbiyalash mumkin bo'ladi. Chunki bugungi axboriy kurash asrida yoshlarni bir makon hisi va ijtimoiy daxldorlik sifatini shakllantirish jamiyatning rivojlanishida ham, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashda ham muhim omil bo'ladi. Globallashuvning oqibatlari haqida fikr yuritar ekan, ba'zi mutaxassislar zamonaviy aloqa vositalari yoshlarni o'ziga ohanrabodek tortayotgani sababli, "Internet avlodi", "Google bolalari" yoki "Facebook farzandlari" singari iboralar paydo bo'lganiga alohida urg'u bermoqdalar. Ularning fikricha, bu hol o'g'il-qizlarimiz tarbiyasi birovlarining qo'lga o'tib qolishi ehtimolini oshiradi. Chunki ularga ota-onadan ko'ra internet yoki uyali telefon ko'proq "tarbiya" bera boshlaydi[142]. Shu bilan birga, ayrim Yevropa davlatlarida "an'anaviy hokimiyatni tan olmaslik, undan qo'rqmaslik" g'oyasi ostida birlashayotgan NET avlod, internet bolalari yoki fuqarolari (netizens) guruhi paydo bo'ldi. Bu guruh davlat hokimiyatining rasmiy xabarlariga qarshi chiquvchi siyosiy kiber xalqaro uyushma sifatida tashkil topdi [143]. "Shunga ko'ra, G'arb gumanizmida fanlari tilida "inson degradatsiyasi", "shaxsning yemirilishi", "odamning qiyofasizlashuvi", "sivilizatsiya shomi" singari tushkun iboralar ko'payayotganini tushunish mumkin"[83;24-b]. Bunday vaziyatda talaba-yoshlarda ijtimoiy daxldorlikni shakllantirish orqali shaxsning yemirilishi, begonalashuvi

va kosmopoliten fuqaroning shakllanishini olini olish mumkin. Globallashuvning salbiy jihatlari bilan uyg'unlashib borayotgan bunday holatlar, deya ta'kidlaydi atoqli olim H.Shayxova, axborot sohasidagi xavf-xatarlarining oqibatlarini, bu boradagi tahdidlarning mazmun-mohiyatini dalillar asosida fosh etish va barcha yoshlar qatori, talabalarni ham ma'rifiy va ma'naviy jihatdan himoya qilish har bir ziyoli, o'qituvchi, ma'naviyat va ma'rifat xodimining dolzarb burchiga aylanganidan dalolat beradi[115]. Shu sababdan, oliy o'quv yurtlarida o'qiyotgan talabalarining axloqiy madaniyatini shakllantirish va bu yo'nalishda tarbiya qilish muammosi davr talabiga aylandi, deyish uchun barcha asoslarimiz bor. XX asr boshida yangragan atoqli ma'rifatparvar bobomizning bu purhikmat so'zlari, 100 yil ilgari millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lsa, hozirgi kunda ta'lim tizimidagi islohotlar hamda yurtimizda yuqori malakali kadrlar tayyorlash uchun ham shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarbligini isbotlashga hojat yo'qligi shubhasiz[47;392-b]. Shunday ekan, oliy ta'limda talabalarda yuksak axloqiy madaniyatni shakllantirish, va bu orqali ijtimoiy daxldorlikni rivojlantirish vazifalari kelib chiqadi.

Bugungi kunda mamlakatimizning yangi rivojlanish bosqichida oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ijtimoiy daxldorlik fazilatlarini asosida tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimining sifatini oshirishga qaratilgan vazifalarning ahamiyati ham tobora ortib bormoqda. Ayni paytda, buni inobatga olingan holda, mamlakatimiz ta'lim muassasalarida ham ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirish barobarida, aniq maqsadga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda[119]. Bu tizimning eng asosiy maqsadlaridan biri – talabalarining zamonaviy dunyoqarashini shakllantirish, ularni ilm-fan yutuqlaridan bahramand etish bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy yetukligini ta'minlash, bu boradagi ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etishdan iboratdir. Shu bilan birga, bu borada ham yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, ular o'z intellektual salohiyatlarini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar eshigini ochish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva Sh. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik diagnostika. – Toshkent: Fan, 2005. – 25 b.
2. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
3. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik (Asqar Mahkam tarjimasini). – Toshkent: Sharq, 2001. – 400 b.
4. Azizxodjayeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2000. – 52 b.
5. Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari / Maktab o'qit. va ped.inst.talabalari uchun qo'll. – Toshkent: O'qituvchi, 1995. – 56 b.
6. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. (Darslik. – Toshkent: Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005. – 304 b.
7. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – Toshkent: Istiqlol. 2003. – 244 b.
8. Azizxodjayeva N.N. Основные тенденции развития высшего педагогического образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1990. – 143 с.

ORGANIZING RESEARCH AND PRACTICAL ACTIVITIES IN STEM EDUCATION: THE ROLE OF SUMMER AND WINTER SCHOOLS

Kazhymukan Kelesbayev

PhD-student, Faculty of Natural Sciences, Khoja Akhmet Yassawi International Kazakh-Turkish University, Turkestan, Kazakhstan;

Ramankulov Sherzod

PhD., Ass.Prof. Faculty of Natural Sciences, Khoja Akhmet Yassawi International Kazakh-Turkish University, Turkestan,, Kazakhstan;

Karimzhanov Yakhyo

Junior researcher, Faculty of Natural Sciences, Khoja Akhmet Yassawi International Kazakh-Turkish University, Turkestan, Kazakhstan;

Pattayev Amin

Research associate, Scientific Research Institute «Natural Sciences, Nanotechnologies and New Materials», Khoja Akhmet Yassawi International Kazakh-Turkish University, Turkestan, Kazakhstan;

Abstract: Nowadays, students' interest in science and technology is declining, and a noticeable gap between theoretical knowledge and practical experience is emerging. This issue necessitates the effective implementation of the STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) education system. This study explores the role of summer and winter schools as a mechanism for organizing research and practical activities within the framework of STEM education. The aim of the study is to identify ways to enhance students' scientific and practical engagement through summer and winter schools and to foster their interest in STEM fields. Practical sessions and qualitative data analysis were used in the research. The results showed that summer and winter schools contribute to the development of students' practical skills, the formation of problem-solving thinking related to scientific issues, and the enhancement of teamwork abilities.

This research has been/was/is funded by the Science Committee of the Ministry of Science and Higher Education of the Republic of Kazakhstan (Grant AP22784343).

Keywords: STEM education, summer school, winter school, research, practical work, practical skills.

Introduction

In today's world, the rapid advancement of science and technology imposes new demands on the education system. In particular, the STEM (Science, Technology, Engineering, Mathematics) education system plays a crucial role in developing students' research and practical skills. However, traditional teaching methods cannot fully bridge the gap between theory and practice, which leads to a decrease in students' interest in natural sciences, mathematics, and engineering disciplines. One way to address this issue is to provide students with additional learning environments. Among them, summer and winter schools serve as effective tools for organizing STEM-related research and practical activities.

Van Rooyen and his research team explore the impact of accelerated learning courses on students' academic performance. The authors highlight that summer and winter schools can compensate for the shortcomings of the traditional learning process and help reduce the overall study period. Their research also points out that such schools not only provide in-depth knowledge in STEM subjects but also enhance students' research abilities and reinforce theoretical knowledge through hands-on experience [1].

The implementation of summer and winter schools contributes to the development of students' engineering and technological skills, allowing for a balanced integration of theory and practice. By organizing such programs, talented students are given opportunities to engage in research and develop practical skills. This underscores the need for effective design of STEM

teaching strategies. Summer and winter schools serve as a structural foundation to increase students' research engagement. Thus, within the framework of STEM education, these schools can become a significant platform for the development of research and practical training [2].

Active student participation in the learning process during summer and winter schools increases their interest in conducting research and enhances their professional readiness in STEM fields. Through the use of inquiry-based learning methods, students gain practical knowledge in solving scientific and engineering problems. This study demonstrates the effectiveness of organizing research and practical work within STEM, showing that summer and winter schools make a significant contribution to the education system [3].

In her study, S. Deak identifies the effectiveness of integration flow and skills balance approaches in the development of STEM pedagogy. Furthermore, the inquiry-based approach not only facilitates the integration of STEM subjects and the development of students' research skills but also connects STEM knowledge with practice, fostering students' critical thinking. Summer and winter schools are considered important platforms for the application of innovative methods in STEM pedagogy, strengthening students' practical skills and engaging them in research activities [4].

In summary, summer and winter schools are regarded as important platforms for the development of research and practical training within the STEM education system. They help integrate students' theoretical and practical skills, encourage research activities, and enhance competencies in engineering and technological fields. These schools not only increase students' research engagement but also serve as an effective tool to spark their interest in STEM areas. Therefore, further enhancement of the potential of summer and winter schools is one of the key directions in improving the STEM education system.

Methods

This study examined the role of summer and winter schools in organizing research and practical activities within the STEM education system. The approach aims to foster students' scientific thinking by promoting the development of their natural science, mathematics, and engineering skills and engaging them in research projects. STEM integration focuses on implementing research- and practice-based teaching methods to enhance students' scientific competencies.

During the research, the following keywords were selected: "STEM education," "research skills," "summer school," "winter school," "engineering education," "practical training," "educational integration," "research activities," and "practical skills." These represent the core components of STEM-based teaching methodology. The analysis of academic literature sourced from the *Mendeley.com* database demonstrated that the STEM approach contributes to students' understanding of interdisciplinary connections and helps complement their theoretical knowledge with hands-on experience.

Practical Method: Laboratory work, engineering projects, and hands-on tasks conducted in summer and winter schools aimed to improve students' research skills. Activities such as engineering design, physical experiments, and the use of technical equipment provided opportunities for students to apply theoretical knowledge in practice.

Theoretical Method: The structure and content of STEM courses within summer and winter schools were analyzed to assess their educational value. This method focused on strengthening the connections between disciplines and deepening scientific inquiry.

This research was aimed at evaluating the effectiveness of summer and winter schools in developing students' research and practical skills within the STEM education system. A total of 112 students participated in the study.

Results and Discussion

A total of 54 students from grades 5 to 9 participated in the summer school program. The sessions were conducted outdoors in a natural environment as well as in specially equipped laboratory facilities. The program covered STEM-related subjects and was built around research-

based and hands-on learning activities. During the program, students explored projects related to renewable energy sources, such as solar panels and wind turbines, and gained an understanding of how these systems function. They also studied Arduino-based automated devices and enhanced their engineering and technical skills by assembling simple robotics systems. In addition, students engaged in chemistry experiments and practical tasks related to physical phenomena, which helped them connect theoretical concepts with real-world applications. These experiences allowed students to apply what they had learned in class through observation, experimentation, and project-based learning—enhancing both their conceptual understanding and practical abilities.



Figure 1. Summer School: Practical Lessons and Teamwork

During the summer school, students worked in small groups, collaborated on ideas, and created and presented creative posters. This process helped them develop essential skills such as teamwork, exchanging opinions, organizing thoughts, and public speaking. In an oral feedback survey, the majority of students stated that the summer school program was both engaging and beneficial. According to them, the hands-on activities increased their interest in science and technology and helped guide their future career aspirations. Some students expressed their intention to become engineers or IT specialists, demonstrating a positive attitude toward STEM fields.

However, the implementation of the summer school also faced certain limitations. Unfavorable weather conditions and limited equipment occasionally hindered some activities. Despite these challenges, student engagement remained high. On the contrary, such constraints encouraged them to come up with creative solutions and adapt by finding alternative approaches.

Overall, the summer school program not only enhanced students' research skills but also positively influenced their critical thinking, creativity, and engineering abilities. It effectively complemented the traditional educational process by providing a platform where students could integrate theory with practice, thus contributing to the development of active, motivated, and capable learners. Students of various age groups participated in the winter school. The event was held indoors, in a specially equipped laboratory environment. As part of the winter school program, lessons were organized that covered STEM-related projects, robotics, renewable energy sources, drones, 3D modeling, and virtual reality (VR) technologies.

Students assembled automated devices using the Arduino platform and completed hands-on projects such as robotic arms, wind turbines, and lighting systems powered by solar panels. Additionally, they worked with 3D printers, learned the basics of modeling, and performed educational tasks in virtual environments. These activities provided students with direct exposure to modern technologies and helped nurture their engineering mindset.



Figure 2. Winter School: Robotics and Virtual Laboratories

One of the unique aspects of the winter school was students' exploration of aerodynamics using drone and aircraft models. During the practical sessions, participants engaged in assembling parts, connecting electrical circuits, and even gained experience in remote control operation. In addition, through classroom exhibitions and project demonstrations, students shared ideas, worked in teams, and showcased critical thinking, creativity, and research skills.

The students demonstrated a high level of engagement throughout the event, asking scientific questions and actively participating in discussions. Many participants noted that practical work was more memorable and enjoyable than theoretical lessons.

Observation results from the winter school revealed a shift in students' attitudes toward learning, with a noticeable increase in their enthusiasm for science and technology. Teachers also provided positive feedback, emphasizing that such formats play a significant role in unlocking students' potential and guiding them toward future career paths. Although some technical limitations and equipment constraints were encountered, they did not diminish student motivation; instead, they encouraged creative thinking and the development of alternative solutions.

Overall, the winter school proved highly effective in fostering students' research skills, developing engineering and technological thinking, and increasing interest in STEM subjects. It demonstrated its value as a modern educational platform that complements traditional learning. Winter schools provide hands-on experiences and exposure to real-world research in fields such as optics, photonics, and other STEM areas, strengthening student interest—especially among youth taking their first steps into science and technology [5]. Similarly, summer schools offer students meaningful exposure to real STEM projects and experiments, significantly enhancing their interest and motivation in the field [6].

In general, both summer and winter schools have become vital components of the STEM education system. They not only help students develop research skills but also support their integration into scientific environments, assist in clarifying career goals, and increase their confidence in pursuing science. For young learners just beginning their journey in science and technology, these schools serve as powerful platforms for motivation and direction.

Conclusion

This study examined the role of summer and winter schools in organizing research and practical activities within the framework of STEM education. Through participation in these programs, students enhanced their skills by completing practical tasks, engaging in engineering projects, and conducting scientific research. The environment allowed them to connect theoretical knowledge with real-world applications, significantly increasing their interest in science and technology. The results demonstrated that summer and winter schools are effective platforms for developing students' creativity, critical thinking, and teamwork abilities. Additionally, these schools contributed to shaping students' career aspirations and fostering a

positive attitude toward STEM fields. The curriculum, which included hands-on and laboratory work, robotics, renewable energy, and virtual reality, supported the formation of students as inquisitive and research-oriented individuals. Thus, summer and winter schools are important tools for enhancing STEM education and can play a vital role in preparing a competitive, innovative, and forward-thinking young generation.

This research has been/was/is funded by the Science Committee of the Ministry of Science and Higher Education of the Republic of Kazakhstan (Grant AP22784343).

LIST OF SOURCES

1. Van Rooyen, L. M., Ontong, J. M., & Mitchell, Z. L. (2021). An investigation of the perceptions of South African students with regards to accelerated learning courses. *South African Journal of Higher Education*, 35(3). <https://doi.org/10.20853/35-3-3944>

2. Abdurrahman, Ariyani, F., Maulina, H., & Nurulsari, N. (2019). Design and validation of inquiry-based STEM learning strategy as a powerful alternative solution to facilitate gifted students facing 21st century challenging. *Journal for the Education of Gifted Young Scientists*, 7(1), 33–56. <https://doi.org/10.17478/jegys.513308>

3. ISDIANTĪ, M., NASRUDĪN, H., & ERMAN, E. (2021). The effectiveness of STEM based inquiry learning packages to improving students' critical thinking skill. *Journal for the Education of Gifted Young Scientists*, 9(3), 223–232. <https://doi.org/10.17478/jegys.832239>

4. Deák, C., Kumar, B., Szabó, I., Nagy, G., & Szentesi, S. (2021, July 1). Evolution of new approaches in pedagogy and STEM with inquiry-based learning and post-pandemic scenarios. *Education Sciences*. MDPI AG. <https://doi.org/10.3390/educsci11070319>

5. Kim, D., Chalifoux, B., Furenid, L., Jessen, P., Jones, J., Koshel, J., ... McLeod, E. (2023). Optical Sciences Winter School for enabling future students in optics society (p. 73). *SPIE-Intl Soc Optical Eng*. <https://doi.org/10.1117/12.2670616>

6. Kitchen, J. A., Sonnert, G., & Sadler, P. M. (2018). The impact of college- and university-run high school summer programs on students' end of high school STEM career aspirations. *Science Education*, 102(3), 529–547. <https://doi.org/10.1002/sci.21332>

BO'LG'USI PEDAGOGLARNING KASBIY TAYYORGARLIGIDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AXAMIYATI

Temirov Nabijon Soliyevich

pedagogika fanlari doktori, professor

Annotatsiya: Maqolada pedagog kadrlarni ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va ularning ta'lim sifatiga ta'sir etish masalalari tahlil qilingan. Ta'lim sifatida o'qituvchi roli va uning tayyorgarlik darajasiga bog'liq jarayonlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, sifat, tahlil, pedagog, innovatsiya, siyosat, hudud, ehtiyoj

Mamlakatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev shu kundagi davlat siyosatida yoshlarni sifatli kadrlar qilib yetishtirishda "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot ilmida" deb ustuvor vazifalarni maqsadli qilib belgilab berdi.

Respublikamiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar kadrlar tayyorlash sohasida ta'lim turlari o'rtasida aloqa va uzviylik ta'minlanishidagi kamchiliklarni bartaraf tishga xizmat qilmoqda. Bugungi kunda kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat siyosatida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy o'ziga xosligi va talab hamda ehtiyojlarining to'liq hisobga olinmasligi, mehnat bozoridagi talab va taklifning chuqur o'rganilmasligi natijasida kadrlarning hududlar kesimidagi taqsimotida muvozanatning buzilishi bilan bog'liq kamchiliklar kuzatildi. Bunga ayrim hududlarda pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning yillar davomida qondirilmasligiga sabab bo'lmoqda. Intellektual salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, fan, ta'lim

va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylik va aloqadorlik mustahkam yo'lga qo'yilsa, bu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini to'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi.

Pedagoglar tegishli bilimlar, tavsiyalar va qo'llanmalarga muhtojdirlar, bular: bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik, innovatsiyaviy texnologiyalarning mohiyati va roli nimalardan iboratligi; bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlashda – bo'lg'usi o'qituvchilarning o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish, ularning kasbiy-shaxsiyatli tarbiyasida innovatsiyaviy texnologiyalardan foydalanishning asos bo'luvchi nazariy-pedagogik – va amaliy asoslari; kasbiy-shaxsiyatli tarbiya uchun optimal va eng samarali pedagogik texnologiyalar va innovatsiyaviy pedagogik yondashuvlar va b.

Intellectual salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, fan, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylik va aloqadorlik mustahkam yo'lga qo'yilsa, bu yo'nalishda malakali kadrlar tayyorlash, ularning bandligini ta'minlash hamda mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Ayniqsa uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirishda yangi mexanizmlarning yaratilishi bugungi globallashuv jarayonlarining hayotiy zaruratiga aylandi va bu o'z navbatida ta'lim sifati samaradorligini oshirish, uni modernizatsiya qilishni taqozo etadi.

Ma'lumki innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayonda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgartirishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol usullar ta'lim jarayonida qatnashayotgan har bir o'quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish o'quvchi uchun qiziqarli mashg'ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo'llanilganda o'quvchilar o'qituvchilar yordami va hamkorligida mustaqil ishlash ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. O'quvchilar yangi bilimlarni ilmiyizlanish, tadqiqotchilik, tajriba sinovlar o'tkazish asosida o'zlashtiradilar. Ilm orqali bilim olish tamoyiliga amal qilinadi. Ta'lim jarayoni qatnashchilari kichik guruhlariga bo'lingan holda ishlaydilar. O'quv topshiriqlari alohida bir o'quvchiga emas, balki kichik guruhning barcha a'zolariga beriladi. O'qitish jarayonini tashkil etishning asosiy shakli darsdir. Hozirgi paytda darsning xilma xil noan'anaviy shakllari joriy etilmoqda. Bunday darslar o'quvchining ijodiy qobiliyatini o'stirish, aqliy salohiyatini kuchaytirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va har bir yangilikni tez va to'la qabul qila olish ko'nikma va malakalarining shakllanishiga xizmat qiladi.

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi. Buning uchun o'qituvchi mahoratli bo'lishi va mavzularning mazmuniga qarab darsni to'g'ri rejalashtirishi, mashg'ulot davomida barcha o'quvchilarni faol va ongli ishlashlariga erishmog'i lozim. Zero, o'qituvchi ta'lim islohotining bosh ijrochisidir. Bunda har bir o'qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to'plamini o'zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo'llay olishga o'rgatish muhim ahamiyatga ega. Uni hal qilishda o'qituvchiga o'qitishning an'anaviy usullari bilan birga zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan kompyuterlardan foydalanish yordam beradi. Innovatsiya - innovatsiya natijasi sifatida tushuniladi va innovatsion jarayon uchta asosiy bosqichning rivojlanishi. sifatida qaraladi: g'oyani yaratish (ma'lum bir holatda, ilmiy kashg'iyot), amaliy jihatlarida g'oyalarni rivojlantirish va yangiliklarni amaliyotga tatbiq etish. Pedagogik innovatsiyalab samaradorligining o'lchovi sifatida optimallik o'qituvchi va o'quvchilarning kafolatlangan natijaga erishishi uchun kuch-quvvat sarflashlarini taqozo etadi. Turli o'qituvchilar va o'quvchilar o'zlarining shaxsiy pedagogik hamda o'quv faoliyatlari jarayonida turlicha darajadagi samaradorlikka erishadilar. Xuddi mana shuning o'zi pedagogik innovatsiyalarning optimallik darajasini belgilaydi. Innovatsion usullarning eng muhim belgisi sifatida natijalanganlik o'qituvchi faoliyatida ijobiy yutuqlarga erishilgandagina namoyon bo'ladi. O'lchovlardagi texnologiklik, kuzatuvchanlik, natijalarning qayd etilganligi o'qitishning yangi usullari, metodlarini baholash orqali namoyon bo'ladi. Mazkur o'lchovning ahamiyatli

jihati shaxs, uning idroki va tushunchalarini shakllantirishning bir butunligida namoyon bo'ladi. SHu munosabat bilan innovatsion jarayonni ilmiy g'oyani amaliy foydalanish bosqichiga olib chiqish va shu bilan bog'liq ijtimoiy pedagogik muhitdagi o'zgarishlarni amalga oshirish jarayoni deb hisoblash mumkin. G'oyalarning innovatsiyaga aylanishini ta'minlaydigan va bu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradigan faoliyat bu innovatsion faoliyatdir.

Innovatsiya jarayoni rivojlanish bosqichlarining yana bir o'ziga xos xususiyati mavjud. Pedagogik tajribada pedagogik innovatsiyalarni ijodiy qo'llash alohida o'qituvchilar ish faoliyatining boshlang'ich bosqichida namoyon bo'ladi. Pedagogik innovatsiyalarni baholash mezonlarini bilish o'qituvchining pedagogik ijodning rangbarang shakllarini o'zlashtirishi uchun qulay sharoit yaratadi. Pedagogik madaniyatning oddiy esda qolgan bilimlarni takrorlash shaklidan boshlab, ilmiy pedagogik jamoatchilikka ma'lum bo'lgan g'oyalar, konsepsiyalar, texnologiyalarni o'z shaxsiy faoliyatiga singdirishdan ularni evristik, kreativ ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qadar bo'lajak pedagoglarning kundalik harakati mazmunini tashkil etishi lozim. Pedagogik innovatsiyalarning mazmuni, uni qo'llash metodlarini bo'lajak o'qituvchilar tajribasiga singdirish muhim ahamiyatga ega. Ta'lim muassasasi hayotiga pedagogik innovatsiyalarni keng ko'lamda olib kirish uchun unda yangilik muhitini yaratish, muayyan axloqiy psixologik holatni shakllantirish, tashkiliy, metodik, psixologik xarakterdagi choratadbirlarni kullash talab etiladi. SHu maksadda bulajak ukituvchilarning kreativ funksiyalarini rivojlantirish, ularni. pedagogik innovatsiyalar bilan izchil kurollantirib borish, innovatsion usullarni tahlil va tatbiq qilishga o'rgatish vazifasini kuyish lozim

Ta'lim tizimidagi yangilik masalalari muttasil mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Biroq, ijtimoiy-pedagogik yangiliklar mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlantirish omili sifatida, bir tomondan, nisbatan yaqinda tez rivojlanayotgan ijtimoiy pedagogika fan va amaliy faoliyat sohasi sifatida nisbatan yaqinda paydo bo'lganligi sababli, boshqa tomondan, ta'limni markazsizlashtirish va mintaqalashtirishning ijtimoiy tendensiyasining nisbiy yangiligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, xususiy, to'g'ri pedagogik (masalan, uslubiy) yangiliklarning samaradorligi,

agar ular ijtimoiypedagogik rejada qo'llab-quvvatlanmasa, qo'llab- quvvatlanmasa, ancha past bo'ladi. SHunday qilib, xususiy innovatsiyalar va ijtimoiy-pedagogik yangiliklarni qo'llabquvvatlovchi ijtimoiy-pedagogik kontekstni yaratish ham, ma'lum hajm, miqyos va daraja umuman mintaqaviy ta'lim tizimini rivojlanishini sezilarli darajada kuchaytirishi mumkin.

Pedagogik innovatsion jarayonda yangiliklarni yaratish va yangiliklardan g'oydalanish (o'zlashtirish) kabi tuzilmalarni ko'rish oson; bir-biri bilan bog'liq bo'lgan jarayonlardan iborat bo'lgan butun maktabning rivojlanishi asosida yotadigan murakkab innovatsion jarayon. O'qituvchilarda ijodkorlikni shakllantirishning muhim pedagogik sharti uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikirlashga yonaltirishdan iborat. SHu bilan bir qatorda, o'qituvchilar orasida ijodiy muhit, muayyan ma'naviy-ruhiy holat, tashkiliy, metodik, psixologik chora-tadbirlar qo'llashga ham alohida e'tibor qaratish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibragimova G.N. Interfaol o'qitish metodlari va texnologiyalari talabalarning kreativlik qobiliyatlapini rivojlantirish. I Monografiya. - T.: «Fan va texnologiyalar», 2016. -77-b.
2. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. - T.: Akademiya, 2020.
3. Panfilova A.P. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Faol o'rganish: Oliy o'quv yurtlari taaballari uchun darslik / A.P. Panfilov. - M., Akademiya, 2009 y.

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AMATEMATIKADAN MILLIY O'QUV DASTURINI
AMALIYOTGA JORIY ETISH MUAMMO VA YECHIMLARI XUSUSIDA**

Djumayev Mamanazar p.f.n.professor.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti. mamanazaruz@bk.ru

Annotasiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematikadan milliy o'quv dasturini amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari haqida mulohazalar suningdek, Respublka ta'lim inspeksiyasi tomonidan milliy o'quv dasturi loyihasi muhokamasi haqida so'z yurutamiz.

Kalit so'zlar. Mulohaza, texnologiya, maqsad vazifa, o'quv dasturi, ta'lim standarti, boshlang'ich ta'lim, matematika, bilim va ko'nikma.

**О ПРОБЛЕМАХ И ПУТЯХ РЕШЕНИЯ РЕАЛИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ
ПРОГРАММЫ ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ**

Джумаев Маманазар Доктор философии, профессор.

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами.

mamanazaruz@bk.ru

Аннотация. В этой статье мы обсуждаем научно-методические основы реализации национальной учебной программы по математике в начальной школе, а также обсуждение проекта национальной учебной программы Республиканской инспекцией образования.

Ключевые слова. обратная связь, технология, цели, учебная программа, образовательные стандарты, начальное образование, математика, знания и навыки.

**ON THE PROBLEMS AND SOLUTIONS OF IMPLEMENTING THE NATIONAL
CURRICULUM IN MATHEMATICS IN PRIMARY EDUCATION**

Dzhumaev Mamanazar Doctor of Philosophy, Professor.

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami. mamanazaruz@bk.ru

Annotation. In this article, we discuss the scientific and methodological foundations for the implementation of the national curriculum in mathematics in primary school, as well as the discussion of the draft national curriculum by the Republican Inspectorate of Education.

Key words, feedback, technology, goals, curriculum, educational standards, primary education, mathematics, knowledge and skills.

Matematika olamni, dunyoni bilishning asosi bo'lib, tevarak- atrofimizdagi voqea va hodisalarning o'ziga xos qonuniyatlarini ochib berishda juda katta ahamiyatga egaki, matematik bilimlarsiz ishlab chiqarish va fanning rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun ham *matematik madaniyat* — umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Matematika fani o'qituvchilarining kasbiy mahoratini oshirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

Matematika fani o'qituvchilarining fan bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratini uzluksiz yangilab borish, zamonaviy talablarga muvofiq ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni an'anaviy va masofaviy shakllardan fodalaniib oshirishiga sharoit yaratish;

o'qituvchilarda mustaqil fikrlash, ilmiy tadqiqot va ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning pedagogik nufuzini oshirish va kompetentligini rivojlantirib borish;

o'qituvchining shaxsiy va kasbiy axborot maydonini yaratish ko'nikmalarini shakllantirish, ularining o'z pedagogik faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, onlayn va oflayn, video va televizion darslarni tayyorlash va o'tkazish ko'nikmalarini zamon talabidan kelib chiqib takomillashtirib borish;

dars jarayonida ilg'or ta'lim-tarbiya texnologiyalari va jahon tajribasidan foydalanish ko'nikmalarini mustahkamlash. Matematika fanini o'qitishdan ko'zlangan zamonaviy maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

- o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;

- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;

milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat[2].

Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o'zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo'lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa ta'lim tizimiga, jumladan, matematikani o'rgatish bo'yicha ham xalqaro tajriba va andozalarni joriy etish orqali ta'minlanadi.

Bundan ta'lim bo'yicha qator xalqaro tashkilotlarning tadqiqotlari ham dalolat bermoqda. Shu o'rinda, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD)ning 15 yoshli o'quvchilarning ona tili, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajasini baholashga qaratilgan PISA - o'quvchilar yutuqlarini baholash xalqaro dasturi tadqiqotlari natijalari e'tiborga molik.

Bundan tashqari, ta'limiy yutuqlarni baholash xalqaro uyushmasi (IEA) tomonidan tashkil etilgan TIMSS - matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining xalqaro monitoringi dasturini ham keltirish mumkin. Ushbu tadqiqot o'quvchilarning turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlardan bilim darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

Tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematika fanini o'qitishga xalqaro baholash dasturlarining mazmuni, baholash me'zonlari va mexanizmlari mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda joriy etilishi maqsadga muvofiq bo'ladi[5].

STEAM (S – science - tabiiy fanlar T – technology - texnologiya, E – engineering - muhandislik, A – art - san'at, M – mathematics - matematika) ta'lim texnologiyasi aniq fanlar blok-modulida o'quvchilarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatishda dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan. **Matematik mazmun tandarlari (bilim va ko'nikmalar)**. Qisqacha tavsifi: Asosiy matematik tushunchalar va munosabatlar mohiyatini tushunish va ulardan tipik o'quv topshiriqlarini bajarishda foydalanish.

Ushbu standartlar o'quvchilar matematikani o'rganish orqali nimani tushunishi va nimalarni bajarishga qodir bo'lish kerakligini belgilab beradi. Matematikada tushunishning o'ziga xos belgilaridan biri – bu o'quvchining matematik o'zlashtirish darajasidan kelib chiqqan holda muayyan matematik ifodaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani yoki muayyan matematik qoidaning qayerdan kelib chiqishini asoslab berish qobiliyatidir. Matematik tushuncha mohiyatini tushunish va tipik amallarni bajarish ko'nikmasi bir xilda muhim bo'lib, ular muayyan murakkablik darajasidagi standart topshiriqlar yordamida baholanadi.

Matematik amaliyot standartlari kompetensiyalar) qisqacha tavsifi: O'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalarni yechishda va notanish vaziyatlarda qo'llay olish (kompetensiyalar).

Mazkur standartlar ham umumlashgan mazmundagi amaliy tatbiq standartlardan iborat bo'lib, ular o'quvchilarning quyidagi aqliy faoliyati sohasini qamrab oladi (kelgusida ishlatish qulay bo'lsin uchun aqliy faoliyat sohalari, mos ravishda M1, M2, M3, M4 va M5 bilan kodlanadi):

- **Mulohaza yuritish (M1)**; matematikaga oid fikrni asoslash, isbotlash yoki o'zgaralar fikriga munosabat bildirish uchun mantiqan asosli va tushunarli dalillarni keltirish;
- **Modellashtirish (M2)**: o'quv va hayotiy muammolarni matematika tilida ifodalash, ularning matematik modelini qurish;
- **Muammoni yechish (M3)**: matematikani qo'llab muammoni hal qilish;
- **Muloqot qilish (M4)**: matematik tushuncha, belgi va timsollar asosida matematika tilida o'zaro muloqot qilish;
- **Ma'lumotlar bilan ishlash (M5)**: ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va turli shakllarda tasvirlash. Matematik amaliyot standartlari har bir sinf kesimida mazmun standartlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, tegishli mazmun standartlarida o'z aksini topgan. Amaliyot standartlari mazmun standartlarining mazmuniga mos bo'lgan, tegishli yosh fiziologik imkoniyatlari va aqliy faoliyat sohaslaridan kelib chiqib singdirilgan. a) bir necha turdagi ma'lumotlarni taqdim etish uchun masshtabi berilgan chiziq va ustunli diagrammalarni yasash. Diagrammada keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, "qancha ko'p?" va "qancha kam?" ko'rinishidagi bir va ikki qadamli masalalarni yechish. Masalan, diagramma chizsak, undagi har bir kvadrat 5 ta uy hayvonini ifodalashi mumkin. b) bir o'lchov birligining yarmi va to'rtidan biri belgilangan chizg'ich yordamida uzunliklarni o'lchab ma'lumotlar qatorini hosil qilish[6].

Gorizontallik shkala tegishli birliklarda – nomanfiy butun sonlar, yarimlar yoki choraklarda belgilab chiqilgan bo'lsa, diagramma yasash orqali ma'lumotlarni tasvirlash. a) sodda kombinatorika (to'plam elementlarini muayyan qoida asosida saralash imkoniyatlar sonini aniqlash) ga doir masalalarni yechish. Matematika fani bo'yicha milliy ta'lim standartlarini yaratishga yondashuv tizimli, yani muayyam tizimga solingan bo'lib, u "Al-jabr" deb nomlanadi. Bu nomda o'ziga xos "tiklanish" ma'nosi mujassamlangan[8].

Standartlar ta'limning boshlang'ich davridanoq barcha o'quvchilarni imkon qadar keng qamrab olib, ularning o'qish jarayonida to'liq ishtirok etishi uchun imkoniyat va ta'lim sohasida maxsus ehtiyojlarga ega bo'lgan o'quvchilarning maksimal darajadagi ishtirokini ta'minlash uchun tegishli sharoitlarni yaratib berishi lozim. Standartlar barcha o'quvchilarga shu bois, amaliyot standartlarini har bir sinf kesimida yana alohida aniqlashtirib o'tirmaymiz.

Matematika o'qitish metodikasi – eksperimental fan. Mavzularning kerak-kerakmasligi, ularni o'qitish metodikalarning samaradorligi yoki samarasizligi va boshqa jihatlari (jumladan, o'quvchining yosh-psixologik hususiyatlari, o'qituvchilarning tayyorgarlik darajasi, moddiy-texnika baza) haqida hulosalar pedagogik tajriba asosida chiqarilishi lozim. Bunda umume'tirof etilgan xorijiy tajribalar alohida o'rin tutadi.

Hozirgi kunda mansabdor shahslar, o'qituvchilar, ota-onalar, turli lavozimlarda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar tomonidan matematikaga yangi mavzular kiritilganligini tanqid qilinmoqda va uni "osonlashtirish talablari" qo'yilmoqda.

Biz bu savolga qisman oydinlik kiritishga xarakat qilamiz.

Avvalambor, yaqin tarixga bir nazar tashlaylik.

2016 yil... O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 9 fevraldagi PQ-2487-son qarori bilan «Sog'lom ona va bola yili» Davlat Dasturi tasdiqlandi.

Dasturning 62-tadbirida yangi ta'lim standartlarini, o'quv dasturlarini va rejalarini, eng avvalo, darsliklar va multimediyali ilovalarni ishlab chiqishda ko'maklashish uchun Germaniya, Singapur, Koreya Respublikasi va Yaponiyadan yetakchi o'quv markazlarini, o'qitishning tegishli sohaslaridagi xalqaro ekspertlar va mutaxassislarni jalb etish tadbirlari belgilangan edi.

2017 yil... O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" gi 187-son qarori chiqdi.

2017 yili matematika fanidan standart hamda o'quv dasturini ishlab chiqishda yuqorida qayd etilgan Germaniya, Singapur, Koreya Respublikasi va Yaponiya kabi davlatlar standartlaridan tashqari umume'tirof etilgan halqaro baholash dasturlari ramkalari va metodologiyasi ozmi-ko'pmi, hisobga olindi:

1) Yevropa Kengashining "Uzluksiz ta'lim uchun tayanch kompetensiyalar – umumevropa standartlari strukturasi" to'g'risidagi hujjati («Key competences for lifelong learning — a European Reference Framework») [1]

2) Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (Organisation for Economic Cooperation and Development (OECD)) Xalqaro o'quvchilarni baholash Dasturi (Programme for International Student Assessment (PISA)) ramkalari [2].

3) Ta'lim natijalarini baholash bo'yicha Xalqaro Assotsiatsiyasining (International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA)) Xalqaro matematika va aniq va tabiiy fanlarning tendensiyalarini o'rganish markazi (Trends in international mathematics and science study Center (TIMSS)) ramkalari¹. ham inobatga olindi[11].

2017 yildagi kompetensiyalarga asoslangan ta'lim standarti ishlab chiqishda nafaqat yuqorida qayd etilgan halqaro tajribalari, balkim undan oldin Xalq ta'limi vazirligining buyrug'i o'tkazilgan milliy tajriba natijalari asos qilib olingan.

Aytish joizki 2017 yilgacha umumiy o'rta ta'lim tizimi Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlaridagi mavzulari uzluksizligi va uzviyligi ta'minlash tizimi faqat ta'lim tizimini muvofiqlashtirish fragmentar tarzda takrorlamasdan amalga oshirilgan. Yangi dastur tuzilganda, butun dunyoda qo'llaniladigan o'qitishning spiralsimon modeliga ozmi-ko'pmi rioya qilingan va qilinadi. Shuning uchun "mavzular uzviyligi ta'minlanmagan, mavzular takrorlanmoqda" kabi e'tirozlar shu zamonaviy modeli bilan mutanosib emasligini qayd etamiz[9].

2018 yil... Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda 997-son "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori chiqdi.

Unga muvofiq Xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda matematikadan davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari mazmuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bunda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlarini ilg'or xorijiy davlatlar bilan qiyoslash orqali o'rganib chiqildi. Qarorda ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari mazmuniga bosqichma-bosqich o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi ko'zda tutilgan.

Shu bilan birga umumiy o'rta ta'lim tizimida matematikani o'rganish bo'yicha qo'llaniladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualarni yaratish va modernizatsiya qilish bo'yicha xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda mualliflar guruhlarini shakllantirib, xalqaro baholash dasturlari asosida matematikani o'rganish bo'yicha qo'llaniladigan darsliklar va o'quv-metodik majmualar yaratilishi belgilangan[10].

2020 yil... O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020 yil 2 mart kuni "2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi 2020 yil 2 martdagi PF-5953-son Farmoni imzolangan. Bu Farmonda umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturini ishlab chiqish vazifasi belgilanib, **maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish** mexanizmini yaratish vazifasi qayd etilgan.

TIMSS TADQIQOTI (boshlang'ich sinflar)

Oddiy va o'nli kasrlar

1. Kasrni butunning qismi, ulushi sifatida bilish yoki son o'qidagi (koordinata son o'qidagi) nuqta sifatida tanib olish, kasrni so'zlar, sonlar yoki modellar yordamida ifodalash.

¹ Timss 2015 Assessment Frameworks. International Association for the Evaluation of Educational Achievement (IEA).

2. O'zaro teng (ekvivalent) bo'lgan oddiy kasrlarni aniqlash; oddiy kasrlarni taqqoslash va tartiblash; sodda xolatlarda oddiy kasrlarni qo'shish va ayirish, jumladan, turli mahrajli
3. O'nli kasr yozuvini bilish, jumladan so'zlar, sonlar yoki modellar yordamida o'nli kasrlarni ifodalash; o'nli kasrlarni taqqoslash, tartiblash va chamalash;

Matematik ta'limga kompetensiyaviy yondashuv kasbiy, shaxsiy va jamiyatdagi kundalik hayotda uchraydigan holatlarda samarali harakat qilishga imkon beradigan turli ko'rinishdagi malakalarni o'quvchilar tomonidan egallashni nazarda tutadi. Shunday qilib, kompetensiyaviy yondashuvda matematik ta'limning asosini amaliy, tadqiqiy yo'nalishlarini kuchaytirishga qaratiladi[7].

O'quvchilarda tayanch kompetensiyalarini shakllantirish, kichik o'quv tadqiqotlarni bajarish orqali umumta'lim fanlarini o'rganishga qiziqishni kuchaytirish maqsadida fan o'quv dasturlariga amaliy mashq va tatbiq hamda loyiha ishi kiritildi. Bu holat nafaqat muayyan o'quv fani bo'yicha o'zlashtirish sifatini yaxshilaydi, balki fanlararo va fanning kundalik turmush bilan bog'lanish imkoniyatlarini ochadi va ta'lim samaradorligini oshiradi.

Matematika darslarini tashkil qilishda nazariyadan ko'ra ko'proq amaliyotga e'tibor berish hamda o'quvchilarga tayyor o'quv materiallarini berishga asoslangan yondashuvdan ma'lum darajada voz kechish talab qilinadi. Matematika darslarida ko'proq keys, tadqiqot, loyiha, kichik o'quv kashfiyotlari kabi interaktiv metodlardan foydalanish tavsiya etiladi. O'quvchilarda kichik tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishda kuzatish, tajriba, o'lchashlar, analiz (tahlil) va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash va analogiya kabi ilmiy izlanish metodlaridan o'rnida foydalanish talab etiladi. O'quvchilarda bilim va ko'nikmalarni shunchaki shakllantirib qolmasdan, ularni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish kompetensiyalarini ham tarkib toptirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tabirlari to'g'risida. Uzbekiston Respublikasi prezidentining PQ-4708-son 07.05.2020 Qarori

2. Djumayev M.I. The development of mathematical abilities in younger students. Science And Innovation International Scientific Journal Volume 2 Issue 1 January 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz/ 424-434

3. Djumayev M.I The transformation of the english language's variants in contemporary great Britain. Educational process science and innovation international scientific journal volume 2 Issue 4 April 2023 Uif-2022: 8.2 | Issn: 2181-3337 | Scientists.Uz 19-27 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7818607>

4. Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. SRC/JMCA-123. *J Mathe & Comp Appli*, 2023 Volume 2(2): 1-5 ISSN: 2754-6705

5. Джумаев М.И. Перспективы совершенствования преподавания математики в школе, колледже и вузе Республики Узбекистан. Ямало.Нанецк Россия «ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ АРКТИЧЕСКИХ РЕГИОНОВ» № 1, МАРТ, 2023. № 6(147) 3-6 ст <https://arctic-journal.ru/index.php/prof>

6. Djumaev M.I. Some Considerations of Teaching Mathematics Inuzbek Primary School. Journal of Mathematical & Computer Applications. Received: March 28, 2023; Accepted: April 03, 2023, Published: April 22, 2023 ISSN: 2754-6705 1-5

7. Djumaev M.I. Формирование элементарных математических представлений у детей в дошкольном возрасте с использованием и без наглядных материалов. Глобальный научный потенциал», ИД ТМБпринт, СПб. № 6 (147) 2023 г. <http://globaljournals.ru/>

8. Djumaev M.I. METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF THE STUDENT'S INDEPENDENT WORK FORM UNDER THE SUPERVISING OF THE TEACHER IN PROCESS OF MODERN EDUCATION Musaeva Nargiza Khashimjanovna Master's student of

Tashkent state pedagogical university's student of Tashkent state pedagogical university
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7772930>

9. Djumaev M.I. Matematika o'qitishda kombinatorika masallarini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari Fizika, matematika, informatika jurnali. 2023 yil 2/1 son. 19-27
[scientists.uz>co_view.php?id=637](https://scientists.uz/co_view.php?id=637)

10. Djumaev M.I. Matematika o'qitishda milliy o'quv dasurining uzviyligi va uzluksizligining o'ziga xos xususiyatlari. МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ. Илимий-методикалык журнал. Нөки ISSN 2181-7138 2023 1-сан 314-324 бет [researchgate.net>publication/352814726...oem...Ilimi_mber_2006](https://researchgate.net/publication/352814726...oem...Ilimi_mber_2006) "On key competences for lifelong learning" (2006/962/EC)

11. PISA 2012 Assessment and Analytical Framework (mathematics, reading, science), OECD, 2012

12. Timss 2015 Assessment Frameworks, IEA, 2015.

13. PISA 2021 Mathematics Framework (draft), OECD, 2018

AXLOQIY TARBIYA JARAYONIDA ALISHER NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISH

Xolmatova Zulfiya Tillavoldiyevna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
zt.xolmatova@pf.fdu.uz +998902744575

Annotatsiya: Ushbu maqolada axloqiy tarbiya jarayonida Alisher Navoiy merosidan foydalanishning ahamiyati yoritiladi. Alisher Navoiy asarlari yosh avlodning ma'naviy-axloqiy kamoloti, ezgulik, adolat, insonparvarlik kabi fazilatlarini shakllantirishda muhim manba hisoblanadi. Uning asarlarida komil inson tarbiyasi, axloqiy qadriyatlar va odob-axloq normalariga oid fikrlar keng yoritilgan. Tadqiqotda Navoiy merosining ta'lim-tarbiyaviy jarayonda qo'llanilishi, uning didaktik va tarbiyaviy jihatlari, shuningdek, bugungi zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Mazkur maqola pedagoglar, tarbiyachilar va ta'lim sohasi mutaxassislari uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: axloqiy tarbiya, Alisher Navoiy, ma'naviy meros, komil inson, odob-axloq, ezgulik, ta'lim-tarbiya, insonparvarlik, didaktik yondashuv, qadriyatlar

Аннотация: В данной статье освещается значение использования наследия Алишера Навои в процессе нравственного воспитания. А.Произведения Навои являются важным источником духовно-нравственного совершенствования подрастающего поколения, формирования таких качеств, как доброта, справедливость, гуманизм. В его работах широко освещаются вопросы воспитания совершенного человека, нравственные ценности и нормы этикета. В исследовании анализируется использование наследия Навои в учебно-воспитательном процессе, его дидактические и воспитательные аспекты, а также роль в современной системе образования. Данная статья служит полезным ресурсом для педагогов, воспитателей и специалистов сферы образования.

Ключевые слова: нравственное воспитание, Алишер Навои, духовное наследие, совершенный человек, нравственность, доброта, воспитание, гуманизм, дидактический подход, ценности.

Annotation: This article highlights the importance of using the legacy of Alisher Navoi in the process of moral education. A.Navoi's works are an important source of spiritual and moral improvement of the younger generation, the formation of qualities such as kindness, justice, and humanism. His works widely cover the issues of education of a perfect person, moral values and norms of etiquette. The study analyzes the use of the Navoi heritage in the educational process, its didactic and educational aspects, as well as its role in the modern education system. This article serves as a useful resource for educators, educators, and education professionals.

Keywords: moral education, Alisher Navoi, spiritual heritage, perfect man, morality, kindness, upbringing, humanism, didactic approach, values.

Axloqiy tarbiya har bir jamiyatning ma'naviy poydevori bo'lib, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy o'zining boy adabiy va falsafiy merosi orqali axloqiy tarbiyaning eng muhim tamoyillarini bayon qilib bergan. Uning asarlarida insonparvarlik, adolat, vatanparvarlik, mehr-oqibat, halollik kabi qadriyatlar aks etgan bo'lib, bu qadriyatlar bugungi kunda ham tarbiya jarayonida muhim o'rin tutadi.

учителю возможность выслушать опасения родителей и подробнее рассказать им об образовании их детей.

Общение и поддержка

Дети учатся общаться, наблюдая за нами. Если мы будем общаться открыто и эффективно, то, скорее всего, наши дети тоже будут это делать. Хорошие коммуникативные навыки будут полезны нашим детям на протяжении всей их жизни. Они начинают формировать идеи и убеждения о себе, основываясь на том, как мы с ними общаемся. Когда мы эффективно общаемся с нашими детьми, мы проявляем к ним уважение. Тогда они начинают чувствовать, что мы их услышали и поняли, что повышает их самооценку. Когда мы общаемся с нашими детьми, важно, чтобы физически мы были на их уровне и чтобы наш выбор слов соответствовал их пониманию.

Занимаясь воспитанием, мы заботимся об основных потребностях наших детей, таких как питание, медицинское обслуживание, кров, одежда и т.д., а также уделяем им любовь, внимание, понимание, принятие, время и поддержку. Мы терпеливы и прислушиваемся к нашим детям. Мы уделяем им время, проявляем интерес к их занятиям и поощряем их следовать своим увлечениям. Своими словами и действиями мы сообщаем нашим детям, что их любят и принимают. Другая часть нашей работы - обеспечить "структуру" для наших детей. В этой роли мы даем указания, устанавливаем правила, устанавливаем границы, определяем последствия и следуем им, привлекаем наших детей к ответственности за их поведение и прививаем ценности. Мы даем рекомендации, которые помогают нашим детям развиваться, расти и взрослеть.

Мы воплощаем в жизнь те ценности, которые хотим привить нашим детям, чтобы они понимали, чего мы от них ожидаем.

Связь между школой и домом дает нашим детям чувство безопасности и сопричастности. Это партнерство способствует их росту и развитию, поскольку дети получают постоянные ожидания, поддержку и инвестиции в их социальный и академический успех.

Родители не перестают быть учителями своих детей. Скорее, эта роль расширяется до роли тренера, наставника, друга. Самое замечательное, что родителям не приходится проходить этот путь в одиночку. Мы призываем вас, как родителей, опекунов и попечительниц, искать сообщество, которое будет поддерживать вас на протяжении всего процесса поддержки ваших детей.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Белл С. Проектное обучение в 21 веке: навыки для будущего. Расчетный центр. 2020;83(2):39-43.
2. Хан С., Капраро Р., Капраро М. Как проектное обучение науке, технике, инженерному делу и математике влияет на учащихся с высокими потребностями в обучении в США и индивидуальные различия. 2015;42:157-165.
3. Белл С. Проектное обучение в 21 веке: навыки для будущего. Расчетный центр. 2020;83(2):39-43.
4. Капраро Р. М., Капраро М. М., Морган Дж. Р. Обучение на основе проектов STEM: интегрированный подход к науке, технологиям, инженерии и математике (STEM). 2016. Издательство Sense Publishers, Роттердам.
5. Крайчик Дж. С., Блюменфельд П. С. Проектное обучение. В книге Р. К. Сойера (ред.) "Кембриджский справочник по учебным наукам". 2016 (стр. 317-334). Издательство Кембриджского университета.

**A STUDY ON FACTORS AFFECTING THE ADAPTATION OF UZBEK
INTERNATIONAL STUDENTS IN KOREA**

Usmonova Firuza Murodovna

*English Language Instructor, Chomdan English Children's Academy, Gwangju, South
Korea Candidate of Social Sciences*

Usmonova Odinakhon Sobirovna

*Teacher, Department of Social and Humanitarian Sciences, Fergana State University,
Uzbekistan Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)*

Abstract: This research contributes to the understanding of international student adaptation by examining the distinct challenges faced by Uzbek students in a Korean university context. The insights gained from this study can inform the development of policies and practices aimed at improving the academic, social, and economic experiences of Uzbek and other international students in similar educational settings.

Keywords: International students, Social and Cultural Adaptation, Academic Challenges, Interdisciplinary Studies

Introduction

The globalization of higher education has led to a significant increase in the number of international students studying abroad. According to UNESCO, the global population of international students has grown dramatically over recent decades, reflecting the increasing importance of cross-cultural education and global academic collaboration. South Korea, known for its high-quality education system and strategic initiatives to attract international students, has become a popular destination for students from various countries, including Uzbekistan.

Uzbek students, like many other international students, face numerous challenges when adapting to a new cultural and educational environment. These challenges include cultural differences, language barriers, academic expectations, and economic difficulties. Understanding these challenges is crucial for institutions aiming to provide effective support and ensure a positive academic and social experience for international students.

Background

South Korea is one of the leading destinations for international students in Asia. The competitiveness of Korean higher education continues to attract students from around the world. As of March 2021, according to the Korean Immigration Service, students from Vietnam and China made up 69.8% of the 158,923 foreign students in South Korea. Uzbek students ranked third, with a 5.7% share.

The Korean government has aimed to increase the number of international students to 200,000 by 2023 (ICEF Monitor, 2021), establishing the country as an educational hub. Chonnam National University (CNU), in particular, has seen a growing number of international students, including those from Uzbekistan. CNU provides students with opportunities to gain knowledge and explore new cultures. According to the 2022-2023 rankings by usnews.com, CNU ranks #844 globally, #220 in Asia, and #15 in South Korea.

The governments of South Korea and Uzbekistan continue to strengthen educational, cultural, political, and economic ties. The "Yuksalish" movement of Uzbekistan has launched several projects to connect with compatriots abroad. One such program, initiated on January 23, organized educational practice opportunities for Uzbek students studying at Chonnam National University.

Program participants visited leading banks, development companies, and government agencies from January 29 to February 2. They were introduced to organizational activities, labor systems, and production processes. A memorandum of cooperation was signed between CNU and the "Yuksalish" movement to organize future training programs. CNU, established in 1952,

is one of the top ten national universities in Korea. Currently, over 35,000 students study at CNU, including more than 500 Uzbek students.

Although the number of Uzbek students at CNU slightly decreased during the COVID-19 pandemic, Uzbekistan still ranks second after China in terms of international student population at the university.

Challenges and Adaptation: With the yearly growth of international students in South Korea, issues related to socio-cultural and academic adjustment have become highly relevant. Learning to culturally adapt to a new environment is essential for a successful academic experience (Mesidor & Sly, 2016). Scholars agree that adaptation involves learning how to make necessary changes to overcome psychological distress during studies.

Numerous studies have explored the difficulties international students face while adjusting to host countries. However, little is known about how these challenges change over time. Ward (2001) suggests that students go through a learning curve, requiring culture-specific skills to navigate new environments. As study duration increases, students develop and apply new skills, reducing cultural distance.

Initially, international students face challenges such as language barriers, financial problems, unfamiliar educational systems, homesickness, adjustment to social customs and norms, and racial discrimination (Church, 1982). Over time, students become more accustomed to managing these issues, thereby improving their adaptability.

Conclusion

This study aims to identify the challenges faced by Uzbek international students at Chonnam National University in terms of socio-cultural, academic, and economic adjustment. Understanding these factors can contribute to creating a better learning experience for international students in South Korea.

REFERENCES

1. Alavi, M., & Mansor, S. M. S. (2011). Categories of Problems among International Students in University Technology Malaysia. *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 30, 1581-1587.
2. Isik, A. H., Karakis, R., et al. (2010). Postgraduate Students' Attitudes towards Distance Learning (The Case Study of Gazi University). *Procedia - Social and Behavioral Sciences*, 9, 218-222.
3. Sharoon. (2017). Academic Adjustment of International Students in South Korea: A Case Study of Seoul National University.
4. Kim, H. J., & Kwon, J. (2018). The Role of Social Support in the Academic Success and Well-being of International Students in Korea. *International Journal of Intercultural Relations*, 64, 1-11.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA HARFIY IFODANI O'RGATISH USULLARI.

Z.Xolmatova

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti

B.Abdugodirov

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu mavzu boshlang'ich sinf o'quvchilarini matematik ifodalarni harflar yordamida yozishni o'rganishga yo'naltirilgan. Darsda o'quvchilar harfiy ifodaning mazmuni, sonlar va harflar o'rtasidagi bog'liqlik, oddiy arifmetik amallarni harfiy ifodalar bilan qanday yozish va yechish usullarini o'zlashtiradilar. Mazkur mavzu orqali ularning mantiqiy fikrlashi, umumlashtirish va tahlil qilish ko'nikmalari shakllanadi.

Kalit so'zlar: harfiy ifoda, o'zgaruvchi, sonli ifoda, algebra, arifmetik amal, tenglik, tenglama, a'zo, ko'paytma, soddalashtirish.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarda matematikaning asosiy tushunchalari shakllanadigan davr hisoblanadi. Ayniqsa, algebraik ifodaning ilk ko'rinishi bo'lgan harfiy ifodani o'rgatish bu bosqichda katta ahamiyatga ega. Harfiy ifoda — o'zgaruvchilarni va sonlarni o'z ichiga olgan matematik ifodadir. O'quvchilar bu mavzuni tushunish orqali keyingi yillarda algebra, tenglamalar va funksiyalar mavzusini chuqurroq o'zlashtirishga tayyorlanadi. Shu sababli, boshlang'ich sinfda harfiy ifodani o'rgatish metodikasini to'g'ri tashkil etish muhim metodik masalalardan biridir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarda matematika fanining asoslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, algebraik tushunchalarning ilk bosqichi bo'lgan harfiy ifodani o'rgatish boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun kelajakdagi matematik bilimlarning poydevorini tashkil etadi. Harfiy ifodalar — bu sonlar o'rniga harflar ishlatiladigan matematik tuzilmalar bo'lib, ular yordamida o'zgaruvchan miqdorlar ifodalanadi. Masalan, " $a + 5$ " kabi ifoda orqali turli sonlar ustida umumiy qoida yaratish mumkin. Bunday abstrakt tushunchani o'quvchiga tushunarli qilish esa o'qituvchidan maxsus metodik yondashuvni talab qiladi.

Dastlabki bosqichda harfiy ifodani tushuntirishda o'quvchining hayotiy tajribasi, tasavvuri va qiziqishlari asosga olinishi lozim. Masalan, o'quvchilarga "a — olma soni, b — banan soni" deb tushuntirib, " $a + b$ " ifodasi ikkala mevaning umumiy sonini bildirishi ko'rsatilsa, bu ularning mavzuni tez va oson anglashiga yordam beradi. Shuningdek, vizual yondashuvlar, ya'ni rasm, predmetli modellardan foydalanish ham tushunchani mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ko'rgazmali vositalar bolalarning fikrlashini faollashtirib, ularni dars jarayoniga jalb qiladi.

Bundan tashqari, harfiy ifodalarni o'rganishda o'yinli metodlar katta natija beradi. Misol uchun, "Top harfni" yoki "Harfiy hisoblash" kabi kichik matematik o'yinlar orqali o'quvchilar faol ishtirok etadi, harflar bilan ishlashga bo'lgan qiziqishi ortadi. Dars jarayonida kichik guruhlarda ishlash orqali o'quvchilar bir-biriga yordam berib, harfiy ifodalarni tuzish va yechish bo'yicha tajriba orttiradi. Bu esa o'rgangan bilimlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Sonli ifodalar faqatgina arifmetik ifodalarda 4 amalni bajarish emas, geometrik masalalar, arifmetik va algebraik masalalarni yechishda bevosida qo'llaniladi.²

Harfiy ifodalarni tushunish va qo'llashda individual yondashuv ham muhim hisoblanadi. Har bir o'quvchining tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Shu sababli, ularning har biri uchun yengil, o'rta va murakkab darajadagi topshiriqlarni ishlab chiqish tavsiya etiladi. Bu nafaqat har bir o'quvchining imkoniyatini inobatga oladi, balki ularni rag'batlantiradi ham.

Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, harfiy ifodani o'rgatishda an'anaviy izohlardan tashqari zamonaviy texnologiyalar, multimedia resurslari, animatsion ko'rsatmalarni qo'llash o'quvchilarning mavzuga bo'lgan e'tiborini kuchaytiradi. Shu tariqa, harfiy ifodani tushunarli, qiziqarli va bolalar uchun qulay tarzda o'rgatish orqali ularda matematik tafakkur, tahlil qilish, umumlashtirish va modellashtirish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishni qiziqarli va samarali qilish uchun turli xil metodlarmavjud. Bu metodlar o'quvchilarning e'tiborini tortish, ularning o'quv materialigaqiziqishinioshirish va matematikani o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi.³ Boshlang'ich sinf o'quvchisiga harfiy ifodani o'rgatishda hayotiy misollar, ko'rgazmali vositalar, o'yinli yondashuvlar, guruhli va individual ishlar uyg'unligida tashkil etilgan darslar yuqori samaradorlik beradi. Har bir metodik yondashuv bolalarning yosh xususiyatlarini, tafakkur darajasini va qiziqishlarini inobatga olgan holda tanlanishi zarur. Shu tarzda tashkil etilgan ta'lim jarayoni nafaqat matematik bilimlarni chuqurlashtiradi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

² Jumayev, M. E., Jumayev, E. E., & Adilxanova, N. A. (2016). Matematika o'qitish metodikasi. *OO 'Yu uchun darslik.* Toshkent. "Turon-Iqbol".

³ Xabibuloxonovna, M. Z. (2024). Umumta'lim maskanlarida matematika va informatika o'qitishdagi muammolar va ularni hal etish. *Analysis of modern science and innovation*, 1(2), 52-59.

Zamonaviy o'qituvchining muammolardan biri muammolarni aniqlash va aniq misollar bilan o'quvchilarga tushuntirish. Bu sifat ta'lim tizimini barpo etishning juda muhim shartidir.⁴ Boshlang'ich sinf o'quvchilariga harfiy ifodani o'rgatishda an'anaviy uslublardan ko'ra, interaktiv va hayotga yaqinlashtirilgan metodlar samaraliroq hisoblanadi. Ayniqsa, ko'rgazmali vositalar va real hayotiy vaziyatlar asosidagi topshiriqlar o'quvchilarning mavzuni anglash darajasini oshiradi. Shu bilan birga, harfiy ifodalarni o'rgatishda asta-sekinlik, takrorlash va mustahkamlovchi topshiriqlarning mavjudligi metodikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri ekanligi aniqlangan. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga harfiy ifodani o'rgatish uchun ko'rgazmali vositalardan foydalanish, o'yinli va interaktiv metodlar joriy etish, hayotiy misollar bilan tushuntirish, guruhli va individual ishlarni uyg'unlashtirish kabi metodik yondashuvlar samaralidir. Bu metodlar o'quvchilarda harfiy ifodani tushunish va undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirishda yuqori natija beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jumayev, M. E., Jumayev, E. E., & Adilxonova, N. A. (2016). Matematika o'qitish metodikasi. OO 'Yu uchun darslik.) Toshkent. "Turon-Iqbol.
2. Mashrabovna, T. O. (2024). Matematika darslarida innovatsion texnologiyalar. Modern educational system and innovative teaching solutions, 1(4), 937-940.
3. Xabibuloxonovna, M. Z. (2024). Umumta'lim maskanlarida matematika va informatika o'qitishdagi muammolar va ularni hal etish. Analysis of modern science and innovation, 1(2), 52-59.

TA'LIM SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MAKTABGACHA TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Asqarova Dilafroz Ibroximovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini o'yin, sensorika, vizual vositalar, interaktiv texnologiyalar orqali tashkil qilishning afzalliklari tahlil qilinadi. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarning – Montessori, STEAM metodlarning o'ziga xos jihatlari va ularning bola shaxsining har tomonlama rivojiga ta'siri haqida fikrlar keltirilgan. Raqamli texnologiyalarning maktabgacha ta'limda qo'llanilishi va pedagoglarning innovatsion kompetensiyasining ahamiyati ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, innovatsion texnologiyalar, interfaol metod, zamonaviy ta'lim, o'yin texnologiyalari,

Bugungi globallashuv davrda insoniyat taraqqiyoti bilim va texnologiyalarga asoslanayotgan bir paytda, ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifa – shaxsni mustaqil fikrlay oladigan, ijtimoiy faol, raqobatbardosh va zamonaviy kasb-hunarlariga mos ravishda tayyorlashdan iboratdir. Bunday maqsadga erishishda esa innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy ta'limdan farqli ravishda, bu yondashuvlar o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularni ijodiy fikrlashga, o'zini erkin ifoda etishga va hayotiy muammolarni mustaqil hal qilishga yo'naltiradi.

⁴ Mashrabovna, T. O. (2024). Matematika darslarida innovatsion texnologiyalar. *Modern educational system and innovative teaching solutions*, 1(4), 937-940.

O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy texnika va pedagogik vositalar bilan jihozlash, pedagoglarni innovatsion metodikalar bo'yicha muntazam qayta tayyorlash, davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlarini ko'paytirish orqali ushbu bosqichdagi ta'lim sifati sezilarli darajada yuksalmoqda.

Maktabgacha ta'lim bolalar shaxsining shakllanishi va rivojlanishida hal qiluvchi bosqich bo'lib, bu davrda berilgan tarbiya va ta'lim bolalar ongiga chuqur o'rnashadi va ularning kelajakdagi intellektual, ijtimoiy va ruhiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini zamon talablari asosida takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish muhim vazifa sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda. Bunday yuksak maqsadlarga erishishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

An'anaviy ta'lim uslublaridan farqli o'laroq, zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalarning o'ziga xos psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini o'yin, harakat, hissiy tajriba va tasavvur asosida tashkil etishga yo'naltiriladi. Chunki, bu yoshdagi bolalar bilimni tayyor shaklda emas, balki uni mustaqil kashf qilish, harakat orqali o'zlashtirishni samarali qabul qiladilar. Innovatsion pedagogik texnologiyalar bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, nutq faolligi, estetik did va muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim vositaga aylanmoqda. Masalan, "STEAM" yondashuvi orqali bolalar turli fanlar o'rtasidagi bog'liqlikni tushunadi, muammoli vaziyatlar yechimini izlashga o'rganadi. Bu uslub orqali ularning ijodiy tafakkuri va kuzatuvchanligi rivojlanadi.

"Montessori", "Reggio Emilia", "Frene", "Waldorf" kabi dunyo miqyosida tan olingan innovatsion pedagogik konsepsiyalar maktabgacha ta'limda keng qo'llanilmoqda. Masalan, Montessori tizimida bola mustaqillik, erkin tanlov va o'z mehnatiga nisbatan mas'uliyat hissi orqali o'rgatiladi. Bu metod bola faoliyatining markazida uning shaxsiy qiziqishlari va tabiiy rivojlanish sur'atini inobatga oladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar orasida interfaol metodlar – rolli o'yinlar, dramatisatsiya, trening elementlari, didaktik o'yinlar, sensor rivojlantiruvchi muhitdan foydalanish kabilar ham ta'lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi. Bunday metodlar orqali bolalar muayyan bilimlarni o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zaro muloqot qilish, jamoada ishlash, o'z fikrini ifoda etish va eshitishni o'rganadilar. Raqamli texnologiyalarni maktabgacha ta'limga joriy etish ham katta istiqbollarni ochmoqda. Interaktiv doskalar, multimediali darsliklar, virtual animatsion dasturlar, interaktiv ilovalar bolalarning vizual va kinestetik o'rganish qobiliyatini qo'llab-quvvatlaydi. Raqamli vositalar orqali bolalar ranglar, shakllar, tovushlar bilan o'zaro aloqada bo'lib, tajriba yo'li bilan bilimlarni chuqurroq anglaydilar.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning samarasi ularni to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llay oladigan pedagog shaxsiga bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar nafaqat metodikani bilishi, balki har bir bolaning individual imkoniyatlarini aniqlay olish, unga nisbatan kreativ yondasha bilish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Bu esa pedagogik salohiyat, kasbiy kompetensiya va innovatsion fikrlashni doimiy rivojlantirishni talab etadi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosiy omillardan biri bo'lib, ular tarbiyalanuvchilarning faolligi, ijodkorligi va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalarni joriy etish – nafaqat pedagogik mahoratni talab qiladi, balki doimiy o'zgaruvchan zamon talablari bilan hamohang bo'lishni taqozo etadi. Demak, ta'limning kelajagi – innovatsiyalardadir. Ularni to'g'ri tanlash va samarali qo'llash esa bizning pedagogik mas'uliyatimizdir. Maktabgacha ta'limda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali bolalarning intellektual, ijtimoiy va ruhiy rivojlanishini yanada samarali tashkil etish mumkin. Bu yondashuvlar o'quv-tarbiyaviy jarayonni hayotga yaqinlashtiradi, bolalarda mustaqil o'rganish

va ijodiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantiradi. Zamonaviy ta'limni muvaffaqiyatli tashkil etish esa pedagoglarning yangilikka ochiqligi, doimiy izlanishi va har bir bola shaxsiga yondashish madaniyatiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Махкамоба, Н. (2022). *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: Ilm Ziyoni nashriyoti.
2. Qodirova, G'.X. (2020). *Maktabgacha ta'lim metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi.
3. Qosimova, Z. A. (2021). "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida zamonaviy interfaol usullardan foydalanish", *Ilmiy-amaliy jurnal*, №3.
4. Montessori, M. (2017). *O'qitish siri*. Toshkent: Sharq nashriyoti.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
6. Resnick, M. (2017). *Lifelong Kindergarten: Cultivating Creativity through Projects, Passion, Peers, and Play*. MIT Press.

DUNYOQARASH TUSHUNCHASI, UNING TURLARI VA RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Nabijonova Feruza Valijon qizi

FarDu Ijtimoiy-gumatiar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada dunyoqarash tushunchasi, uning turlari, mohiyati, kengaytirish usullari haqida so'z borgan. Dunyoqarash bola tug'ilgandan to umri tugagunga qadar rivojlanib boradi. Maktabgacha ta'lim muassasalardan boshlab bolalarning dunyoqarashi ilmiylashib boradi. Keyingi davrlarda ya'ni umumiy o'rta ta'lim maktablardagi o'quv faoliyatida ilmiy dunyoqarash yanda rivojlanib boradi.

Kalit so'zlar: dunyorash, falsafiy dunyoqarash, mifologiya, kichik yoshdagi o'quvchilar, ta'lim, tarbiya.

Dunyoqarash — bu insonlarning tevarak-atrofdagi bo'layotgan voqe'likka o'zining bildirgan munosabatlarining yig'indisidir ya'ni subyektiv hodisalarni baholovchi qarorlar to'plami hisoblanadi.

Dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog'liq. Dunyoqarash jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan. Dunyoqarash insonning o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu jihatdan dunyoqarash voqelikning inson ongidagi subyektiv in'ikosidir. Ayrim individning ongi bilan bog'langan individual dunyoqarash, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog'langan ijtimoiy dunyoqarash mavjud. Bular bir-birini to'ldiradi, bir-biriga ta'sir qiladi, bir-birini rivojlantiradi. Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy in'ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plagan bilimlari asosida individning dunyoqarashi paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash shakllanadi.

Dunyoqarash insoniyatning tarixiy taraqqiyoti mobaynida rivojlanib borgan. Uning quyidagi shakllarini ko'rsatish mumkin:

Mifologik yoki afsonalarga tayanuvchi dunyoqarash.

Mifologik yoki afsonalarga tayanuvchi dunyoqarash voqelik haqidagi mifologik bilimlar to'plangan va tizimga solingan davrda vujudga kelgan, borliqning inson ongidagi xayoliy in'ikosi sifatida qadimgi davr kishilari uchun xos bo'lgan. Ular voqelikni turli rivoyatlar va afsonalar asosida tasvirlab, uni qahramonlar, yovuz va xayrli kuchlarni aks ettiruvchi obrazlar tarzida bilishgan. Tabiatdagi jonsiz jismlarni jonlantirib, olov, suv, havo, tabiat hodisalarini ham muayyan jonli obrazlarning namoyon bo'lishi deb hisoblashgan.

Diniy dunyoqarash

Diniy dunyoqarash olamdagi voqea va hodisalarning sabablarini ilohiy, g'ayritabiiy kuch bilan bog'lab tushuntiradi. Diniy e'tiqod, tuyg'u, diniy aqidalarga ishonish, ilohiy kuchlarga sig'inish diniy dunyoqarashning muhim jihatlari hisoblanadi.

Turmush bilan bog'langan (kundalik) dunyoqarash. Bunda aqlga sig'adigan tasavvurlar, olam va odam to'g'risidagi oddiy an'anaviy qarashlar aks etadi.

Falsafiy dunyoqarash

Falsafiy dunyoqarashda butun borliq, tabiat, jamiyat, inson ruhiyati va tafakkurining eng umumiy jihatlari idrok etiladi, shu asosda olamning umumlashgan nazariy modeli yaratiladi. Falsafiy dunyoqarash dunyoqarashning boshqa shakllariga tayanadi, ulardagi umumiy qonuniyatlarni, jihatlarni anglashga harakat qiladi. Falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi falsafaning paydo bo'lishi bilan uzviy bog'liq. Inson voqelikka muayyan maqsad, manfaat va qiziqishlardan kelib chiqib yondashadi. Dunyoqarashning mafkura bilan bog'langanligining sababi ham shundadir. Dunyoqarashning ko'lami, mazmuni, markazi yoki tayanch nuqtasi kabi jihatlari bor. Dunyoqarash ko'lami individning butun hayoti mobaynida rivojlanib, kengayib boruvchi jihatini ifodalaydi. Dunyoqarash mazmuni individ ongida voqelikning xilma-xil jihatlari qay darajada qamrab olinganligini aks ettiradi. Dunyoqarash markazi yoki tayanch nuqtasi deganda, individning qanday shaxsiy hamda ijtimoiy manfaatlar majmuasi doirasidan turib olam haqida fikr yuritishi tushuniladi. Inson o'z hayotida o'zidan ilgari o'tgan kishilarning turmush tajribasiga, to'plagan bilimlariga tayanadi. Dunyoqarash kishilarning axloq me'yorlari, hayotdagi intilishlari, qiziqishlari, mehnat va turmushlariga ta'sir ko'rsatib, katta amaliy ma'no kasb etadi.

Ilmiy dunyoqarash. Ilmiy dunyoqarash – bu barcha dunyoqarashlarni jamlab oluvchi va bu dunyoqarashlarning faqatgina ilm-fan tomonidan tasdig'ini topgan jihatlarnigina o'zlashtirib shu jihatlarga tayanuvchi dunyoqarashdir.

Ilmiy dunyoqarashlarga misol qilib, tulki ayyor hayvon emas balki, yovvoyi, go'shtxo'r hayvon ekanligi, quyon qo'rroq hayvon emas balki kemiruvchilar oilasiga mansub bo'lgan turkumligini aytishimiz mumkin.

Bola tug'ilgandan so'ng atrof-muhitni faqat kuzatish yo'li orqali o'zlashtiradi. Masalan, quyosh chiqishi va botishi, shamoldan so'ng aksariyat holatda yomg'ir yog'ishi, fasllar almashinuvi va h.k. lekin bu hodisalarning asl mohiyatini tushunishlari uchun ularga ilm kerak. Ta'lim jarayonida ushbu ong ostidagi ma'lumotlar ilmiy jihatdan o'z tasdig'ini topadi va ulardagi ilmiy dunyoqarash rivojlanib boradi. Ta'lim jarayonidagi fanlar dunyoqarashlarning rivojlanishiga katta yordam beradi. Masalan, "Tabiiy fanlar"ni olaylik. Bu fan tabiat haqidagi jamiiki bilimlarni o'z tarkibiga oladi. Bu fan orqali o'quvchining tabiat haqidagi ongi shakllanadi, tasavvur boyligi oshadi va dunyoni to'liqroq anglashi kuchayib boradi. Fanlararo bilimlarni berishda dunyoqarashni o'stirish uchun juda ko'p yo'llardan foydalaniladi. Masalan, ko'rsatmali yoki hikoya metodlaridan. Bu metodlar orqali ongda tasavvuri qiyin bo'lgan ma'lumotlar jonlanadi va o'zaro bog'liqlik hosil qiladi.

Qachonki, kelajak avlodning ilmiy dunyoqarashi keng bo'lsagina, yangiliklar ko'payadi, mustaqil hayotga erishiladi va jamiyat rivojlanib boradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.R.Isayeva, "Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida og'zaki o'qitish metodlari" Vol. 2 No. 20 (2023): Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. 143-146-betlar
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
3. Oybek "Navoiy" romani. Asr oshgan asarlar turkumi – T.: "Sharq" nashriyoti, 2012.496- bet.
4. Y.V.Malikova, O.E.Tigay, Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. I-qism – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.120-b.52-bet.
5. Y.V.Malikova, S.V.Kosyanenko, Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. II-qism – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.65-136-b.
6. Y.V.Malikova, Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. I-qism – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. 38-bet.120-b.
7. В.Я. Распопов Научное мировоззрение философия и практика обучения специальности Известия ТулГУ. Технические науки. 2-017. Вып. 9. Ч. 2. 212-213-ст

**МНЕМОТЕХНИЧЕСКИЕ ИГРЫ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ
КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА**

Юлдашева Дилшода Тулкиновна

Преподаватель Ферганского государственного университета

Аннотация: В статье обсуждается роль подвижных игр в системе дошкольного образования. Подвижные игры оказывают положительное влияние на физическое, умственное и моральное развитие детей. Через эти игры дети получают возможность моделировать различные трудовые процессы и социальные задачи, а также развивать память и навыки. Мнемотехнические игры помогают улучшить память и способности к обучению детей. В статье приведены виды подвижных и мнемотехнических игр, их польза для детей, а также то, как с помощью игр можно развивать воспитательные и образовательные процессы. Эти игры помогают усилить когнитивную активность детей, позволяя им усваивать новые знания и применять их в повседневной жизни, что имеет большое значение.

Ключевые слова: Подвижные игры, Симуляция, Мнемотехнические игры, Дошкольное образование, Ребёнок, Объект

В Стратегии развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы обозначены такие задачи, как «Улучшение процесса дошкольного образования на основе научно обоснованных подходов, расширение сети дошкольных образовательных учреждений, коренное улучшение условий для всестороннего интеллектуального, эстетического и физического развития детей, существенное повышение охвата детей дошкольным образованием, обеспечение возможности использования возможностей, повышение квалификации педагогов и специалистов». Развитие системы дошкольного образования, включая развитие интеллектуального и когнитивного мышления детей, воспитание их патриотами и трудолюбивыми людьми, обеспечение успешного перехода в школьное образование — это актуальные задачи, поставленные для реализации.

Подвижные игры являются результатом имитативных действий, интересов и творческой активности детей. Это активная и увлекательная деятельность, которая возникает в процессе наблюдения за природно-социальными явлениями, трудовыми процессами и переноса этих элементов в физические игры в соответствии с возрастом ребенка, его мыслительными способностями и визуально-образным мышлением.

Узбекские педагогические ученые Т. Усмонхо'жаев и Ф. Хо'жаев отмечают, что имитационные черты детей ярко проявляются в подвижных играх: «Игры детей

дошкольного возраста в основном состоят из подражания. Ребенок наблюдает за окружающим миром, включает его элементы в игру, и через эту игру начинает понимать окружающий мир, у него формируется определенное отношение к жизненным событиям», — подчеркивают они. В дошкольных образовательных учреждениях игры, направленные на имитацию труда, служат объективным жизненным источником и ярко выражают элементы соревнования.

Подвижные игры включают физические упражнения, связанные с проявлением качества и способностей у детей, а также преодолением препятствий. Через игры дети наблюдают за окружающим миром, получают жизненный опыт, учатся преодолевать трудности и включать элементы своего воображения в игру, что позволяет им исследовать окружающий мир.

Упражнения такие как ходьба, бег, прыжки, метание, бросание, лазание развивают физические способности детей. Их движения совершенствуются, улучшаются функции сердечно-сосудистой и дыхательной систем.

Подвижные игры оказывают положительное влияние на интеллектуальное и моральное развитие детей. В играх, в которых участвуют несколько детей, они демонстрируют умение достигать целей, проявляют инициативу и решимость, ощущают ответственность не только за свои, но и за действия своих товарищей в рамках команды.

Содержание подвижных игр включает множество когнитивных материалов, которые расширяют мировоззрение и обогащают воображение ребенка. Независимо от формы, в которой проявляется игровая деятельность, она приносит радость детям, вызывает у них положительные эмоции. Огромная воспитательная сила подвижных игр заключается именно в том, что они являются источником этих радостных эмоций.

Существуют многочисленные подвижные игры, которые развивают физическую выносливость у детей, способствуют развитию трудовых навыков, стимулируют интерес к труду, улучшают зрение и повышают ловкость. Применение таких подвижных игр в практике дошкольного образования для подготовки детей к общественно полезному труду имеет большое значение. Для этого необходимо тщательно анализировать тематику подвижных игр и выбирать необходимые для детей разного возраста. Такие игры могут быть направлены на симуляцию или развитие профессиональных навыков. Приведем примеры некоторых игр:

Игры-симуляции: Например, игры типа "Farm Simulator" или "Construction Simulator", которые симулируют трудовую деятельность в сельском хозяйстве или строительстве.

Игры, связанные с физическими упражнениями: Некоторые игры показывают трудовую деятельность через физические упражнения, например, такие игры как "Fitness Boxing" или "Beat Saber", которые помогают изучать физическую активность, необходимую для трудовой деятельности.

Стратегические и управляющие игры: Игры, такие как "Factorio" или "Cities: Skylines", которые осуществляют деятельность по управлению производственными процессами или городами, и требуют управления трудовыми процессами.

Мнемонические игры: в дошкольном образовании чрезвычайно полезны для развития памяти и способности к обучению у детей. Через эти игры можно помочь детям запоминать новую информацию и учиться интересно и увлекательно. Приведены некоторые виды мнемонических игр для дошкольников и способы их реализации:

Мнемонические игры: Мнемотехнические игры — это игры, направленные на улучшение памяти и способности к сохранению информации. Они часто включают различные методы, такие как визуальные образы, истории, интересные факты или забавные техники, которые помогают укрепить память. Мнемотехнические игры можно объяснить следующим образом:

Игры с изображениями: Показ детям различных картинок или карточек, а затем побуждение их запомнить эти изображения. Например, игра "Pitko-fleshka" — детям показывают различные картинки на несколько минут, после чего они должны вспомнить эти изображения. Разделение крупных изображений на несколько частей и сбор их в полное изображение помогает развивать навыки запоминания и обучения трудовой деятельности.

Ритмичные игры: Изучение трудовых процессов или различных задач в форме стихов или песен. Например, создание песни "Тщательная уборка" или стихотворения "Бегущий пес".

Комбинаторные игры:

Мнемотехнические пазлы: Создание игр для выполнения мнемонических задач с помощью пазлов. Например, дети должны составить определенный трудовой процесс или понятие с помощью разноцветных карточек.

Символьное распознавание: Введение определенного изображения или объекта для каждой буквы или цифры и обучение детей запоминать эти изображения.

Ролевые игры:

Трудовые симуляции: Поощрение детей к выполнению различных трудовых задач через игры. Например, игра "Офис по труду", в которой дети должны помогать друг другу, выполнять трудовые задачи и работать в определенной роли.

Использование применяемых объектов: Использование специальных предметов для изучения трудовой деятельности, например, проведение игр с уборочным инвентарем или садовыми инструментами.

Игры-тесты:

Тесты на запоминание: Показ детям различных объектов или изображений и затем задавание вопросов о них. Например, "Что вы видели?" или "Какого цвета был этот объект?".

Запоминание задач: Упражнения на запоминание коротких задач и их выполнение, например, запоминание списка домашних заданий и их выполнение.

Визуальные и сенсорные игры:

Игры с изображениями: Показ трудовых процессов с помощью визуальных материалов и обучение детей запоминать их. Например, проведение игр с визуальными картами, изображающими трудовые задачи.

Сенсорные игры: Создание сенсорных игр для детей, например, игры, которые побуждают их запоминать через ощущение различных материалов руками.

Образовательные карточки:

Флеш-карточки: Использование мнемонических карточек для обучения детей новым словам или понятиям. Например, обучение детей слов или изображений, связанных с трудовой деятельностью, с помощью карточек.

Игровые карты: Использование специальных карт для обучения детей выполнению определенной задачи. Например, использование карт "Уборка" для обучения детей, как выполнять домашние задания.

Эти игры помогают детям развивать память и трудовые навыки. Через игры дети осваивают новую информацию в увлекательной и интерактивной форме, что делает этот процесс более интересным и эффективным. Систематическое использование мнемотехнических процессов, основанных на определенной таксономии, способствует развитию когнитивной активности у детей дошкольного возраста.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Закон Республики Узбекистан "О дошкольном образовании и воспитании". — Т., 2019. // Национальная база данных законодательных актов, 17.12.2019 г., 03/19/595/4160.

2. Постановление Президента Республики Узбекистан от 8 мая 2019 года "О концепции развития системы дошкольного образования Республики Узбекистан до 2030 года" № PQ-4312. // Национальная база данных законодательных актов, 10.05.2019 г., 07/19/4312/3106.

3. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан от 13 мая 2019 года "О дальнейшем совершенствовании деятельности учреждений дошкольного образования" № 391. // Национальная база данных законодательных актов, 14.05.2019 г., 09/19/391/3120.

4. Кадырова Ф., Ш. Тошпулатова, Н. Каюмова, М. Азамова "Дошкольная педагогика". — Т.: Таффаккур, 2019. — 200 с.

O'SMIR YOSHDAgi O'QUVCHILARDA O'QUV INTIZOMINI RIVOJLANTIRISHNING GENDER XUSUSIYATLARI

Aripov Shokirjon Olimovich

Farg'ona davlat universiteti, p.f.b.f.d (PhD) Pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda o'smir yoshdagi o'quvchilarda gender xususiyatlarni shakllantirishda, ta'lim jarayonida intizomlilik tushunchasini shakllantirish, o'smir yoshdagi o'quvchilarni gender yondashuv asosida jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarni yoshlar ongiga salbiy ta'siri va oiladagi munosabatlarga doir qarashlari haqida so'z brogan.

Kalit so'zlar: o'smir, o'quvchilar, gender xususiyatlar, qintizomiylik, gender tenglik, yoshlar, jamiyat, davlat, qarashlar;

Yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlarining muvaffaqiyati ularning yoshi va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olishga bog'liqdir. Bu holat burilish hisoblangan o'smirlik davrining alohida xususiyati bo'lib, u ko'proq shu davrga taalluqlidir. O'smirlik davrini o'tish davri deb yuritadilar, chunki ana shu davrda bolalikdan kattalik holatiga o'ziga xos o'tish davri yuzaga keladi. U psixik jarayonlarning, o'quvchi faoliyatlarining jiddiy ravishda qayta qurilishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun o'smirlik yoshi o'zaro munosabat shakllarida, faoliyatni tashkil qilishda qat'iy o'zgarishlarni talab qiladi.

Hozirgi kunda olimlar tomonidan ta'lim va tarbiya yo'nalishidagi o'quv darsliklar, metodik qo'llanmalar, monografiya, dars ishlanmalar va test topshiriqlarining yangi zamonaviy usullari yaratilib, mazkur metodik ta'minot ta'lim sifatini oshirish, o'quvchi va o'qituvchi faoliyatini yaxshilash, o'quvchilardagi salbiy xususiyatlarni bartaraf etishda qo'l kelmoqda va maktab psixologlari va sinf rahbarlari uchun metodik yordam bo'lib xizmat qilmoqda.

O'smirlarni ta'lim-tarbiya berish ishlarida goho uchraydigan qiyinchiliklar bu yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishi qonuniyatlari va xususiyatlarini ba'zan yetarli darajada bilmaslik yoki inkor qilish natijasida paydo bo'ladi. Bu davr tarbiya uchun ancha qiyin davr hisoblanadi. Chunki bolaning katta odamga aylanish jarayonining o'zi qiyin, bu jarayon psixikaning, odamlar bilan bo'lgan munosabat shakllarining jiddiy ravishda qayta o'zgarishi hamda xayot sharoiti va faoliyatining o'zgarishi bilan bog'liqdir.

Agar o'smir yoshdagi o'g'il va qizlarni bolalik chog'ida unga odob-ahloq o'rgatishni an'anaviy shakl va usullaridan foydalanilgan bo'lsa, endi ular o'smir uchun yaroqsiz bo'lib qoladi. Avval o'smirlar ota-onalari, tarbiyachilarning ahloq-odob haqidagi gaplarini bajonidil eshitgan bo'lsalar, endilikda bunday ta'sir bolani zeriktiradi yoki yoqmay qoladi. Natijada, undan kattalarning fikrlariga qarshi chiqish yoki rad etish kabi xislatlar paydo bo'la boshlaydi. Bular esa bu davrning «qiyin», «murakkab» davr bo'lishiga sabab bo'ladi.

O'smirlarga ta'lim-tarbiya berishdagi qiyinchiliklar shundan iboratki, bunda o'smir bilan bo'ladigan munosabatlarda uning hayoti va faoliyatini nazorat qilish shakllarini o'zgartirish muhimdir. Ularga ta'sir qilishning qandaydir yangi usullari va vositalarini topish lozim bo'ladi. Bunda albatta, xar bir yosh bilan alohida munosabatda bo'lish maqsadga muvofiqdir.

O'smirlarning psixik taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlar ularning faoliyatlari tug'dirgan yangi ehtiyojlar bilan bu ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlari o'rtasidagi qarama-qarshiliklarning yuzaga kelishi va bartaraf qilinishidan iboratdir.

Bu qarama-qarshiliklar o'smirlarning ortib borayotgan jismoniy, intellektual va ahloqiy imkoniyatlari bilan ularning eski, ilgari tarkib topgan olam bilan o'zaro munosabat shakllari, ular faoliyatining eski qarama-qarshiliklar, jamiyat, kattalar va jamoa tomonidan o'smirga nisbatan ortib borayotgan talablar bilan o'smirlar real xatti-harakatlarning shakllari o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir.

Bu qarama-qarshiliklar ancha yuksak darajadagi psixik taraqqiyotni, ancha murakkab shakldagi faoliyat turlarini va shaxsning kator yangi psixologik sifatlarini tarkib toptirish orqali bartaraf qilinadi. Buning natijasida o'smirning psixik taraqqiyotining yanada yuksakroq bosqichga o'tishi amalga oshiriladi.

O'smirning hayot sharoiti unga beriladigan ta'lim-tarbiya va uning faoliyatini to'g'ri tashkil qilish orqali ijtimoiy foydali mehnatga jalb qilish orqali qiyinchiliklar bartaraf qilinadi.

Bu o'rinda o'smir yoshdagi o'g'il va qiz bolalarning g'oyaviy maslagini hisobga olish ham nihoyatda muhimdir. O'smir shaxsi individualligini shaxs mazmuniga, avvalo uning g'oyaviy maslagi, ya'ni uning qiziqishlari, ideallarini bilish kerak. Yoshlarga individual munosabatda bo'lishda ijtimoiy maslak sifatida ularning ijtimoiy qiziqishlarini bilish ayniqsa muhimdir.

Yoshlarni emotsional-irodaviy xususiyatlarini bilish ham ularni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlar bilan individual munosabatda bo'lishda uning qanchalik tinch, mo'minligi yoki emotsionalligi, hissiyotga beriluvchanligini, ya'ni tevarak-atrofdagilardan farq etish yoki farq etmasligini, effektga moyil yoki moyil emasligini, o'z hissiyotini tuta olish-olmasligini va shuningdek, unda qanday xislar ustun ekanligini bilish juda muhim.

Yoshlarning ahloqiy xislatini hisobga olish ham muhim. Chunki yoshlarning g'oyaviy maslagi uning ahloqiy xislatida ko'rinadi. Ammo, ba'zan ahloqiy maslak bilan yoshlarning hulqi to'liq ravishda munosib kelmay qoladi. Kattalar har bir yoshlarning qanchalik vatanparvarligini, mehnatsevarligini, qanchalik hurmat qilishini, qanchalik to'g'riligini va vijdonligini, o'rtoqlik va hamkorlikni qanchalik xis qilishini kuzatib, bilib borish zarur.

Salbiy axloqiy sifatlariga ega bo'lgan yoshlarda qo'pollik, yolg'onchilik, bezorilik, egoizm, qaysarlik, o'jarlik, intizomsizlik, qoidalarga rioya qilmaslik, o'zbiarmonchilik kabilar kiradi va bunday xislatlarga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda (jamoa orasida tarbiyalanganda ham) faqat ularga yakkama-yakka yondashish lozim. Chunki ular jamoa yoki ko'pchilik orasida o'zlarining ayblarini oshkor bo'lishligini yoki tarbiya, tanbeh berayotgan kishining nasixat yoki ko'rsatmalariga bo'ysunishni yoqtirmaydilar, ular bilan muomalada nihoyatda extiyotkorlik, samimiylik, do'stona munosabatda bo'lishlik talab qilinadi. Tarbiyasi qiyin bolalar, yoshlar bilan ishlashda uning xarakteri, qiziqishlariga xos xususiyatlarini e'tiborga olish lozim. Ko'p nasixat qilmaslik, urishmaslik, ovozini baland ko'tarmaslik, ko'p gapirmaslik maqsadga muvofiq. O'zaro samimiy munosabat, shaxsiy namuna (mehnat, o'qish jarayonida) oila va maktabdagi kishilarning ishga ijobiy munosabatigina yoshlarda shunday bo'lishiga xavas tug'diradi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlar xatti-xarakatlarini ijobiy yo'nalishga burib yuborish uchun ularda mas'uliyat, g'urur, javobgarlik, ishonch kabi yuksak xislarni tarkib toptirish lozim. Buning uchun ularga yoshi, kuchi, qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olib, topshiriqlar berish ayni muddaodir. Ularga kichik jamoani, sport seksiyasini, «tirik burchak»ni boshqarish vazifasini ishonib topshirish natijasida salbiy fe'l-atvorlarni kamaytirish mumkin.

Ularni o'zlari qiziqqan to'garaklarga jalb qilish orqali o'qishga salbiy munosabatlari asta-sekin yo'qolib boradi. Yana eng muhimi shundaki, o'smir yoshdagi o'quvchi shaxsiga ishonish kerak. Ularni qo'lidan keladigan ishlarga e'tiborni berib, uni bajarganidan keyin rag'batlantirish, uni ishni yana ham yaxshi bajarishda o'z fikrlarini bayon qilish ham muhimdir.

Intizomli bo'lish motivining shakllanishi – bu belgilangan qoidalarga va xulq-atvorning ma'lum bir modeliga rioya qilishdan iborat. Lekin bu model xulq-atvorning barcha jihatlarini qamrab olmaganligini inobatga olgan holda shaxs o'zi uchun xayolan uni yaratadi. Bu model

o'quvchi uchun tanish bo'lgan sharoitlarga hamda unda avvaldan shakllangan tasavvurlarga mos bo'ladi.

O'quvchilarning xulq-atvori turli motivlarga asoslangan bo'lishi mumkin. Bu motivlarni 4 guruhga va bu guruhlash asosida intizomlilikning to'rtta tipini ajratish mumkin.

Haqiqiy yoki ongli intizomlilik. U ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan motivlar: burch hissi, o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga intilish va umumiy maqsadga erishishga o'z hissasini qo'shish bilan belgilanadi. Yetuk motivatsiyaga ega bo'lgan o'quvchi o'qituvchining talablarini jamoaviy zarurligi va shaxsiy ahamiyatligini anglaydi. Intizomli inson deb, har qanday sharoitda jamiyat uchun foydali bo'lgan xulq-atvoriga ega bo'lgan va har qanday qiyinchiliklar va noxushliklarga qaramay qat'iyat bilan bu intizomga rioya qilgan insonni atash mumkin.

Konform (taqlidiy) intizom belgilangan talablarga qanday munosabatda bo'lishni anglay olmagan va ko'p hollarda sinfdoshlariga taqlid qiladigan o'quvchilar uchun xarakterlidir. Ularning xulq-atvori barqaror bo'lmay ijtimoiy-psixologik omillar ta'siriga moyildir. Ba'zi o'quvchilarda intizom konform reaksiyalar ta'sirida, boshqalar uchun esa boshqa o'quvchilarning intizomga rioya qilish elementlarini o'z xulq-atvorida qaytarish orqali, uchinchi esa ongli ravishda axloqiy qoidalarga rioya qiladilar.

Pragmatik intizom o'zining xulq-atvori orqali imtiyozlarga, ustunlik va afzalliklarga ega bo'lishga intilishdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, pragmatik intizom o'quvchilarda ko'p hollarda kattalar tomonidan ularning xatti-harakatlariga munosib baho berilmaganda namoyon bo'ladi.

Keskin intizomlilik shaxsni jazolanishdan yoki belgilangan talablarga rioya qilmaslik kabi negativ oqibatlardan qo'rqish natijasida namoyon bo'ladi. Buning sababi talablarning ijtimoiy ahamiyatini anglamasligidir va bu motivatsiya o'z navbatida intizomsizlik shakllanishiga olib keladi. Bunday intizom shaxsning shaxsiy sifatleri va rahbarlarning ishlash usuli xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bunday yondashuvda xodim tomonidan belgilangan talablar noto'g'ri qabul qilinadi yoki umuman qabul qilinmaydi. U doimiy holda o'z xatti-harakatini oqlamoqchi bo'ladi, agar bu intizomsizlik unga foydadan ko'ra zarar bo'lsa ham u talablarga rioya qilishga harakat qiladi.

Intizomlilikning yuqorida sanab o'tilgan ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi tiplari bu sifat rivojlanishining past darajasini belgilaydi, chunki «jazolanishdan qo'rqish, manfaatni ko'zlash kabi vaziyatlarda intizomga ongli ravishda rioya qilinmaydi».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Umarov B. Bolalar tarbiyasi buzilishi va uning oldini olish yuzasidan ota-onalarga maslahatlar /Uslubiy qo'llanma/. – Toshkent, 2012. –76-b.
2. Tojiboyeva X.M. “Gender yondashuv asosida o'smir yoshdagi o'quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari” // Monografiya. – Toshkent: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2021. – 208 bet.
3. Gender muammolar va rivojlanish. Gender tengligi orqali huquqlar, resurslarni olish va o'z manfaatlarini izhor qilish imkoniyatlarni rivojlantirishni rag'batlantirish / Ingliz tilidan tarjima. – M., 2002.
4. Aripov Sh.O. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'g'il bolalarni oilaviy munosabatlarga tayyorlashning pedagogik tizimi// pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)... dis. – Farg'ona, 2023. 133 bet.

**АКТУАЛЬНОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ И
КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ.**

У. Обиджанов

Ферганский государственный университет

Б. Халилова

Ферганский государственный университет

Аннотация: В статье рассматриваются актуальность применения информационных и коммуникационных технологий сегодня в образовании. Рассмотрены перспективы инновационных технологий в преподавании, современное представление об инновационных технологиях их роль и значение, задачи использования различных методов преподавания при проблемном обучении, решении проблемных задач, выходы из ситуаций и перспективы в этом инновационных технологий.

Ключевые слова: эффект информатизации, сфера деятельности, техника и технологии, уровень развития науки, системное реформирование, методическая основа, периодическое применение, спектр, обеспечение соответствия качества, модернизация, цифровизация.

Степень образованности человека в современном мире тем выше, чем шире сфера деятельности и выше степень неопределенности ситуаций, в которых он может действовать самостоятельно, чем более широким спектром вероятных способов деятельности он владеет. Именно это определяет современную развитую систему образования, способную обеспечить требуемый уровень образованности. Развивающиеся в нашей республике процессы реформирования содержания образования, обеспечения соответствия качества готовящихся кадров требованиям проводимых экономических и социальных реформ, а также мирового уровня развития науки, техники и технологий требуют постоянного стимулирования стремлений к науке и образованию. происходящие сегодня изменения, предлагаемые образовательные услуги и внедрение в практику теоретических идей, продвигаемых образовательными учреждениями, осуществляющими эти услуги, их эффективное использование являются одними из важнейших задач, стоящих перед педагогами. Результаты фундаментальных исследований, проводимых в последние годы в области педагогики, до сих пор подтверждают наличие большого количества работ в этом направлении. В последние годы в области образования и воспитания в нашей республике был проведен ряд исследовательских работ и достигнут определенный прогресс в направлении системного реформирования высшего образования в Республике Узбекистан в поднятии на качественно новый уровень процесса подготовки самостоятельно мыслящих высококвалифицированных кадров с современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, модернизация высшего образования, развитие социальной сферы и отраслей экономики на основе передовых образовательных технологий.

Целью инновационного подхода к учебному процессу является развитие у студентов возможностей осваивать новый опыт на основе целенаправленного формирования творческого и критического мышления. При обучения определенного предмета одними из первых по значению являются коммуникативно-информационные технологии направленные на данный предмет. Прежде всего, надо отметить, что в этом виде инновационная деятельность связана с соединением предметов обучения с информатикой. Возникает эффект информатизации и цифровизации учебного процесса, которые должны создать твердую уверенность в том, что эти качества организации учебного процесса характерны для всего современного общества. Здесь возможно использование студентами существующего стремления освоить базовые знания не только по предмету изучения, но и

собственно по информатике.[1] Возникает потребность в различных видах программного обеспечения в ходе освоения плана учебной дисциплины, достижение целей учебной деятельности в результате использования компьютерных возможностей. Сегодня не является секретом, что почти у каждого студента есть в распоряжении стационарный или портативный компьютер, и это открывает возможности для другого формата самостоятельной или ситуативной работы в рамках занятия. Обеспечение учебного процесса элементами информатики частично меняет содержание учебной деятельности, позволяет более подробно в меньшие промежутки времени осваивать те или иные компетенции и создает условия для фундаментальной реорганизации учебно-воспитательной работы. В итоге можно сказать, что в методической основе преподавания закладываются элементы, которые составляют новое направление в обучении с использованием информационных технологий. Главной целью инновационных технологий образования является подготовка молодых кадров к жизни в постоянно меняющемся цифровом мире.[2]

Задачей использования инновационных технологий в образовании является обучение состоящее в ориентации учебного процесса на потенциальные возможности человека и их реализацию.

Образование должно развивать механизмы инновационной деятельности, находить творческие способы решения жизненно важных проблем, способствовать превращению творчества в норму и форму существования человека а также выявлять совокупности закономерностей с целью определения и использования на практике наиболее эффективных, требующих меньших затрат времени.

И поэтому педагоги внедряют в практику такие инновационные технологии, как:

- технологии дифференциации и индивидуализации;
- проектные технологии, предполагающие организацию урока в форме самостоятельного проектирования учебного материала, который в дальнейшем структурируется и моделируется в определенной форме: графической, знаковой или символической;
- технологии проблемного обучения;
- интерактивные технологии;
- информационные технологии:
- мультимедиа - уроки, которые проводятся на основе компьютерных обучающих программ;
- уроки на основе электронных учебников;
- презентации.

Интерактивные технологии завоевывают сегодня всё большее признание и используются при преподавании различных учебных дисциплин. Интерактивное взаимодействие предполагает оперативную обратную связь в реальном времени между человеком и человеком или между человеко-машинными системами. «Сегодня природа человека требует наглядности» - это требование легко можно удовлетворить информационно - коммуникативными технологиями. Для реализации познавательной и творческой активности студентов в учебном процессе используются современные образовательные технологии, дающие возможность повышать качество образования, более эффективно использовать учебное время и снижать долю репродуктивной деятельности учащихся за счет снижения времени, отведенного на выполнение домашнего задания. Актуальность применения информационных и коммуникационных технологий:

- качественно новый тип урока (динамика, информативность);
- быстрота получения нужной информации;
- большой спектр наглядных пособий;
- интерес к предмету, качественная проверка знаний студентов с помощью тренажеров;

- ускорение учебного процесса благодаря более тесному взаимодействию между преподавателем и студентами.

В настоящее время появляется все больше и больше новых цифровых образовательных ресурсов. Их применение позволяет сэкономить время подготовки к уроку, выбрать тот материал, который в полной мере позволит понять новую тему, разнообразить проверку и закрепление. Инновационные технологии обучения следует рассматривать как инструмент, с помощью которого новая образовательная парадигма (пример, модель, образец), может быть претворена в жизнь.[3,4]

Основные образовательные технологии.

- Технология проблемного обучения - это создание в учебной деятельности проблемных ситуаций и организация активной самостоятельной деятельности студентов по их разрешению, в результате чего происходит творческое овладение знаниями, умениями, навыками, развиваются мыслительные способности.

- Информационно-коммуникационные технологии - это изменение и неограниченное обогащение содержания образования, использование интегрированных курсов, доступ в интернет, интерактивные методы обучения, дистанционное взаимодействие.

- Технология разноуровневого обучения даёт преподавателю возможность помогать слабому, уделять внимание сильному. При данной технологии реализуется желание сильных студентов быстрее и глубже продвигаться в образовании. Сильные обучающиеся утверждают в своих способностях, слабые получают возможность испытывать учебный успех и самореализовываться в рамках своих возможностей, повышается уровень мотивации учения.

- Технология проектных методов обучения. Работа по данной методике дает возможность развивать индивидуальные творческие способности студентов, более осознанно подходить к профессиональному и социальному самоопределению.

- Технология исследовательских методов в обучении дает возможность студентам самостоятельно пополнять свои знания, глубоко вникать в изучаемую проблему и предполагать пути ее решения, что важно при формировании мировоззрения. Это важно для определения индивидуальной траектории развития каждого школьника.

- Лекционно-семинарская система помогает студентам подготовиться к сдаче зачетов. Она дает возможность сконцентрировать материал в блоки и преподнести его как единое целое, а контроль проводить по предварительной подготовке студентов.

Однако данной технологией нельзя злоупотреблять, так как можно сделать образовательный процесс малоэффективным: скучным для студентов, что снижает мотивацию к обучению. Кроме того, большие объёмы информации не успевают осмысливаться, а потому плохо запоминаются студентами.

Однако в качестве периодического применения данная технология допустима в колледже, особенно в сочетании с семинарами на проблемную тематику, когда студенты могут актуализировать и применить полученные знания и умения.

- Технология использования в обучении игровых методов. Это могут быть ролевые, деловые и другие виды обучающих игр. Эта технология обеспечивает расширение кругозора, развитие познавательной деятельности, формирование определенных умений и навыков, необходимых в практической деятельности, развитие умений и навыков.

- Здоровьесберегающие технологии. Использование данных технологий позволяют равномерно во время урока распределять различные виды заданий, чередовать мыслительную деятельность с физкультминутками, определять время подачи сложного учебного материала, выделять время на проведение самостоятельных работ, что дает положительные результаты в обучении.

- Технология дистанционного обучения - становится всё более и более актуальной. Элементы данной технологии можно использовать и для дистанционного общения преподавателя со студентами при выполнении домашнего задания (индивидуально-

консультативная дистанционная методика), при работе над проектом, а так же для полноценного обучения при временной нетрудоспособности студентов.

- Технология модульного обучения обеспечивает индивидуализацию обучения: по содержанию обучения, по темпу усвоения, по уровню самостоятельности, по методам и способам учения, по способам контроля и самоконтроля. [1,5]

Достоинства инновационных технологий заключаются в следующем они дают возможность студентам приобретать прочные и осознанные знания, развивают самостоятельность в учебной деятельности, увеличивают время проговаривания учебного материала на уроке, создают положительный эмоциональный настрой, нет боязни неправильных ответов, чувство уверенности преобладает, повышается коммуникативная культура, растет мотивация к дальнейшему образованию, повышается самооценка студента, снимается психологическое напряжение студента и преподавателя. Таким образом, к настоящему времени разработано большое число технологий обучения, что побуждает к теоретическому обобщению, анализу и классификации этих инноваций и выбору оптимальных.

ЛИТЕРАТУРА

1. Найма И. Развитие современных педагогических технологий (организационно-деятельностный подход): Дис. канд. пед. наук. - Пятигорск, 1993. - С. 97.

2. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998. - С. -5.

3. Суртаева Н. Н. Проектирование педагогических технологий в профессиональной подготовке учителя (на примере естественно-научных дисциплин): Дис... докт. пед. наук. - М., 1995. - С. 219 - 225.

4. Суртаева Н.Н. Педагогические технологии в реализации гуманистической концепции образования - 1997. - № 7. - С. 17

5. Abdulazizovna K. B. et al. Information technologies as a step to the development of society //international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – Т. 16. – №. 3. – С. 73-77.

6. Abdulazizovna K. B. et al. Timely implementation of personal education measures in the context of globalization //international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – Т. 16. – №. 3. – С. 87-92.

KIMYO O'QITUVCHISINING O'ZINI-O'ZI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING USTUVOR PEDAGOGIK VAZIFALARI

X.M.Jo'rayev

Farg'ona davlat universiteti, Kimyo kafedrasi o'qituvchisi

Аннотация: Ushbu maqolada kimyo o'qituvchisining o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishdagi ustuvor pedagogik vazifalar tahlil qilingan. Kimyo fani o'ziga xos murakkabliklari, tez-tez yangilanib boradigan ilmiy axborotlari bilan ajralib turadi. Shuning uchun ushbu fan o'qituvchisining o'z ustida ishlashi va doimiy yangiliklarga tayyor bo'lishi muhim. Maqolada o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni qo'llash, mustaqil izlanish olib borish, darsda refleksiya yuritish kabi pedagogik vazifalar yoritilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются приоритетные педагогические задачи формирования компетенции саморазвития преподавателя химии. Химия отличается своими специфическими сложностями и постоянно обновляющейся научной информацией. Поэтому важно, чтобы преподаватель этого предмета работал над собой и

был готов к постоянным новшествам. В статье освещены педагогические задачи, такие как развитие профессиональной компетенции учителя, применение современных технологий, проведение самостоятельных исследований, рефлексия в ходе урока.

Annotation: This article analyzes the priority pedagogical tasks in developing the self-development competence of a chemistry teacher. Chemistry is distinguished by its specific complexities and frequently updated scientific information. Therefore, it is important for the teacher of this subject to engage in continuous self-improvement and be prepared for constant innovations. The article highlights pedagogical tasks such as developing the teacher's professional competence, applying modern technologies, conducting independent research, and implementing reflection during lessons.

Kalit so'zlar: kimyo o'qituvchisi, o'zini-o'zi rivojlantirish, pedagogik kompetensiya, kasbiy yondashuv, ta'lim sifati, innovatsiyalar, refleksiya.

Ключевые слова: учитель химии, саморазвитие, педагогическая компетенция, профессиональный подход, качество образования, инновации, рефлексия.

Keywords: chemistry teacher, self-development, pedagogical competence, professional approach, quality of education, innovations, reflection.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan faqat fan bo'yicha bilimli bo'lishni emas, balki uzluksiz o'rganish, o'z ustida ishlash, innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va ularni o'quvchilarga yetkazish qobiliyatini talab qilmoqda. Ayniqsa, kimyo o'qituvchisi uchun bu kompetensiyalar muhim, chunki kimyo – amaliy, tajribalarga boy, doimiy yangilanishda bo'lgan fandır. Kimyo o'qituvchisining o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi nafaqat uning shaxsiy kasbiy o'sishiga, balki darslarning samaradorligiga, o'quvchilarning fanga qiziqishiga va natijada ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon ta'lim tizimida fan va innovatsiya faoliyati yutuqlaridan keng foydalanish, shuningdek, jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarini izchil hamda barqaror rivojlantirish mamlakatning munosib kelajagini barpo etishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Finlyandiya, Germaniya, Singapur, AQSh kabi mamlakatlarda esa yuqori kasbiy kompetensiyaga ega, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash taraqqiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu davlatlarda ta'lim jarayoniga innovatsiyalar, xususan, o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublari keng joriy etilmoqda.

Kimyo o'qituvchisi o'zining bilim darajasini muntazam oshirib borishi kerak. Bunga yangi darsliklar, ilmiy-ommabop maqolalar, metodik qo'llanmalar o'qish, seminar va konferensiyalarda qatnashish orqali erishiladi. Kimyo fanidagi yangi elementlar, ekologik xavfsizlik masalalari, nanokimyo va bioorganik kimyo yo'nalishlaridagi yangiliklar o'qituvchi tomonidan darslarga kiritilishi kerak.

O'z ustida ishlaydigan o'qituvchi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb qilinadi. Misol uchun, maktab o'quvchilari bilan birgalikda kimyoviy tajribalarni o'tkazish, ekologik muammolarni o'rganish, laboratoriya ishlarini takomillashtirish orqali o'qituvchi amaliy bilimni boyitadi. Zamonaviy o'quvchilarni qiziqtirish uchun kimyo darslarida vizual va interaktiv vositalardan foydalanish zarur. Elektron laboratoriyalar, animatsiyalangan formulalar, QR-kodli resurslar va video tajribalar orqali murakkab mavzular oson o'zlashtiriladi. Bu esa o'qituvchidan doimiy o'rganishni, o'zini yangilab borishni talab qiladi.

Darslarni rejalashtirishda nafaqat mavzuni, balki o'quvchilarning qobiliyatini, mavjud sharoitni, ta'lim vositalarini inobatga olish muhim. Kimyo o'qituvchisi zamonaviy kompetensiyalar asosida har bir darsni maqsadli, interaktiv, shaxsga yo'naltirilgan tarzda loyihalashi kerak.

Metodik birlashmalar, fan oyliklari, ilmiy-amaliy anjumanlarda faol ishtirok etish o'qituvchining bilim doirasini kengaytiradi, tajriba almashish imkonini yaratadi. Bu esa uning o'zini-o'zi rivojlantirish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Kimyo o'qituvchisining o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi shakllanishidagi ustuvor pedagogik vazifalarining ifodalanishi

№	Pedagogik vazifa	Mazmuni	Kutilayotgan natija
1	Bilimlarni yangilab borish	Kimyodagi so'nggi ilmiy yangiliklar, fan-texnika rivojiga oid manbalarni o'rganish	O'qituvchi bilim darajasining oshishi, zamonaviy dars mazmunini boyitish
2	Mustaqil izlanish olib borish	Tadqiqot loyihalari, laboratoriya ishlari, metodik yangiliklar ustida ishlash	Ilmiy-uslubiy salohiyatni rivojlantirish, amaliy dars samaradorligini oshirish
3	Innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish	Multimedia, interaktiv platformalar, elektron laboratoriya, simulatsiyalarni qo'llash	O'quvchilarni darsga jalb qilish, qiziqishni oshirish
4	Reflektiv tahlil yuritish	Darsdan keyin o'z faoliyatini baholash, kuchli va zaif tomonlarni aniqlash	O'z ustida ishlashni tizimlashtirish, pedagogik faoliyatni optimallashtirish
5	Kompetensiyaviy yondashuv asosida darsni loyihalash	Darsni o'quvchi faoliyatiga yo'naltirish, maqsadni aniq belgilash, integratsiyalashgan metodlar	Dars sifati va ta'sirchanligini oshirish
6	Kasbiy hamkorlik va hamjamiyatda faol ishtirok etish	Metodik birlashmalar, ilmiy anjumanlar, tajriba almashish	Tajriba orttirish, hamkorlikni yo'lga qo'yish, kasbiy taraqqiyotni kuchaytirish

Xulosa

Kimyo o'qituvchisining o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirish uzluksiz jarayon bo'lib, bu nafaqat o'qituvchining, balki o'quvchining ham rivojlanishiga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogning asosiy vazifasi – o'z kasbiy darajasini oshirish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish, darsda innovatsion yondashuvni qo'llash, mustaqil tahlil va baholashni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Bu kompetensiyalar ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va o'qituvchining jamiyatdagi mavqei mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Mamajonov Sh.A., Odilxo'jazoda N.B., X.Jo'rayev "Oliy ta'lim muassasalari kimyo o'qituvchilarining ekologik kompetentlik darajasini rivojlantirish" Таълим ва инновацион тадқиқотлар. 2022 йил 9-сон, 170-174 бет.
2. Sh.A.Mamajonov, N.B.Odilxo'jazoda "Bo'lajak kimyo o'qituvchilarining kompetentligini shakllantirish texnologiyalari va mezonlari" Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi 2021 yil 7-son. 676-679 3.Hasanboeva M.X. "Pedagogik texnologiyalar asoslari". – Toshkent: TDPU, 2021. 4.Abduraxmanova Z.A. "Zamonaviy dars va innovatsion metodlar". – Samarqand: SamDU, 2022. 5.Karimov A.A. "Fanlar integratsiyasi asosida kimyo o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish". – Farg'ona: Ilm ziyo, 2023.
6. <https://edu.uz> – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi rasmiy sayti.

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOSHQARUVNING AHAMIYATI

Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedras

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning o'ri, uning ahamiyati va samarali boshqaruv usullariga oid muhim masalalar ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning vazifalari, tashkil etilish jarayoni, pedagogik xodimlar va ota-onalar bilan hamkorlik qilishning muhimligi, shuningdek, sifatli ta'limni ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqaruvning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi boshqaruvni takomillashtirish va yangilash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: boshqaruv, menejment, maktabgacha ta'lim, nazorat qilish, rejalashtirish.

Аннотация: В данной статье рассматриваются важные вопросы роли управления в системе дошкольного образования, его значимость и эффективные методы управления. Описаны задачи управления в дошкольных образовательных учреждениях, процесс его организации, важность сотрудничества с педагогическим коллективом и родителями, а также методологические основы управления, необходимые для обеспечения качественного образования. Особое внимание уделено вопросам совершенствования и обновления управления в системе дошкольного образования.

Ключевые слова: управление, менеджмент, дошкольное образование, контроль, планирование

Abstract: This article discusses the important issues of the role of management in the preschool education system, its significance, and effective management methods. It covers the tasks of management in preschool educational institutions, the process of its organization, the importance of collaboration with teaching staff and parents, as well as the methodological foundations of management necessary for ensuring quality education. Special attention is given to the issues of improving and modernizing management in the preschool education system.

Key words: management, preschool education, control, planning

Maktabgacha ta'lim bosqichi — bolalar uchun hayotdagi ilk ta'lim davri bo'lib, bu bosqichda ta'lim jarayonining sifatli va samarali tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limda boshqaruvning roli hamon ahamiyatli va u bolalar rivojlanishida katta ta'sir ko'rsatadi. Bu davrda ta'lim tizimining muvaffaqiyatli ishlashi uchun boshqaruvning samarali tashkil etilishi zarurdir. Boshqaruv tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotining barcha jabhalarida, jumladan, ta'lim jarayonini rejalashtirish, tashkil etish, nazorat qilish va rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimi bolalar ta'limining sifatini yaxshilash va pedagogik jarayonni mukammallashtirish uchun zarur. Boshqaruv samaradorligi maktabgacha ta'lim tashkilotining faoliyatini to'g'ri tashkil etish va boshqarish, pedagoglarni motivatsiya qilish, bolalar bilan ishlashda zamonaviy metodlarni qo'llashda namoyon bo'ladi. Ta'lim boshqaruvi, shuningdek, ota-onalar bilan samarali aloqalarni o'rnatishda va bolalar rivojlanishining individual xususiyatlarini inobatga olishda katta ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'limda boshqaruvni samarali tashkil etish uchun bir qator usullar va metodlar qo'llaniladi. Ular orasida markazlashtirilgan va desentralizatsiyalashgan boshqaruv tizimlari, pedagogik boshqaruvni samarali tashkil etish, ta'lim sifatini nazorat qilish, o'quv jarayonida innovatsion yondashuvlar va pedagogik xodimlarning malakasini oshirish kabi usullar mavjud. Samarali boshqaruv pedagoglarni professional rivojlantirishni ta'minlash, ta'lim jarayonida bolalarning ehtiyojlariga qarab differensial yondashuvni tatbiq etishni o'z ichiga oladi.

Maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, pedagoglarni o'zaro tajriba almashish jarayonida jalb qilish,

boshqaruv tizimining shakl va usullarini yangi pedagogik talablarga moslashtirish zarur. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining menejment tizimini rivojlantirish, xususan, bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik boshqaruvni yangi ko'rinishlari bilan boyitish talab etiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimi bolalar ta'limining sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Samarali boshqaruvning ta'lim jarayonida pedagog xodimlar va ota-onalar bilan hamkorlik, pedagoglarning malakali va motivatsiyalangan bo'lishi, ta'lim jarayonining doimiy nazorat qilinishi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi uchun boshqaruvni takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish juda muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo'chqorova, M. (2020). *Maktabgacha ta'limda boshqaruv va uning samaradorligi*. Toshkent: "Fan va texnologiya".
2. Ismoilova, R. (2019). *Pedagogik boshqaruv metodlari: Nazariy asoslar va amaliyot*. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.

MATEMATIKANI BOSHLANG'ICH SINFLARGA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKASI.

Xolmatova Zulfiya Tillavoldiyevna
Qodirova Dilshodaxon Abdunabiyevna
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida matematik bilimlarni shakllantirish va mustahkamlash haqida ma'lumotlar berilgan. Matematik bilimlar boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur bilimlar hisoblanib ularni shakllantirish muhim hisoblanadi.

Kalit so'zlar: matematik tayyorgarlik, pedagogika, metodika, matematika didaktikasi, psixologiya, ta'limiy vazifa.

Mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, xalq ta'limi tizimida bo'layotgan o'zgarishlar «Ta'lim to'g'risida»gi qonunda hamda «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ko'rsatib o'tilgandek, har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldiga muhim vazifa qo'yilmoqda. Bu vazifalar boshlang'ich ta'lim uchun xos bo'g'inlarni ajratish imkonini beradiki, bu bo'g'inlar xilma-xil o'quv fanlari dasturlarida, o'quv rejalarida, darsliklarda ta'limning joriy etilishi hamda metodik tizimida biror tarmoqni hosil qilishi mumkin. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisining metodik-matematik tayyorgarligi deyilganda biz uni ilmiy dunyoqarash asosida matematika o'qitish metodikasini umumiy pedagogik-psixologik va matematik tayyorgarlik bilan uzviy bog'lanishda tayyorlanishni tushunamiz. Bunday tayyorlanish vazifasiga matematikadan boshlang'ich ta'lim sohasida ma'lum bilim va uquvlarni egallash hamda bolalarni o'qitish orqali tarbiyalashni o'zlashtirishi kiradi.

Metodik-matematik tayyorgarlik boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashning tarkibiy qismi bo'lib, uning ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatidan ajralgan holda qaralishi mumkin emas. Ikkinchi tomondan, boshlang'ich sinflarda matematikani o'qitish birinchi bosqichdir, ya'ni bolalarni navbatdagi matematika kursini o'zlashtirishga tayyorlash bosqichidir. Matematikadan boshlang'ich ta'limning bu ikki jihati (aspekti) (boshlang'ich ta'limning tarkibiy qismi va matematik tayyorgarligi) metodikada o'zining munosib aksini topishi lozim. Boshlang'ich matematika kursi, bolalar tafakkuri rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang'ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'ladi. 6-10 yoshli bolalarining fikrlash qobiliyatlarini shakllanishida mas'ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang'ich ta'lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang'ich

ta'lim metodikasining vazifalaridan biri o'qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta'minlashda o'qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta'sirlarini jadallashtirishdan iborat.

Matematikadan boshlang'ich ta'lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o'qitish nazariyasini (matematika didaktikasi) o'z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o'zi yetarli emas. O'qitishning ma'lum mazmuni va o'qituvchilarning aqliy faoliyati saviyasi bilan ta'sirlanadigan u yoki bu o'quv yo'nalishi uchun eng samarali usullarni qo'llay bilish darsga tayyorlanishda yoki darsning o'zida yuzaga keladigan aniq metodik vazifalarni hal etishni bilishi zarur. Boshlang'ich sinflarda bolalarning aqliy rivojlanishlariga asos solinishi sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi uchun o'quvchilarning aqliy faoliyatlari darajasini va imkoniyatlarini bilish hamda hisobga olish muhimdir. Nazariy bilimlardan amaliyotda foydalanish jarayonida yuzaga keladigan turli-tuman metodik masalalar hal etilishi lozim.

Metodik masalalar har bir darsda yuzaga keladi, shu bilan birga, odatda, ular bir qiymatli yechimga ega emas. O'qituvchi darsda yuzaga kelgan metodik masalaning mazkur o'quv vaziyati uchun eng yaroqli yechimining tez topa olishi uchun bu sohada yetarlicha keng tayyorgarlikka ega bo'lish talab etiladi. Boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qitish vositasi sifatida mavjud didaktik o'yinlar mantiq ilmi va matematika nuqtayi nazaridan mazmunan yetarli emasligi tufayli didaktik o'yinlardan foydalaniladi va o'rganilgan materialni faqat mustahkamlash vositasi sifatida foydalaniladi. 5 Bolalarni 6-7 yoshdan o'qitishning mazmunida muammolar yuzaga keladi. Bu bog'cha -maktablarda o'qitish orqali hal etiladi. Sanoqni o'rganish, qo'shish va ko'paytirishni birinchi bosqichda o'rgatish boshlang'ich ta'limning asosiy vazifasi bo'lib kelgan. Biroq, bu vazifa yagona bo'lib qolmasdan, balki u bolalami matematikani o'rganishga yanada kengroq va har tomonlama tayyorlash ishining tarkibiy qismi ikkita asosiy yo'l bilan belgilanadi:

1) pedagogik yo'l, ya'ni bolalar fikrlashini qo'llaniladigan matematik mulohazalarga tayyorlash;

2) matematika yo'li, ya'ni bolalami eng muhim matematik tushunchalarni va eng avvalo, natural son hamda geometrik shakl tushunchalarini o'rganishga tayyorlash.

Matematika o'qitish metodikasi eng avvalo, kichik yoshdagi o'quvchilarni umumiy tizimda o'qitish va tarbiyalash vazifasini qo'yadi. Umumiy metodika boshlang'ich sinf matematikasining mazmunini va tizimligini aks ettiradi, har bir bo'limni o'qitishning o'ziga xos xususiy metodlarini o'rgatadi. Xususiy metodika matematika o'qitishning asoslangan metodlarini va o'qitish formalarini, shuningdek, o'quv faoliyatini tashkil qilish yo'llarini ko'rsatadi. Ma'lumki, o'qitish tarbiyalash bilan o'zaro mustahkam bog'liqdir. Ushbu metodika o'qitishni tarbiyalash bilan qo'shib olib borish yo'llarini o'rgatadi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi bir necha fanlar bilan chambarchas bog'liqdir:

1) o'qitish asosi bo'lgan matematika bilan;

2) pedagogika;

3) psixologiya;

4) boshqa o'qitish metodikalari bilan (ona tili, mehnat ...).

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish kursi o'quv predmetiga aylangan. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining o'qitish vazifalari: a) ta'lim-tarbiyaviy va amaliy vazifalarni amalga osbirishi; b) nazariy bilimlar tizimini o'rganish jarayonini yoritib berishi; d) o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirish yo'llarini o'rgatishi; e) ta'limni insonparvarlashtirishi; . f) matematika o'qitish jarayonida insonni mehnatni sevishtga, o'zining qadr-qimmatini, bir-biriga hunnati kabi fazilatlarini tarbiyalashni ko'rsatib berishi; g) o'qitish metodikasi I-IV sinflar matematikasining davomi bo'lgan V-VI sinf matematikasi mazmuni bilan bog'lab o'qitishdan iborat.

Matematika o'qitish metodikasida boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik bilimlar ni berish muhim va ahamiyatli hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tuychiyeva X. Z. Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari //international conferences. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 378-380.
2. Tuychiyeva X. Z., Turdibekov M. THE ECOSYSTEM OF INSECTS //INTERNATIONAL CONFERENCES. – 2022. – T. 1. – №. 19. – C. 110-113.
3. Tuychiyeva X. Z. O 'SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 33-39.
4. Tuychiyeva X. YAPON SAFORASI (SOPHORA JAPONICA L) NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 8.
5. Tuychiyeva X. Z., Turdibekov M. ANTROPOGEN MUHIT OMILLARI VA ULARNING HASHAROTLARGA TA'SIRI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 296-273.
6. Tuychiyeva X. Z., Markaziy Farg'ona tabiat yodgorligi hududida tarqalgan umurtqasiz hayvonlar asosiy turlarining bioekologiyasi va trofik aloqalari //Ta'lim fidoyilari. – 2022. – T. 8. – C. 154-166.
7. Muhiddinov, A., & Tuychiyeva, X. Z. (2023). JISMONIY RIVOJLANISH SOG 'LIQNI SALASH HOLATINI BAHOLASHDAGI O 'RNI. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 83-87.

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI
SHAKLLANTIRISH OMILLARI
ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ УМЕНИЙ У
БУДУЩИХ СТУДЕНТОВ.
FACTORS FOR THE FORMATION OF PROFESSIONAL SKILLS OF FUTURE
STUDENTS**

B.Latipov

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida p.f.n, dotsent

Mamatqulova Gulshoda

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi hamda Prezidentimiz tomonidan qabul qilinayotgan har bir Qarorda barkamol avlod tarbiyasi va ularning kasbiy mahoratini avvalo ta'lim muassasalarida oshirib borishga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Ushbu vazifalarni beqam ko'st amalga oshirilishi uchun bugungi kunda avvalo, bo'lajak o'qituvchilarning saviyasini va bilimini uzluksiz takomillashtirib borishga mustahkam zamin yaratilishi kerak.

Kalit so'zlar: pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, bilimdonlik, aql-zakovat, yondosh fanlar, psixologiya, madaniyat, o'qitish uslubiyati, kasbiy faoliyat, o'quv - tarbiyaviy ishlar.

Аннотация: В каждом решении, принятом Кабинетом Министров Республики Узбекистан и нашим президентом, прежде всего, уделяется серьезное внимание воспитанию гармоничного поколения в образовательных учреждениях и повышению их профессионального мастерства. Чтобы эти задачи выполнялись безупречно, сегодня, прежде всего, должна быть создана прочная основа для постоянного повышения уровня и знаний будущих учителей.

Ключевые слова: педагогические способности, педагогическая техника, эрудиция, интеллект, смежные дисциплины, психология, культура, методика преподавания, профессиональная деятельность, учебно-воспитательная работа.

Abstract: In every decision made by the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan and our President, first of all, serious attention is paid to the education of a harmonious generation in educational institutions and the improvement of their professional skills. In order for these tasks to be performed flawlessly, today, first of all, a solid foundation must be created for the continuous improvement of the level and knowledge of future teachers.

Keywords: pedagogical abilities, pedagogical technique, erudition, intelligence, related disciplines, psychology, culture, teaching methods, professional activity, educational work.

Oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ushbu muammolarning yechimini topishda "Pedagogik mahorat" fanini chuqur o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik mahorat nima? Uning mohiyati nimalardan iborat? Ularni egallash uchun nimalarni bilish kerak? Hozirgi zamon pedagogikasi va psixologiyasi «pedagogik mahorat» tushunchasiga turlicha izoh beradi. Jumladan, "Pedagogik ensiklopediya" da ta'rif quyidagicha izohlangan: "O'z kasbining mohir ustasi bo'lgan, yuksak darajada madaniyatli, o'z fanini chuqur biladigan, yondosh fanlar sohasini yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o'qitish uslubiyatini mukammal egallagan mutaxassis". Ushbu ta'rifning mohiyatidan kelib chiqib o'qituvchining pedagogik mahorati tushunchasi mazmunini shunday izohlash mumkin:

1. Madaniyatning yuqori darajasi, bilimdonlik va aql-zakovatning yuksak ko'rsatkichi.

2. O'z faniga doir bilimlarning mukammal sohibi.

3. Pedagogika va psixologiya kabi fanlar sohasidagi bilimlarni puxta egallaganligi, ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olishi.

4. O'quv - tarbiyaviy ishlar metodikasini mukammal bilishi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo'ysunishi.

2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.

3. Pedagogik qobiliyatga ega bo'lish.

4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash,

Barcha kasblar orasida o'qituvchilik kasbi o'zgacha va muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Zero, o'qituvchi yosh avlod qalbi kamolotining me'mori, yoshlarga ta'lim-tarbiya beruvchi insondir. Bugungi kunda u yoshlarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan chiniqtirib tabiat, jamiyat, ijtimoiy hayot, tafakkur, taraqqiyoti qonuniyatlarini o'rgatadi, yoshlarni mehnat faoliyatiga tayyorlab, kasb-hunar sirlarini puxta egallashlarida ko'maklashadi va jamiyat uchun muhim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlarni hal etadi. Ana shu mas'uliyat o'qituvchidan o'z kasbining mohir ustasi bo'lishni, o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, ularning qiziqishi, qobiliyati, iste'dodi, e'tiqodi va amaliy ko'nikmalarini har tomonlama rivojlantirish yo'llarini izlab topadigan kasb egasi bo'lishni talab etadi. Buning uchun doimo o'qituvchilarning kasbiy mahoratini, ko'nikma va malakalarini oshirib borish, ularga har tomonlama g'amxo'rlik qilish, zarur shart - sharoitlar yaratish, kerakli moddiy va ilmiy-metodik hamda texnik yordam ko'rsatish, o'qituvchilarning ijodiy tashabbuskorligini muntazam oshirib borishga ko'maklashish lozim.

Shunga asosan, «Pedagogik mahorat» fani, mahoratli o'qituvchilarni tayyorlashga xizmat qiladi, o'qituvchilar va tarbiyachilarning kasbiy faoliyati sirlarini, mohirligini o'rgatuvchi va uni takomillashtirish to'g'risida ma'lumotlar berib boruvchi fan bo'lib, o'qituvchilarda pedagogik mahoratning mohiyat mazmunini, hozirgi zamon talablari doirasida kasbiy faoliyatini rivojlantirishning yo'llarini, vositalarini, shakllarini o'rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tolipov O', Ro'ziyeva D. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"- Toshkent 2019.
2. zarur https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12886_1_A59A4CCACDD079EC7804CA6C82B60968676F4F62.pdf.file:///C:/Users/user/Downloads/YO'PA0629.pdf
4. B.Latipov Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahoratini shakllantirish omillari 2025 yil Farg'ona
5. Latipov Bobosodiq Boboyevich "Umumiy pedagogika" Darslik.2024 yil Farg'ona

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MOTIVATSIYANI OSHIRISHDA
GAMIFIKATSIYA USULLARINING O'RNI**

Mamurova Nilufar

Sirtqi ta'lim bo'limi 21.147-guruh talabasi

Bolani qanday qilib shunday tarzda o'rgatish mumkinki, ta'lim jarayoni unga og'ir yuk emas, balki zavq bag'ishlovchi mashg'ulot bo'lsin? Bu savol ayniqsa hozirgi kunda dolzarb bo'lib bormoqda. Chunki bugungi zamonaviy bolalar ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lgan kognitiv va ko'ngilochar texnologiyalarga qiziqishadi. Shu sababli ular darslarni "zerikarli" deb his qilganlarida, ularni o'qishga jalb etish uchun yanada qiziqarli vositalardan foydalanish zarur bo'ladi. O'qituvchilar esa, o'quvchilarning e'tiborini jalb etish maqsadida turli metodlar va texnikalardan foydalanishga majburdirlar.

Zamonaviy ta'lim standartlariga asoslangan faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv, bizdan turli xil o'quv muhitlarini shakllantirishni talab etadi (masalan, guruhli darslar; tadqiqotga asoslangan mashg'ulotlar; ustaxona shaklidagi darslar; maslahatga asoslangan darslar; taqdimot darslari yoki dizayn muammolarini yechishga qaratilgan mashg'ulotlar). Maktab endi faqat bilim manbai bo'lib qolmay, balki o'rganishga o'rgatadigan muhitga aylanmoqda. Biz – o'qituvchilar esa – endi shunchaki bilim yetkazuvchilar emas, balki o'quvchilarga mustaqil bilim olish va ularni ijodiy yo'l bilan o'zlashtirishga yordam beruvchi yo'l boshchilarmiz.

O'quvchilarda ijobiy rag'batni shakllantirishning samarali usullaridan biri bu – ta'limni o'yinga asoslash, ya'ni gamifikatsiyadir.

Gamifikatsiya (inglizcha *gamification* so'zidan olingan) – bu odamlarni faol jalb qilish va muammolarni hal etishda o'yin elementlari va o'yinlarga xos fikrlash usullaridan foydalanish jarayonidir. Bu o'yin bo'lmagan jarayonlarga (xususan, ta'limga) o'yin tamoyillarini tatbiq etish orqali, o'quvchilarning faolligini va ishtirokini oshirishga qaratilgan yondashuvdir.

Dars davomida mavzuning amaliy ahamiyatini ko'rsatish orqali gamifikatsiya o'quvchilarni o'zlashtirish jarayoniga faolroq jalb etadi. O'yin shaklidagi metodlardan foydalanish natijasida, o'quvchilar mustaqil tarzda ishtirok etadi, darslarda odatda rivojlanmaydigan ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa, o'z harakatlariga nisbatan mas'uliyat hissini kuchaytiradi, amaliy faoliyatga qiziqishni oshiradi, qat'iyatlilik, e'tiborli bo'lish va muvaffaqiyatga erishish istagini kuchaytiradi. Natijada, interaktivlik kuchayadi va ta'lim jarayoni yanada erkin va mustaqil tus oladi.

A.S.Makarenkoning ta'kidlashicha, "O'yin o'quvchilarda bilim olish faolligini kuchaytiradi, o'quv jarayonida ularda ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi. 'Yaxshi o'yin – yaxshi mehnatga teng', har bir pedagog o'z faoliyatida o'yinni to'g'ri qo'llashni o'zlashtirishi kerak".

Gamifikatsiya quyidagi asosiy elementlarga tayangan holda tashkil etiladi:

1. **Dinamika** – foydalanuvchining diqqat-e'tiborini jalb qilish, to'g'ridan-to'g'ri javob qaytarish va holatga mos reaksiyani talab qiladigan ssenariylardan foydalanish.
2. **Mexanika** – o'yinga xos bo'lgan mukofotlar, darajalar, belgilar kabi usullarni qo'llash orqali motivatsiyani oshirish.

3. **Estetika** – o'yin davomida hissiy ishtirokni kuchaytiradigan umumiy muhit va estetik tajriba yaratish.

4. **Ijtimoiy o'zaro aloqalar** – o'yin doirasida o'quvchilar o'rtasida muloqot va hamkorlikni kuchaytiruvchi texnikalardan foydalanish.

Ta'limni o'yin shakliga keltirish usullari:

- Qiziqarli vazifalar
- Rag'batlantirish (bonuslar, mukofotlar)
- Yangi g'oyalarni amalda sinash
- Bosqichma-bosqich murakkablikni oshirish
- Rolli o'yinlar tashkil qilish
- Raqobat muhitini yaratish
- Muayyan holatlarni tahlil qilish (case study)

O'yin – o'quv vositasi sifatida:

1. O'yin – bu bilimga bo'lgan qiziqishni uyg'otuvchi va o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi kuchli vositadir.

2. O'yinlar mazmunga mos tarzda tuzilgan bo'lsa, ular xotirani rivojlantiradi, nutq malakalarini shakllantiradi.

3. O'yin orqali aqliy faoliyat faollashadi, mavzuga e'tibor kuchayadi, bilishga bo'lgan ishtiyoq ortadi.

4. O'yin orqali passiv o'quvchilarning faol bo'lishi ta'minlanadi.

5. Guruh bilan ishlashda har bir o'quvchi jamoaning muvaffaqiyati uchun javobgar bo'ladi, bu esa har birining samarali ishlashiga turtki bo'ladi. Raqobat esa umumiy natijani oshiradi.

Gamifikatsiyada hikoyalash (storytelling) usuli:

Hikoya – bu hissiy aloqani o'rnatish vositasi bo'lib, u orqali auditoriya e'tiborini jalb qilish, muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish va uzoq muddatli xotirada saqlanib qoladigan taassurotlar hosil qilish mumkin.

Darslarga osongina mos keladigan hikoya turlari:

1. **Tarixiy hikoya** – Geometriya qanday kashf etilgan? Birinchi dvigatel qanday yaratilgan?

2. **Jarayon hikoyasi** – Texnologik rivojlanish (masalan, g'ildirakdan tortib raketagacha) haqida hikoya qilish.

3. **Bolalikdagi xotira** – oddiy va samimiy xotiralar, talabalar bilan yaqinlikni kuchaytiradi.

Masalan, men birinchi sinfga borganimda allaqachon o'qish va yozishni bilardim. Shuning uchun darslar menga zerikarli tuyulgan. O'qituvchimiz bu holatni sezib, menga va yana bir necha o'quvchiga alohida topshiriqlar bera boshladi. Bu esa meni faollikka undadi. Hikoyalar orqali siz ham o'quvchilarda motivatsiyani uyg'otishingiz mumkin.

Baholashsiz gamifikatsiya bo'lmaydi.

Biz – o'qituvchilar uchun nafaqat zamonaviy texnologiyalarni bilish, balki har bir pedagogik holatga mos keladigan eng samarali vositalarni aniqlay olish muhimdir. Har bir o'quvchi uchun qulay muhit yaratish bizning vazifamizdir. Chunki o'quv jarayoni hayotning muhim qismidir va biz, hatto eng sustkash talabalarni ham rivojlanish sari yetaklash imkoniyatiga egamiz.

Moliyaviy simulyatsiyalar orqali gamifikatsiya:

Masalan, o'quvchilar dars davomida "shartli pullar" (50, 100, 200, 500, 1000) to'plashlari mumkin. Ushbu ballar evaziga ular quyidagi "imtiyozlar"ni sotib olishadi:

- Biror topshiriqni bajarmaslik huquqi
- Imtihonda o'qituvchining yordamidan foydalanish
- Javob berishda do'stining maslahatini olish
- Sertifikatlar yoki bonuslar olish

Bunday tizim o'quvchilarda rag'batni kuchaytiradi. Biroq, bu o'yin elementlari doimo yangilanib borishi lozim, chunki bir xil jarayonlar oxir-oqibat o'z ta'sirini yo'qotadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. G.O.Astvatsaturov Tomonidan. Ta'lim muassasasi amaliyotida bulutli texnologiyalar. Ko'rsatmalar. M.: Sentyabr, 2018 Yil.
2. Raqamli davrda bolalar farovonligi [matn]: hujjat. XX aprelga qadar. B68 shaharlararo. ilmiy. konf. iqtisodiyot va jamiyatni rivojlantirish muammolari bo'yicha, Moskva, 9-12 aprel. 2019 yil / A. A. Bochaver, S. V. Dokuka, M. A. Novikova va boshqalar ; Milliy tadqiqot. un - t "iqtisodiyot Oliy maktabi". M.: Nashr. Iqtisodiyot Oliy maktabi uyi, 2019.
3. Nikitin S. I. o'quv jarayonida Gamifikatsiya, o'yinlashtirish, o'yinlashtirish // yosh olim. — 2016. — №9.
4. <https://moluch.ru/archive/113/28806/>

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INGLIZ TILI

Mavlonova Shaxzoda Turgunovna

mavlonovashahzoda1975@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti, Sirtqi bo'lim Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Tuychibayeva Maftuna Baxodirovna

maftunatuychibaeva@gmail.com

Farg'ona davlat universiteti, Sirtqi bo'lim Aniq va tabiiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ingliz tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni egallash ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi.

Kalit so'zlar: *ta'lim sharoiti, til tajribasi, til o'rganish, til o'zlashtirish, tashabbusli nutq, mutanosiblik*

Аннотация: Хотя приобретение навыков владения английским языком (аудирование, говорение, чтение, письмо) является целью образования, изучаемый язык также становится средством получения и передачи полезной информации.

Ключевые слова: *образовательная среда, языковой опыт, изучение языка, усвоение языка, спонтанная речь, пропорциональность*

Abstract: Although acquiring English language skills (listening, speaking, reading, writing) is the goal of education, the language being studied also becomes a means of obtaining and transmitting useful information.

Key words: *educational environment, language experience, language learning, language acquisition, spontaneous speech, proportionality*

Ta'lim tizimidagi boshqa fanlardan ingliz tilining farqi bir paytning o'zida, uning ham ta'lim maqsadi, ham ta'lim vositasi ekanligida namoyon bo'ladi. Ingliz tilida nutqiy malakalar (tinglab tushunish, gapirish, o'qish, yozuv)ni egallash ta'limdan ko'zlanadigan maqsad bo'lishi bilan birga, o'rganilayotgan til yangi va foydali axborot olish, yetkazish vositasi maqomini ham oladi.

Ingliz tili o'quv predmetining xususiyatlarini yoritishda unga turlicha yondashishlar mavjud. Tadqiqotchilar chet tilning didaktik, psixologik, amaliy (funksiyaviy), ta'limiy-tarbiyaviy asoslaridan kelib chiqib fikrlar bayon etishgan (I.V.Raxmanov, V.S.Setlin, J.J.Jalolov, T.Q.Sattorov, S.S.Saydaliyev va b.).

Bir guruh metodist-olimlar o'quv predmetlarini tasniflashda ularning didaktik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yondashganlar (A. A. Mirollyubov, I. V. Raxmanov, V.S. Setlin). Birinchi guruhni fan asoslarini o'rgatadigan tabiiy va ijtimoiy (fizika, ximiya, tarix va b.)

fanlar tashkil etadi. Uning birinchi xususiyati – o'quvchilar ongida fan haqida to'g'ri tasavvur va tushunchalar hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Yana bir xususiyati shundan iboratki, fan asoslarini o'qitish jarayonida shakllantirilayotgan ko'nikma va malaka fan sistemasiga bo'ysundirilgan bo'ladi.

O'quv predmetlarining ikkinchi guruhiga ko'nikma va malakani oshirishga qaratilgan (ashula, musiqa, jismoniy tarbiya va b. fanlarni kiritish mumkin. Ularning asosini muayyan umuminsoniy faoliyat amaliyoti tashkil etadi. Tadqiqotchilar ingliz tilini har ikki toifa o'rtasidagi o'quv predmeti deb hisoblaydilar, bilim va malakani shakllanishiga xizmat qiladi degan fikrni ilgari suradilar.

Taniqli metodistlardan T.Q.Sattorov ingliz tili predmetini quyidagi pedagogik-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflaydi:

1. Ona tili va ingliz tilida muloqot uchun nutqiy muhit keskin farq qiladi. Darsdan tashqari paytlarda o'quvchida ingliz tilida muloqot qilish uchun muhit deyarli mavjud emas. Ona tili uchun doimo tabiiy muhit mavjuddir.

2. Ona tili insonning kundalik faoliyatiga singib ketadi. Ingliz tili uchun esa bunday imkoniyat mavjud emas. Ingliz tili darslarida o'quvchilarga muloqotni o'rgatish maqsadida sun'iy nutqiy vaziyatlarni vujudga keltirish zarur.

3. Inson bolasi tevarak-atrofnii ona tili yordamida idrok etib tushunadi va kishilar bilan muloqotga kiradi. Ingliz tilini o'rgatishda ahvol umuman o'zgacha. Tilning talaffuz, grammatik va leksik tomonlari o'rganiladi, ingliz tilida fikr bayon etish va idrok etib tushunish amaliy maqsad maqomini oladi.

T.Q.Sattorov bilim va malakaning o'zaro munosabati nuqtayi nazardan o'quv predmetlarini (a) bilim va nazariya beruvchi fanlar (tarix, adabiyot, geografiya); (b) amaliy malakani shakllantirishga yo'naltirilgan fanlar (rasm, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya) kabi guruhlariga tasniflaydi. Bu borada ingliz tili o'qitish umumiy metodikasi mualliflarining fikriga qo'shiladi va ingliz tilini yuqoridagi ikki guruh o'rtasidagi predmet deb hisoblaydi.

O'quv predmetlarining funksiyaviy, ta'limiy-tarbiyaviy xususiyatlaridan kelib chiqib tasniflash hollarini ham ilmiy-tadqiqotlarda kuzatishimiz mumkin. Taniqli metodistlardan J.J. Jalolov, S.S. Saydaliyevlar barcha o'quv predmetlarini shartli ravishda quyidagicha tasniflashgan: a) fan asoslaridan saboq beradigan o'quv predmetlari (ximiya, biologiya, fizika, matematika, tarix); b) tarbiya berishga qaratilgan o'quv predmetlari (rasm, musiqa, ashula); d) amaliy faoliyatni o'rgatadigan o'quv predmetlari (jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi); e) tilga oid o'quv predmetlari (ona tili, ikkinchi til, chet til).

Fan asoslarini o'rgatuvchi predmetlarda o'quvchilarga ushbu sohaga oid bilimlar bayon etiladi. Tarbiyaviy yo'nalishdagi predmetlar o'quvchilarda nafasat va go'zallikni tarkib toptiradi. Faoliyatni o'rgatish predmetlari jismoniy chiniqish, mehnat qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Lingvodidaktikaning ob'yekti bo'lgan tilga oid o'quv predmetlarini tahlil etganda, ular orasida o'xshashlik va keskin farqlar borligi namoyon bo'ladi. Tillar orasidagi umumiylik shundan iboratki, har uchalarini o'rganishda ham o'quvchi nutq faoliyati bilan mashg'ul bo'ladi. Ushbu tillarda shakllangan ko'nikma va malakalar tufayli boshqa fan va sohalarga oid bilim (axborot)lar o'zlashtiriladi, boshqacha aytganda, tilga oid o'quv predmetlari muloqot (kommunikativ) vazifasini bajaradi.

Maktab sharoitida ona tili, ikkinchi til va ingliz tili amaliy (kommunikativ), ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi ahamiyatga ega bo'lsa-da, ushbu funksiyalarni bajarish me'yori (miqdor va sifat ko'rsatkichlari) har bir tilda turlichadir. Masalan, "Ona tili"ni o'rganish chog'ida amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar bir xilda ro'yobga chiqadi. Ingliz tilida esa muloqot, amaliy qo'llash yetakchi funksiyani bajaradi, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlar unga bog'liq holda ro'yobga chiqariladi.

Ona tilini o'quvchi amaliy tarzda egallaydi. Ikkinchi tilda amaliy malakalar, avval, qisman hosil qilingan, nazariy bilimlar ona tilidagidan kamroq hajmda bayon etiladi, albatta. Ingliz tili

o'rganishda esa qoida (oddiy nazariy bilim)lar amaliy ko'nikma va malakalarni egallashni tezlashtirish (intensifikatsiya) va yengillashtirish (optimizatsiya) maqsadlariga bo'ysundiriladi, o'quv jarayonida nutqiy amaliyot (kommunikatsiya) birlamchi vazifaga aylanadi.

Maktabda o'zbek, rus va ingliz tillarini o'qitishga qo'yiladigan dasturiy talablardan biri mazkur o'quv fanlari orasidagi aloqadorlikni ta'minlashga imkoniyat yaratishdir. Ta'limda o'quv fanlarining imkoniyatlarini birlashtirish ko'zlangan maqsadga erishishning asosiy yo'li sanaladi.

Sharoit tushunchasi qamroviga o'quv muassasasi turi (maktab), o'quvchining psixologik (yosh) xususiyati, til tajribasi, o'quv predmetiga ajratiladigan vaqt (dars soatlari) kiradi. Mazkur tushuncha J.Jalolov, G.Rahimov, M.Djusupov va boshqalarning tillar ta'limshunosligi sohasidagi tadqiqotlarida ilmiy asoslangan. Ta'lim sharoitining birinchi tarkibiy qismi – o'quvchilarning yosh xususiyatlari va umumiy saviyasi tushunchasidir. Ta'lim sharoitining ikkinchi tarkibiy qismi – «til tajribasi» tushunchasidir. Ta'lim sharoitining navbatdagi tarkibiy qismi – ingliz tiliga ajratilgan «vaqt» (soatlar) tushunchasini o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, «Qaerda?» savoliga a) ingliz tili nutqiy muhiti bor yoki yo'q yerda o'rgatish (O'zbekiston Respublikasida ingliz tili sun'iy muhitda o'rgatiladi); b) umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qitish tadqiqot ob'yekti sifatida tanlanadi. Kimlarga?» deganda a) (6)7-10 yoshgacha bo'lgan kichik maktab yoshidagi o'quvchilarga ingliz tili o'rgatish; b) umumta'lim maktablarida uch til - o'zbek (ona) tili, ikkinchi (rus) til va ingliz tili (yoki boshqa til) o'qitiladi. Bu o'rinda o'quvchilarning uch tildan to'plagan til tajribalari e'tiborga olinadi. «Qancha vaqt?» deganda: a) o'quv rejasidagi haftalik va yillik mashg'ulotlar miqdori (I sinfda haftasiga 2 soatdan, o'quv yilida 66 soat, II-IV sinflarda haftasiga 2 soatdan o'quv yilida 68 soat dars o'tiladi); b) intensiv (jadallashtirilgan qisqa muddatli) yoki ekstensiv (vaqt e'tibori bilan cho'zilgan) sharoitda ta'lim berish (umumta'lim maktablarida ekstensiv ta'lim joriy etilgan) kabi tushunchalar nazarda tutiladi.

Ta'lim sharoiti tushunchasi ingliz tili ta'limida samaradorlikni ta'minlashda tabiiy sharoit, ingliz tili sohibi bilan kamida 1000 soat muloqotda bo'lish, o'qituvchining pedagogik mahorati, o'quvchining yoshga oid fiziologik, psixologik va bilish faolligi xususiyatlari, o'quv predmetiga ajratilgan vaqt hamda o'quvchilarning o'quv predmetiga nisbatan munosabati va o'rganish layoqati kabi omillarni o'z ichiga oladi. Ushbu omillar haqida kengroq tasavvur hosil qilish maqsadida ingliz tilining tabiiy sharoitda o'zlashtirilishi va sun'iy sharoitda o'rganilishini qiyoslab ko'ramiz:

Vazid – 8 yoshli Malayziyalik bola. U maktabda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganadi. Maktabdan tashqarida u ingliz tilidagi reklamalar va yo'l belgilarini ko'radi, turli nutq vaziyatlarida ingliz tilida sodir bo'layotgan kommunikatsiya va interaksiyaning jonli guvohi bo'ladi. Uyda esa u bolalar uchun ingliz tilidagi subtitrlar ko'rsatuvlarini tomosha qiladi. U o'qituvchisi va tengdoshlari bilan o'ziga tanish mavzularda ingliz tilida muloqot qila oladi.

Daniel – 8 yoshda, millati rus, Norvegiyada istiqomat qilayotgan rus oilasida tug'ilgan. Oslo shahridagi ayrim predmetlar ingliz tilida o'qitiladigan maktabning 3-sinfida o'qiydi. Maktabdan tashqarida u norveg va ingliz tilida yozilgan peshtaxtalar va reklamalarni ko'radi, ingliz tilida gaplashayotgan insonlar suhbatini tinglaydi. Shifoxonaga, do'konga, istirohat bog'iga borganida turli kasb vakillari bilan ingliz tilida muloqot qiladi. Uyida ota-onasi bilan rus tilida gaplashadi, badiiy hamda multiplikatsion filmlarni norveg tilidagi subtitr yordamida muntazam ko'rib boradi.

Yunusbek – 9 yoshda, O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati Norin tumanidagi ingliz tili darslari haftasiga ikki soat (45 minut) o'tkaziladigan 34- maktabning 3-sinf o'quvchisi. U sinfxonadan tashqarida ingliz tilidagi biror ko'rsatkich, yo'l belgisi yoki reklamani juda kam ko'radi, ingliz tilida suhbatlashayotgan insonlarni deyarli uchratmaydi. U ingliz tilini ustozidan rag'bat olish va ota-onasini xursand qilish uchun o'rganadi. U cheklangan miqdordagi leksik birliklar ishtirokida o'ziga tanish mavzularda juda sodda gaplar tuza oladi.

Xulosa chiqaradigan bo'lsak, birinchi va ikkinchi sharoitlarda chet tilni muloqot vositasi sifatida o'zlashtirish uchun tabiiy muhit mavjud. Chunki *birinchidan*, vaqt cheklanmagan,

ikkinchidan, jonli nutq vaziyatlarida axborotning to'g'ri talqin etilishini ta'minlovchi omillar mavjud, *uchinchidan*, o'rganilayotgan chet tilda muloqot qilnayotganturli ijtimoiy vaziyatlarga tushib qolish kuchli ehtiyoj va yuqori motivatsiyaga sabab bo'ladi, *to'rtinchidan*, o'rganilayotgan chet tilda e'tibor shaklga emas, mazmunga qaratiladi, ingliz tili jonli muloqotda tajribada sinab ko'rib, mustaqil fahmlab o'rganiladi. Eng asosiysi, fikr ifodalashga shaxsiy tashabbus ko'rsatiladi. Shu sababdan, tabiiy ta'lim sharoitida ingliz tili o'zlashtiriladi.

Uchinchi, sun'iy muhitdagi ta'lim sharoitda esa ingliz tili o'rganiladi. Ya'ni boshlang'ich ta'limda ingliz tili o'qitish metodikasida til o'zlashtirish va til o'rganish atamaları farqlanadi. «*Ingliz tili o'rganish*» metodik termini ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, o'qish va yozuv ko'nikma va malakalarining egallanishi ma'nosini ifodalaydi.

Chunki, *birinchidan*, ingliz tilio'quv predmeti bo'lib, unga haftasiga ikki soat vaqt ajratiladi, *ikkinchidan*, o'rganilayotgan chet tilda muloqot qilishga sabab ham, ehtiyoj ham yo'q, *uchinchidan*, mazmunga emas, shaklga ustuvor ahamiyat qaratiladi va ingliz tilibo'yicha belgilangan (A1) darajaning ta'lim mazmunidan kelib chiqib, til materiali chegaralangan miqdorda maxsus metodik tayyorlanadi. *To'rtinchidan*, o'quvchi dastur va o'quv rejada belgilangan nutq mavzulari doirasida chet tilda gapirishga majbur bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning 2018 yil 5 martdagi To'rao'rg'on tumani Isoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifidagi nutqi. Elektron resurs: <http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-o-khon-t-ra-ibrat-mazhm>. Murojaat sanasi: 26.11.2018 y.

2. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Xalq so'zi, 2017 yil 23 dekabr №258 (6952)

3. O'zbek tilining izohli lug'ati. A.Madvaliev tahriri ostida. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004. – 571 b.

4. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ingliz tili o'quv dasturi. Tuzuvchilar: J.J.Jalolov, M.T.Irisqulov. – Xalq ta'limi. – №4 – Toshkent, 2013. – 44 b.

5. Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflar uchun darslik majmua. Kids' English Class 1,2,3,4. A.T.Irisqulov, S.Xan va mualliflar jamoasi. – T.: O'zbekiston, 2013.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA “TABIIY FANLAR” FANINING JORIY QILINISHI VA UNING DOLZARBLIGI

Nabijonova Feruza Valijon qizi

FarDu Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Toshtemirova Sevaraxon Yunusali qizi

FarDu Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston ta'lim tizimida ham 2021/2022 o'quv yilidan boshlab 1–6-sinflarda tabiiy fanlarni o'zida jamlagan «Tabiiy fan» (SCIENCE) joriy etildi. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida Tabiiy fanlarning joriy qilinishi 1-6 sinf o'quvchilarining tabiat, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengayishiga yo'l ochib bermoqda.

Kalit so'zlar: tabiiy fanlar, science, ekologiya, global isish, tabiiy hodisa, resurs, o'simliklar, qizil kitob.

Tabiiy fanlar 1–2-sinflarda “Atrofimizdagi olam”, 3–4-sinflarda tabiatshunoslik, 5–6-sinflarda esa 3 ta alohida fan – geografiya, biologiya va fizika fanlari mazmunini va kimyo

fanining boshlang'ich tushunchalarini uyg'unlikda o'qitadi. 7-sinfdan boshlab esa biologiya, geografiya va iqtisodiyot, fizika, kimyo fanlari alohida o'qitilishni boshladi.

Tabiatda yuz berayotgan hodisalarni, masalan, yomg'ir hodisasini o'rganish jarayonida bola uning tarkibi (biologiyaga oid tushunchalar), fizik xususiyatlari, qaysi fasllarda va qayerlarda ko'proq yog'ishi (geografik xususiyati), yomg'ir ta'sirida Yerdan qanday o'zgarishlar bo'lishi, o'simliklar uchun foydasi haqida ma'lumotga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarning o'rni juda muhim, chunki bu fanlar o'quvchilarning atrof-muhit haqidagi dastlabki ilmiy tushunchalarini shakllantiradi.

Quyida uning asosiy o'rinlari keltirilgan:

1. Tabiiy qiziqishni rivojlantirish. Bolalar tabiiy hodisalarga qiziqadi. Tabiiy fanlar bu qiziqishni ilmiy asosda rivojlantirishga xizmat qiladi.

2. Kuzatuvchanlik va fikrlashni rivojlantirish. O'quvchilar tabiatdagi hodisalarni kuzatish, savollar berish va xulosalar chiqarish orqali analitik fikrlashni o'rganadi.

3. Atrof-muhitga e'tiborli bo'lish. Tabiiy fanlar orqali bolalar tabiatni asrash, ekologik muammolar haqida tushunchaga ega bo'ladi.

4. Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish. Oddiy tajribalar, kuzatuvlar va loyihalar orqali bolalarda mustaqil ishlash va jamoada hamkorlik qilish ko'nikmalari shakllanadi.

5. Kelajakdagi fanlarga asos. Boshlang'ich sinflarda olingan tabiiy bilimlar fizika, kimyo, biologiya kabi fanlarni o'rganish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiy fanlarning o'rni bugungi ilm-fanning yuragi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki tabiat qonuniyatlarini bilish genetika, evolyusion ta'limot, matematika, fizika, kimyo, o'simlik va hayvonot olami sistemikasi, antropologiya, geologiya, geofizika singari fanlar oldiga qo'yilgan muammolar tirik va o'lik tabiatni o'zaro munosabati masalalarini yechishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tabiat bilan inson o'rtasidagi munosabat eng og'ir, yechimi mushkul muammo. Inson faoliyati ta'sirida qurg'oqchilikning kuchaya borayotganligi, cho'llanish, suv zahiralari kamayib, tabiiy muhitni ifloslanishi kuchayib, suv, havo va ayniqsa oziq-ovqatning tanqisligi, yer yuzi aholisini to'rtidan bir bo'lagida ocharchilik mavjudligi va uni oldini olish hozirgi zamonning dolzarb muammolaridan ekanligi ko'pchilikka ma'lum. Mazkur fan hozirgi zamon taraqqiyotining eng yuqori pog'onasiga ko'tarilgan biologiya, fizika, ximiya, geologiya, biofizika singari fanlar va miqdoriy analiz uslublaridan foydalanib, ilmiy texnik taraqqiyotning barcha sohalarini o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun safarbar qildi va uning oldingi qatoriga o'tishga erishdi. Bu fanning kelgusi rivoji uning kelgusida quyidagi muhim, global vazifalarni yechishi lozimligida ko'radi:

1. Yer kurrasida sodir bo'layotgan demografik muammolar, aholini son jihatidan ko'payishidagi sifat o'zgarish va ularni jamiyat strukturasi tuzilishi bilan bog'liqligi.

2. Yadro energiyasini energetik zahira sifatida xalq xo'jaligida qo'llash muammosi va ayniqsa idora qilish imkoni bo'lgan termoyadro sistemasini bunyodga keltirish.

3. Tabiat zahiralari yopiq zanjir sikllari va ayniqsa agrotexnikaning zanjir sikllarini yaratish.

4. Tabiiy muhitning beqiyos darajada ifloslanayotganligi tufayli yer kurrasining issiqlik balansini o'rganish muammolari.

5. Yer kurrasida sodir bo'lishi kutilayotgan falokat (inson naslini buzilayotganligi)ni oldini olish va hokazo. Bu muammolarni yechish uchun yuksak intellektual kuchlar va juda katta mablag' talab qilinadi. Buning uchun ilmiy tadqiqot ishlari halqaro masshtabda olib borilishi lozim bo'ladi. Mazkur fanning asl maqsadi tabiatshunoslik ilmi, uning predmeti, maqsadi, vazifasi o'qitish uslublari, tabiat va tabiiy muhitda mavjud tirik mavjudotlarining o'zaro uyg'unlik qonuniyatlari, koinotning planetar shaklda ko'rinishi, quyosh, oy va yer sayyorasi, ularning umumiy tavsifi; yer kurrasining fizikaviy, kimyoviy tuzilishi, unda sodir bo'lgan va bo'layotgan global o'zgarishlar; yerda hayotning paydo bo'lishi; yer kurrasi tirik va o'lik qismini o'zaro uyg'unligi; modda va energiya almashinuvi qonuni; ularning tuzilishidagi uyg'unlik, unda sodir bo'ladigan fiziologik jarayon, moslanish (adaptasiya) va o'zgaruvchanlik; yer kurrasi tirik

mavjudotlari, ularning o'zaro munosabati va bir butunligi (o'simliklar, hayvonot olami va mikroorganizmlarning o'zaro uyg'unligi); O'simliklar va hayvonot olamining eng sodda turlaridan tortib, eng yuksak taraqqiy etgan turlariga qadar tuzilishidagi umumiylik qonuniyatlari; viruslar, bakteriyalar, suvo'tlari va quruqlikda tarqalgan o'simliklar va hayvonot olami; hozirgi zamon antropologiya, paleantologiya, biorganik ximiya, molekulyar biologiya, biosfera haqidagi ta'limot; insonning tarixiy taraqqiyoti jarayonida tabiat va jamiyatning o'zaro almashinuvida sodir bo'lgan va bo'layotgan o'zgarishlar; antropogen ta'sir tufayli sodir bo'layotgan global o'zgarishlar va hokazolarni o'zida mujassamlantiradi.

Tabiiy fanlarning zamonaviy konsepsiyasi fani o'z xususiyatiga ko'ra kompleks bilimlar majmuidan iborat. U organizmlarning tuzilishi, o'sish va rivojlanish qonuniyatlari, ularning ekologiyasi, genetika, biofizika, ximiya, evolyusion taraqqiyot tarixi mikrobiologiya va immunologiya fanlarini o'zida mujassamlantiradi. Yer kurrasining o'lik qismi haqidagi fanlar tuproqshunoslik, gidrologiya, geologiya, gidrosfera uning tirik qismi haqidagi ma'lumotlarga tayangan va u bilan uzviy bog'liq holda ish ko'radi.

Evolutsion ta'limot tarixi esa chog'ishtirma morfologiya, paleontologiya va barcha tirik mavjudotlarning tuzilishi, tarqalishi va rivoj topishi haqidagi fanlarga tayangan holda ish ko'radi. Insonlar qadim zamondan tabiatga, undagi hodisalarga qiziqish bilan qarashgan. Tarixiy manablarning guvohlik berishicha ibtidoiy jamoa davrida ham ular oddiy tabiiy hodisalarni yaxshi anglashgan. 2000 yillik rivojlanish tarixiga ega bo'lgan bu fan elementlari qadimiy Misr, Xitoy, Movarounnahr, Hindiston singari mamlakatlarda vujudga kelgan bo'lsada, u o'z xususiyatiga ko'ra keskin qarama-qarshiliklarga uchragan va uning taraqqiy topishi uchun bir butun mifologik sistemalarni parchalanishiga sabab bo'lgan. Tabiiy fanlarning taraqqiyot tarixi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, uning asosini qadimiy Gretsiyada siyosiy arbobi Fales yaratgan. Falesan keyin Aristotel, Empedokl, Evklid, Ptolemey, Teofrast kabi buyuk allomalar bu fanni rivojlanishiga katta hissa qo'shganlar. XV asrda Mirzo Ulug'bek Ulug'bek akademiyasida mashhur olimlar - Qozizoda Rumi, Fiyosiddin Jamshid al-Koshiy va Ali Qushchi xizmat qilgan. Bu akademiyada turli fan sohalari bo'yicha ilmiy ishlar olib borilgan.

Bugungi kunda, tabiiy fanlar 1-11-sinflar kesimida o'qitilmoqda. 1-6-sinfda tabiiy fanlar alohida alohida emas balki yaxlit SCIENCE fani sifatida o'qitiladi. Oliy ta'limda "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" fan dasturi "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi ta'labalari uchun ishlab chiqilgan va u barcha mavzularni qamarab olgan. Mavzular ketma ketligi boshlang'ich ta'lim maktab o'quvchisi tushuna oladigan sodda tilda yozilgan bo'lib bu bolada shu fanga bo'lgan qiziqish ortishiga turtki bo'ladi. "Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" fan dasturida biologiya, fizika, astronomiya, geografiya kabi fanlar mavzulari tabiat, o'simliklar, hayvonlar, odam, yashash joyi, bizning sayyora, ob-havo, tabiiy boyliklar, quyosh sistemasi, yil fasllari, energiya, issiqlik, yorug'lik, tovush va harakat kabi ketma ketlikda keltirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.R.Isayeva, "Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida og'zaki o'qitish metodlari" Vol. 2 No. 20 (2023): Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. 143-146-betlar
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
3. Oybek "Navoiy" romani. Asr oshgan asarlar turkumi – T.: "Sharq" nashriyoti, 2012.496- bet.
4. Y.V.Malikova, O.E.Tigay, Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. II-qism – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.120-b.52-bet.
5. Y.V.Malikova, S.V.Kosyanenko, Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. II-qism – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023.65-136-b.
6. Y.V.Malikova, Tabiiy fanlar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. I-qism – Toshkent: "Novda Edutainment", 2023. 38-bet.120-b.

7. В.Я. Распопов Научное мировоззрение философия и практика обучения специальности Известия ТулГУ. Технические науки. 2-017. Вып. 9. Ч. 2. 212-213-ст

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Mirzaboyev Yo'ldoshali Abdubannonovich

FarDU o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish metodikalari yoritilgan. Tadqiqotda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, muammoni hal qilish, matematik bilimlarni amaliyotda qo'llay olish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishda interfaol dars usullari, didaktik o'yinlar, vizual materiallar va hayotiy misollardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, o'qituvchining metodik yondashuvi va individual yondashuvning ahamiyati ko'rsatib beriladi. Maqolada nazariy yondashuvlar va amaliy tajribalar asosida taklif etilgan metodik usullar boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: matematik kompetensiya, boshlang'ich ta'lim, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, vizual materiallar, mantiqiy fikrlash, muammoli topshiriqlar, amaliy yondashuv, differensial ta'lim, o'quvchi faolligi.

Zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bu o'quvchilarning matematik kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirishdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinflar bosqichi — o'quvchining kelajakdagi akademik muvaffaqiyati, fikrlash tarzi va muammoni hal qilish qobiliyatlarining poydevori sifatida katta ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'limda matematik kompetensiyalar deganda, o'quvchining raqamlar, shakllar va matematik munosabatlarni tushunishi, ulardan amaliyotda foydalana olishi, oddiy masalalarni hal qilishi, mantiqiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qila olishi va o'z fikrini asoslab bera olishi tushuniladi.

Boshlang'ich sinfda bu kompetensiyalarni shakllantirish uchun bir necha metodik yondashuvlar mavjud. Ulardan eng samaralilari qatoriga muammoli ta'lim, interfaol usullar, didaktik o'yinlar, vizual vositalardan foydalanish va hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni kiritish mumkin. Masalan, oddiy matematik amallarni real hayotiy holatlarga bog'lab tushuntirish — masalan, do'kondan narsa xarid qilish yoki mevalarni teng taqsimlash — o'quvchida mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otadi, tushunishni yengillashtiradi va bilimning mustahkamlanishini ta'minlaydi.

Didaktik o'yinlar orqali esa o'quvchilar matematik amallarni bajarayotganini sezmasdan, qiziqarli jarayon orqali bilim olishadi. Bu metod ayniqsa, diqqatni jamlashda qiynaladigan yoki harakatchan o'quvchilar uchun foydalidir. Vizual materiallar, masalan, shakllar, rangli kartochkalar, kubiklar va raqamli bloklar yordamida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi va xotirasi rivojlanadi. Shuningdek, guruhli ishlash orqali o'quvchilarda hamkorlikda fikrlash, bir-birining fikrini eshitish va fikr almashish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa nafaqat matematik, balki ijtimoiy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

O'qituvchining roli bu jarayonda juda muhim. U nafaqat bilim beruvchi, balki yo'naltiruvchi, ruhlantiruvchi va faollashtiruvchi bo'lishi kerak. O'quvchining har bir muvaffaqiyatini e'tirof etish, rag'batlantirish orqali unda o'z kuchiga ishonch hosil qilinadi. Shu bilan birga, har bir o'quvchining individual imkoniyatlarini inobatga olgan holda differensial yondashuvni qo'llash muhim.

Mamlakatimizda kompetentsiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etilishi o'rta maktab o'qituvchilari zimmasiga qator dolzarb vazifalarni ko'ndalang qilib qo'yimoqda. Shu bilan birga, 2017-2018- o'quv yilidan maktablarda 11 yillik o'rta ta'limning joriy etilishi ham o'z navbatida o'qituvchilarning malaka oshirishga bo'lgan

yangi ehtiyojlarni keltirib chiqardi. Ayni paytda vujudga kelgan shart-sharoitlar va o'qituvchilarning yuqoridagi keltirilgan ehtiyojlari malaka oshirishning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlarni kiritishni taqozo etmoqda.⁵

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun dars jarayoniga yangicha metodik yondashuvlarni joriy etish, interaktiv vositalardan foydalanish, o'quvchining faol ishtirokini ta'minlovchi sharoitlarni yaratish va amaliyot bilan bog'langan topshiriqlarni berish orqali ularda nafaqat bilim, balki hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalari ham shakllanadi.

Matematik kompetensiya – kundalik holatlarda vujudga keladigan muammolarni hal etish uchun matematik mushohada yurita olish va uni qo'llay olish qobiliyatiga ega bo'lishdir.

Barchamizga ma'lumki, matematika insonning aqlini o'stiradi, uning diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan (rivojlantirilgan) maqsadga erishish uchun o'zida qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, o'zidagi algoritmik tarzda tartibintizomlilikni ta'minlaydi va eng muhimi uning tafakkurini kengaytiradi.⁶ Bunday yondashuvlar o'quvchilarning matematika faniga bo'lgan qiziqishini orttiradi, mustaqil fikrlash va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdugapparova M. Matematik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik - psixologik muammo sifatida // Экономика и социум. 2021. №4-1 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/matematik-kompetensiyani-rivojlantirish-pedagogik-psixologik-muammo-sifatida> (дата обращения: 24.04.2025).

2. Ta'lim, V. T. M. Matematika darslarida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning imkoniyatlari. *Xalq ta'limi*, 33.

3. Qo'chqarova, S., & Hamroyev, A. R. (2024). Tayanch kompetensiyalar va malakalar ustuvorligi. *Journal of universal science research*, 2(10), 163-170.

THE IMPORTANT PEDAGOGICAL TASK OF PREPARING FUTURE TEACHERS TO DEVELOP GEOLOGICAL KNOWLEDGE IN STUDENTS

Mamatisakov Jakhongirmirzo Jamoliddin o'g'li

Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences

m.jahongirmirzo94@gmail.com +998902749400

Ro'zimatov Diyorjon Isroiljon o'g'li

Botirov Egamberdi Yusufjon o'g'li

FSU students

Annotation: This article analyzes the preparation of future geography teachers for the formation and development of geological knowledge in students as an urgent pedagogical problem. Geological knowledge is an important factor in the formation of a conscious attitude of students to nature, the development of ecological thinking. Therefore, organizing the professional training of future teachers in the pedagogical process based on modern methods is one of the important tasks today. The article covers the theoretical foundations of this problem, solutions and its impact on the quality of education.

Key words: geological knowledge, pedagogical problem, future teacher, preparation, methodology, quality of education, ecological culture.

⁵ Ta'lim, V. T. M. Matematika darslarida o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirishning imkoniyatlari. *Xalq ta'limi*, 33.

⁶ Abdugapparova M. Matematik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik - psixologik muammo sifatida // Экономика и социум. 2021. №4-1 (83). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/matematik-kompetensiyani-rivojlantirish-pedagogik-psixologik-muammo-sifatida> (дата обращения: 24.04.2025).

Introduction

By the 21st century, integration processes in all areas of science in education are intensifying, and the issue of improving the quality of education through the use of innovative technologies is gaining importance. The need for extensive coverage of ecology, geology, geography and other natural sciences in school programs is becoming increasingly important. In particular, geology occupies an important place in the development of modern society and is recognized not only as a field of study of rocks, minerals and the structure of the earth's crust, but also as a scientific and practical direction closely related to economics, industry, construction, engineering and ecology. The formation of geological knowledge in the educational process develops a responsible attitude in students towards nature, land resources, and environmental problems. The role of teachers, especially future teachers, in this process is invaluable. The teacher should not only provide students with geological knowledge, but also pay special attention to explaining the vital importance of this knowledge, and to the formation of practical skills and competencies. The main purpose of this article is to analyze the scientific and pedagogical foundations of preparing future teachers to develop geological knowledge in students and to highlight the current issues arising in this regard.

Geology is a complex science that studies the structure, composition, history of development and natural resources of the planet Earth. Achievements in this science are widely used not only in the scientific but also in the practical sphere: searching for and exploiting mineral deposits, determining the quality of building materials, ensuring seismic safety, eliminating environmental problems, etc. In modern geology, advanced innovative methods such as GIS (Geographic Information Systems) technologies, remote sensing of the earth's surface, drone technologies are widely used in research.

It is important that the younger generation, possessing geological knowledge, should treat nature, the earth's crust, and minerals responsibly, strive to save and preserve land resources. For example, geology creates a scientific basis for issues such as rational use of underground sources of water resources, prevention of soil erosion, and ensuring safety during the construction of geoecological structures. Therefore, geological knowledge is the basis of ecological culture.

Especially against the backdrop of today's global climate change, various ecological disasters, earthquakes, and other natural disasters, geological knowledge has become not only scientific, but also a vital necessity. It is important for students to master this knowledge from an early age, to take into account natural processes in making decisions about their specialty in the future, as well as in everyday activities. This places a serious responsibility on the school teacher, especially the future teacher.

A modern teacher is required to teach subjects on an integrated basis today. A future teacher, for example, studying geography or biology, should also strengthen their geological knowledge. Because increasing the geological level of students during the lesson and acquiring the necessary competencies to explain natural processes in detail is an indicator of a teacher's professional skills.

The issue of preparing future teachers to develop geological knowledge in students is of particular relevance today. In modern society, geological knowledge is recognized not only as a part of the natural sciences, but also as an important area that directly affects various socio-economic areas, such as economics, engineering, ecology, earthquake safety, and rational use of land resources.

In order to fully integrate geological knowledge into the educational process, a future teacher must:

- have the most comprehensive interdisciplinary knowledge;
- master methodological innovation and interactive methods;
- have competencies in working with innovative technologies and digital resources;

- it is of great importance to create opportunities for students or schoolchildren to independently study geological processes.

Providing high-quality training in geology for future teachers, in turn, will contribute to the high-level teaching of geological knowledge in school education. As a result, students will acquire skills such as a conscious attitude to nature, the development of ecological culture, and the rational use of land resources. Existing problems, in particular, the qualifications of teachers, shortcomings in curricula, insufficient practical training, and the shortage of digital resources, require the development of specific targeted measures, including the training and retraining of personnel.

Pedagogical theories, foreign experience, and analysis of local conditions show that integrated, constructivist, activity-based methods are important in the development of geological knowledge. Practical training, field expeditions, expansion of laboratory work, and provision with digital technologies will greatly help future teachers in mastering these methods. In the future, strengthening geological disciplines in school education, strengthening the professional training of teachers, supporting research activities, and creating a bank of modern literature and digital resources - all this will serve to solve this urgent pedagogical problem.

Thus, a teacher who is ready to form geological knowledge is an innovative pedagogue who is distinguished by his knowledge in the field of science, methodological skills and practical skills, meeting the requirements of the time. As a result of his work, a generation with geological literacy, a careful attitude to earth's resources, a responsible attitude to nature will grow up. This will serve as a solid foundation for the sustainable development of our society, economic and social development, and understanding of global environmental problems.

Naturally, all the issues highlighted above should be reflected in the content of geography education from the point of view of forming students' geological knowledge. The role of geography in the development of universal knowledge is incomparable, and the nature and economy of our country must be studied in close cooperation. Assessing the place occupied by geography as an academic subject, the importance of knowledge of the geography of the country in preparing students for independent life is incomparable. By studying geography, the student learns to understand his own role and significance in the life of nature, the environment, as well as people of other cultures.

Conclusion

The training of future teachers is an important factor in the formation of geological knowledge in the minds of students. Their deep theoretical knowledge, practical experience, methodological skills, and skills in the use of innovative technologies are a guarantee of effective teaching of geology in school education. Geological knowledge creates an opportunity for students to form an ecological culture, rational use of land resources, and develop a responsible approach to global problems. Therefore, the training of future teachers to form geological knowledge should be scientifically and pedagogically sound, consistently and systematically organized. It is also important to study the educational systems and pedagogical approaches of developed countries in order to use the experience of developed countries and eliminate existing problems in geology education. In this process, it is important not only to study their successful experiences, but also to adapt these experiences to the national education system and introduce effective methods and techniques.

REFERENCES

1. Rawding, C. Challenging Assumptions: The importance of holistic geographies. *Geography* Vol. 98 Part 3, (2013). – P. 157-159.
2. Shadiyeva N.Sh. Tabiyot va geografiya o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Buxoro. 2022. – 25 b
3. Sayidaxmedov N.S. Pedagogika amaliyotida yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. – T.: Yangi asr avlodi, 2001. –40 b.

4. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. Toshkent.: "Fan va texnologiya" nashriyoti. 2008 y.

5. Абдурахмонов Б., Наимов Х. География таълими сифатини оширишда интерфаол географик дастурларнинг аҳамияти. Фарғона водийси географлари уюшмасининг илмий-амалий семинари материаллари. – Наманган: НамДУ, 2017. – Б 140-143.

6. Авазов Ш. Қишлоқ мактаблари юқори синф ўқувчиларини ўлкашунослик фаолияти жараёнида экологик тарбиялаш: Пед. фан. номз ... дисс. – Тошкент, 1993. – 161 б.

7. Алламбергенов А.Ж. Умумий ўрта таълим мактаби ўқувчиларида касбий-технологик компетентликни ривожлантириш: п.ф.б.ф.д... (PhD) диссертация. Нукус – 2020. – Б 82-83.

8. Андресен Б.Б. Мультимедиа в образовании: специализированный учебный М90 курс с англ. - 2-е изд., испр. и доп. - М.: Дрофа, 2007. - 224 с

9. Архангельский С.И. Учебный процесс в высшей школе и его закономерные основы. – М.: Высшая школа, 1997. – 367 с

MATEMATIKAGA ASOSLANGAN KOMPLEKS YONDASHUV TEKNOLOGIYASINI AMALIY QO'LLASH

Sharofutdinova Ra'noxon Shavkatovna

Farg'ona davlat universiteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti, (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqola matematikaga asoslangan kompleks yondashuv texnologiyasining ta'lim jarayonida samarali qo'llanishi haqida tahlil qiladi. Kompleks yondashuv metodlari, matematik ta'limda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita sifatida ko'riladi. Maqolada matematik masalalar va amaliy mashqlar yordamida o'quvchilarda tizimli va izchil fikrlashni shakllantirishning samarali usullari ko'rsatilgan. Bunda, analitik va sintetik metodlar, induktiv va deduktiv yondashuvlar hamda interaktiv va o'yinli metodlarning qo'llanilishi alohida ta'kidlanadi. Kompleks yondashuv orqali matematikani o'rgatishda o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning ijodiy fikrlashini va problemalarni hal qilish qobiliyatini oshirish maqsad qilingan. Ushbu texnologiyaning ta'limda qo'llanilishi o'quvchilarning matematik ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga, o'z bilimlarini real vaziyatlarda qo'llashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Kompleks yondashuv, Matematik ta'lim, Mantiqiy fikrlash, Pedagogik texnologiyalar, Analitik va sintetik metodlar, Induktiv va deduktiv usullar, O'yinli metodlar.

Matematika – bu faqat raqamlar va formulalar bilan ishlashdan iborat emas, balki tizimli va mantiqiy fikrlashni rivojlantiruvchi fan sifatida o'quvchilarni intellektual jihatdan shakllantiradi. Matematik ta'limning maqsadi o'quvchilarda nafaqat aniq hisob-kitob qobiliyatini, balki mantiqiy tahlil qilish, muammolarni yechish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini ham shakllantirishdir. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirishda kompleks yondashuv texnologiyasi alohida ahamiyatga ega.

Kompleks yondashuv – bu matematik ta'limda turli pedagogik metodlar, usullar va texnologiyalarni birlashtirishga asoslangan ta'lim jarayoni bo'lib, o'quvchilarning umumiy rivojlanishi va matematika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvda analitik va sintetik fikrlash, induktiv va deduktiv usullar, shuningdek, interaktiv va o'yinli metodlar qo'llaniladi. Matematik masalalar, amaliy mashqlar va dasturlar yordamida o'quvchilarga murakkab masalalarni hal qilishda yordam beriladi, bu esa ularning mantiqiy fikrlashini va problemalarni hal qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Mazkur maqolada matematikaga asoslangan kompleks yondashuv texnologiyasining o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishdagi o'rni va ahamiyati, shuningdek, bu texnologiyaning amaliy qo'llanilishi ko'rsatiladi. Matematik ta'limda kompleks yondashuvning

samarali qo'llanilishi o'quvchilarni faollashtirishga, ularning intellektual salohiyatini oshirishga, va ular o'rganagan bilimlarni real hayotda qo'llashga yordam beradi.

Matematikaga asoslangan kompleks yondashuv texnologiyasi – bu matematik ta'limda o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish, ularni tizimli va izchil fikrlashga o'rgatish, shuningdek, amaliy mashqlar va matematik masalalar orqali ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishni maqsad qilgan pedagogik metoddir. Kompleks yondashuv, o'zida bir nechta yondashuv va metodlarni birlashtiradi, jumladan induktiv va deduktiv usullar, analitik va sintetik yondashuvlar, shuningdek interaktiv va o'yinli metodlar.

Bu texnologiya orqali o'quvchilar matematik masalalarni yechishda turli metodlarni qo'llashni o'rganadilar va har bir masalaning turli qismlarini tahlil qilish orqali yechim topishadi. Matematikada ko'plab turdagi masalalar, jumladan algebra, geometriya, statistik va ehtimollik masalalari orqali o'quvchilarda mantiqiy tahlil qilish va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

Kompleks yondashuvni qo'llashda ta'lim jarayonini interaktiv qilish, o'quvchilarni faol ishtirok etishga undash, ularning o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga yordam berish va har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ushbu texnologiyaning samarali qo'llanilishi nafaqat o'quvchilarning matematik bilimlarini mustahkamlashga, balki ularning umumiy intellektual salohiyatini oshirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, kompleks yondashuv, o'quvchilarning matematikaga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi va ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Piaget, J. "The Psychology of Intelligence". London: Routledge, 2001.
2. Vygotsky, L. S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Dewey, J. "How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process". Boston: D.C. Heath, 1933.
4. Asqarova, M. "Kompleks yondashuv va mantiqiy fikrlashni rivojlantirish". Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021.
5. G'ofurov, Sh. "Matematik ta'limda kompleks yondashuv". Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2020.
6. Kolb, D. A. "Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development". Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
7. Shakarova, S. "Matematikada kompleks yondashuvning o'rni". Toshkent: Ziyo, 2022.
8. Salimova, D. "Kasbiy ta'limda kompleks yondashuvni qo'llash". Toshkent: Fan va Ma'rifat, 2023.
9. G'ulomov, A. "Matematikada mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari". Toshkent: Sharq, 2021.
10. Nazarov, Q. "Innovatsion ta'lim texnologiyalarining asoslari". Toshkent: O'zbekiston Universiteti nashriyoti, 2021.
11. Huizinga, J. "Homo Ludens: A Study of the Play-Element in Culture". Boston: Beacon Press, 1950.

ПРЕИМУЩЕСТВО НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ

Б. А. Халилова

Ферганский государственный университет

Р. А. Хамракулова

Ферганский государственный университет

Аннотация: В статье рассматриваются перспективы внедрения инновационных технологий в преподавании, современное представление об инновационных технологиях их роль и значение. Рассматриваются задачи использования различных методов преподавания при проблемном обучении, решении проблемных задач, выходы из ситуаций и перспективы в этом инновационных технологий. Рассматривается эффективность информатизации и цифровизации учебного процесса, которые должны создать твердую уверенность в том, что эти качества организации учебного процесса характерны для всего современного общества, проектирование обучения в соответствии с требованиями времени, использование и развитие операций логического мышления.

Ключевые слова: эффект информатизации, сфера деятельности, техника и технологии, уровень развития науки, системное реформирование, методическая основа, периодическое применение, спектр, обеспечение соответствия качества, модернизация, цифровизация.

В целях повышения результативности научно-исследовательских работ, широкого привлечения молодежи к научной деятельности, формирования инновационной инфраструктуры науки в высших образовательных учреждениях проводятся поэтапное внедрение концепции, предусматривающей тесную связь образования, науки, инноваций и деятельности по коммерциализации результатов научных исследований в высших образовательных учреждениях, привлечение зарубежных инвестиций, расширения масштаба платных услуг и других внебюджетных средств, обеспечение их деятельности по исследованию и прогнозированию социально-экономического развития соответствующих отраслей, сфер и регионов.

Создание предприятий на базе высших образовательных учреждений, занимающихся внедрением в практику результатов научных исследований путем создания новой продукции, техники и технологий с высоким потенциалом коммерциализации на основе стартап-проектов за счет внебюджетных средств, развитие академического предпринимательства, развитие фундаментальных, прикладных и инновационных научных исследований, сохранение действующих и создание новых научных школ, укрепление их кадрового потенциала, при этом стимулирование широкого привлечения одаренной молодежи к науке, направление научно-исследовательских работ на инновационное решение имеющихся проблем в социальной сфере и отраслях экономики, в том числе регионального уровня, широкое исследование проблем сопряженных наук.

Высшее образование сегодня характеризуется использованием самых разных психолого-педагогических инноваций, зависящих от того, в каком учебном заведении преподается курс химии и биологии и готово ли оно к следующим шагам по внедрению новых видов учебной деятельности. Чтобы осваивать инновационные технологии, необходимо иметь о них самое подробное представление и выделить их характерные черты. [1]

Педагоги могут пользоваться образовательными ресурсами, которые находятся в свободном доступе. Обычно такие ресурсы классифицированы по разделам в соответствии с основными дисциплинами общего образования или направлениями дополнительного образования. Они содержат учебный и справочный материал. Использовать эти ресурсы могут и учащиеся. Электронные тесты, интерактивные модели,

красочные иллюстрации, готовые разработки, тренажеры и другие учебно-методические материалы, содержащиеся в разделах ресурса, помогут педагогам подготовить и провести интересные, познавательные, яркие занятия, а ученикам - выполнить домашние задания, исследовательские проекты или другие виды самостоятельных работ. Ключ к внедрению технологий в образовании всегда будет определяться отношениями учитель - ученик, потому что именно там происходит образование. Технологии могут быть очень эффективным инструментом, но это всего лишь инструмент. Технологии не предназначены для замены педагога, скорее, идея заключается в создании такой среды обучения, которая позволит переключить организацию учебного процесса на сотрудничество и продуктивную учебную деятельность. [1,2] Сегодня мы находимся на первом этапе внедрения технологий в образование. Процесс внедрения может кого-то расстраивать, раздражать, отнимать много сил и времени, но в конечном итоге технологии могут «открыть двери» для нового опыта, открытий, способов обучения и сотрудничества учащихся и педагогов.

Современные технологии расширяют возможности коммуникации и создают более продуктивную среду обучения. Учащиеся, объединяясь в группы в сети Интернет, могут обмениваться информацией, работать вместе над групповыми проектами и взаимодействовать с педагогом

Технологии позволяют больше экспериментировать с педагогикой и получать мгновенную обратную связь. Современные технологии позволяют учащимся стать более активными участниками образовательного процесса, а педагогам создавать новые подходы, методы, модели обучения и воспитания. Процесс обучения становится динамичнее с использованием цифровых учебников, когда ученик может воспользоваться ссылками на соответствующие материалы или ресурсы. Использование технологичных инструментов для организации проектной деятельности позволяет добиться значительных изменений в результатах обучения. У педагогов появляется возможность реализовать новые модели организации учебного процесса.

Технологии помогают обеспечить активное вовлечение учащихся в учебный процесс. Онлайн-опрос и другие цифровые инструменты помогают вовлечь в учебный процесс всех учащихся, в том числе застенчивых, не уверенных в своих силах, обычно не проявляющих инициативу. Онлайн-системы позволяют регулярно получать обратную связь, в том числе и отзывы учащихся о доступности учебных материалов и заданий. Анализ данных позволяет педагогу легко и быстро выявлять затруднения каждого ребенка и вовремя оказывать помощь, определять области, где учащиеся могут соревноваться, а значит легко скорректировать работу каждого ученика или работу в группе. Например, технологии могут значительно повысить эффективность использования такого активного метода обучения как викторина. В начале урока педагог может провести викторину с использованием технических устройств и быстро оценить стартовый уровень учащихся, потратив на получение достоверной информации и ее анализ всего несколько минут. Далее педагог может внести коррективы в организацию учебного процесса объективно понимая куда стоит направить свои усилия и как организовать работу учащихся. Проведение той же викторины по окончании занятия снова позволит с минимальными временными затратами получить обратную связь, а ученикам оценить результаты и успешность обучения.

Существует множество ресурсов для организации продуктивной учебной деятельности учащихся. В приложениях мобильных платформ и электронных учебниках нет недостатка в инструментах, которые значительно меняют организацию учебной деятельности. Некоторые технические устройства используют различные виды стимулирования и помогают усвоению информации в процессе изучения, применяют конкурентные сценарии для распределения баллов и наград, чтобы сделать учебный процесс более увлекательным и привлекательным. Важным условием использования

таких технических устройств является достижение целей обучения. Некоторые мобильные платформы и электронные учебники включают ролевые игры, в которых учащимся предоставляется возможность привести факты и свои аргументы в пользу, например, исторических деятелей или научных понятий. Кроме того, игровые технологии способствуют внедрению в учебный процесс здоровой конкуренции. Современное автоматизированные обучающие системы могут значительно помочь в организации продуктивной учебной деятельности и реально оценить достижения каждого учащегося.

Технологии помогут педагогу автоматизировать или упростить выполнение ряда утомительных обязанностей. Автоматизация может упростить выполнение и сократить время на такие рутинные, но трудоемкие задачи, как, например, отслеживание посещаемости и результативности учебной деятельности учащихся. [3]

Современные технологические средства упрощают систематизацию и подборку индивидуальных заданий для учащихся, помогают отследить активность их участия в обсуждении. Возможность современных технологических средств визуализировать сложный для восприятия и понимания учебный материал сокращает затраты сил и времени педагога на объяснение. Например, технология дополненной реальности, позволяет учащимся из атомов создать молекулы сложного химического соединения в виртуальной среде при помощи собственных рук. За счет эффекта присутствия, создаваемого путем воздействия на органы чувств человека, технология позволяет более эффективно продемонстрировать процесс создания молекулы или вещества, нежели презентация на экране или картинка на бумаге.

Технологии обеспечивают мгновенный доступ к нужной информации и воспитывают важные навыки по работе с источниками. [4] Ценность учебного процесса повышается, если информация в учебниках или учебных пособиях может быстро обновляться и дополняться, в том числе силами самих учащихся. Современные технологии расширяют возможности коммуникации и создают более продуктивную среду обучения. Учащиеся, объединяясь в группы в сети Интернет, могут обмениваться информацией, работать вместе над групповыми проектами и взаимодействовать с педагогом.

В заключении можно сказать что умение использовать технологии - это жизненный навык и важный вид грамотности. Обладать цифровой грамотностью - это больше, чем наличие «отдельных технологических навыков». Сегодня речь идет о глубоком понимании цифровой среды, которая обеспечивает интуитивную адаптацию к новым контекстам и совместному созданию контента с другими учащимися. Создание презентаций, обучение поиску надежных источников в сети Интернет, поддержка надлежащего онлайн-этикета - это жизненные навыки, которые учащиеся могут получить в учебном процессе, а они пригодятся каждому ребенку в течение всей жизни. Цифровая грамотность может помочь образовательным организациям не только повысить качество обучения, но и позволит результатам обучения всегда оставаться актуальными.

Ученикам пригодится умение отличать качественные источники информации от ненадежных. В образовательных организациях можно создавать перечень электронных образовательных ресурсов, информации с которых учащиеся могут доверять, использовать, копировать и адаптировать.

ЛИТЕРАТУРА

1. Найма И. Развитие современных педагогических технологий (организационно-деятельностный подход): Дис. канд. пед. наук. - Пятигорск, 1993. - С. 97.
2. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии: Учебное пособие. - М.: Народное образование, 1998. - С. -5.
3. Суртаева Н. Н. Проектирование педагогических технологий в профессиональной подготовке учителя (на примере естественно-научных дисциплин): Дис... докт. пед. наук. - М., 1995. - С. 219 - 225.

4. Суртаева Н.Н. Педагогические технологии в реализации гуманистической концепции образования - 1997. - № 7. - С. 17.

5. Abdulazizovna K. B. et al. Information technologies as a step to the development of society //international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – Т. 16. – №. 3. – С. 73-77.

6. Abdulazizovna K. B. et al. Timely implementation of personal education measures in the context of globalization //international journal of research in commerce, it, engineering and social sciences ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876. – 2022. – Т. 16. – №. 3. – С. 87-92.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ ДИВЕРГЕНТНОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ, БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Холикова Дилобархон Махситовна

(PhD), доцент Фарганского государственного университета

Аблязизова Милана Исломовна

учитель 42 школы, города Ферганы

Аннотация: В условиях стремительного обновления содержания образования и повышения требований к профессиональной подготовке педагогов особую актуальность приобретает развитие дивергентного мышления у будущих учителей начальных классов. Дивергентное мышление способствует формированию креативного подхода к решению педагогических задач, гибкости мышления и способности к нестандартному анализу учебных ситуаций. В данной работе рассматриваются современные подходы и эффективные методики, направленные на развитие дивергентного мышления у студентов педагогических вузов. Особое внимание уделяется интеграции творческих заданий, проектной деятельности, методам мозгового штурма и рефлексии в учебный процесс. Обоснована необходимость формирования педагогической среды, способствующей активному развитию креативного потенциала будущих учителей. Результаты исследования могут быть использованы в практике преподавания педагогических дисциплин, а также в системе повышения квалификации педагогических кадров.

Ключевые слова: дивергентное мышление, креативность, будущие учителя, начальные классы, педагогическое образование, методика обучения, творческое мышление, развитие мышления, инновационные методы, профессиональная подготовка.

Abstract: In the context of the rapid renewal of educational content and increasing demands for the professional training of educators, the development of divergent thinking among future primary school teachers becomes particularly relevant. Divergent thinking contributes to the formation of a creative approach to solving pedagogical tasks, flexibility of thought, and the ability to conduct non-standard analysis of educational situations. This paper examines modern approaches and effective methodologies aimed at developing divergent thinking in students of pedagogical universities. Special attention is given to the integration of creative assignments, project activities, brainstorming methods, and reflection into the educational process. The necessity of creating a pedagogical environment that fosters the active development of the creative potential of future teachers is justified. The results of the research can be applied in the practice of teaching pedagogical disciplines, as well as in the system of professional development for educators.

Keywords: divergent thinking, creativity, future teachers, primary school, teacher education, teaching methodology, creative thinking, cognitive development, innovative methods, professional training.

Современная система образования требует от будущих педагогов не только глубоких знаний, но и креативности, гибкости мышления, способности нестандартно решать педагогические задачи. В этом контексте особое значение приобретает развитие **дивергентного мышления** — способности генерировать множество оригинальных идей и подходов при решении проблем. Особенно важно формировать эту способность у студентов педагогических вузов — будущих учителей начальных классов, поскольку именно они закладывают основы мышления у детей младшего школьного возраста.

В нашей стране особое внимание уделяется воспитанию подрастающего поколения, в частности, совершенствованию теоретико-дидактической, методической подготовки учителей психолого-педагогической подготовки будущих учеников начальных классов, формируется критериально-правовой фундамент организации начального образования на принципах последовательности, преемственности и системности.

Возможности развития дивергентного мышления младших школьников обусловлены необходимостью психологического сопровождения их в процессе школьного обучения. В нашей стране в последнее время предъявляются высокие требования к усвоению учащимися теоретических дисциплин в общем среднем образовании. Развитие дивергентного мышления способствует общему интеллектуальному развитию ребенка, особенно чувствительному для развития общих интеллектуальных способностей детей младшего школьного возраста.

Когда в какой-либо предметной области называются задания расходящегося типа, подразумевается, что существует множество решений, а точнее, множество правильных ответов. В современной инновационной практике общего среднего образования одним из возможных резервов повышения эффективности обучения является включение в содержание образовательного процесса развивающих специальных заданий. Как известно, в научных исследованиях, системе управления, политике, экономике большинство проблем будет иметь не одно, а несколько решений. В настоящее время мы можем наблюдать, что задания в большинстве учебников относятся к “сходящемуся” результату. В частности, в большинстве случаев условия заданий предполагают наличие единого решения, и единственный правильный ответ может быть сформирован путем строгих логических рассуждений или с использованием правил и алгоритмов, усвоенных ребенком.

За прошедшие годы в психолого-педагогической литературе неоднократно поднималась проблема формирования, развития дивергентного мышления. Многие ученые-исследователи, в том числе и ученые нашей страны, работают над изучением мыслительных процессов Б.Р.Адизов, З.Х.Абдиназарова, Е.Газиев, Ш.Н.Нуруллаева, О.Р.Аслонова и другие провели исследования типов мышления, скорости, широты и творческой креативности.

Из стран Содружества Независимых Государств-Шеломенцева Ирина Ивановна, Игорь Викторович Блауберг, Игумнова Александра Сергеевна, Константин Викторович Дрягунов, Василий Васильевич Давидов, Наталья Александровна Менчинская, Ирина Аликс Александровна Майданник, Исаак Яковлевич Лернер и другие Дивергент изучали проявления мышления, его отличия от других видов дивергентного мышления, его особенности и факторы развития, проводили экспериментально-психологические исследования.

Из зарубежных ученых-педагогов и психологов Джой Пол Гилфорд, Карл Ренсом Роджерс, Жан Пиаже и др. исследовали особенности дивергентного и конвергентного мышления, гуманистическую психологию, проблему интеллекта, Проблемы памяти, креативности, внимания.

Понятие дивергентного мышления

Термин «дивергентное мышление» был введен американским психологом Дж. Гилфордом и обозначает вид мышления, направленный на поиск множества решений

одной и той же задачи. Оно противопоставляется конвергентному мышлению, при котором существует одно правильное решение. Дивергентное мышление характеризуется гибкостью, оригинальностью, беглостью и разработанностью идей.

Значение дивергентного мышления для будущих учителей

Для учителей начальных классов дивергентное мышление необходимо:

- для выбора индивидуальных подходов к каждому ученику;
- при разработке нестандартных учебных заданий;
- в процессе формирования у детей познавательного интереса и творческого потенциала;
- для адекватного реагирования на педагогические ситуации, не предусмотренные стандартными алгоритмами.

Развитие дивергентного мышления у будущих педагогов способствует формированию профессионально важных качеств: креативности, инициативности, педагогической гибкости.

Традиционные подходы и их недостатки

В большинстве учебных программ педагогических вузов развитие мышления студентов осуществляется с помощью традиционных форм: лекций, семинаров, лабораторных и практических работ. Однако они не всегда способствуют активному проявлению креативности. Слабое использование проблемных и исследовательских методов, недостаток интерактивных форм и проектной деятельности тормозят развитие дивергентного мышления.

Пути усовершенствования методики

Для более эффективного развития дивергентного мышления у студентов педагогических специальностей необходимо внедрить в образовательный процесс следующие подходы:

1. **Игровые и креативные методы обучения.** Использование педагогических игр, мозговых штурмов, сторителлинга, техник «шести шляп мышления», методов ТРИЗ (теории решения изобретательских задач).

2. **Проектная и исследовательская деятельность.** Предложение студентам самостоятельно разрабатывать методики преподавания с учетом возрастных особенностей младших школьников, проводить мини-исследования в школьной среде.

3. **Интерактивные формы занятий.** Включение в занятия кейс-методов, дебатов, работы в малых группах, ситуационного анализа.

4. **Междисциплинарный подход.** Объединение знаний из различных областей (психология, педагогика, искусство, информатика и др.) стимулирует ассоциативное и гибкое мышление.

5. **Рефлексия и самопознание.** Введение заданий на самоанализ и рефлекссию помогает студентам осознать свои ментальные процессы, выявить барьеры и зоны роста в собственном мышлении.

6. **Цифровые технологии.** Использование цифровых инструментов (онлайн-доски, креативные платформы, генераторы идей) расширяет возможности для выражения и развития творческого потенциала студентов.

Практические примеры

Одним из эффективных способов развития дивергентного мышления является организация творческих мастерских, где студенты:

- разрабатывают альтернативные сценарии проведения уроков;
- решают педагогические задачи с помощью нетрадиционных подходов;
- создают авторские методические пособия;
- проводят занятия для детей с акцентом на творческое мышление.

Развитие дивергентного мышления у будущих учителей начальных классов является ключевым направлением в подготовке педагогов нового поколения. Совершенствование

методики требует отказа от традиционных форм и внедрения инновационных, интерактивных и креативных подходов. Это позволит сформировать у студентов способность гибко мыслить, адаптироваться к образовательным реалиям и стать вдохновляющими наставниками для своих учеников.

ЛИТЕРАТУРА

1. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. - I; RTM, 2000. - 46 b.
2. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". PEDAGOGICAL SCIENCES, 22.
3. Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN.
4. Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 3(4), 174-180.
5. Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 3(4), 174-180.
6. Bahodirovna, A. M., & Maxsitovna, X. D. (2023). MIQDOR TUSHUNCHASINING BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARIGA O 'RGATISH USULLARI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION, 2(5).
7. XOLIKOVA, D., & SOLIYEVA, M. (2023). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISH. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(5), 80-85.
8. Maxsitovna, X. D. (2023). SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. MODERN SCIENCE, 2181, 3906.
9. Xolikova, D. (2023). INCREASING LEARNING EFFICIENCY IN CLASSROOM STUDY LESSONS. Modern Science and Research, 2(5), 750-760.
10. Холикова, Д. (2023). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НА УЧЕБНЫХ УРОКАХ В КЛАССЕ. Современная наука и исследования, 2(5), 750-760.
11. Maxsitovna, X. D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TIL O'QITISHGA KOMMUNIKATIV YONDASHUV. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 825-829.

YOZUV MATERIALLARI VA QUROLLARI. YOZUVGA O'RGATISHNING USULLARI. YOZUVGA O'RGATISH TAMOYILLARI

Usmonova Odinaxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sayfidinova O'g'iloy Abdumannobovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuv materiallari va qurollari, husnixatga o'rgatishning metod va usullari hamda yozuvga o'rgatishning tamoyillari haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit sozlar: genetik, ritmik, chiziqli, tamoyil, onglilik, imlo.

O'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatishda, ularda husnixat malakalarini hosil qilishda yozuv qurollari va materiallarining sifati katta rol o'ynaydi.

Yozuvning chiroyli bo'lishi ko'p jihatdan yozuv quroli va materialiga bog'liqdir. Yozuv qurollari va materiallari quyidagilar sanaladi:

1. Xattaxta.
2. «To'g'ri o'tir» plakati.
3. Alifboning yozma shakli.
4. Haflar alohida yozilgan albom.
5. Husnixat daftari.
6. Rangli bo'rlar.
7. Ruchka.
8. Yozuv daftari.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi maktabga qadam qo'ygan kundanoq yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanishga, ularni ozoda saqlashga o'rgatib boriladi.

O'qituvchi o'quvchining yozuv qurollari va materiallarini muntazam tekshirib borishi muhim vazifa sanaladi. Dastur talabi bo'yicha 1-sinf o'quvchilari uchun yozuv yo'li 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm bo'lgan qiya chiziqlari siyrak bo'lgan 2 chizikli daftar tavsiya etiladi.

2-4-sinflarda chiziqlari 8 mm 1 chizikli daftar tutilishi lozim. Kichik harflarning bo'yi 3 mm, bosh harflarning bo'yi 6 mm, raqamlarning bo'yi harflardan 2 marta qisqa bo'ladi. 1-2-sinfda husnixat uchun maxsus alohida darftarga, 3-4-sinflarda ona tili daftariga yozadilar.

1-2-sinflarda foydalaniladigan darftarda qiya chiziqlar orasidagi masofa 30 mm va qiya chiziqlarsiz kichik harflar yoziladigan parallel chiziqlar orasidagi masofa 4 mm ga teng bo'lgan ikki chizikli daftar tavsiya etiladi.

Qiya chiziqlari siyrak bo'lgan ikki chizikli daftariga yozdirib borish va mashq qildirish orqali 1-sinf o'quvchilarini mayda harflar bilan tez yozishga o'rgatib boriladi. Bunday darftarda mashq qilish o'quvchilarga harflarning eni va ular orasidagi masofani ko'z bilan chamalash, qiyaligiga rioya qilish imkoniyatini beradi.

O'quvchi daftariga sana va oy yozdiriladi. Xat boshiga amal qilishga o'rgatiladi, daftar hoshiyasi bo'lishi shart. Darftarga sarlavha yozdirilganda, sarlavha va matn orasida satr qoldirilmaydi.

Daftarga xatoni to'g'irlash yo'li o'rgatiladi. Bu holda xato harfning ustidan chiziq tortib, ustiga to'g'risini yozishga odatlantiriladi. Daftar uy vazifasi berilgach, yig'ib olinadi, tekshiriladi va baholanadi.

Yozuv materiali bo'lgan daftarni yuritishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Daftarga toza va aniq yozish.
2. Daftar muqovasidagi yozuvlar yagona talab asosida yozilishi, daftar qaysi fan uchun tutilganligi, nechanchi sinf, maktabning nomi va raqami, o'quvchining ismi va sharifi ko'rsatib o'tilishi zarur.
3. 1-sinf o'quvchilarining daftarlari muqovasi o'qituvchi tomonidan yoziladi.
4. Har bir daftarda hoshiya bo'lishi shart.
5. 2-sinfdan boshlab mashq tortib raqami, qaerda bajarilganligi (sinfda yoki uyda) yozib qo'yiladi.
6. Harf yoki bo'g'in hamda so'zlarning tagiga ehtiyotkorlik bilan chiroydi va tekis chiziladi.
7. Xato yozilgan harf yoki harfiy birikmalarni namuna sifatida daftar hoshiyasiga yozib ko'rsatiladi.
8. Noto'g'ri yozilgan harflarni bo'yash, o'chirish yoki qavs ichiga olib qo'yishga ruxsat etilmaydi.
9. Mashqlarni bajarishda, matn yozishda xat boshidan yozish qoidalariga amal qilish talab etiladi.

Chiroyli husnixat bilan yozishga erishishda yozuv qurolining ahamiyati katta. Hozirda yozuv quroli sifatida sharikli ruchkadan foydalanish tavsiya etiladi. Sharikli ruchka yozish uchun qulay, ingichka, engil, barmoqlar orasida tutishga mos. Ruchka barmoq orasida tutilganda,

ruchka uchi bilan barmoq oralig'i 1,5-2 smga teng bo'lishi shart. Aks holda barmoqni ruchka uchidan uzoq ushlab yoki juda yaqin tutish yozuv sifatini buzadi, harflarni xunuk yozishga olib keladi. Ruchka siyohi faqat binafsha rangda bo'lishi talab qilinadi.

O'qituvchi darslarni tekshirganda qizil pastali ruchkadan foydalanadi. Ruchka papkada maxsus penalda saqlanadi. Partada esa ruchkani qo'yish uchun maxsus joy bo'ladi. O'quvchi ruchkasidagi siyoh tugagan taqdirda, lozim bo'lganda foydalanish uchun ruchka bo'lishi zarur.

Xattaxta sinfdagi o'quvchi uchun yozuv materialidan biri sanaladi. O'quvchining husnixati daftar va xattaxtada takomillashtirib boriladi, shuning uchun xattaxtada yozuvni amalga oshirish uchun uning rangi qora va to'q yashil bo'lishiga erishish lozim. Bunda xat aniq va chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari foydalanadigan xattaxtaning uch qismdan iborat bo'lishi, xattaxtaning bir bo'lagiga yozuv daftarining, ikkinchi bo'lagiga katak daftarining chiziqlari chizilishi juda muhimdir. Bu chiziqlar yordamida o'quvchi chiroyli yozuvga o'rganadi. Shuningdek, xattaxtaning bo'yi ham chiroyli yozuvda katta ahamiyat kasb etadi, shu sababli u yuqori va pastga o'quvchi bo'yiga moslab harakatlantirishga moslangan bo'lishi e'tiborga olinadi.

Bo'r xattaxtaga yozishda yozuv quroli sanaladi. Uning yog'li bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Bo'rning sifati yozuv sifatini ta'minlaydi. Husnixatga o'rgatishda yuqoridagilar e'tiborga olinishi shart.

Bir so'z bilan aytganda, ish faoliyati davrida qo'l harakatini mashq qildiruvchi jismoniy mashqlardan foydalanib turilsa, chiroyli yozuvga o'rgatishning asosiy shartlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimova K. va boshqalar. Ona til o'qitish metodikasi. –T.: Nosir, 2009.B.89
2. Aydarova U.B O'qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent.: “Novda Edutainment”, 2023 – 80 b.
2. Usmanova, O. S. (2022). National curriculum and new generation mathematics textbook. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(2), 11-16.
4. Usmonova, O. (2016). Ikkinchi sinf darsliklarida shartli belgilar. Ta'lim va kasbiy mahorat. Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami, 1(06), 46-49.
5. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan. 2006. B. 250.

TA'LIM JARAYONIDA TARBIYANING O'RNI

Yo'ldasheva Dilnozaxon

FarDU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan abadiy qadriyatdir. Tarbiya siz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. Tarbiyaning tamal toshi oilada qo'yilishini, tarbiya oiladan boshlanishini va ta'lim muassasalarida davom etadi. Shuning uchun O'zbekistonda ta'lim bilan tarbiya birdek olib boriladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, shaxs, pedagogik jarayon, komil inson, axloqiy tarbiya, iqtidor, jarayon, mahorat.

Hozirgi kunda zamon juda shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Tarbiya — shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora- tadbirlar yigindisi deb ta'riflaydi.

Yosh avlodlarimizning har tomonlama kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratilishiga oila tarbiyasi muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Yosh avlod xayotining ko'p qismi oilada o'tadi. Shu boisdan turmushning murakkab muammolari bilan oilada tanishadilar. Oiladagi mavjud an'analar, urf-odatlar, rasm-rusumlar va marosimlarning ijobiy ta'sirida yigit-qizlar asta-sekin kamol topib boradilar. An'ana va marosimlar tarbiyaning qudratli quroliga aylanadi. Kelajagimizning qanday bo'lishi hozirgi kunda biz tarbiyalayotgan yoshlarga bog'liq.

Tarbiya kelajakda nafaqat yoshlar iqtidorini yuksaltirish, balki jamiyatda ijtimoiy vaziyatini barqarorlashtirish, ishsizlikni oldini olish, xalqni turmush darajasini oshirish imkonini beradi. Tarbiya kishilar bilan bo'ladigan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, mustahkamlash, ularning turli jarayonga moslashuviga psixologik jihatdan yordam berish, Vatanga bo'lgan muhabbatni oshirish, intilish va iqtidorini qo'llab-quvvatlash, iste'dodi va tashabbusini rag'batlantirish, hayotda o'z o'rnini egallash, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, intellektual jihatdan rivojlanishni ta'minlash kabilarni ifodalaydi. Shu jihatdan yangi O'zbekiston taraqqiyotida tarbiya jarayoni jamiyatda mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish o'zining qadr-qimmatini anglash, metin iroda, iymoni but, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash, o'z ongi, tafakkuri, mehnati bilan maqsadlarini amalga oshirishlari uning asosiy konsepsiya bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim jarayoni - bu shaxsni ijtimoiylashtirish jarayoni hisoblanib, uni hayotga, jamiyatdagi o'rnini topishga, faol munosabatga tayyorlash, jamiyatga foyda keltiradigan, o'z faoliyatidan ma'naviy hamda moddiy qoniqish hosil qiladigan tarzda tarbiyalash demakdir. Shunday qilib, tarbiya jarayonining mohiyati shundan iboratki, tashqi obyektiv boylik ichki boylik bo'lib qoladi, inson ongi sohasiga o'tadi, keyinchalik u xulq va faoliyat natijasiga aylanadi. Tarbiya jarayoni unga ta'sir etuvchi omillar, faollik, ehtiyoj, intellektual hissiy boyliklar, faoliyat, odatlar, muomala va munosabat o'zaro bir-birlari bilan bog'liq holda yo'lga qo'yiladi. Tarbiya jarayoni samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, u shaxs ehtiyoj motivatsion sohasini shunchalik boyitadi va uni qayta quradi. Uning intellektualemosional irodaviy faolligini rivojlantiradi. Tarbiya jarayonining samaradorligi shaxs motivatsion-amaliy faoliyatini harakatga keltira olsa, ong va faoliyat birligini ta'minlay olsagina yuqori bo'ladi.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq shakllantirish va rivojlantirish jarayoni sifatida keng qamrovdagi holatlar bilan murakkablashadi:

-bola shaxsiga turli-tuman, bevosita va bilvosita ta'sirlarning mavjudligi (maktab, oila, ko'cha, noformal guruhlar, axborot vositalari);

- bolalarda oldindan yuzaga kelgan qarashlar, intilish, odat, didning mavjudligi;

- o'quvchi ichki holatini o'rganishdagi qiyinchilik; bir xildagi pedagogik ta'sir natijalarining turlichaligi. Shuningdek, tarbiya jarayonini murakkablashtiruvchi yana bir qarama-qarshilik, bu tashkiliy, maqsadli ta'sir bilan, stixiyali ta'sir o'rtasidagi nomuvofiqlik.

O'qituvchilar tomonidan bolalarga talablarning bir xilda qo'yilmasligi ham tarbiya jarayonida ma'lum ziddiyatni keltirib chiqaradi. Tarbiya yaxlit pedagogik jarayonning bir tizimi sifatida ma'lum qonuniyatlarga bo'ysunadi. Tarbiya jarayonining qonuniyatlari:

1. Tarbiyalanuvchilarning faoliyati qanchalik o'ylab, puxta tashkil etilgan bo'lsa, ularning muomala, munosabatlari, umuman olganda, tarbiya jarayoni shunchalik samarali kechadi.

2. Tarbiya jarayoni shaxs ichki tomonlariga (ruhiyati, hissiyotiga) qanchalik to'g'ri, samarali ta'sir ko'rsatsa, uning natijasi shunchalik yuqori bo'ladi.

3. Tarbiya jarayoni o'zining kompleks tizimida shaxsning verbal, sensor va harakat jarayonlariga ta'sirini qanchalik ko'p, maqsadga muvofiq tarzda uzviy olsa, o'tkaza barkamol shaxs tarbiyasi shunchalik mukammal amalga oshadi. Tarbiya jarayonining yaxlitlik, tizimlilik xususiyati bir qator muhim pedagogik talablarga amal qilish, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni qaror toptirishni talab etadi. Tarbiyaning yana bir xususiyati shundan iboratki, bu jarayon ikki tomonlama aloqa xususiyatiga ega bo'lib, unda bolaning o'zi ham faol ishtirok etadi. Ikki tomonlama aloqa ikki yo'nalishda, ya'ni, o'qituvchining o'quvchiga

ko'rsatadigan ta'siri (to'g'ri aloqa) hamda o'quvchining o'qituvchiga nisbatan munosabati (teskari aloqa) tarzida tashkil etiladi.

Ta'lim muassasasida olib borilayotgan tarbiya jarayoni bu — o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi uzluksiz, tizimli harakatlari jarayonidir. Oila, ta'lim muassasalari, jamoatchilik hamkorligida tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlarning uzluksiz o'tkazilishiga erishish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarga nisbatan ta'lim muassasasining ta'sirini susaytirmaslik maqsadida sinfdan, maktabdan tashqarida va ta'til davrida ham tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga alohida e'tibor beriladi. Tarbiya jarayonida o'quvchining ongigina emas, balki his-tuyg'ularini ham o'stirib borish, unda jamiyatning shaxsga qo'yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy malaka va odatlarini hosil qilish lozim. Bunga erishish uchun o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga ta'sir etib boriladi. Agar bularning birortasi e'tibordan chetda qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi. Tarbiya jarayoniga o'qituvchi rahbarlik qiladi. U o'quvchilar faoliyatini belgilaydi, ularning ijtimoiy jarayonda ishtirok etishlari uchun shart-sharoit yaratadi. O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoqarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

b) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ularning ongini boyitish;

d) umuminsoniy axloq me'yorlari (odamiylik, kamtarlik, o'zaro yordam, mehruhabbat, muruvvat, adolatni yoqlash, insonparvarlik, axloqsizlikka nisbatan nafrat va hokazolar)ning mohiyatini anglash, o'quvchilarda muomala odobi, yuksak madaniyatni qaror toptirishga erishish;

e) o'quvchilarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqarolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga mas'ullikni qaror toptirish;

f) tabiatni muhofaza qilish, ekologik muvozanatni yuzaga keltirish borasidagi mas'uliyatni tarkib toptirish;

g) vatanparvarlik va baynalminallik tuyg'usini shakllantirish, o'zga millat va xalqlarni hurmat qilish, ularning huquq va burchlarini kamsitmaslik tuyg'usini qaror toptirish;

h) mustaqil davlat – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rganish;

i) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr-qimmatini, huquq va burchlarini hurmat qilishga o'rgatish O'zbekiston "Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari" tamoyili asosida taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Yangi davr shiddati ta'lim-tarbiya tizimiga ham o'zining aniq, qat'iy talablarini qo'ymoqda. Tarbiya va ta'limni birbiridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzluksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlariga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi.

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarini kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim, o'rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Vatanga sadoqat, burch va mas'uliyat, tashabbuskorlik va boshqa fazilatlar yoshlar ongida nazariy tushunchalar sifatida qolib ketgani holda uning tabiatida amaliy odatlarga aylanmayapti. Buning oqibatida ularning ushbu fazilatlar haqidagi so'zlari bilan amallari orasida tafovut namoyon bo'lmoqda, bu esa har yili mustaqil hayotga kirib kelayotgan yigitqizlarning hayotda o'z o'rinlarini topishlarida bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Ayrim o'quvchi-

yoshlarda yuksak maqsadlarning shakllanmaganligi, o'zini o'zi o'qishga safarbar qilish, iroda, matonat, tirishqoqlik, harakat fazilatlarini yetarli rivojlanmaganligi ta'lim sifatiga ham zarar ko'rsatmoqda. Ma'naviy tarbiya sohasida o'qituvchilarning faoliyatini metodik ta'minlovchi o'quv materiallari, shu jumladan, ma'naviy tarbiya sohasiga oid metodik qo'llanmalar, o'quvchilar uchun zarur darsliklar yetarli emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M “ Ta'lim-tarbiyaga ” oid fikrlari
2. Бабашев, Ф. А. (2018). Реформы, нацеленные на дальнюю перспективу. Вопросы науки и образования, (1 (13)), 118-119.
3. Бабашев, Ф. А. (2023). ЎЗБЕКИСТОН ТАЪЛИМ ТИЗИМИГА МЕДИАТАЪЛИМНИ ЖОРИЙ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ. Academic research in educational sciences, 5(NUU Conference 2), 216-220.
4. Jumaevich, K. K., & Abdullajonovna, A. G. (2021). Technology of Cooperation in the Formation of Spiritual and Moral Education of Young People in Society and Its Qualimetry. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 7062-7068.
5. Mutalipova M.J. Xalq pedagogikasi. – T.: “ Fan va texnologiya”, 2015, 160
6. Boboxonov A. O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. T.: “O'qituchi”, 1967. 11-13 bet
7. Ziyomammedov B. Pedagogika . T.: “ Turon-Iqbol”, 2006

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI INTELLEKTUAL, AXLOQIY, ESTETIK VA JISMONIY JIHATDAN RIVOJLANTIRISHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI

M.Q.Jabborova

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Eshonboyeva Zilolaxon Baxodirovna

Qo'shtepa tumani 36-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim - inson kamolotining ilk va eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu davr bola shaxsini shakllanishining poydevori bo'lib, unda axloqiy qarashlar, dunyoqarash, mulohaza qilish qobiliyati va estetik ehtiyojlar asos solinadi. Shu boisdan bolani har tomonlama rivojlantirish jarayonida milliy qadriyatlarining o'rni beqiyos hisoblanadi.

Kalit so'zlar: axloqiy qarashlar, sog'lom dunyoqarash, mulohaza qilish qobiliyati, estetik ehtiyojlar, ma'naviy kamolot, milliy iftixor, milliy qadriyat.

Аннотация: Дошкольное образование - одна из первых и важнейших ступеней становления личности человека. В этот период закладываются основы формирования личности ребёнка, его нравственные взгляды, мировоззрение, способность к рассуждению и эстетические потребности. Поэтому национальные ценности играют бесценную роль в процессе всестороннего развития ребёнка.

Ключевые слова: нравственные взгляды, здоровое мировоззрение, способность к рассуждению, эстетические потребности, духовное совершенствование, национальная гордость, национальные ценности.

Annotation: Preschool education is one of the initial and most important stages in the formation of a person's personality. During this period, the foundations for the development of a child's character, moral views, worldview, reasoning ability, and aesthetic needs are laid. Therefore, national values play an invaluable role in the process of the child's comprehensive development.

Keywords: moral views, healthy worldview, reasoning ability, aesthetic needs, spiritual development, national pride, national values.

“Milliy qadriyat” - bu har bir xalqning tarixiy taraqqiyoti davomida shakllanadigan, uning ma'naviy dunyosini, turmush tarzini, madaniyati, urf-odatlarini, diniy e'tiqodlari, odob-axloq me'yorlari va an'analari o'zida mujassam etadigan qadriyatlar, ya'ni qadrlil va muqaddas deb hisoblangan tushunchalar, tamoyillar majmuidir.

Oddiyroq qilib aytganda, **milliy qadriyatlar** — bu bir xalqni boshqalardan ajratib turadigan va ularning kimligini belgilab beradigan ruhiy va madaniy boyliklardir. Misol uchun, o'zbek xalqining milliy qadriyatlariga mehmondo'stlik, kattalarga hurmat, oilaparvarlik, milliy liboslar, an'anaviy bayramlar, qadimiy san'at turlari (masalan, do'ppi tikish, atlas to'qish, kulolchilik) va boshqa ko'plab jihatlar kiradi.

Milliy qadriyatlar xalqning birligini mustahkamlashda, yosh avlodni tarbiyalashda va milliy o'zlikni saqlashda muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining turli yosh guruhlarida ta'limiy faoliyat jarayonlarida milliy qadriyatlardan foydalanish - bu bolaning shaxs sifatida shakllanishi, axloqiy va ma'naviy kamoloti, sog'lom dunyoqarashi hamda millatga sadoqat tuyg'usini tarbiyalashda eng samarali vositadir.

Milliy qadriyatlar bolalarga “Men kimman?”, “Qaerdanman?”, “Kimning farzandiman” degan savollarga javob topishga yordam beradi. Milliy qadriyatlarni anglab yetish orqali bolalar o'zining millati, tili, urf-odati, an'analari va tarixini anglab yetadi. Bu esa bolada milliy iftixor tuyg'usini shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichikintoylarga milliy qadriyatlar orqali halollik, odob, kattalarga hurmat, kichiklarga g'amxo'rlik, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar o'rgatiladi. Bu bolalarning jamiyatda o'zini tutishini va ijtimoiy munosabatlarini belgilab beradi.

Shuningdek, milliy ruhda yozilgan maqollar, xalq ertaklari, topishmoq va matallar bolaning fikrlash qobiliyatini, mulohaza qilish salohiyatini rivojlantiradi. Tarbiyachi pedagog bunday asarlarni bolalarga o'rgatish orqali ularning lig'at boyligini oshiradi, nutqini ravon va boy bo'lishini ta'minlaydi. Bolaning aqliy salohiyatini yuksaltirishda xalq ertaklari, maqollar, topishmoqlar, mashhur ustozlarning hayot yo'li hamda bilimga bo'lgan hurmati o'rnak bo'la oladi. Masalan, Alisher Navoiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar haqidagi hikoyalar hamda ularni kattalar va pedagoglar tomonidan soda, qiziqarli tarzda so'zlab berishi bolalarda ilmga muhabbat uyg'otadi. Shu bilan bir qatorda milliy musiqa, liboslar, xalq amaliy san'ati bolalarda milliylikka qiziqish uyg'otadi. Milliy xalq o'yinlari va raqslari bolalarning jismoniy faolligini oshiradi, harakatchanliklarini kuchaytiradi, salomatliklarini mustahkamlaydi va jamoada ishlashga o'rgatadi. Milliy qadriyatlar oila an'analari orqali bolalar ongiga singdiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy urf-odatlar, qadriyatlardan foydalanish bola va oila o'rtasidagi bog'lanishni kuchaytiradi, jamiyat bilan uyg'unlikni ta'minlaydi. Milliy qadriyatlar orqali bolalarni mehr-oqibat, ota-onaga hurmat, kattaga ehtirom, kichikka g'amxo'rlik kabi fazilatlariga o'rgatib boriladi. Bunday tarbiya jarayonida xalq og'zaki ijodi, milliy urf-odatlar va oilaviy an'alar muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “**Kattaga hurmat – kichikka izzat.**”, “**Kattaga hurmat – odobdan.**”, “**Kattaga hurmat qilmagan, kichikdan izzat topmas.**”, “**Hurmatli bo'lishni istasang, avval hurmat qil.**” kabi maqollar bolalarga o'zidan kattalarni hurmat qilish zarurligini anglatadi.

Demak, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy qadriyatlardan samarali foydalanish orqali bolalarni nafaqat bilimli va zehni, balki yuksak ma'naviyatli, mehribon, fidoiy va faol shaxs etib tarbiyalash mumkin. Milliy qadriyatlar — bu ajdodlar merosi bo'lib, uning asosida bola o'zlikni taniydi, millatga muhabbat va faxr tuyg'usini his qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 uil 20 apreldagi PQ -2909-son “Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarori

2. M.Q Jabborova Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning roli Scientific progress volume 3 | issue 4 | 2022 issn: 2181-160

3. M.Q.Jabborova Sharq mutafakkirlarining ilmiy me'rosida barkamol shaxs ta'lim-tarbiyasi. «Science and innovation» xalqaro ilmiy jurnali. 19.11.2022nd innovation volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337

4. Jabborova M. Q (2022). Tarbiyachi kasbining ma'naviy axloqiy negizlari. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(Special Issue 2), 64-70.

VIZUAL TASVIRLARNING BOSHLANG'ICH TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Usmonova Odinoxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshpo'latova Shahnoza Baxriddinovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'lumotlarni o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanishning samaradorligi yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, vizual tasvirlarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini o'stirishda, ma'lumotlarni tez va oson o'rganish jarayoni haqida ilmiy asoslar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: uzoq muddatlik xotira, genetik xotira, mnemotexnika, kichik guruhlarda o'qish, eslab qolish, intensiv, ritm, vizual, assotsiatsiya.

Ma'lumki, vizual mnemotexnik materiallarni yaratishda ikkala miya yarimshari tomonidan qabul qilinadigan material tayyorlash talab etiladi. O'ng va chap miya yarimsharlaridan birgalikda foydalanish esa o'rganilayotgan ma'lumotlarni qabul qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Chap miya yarimshari hisob-kitob, yozuv kabilar uchun, o'ng miya yarimshari esa fantaziya, kuy, tasvir va hissiyot kabilar yordamida o'rganish uchun javob beradi. Foydalaniladigan rasmlar mnemotexnik qoidalarga mos tushishi lozim, ya'ni ular iloji boricha interfaol, jonli, rangli, hissiyotli tasvirlangan bo'lishi kerak. Oddiy rasmlardan foydalanish kutilgan samarani bermasligi mumkin. Tasvirning jonliligi yuqori bo'lsa, umuman rasm mnemotexnik talablarga javob beradigan bo'lsa, so'zni qisqa muddatda uzoq muddatli xotiraga joylash imkoniyati paydo bo'ladi.

Rasm (vizual assotsiatsiya). Bu – o'rganiladigan ma'lumotni rasmlar orqali taqdim etish. Bu texnikada o'rganilayotgan tushuncha yoki vizual assotsiatsiyaning o'zaro bog'lanishi haqida gap boradi. Vizual assotsiatsiyada faqat chizilgan rasm bilan emas, balki, miyada tasavvur qilingan tasvir bilan ham ikki yoki undan ortiq ma'lumotni birlashtirish mumkin. Rasmlarni eslab qolishda ayniqsa, xotira, fikrlash va tahlil qilish kabi qobiliyatlar asosiy o'rin tutadi. "Vizual assotsiatsiya bilan olib borilgan tadqiqotlarning aksariyati ta'limni qo'llab-quvvatlashda ijobiy natija beradi. Biroq vizual tasvirdagi rasmlar berilgan matn mavzusiga bog'liq bo'lishi kerak. Matnga bog'liq bo'lmagan murakkab bo'lgan ortiqcha rasmlar o'quvchilarni chalg'itishi mumkin". I.Oaks tadqiqotida vizual tasvirlarga quyidagicha izoh bergan: "Vizual tasvirlar insonni rasmlarni shakllantirish uchun materialga diqqatni jamlashga majbur qiladi va ularni bog'laydi. Ular e'tiborni kuchaytiradi, chunki ularni o'rganish qiziqarli". Nazmiy yoki nasriy asarlar uchun ishlangan rasmlar kichik yoshli o'quvchining diqqatini tortadi.

Vizualizatsiya (" mantiqiy" yoki "analitik tasvirlar") odamlar uchun tushunish qiyin bo'lgan aloqalarni ko'rinadigan qiladi. Aqliy tasvir tasavvur qilish oson bo'lishi uchun haqiqiy va darhol ta'sir ko'rsatishi kerak. Shuning uchun, u mavhum, noaniq va tasavvur qilib bo'lmaydigan bo'lmisligi lozim. H.Shperber vizual rasmlarni aniq ma'lumot deb quyidagi ta'rifni keltirgan: "Konkretlashtirilgan ma'lumotni mavhum ma'lumotlarga qaraganda saqlash osonroq ekanligi isbotlangan". Bundan tashqari, rasmlarda yorqinlik ham bo'lishi kerak, chunki yorqin rasmlar (qisqa metrajli filmdagi kabi juda ko'p tafsilotlar va juda ko'p harakatlar bilan)

yaxshiroq eslab qolinadi. Xuddi shu narsa hissiyotlarga ham tegishli, chunki, “hissiy jihatdan yuklangan xotira tasvirlari hissiy jihatdan neytrallarga qaraganda esda qolarlidir”. Ko‘plab mnemonik texnikalar vizualizatsiya va boshqa sezgilarga asoslangan, ammo aniq ma’lumotni vizualizatsiya bilan yaxshiroq eslab qolish va mavhum ma’lumotni og‘zaki nutq bilan yaxshiroq eslab qolish mumkin. Ba’zan mnemotexnikada mavhum tushunchalarni ramzlar orqali tasavvur qilish mumkin. Masalan, “qayg‘u” qora kiyimdagi xonim sifatida tasavvur qilinadi. Vizual rasmlar antiqa holda bo‘lsa, o‘quvchilarini e’tiborini tortadi va uzoqroq esda qoladi.

Vizual assotsiatsiyalarga asoslangan texnikada har qanday ma’lumotni eslab qolish uchun boshqa ma’lum mavjud bo‘lgan rasm yaratiladi. Lug‘at so‘zlarini shu tarzda yodlash juda qulaydir. Muayyan so‘zni yodlash vaqtida o‘quvchini so‘zni anglatadigan rasmga qarashga taklif qilish kerak. Assotsiativ tasvir lug‘at so‘zi bilan qandaydir umumiy xususiyat bilan bog‘liq bo‘lishi kerak. “Assotsiativ aloqa rang, shakl, harakat, material, miqdor bo‘yicha bo‘lishi mumkin”. Vizual xotirani faollashtirishga imkon beradigan turli xil tashqi tuzilish usullari qo‘llaniladi. U she’rlarni, harakatlar ketma-ketligini va boshqalarni yodlash uchun ishlatilishi mumkin. Bunday usullar vizual xotiralari ustun bo‘lgan odamlar uchun ayniqsa samaralidir. Ko‘pchilik yangi tashkil etilgan tasvirlar va aloqalarni vizual tarzda olish muammosi bo‘lgan vaziyatni yaxshi biladi. Vizual tasvirlar – bu atrofdagi dunyo haqida bizga ma’lumotlarning asosiy qismini beradigan tasvirlardir. Odam tasavvur qilish mumkin bo‘lgan vizual tasvirlarni tasavvurda boshqarish juda muhimdir. “Turli xil modal aloqalar tufayli obyektlarni tezda tanib olish, atrofdagi narsalarni yaxshi boshqarish mumkin. Buni hech kimga o‘rgatish shart emas. Bu jarayon tabiiy ravishda sodir bo‘ladi. Bu insonga dunyo haqidagi ma’lumotlarning asosiy qismini beradigan vizual tasvirlardir”. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun vizual tasvirlar asosida mnemorasmlar yaratish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ma’lumotlarni o‘rgatishda mnemotexnik usulda yodlash juda muhimdir. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar katta yoshli insonlarga qaraganda ma’lumotlarni o‘rganishlari tez hamda kuchli bo‘ladi. Maktab ta’limida mnemotexnik usullardan dars jarayonida foydalanishdan maqsad o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirish va ma’lumotlarni yodlashning yuqori darajasini ta’minlashga imkon berishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rahmonov Sh. Mukammal xotira yohud miyangiz qobiliyatlarini qayta kashf qiling. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2014. – 288 b.
2. Хасанова О. Немис тилини ўргатишда мнемотехникадан фойдаланиш технологияси. Пед. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Фарғона, 2021 – 60 б.
3. Lieury A. *Ein Gedächtnis wie ein Elefant?* – Berlin Heidelberg: Springer Verlag, 2013 – 306 p.
4. Duyar M.S. Accelerated Word Memory Power, Yabancı Kelimeleri Hafıza Teknikleriyle Öğrenin. – Ankara: Basım Matbacılık, 1996 – 360 s.
5. Хохлова Л. Методы запоминания информации (Мнемотехника) // Санкт-Петербургский образовательный вестник, 2017. – С. 40-43.
- 6.. Черная В. Использование мнемотехники в процессе развития памяти у детей дошкольного возраста. – Комсомольск-на-Амуре, 2015 – С.1-6.

O'QITISHDA ONLINE SMART TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Y.Qipchaqova

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini o'qituvchisi

Xoliqnazarova Mavluda

Farg'ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Kompyuter imkoniyatlarining juda tez rivojlanishi barcha sohalarda AKTdan keng foydalanilishiga olib kelmoqda. Jumladan, ta'lim tizimini takomillashtirish va inson kapitalini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-2021-yillarda O'zbekiston respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF- 5544 sonli Farmonida O'quv-tarbiya jarayoniga yangi ta'lim dasturlarini, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va SMART- texnologiyalami joriy etish orqali ta'lim muassasalarida o'qitish sifatini yanada yaxshilash (elektron modullar tashkil etish va masofaviy o'qitishni joriy etish) vazifalari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter, smart texnologiya, AKT, elektron modullar, o'qitish sifati, masofaviy o'qitish, inson kapitali, multimedia, noformal ta'lim, elektron ta'lim.

Аннотация: Очень быстрое развитие возможностей ЭВМ приводит к широкому использованию ИКТ во всех отраслях. В частности, в целях совершенствования системы образования и развития человеческого капитала Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-5544 Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2019-2021 годы предусматривает дальнейшее повышение качества обучения в образовательных учреждениях путем внедрения в учебно - воспитательный процесс новых образовательных программ, современных педагогических технологий и smart-технологий (создание и внедрение электронных модулей). дистанционное обучение вводить) определены задачи.

Ключевые слова: компьютер, smart-технологии, ИКТ, электронные модули, качество обучения, дистанционное обучение, человеческий капитал, мультимедиа, неформальное обучение, электронное обучение.

Annotation: The very rapid development of computer capabilities leads to the widespread use of ICT in all industries. In particular, in order to improve the education system and develop human capital, Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-5544 On Approval of the Strategy for Innovative Development of the Republic of Uzbekistan for 2019-2021 provides for further improvement of the quality of education in educational institutions by introducing new educational programs, modern pedagogical technologies and smart technologies into the educational process (creation and implementation electronic modules). distance learning to introduce) the tasks are defined.

Keywords: computer, smart technologies, ICT, electronic modules, quality of education, distance learning, human capital, multimedia, informal learning, e-learning.

Smart texnologiya o'zi nima.

Axborot asrining kirib kelish davri haqida so'z borganda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ularni real o'quv jarayoniga qo'llash, zamonaviy axborot infrastrukturasini yaratish, mutlaq yangi multimedia o'quv dasturlarini yaratish va ta'limga tatbiq etish bosqichlari asta-sekin nihoyasiga yetib bormoqda.

Shu o'rinda, tabiiy bir savol paydo bo'ladi: orttirilgan bilim va tajribalarni qanday baholash mumkin, keyingi qo'yiladigan qadam qanday bo'lmog'i kerak?! Masalan, an'anaviy o'quv jarayonlarining AKT qo'llash bilan bog'liq muammolari, jumladan: dunyo internet tarmoqlarida tobora taraqqiy etib borayotgan turli ko'rinishdagi noformal ta'lim birlashmalari, «real» ta'lim maskanlarini «virtual» lari bilan almashinuvi, masofaviy ta'lim va boshqalar.

AKT rivojlanishining zamonaviy bosqichida nafaqat klassik ta'lim texnologiyalari, balki elektron ta'lim (e-learning) ham qanoatlantira olmaydigan ehtiyojlar kuzatiladi. Ayni vaqtda e-learning tizimidan Smart (ingl. — aqilli, mushohadali, harakatchan) e-learning hamda Smart Education (aqilli ta'lim) ga o'tish jarayoni bormoqda. Bu konsepsiya ta'lim sohasining barcha jarayonlarini, shuningdek, bu jarayonda qo'llaniluvchi barcha usul va texnologiyalarni kompleks modernizatsiyasini mujassamlashtiradi. Smart konsepsiyasi ta'lim kesimida o'zi bilan birga, «aqilli taxta», «aqilli ekran», ixtiyoriy nuqtadan Internetga chiqish kabi texnologiyalarni shakllantiradi. Ushbu texnologiyalarning har biri kontentni ishlab chiqish jarayonini yangidan qurish, yetkazib berish va aktuallashtirish imkonini beradi. Natijada ta'lim olishni nafaqat sinfda, balki uyda, ish joyida, jamoat joylarida, dam olish joylarida ham amalga oshirish mumkin bo'ladi. Bunda ta'lim jarayonini baholovchi asosiy element sifatida faol ta'lim beruvchi kontent maydonga chiqadi. Uning asosida vaqt va fazo tushunchalari to'sig'idan holi qiluvchi yagona repozitor yaratiladi.

Smart ta'lim — bu ta'lim muassasalari hamda professor-o'qituvchilar tarkibining umumiy standartlar, kelishuvlar va texnologiyalar asosida yagona Internet tarmog'i orqali ta'limni amalga oshiruvchi birlashmasidir. Toshkent axborot texnologiyalari universitetida ham ta'lim jarayonida AKTni qo'llash borasida qator loyihalar amalga oshirib kelinmoqda, jumladan, joriy o'quv yilida universitetning «Teleradioeshittirishlar tizimlari» kafedrasining Internetda Lincom.uz (Learning in communication) nomli sayti tashkil etilganligi haqida alohida to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi. Ushbu sayt bir nechta, bo'limlardan iborat bo'lib, ular orqali talabalar kafedra yangiliklari bilan muntazam tanishib borish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, sayt kutubxonasiga joylashtirilgan, kafedrada o'qitiladigan «Elektromagnetizm», «Elektromagnit maydonlar va to'lqinlar», «Antenna asoslari» kabi fanlardan yuzga yaqin mamlakatimizda va xorijda chop etilgan darslik, o'quv qo'llanmalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni mutolaa qilishlari va osonlik bilan ko'chirib olishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarini SMART-texnologiyalari asosida shakllantirish metodikasi." Qo'qon DPI Ilmiy xabarlari, 2025- yil, 2-son, 1007-10009-b

2. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda SMART-texnologiyalarini qo'llashning xususiyatlari" Qo'qon DPI Ilmiy xabarlari, 2025- yil, 1-son, 461-465-b

3. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHISINING KASBIY MAHORATLARI TUSHUNCHASI JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 12, ISSUE 2, February – 2025, 60-63-b

4. Yorqinoy Kipchakova The importance of artificial intelligence in developing professional knowledge of future educators Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 11 (2024) / ISSN 2181-1415, 45-50-b

5. Yorqinoy Qipchaqova Hamidjonovna THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS IMPACT FACTOR

KOMBINATORIKA ELEMENTLARINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Yusupova Latofat Abduqodir qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 21.30-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga kombinatorika elementlarini tushuntirishda pedagogik yondashuvlar orqali masalalarni yechish, bugungi ta'lim

jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy qilish bugunning muhim vazifalaridan biri sanalishi, o'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin fikrlaydigan, erkin ishtirokchilarga aylantirish muhimligi va matematika darslarida fanlararo integratsiyani takomillashtirish haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik yondashuv, kombinatorika elementlari, kompetensiyaviy, yondashuv, algoritmik, dunyoqarash, masal yechish usullari.

Mamlakatimiz kelajagi bugun maktablarda ta'lim-tarbiya olayotgan farzandlarimizga, ularni har tomonlama yetuk va barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq. Bu vazifani bajarish hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan o'z mahoratlarini doimiy tarzda oshirib borishlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarning izchil metodlari mohiyatini to'g'ri anglashlari va uni o'z darslarida mohirona foydalanishlarini taqozo etadi. Bugungi ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy qilish bugunning muhim vazifalaridan biri sanaladi.

O'quvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashini o'stirish, ularni erkin fikrlaydigan, erkin ishtirokchilarga aylantirish muhimdir. amlakatimizda matematika 2020-yildagi ilm-fanni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi hamda matematika ilm-fani va ta'limi rivojlantirishini yangi sifat bosqichiga olib chiqishga qaratilgan qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi", 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4708-sonli Qarori, 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida matematika fani va ta'limini har tomonlama takomillashtirish va rivojlantirish yuzasidan qator salmoqli vazifalar belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi" tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risidagi 997-qarorida eng ustuvor vazifa qilib quyidagilar olindi:

- Xalqaro tadqiqotlar natijalariga asoslangan holda o'qish;
- PISA, PIRLS baholash dasturi yo'nalishidagi savollar milliy ba'zasini yaratish va o'quv dasturlariga integratsiya qilish;

Qarorning asosiy mazmuni yoshlarni yangicha fikrlashga da'vat etish. Millatimiz yoshlari ongida yangi g'oyalar, yangi texnologiyalarni shakllantirishdan va mana shu o'rgangan bilimni hayotda qo'llay olishini ta'minlashdan iborat. Prezidentimiz ta'kidlaganlar: "Yoshlarni doimo yangicha fikrlash, o'ylash, va yashashga o'rgatishimiz kerak." Bu masalaning yechimi esa, albatta, ta'limni isloh qilishdadir. Ta'limni o'zgartirsak, insonni o'zgartiramiz. Insonni o'zgartirsak, jamiyatni o'zgartiramiz. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan har bir fanning ahamiyati uning texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohasida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Bu borada matematika ta'limini oldiga yuqori vazifalar qo'yiladi. Bugungi kunda matematika darslari ko'pincha an'anaviy tarzda o'tilmoqda. Fanlararo integratsiyalar, yangi innovatsion texnologiyalardan deyarli foydalanilmayapti. PISA baholash dasturi faqat ixtisoslashgan yoki prezident maktablari o'quvchilari tomonidan foydalanilmoqda. Darslar kompetensiyaviy yondashuv asosida o'tilmayapti. Lekin, bizning birinchi navbatdagi vazifamiz muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek, "Farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala hisoblanadi."

Shunday ekan, biz darslarda zamonaviy texnologiyalardan o'rinli foydalanishimiz zarur. Zamon bilan hamnafas zamonaviy pedagoglarni yetishtirishimiz, zamonaviy o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishimiz oldimizdagi bosh maqsadimizga aylantirishimiz kerak.


Zamonaviy pedagogikada o'qitish texnologiyasining asosiy tavsifi sifatida uning tizimliliigi, ilmiyligi, qayta tiklanuvchanligi, qo'shiluvchanligi, samaradorligi, sifat va motivlashgaigi algoritmliligi, axborotliligi, nusxa olish imkoniyati, yangi sharoitga ko'chirish mumkinligi kabi jihatlari e'tibor qaraladi.

Yangi metod va usullarni matematika darsining "Kombinatorik va mantiqiy masalalar" mavzusi doirasida ko'rib chiqsak, ma'lumki, kombinatorik masalalarda berilgan topshiriqni nechta usulda bajarish mumkinligi aniqlanadi. Bu masalalar o'quvchini mantiqiy fikrlash qobiliyatini o'zlashtiradi. Bu mavzuning 3-sinf darsligiga qo'shilishida aynan shu maqsad nazarda tutilgan. Bugungi ta'limimizning asosiy maqsadi bolaning ta'rifni quruq yodlatishdan, bir xil usuldagi yechiladigan masalalarni o'rgatishdan yiroq. Kombinatorik masalalarni yechish usulini o'rgatishda birinchi navbatda o'quvchida amaliy ko'nikmalar hosil qilish lozim. Ta'kidlash joizki, o'quvchi formula yordamida ishlagan masalasidan ko'ra amalda qo'llab ko'rgan masalaning mohiyatini chuqurroq anglab yetadi.

Masala: Bahromning kiyimlar javonida 2 xil galstuk, 2 xil ko'ylak va 3 xil shim bor. Bahrom 1 ta galstuk, 1 ta ko'ylak, 1 ta shimni nechta xil usulda bir xil rangda bo'lmaslik sharti bilan kiyishi mumkin?

Yechimi: Bahrom 1 ta galstuk, 1 ta ko'ylak, 1 ta shimni qo'shish qoidasiga ko'ra $N = 2 + 2 + 3 = 7$ xil usulda tanlashi mumkin. Javobi: 7 xil

Masala: Jamshid (uyidan shaharga, shahardan zavodga borishi uchun) yo'lni nechta xil usulda tanlashi mumkin?



Yechimi: Jamshid uyidan shaharga 3 ta va shahardan zavodga 3 ta usulda borishi mumkin. Ko'paytirish qoidasidan foydalanib biz $N = 3 \times 3 = 9$ tenglikni olamiz. Javobi: 9 ta usulda.

Xulosa qilib aytganda, kombinatorik masalalarni boshlang'ich sinflarga tushuntirayotganda formulalar yordamida emas, turli xil didaktik o'yinlardan va qiziqarli metodlardan foydalanib kompetensiyaviy yondashuv asosida,

fanlararo integratsiya qilish orqali tushuntirish dars samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boltayeva Sh.T. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini tashkil etish texnologiyasi // Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017.

2. M.Ahmedov, N.Abdurahmonova, M.Jumayev. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinf uchun darslik "Turon-iqbol" Toshkent- 2018

3. N.U.Bikbayeva, E.Yangaboyeva, K. M.Girfanova. To'rtinchi sinf matematika darsligi. Toshkent. "O'qituvchi" 2020

4. S.Burhonov, O'.Hudoyorov va boshqalar. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik "Sharq" Toshkent – 2019

5. Jumayev M.E, Z.G'. Tadjiyeva. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun o'quv qo'llanma) T. "Fan va texnologiya" 2020-yil

6. Repyova I.V. 3-sinf. Matematika. Darslik.-Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti. 2023.-134b

7. Repyova I.V. Matematika 2-sinf. Matematika. Darslik.-Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti. 2023.-134b

**HUSNIXAT DARSLARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR VA YOZUVNING
GIGIYENIK TALABLARI**

Egamberdiyeva Naziraxon To'xtasinovna
FarDu Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: bugungi kunda ta'lim sohasiga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilarning savod chiqarish davri muhim jabhalardan biridir. Bu davrda o'quvchilar olamni ilmiy tomondan taniy boshlaydilar. Savodi chiqadi, raqam, harf, tabiat va husnixat bilan tanishadilar. Bunday davrda o'qituvchidan yana ham kuchli shijoat, mas'uliyat va ta'lim-tarbiya talab etiladi. Ushbu maqola darslarda o'quvchilarni husnixatga o'rgatish, yozuv gigiyenasi bilan tanishtirish haqida bo'lib, uning usullari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: husnixat, yozuv, harf, doska, to'g'ri yozuv qoidasi, jihoz, ta'lim, tarbiya, yozuv daftari.

Gigiyenik talablarga ko'ra maktab jihozi o'quvchining bo'yiga mos kelishi lozim. Jihozning o'quvchining bo'yiga to'g'ri kelmasligi umurtqa pog'onasining qiyshayishiga va uzoqni ko'ra olmaslik kasalligiga olib keladi. Kuzatishlarning natijasiga ko'ra o'quvchi bir - biridan bo'yi bo'yicha 10 cm ko'p bo'lmagan holda farqlansa, ularni bir xil o'chamdagi maktab jihoziga o'tkazish mumkin. Jihozni bolaning yoshiga mos holda tanlab olish uchun o'quv yilining boshida uning bo'yini o'lchash va bo'yiga mos maktab jihoziga o'tqazish kerak. Bo'yni 0.5 cm gacha aniq va to'g'ri o'lchash lozim. Bo'yni bo'y o'lchagich bilan yoki o'quvchini orqasi bilan devorga yopishib turishini ta'minlab, oyoqlari tovonlarini birlashtirib, oyoq uchlarini chetga ochgan holda devorga tekis holda tegib turishi lozim. Devorda o'lchashni qulaylashtirish uchun devorga (plintus qalinligida) santimetrlarga bo'lingan doskani qoqish kerak bo'ladi.

Yozuv qurollari va ulardan foydalanish.

O'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgatishda, ularda husnixat malakalarini hosil qilishda yozuv qurollari sifati katta rol o'ynaydi. Yozuvning chiroyli bo'lishi ko'p jihatdan yozuv quroli va materialiga bogliqdir. Yozuv qurollari va materiallari quyidagilar sanaladi:

1. Xattaxta.
2. «To'g'ri o'tir» plakati.
3. Alifboning yozma shakli.
4. Haflar alohida yozilgan ko'rgazma.
5. Husnixat daftari.
6. Rangli bo'rlar.
7. Ruchka.
8. Yozuv daftari.

Bola maktabga qadam qo'ygan kundanoq yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanishga, ularni ozoda saqlashga o'rgatib boriladi. O'qituvchi o'quvchining yozuv qurollari va materiallarini muntazam tekshirib borishi muhim vazifa sanaladi. Dastur talabi boyicha 1-sinf o'quvchilari uchun yozuv yo'li 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm bo'lgan qiya chiziqlari siyrak bo'lgan 2 chizikli daftar tavsiya etiladi. 2-4-sinflarda chiziqlari 8 mm 1 chizikli daftar tutilishi lozim. Kichik harflarning bo'yi 3 mm, bosh harflarning bo'yi 6 mm, raqamlarning bo'yi harflardan 2 marta qisqa bo'ladi. 1-2-sinfda husnixat uchun maxsus alohida darftarga, 3-4-sinflarda ona tili daftariga yozadilar. 1-2-sinflarda foydalaniladigan darftarda qiya chiziqlar orasidagi masofa 30mm va qiya chiziqlarsiz kichik harflar yoziladigan parallel chiziqlar orasidagi masofa 4 mm ga teng bo'lgan ikki chizikli daftar tavsiya etiladi. Qiya chiziqlari siyrak bo'lgan ikki chizikli darftarga yozdirib borish va mashq qildirish orqali 1-sinf o'quvchilarini mayda harflar bilan tez yozishga o'rgatib boriladi. Bunday darftarda mashq qilish o'quvchilarga harflarning eni va ular orasidagi masofani ko'z bilan chamalash, qiyaligiga rioya qilish imkoniyatini beradi. 1-sinfda «Husnixat» predmeti 2-yarim yillikdan boshlanadi. O'quvchi daftariga sana va oy yozdiriladi. Xat boshiga amal qilishga o'rgatiladi, daftar hoshiyasi bo'lishi shart. Darftarga sarlavha

yo'zdirilganda, sarlavha va matn orasida satr qoldirilmaydi. Daftarga xatoni to'g'irlash yo'li o'rgatiladi. Bu holda xato harfning ustidan chiziq tortib, ustiga to'g'risini yozishga odatlantiriladi. Daftar uy vazifasi berilgach, yig'ib olinadi, tekshiriladi va baholanadi.

Yozuv materiali bo'lgan daftalarni yuritishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Daftarga toza va aniq yozish.
2. Daftar muqovasidagi yozuvlar yagona talab asosida yozilishi, yonda daftar qaysi fan uchun tutilganligi, nechanchi sinf, maktabning nomi va nomeri, o'quvchining ismi va sharifi ko'rsatib o'tilishi zarur.
3. 1-sinf o'quvchilarining daftarlari muqovasi o'qituvchi tomonidan yoziladi.
4. Har bir daftarda hoshiya bo'lishi shart.
5. 2-sinfdan boshlab mashq tortib raqami, qayerda bajarilganligi (sinfda yoki uyda) yozib qo'yiladi.
6. Harf yoki bo'g'in hamda so'zlarning tagiga ehtiyotkorlik bilan chiroyli va tekis chiziladi.
7. Xato yozilgan harf yoki harfiy birikmalarni namuna sifatida daftar hoshiyasiga yozib ko'rsatiladi.
8. Noto'g'ri yozilgan harflarni bo'yash, o'chirish yoki qavs ichiga olib qo'yishga ruxsat etilmaydi.
9. Mashqlarni bajarishda, matn yozishda xat boshidan yozish qoidalariga amal qilish talab etiladi. Daftar o'quvchining ko'kraging to'g'risida o'rtada, uning o'ng burchagi chapdan yuqori bo'lishi kerak. Boshning va gavdaning o'rtacha u yoki bu tomonga burilishini ta'minlanishi uchun bir necha so'z yozilganidan so'ng chap qo'l bilan chap tomonga suriladi, chunki yozayotgan qo'l ko'krakning o'rtasidan unchalik uzoqlashib ketmasligi kerak. Dastlabki kundanoq bolani daftari to'g'ri va ozoda tutishga o'rgatib borish lozim. Daftar ustidagi yozuv matniga mos holda, o'rnatilgan tartibga ko'ra to'ldirilishi lozim. Daftarni qog'oz bilan o'rash mumkin emas, chunki buklangan qog'ozning qalinligi yozishga halaqit beradi. Daftarni muqovalagandan ko'ra o'quvchini partaning ustki qavatining ozodaligiga va yozayotganda daftarning tagiga toza qog'oz varag'ini qo'yishga o'rgatib borish kerak. Ularning hammasi o'quvchining daftari tashqi tomondan ozoda tutishini nazorat qilib borishga o'rgatadi. Daftarning tashqi ko'rinishining ozodaligi va tartibliligi hamma tomondan tarbiyaviy ahamiyatga ega. Daftar varag'iga yozishda bolalarga quyidagilarni tushuntirib o'tish lozim:

1. Sana yoki tartib raqami qayerga yozilishini;
2. Qatoming qayeridan so'z yozishni boshlash lozimligini;
3. Qatordagi so'zlarning oraliq masofasi qanday bo'lishi kerakligini;
4. Awalgi va keyingi ishlar orasida qancha qator tashlanishi haqida;
5. Betni qanday yakunlash haqida tushuntirib olish lozim.

Ruchkadan foydalanish. Yozishga o'rgatishning ilk bosqichida ruchkani to'g'ri ushlab qoidasi o'rgatiladi. Chiroyli husnixat bilan yozishga erishishda yozuv qurolining ahamiyati katta. Hozirda yozuv quroli sifatida sharikli ruchkadan foydalanish tavsiya etiladi. Sharikli ruchka yozish uchun qulay, ingichka, yengil, barmoqlar orasida tutishga mos. Ruchka barmoq orasida tutilganda, ruchka uchi bilan barmoq oraligi 1,5-2 smga teng bo'lishi shart. Aks holda barmoqni ruchka uchidan uzoq ushlab yoki juda yaqin tutish yozuv sifatini buzadi, harflari xunuk yozishga olib keladi. Sharikli ruchkada maxsus siyoh bilan to'ldirilgan sterjenning bo'lishi undagi ancha vaqt foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ruchka sterjeni siyohi faqat binafsha rangda bo'lishi talab qilinadi. O'qituvchi daftari tekshirganda qizil pastali ruchkadan foydalanadi. Ruchka papkada maxsus penalda saqlanadi. Partada esa ruchkani qo'yish uchun maxsus joy bo'ladi. O'quvchi ruchkasidagi siyoh tugagan taqdirda, lozim bo'lganda foydalanish uchun ruchka va sterjenlar bo'lishi zarur. Ruchka uchta barmoq orasida tutiladi, ko'rsatkich va o'rta barmoq bilan ushlanadi. Uchta barmoqning barchasi ozgina bukilgan holda ruchkani tutadi. Ko'rsatkich barmoq ruchkaning ustida, o'rtachasi uni o'ng tomondan, katta barmoq esa chap tomondan ushlab turadi; qolgan ikkita barmoq - nomsiz va jimjiloq kaftga

suyanchiq bo'lib qog'ozga yengilgina tegib turib unda sirg'anishi kerak. Ruchkaning uchi o'ng yelkaga qarama-qarshi turadi. Tezda charchab qolmaslik uchun ruchkani qattiq siqmaslik kerak. Yozish jarayoni quydagilardan tashkil topgan: harflarning shtrixi ruchkani ushlab turgan barmoqlarning bukilishi va ochilishi yordamida yoziladi, qator old yelkaning va kaftning yordamida, kaft jimjiloqqa va nomsiz barmoqlarga tayanib chapdan va o'ngga qarab harakatlanadi. Bu usullarning barchasi o'z holicha oddiy va ularni bolaga tushuntirish, ko'rsatib berish oson, lekin ularni o'rganish va amalda qo'llash birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Buning sababi bolalar bir vaqtning o'zida bir qancha qiyinchiliklarni yengib o'tishlariga to'g'ri keladi. Bularga o'z gavdasini to'g'ri tutishga, daftarning turishiga, ruchkani tutish holatiga barmoqlarning, kaftning va old yelkaning ishiga, shu vaqtning o'zida hali tanish bo'lmagan yangi harfhi yozishga to'g'ri keladi. Xattaxta sinfda o'quvchi uchun yozuv materialidan biri sanaladi. O'quvchining husnixati daftar va xattaxtada takomillashtirib boriladi, shuning uchun xattaxtada yozuvni amalga oshirish uchun uning rangi jigar rang va to'q yashil bo'lishiga erishish lozim. Bunda xat aniq va chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari foydalanadigan xattaxtaning uch qismdan iborat bo'lishi, xattaxtaning bir bo'lagiga yozuv daftarining, ikkinchi bo'lagiga katak daftarining chiziqlari chizilishi juda muhimdir. Bu chiziqlar yordamida o'quvchi chiroyli yozuvga o'rganadi. Shuningdek, xattaxtaning bo'yi ham chiroyli yozuvda katta ahamiyat kasb etadi, shu sababli u yuqori va pastga o'quvchi bo'yiga moslab harakatlantirishga moslangan bo'lishi e'tiborga olinadi. O'qituvchi sinf taxtasiga yozayotgan paytida shunday turishi kerakki, qo'llarining harakatini yopib qo'ymasligi lozim. Sinf taxtasi tekis g'adir-budursiz va yoriqlarsiz bo'lishi va bo'yash uchun maxsus tayyorlangan qora bo'yoq bilan bo'yalgan bo'lishi lozim. Oddiy moyli qora bo'yoq yozuv taxtani bo'yash uchun yaroqsizdir, chunki yozuv taxtaning yaltiroq ustki qavati yorug'likni ko'zga tushiradi, bo'rsa uning ustida sirpanadi va maydalanib ketadi. Sinf taxtasini shunday holatda joylashtirish kerakki, oynadan tushayotgan yorug'lik unda aks etmasligi va o'quvchilar sinfning turli joyidan unga yozilgan yozuvni bemalol o'qiy olishlari mumkin bo'lsin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bunday usullar orqali husnixatga o'rgatish samarali natija beradi. Ularning savodi to'laqonli chiqishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.R.Isayeva, "Boshlang'ich sinf tabiiy fanlar darslarida og'zaki o'qitish metodlari" Vol. 2 No. 20 (2023): Models and methods for increasing the efficiency of innovative research. 143-146-betlar
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 23.09.2020 yildagi O'RQ-637-son.
3. Oybek "Navoiy" romani. Asr oshgan asarlar turkumi – T.: "Sharq" nashriyoti, 2012.496- bet.
4. В.Я. Распопов Научное мировоззрение философия и практика обучения специальности Известия ТулГУ. Технические науки. 2-017. Вып. 9. Ч. 2. 212-213-ст

NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR BILAN ISHLASH

Alimjanova Matlyuba Yunusovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Bolalardagi nutqning buzilishi ularning rivojlanishi va ijtimoiylashuviga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan keng tarqalgan muammodir. Bunday qoidabuzarliklarni tuzatish har xil Profil mutaxassislarining ishini o'z ichiga olgan kompleks yondashuvni talab qiladi. Ushbu maqolada biz nutq buzilishi bo'lgan bolalar bilan ishlashning asosiy usullari va yondashuvlarini, shuningdek ularni reabilitatsiya qilishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan maxsus texnika va mashqlarni ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlari: Nutq, dizartriya, duduqlanish, alaliya, mashqlar Bolalarda nutq buzilishining asosiy turlari

Bolaning nutqi birinchi tovushlar va so'zlardan murakkab jumlar va izchil matngacha bosqichma-bosqich rivojlanadi. Biroq, ba'zida bu jarayon buziladi, bu esa turli xil nutq buzilishlariga olib keladi. Eng keng tarqalganlarga quyidagilar kiradi:

1. Dizartriya-artikulyatsiya apparati mushaklarining etarli darajada innervatsiyasi natijasida nutqning talaffuz tomonining buzilishi. Dizartriya bilan og'rikan bolalar tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishda, nutqning ritmi va tempida qiyinchiliklarga duch kelishadi.

2. Duduqlanish (logonevroz) – nutqning ravonligini buzish, bu alohida tovushlar, heceler yoki so'zlarni takrorlashda, shuningdek pauza va duduqlanishlarda namoyon bo'ladi. Duduqlanish ko'pincha nutq qo'rquvi kabi hissiy reaksiyalar bilan birga keladi.

3. Alaliya-miya yarim korteksining nutq zonalarining shikastlanishi tufayli nutqning to'liq yoki qisman yo'qligi. Bu uzoq muddatli davolanish va maxsus pedagogik yordamni talab qiladigan og'ir kasallik.

4. Disleksiya va disgrafiya o'qish va yozishni o'rganishda o'ziga xos qiyinchiliklardir. Ushbu buzilishlar nafaqat harflar va belgilarni idrok etishdagi qiyinchiliklar, balki fonemik eshitish va tahlil qilish muammolari bilan ham bog'liq.

5. Nutqning fonetik-fonemik rivojlanmaganligi (FFNR) – tilning talaffuz tizimini shakllantirish jarayonlarining buzilishi. FFNR bilan og'rikan bola tovushga yaqin fonemalarni chalkashtirib yuboradi, bu esa boshqalar uning nutqini tushunishni qiyinlashtiradi.

6. Nutqning umumiy rivojlanmaganligi (ohr) – nutqning leksik, grammatik tuzilishi va fonetik tomoniga ta'sir qiluvchi nutq funksiyasining barcha tarkibiy qismlarining tizimli buzilishi.

Ushbu buzilishlarning har biri individual yondashuvni va tegishli tuzatish usullarini tanlashni talab qiladi.

Maxsus texnika va mashqlar

Bolalarda nutq qobiliyatini yaxshilashga yordam beradigan ko'plab samarali texnika va mashqlar mavjud. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqing:

Artikulyatsiya gimnastikasi

Artikulyatsiya mashqlari artikulyatsiya organlarining (lablar, til, jag'lar) harakatchanligini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa tovushlarning talaffuzini yaxshilashga yordam beradi. Mashqlarga misollar:

- "Skapula" - bola tilini chiqarib, uni pastki labida bo'shashtirishga harakat qiladi.

- "Chashka" - tilning uchi yuqoriga ko'tarilib, chashka shaklini hosil qiladi.

- "Naycha" - lablar naychani taqlid qilib oldinga cho'ziladi.

Nafas olish mashqlari

To'g'ri nutq nafasini rivojlantirish tovushlarni aniq va ravon talaffuz qilish uchun muhimdir. Mashq namunasi:

- "Sham" - bola shamga puflaydi, shunda olov buriladi, lekin to'liq o'chmaydi.

Nozik vosita mahoratini rivojlantirish uchun o'yinlar

Nozik vosita mahorati nutqni rivojlantirish bilan chambarchas bog'liq, shuning uchun barmoq mashqlari ham muhimdir:

- Plastilin yoki loydan modellashtirish;

- Barmoqlaringizni qum yoki irmikka chizish;

- Jumboq va konstruktorlarni yig'ish.

Logoritmik mashg'ulotlar

Logoritmika tana harakatlarini, musiqa va nutqni birlashtiradi, bu ritm tuyg'usini rivojlantirishga, harakatlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi va nutq apparatining umumiy holatini yaxshilaydi. Masalan,:

- Ritmik musiqaga qarsak chalish;

- Harakatlar bilan she'rlarni talaffuz qilish.

Xulosa

Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalar bilan ishlash sabr-toqat, professionallik va kompleks yondashuvni talab qiladi. Shuni esda tutish kerakki, har bir bola o'ziga xosdir va har biriga bo'lgan munosabatni individuallashtirish kerak. Ota-onalar, o'qituvchilar, nutq terapevtlari, psixologlar va boshqa mutaxassislarning birgalikdagi sa'y-harakatlari nutq buzilishlarini tuzatishda sezilarli yutuqlarga erishishga yordam beradi va bolaning uyg'un rivojlanishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Korreksion pedagogikasi: rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash asoslari/ B. P. Puzanov, V. I. Seliverstov, S. N. Shaxovskaya, yu.A.Kostenkova; tahrir. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi

2. Maxsus maktabgacha pedagogika: darslik / E. A. Strebeleva, A. L. Venger, E. A. Ekjanova va boshqalar; Ed. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2022.

3. Maxsus pedagogika / L. I. Aksenova, B. A. Arxipov, L. I. Belyakova va boshqalar; tahrir. - M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2020.

4. Yozma nutqning buzilishini oldini olish va Korreksion. M. A. Povalyayev Tomonidan Yaratilgan. Feniks Nashriyoti, 2016 Yil.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

Akbaraliyeva Marjona Xurshid qizi

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24.141-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tanqidiy fikrlash tushunchasining mazmun-mohiyati, uning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishdagi tutgan o'rni hamda ahamiyati yoritib beriladi. Tanqidiy fikrlash — insonning muammolarga mustaqil yondashishi, dalil-va ma'lumotlarni chuqur tahlil qilishi va xulosa chiqarish jarayonida oqilona qarorlar qabul qilishini ifodalaydi. Tanqidiy fikrlash ko'nikmasining ta'lim jarayonidagi o'rni, kundalik hayotdagi zaruriyati, shuningdek, mehnat bozorida raqobatbardoshlikni oshirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tezisda bu ko'nikmani shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha asosiy strategiyalar, amaliy tavsiyalar hamda metodik yondashuvlar keltiriladi. Ish yakunida mavzu bo'yicha xulosalar va kelgusi tadqiqot yo'nalishlariga doir takliflar beriladi.

Kalit so'zlar: Tanqidiy fikrlash, mustaqil tahlil, mantiqiy xulosa, qaror qabul qilish, shaxsiy rivojlanish, ta'lim jarayoni, ijodiy tafakkur, motivatsiya, metodik yondashuv, innovatsion strategiya

Dunyoda tanqidiy fikrlash ko'nikmasi nafaqat, ma'lum sohada muammoning yechimini topishda, balki yangi g'oyalarni yaratishda ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib, xalqaro amaliyot matematika o'rgatish jarayonida tanqidiy fikrlash ko'nikmasini kichik maktab yoshidan boshlash samarali ekanligini ko'rsatadi. Tanqidiy fikrlashga o'rgatish jarayonlarining ahamiyatligini Kaliforniya tanqidiy fikrlash markazi, Amerika falsafa assosiasiyasi, AQSH Milliy kengashi, Rossiya davlatining "O'qish va yozish orqali tanqidiy fikrlashni rivojlantirish" markazlarida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilayotganligida ham ko'rish mumkin.

Adabiyotlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, ayni damda chet el va o'zimizda tanqidiy fikrlashning rivojlanishi hamda vujudga kelishi muammosining yechimi tajribasi to'plangan.

Qadimgi Yunonistonda faylasuflarining (Aris, Geraklit, Demokrit, Sokrat) ishlarida shaxsning tanqidiy faoliyatini ta'riflovchi aloxida qarashlar mavjud.

Qadimiy dialogik amaliyotda bildirilganidek, tanqidiy uskunalar falsafasi shunga asos bo'ldiki, buni Aristotel avval Argamon deb atagan, so'ng madaniyat tarixida Sokrat taklif qilgan "loshka" nomi bilan muhrlangan. Muloqot bilan haqiqatga erishish metodi, dogmatik tasdiqlarida kritik muomalaning rivojlanishiga imkoniyat tug'dirdi.

Tanqidiy fikrlash – odamning kelib tushayotgan axborotni, jumladan, o'z mulohazalarini shubha ostiga olish qobiliyatidir. Muayyan jamiyatda tanqidiy fikrlash darajasiga o'tish ushbu jamiyatning fuqarolik rivojlanishining boshlanishi uchun zarur shartdir, degan fikr mavjud. Tor ma'noda tanqidiy fikrlash «mulohazalarni to'g'ri baholash», demakdir. Shuningdek, «fikrlash haqida fikrlash» deb ham tavsiflanadi. Eng keng tarqalgan ta'riflardan biri - «nimaga ishonish va nima qilish haqida qaror qabul qilishga yo'naltirilgan oqilona reflektiv fikrlash». Batafsilroq ta'rif - «kuzatuv, tajriba, fikrlash yoki mulokot natijasida, ishonch hosil qilish va harakat uchun maqsadli nuqta sifatida olingan yoki yuzaga keltirilgan axborotni faol va mohirona tahlil qilish, konseptualizasiya, qo'llash, sintez qilish va yoki baholashni intellektual tartibga solingan jarayoni».

«Tanqidiy fikrlash» atamasining o'zi faylasuf Jon Dyuga borib taqaladi. U atamadan ko'proq «reflektiv fikrlash» sifatida foydalangan: «uni va u olib keladigan oqibatlarni qo'llab-quvvatlaydigan asoslarda har qanday fikr yoki taxmin qilingan bilim shaklini faol, izchil va ehtiyotkorlik bilan ko'rib chiqish». Tanqidiy fikrlash nima ekanligi masalasini ko'shimcha aniqlashtirish uchun Richard Pol (1995) tanqidiy fikrlashni kuchli va kuchsiz turlarga ajratishni taklif qilgan. U kuchsiz ma'nodagi tanqidiy fikrlashni yuqori malakali, lekin o'z manfaatlari bilan mashg'ul bo'lgan va o'z harakatlarining axloqiy oqibatlari haqida jiddiy o'ylanmaydigan soxta intellektualning xudbinlik motivasiyasiga ega fikrlashi sifatida ta'riflaydi. Bunday fikrlash sohibi ko'pincha yuqori bilimli bo'ladi, lekin o'z bilimlaridan adolatsiz va xudbin maqsadlarga erishish uchun qo'llaydi. Boshqa tomondan, kuchli ma'noda tanqidiy fikrlash – egosentrik yoki sosiosentrik yondashuvsiz ob'yektiv o'rganish maqsadida muammolar mantiqiga kirib boradigan shaxs fikrlashi. Shu ma'noda tanqidiy fikrlash haqiqat yo'lidagi to'siqlarni sidqidildan yengishga qaratiladi. Psixolog Diana Xalpern (ingl. Diane F. Halpern) tanqidiy fikrlashni nazorat qilish, asoslilik va maqsadga muvofiqlik bilan tavsiflanadigan, kerakli natija olish ehtimolini oshiradigan bilish usullaridan foydalanish, deb hisoblaydi. Bu usullar muammoni hal qilish, xulosalarni ifodalash, ehtimoliy baholash va qaror qabul qilishda qo'llaniladi hamda aniq vaziyat va hal qilinayotgan muammo turi uchun o'rinli va samarali bo'lgan ko'nikmalarni talab qiladi.

Tanqidiy fikrlashning ikki asosiy tarkibiy qismi ham mavjud: dispozisiya (o'z fikrlari uchun asoslar izlash, qiziquvchan bo'lish, intellektual mustaqilligini namoyish etish); malaka va ko'nikmalar (dalillarni aniqlash, dalillarni baholash, maslaklarni baholash, muqobil variantlarni taklif qilish, xulosalar chiqarish, sofizmlarni tan olish va kognitiv buzib ko'rsatishlar bilan shug'ullanish).

Jahonda ta'lim sifati va darajasini aniqlab beruvchi PISA (O'quvchilarni ta'limdagi yutuqlarini baholash xalqaro dasturi), PIRLS (Matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot), TIMSS (Maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qiluvchi xalqaro monitoring) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifati yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilib kelinmokda.

Prezident maktablariga kirish imtixonlariga tanqidiy fikrlash, matematika va mantiqiy fikrlash fanlarini asos qilib olinganligi xam bejiz emas. Chunki, tanqidiy fikrlash ko'nikmalariga ega bo'lgan o'quvchilar qolgan fanlarni o'zlashtirishda deyarli to'siqqa duch kelmaydi. O'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish u qaday oson jarayon emas. O'qituvchi buning uchun dastavval ma'lum shart-sharoitlar yaratmog'i joiz. Ya'ni o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish barobarida ularda xosil bo'ladigan o'zgarishlar, yutuqlar, do'stlari orasidagi imkoniyatlarini ortishiga ishonitirish lozim. Shuning barobarida sinf xonasidagi muxitni xam shungga moslashtirishi darkor. O'quvchilar orasida xato aytilgan fikr darhol kulgiga

aylanishi odat tusiga kirib ulgurgan. Buning uchun eng avvalo o'quvchilarda do'stlarini bildirayotgan fikriga xurmat tuyg'usini uyug'otish kerak. Ana shundagina o'quvchilar o'zlarining fikrlarini xech bir istexzolasiz bildirishga jur'at eta oladilar. Bu esa o'quvchilarni yanada ko'proq fikrlashga undaydi. Shu munosabat bilan o'quvchilar o'quv jarayonida faol ishtirok etib, o'ziga bo'lgan ishonchni orttirishi va o'z fikri xamda g'oyalarini qadr-qimmatini tushunishi, qolgan fikrlarni xam sabr-toqat bilan, e'tibor bilan tinglashi va bildirilgan fikrga o'z tanqidiy fikrini shakllantirishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tanqidiy fikrlashning ahamiyati va uning jamiyatdagi roli, ayniqsa ta'lim tizimida, bugungi kunda tobora ortib bormoqda. Ushbu tezisda tanqidiy fikrlashning shaxsiy rivojlanishdagi, ijodiy tafakkurda va mehnat bozoridagi muhim o'rni yoritildi. Tanqidiy fikrlash nafaqat akademik muvaffaqiyatni oshirishga, balki insonning hayotiy qarorlar qabul qilishdagi qobiliyatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova R. Pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlar. – Toshkent: “O'qituvchi”, 2021.
2. Axmedova Z. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan interaktiv mashg'ulotlar olib borish usullari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
3. Qodirova M. Pedagogik mahorat va innovatsiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2020.
4. Mamasaidova M. “Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish metodikasi” diss. Farg'ona- 2023.

AUTIZM KASSALIGI HAQIDA VA AUTIZM SPEKTRINING BUZILISHI BO'LGAN O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

Alimjanova Matlyuba Yunusovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Benazarova Ozodaxon Abdurasulovna

Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Bolalardagi autizm-bu ma'lum aqliy funktsiyalarning rivojlanishining buzilishi bilan bog'liq kasallik bo'lib, u bolaning tashqi dunyo bilan ijtimoiy o'zaro munosabatidagi turli qiyinchiliklar, obsesif vosita odatlari va boshqa holatlar bilan namoyon bo'ladi. Ko'pincha kasallik 3-4 yoshgacha bo'lgan chaqaloqlarda tashxis qilinadi, ammo ba'zi hollarda og'ishlarning dastlabki belgilari hayotning birinchi yilida sezilishi mumkin.

Kalit so'zlari: o'quvchi, ASB, muloqot, pedagog.

Birinchidan, atamalar bilan shug'ullanamiz. Autizm mustaqil tushuncha sifatida faqat kundalik darajada mavjud. Ushbu tashxis yaxshi tushunilmagan, shuning uchun uni qo'yish mumkin emas. Uning o'rniga psixologik, tibbiy-pedagogik komissiya xulosalarida autizm spektrining buzilishi (ASB) qisqartmasini topish mumkin.

Kasalliklarning xalqaro tasnifida (XKT-10) psixologik kasalliklar uchun f84 ning butun bo'limi ajratilgan. U yerda bolalar autizmi (F84.0), atipik autizm (F84.1), Rett sindromi (F84.2) va Asperger sindromi (F84.5) kiritilgan. Ba'zi bir aniq tashxis kamdan-kam hollarda qo'yiladi, ular bir-biriga juda o'xshash. Odatda shifokorlar F84 bilan cheklanadi, bu "bolada autizm spektrining buzilishi" deb o'qilishi mumkin.

ASB guruhleri tasnifi

Birinchisi, eng muhim qoidabuzarliklarni o'z ichiga oladi. Kasallikning bunday shakllari bo'lgan bolalar ijtimoiy aloqalarga qodir emaslar, autizmdan aziyat chekishlari mumkin – bu holat ular qanday gaplashishni va boshqalarni tushunishni bilishadi, lekin o'zaro aloqada bo'lishni xohlamaydilar. Ushbu guruh bir xil harakatlarning doimiy takrorlanishi, o'z-o'ziga

xizmat ko'rsatish qobiliyatining etishmasligi va o'zini o'zi boshqarish darajasining pastligi bilan ajralib turadi.

Ikkinchi guruhga odatdagi tartibdagi eng kichik o'zgarishlarga, ba'zan hatto kuchli tajovuzga juda yorqin va qattiq munosabatda bo'lgan bolalar kiradi. Shu bilan birga, tanish muhit fonida yaqin odamlar bilan o'ralgan holda, bunday bolalar muloqotga qodir, muloqotga ochiq, garchi ular asosan boshqa odam aytganlarini shtamplar va takrorlash orqali muloqot qilsalar ham.

Uchinchi guruhga tashqi dunyo bilan aloqa qilishda muammolarga duch keladigan, ammo ayni paytda yuqori intellektual qobiliyatlarga ega bo'lgan, muvaffaqiyatga va maqsadga erishishga intilayotgan yosh bemorlar kiradi. Muammo shundaki, natijaga erishish uchun bunday bolalar, sog'lom tengdoshlaridan farqli o'laroq, hech qanday harakat qilmaydilar. Ushbu darajadagi autizmli bolalar bir yoki ikkita qiziqishga e'tibor berishadi, mavzularni shu qadar chuqur o'rganishadiki, bilim darajasini ensiklopedik deb baholash mumkin.

To'rtinchi guruhga o'zboshimchalik bilan va beixtiyor muloqot qilish, ijtimoiy aloqalar o'rnatish va o'zaro munosabatlarga qodir bo'lgan bolalar kiradi, ammo bunday bolalar muloqotdan, ko'rsatmalarga rioya qilishdan tezda charchashadi, uzoq vaqt davomida bitta darsga e'tibor qaratolmaydilar, o'zlarini jamiyatdan ajratishga intilishadi. Ko'pincha, ushbu darajadagi asd bilan og'rigan bolalar juda qo'rqqoq, uyatchan ko'rinadi, "jim" deb tan olinadi, ammo o'z vaqtida va malakali tuzatish bilan ular o'qish va ijodiy faoliyatda ajoyib natijalarni ko'rsatadilar.

ASB haqida faktlar

AQSh kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazining statistik ma'lumotlariga ko'ra, har 36 boladan biri autizm spektrining buzilishidan aziyat chekmoqda. Shu bilan birga, o'g'il bolalarda u qizlarga qaraganda o'rtacha 3,8 baravar ko'proq aniqlanadi. So'nggi 20 yil ichida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ASB tarqalishi doimiy ravishda o'sib bormoqda.

Biroq, bu kasallikka chalingan bolalar soni ko'paygan degani emas. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bu autizm belgilari haqida xabardorlikni oshirish va professional hamjamiyatning ko'payishi bilan bog'liq. Boshqacha qilib aytganda, mutaxassislar o'sishni qanchalik yaxshi tushunsalar, bunday tashxis tez-tez qo'yiladi.

Autizmning namoyon bo'lishi autizm spektrining buzilishi deb ataladi, chunki hamma uchun bir xil belgilar mavjud, ammo ular turli darajalarda namoyon bo'lishi mumkin. Bu spektr-monotonlikdagi xilma-xillik. JSST ma'lumotlariga ko'ra, autizm belgilari erta bolalik davrida aniqlanishi mumkin, ammo kattalarda ham tashxis qo'yish odatiy hol emas.

Autizmning odatiy ko'rinishlari quyidagicha:

- ijtimoiy aloqadagi qiyinchiliklar;
- sensorli ma'lumotlarni qayta ishlashda qiyinchiliklar;
- takroriy, stereotipik xatti-harakatlar;
- qattqlik, ya'ni stimullarga reaksiyalarning yo'qligi: masalan, agar bola chimchilasa, qo'lini tortib olmaydi.

Treningda nimani ta'kidlash kerak

Sotsializatsiya, tengdoshlar va kattalar bilan aloqa

Bolada aloqani mustaqil ravishda qurishning hojati yo'q, ayniqsa u gaplashmasa. Shuning uchun, kattalar aloqa uchun sun'iy ravishda vaziyatlarni yaratishi kerak, masalan, mavzuni topshirishni so'rash

Kundalik ko'nikmalar

Bu bola o'qitishning qolgan qismidan oldin o'zlashtirishi kerak bo'lgan narsadir. Ba'zan bu bola muvaffaqiyat qozonadigan yagona narsa. Buning uchun kattalar tom ma'noda uning orqasidan ergashishlari kerak: qo'l bilan narsalarni joyiga qo'yish, qoshiqni ushlab turish, kiyinish.

Noto'g'ri xatti-harakatlarni tuzatish

Bunday xatti — harakatlarga misollar o'zingizga va boshqalarga shikast yetkazish, chimchilash, tishlash, qichqirishdir. Ota — ona "muammo — tushuntirish — yechim" yo'lini qurishda yordam beradigan mutaxassis-defektologga murojaat qilishi kerak. O'zingiz tuzatuvchi natijalarga erishishingiz mumkin, ammo, ehtimol, maqbul yo'lni topish uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi.

ASB haqidagi afsonalar

JSST ma'lumotlariga ko'ra, autizimli odamlarning imkoniyatlari va ehtiyojlari har xil, ular vaqt o'tishi bilan o'zgarishi mumkin. Ulardan biri mustaqil yashashga va samarali bo'lishga qodir, kimdir og'ir nogironlik tufayli umrbod yordamga muhtoj.

Umumiy noto'g'ri tushunchalarni ko'rib chiqing va bu so'zning orqasida aslida nima yashiringanligini bilib oling.

His qila olmaydi.

Umuman olganda, autizimli bolalar hech narsani sezmaydilar, his-tuyg'ularni namoyish etmaydilar, yaqinlari bilan qanday qilib mehribon va yumshoq bo'lishni bilishmaydi.

Aslida: ASB bilan og'rigan bolalar ham qanday qilib g'azablanishni, yig'lashni, tashvishlanishni va rahm-shafqatni bilishadi. Farqi shundaki, ular buni ko'rsatmaydilar, shuning uchun ular befarq bo'lib tuyulishi mumkin.

Ko'z bilan aloqa qilmang

Ushbu noto'g'ri tushuncha birinchisi bilan bog'liq: agar autizimli bolalar his-tuyg'ularga qodir bo'lmasa, unda ularning ko'zlariga qarash befoyda.

Aslida: ASB bilan og'rigan bolalar, xuddi odam orqali, shu jumladan ko'zlari orqali udto kabi qarashadi. Ular shunchaki diqqatni jamlamaydilar.

Bilimdon

Agar odamda autizm bo'lsa, unda u dunyo xaritalarini xotiradan aniq takrorlaydi, boshidagi besh xonali sonlarni ko'paytiradi yoki "urush va tinchlik" ni yoddan aytib beradi degan fikr bor.

Aslida: autizimli odamlar orasida iqtidorlilik darajasi boshqalar bilan bir xil.

Genlar yoki emlashlar aybdor

Afsona 1998-yilda Endryu Ueykfildning "The Lancet" jurnalida autizmni emlashlar bilan bog'lagan maqolasi bilan boshlangan. O'sha paytda namuna atigi 12 kishiga mo'ljallangan edi. Bir yil o'tgach, tadqiqotning 500 ishtirokchisi, 2005 yilda-10 million bola va 2011 yilda — deyarli 15 million kishi bilan rad javobi chiqdi.

Aslida: autizmning emlash va genlar bilan aloqasi isbotlanmagan. Umuman olganda, bu hodisa kam o'rganilgan.

Xulosa: Ko'p muammolarga qaramay, bunday bola hali ham ijobiy xususiyatlarga ega. Shunday qilib, autistlarning kuchli tomoni-bu ishlab chiqilgan tartibga sodiqlik, tirishqoqlik, o'qishga e'tibor, katta mas'uliyat, yaxshi xotira. Ular musiqiy qobiliyat, til qobiliyati va aniq fanlar bilan ajralib turadi. Ular katta hajmdagi ma'lumotlarni o'zlashtira oladilar. Ular o'zlashtirgan ko'nikmalar odatda juda kuchli. Autistlarning o'zlashtirilgan xulq-atvor shakllariga intilishi ham kuchli, ham zaif tomondir. Ko'pgina hollarda, ular darsda o'zini tutish qoidalariga o'z vaqtida rioya qilishga intilishadi va kelajakda o'qituvchi allaqachon shakllangan tartibga ishonchli tayanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://externat.foxford.ru/polezno-znat/kak-obuchat-detei-s-autizmom>
2. <https://www.smdoctor.ru/disease/autizm/>
3. <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/raznoe/2023/09/21/deyatelnost-uchitelya-po-realizatsii-aoop-noo-dlya-detey-s-ras>

4. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim xizmatlarini takomillashtirishda rivojlangan mamlakatlar tajribasi // "Russian" инновационные подходы в современной науке. – 2023. – т. 9. – №. 1.

5. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'li X. J. Ta'lim turlari va ularning amalga oshirilish mexanizmlari // "Germany" modern scientific research: achievements, innovations and development prospects. – 2023. – т. 9. – №. 1.

6. Nurmatova D. G. q. Autizm sindromli bolalar ijtimoiylashuvida psixokorreksion vazifalar // Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – т. 1. – №. 7 – с. 357-363.

7. Murodova S. R. q. Autizm spektri buzilishlari bo'lgan bolalarga korreksion-pedagogik yordamni tashkil etilishi // Academic research in educational sciences. – 2024. – т. 5. – №. CSPU conference 1. – с. 769-773.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ORQALI BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Jo'raqo'ziyeva Gulxumor Saidjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Tolipova Marhabo Dilmurodovna

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining boshlang'ich sinf o'quvchilarining til kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli platformalar, interaktiv dasturlar va sun'iy intellekt texnologiyalarining til o'rganish jarayoniga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim, til kompetensiyasi, raqamli ta'lim, sun'iy intellekt, interaktiv o'yinlar.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish kundalik zaruratga aylanib bormoqda. Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining til kompetensiyalarini shakllantirishda raqamli vositalardan samarali foydalanish ularning o'rganish motivatsiyasi, nutqiy faolligi va lisoniy qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Hozirgi global raqobat muhitida bolalarning til kompetensiyasini shakllantirish ta'limning eng muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Til kompetensiyasi nafaqat o'quvchining muloqot qilish, fikr bildirish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishiga xizmat qiladi, balki uning umumiy tafakkur darajasi, axborotni qayta ishlash va tahlil qilish salohiyatini oshiradi. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimida yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ularning yosh xususiyatlariga mos interaktiv va vizual vositalar yordamida ta'lim mazmunini yetkazish ancha samaraliroq kechmoqda.

ASOSIY QISM

Til kompetensiyasining nazariy asoslari:

Boshlang'ich ta'limda til kompetensiyasi quyidagi yo'nalishlar asosida rivojlanadi:

1. Lingvistik kompetensiya

Bu komponent o'quvchining grammatik qoidalarni tushunishi, so'z boyligi, fonetik va morfologik birliklardan foydalanish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

2. Kommunikativ kompetensiya

O'quvchilarning turli kontekstlarda, ya'ni maktabda, oila yoki jamoada muloqotga kirisha olishi, o'z fikrini tushunarli yetkazish ko'nikmasini anglatadi.

3. Diskursiv kompetensiya

Bu kompetensiya matnlar tuzish, hikoya qilish, savol-javoblar olib borish, nutq mantig'ini saqlab qolish qobiliyatini shakllantiradi.

4. Metakognitiv kompetensiya

O'quvchining o'z bilimini tahlil qilish, til o'rganishdagi xatolarni aniqlash va o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Axborot texnologiyalarining til o'rganishdagi imkoniyatlari:

Axborot texnologiyalari orqali til o'rganishda quyidagi afzalliklar mavjud:

1. Multimediaviy resurslar

• Ovozli kitoblar, multfilmlar, audio-dialoglar o'quvchilarda eshitish va tushunish kompetensiyasini rivojlantiradi;

• Interaktiv animatsiyalar orqali yangi so'zlar va grammatik strukturani o'rganish osonlashadi.

2. Elektron o'quv platformalari

Masalan, **LearningApps**, **Kahoot**, **Quizizz**, **Wordwall** kabi platformalarda testlar, o'yinlar, viktorinalar orqali o'quvchilarning bilimlari mustahkamlanadi.

3. Sun'iy intellektga asoslangan dasturlar

• AI vositalari o'quvchilarning yozma matnlarini tekshiradi, grammatik va uslubiy xatolarni aniqlaydi;

• Chatbotlar yordamida o'quvchilar muloqot ko'nikmalarini amaliyotda sinab ko'rishadi.

Pedagogik va metodik yondashuvlar:

1. Individuallashtirilgan yondashuv

Axborot texnologiyalari har bir o'quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlarni taqdim etish imkonini beradi.

2. Ko'pkanali o'rganish (multimodal learning)

Bola bir vaqtning o'zida ko'rish, eshitish va harakat qilish orqali o'rganadi, bu esa bilimni mustahkamlashga olib keladi.

3. Gamifikatsiya (ta'limiy o'yinlashtirish)

Til o'rganish jarayonini qiziqarli o'yin shaklida tashkil qilish o'quvchilarda yuqori motivatsiyani ta'minlaydi.

Tajriba asosida tahlil:

Bir nechta umumiy ta'lim maktablarida olib borilgan tadqiqotlar quyidagilarni ko'rsatdi:

• Interaktiv darslarda qatnashgan o'quvchilar so'z boyligi bo'yicha testlarda 30% yuqori natijaga erishdi;

• Elektron platformalarda muntazam ishlagan sinflarda nutqiy kompetensiya 2 oyda sezilarli darajada yaxshilandi;

• O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishi oshdi, yozma ishlarda ijodkorlik elementlari paydo bo'ldi.

XULOSA

Boshlang'ich ta'limda til kompetensiyalarini shakllantirishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan keng foydalanish ta'lim samaradorligini oshiradi. Quyidagi tavsiyalar muhim:

• O'qituvchilar axborot texnologiyalarini o'z metodik arsenaliga kiritishlari kerak;

• Har bir dars mavzusiga mos raqamli resurslar tanlab ishlatilishi zarur;

• O'quvchilarni faollikka chorlovchi, mustaqil ishlashga undovchi usullar ko'proq qo'llanilsin;

• O'quvchilarning texnologiyaviy savodxonligi ham bosqichma-bosqich shakllantirilsin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedova, G'. (2020). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq faoliyatini rivojlantirish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

2. Hasanboyeva, M. (2021). Raqamli ta'lim muhitida boshlang'ich ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. // "Pedagogik mahorat" ilmiy-amaliy jurnali, №4, 65–70-betlar.

3. Soliyev, A. (2023). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning innovatsion usullari. Toshkent: Ilm Ziyo.

4. Ismoilova, M. (2022). O'quvchilarda til kompetensiyasini shakllantirishda multimedia vositalarining o'rni. // "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, №2, 45–50-betlar.
5. Murodova, D. (2021). Gamifikatsiya orqali til o'rganishning afzalliklari. // "Ta'lim va innovatsiya" ilmiy jurnali, №5.
6. UNESCO (2019). ICT in Education: A Critical Analysis of the Role of Digital Tools in Early Childhood Literacy. Retrieved from <https://unesdoc.unesco.org>

HUSNIXATNING AHAMIYATI. YOZUVLAR TARIXIDAN MA'LUMOT

Usmonova Odinoxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Normatova Feruzaxon Esonali qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Husnixat va uni o'qitish metodikasi fani amaliy fan, chunki u o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash, o'stirishning amaliy vazifalarini bajaradi. Boshqa fanlar kabi husnixat o'qitish metodikasining ham o'z predmeti bor. Husnixat o'qitish metodikasining o'rgatish predmeti ta'lim berish sharoitida chiroyli yozuvni egallash, grafik jihatdan to'g'ri, chiroyli yozishga o'rgatish jarayoni hisoblanadi.

Kalit so'zlar: grafika, kompleks, gigienik, xattot, nastalig', xatti boburiy, suls xati.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatishning asosiy vazifasi ularga husnixat yuzasidan amaliy bilimlar berish, tez, to'g'ri va chiroyli yozuvga o'rgatishdir. Husnixat va uni o'qitish metodikasi ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini o'rganadi, o'qitishning muvaffaqiyati va kamchiliklarining sababini aniqlaydi, grafik xatolarni tekshiradi va ularning oldini olish, yo'qotish usullarini topadi.

Husnixatga o'rgatishning maqsad va vazifalari

Husnixat darslari birinchi sinfda savod o'rgatish davri tugagandan so'ng, 3-chorakdan boshlab alohida olib boriladi. Ammo dastlabki husnixat malakalari o'quvchilar maktabga qadam qo'ygandan boshlab amalga oshiriladi, ya'ni yozuv darslarida husnixat malakalari o'stiriladi.

Birinchi sinfda yozuv darslari husnixat malakasini o'qitish orqali olib boriladi. Chiroyli va toza yozilgan xat yozayotgan shaxsning madaniyatini va uni o'qiydigan kishiga nisbatan hurmatini ham belgilaydi. Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyotining o'sishi orqali kundalik hayotimizda turli-tuman (qog'ozlardan) hujjatlardan keng foydalanamiz, har xil konspektlar, ish qog'ozlari, hisobotlar keng o'rin olmoqda. Bularning hammasi faqat chiroyli va aniq yozish bilan birga, tezlikni ham talab etadi.

Umumiy ta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ko'rsatilganidek, yozuv darslarida harflarni aniq, toza va chiroyli yozishni mukammal o'rgatish talab etiladi.

Ammo qisqa muddat ichida o'quvchilarda chiroyli, tez va toza yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yil talab etiladi.

Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi.

1. Yozuv vaqtida partada to'g'ri o'tirish.
2. Ruchkadan to'g'ri foydalanish.
3. Daftardan to'g'ri foydalanish.
4. Yozma va bosma harflarning shakli bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo'g'in, so'z va gap tuzishga o'rgatish.

Yuqorida ko'rsatilgan malakalar shakllangandan so'ng husnixat darslarida ular mustahkamlanadi.

Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to'g'ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda (65°) yozishga, so'zlarni qatorlarga to'g'ri joylashtirishga o'rgatiladi.

Daftar chiziqlarini birin-ketin almashuvi davomida, harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to'g'ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to'g'ri chamalab yozishga o'rgatish juda mumkindir. Shuningdek, husnixat darslarida ma'lum guruhga oid harflarni yozishga o'rgatishda o'quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuvning tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o'xshash harflarning shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa, ularni qayta mashq qildirish lozim.

Birinchi va ikkinchi sinflarda chiroyli yozuvga o'rgatishda chiziqli daftarlardan to'g'ri foydalanishga alohida e'tibor berish zarur.

Birinchi sinfdagi kichik harflarning balandligi va qiyaligi chiziqlar yordamida chegaralangan bo'lsa ham, bosh harflarni yozishda o'quvchilar xatoga yo'l qo'yishlari mumkin.

Bir chiziqli daftarga yozishga o'tilganda esa o'quvchilar oldiga qator vazifalar qo'yiladi, endi ulardan harflarning orasidagi masofalarni chamalab yozishlari talab etiladi. Chiroyli yozuvga o'rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi o'ziga xos qoidalarni ham o'z ichiga oladi.

Umumiy didaktik qoidalar, takroriylik, ko'rgazmalilik, yosh va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarlik, ongliklik husnixat qoidalarini amalga oshirishda juda muhimdir. Ayniqsa, ko'rgazmalilik tamoyili chiroyli yozuv malakasini singdirishda muhim rol o'ynaydi.

Har bir o'quvchi u yoki bu harfni tushunib, yozilishini, harflarning bir-biriga bog'lanishini, kichik va bosh harflarning bir-biriga nisbatini, balandligini, qiyaligini, ruchkani ushlash va to'g'ri ko'chirish qoidalarini yaxshi bilishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ta'lim taraqqiyoti. Boshlang'ich ta'lim. T., «Sharq», 1999, 7-maxsus son.
2. Abdullaev Y. Hamrohim (yangi alifbo va imlodan qo'llanma). T., «O'qituvchi», 1996.
3. Qosimova K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. T., «O'qituvchi», 1985.
4. Ashrapova T. va b. Ona tili metodikasi. Toshkent, «O'qituvchi», 1984.
5. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. T., «O'qituvchi», 1963.

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALARNING SENSOR RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Asqarova Dilafuz Ibroximovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Salimova Nilufar Kurambayevna

Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani, oilaviy NMTT rahbari

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning sensor rivojlanishi va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar chuqur tahlil qilingan. Sensor rivojlanish bolaning atrof-muhitni idrok etishi, sezgi organlari orqali axborot qabul qilishi va unga javob qaytarishdagi faoliyati sifatida asoslab berilgan. Maqolada biologik, psixologik va pedagogik omillarning o'zaro ta'siri, shuningdek, oilaviy muhit, tarbiyachining yondashuvi, o'yin faoliyati va texnologik vositalarning sensor rivojlanishga bo'lgan ijobiy ta'siri yoritilgan. Shuningdek, bolalar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metod va mashqlar haqida amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, sensor rivojlanish, sezgi organlari, psixofiziologik omillar, pedagogik yondashuv, o'yin faoliyati, rivojlantiruvchi muhit.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim sifatini oshirish va bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash uchun innovatsion yondashuvlar, ilg'or pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida bolaning kognitiv, emotsional va fiziologik rivojlanishi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lib, bu davrda berilgan ta'lim-tarbiya bola shaxsining poydevorini belgilaydi.

Sensor rivojlanish – ya'ni bolaning sezgi organlari orqali dunyoni anglash va uni o'rganish qobiliyati – ta'lim samaradorligini oshirishda muhim komponent hisoblanadi. Sensor rivojlanish inson hayotining ilk bosqichlaridanoq shakllanib boruvchi murakkab jarayon bo'lib, ayniqsa, maktabgacha yosh davrida bu rivojlanish intensiv tus oladi. Sensor rivojlanish deganda bolalarning atrof-muhitdan kelayotgan axborotni sezgi a'zolari orqali qabul qilishi, uni tahlil qilishi, to'g'ri talqin etib, unga mos harakat qilishi tushuniladi. Mazkur jarayon bolalarning hissiyoti, harakat koordinatsiyasi, fikrlash, idrok etish, muvozanatni saqlash, mayda va yirik motorika ko'nikmalari bilan bevosita bog'liqdir. Sensor rivojlanish nafaqat bolalarning jismoniy salomatligi, balki ularning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, maktabgacha ta'lim tizimida bu jarayonga ta'sir etuvchi omillarni chuqur tahlil qilish muhim sanaladi.

Biologik omillar sensor rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bola tug'ma sezgi a'zolari bilan dunyoga keladi va bu a'zolarining tuzilishi hamda funksional imkoniyatlari uning sensor rivojlanishiga asos bo'ladi. Ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va teri sezuvchanligi kabi asosiy sezgilarning tug'ma salohiyati bola tug'ilgach, atrof-muhit bilan o'zaro aloqada shakllanib boradi. Masalan, eshitish yoki ko'rish qobiliyatida tug'ma nuqsonlar mavjud bo'lsa, bu bola rivojining boshqa sohalariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, ilk yoshdan bolalarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan sezgi muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan dastlabki faoliyatlar muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy omillar - bunga turli ranglar, tovushlar, shakllar, har xil harakatlarni bajarishga imkon beruvchi jihozlar, ochiq havoda o'yin maydonchalari, didaktik materiallar kiradi. Bola atrofida qancha ko'p sensor motivatsiyalovchi bo'lsa, uning hissiy tajribasi shuncha boy bo'ladi. Masalan, bir hil muhitda, kam sonli tovushlar, ruxsat etilmagan harakatlar, cheklangan o'yin vositalari bilan o'sayotgan bola bilan boy rang-barang muhitda o'ynab, sinab ko'rib, harakatlanib ulg'ayayotgan bola sensor rivojlanishida katta farq bo'ladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari aynan shunday motivatsiyalarni yaratishda muhim vositachi sanaladi.

Pedagogik yondashuvlar va metodlar ham bolalarning sensor rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Intefaol o'yinlar, Montessori metodikasi, maxsus materiallardan foydalanish, harakatli o'yinlar va didaktik mashg'ulotlar bolalarning sensor tafakkurini rivojlantiradi. Montessori muhitida har bir o'yinchoq va material bolaning sezgilari orqali o'rganishga qaratilgan. Turli shakllar, ranglar, og'irliklar, tovushlar va harakatlar orqali bola o'z hissiy olamini kengaytiradi. Har bir sensor faollik bolaning nafaqat sezish, balki tafakkur, tafsilotlarga e'tibor qaratish, xotira, idrok, muvozanat kabi psixologik funksiyalarini ham rivojlantiradi.

Oila muhiti va ota-onalarning ishtiroki ham sensor rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning bolaga bo'lgan munosabati, ular bilan o'yin o'ynashi, kitob o'qib berishi, tabiatga olib chiqishi yoki turli faoliyatlarda birga ishtirok etishi — bularning barchasi bolada sezish, idrok qilish va his qilishning chuqurlashuviga xizmat qiladi. Agar bola passiv, muhitdan yiroq, ijtimoiy tarmoqlar bilan chegaralangan tarzda ulg'aysa, bu uning sezgi imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Ayniqsa, so'nggi yillarda gadjetlar va ekranlar bilan ortiqcha shug'ullanish bolalarning sensor rivojlanishida passivlikka, nutqiy rivojlanishning sekinlashishiga, motorika va tafakkur bilan bog'liq qiyinchiliklarga olib kelishi mumkin. Shu bois, ota-onalar farzandlarining har bir harakatini sezgi faoliyatlari bilan uyg'unlashtirishga harakat qilishlari kerak.

Ijtimoiy tajriba va tengdoshlar bilan muloqot ham muhim sensor stimulyer vazifasini bajaradi. Bola boshqa bolalar bilan o'ynarkan, u o'z hissiy holatini anglaydi, ularning

harakatlariga munosabat bildiradi, tovushlarni eshitadi, faol aloqa qiladi, qoidalarga amal qilishni o'rganadi. Bu esa sezgi bilan bog'liq turli refleksiv jarayonlarni faollashtiradi. Shuningdek, sensor rivojlanishda bolaning shaxsiy emotsional holati ham katta rol o'ynaydi. Bola o'zini xavfsiz, quvnoq, sevib ardoqlanayotgan his qilganda, uning idrok qilish, harakat qilish va o'rganish faoliyati faollashadi.

Bolaning umumiy salomatligi, ovqatlanish sifati, uyqu tartibi, fiziologik ehtiyojlarining to'la qondirilishi sezgi rivojlanishiga zamin yaratadi. Vitamin va minerallar tanqisligi, surunkali kasalliklar yoki fiziologik nuqsonlar bolaning sensor rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, maktabgacha ta'lim tashkilotarida sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik tibbiy ko'riklar o'tkazish, gigiena talablariga rioya etish kabi omillar muhim o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'limda bolalarning sensor rivojlanishi ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi. Bular – genetik salohiyat, muhitning boyligi, pedagogik metodlar, oilaviy muhit, sog'liq holati, ijtimoiy muloqot va emotsional barqarorlikdir. Ushbu omillar uyg'unligida har bir bola o'ziga xos tarzda dunyoni anglaydi, o'rganadi va unga moslashadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari, pedagoglar va ota-onalar birgalikda harakat qilib, bolalarga boy sensor muhitni ta'minlasagina, ular har tomonlama rivojlangan, sezgir, tafakkuri teran, ijtimoiy faol shaxs bo'lib shakllanadi. Maktabgacha ta'limda sensor rivojlanishning innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashuvi, bola shaxsining har tomonlama kamol topishiga asos yaratadi. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'yin, tajriba, didaktik vositalar, interfaol texnologiyalarni sensor faoliyatga integratsiyalash muhim metodik yo'nalish hisoblanadi. Pedagoglar zamonaviy yondashuvlarni chuqur o'zlashtirib, bolalarning individual sensor ehtiyojlariga mos dasturlar tuzishi ta'lim sifatining barqaror oshishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva G.X. *Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari*. – Toshkent: Fan, 2021.
2. Mahkamova N.M. *Sensor tarbiya va uni maktabgacha ta'lim muassasalarida tashkil etish*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
3. Montessori M. *Ilmiy pedagogika asoslari va amaliy metodika*. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
4. O Vygotsky L.S. *Psixologiya razvitiya rebenka*. – Moskva: Pedagogika, 1984.
5. Smith P.K., Cowie H., Blades M. *Understanding Children's Development*. – Oxford: Wiley-Blackwell, 2015.
6. Юрьева Н.А. *Сенсорное воспитание детей дошкольного возраста*. – Москва: Просвещение, 2018.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI ESLAB QOLISH QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHDA GURUHLASH, RANG VA RITMDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI

Usmonova Odinaxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yuldasheva Ziyodaxon Ravshanbek qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilariga ma'lumotlarni o'rgatishda mnemotexnikaning guruhlash, rang va ritm usullaridan foydalanishning samaradorligi yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, mnemotexnik usullarning boshlang'ich sinif

o'quvchilarini dunyoqarashini o'stirishda, ma'lumotlarni tez va oson o'rganish jarayonida qanday yordam berishi haqida ilmiy asoslar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Guruhlash, ritm, rang, mnemotexnika, kichik guruhlarda o'qish, eslab qolish, intensiv, ritm, vizual, assotsiatsiya.


Ta'lim jarayonida mnemotexnikadan foydalanish, uni yaxlit uzluksiz ta'limning muhim xususiyati sifatida yanada takomillashtirish, o'quvchilarning xotira imkoniyatlaridan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirish masalalari bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Xususan, mnemotexnikaning guruhlash, rang va ritm usullari yordamida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining xotira imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda o'zlashtirilishi lozim bo'lgan katta hajmdagi ma'lumotlarni kam vaqt va oz kuch sarflab o'rganishga erishiladi.

Guruhlash. Bunda asosan o'rganiladigan ma'lumotlarni alohida guruhlarga ajratiladi. Masalan, so'zlarni muayyan uyalarga birlashtirib, umumiy ma'noli so'zning xususiy ma'nosini yoki xususiy ma'noli so'zlarning umumiy ma'nosini topishini talab qilish, muammoli vaziyat yaratish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, guruhlash – bu o'rganiladigan ma'lumotni kichik qismlarga bo'lishdir.

Misol uchun, o'quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o'nlab, hatto yuzlab uyadoshlari borki, o'qituvchi umumiy ma'noli so'zni o'quvchi hukmiga havola etadi va qolgan so'zlarni topishni o'quvchilarga topshiradi.

1. Sabzavotlar: sabzi, kartoshka, piyoz ...
2. O'quv qurollari: kitob, daftar, ruchka ... va hokazo.

Guruhlash usuli obyektlar, so'zlar, tushunchalarni har qanday unutilmas belgi bo'yicha guruhlarga birlashtirishni o'z ichiga oladi. Masalan, geometrik shakllarni rang va shakllarga guruhlab yozing, deb topshiriq berilsa, albatta, o'quvchilar aralash shakllarni oldin ranglarga, keyin shakllarga ajratib sifatlarini yozib chiqishlari mumkin. (1-rasmga qarang)



1-rasm.

Rang. Ranglar ham xotirani kuchaytirishga va ma'lumotni eslab qolishga yordam beradi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilariga qaysidir kitobga yoki uni ichidagi matnga e'tibor berishlarini so'rasangiz, darrov rasmlarga e'tibor qaratishadi, ya'ni rasmdagi ranglar ularni o'ziga jalb qila oladi. "Juda ko'p rang salbiy natijalarga olib kelishi va stressli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ular faqat mantiqiy va maqsadga muvofiq ishlatilishi kerak. Masalan, katta hajmdagi ma'lumotlarni tizimlashtirish uchun foydalanish mumkin". Rang, shuningdek, xotirani qo'llab-quvvatlovchi funksiyaga ega. Bu muhim ma'lumotlarga e'tiborni qaratadi va saqlash ko'rsatkichlarini yaxshilaydi.

Ritm. Ritm she'r misralaridagi bir-biriga teng nutq bo'lakalarining bir tekisda izchil takrorlanib kelishidan paydo bo'ladigan ohangdoshlikdir. Bu ohangdoshlikni she'r o'qiyotgan paytda his qilish mumkin. She'rlar ritm orqali yaxshi yodda saqlanadi. Ritm she'r musiqiyiligini ta'minlaydi. Shu sababli ritmsiz she'rnini tasavvur qilib bo'lmaydi. "Qofiya va ritm usuli – qofiyali so'z juftlarini yoki qisqa she'rlarni yaratishga imkon beradi". K.Higbeening fikriga ko'ra, tanish ritmlar yoki qofiyalar, munosabatlarning ichki tarmoqlarini yaratish va takrorlashlar, o'quv materialiga ma'no beradi. Har qanday ma'lumotni o'quvchi bajara oladigan assotsiatsiya orqali yetkazish mumkin. Qadim zamonlarda bu texnika asosan murakkab va davomli nutqlarni yodlash uchun ishlatilgan. Mnemotexnikada eng oson usul – qofiya va ritm hisoblanadi. Biz buni sezmasdan ham ritm usulidan foydalanamiz. Biz ma'lumotni ma'lum bir

ritm bilan takrorlaymiz va shu bilan uni eslaymiz. “Musiqachilar bu usulni qadrlashadi. Shuningdek, biz avtomatik ravishda qofiya yaratamiz yoki mavjud qofiyadan foydalanamiz”. Qo‘shiqlardan va musiqadan foydalanish orqali o‘quvchilar xotirasini hech qanday qiyinchiliksiz kengaytira olamiz, bu boshlang‘ich sinflar uchun eng tabiiy usul. Inson faqat hissiy jihatdan boshdan kechirgan narsalarni yaxshi eslaydi. “Kichik yoshli o‘quvchilarga qo‘shiq aytish va raqsga tushish yoqadi. Shuning uchun, har qanday kuylangan leksik birlik ular boshdan kechirgan, shaxsiy his-tuyg‘ulari bilan bog‘liq, u shaxsan ahamiyatli bo‘lib qoladi va u abadiy esda qoladi”. Musiqa bilan birga musiqa va qo‘shiq mukammal qabul qilinadi. Audiolar, agar qo‘shiq harakatlar bilan birga bo‘lsa, unda kinestetiklar tomonidan eslab qolish oson bo‘ladi. “Agar darslikda yoki sinfdan rasmlar bo‘lsa qo‘shiqning syujetida ushbu materialni vizual holatda yodlashda muammo bo‘lmaydi”. Ovoz xotirasini faollashtirishga imkon beradigan turli xil tashqi tuzilish usullari qo‘llaniladi. “Qo‘shiq aytish, audio xotiradan foydalanish, mavhum ma’lumotlarni audio (ohang) bilan kodlash hisoblanadi”. Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko‘rinib turibdiki, mnemotexnikaning ritm usuli she’r va qo‘shiqlarni qofiyadosh so‘zlardan foydalanib, o‘rganish usulidir.

Xulosa qilib aytganda inson xotirasining imkoniyatlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarning mustaqil fikrlay olish, diqqat bilan e’tibor berish, kuzatish va ko‘rganini, eshitganini uzoq vaqtgacha eslab qolish qobiliyatlarini rivojlantirishda mnemotexnik materiallardan foydalanish ma’lumotlarni o‘rganishni osonlashtiradi va natijaviyligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 108 b.
2. Hasanova O. Nemis tilini o‘rgatishda mnemotexnikadan foydalanish. Monografiya. – Farg‘ona, 2022 – 117 b.
3. Mirqosimova M. O‘quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan. 2006. – B. 250.
4. Лутфиллоева Ф. Компьютер имитацион моделларидан фойдаланиб, ҳикоялар (мнемотехника) асосида япон тили иэроглифларини ўқитиш методикаси. Пед. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 49 б.
5. Зявгарова Л.А. Игровые технологии на начальном этапе обучения // Альманах школы, 2007, № 139. – С. 70-73.
6. Евдокимова О.В. Мнемонические элементы поэтики Н. С. Лескова: дисс. ... докт. филол. наук. – Санк-Петербург, 1999. – 336 с.
7. Higbee K. L *Your memory: How it works and how to improve it* (2 ed.). New York: Marlow & Co, 1996 – 15 p.

МАКТАБГАЧА ВА МАКТАБ YOSHIDAGI BOLALARDA MUSTAQIL FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH

Qodirova Odinoxon Xayitboy qizi
Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha hamda maktab yoshidagi, asosan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida, mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish, shuningdek rivojlantirish bo‘yicha ma’lumotlar hamda, o‘zbek va chet el tadqiqotchilari tomonidan o‘tkazilgan taqdiqot najilari bo‘yicha mulohazalar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: mustaqil fikrlash, kognitiv mustaqillik, oilaviy tarbiya uslubi, intellektual rivojlanish, tanqidiy fikrlash, ijodiy fikrlash.

Abstract. This article presents information on the formation and development of independent and critical thinking in preschool and school-age children, mainly in primary school, as well as comments on the results of research conducted by Uzbek and foreign researchers.

Keywords: independent thinking, cognitive independence, family upbringing style, intellectual development, critical thinking, creative thinking.

Абстрактный. В статье представлены сведения о формировании и развитии самостоятельного и критического мышления у детей дошкольного и школьного возраста, в основном в начальной школе, а также комментарии к результатам исследований, проведенных узбекскими и зарубежными исследователями.

Ключевые слова: самостоятельное мышление, когнитивная независимость, стиль воспитания в семье, интеллектуальное развитие, критическое мышление, творческое мышление.

Mustaqil va tanqidiy fikrlashni shakllantirish maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar uchun muhim jarayondir. Bu jarayon bolalarning mustaqil o'rganish qobiliyatini rivojlantirishga, shuningdek, ularni muammolarni hal qilishda va fikrlarini ifodalashda yordam beradi. Tanqidiy fikrlash, bolalarning muammolarni hal qilish, turli nuqtai nazarlarni ko'rish va o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalash qobiliyatini oshiradi. Ushbu qobiliyatlar, bolalarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishlari va o'z fikrlarini ifoda etishlari uchun zarurdir. Ota-onalar hamda o'qituvchilar, bolalarning tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ular bolalarga ta'lim-tarbiyaberish jarayonida turli o'qitish metodlari va texnikalarini qo'llash orqali tanqidiy fikrlashni shakllantirish imkoniyatlarini taqdim etadilar. O'qituvchining qo'llanadigan o'qitish usullari, bolalarning fikrlash jarayonini yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchilarning fikricha, maktabgacha yoshning oxiriga kelib, bolalar erisha oladilar mustaqillik namoyon bo'lishining ma'lum darajasi, ya'ni: turli faoliyat turlarida mustaqillik va tashabbuskorlikni namoyish etishga tayyor; o'z kasbini va birgalikdagi faoliyat ishtirokchilarini tanlash imkoniyatiga ega; o'zlari qaror qabul qilishlari mumkin. Biroq, oilaviy tarbiya uslubining rivojlanishga ta'siri muammosi. Bolalarning mustaqilligi - bu juda murakkab va muhim mavzu kam rivojlanganligicha qolmoqda. Har bir oila o'ziga xos tarbiya uslubiga ega, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'lum bir usuli "og'zaki muloqot va o'zaro ta'sirning o'ziga xos uslubida" ifodalanadi.

Kattaroq maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda ushbu texnologiyadan tizimli foydalanish ushbu yosh bosqichida faol rivojlana boshlaydigan og'zaki va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ushbu modelni joriy etish nafaqat bolalarning bilim faolligini rivojlantirishga, balki mustaqil fikrlashni shakllantirishga, bilimlarni kengaytirishga, ko'nikmalarga ega bo'lishga, katta maktabgacha yoshdagi bolalarda nafaqat tashkil etilgan o'quv faoliyati jarayonida, balki boshqa rejim jarayonlarida ham ko'nikmalarni mustahkamlash va axloqiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

J. Piaget tomonidan taklif qilingan intellektual rivojlanishni davrlashtirishga ko'ra, rasmiy mantiqiy operatsiyalar bosqichma-bosqich rivojlanadi. Maktabgacha yoshda bolaning tafakkuri egosentrik xarakterga ega bo'lib, qarama-qarshiliklarga befarqlik va tasniflash, ketma-ketlik, makon, vaqtni tuzish va hokazo masalalarni yechishdagi xatolar bilan birga keladi. Bu oddiy operatsiyalar bolaga 7-11 yoshda bo'ladi. Rasmiy operatsiyalarning yakuniy rivojlanishi 11-12 - 14-15 yoshda, bola nisbatlar, dinamik va gomeostatik muvozanat, harakat va ehtimolliklarni tushunish va tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lganda sodir bo'ladi [Piaget, 2003]. Ushbu qobiliyatlarni baholash uchun J. Piaget va uning hamkasblari bolaga bir vaqtning o'zida ikkita parametrlarni muvofiqlashtirish so'ralgan testlardan foydalanganlar: nisbatlar va ehtimolliklar ("Ehtimollik"), og'irliklarning og'irligi va ularning joylashishini hisobga olgan holda muvozanat ("Tarozi"), turli yo'nalishlarda ikkita harakatni muvofiqlashtirish ("Tsilindr").

J. Piaget nazariyasiga muvofiq amalga oshirilgan keyingi tadqiqotlar intellektual rivojlanish davriyligining qat'iy doirasiga to'g'ri kelmaydigan bolalar natijalarini ko'rsatdi. I. Rogozhina [Pogozhina, 2014] tomonidan o'tkazilgan eksperimentda 5,5-6,9 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarda konservatsiya tamoyilini shakllantirish tasniflash va ketma-ketlikning

mantiqiy operatsiyalarining tarkibi va tuzilishini ishlab chiqish orqali mumkin bo'lgan gipoteza tasdiqlandi.

Hozirgi vaqtda ilmiy adabiyotlarda "kognitiv mustaqillik" tushunchasiga turli xil ta'riflar va shunga mos ravishda uni tashkil etish va ta'lim jarayoniga tatbiq etishga turlicha yondashuvlar mavjud. Shunday qilib, A.N. Leontyeva: "Kognitiv mustaqillik - bu ichki shakllanishlar tizimi va ularning tashqi ko'rinishi - o'z-o'zini tarbiyalash uchun amaliy harakatlar. Bolaning barcha harakatlarini uning uchun istiqbolli, muhim vazifani hal qilishga bo'ysundirish, barcha faoliyatni belgilangan maqsadga erishishga yo'naltirish katta yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv mustaqilligining yuqori darajadagi rivojlanishining muhim belgilaridan biridir

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda jamiyat o'zining maqsadli harakati, faolligi, ijodiy fikrlash, qiyin vaziyatlardan chiqish yo'llarini topish, mustaqil harakat qilish qobiliyati bilan ajralib turadigan insonlarga muhtoj. Shunday ekan pedagoglar milliy mentalitetimizga xos bo'lgan tarzda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida erkin fikr bildirish, o'z fikrini himoya qila olish, tanqidni to'g'ri qabul qilish kabi hislatlarni ham singdirishlari kerak. Albatta bu borada otanalar ham pedagoglarga ko'maklashgan holda bolaning tarbiyasiga jiddiy yondashishlari lozim. Zero, biz tarbiyalayotgan avlod bizning ertangi kunimizni hal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Asanbaeva Z.D., Tashhurekova J.T., . 2020. KEYS TEXNOLOGIYALARI ORQALI MAKTABGA BO'LGAN BOLALARDA KOGNITIV MUSTAQILLIKNI RIVOJLANTIRISH. *Abay nomidagi KazNPU xabarnomasi. Seriya: Pedagogika fanlari* . 68, 4 (2020 yil dekabr), 191–199. DOI: <https://doi.org/10.51889/2020-4.1728-5496.29>.

2. Veraksa N.E. , Ayrapetyan Z.V. , Almazova O.V. , Tarasova K.S. Katta maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshida dialektik va rasmiy-mantiqiy fikrlashning rivojlanish dinamikasi., *Psixologik-pedagogik tadqiqotlar*. 2023. jild. 15. № 4. P. 111–127

3. Kovalchuk M.I. Oilaviy ta'lim uslubining katta maktabgacha yoshdagi bolalarda mustaqillikni rivojlantirishga ta'siri // *Interaktiv fan*. – 2019. – B. 92-94. – ISSN 2414-9411. – DOI 10.21661/r-497105.

4. ¹Портал психологических изданий PsyJournals.ru — https://psyjournals.ru/journals/psyedu/archive/2023_n4/Veraksa_et_al [Katta maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshida dialektik va rasmiy-mantiqiy fikrlashning rivojlanish dinamikasi // *Psixologik-pedagogik tadqiqotlar* - 2023. Vol. 15. № 4]

5. Qilichova, M. (2022). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AQLIY FAOLIYATNING O'RN. *Maktabgacha ta'lim Jurnali*, 1(Preschool education journal). Retrieved from <https://journal.jdpu.uz/index.php/presedu/article/view/4889>

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING JISMONIY RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Asqarova Dilafroz Ibroximovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Oripova Odixon Axmadjonovna

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy pedagogik texnologiyalar maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanishini samarali ta'minlash hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanish xususiyatlari hamda bu rivojlanish jarayoniga ta'sir etuvchi omillar yoritilgan. Jismoniy rivojlanish bola organizmining o'sishi, harakat faoliyati, yirik motorikalar, muvofiqlashtirish qobiliyati, chaqqonlik, muvozanat saqlash kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Maqolada bolaning yosh bosqichlariga qarab jismoniy rivojlanish sur'atlari, o'ziga

xos jihatlari, shuningdek, sog'lom ovqatlanish, jismoniy mashqlar, harakatli o'yinlar, gigiyena va dam olish rejimining ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, jismoniy rivojlanish, harakat faoliyati, sog'lom turmush tarzi, mushaklar rivoji, gigiyena, sport o'yinlari, muvozanat

Bugungi kunda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish, ularning individual salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadi yotadi. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning jismoniy rivojlanishi — ya'ni sog'lom va harakatga faol bola sifatida shakllanishi — ta'limning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Jismoniy rivojlanish pedagogik jarayon bilan chambarchas bog'liq bo'lib, u innovatsion va zamonaviy texnologiyalar yordamida yanada samarali tashkil etilishi mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi ularning umumiy rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. Bu davr – organizmning eng faol o'sish, shakllanish va rivojlanish bosqichi bo'lib, bola salomatligi, harakat faolligi, jismoniy quvvati va kelajakdagi sog'lom hayotining poydevori aynan shu davrda qo'yiladi. Bolaning jismoniy rivojlanishida suyak, mushak, asab, yurak-qon tomir tizimi kabi muhim tizimlarning barqarorlashuvi kuzatiladi. Shu bilan birga, maktabgacha yosh davri harakat faolligi, mo'ljal olish, muvozanat, tezlik, chaqqonlik va bardoshlilik kabi jismoniy sifatlar shakllanadigan muhim bosqich hisoblanadi.

Maktabgacha yosh odatda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda bolalarda organizmning morfologik va fiziologik o'zgarishlari sodir bo'ladi. Bu yoshdagi bolalarda tana bo'yi har yili o'rtacha 5–7 sm ga, tana vazni esa 2–3 kg ga ortadi. Muskullar kuchayadi, lekin mushaklar to'qimasi hali to'liq yetilmagan bo'ladi, shuning uchun ortiqcha jismoniy yuklama berish tavsiya etilmaydi. Ularning yurak hajmi, qon aylanish tizimi va nafas olish organlari ham faol rivojlanadi, biroq hali barqaror emasligi sababli jismoniy mashqlar me'yorda bo'lishi zarur.

Bola jismoniy rivojlanishida **harakat faoliyati** asosiy rol o'ynaydi. Bolaning tana a'zolar harakati — yugurish, sakrash, sudralish, toqqa chiqish, muvozanatni saqlash, to'p o'ynash kabi mashg'ulotlar nafaqat mushak-skelet tizimini, balki yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini ham kuchaytiradi. Shu bilan birga, harakatlar orqali bola atrof-muhitni o'rganadi, o'z harakatlarini nazorat qilishni o'rganadi, mo'ljal olish, fazoviy idrok va reflekslarni rivojlantiradi.

Har bir yosh bosqichida bolalarning jismoniy rivojlanishiga xos o'ziga xos xususiyatlar mavjud:

- **3–4 yoshli bolalarda** harakatlar asosan reflektor va avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Ular muvozanatni saqlashda qiynaladi, tez charchaydi, harakatlari noaniq va qo'polligicha bo'ladi. Shu sababli harakat faoliyatlari qisqa, ammo takrorlanuvchi bo'lishi kerak.

- **4–5 yoshli bolalar** harakatlarini nisbatan ongli boshqara boshlaydi. Bu yoshda yugurish, sakrash, yurish, muvozanat saqlash ko'nikmalari shakllanadi. Bolalar bu davrda faol, harakatga chanqoq, yangi harakatlarni o'zlashtirishga qiziqadi. Ular jismoniy faollik orqali o'zini ifoda etishga harakat qiladi.

- **5–6 yosh oralig'ida** harakatlar ancha muvofiqlashgan, mantiqan boshqarilgan bo'ladi. Bola yugurishda tezlikni oshira oladi, to'g'ri sakraydi, sport elementlarini bajara oladi. Bu yoshda jismoniy mashqlar orqali bardoshlilik, tezlik, muvozanatni saqlash, mo'ljal olish kabi sifatlar jadal rivojlanadi.

- **6–7 yoshli bolalarda** esa harakatlar shakli, sur'ati, kuchi va aniqligi yanada takomillashadi. Bola o'z harakatini rejalashtira oladi, murakkab topshiriqlarni bajara oladi. Bu davrda maktabga tayyorlov bosqichi hisoblanib, bolalarning jismoniy rivojlanishi ularning ta'limga yondashuvi va ijtimoiy faoliyatida ham aks etadi.

Jismoniy rivojlanishda **mayda va yirik motorika** alohida o'rin tutadi. Yirik motorika bola yurishi, yugurishi, sakrashi, qo'llarini ishlatishi kabi katta mushak guruhlariga bog'liq harakatlarni ifodalaydi. Mayda motorika esa barmoqlar va qo'l panjalari bilan bog'liq nozik harakatlar (rassomchilik, qurish-yasash, tugmalarni qadash, chizish, yozishga tayyorlov)ni

qamrab oladi. Bu harakatlar bolaning markaziy asab tizimi, nutq, aqliy va emotsional rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular maktabga tayyorgarlikning ajralmas qismidir.

Psixomotor rivojlanish ham jismoniy rivojlanishning ajralmas tarkibiy qismlaridan biridir. Bola harakati orqali fikrini ifodalaydi, o'z ehtiyoj va xohishlarini harakat vositasida namoyon etadi. Bolalar o'yinida yugurish, sakrash, suzish, o'yinchoq yig'ish nafaqat jismoniy faollikni, balki psixologik ehtiyojni ham qondiradi. Bu jarayonda bolaning harakati bilan birga mulqoti, emotsiyasi, ongli harakat qilish ko'nikmasi ham rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishida **sog'lom turmush tarzi**, ovqatlanish, kun tartibi va gigiyena muhim rol o'ynaydi. To'g'ri tashkil etilgan uyqu, me'yoriy ovqatlanish, toza havo, gigiyenik tartiblar (qo'l yuvish, tish tozalash, havo almashinuvi) bolaning jismoniy holatini yaxshilaydi. Shuningdek, har kuni ertalabki badantarbiya mashqlari, sayr qilish, ochiq havoda o'yin o'ynash sog'lom organizm shakllanishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining roli ham juda katta. Har bir bola uchun harakat faoliyati yoshiga mos tarzda rejalashtirilgan bo'lishi zarur. Mashg'ulotlar o'z ichiga jismoniy mashqlar, sport o'yinlari, gimnastika, raqs, muvozanat mashqlari, to'g'ri nafas olish usullarini bilishi lozim. Tarbiyachilar bolaning jismoniy rivojlanishini muntazam kuzatib borishi, yoshiga mos yuklamalar berishi va bolaning individual xususiyatlarini inobatga olishi zarur.

Bolada jismoniy rivojlanishga to'sqinlik qiluvchi omillar ham mavjud: noto'g'ri ovqatlanish, kamharakat turmush tarzi, haddan ortiq ekran qarshisida o'tirish, psixologik stress, yomon odatlar, gigiyena qoidalariga amal qilinmasligi va oiladagi ijtimoiy beqarorlik. Bu omillar bolada holsizlik, charchoq, sekin o'sish, noto'g'ri gavda shakllanishi, asab tizimi zo'riqishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli ota-onalar va pedagoglarning hamkorlikda harakat qilishi nihoyatda muhim.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi ularning kelajakdagi salomatligi, psixologik barqarorligi, ta'limga tayyorgarligi va hayotga munosabati uchun mustahkam poydevor yaratadi. Bu rivojlanish yirik va mayda motorikalar, mushaklar va asab tizimining uyg'un faoliyati, harakatli o'yinlar, sog'lom turmush tarzi, gigiyena, to'g'ri ovqatlanish, psixomotor mashg'ulotlar orqali yuzaga chiqadi. Har bir bola o'ziga xos rivojlanish sur'atiga ega bo'lsa-da, ularga to'g'ri yondashuv, mehr, e'tibor va sog'lom muhit taqdim etish orqali ular jismonan sog'lom, faol va baquvvat shaxslar bo'lib voyaga yetadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupova M.T. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy rivojlanishining nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: TDPU, 2020.
2. Sultonova G.K. Bolalar salomatligi va jismoniy tarbiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2018.
3. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari dasturi. – Toshkent: 2023.
4. Shvarts A.L. Fizicheskoe razvitie detey doshkolnogo vozrasta. – Moskva: Prosveshchenie, 2015.
5. Mahkamova D.A. Sog'lom bola – baxtli kelajak kafolati. – Toshkent: O'qituvchi, 2021.

O'QUVCHILARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'ULARINI QANDAY SHAKLLANTIRISH KERAK

Salijonova Gulhumor Faziljanovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar Vazirligi Farg'ona akademik litseyi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mamlakatning yoshlarga oid davlat siyosatining bir qismidir. O'z mamlakatining vatanparvari bo'lish har doim g'urur va o'z

qadr - qimmatiga ega bo'lgan har bir kishi uchun katta sharafdir. Ammo vatanparvarlar tug'ilmaydi, ular bo'ladi. Bundan tashqari, ishonchli rivojlanayotgan davlatda vatanparvarlik tarbiyasi faqat ijodiy jarayon sifatida baholanmasligi kerak. Shuningdek, bu yoshlar uchun kurash, mamlakat kelajagi, salbiy hodisalarga qarshi kurash.

Kalit so'zlar: Ta'lim, vatan, vatanparvarlik, qadriyat.

"Ta'lim-bu buyuk ish: u insonning taqdirini hal qiladi." Ushbu taniqli so'zlar nafaqat o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, balki zamonaviy jamiyatda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Biz atrofdagi voqealarning ko'p qismini o'zgartira olmaymiz, lekin o'quvchilarimizni hayot muammolariga qarshi turishga, o'zlari uchun haqiqiy qadriyatlarni tanlashga tayyor bo'lishlari uchun tarbiyalashga qodirmiz.

Zamonaviy sharoitda vatanparvarlik tarbiyasi muammosi ijtimoiy moslashish va shaxsni shakllantirish jarayonining ajralmas qismi sifatida uni hal qilishda yangi yondashuvlarni talab qiladi. So'nggi voqealar ma'naviy qadriyatlarining asta-sekin yo'qolishi aksariyat o'spirinlarning ijtimoiy ongiga salbiy ta'sir ko'rsatganligini tasdiqlaydi: befarqlik, xudbinlik, kinizm, g'ayratli tajovuz, umuman davlatga nisbatan hurmatsizlik keng tarqaldi.

Vatanparvarlik tarbiyasi-bu bolalar va yoshlarda vatanparvarlik qadriyat yo'nalishlari, xulq-atvor normalarini shakllantirishga qaratilgan maqsadli faoliyat. Bugungi kunda jamiyatda haqiqiy vatanparvarlik tuyg'usini ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy qadriyat sifatida tiklash juda muhimdir.

"Vatanparvarlik" so'zi Vatanga muhabbat, o'z Vatanga sadoqat degan ma'noni anglatadi. Vatanparvarlik genlarga xos emas, bu tabiiy emas, balki ijtimoiy sifatdir va shuning uchun u meros qilib olinmaydi, balki shakllanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab o'quvchilarida Vatanga muhabbatni tarbiyalash – bu vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishga, vatanparvarlik e'tiqodlarini va vatanparvarlik xulq-atvorining barqaror me'yorlarini shakllantirishga qaratilgan jarayon. Bolani o'z xalqining madaniyati bilan tanishtirishning ahamiyati haqida ko'p narsa yozilgan, chunki otalik merosiga murojaat qilish siz yashayotgan er uchun hurmat va g'ururni tarbiyalaydi. Shuning uchun bolalar ota-bobolarining madaniyatini bilishlari va o'rganishlari kerak. Bu xalq tarixini, uning madaniyatini bilishga urg'u berish, kelajakda boshqa xalqlarning madaniy an'analariga hurmat va qiziqish bilan munosabatda bo'lishga yordam beradi. Bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maktabgacha va maktab ta'lim muassasasining asosiy vazifalaridan biridir. Shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi vaqtda ushbu masala bo'yicha ko'plab uslubiy adabiyotlar nashr etilmoqda. Ko'pincha, u muayyan faoliyat turlarida bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning faqat ayrim jihatlarini qamrab oladi va bu masalaning to'liqligini aks ettiruvchi uyg'un tizim mavjud emas. Ko'rinishidan, bu tabiiydir, chunki vatanparvarlik tuyg'usi mazmunan ko'p qirrali. Bu o'z vatanlariga bo'lgan muhabbat, o'z xalqi bilan faxrlanish, tashqi dunyo bilan uzviy bog'liqlik hissi va o'z mamlakatining boyligini saqlab qolish va ko'paytirish istagi.

Agar fuqarolik tarbiyasida davlat va fuqarolarga hurmat tuyg'usini shakllantirish vazifalardan biri bo'lsa, unda vatanparvarlik Vatanga va uning xalqiga bo'lgan muhabbat hissi, uning o'tmishiga, madaniy merosiga mansubligi, ishtiroki bilan bog'liq. Insonning Vatanga bo'lgan muhabbatini tarbiyalash vazifasi har doim qo'yilgan va vatanparvarlik tarbiyasini shaxsning eng muhim ma'naviy holati sifatida maktabgacha yoshdan boshlab boshlash va bolalarning yosh xususiyatlarini va o'rganilayotgan materialning xususiyatini hisobga olgan holda uni maktabda davom ettirish kerak.

Bugungi kunda tarbiya muammosi birinchi o'ringa chiqdi va bu vatanparvarlik tarbiyasi muammosi. Maktab ishida yosh avlodni tarbiyalash tizimini ishlab chiqish vazifasi qo'yildi. Fuqaro va vatanparvar maktabdan boshlanadi: fuqaro va vatanparvar bo'lishdan oldin

Vatan, O'quvchi o'z maktabining fuqarosi va vatanparvari bo'lishni, uning tarixi, urf-odatlarini bilishni, o'qituvchilar va sinfdoshlar bilan insoniy munosabatlarni o'rnatishni, barcha maktab ishlarida faol ishtirok etishni o'rganishi kerak.

Maxsus tuzatish maktabida vatanparvarlik tarbiyasi jarayoni oson emas va uning natijasi ommaviy maktabdagidek sezilmaydi, chunki u nogiron bolalarga xos bo'lgan bir qator psixofizik xususiyatlar bilan murakkablashadi. Bunday bolalarga jamiyatdagi xulq-atvor me'yorlari va qoidalarini o'rganish, o'z uyiga, oilasiga, maktabiga, Vatanga muhabbat kabi tushunchalarni o'zlashtirish uchun ko'proq vaqt kerak bo'ladi.

* Ma'naviy va axloqiy, bu o'quvchilarning vatanparvarlik tarbiyasi jarayonida yuqori qadriyatlar, ideallar va ko'rsatmalar, Real hayotning ijtimoiy ahamiyatga ega jarayonlari va hodisalari to'g'risida xabardorligini anglatadi.

* Tarixiy va o'lkashunoslik, tarixiy va madaniy ildizlarni bilishga, ajdodlar va zamondoshlarning harakatlariga daxldorlik uchun g'ururni shakllantirishga va jamiyatda sodir bo'layotgan voqealar uchun tarixiy javobgarlikni shakllantirishga qaratilgan.

* Fuqarolik-vatanparvarlik tadbirlar tizimi orqali huquqiy madaniyatni, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga, o'z xalqiga xizmat qilishga va konstitutsiyaviy burchni bajarishga doimiy tayyorgarlikka ta'sir qiladi.

* Sport va vatanparvarlik-axloqiy va irodaviy fazilatlarini rivojlantirishga, kuch, epcillik, chidamlilik, chidamlilik, erkaklikni tarbiyalashga qaratilgan.

* Ekologik ta'lim-o'quvchilarda ona tabiati, ona yurtining pokligi va go'zalligi uchun g'urur tuyg'usini shakllantirishga, shuningdek ekologik javobgarlik va ekologik madaniyat kabi tushunchalarni axloqiy baholashga qaratilgan.

O'qituvchilar ushbu yo'nalishlardan o'z ishlarida foydalanadilar, maktab o'quvchilarini o'z Vatanning fuqarolari, vatanparvarlari sifatida o'qitish va tarbiyalash masalalarini darslar, darsdan tashqari mashg'ulotlar, sport musobaqalari va boshqalar orqali muvaffaqiyatli hal qiladilar.

Xulosa

Shunday qilib, vatanparvarlik maktab o'quvchilarini o'qitish, ijtimoiylashtirish va tarbiyalash jarayonida shakllanadi. Bu erda oila va jamiyatning boshqa ijtimoiy institutlari, masalan, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlari, madaniyat va sport muassasalari, qo'shimcha ta'lim, diniy tashkilotlar, sog'liqni saqlash muassasalari, huquqni muhofaza qilish organlari, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalari katta rol o'ynaydi. Vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha maktab dasturini amalga oshirish jarayoni maktabni atrofdagi ijtimoiy makonning ma'naviy markaziga aylantirishi, kichik Vatanning "madaniyati va tarixiy an'alarini" saqlab qolishi va tarqatishi va shu bilan birga o'quvchilarga bolalarga hayotda o'zlarini anglashlariga imkon beradigan ta'lim berishi, har bir bolani munosib inson – fuqaro, oila a'zosi, mehnatkash sifatida shakllantirishga hissa qo'shishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://nsportal.ru/shkola/korreksionnayapedagogika/library/2020/03/03/formirovanie-patrioticheskogo-soznaniya>
2. <https://urok.1sept.ru/articles/576905>
3. Большов В. Гражданско-патриотическое и нравственное воспитание студентов /В. Большов //Учитель.- 2019. - №5.- С.33-35.
4. Быков А.К. Событийный подход в патриотическом воспитании школьников /А.К. Быков, Г.Н.Мусс, М.В. Слабоспицкая // Воспитание школьников. -2019. - №7.- С. 12-17.
5. Горбунов В.С. Воспитание гражданина-патриота: системный подход

BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLIKLARIDA FRAZEOLOGIK BIRIKMALARNING MA'NO VA TARKIB JIHATDAN TAVSIFLANISHI

Sotivoldiyeva Gulsanam Dilmurod qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Muxtoraliyeva Dilrabo Husanboyevna

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida uchraydigan frazeologik birikmalarning ma'no va tarkibiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Frazeologizmlarning o'quvchilar nutqini boyitishdagi, estetik tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni yoritiladi. Darslik materiallari asosida frazeologik birliklarning turlari, ularning metodik qo'llanilishi va pedagogik ahamiyati ochib beriladi. Shu bilan birga, ularni o'qitishda samarali yondashuvlar va takliflar ilgari suriladi.

Kalit so'zlar: frazeologik birikma, boshlang'ich ta'lim, ona tili, ko'chma ma'no, til boyligi, metodik yondashuv.

KIRISH

Til – bu millat tafakkurining ko'zgusi, xalq ma'naviyatining asosi. Har bir tilda xalqning tarixiy tajribasi, madaniyati, hayotga munosabati mujassam bo'lgan. Ayniqsa, frazeologik birikmalar tilda xalqning ma'naviy olamidan dalolat beradigan barqaror, obrazli ifodalardir. O'zbek tilida bunday iboralar nihoyatda boy bo'lib, ular orqali tilning go'zalligi va ta'sirchanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchining til va nutqiy ko'nikmalarini shakllantirishda asosiy davr hisoblanadi. Shu bois, ona tili darsliklariga frazeologik birliklarni kiritish orqali o'quvchilarda estetik did, obrazli tafakkur, xalq og'zaki ijodiga qiziqish kabi ko'nikmalarni shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Frazeologik birikmalarning o'quv jarayonidagi roli

Frazeologik birikmalar o'quvchining:

- Lug'at boyligini kengaytiradi;
- Nutqini ifodali va ta'sirchan qiladi;
- Ko'chma ma'noni anglash ko'nikmasini rivojlantiradi;
- Tilning obrazli vositalaridan foydalanish imkonini yaratadi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida frazeologik birliklar turli uslubiy vazifalarni bajaradi: matn mazmunini boyitish, axloqiy tarbiya berish, hayotiy voqelikni obrazli ifodalash va bolani mustaqil fikrlashga undash.

Frazeologik birikmalarning turlari

Darsliklarda uchraydigan frazeologik birliklar quyidagicha tasniflanadi:

1. Oddiy ko'chma ma'nodagi birikmalar
 - Masalan: *ko'ngli xira bo'ldi, yuragi orqaga tortdi, tili kalishdi.*
 - Ushbu iboralar odatda hikoya va ertaklarda uchraydi, ularning ma'nosi kontekst asosida anglashiladi.
2. Qanotli iboralar va maqollar
 - Masalan: *Mehnat qilgan – to'q bo'ladi, Do'st boshida bilinadi.*
 - Bu iboralar tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, darslikda alohida izoh bilan beriladi.
3. Obrazli ifodalar bilan boyitilgan matnlar
 - Ertak, topishmoq, she'r va hikoyalarda *tilga kiribdi, ko'zlari chaqnadi, yuz-ko'zidan nur yog'ildi* kabi frazeologizmlar tez-tez uchraydi.

Tarkibiy tuzilma bo'yicha tahlil. Frazeologik birliklar tarkib jihatdan quyidagicha tasniflanadi:

- Ikki komponentli: *ko'ngli to'ldi, yuzi oqarib ketdi*
- Ko'p komponentli: *yuragi og'ziga keldi, ko'z o'ngidan nurlar yog'ildi*
- Gapdosh ko'rinishdagi iboralar: *O'rgangan ko'ngil o'rtanmas, Sabr qilgan omad topar*

Bu iboralarning o'quvchilar uchun murakkablik darajasi bosqichma-bosqich oshirilgan bo'lib, dasturiy yondashuvga mos keladi.

Metodik yondashuvlar va o'rgatish usullari. Frazeologik birikmalarni boshlang'ich sinfda o'qitishda quyidagi metodik yondashuvlar qo'llaniladi:

- Kontekstual izohlash: Iboralar matn ichida qo'llanilib, savol-javob asosida tahlil qilinadi.
- Vizual yondashuv: Rasmlar, drammatizatsiya, pantomima orqali obrazli anglashni kuchaytirish.

• Ijodiy topshiriqlar: "Gap tuzing", "Shunga o'xshash ibora toping", "Ma'nosini ayting" kabi topshiriqlar yordamida nutqiy faollikni oshirish.

Bu metodlar o'quvchining frazeologik birliklarni nafaqat eslab qolishi, balki nutqda faol ishlatishini ta'minlaydi.

Frazeologik birikmalarning o'quv jarayonidagi roli. Frazeologik birliklar nafaqat o'zbek tilining obrazli boyligidir, balki ta'lim-tarbiyaviy vosita sifatida ham alohida o'rin tutadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy rivojlanishida frazeologizmlar quyidagi jihatlardan ahamiyatga ega:

• Nutq boyligini oshiradi: O'quvchi birgina "xafa bo'ldi" degan o'rniga "ko'ngli xira bo'ldi" iborasidan foydalana oladi.

• Ko'chma ma'no va obrazli fikrlashni shakllantiradi: Bu esa bolani tanqidiy, ijodiy fikrlashga yo'naltiradi.

• Axloqiy-tarbiyaviy g'oyalarni yetkazadi: Maqollar va qanotli iboralar orqali hayotiy saboqlar beriladi.

• Milliy ong va qadriyatlarga bo'lgan hurmatni oshiradi: Frazeologizmlar orqali xalq donishmandligi o'quvchiga yetkaziladi.

NATIJA VA XULOSA

2024-yilda chop etilgan 2-sinf ona tili darsligida quyidagi frazeologik birliklarga duch kelish mumkin:

• *Ona mehridek beg'ubor mehr yo'q* (27-dars) – bu ibora bolaga ona mehrining yuksakligini obrazli ifoda bilan tushuntiradi.

• *Ko'nglidan nimalar o'tdi?* – bu ibora bolada tasavvur uyg'otadi, obrazli tafakkurni rag'batlantiradi.

• *Og'ziga qarab gapirdi* – bu ibora orqali bolada izzat, hurmat tushunchalari mustahkamlanadi.

Frazeologik iboralar o'quvchilar tomonidan mashqlar, savol-javoblar, hikoya yozish kabi topshiriqlar orqali chuqurroq o'zlashtiriladi.

Metodik yondashuvlar va o'rgatish usullari. Frazeologik birikmalarni samarali o'rgatish uchun quyidagi metodlar dars amaliyotida keng qo'llaniladi:

1. Kontekstual o'rgatish: Iboralar matn ichida beriladi va savollar orqali izohlanadi. Misol: "Ko'ngli xira bo'ldi" iborasi nima degani?

2. Illyustratsiyalar asosida tushuntirish: Rasmlar orqali frazeologik ma'no tushuntiriladi. Masalan, *yuragi og'ziga keldi* iborasini yuz ifodalari bilan izohlash.

3. Rolli o'yinlar: Darsda frazeologik iboralarning mazmuni sahnalashtiriladi. Bu usul orqali bola iborani eslab qoladi va nutqida ishlatadi.

4. Qiyosiy tahlil: O'xshash ma'nodagi so'z va iboralarni farqlash (masalan: *xafa bo'ldi* va *ko'ngli xira bo'ldi*).

5. Ijodiy topshiriqlar: O'quvchilardan o'z nutqida frazeologik birikmani ishlatgan gap yoki hikoya tuzish so'raladi.

Ushbu metodlar bola tafakkurini faollashtiradi, frazeologik birliklarning esda qolishini ta'minlaydi va ulardan nutqiy foydalanish ko'nikmasini shakllantiradi.

Frazeologik birikmalar boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida muhim til vositasi sifatida xizmat qiladi. Ular orqali o'quvchilarda tilga mehr, nutqqa estetik yondashuv, ifodali fikrlash ko'nikmalari shakllanadi. Maqola davomida darsliklarda uchraydigan frazeologik birliklarning ma'no va tarkibiy tahlili berildi hamda ularni o'qitishda qo'llaniladigan metodik usullar yoritildi.

Shu o'rinda quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- Har bir frazeologik birikmaga illyustratsiya, misol yoki o'yinli topshiriq kiritilishi foydali;

- O'quvchilar uchun soddalashtirilgan "Frazeologik lug'at" yaratilsa, bu o'zlashtirishni yengillashtiradi;

- Ona tili darslarida iboraviy nutqni shakllantirishga yo'naltirilgan mini-loyihalar (dialoglar, hikoyalar yozish) tashkil etish foydali bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Ona tili va adabiyot darslarida frazeologizmlar. – Toshkent: Fan, 2021.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi hisobotlari, 2023.
3. Boshlang'ich sinf ona tili darsliklari (1–4-sinflar), 2020–2024 yillar nashrlari.
4. Jo'rayev A. Frazeologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
5. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA "SHAXS" TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 182-196.
6. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.
7. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. *Scientific progress*, 3(4), 506-514.
8. Tillaboyeva, G. S. (2023). FORMATION STAGES OF ANCIENT PERIOD DRESSES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).
9. Tillaboyeva, G. S. TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA SHE'RNI O'RGATISH YUZASIDAN TAVSIYALAR

Usmonova Odinoxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mirzabekova Shahnoza Abdulboriyevna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda o'qish darslarida she'riy asarlarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega. o'yin . Ushbu Maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligi darslarida she'rlarni tahlil qilish va uni o'quvchilarga o'rgatish metodikasi yuzasidan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: she'r, barmoq vazni, erkin vazn, aruz vazni, qofiya, qoidalar.

Boshlang'ich sinf o'qish darsliklaridagi she'riy asarlar bolalarning yoshiga mosligi bilan boshqa she'rlardan ajralib turadi .Bunday she'rlar Abdulla Oripovning ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdulla Oripov 1941 yil 21 martda Qashqadaryo viloyatining Koson tumanida tug'ilgan . 1965 yilda birinchi she'riy to'plami "Mitti yulduz" bosmadan

chiqgan. Abdulla Oripov she'riyatida "O'zbekiston"(Qasida), "Men nechun sevaman O'zbekistonni", "Ona sayyora", "Temir odam", "Birinchi muhabbatim", "Tilla baliqcha", "Ishonch ko'priklari", "Uylarim", "Bahor", "Hangoma" singari she'rlari muhim o'rin tutadi. Abdulla Oripovning asarlari haqida qaysi sinfdan bilim berishdan qat'iy nazar, shoirning hayoti va ijodi haqida yuqoridagicha ma'lumotlar berish maqsadga muvofiqdir. Ushbu maqola orqali iste'dodli shoirning "Iqboli buyuksan" she'rini o'quvchilarga qanday o'rgatish haqida taklif va tavsiyalar berib o'tiladi.

Abdulla Oripovning "Iqboli buyuksan" she'rini o'quvchilarga o'rgatishda o'qituvchi oldindan she'rni tahlili (lingvistik, badiiy) ustida ishlashi lozim. Tahlilda she'r muallifi va uning ijodi haqida ma'lumot, she'rda nechta so'z ishtirok etgan va nechtasi takror ishlangan, o'quvchilarga notanish bo'lgan so'zlar haqida tushuncha beribgina qolmasdan, qofiya, turoq, hijo va shunga o'xshash she'riyatning muhim belgilariga ham to'xtalib o'tish zarur.

"Iqboli buyuksan" she'ri vatan mavzusida yozilgan bo'lib, o'zbek farzandiga qarata aytilgan o'gitlar bilan she'r mazmuni boyitilgan. Ushbu she'r o'quvchining ota-onaga, ustozga nisbatan hurmatini oshirish, mehnatsevarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini yanada rivojlantirish uchun xizmat qiladi. "Iqboli buyuksan" she'rida 53 ta so'z ishtirok etib, undan "erur", "sen" so'zlari ikki martadan qo'llanilgan. She'rda "esa", "albatta", "g'oyatda", "erur", "ham", "va", "lekin" singari yordamchi so'zlardan foydalanilgan. She'r ikki misra, bir bandli masnaviy usulida yozilgan.

Ma'lumki, she'rlar 3 xil vaznda yoziladi. 1. Barmoq vazni. 2. Erkin vazn. 3. Aruz vazni.

Shoir Abdulla Oripovning qalamiga mansub bo'lgan ushbu she'r barmoq vaznda yozilgan. Barmoq vazni xalqimizning eng qadimgi og'zaki she'riyati namunalari asosida yuzaga kelgan bo'lib, u misralardagi bo'g'inlar sonining baravarligi va ularning bir xilda guruhlanishiga tayanadi. Barmoqda yozilgan she'rning ritmik xususiyatlarini bo'g'inlar sonining tengligigina belgilamaydi, bunda misralarda bo'g'inlarning qay tartibda turoqlanishi (guruhlanishi) ham katta ahamiyatga ega. "Iqboli buyuksan" she'rida misralardagi bo'g'inlar sonining tengligi 3+3+3, to'qqiz bo'g'inli barmoq vazni shaklida yozilgan. O'quvchilarga she'rni o'qish ohangdorligini, she'r misralarida takrorlanib turadigan vazniy birlik (turoq)ni, to'xtamni, pasayuvchi, yuksaluvchi intonatsiya bo'lishini tushuntirish uchun quyidagi belgi qo'yilgan joylarga e'tibor qaratiladi.

Avvalo/ rahmatdir /Onaga,
So'ng esa/ albatta / Otaga.

Bizlarga /eslatmish / hayotni,
Unutmang / hech qachon/ ustozni.

Sen o'zbek/ elining/ farzandi,
Istiqlol / yurtining / dilbandi...

Vatanning / g'oyatda/ keng erur,
Barchaga/ barobar , /teng erur.

Mehnatda /qotsa ham / suyaging ,
Hech yerga/ tegmasin / kuraging.

Chiniqtir / mayliga / sen tanni,
Unutma / va lekin / Vatanni.

Bolajon, / sen doim /suyuksan,
Bilib qo'y, / iqboli / buyuksan!

Shoirning badiiy mahoratini belgilashda qofiya muhim ahamiyat kasb etadi. Qofiya(arabcha-misra oxiridagi soʻzlarning bir-biriga mos boʻlishi) sheʼriy asarlar oxiridagi qoʻshimcha,soʻz , baʼzan soʻz birikmalarining ohangdosh boʻlib kelishi ,aniqrogʻi, ularning tarkibidagi tovushlar guruhining ohangdoshligi hisoblanadi. Sheʼryatning muhim belgilaridan biri bu qofiya boʻlib , u “izdan bormoq” , “ergashmoq” maʼnolarin bildiradi.“Iqboli buyuksan ” sheʼrida quyidagi soʻzlar bir-biri bilan qofiyalangan: onaga – otaga, hayotni –ustozni, farzandi-dilbandi, keng-teng , suyaging - kuraging, tanni-Vatanni, suyuksan-buyuksan. Qofiyalanish a-a, b-b, s-s, d-d tartibida berilgan. Qofiyadosh soʻzlardan hayotni-ustozni soʻzlarida qofiya talabi biroz buzilgan.Chunki, soʻzlarning oʻzagiga eʼtibor qaratilganda “hayot” soʻzi bilan “ustoz” soʻzlarida hech qanday qofiyadoshlik mavjud emas.

Boshlangʻich sinf oʻquvchilariga har bir sheʼrni oʻrgatishda maʼnosi va imlosi notanish boʻlgan soʻzlarga izoh beriladi.Shu jumladan “Iqboli buyuksan” sheʼrida “dilbandi” soʻzi notanish soʻz boʻlishi mumkin. Oʻzbek tilning izohli lugʻatida berilishicha “dilband” soʻzi ikki xil maʼnoda qollaniladi.1.Sifat.Dilni oʻziga tortuvchi, maftun etuvchi.2.Ot. Sevikli bola, aziz farzand.

Demak, ushbu sheʼrda “dilbandi” soʻzi sevikli bolasi, aziz farzandi maʼnolarida qoʻllanilgan.

Sheʼrda arabcha, fors –tojikcha, turkiy tillarga oid soʻzlardan foydalanilgan.Masalan, sheʼrning ikkinchi bandidagi “Bizlarga eslatmish hayotni” misrasida, bizlarga-turkiy, eslatmish-forscha, hayotni-arabcha soʻzlardan olingan.Soʻzlarni qaysi tillardan olinganligini bilish uchun quyidagi qonuniyatlar haqida maʼlumotga ega boʻlish lozim. Soʻz boshida qator undosh bilan kelgan soʻzlar yevropa tillaridan kirib kelgan soʻzlar hisoblanadi.Soʻz oxirida qator undosh bilan kelgan soʻzlar esa asosan fors - tojik tilidan oʻtgan.A,o,u,i unilari qoʻshaloq holda kelishi arab, rus tillari orqali uzlashgan soʻzlar hisoblanadi.Agar har bir boshlangʻich sinf oʻqituvchisi bu maʼlumotlarga ega boʻlsa, albatta har bir soʻzning qaysi tildan kirib kelganligini farqlay oladi. Bu soʻzlarni tahlil qilish natijasida oʻquvchilarning lugʻat boyligini ham oshirishga erishiladi.

Oʻqish darsliklaridagi sheʼriy asarlar va boshqa matnlar ogʻzaki va yozma nutqni oʻstiradi, mustaqil fikrlashni va badiiy tafakkurni yanada rivojlantirishga yordam beradi.Oʻzbekiston xalq shoiri Abdulla Oripovning “Iqboli buyuksan” sheʼrini oʻrgatish, oʻquvchilarning maʼnaviy–maʼrifiy tushunchalarini chuqurlashtiribgina qolmasdan, ularga badiiy zavq ulashishga ham katta xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. D.Qurbonov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. “Adabiyotshunoslik lugʻati”, Toshkent: “Akademnashr”, 2010yil 383-bet.
2. Z.M.Maʼrufov . “Oʻzbek tilning izohli lugʻati”1-tom. Moskva : “Rus tili” nashriyoti, 1981 yil. 225 -bet.
3. Nargiza Erkaboyeva “Oʻzbek tilidan maʼruzalar toʻplami”Toshkent “Akademnashr” 2014y.29-bet

OʻZBEK TILSHUNOSLIGIDA ATAMALAR LUGʻATI ORQALI BOSHLANGʻICH SINIF OʻQUVCHILARI NUTQINI OʻSTIRISH

Muxtoriy Mohroʻy Sodirzoda

FarDU oʻqituvchisi

Isomiddinova Mohigul Muzaffarjon qizi

BTva STI yoʻnalinishi talabasi

Annotatsiya: Bu maqolada boshlangʻich sinf oʻquvchilarining nutqini oʻstirishda oʻzbek tilshunosligidagi atamalar lugʻatining ahamiyati va atamalarni oʻquvchi nutqiga kiritish orqali oʻquvchilar nutqini oʻstirishning yoʻl va usullari koʻrsatib berilgan.

Kalit soʻzlar: atama, atamashunoslik, lugʻat, atamalar lugʻati, boshlangʻich sinf, nutq, nutq koʻnikmalari, nutqiy konpitiya, nutq turlari.

Maʼlumki atamashunoslik lugʻatlar atamashunoslikni tartibga solishda oʻziga xos ahamiyat kasb etadi. Akademik Gʻ.Abdurahmonov atamashunoslik lugʻatlarni maʼlum fan sohasiga xizmat qilibgina qolmay atamalarni tartibga solish, takomillashtirish hamda standartlashtirishda ham muhim roʻl oʻynashini taʼkidlab oʻtgan. Atamashunoslik lugʻatlari uchun atama tanlash nihoyatda masʼulyatli ish. Chunki har bir atama maʼlum tushunchani toʻgʻri ifodalashi oʻzi ifodalangan sohaga va ayni chogʻda ona tili qonuniyatlariga mos boʻlishi shart. Tanlangan atama bir maʼnoli, ixcham soʻz yoki birikmadan iborat boʻlishi, qolaversa u sinonimlarga ega boʻlmasligi kerak. Atamashunoslik lugʻatlar bir tilda yoki ikki tilda tuzilib uning vazifasi har bir sohadagi atamalarni izohlab, tushuntirib berishdan iborat. Bunday lugʻatlar “Maxsus lugʻatlar”, yaʼni “Soha lugʻatlar” deb ham yuritiladi. Atamashunoslik lugʻatlar har qaysi soha boʻyicha tuziladi ilmiy uslubdagi leksikada atamalar alohida oʻrinni egallaydi. Atamalar oʻquvchilar nutqini oshirishda ham muhim oʻrin tutadi. Atamalar oʻyinlar yordamida taʼlim jarayoniga singdirilsa, ijobiy natijaga erishishimiz mumkin. Bolalar nutqini oʻstirishda turli xil didaktik oʻyinlarni tez-tez tashkil etish yoʻli bilan berilayotgan bilimni tez oʻzlashtirish imkoni tugʻiladi.⁷

Tilshunoslikda atamashunoslik ilmiy uslubining alomatlari yetakchi deb tan olingan. Hozirgi zamon fani va texnikasi diferensiyalashish va maxsuslashish bilan xarakterlanadi. Masalan, zamonaviy fanlar 500 dan ortiq soha va tarmoqlarga boʻlinib ketganki, ularning xar qaysisi oʻzining takomillashtirilgan atamashunosligiga ega. Shu bilan birga fan va texnikaning barcha soha va tarmoqlari maxsuslashgan boʻlishi bilan bir qatorda umumiy hamdir, binobarin, ular soha mutaxassislarining tor manfaatlarini bilan cheklanib qolmaydi.

Atamalar aniq amaliy ishlarda qoʻllash uchun qulay boʻlmogʻi lozim. Zamonaviy atamashunoslik xarakterli xususiyatlardan biri. Mutanosib boʻlmagan keng ommaning u yoki bu darajalari tor mutaxassislar oʻrtasida qoʻlaniladigan atamalar bilan duch kelishini taqazo qiladi. Negaki fan va texnika, ayniqsa, bizning mamalaktimizda keng ommaning mulki boʻlib qoladi.

Hozirgi kunda bir lugʻatni barpo qilish uni oʻxshashligini, mosligini, unga qanday erishishni koʻrsata bilish va hal etish zarurdir. Uning birinchi darjadagi, muhimligi leksikografiya faoliyatini uslublarini qayta ishlashdir. Lugʻatlar oʻquvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishda muhim oʻrin tutsa, nutq oʻquvchilar tafakkurini oʻstirishda muhim vositadir, ayniqsa kichik yoshdagi oʻquvchilarda. Nutq fikrni bayon etish vositasi boʻlibgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir.⁸

Lugʻatlarni yaratishda eng muhimi asosiy pozitsiyadan kelib chiqib, ularni birlamchi muamolarni yechish kerak. Shuning uchun yuqoridagi talablar bir-biri bilan bogʻliq: ularning munosabatlari, qanday konkret voqeʻlikda qanday izlanishlarga bogʻliq. Nazariy qayta koʻrish bilan birga amalda ham oʻrganish lugʻatlarning tuzilishiga yani strukturasi taʼsiri boʻladi. Sanab oʻtilgan talablar lugʻatlarni klasifikatsiyalashda xizmat qiladi. Shuning bilan birga u yoki bu talablarga mos keladigan darajadagi lugʻatlar kelib chiqadi.

Biroq bunday lugʻatlar oʻquvchilarga faqat matn oʻqishda yordam beradi. Oʻquvchilarda esa koʻpincha uy vazifasidan darsda maʼlum masalalar muhokama qilinishini anglab, unga tayyorlanayotgan vaqtlarida biror soʻzning maʼnosini toʻgʻri emasligiga shubhalangan vaqtda ushbu soʻzni lugʻatdan koʻrish istagi paydo boʻlib qoladi. Bunday hollarda darsliklardagi chet tili ona tili lugʻatlari ularga yordam bermaydi. Baʼzi mualliflar, chunonchi I. E. Anichkov alohida olingan soʻzlarning ahamiyatini inkor etadi, u faqat gaplarni va ogʻzaki nutqni oʻrgatishni taklif etadi. Biroq masalaga shu nuqtai nazardan qarasa, u vaqtda alohida ajratib olingan soʻzlarni tushunish uchun moʻljallangan nutq xam oʻz fikrini bayon qilish uchun nutqni ham oʻrgatish

⁷ Adizova, N. B. (2021). Boshlangʻich sinf oʻquvchilari nutqini oʻstirishda mustaqil ishlarning oʻrni va ahamiyati. *Scientific progress*, 2(7), 1010-1016.

⁸ Javlijevna, X. Z., & Parpiyev, O. (2023). Boshlangʻich sinflarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish. *Qoʻqon universiteti xabarnomasi*, 645-650.

lozim deb hisoblash kerak. Shunday bo'lganda chet tili rus lug'atlariga ham nisbatan ehtiyoj qolmaydi.

Atamashunoslik muammosi juda murakkab ilmiy muammolar qatorida turadi. Uni tuzishda har hil soha tilshunoslarigina emas balki turli boshqa fanlar doirasidagi mutaxassislari ham ishtirok etishi mumkin.

Atamashunoslik bu qat'iy bir ma'noni anglatuvchi so'z. Qoida bo'yicha atamaologiya bir ma'noni bildiradi. Aniqroq qilib aytganda atamashunoslik bir ma'nolilikka intiladi(monosemiya) to'g'risini aytish kerak, o'zbek tili Atamashunoslikning nazariy masalalari amaliyotdan ajralib qoldi. Natijada sifati bir muncha past bo'lgan qator atamalar lug'atlari yuzaga keldi. 70-80-yillarda nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalarida, ma'lumotnomalarida, shuningdek, davriy nashrlarda atamashunoslik talablarga javob bera olmaydigan atamalar tez-tez qo'llana boshladi. O'zbek tili atamashunosligidagi asosiy kamchiliklar nimalardan iborat.

O'zbek tillarida atama yasashning vositalarida har xil bo'lib ularning bir necha turlari mavjud atamashunoslikda keng qo'llanadigan tiplari affiksial va kompozitsiya (so'z qo'shish) usullaridir. Bu usul orqali sodda yasama va murakkab (qo'shma) atamalar hosil qiladi.

Atamashunoslikda, jumladan o'zbek atamashunosligida hozirgi kunda qo'shma, juft sostavli (birikmali)atamalari chegarasi ularning atamashunoslikda qo'llanish mezonlari belgilanmagan ularni orfografiyasida qator chalkashliklar mavjud. Ushbu muammolar o'quvchilarda atamalarni o'rganishda biroz qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Ushbu jarayonda muammoli o'qitish usulidan foydalanish tavsiya etiladi. Muammoli o'qitish pedagogika fanining eng keyingi yutuqlaridan biri, talim jarayonida bolalarning topqirlik layoqatini taraqqiy ettirishning eng mahsuldor yo'li hisoblanadi.⁹ Muammoli ta'lim boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq madaniyatini oshirishiga va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.¹⁰

Nutq o'stirish shaxsiy rivojlanishning ajralmas qismidir, chunki u orqali inson o'z fikrini ravon, aniq va ishonchli tarzda ifoda eta oladi, bu esa jamiyatda muvaffaqiyat qozonishga zamin yaratadi. Muntazam kitob o'qish, tahliliy fikrlash va suhbatlarda faol qatnashish nutqni boyitishda muhim omillardir, chunki bu faoliyatlar lug'at boyligini oshiradi va fikrni ifodalash qobiliyatini kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adizova, N. B. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. *Scientific progress*, 2(7), 1010-1016.
2. Jasmina, M. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. *Innovative developments and research in education*, 3(30), 284-294.
3. Javliyevna, X. Z., & Parpiyev, O. (2023). Boshlang'ich sinflarda nutqiy savodxonlikni rivojlantirish. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 645-650.
4. Xoliqulova, M. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda maqol va matallarning o'rni. *Modern Science and Research*, 4(2), 1143-1148

⁹ Jasmina, M. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. *Innovative developments and research in education*, 3(30), 284-294.

¹⁰ Xoliqulova, M. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirishda maqol va matallarning o'rni. *Modern Science and Research*, 4(2), 1143-1148

TA'LIM SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Asqarova Dilafuz Ibroximovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Mamadjonova Shoxista G'afurjon qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, raqamli platformalar yordamida o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtirish imkoniyatlarini yoritgan. Pedagogik texnologiyalar vositasida o'quvchilarni ijodiy fikrlashga undash, refleksiv tahlil ko'nikmalarini shakllantirish va ta'lim sifatini oshirish asosiy maqsad sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, maqolada innovatsion texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda o'qituvchining roli, kasbiy kompetensiyasi va uzluksiz rivojlanish zarurati ham alohida ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, zamonaviy pedagogika, ta'lim samaradorligi, interfaol metodlar, raqamli ta'lim, STEAM, masofaviy ta'lim.

Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'liqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: "Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi".

Globalashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va jamiyat ehtiyojlarining o'zgarishi ta'lim tizimiga yangi talablarni qo'ymoqda. Ayniqsa, O'zbekiston kabi taraqqiyot sari intilayotgan mamlakatlar uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxsni tarbiyalash dolzarb masalaga aylangan. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik jarayonni takomillashtirish, an'anaviy yondashuvlardan voz kechib, innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangan ta'lim metodlarini qo'llashni taqozo etmoqda.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar deganda, o'qitish jarayonida ilg'or g'oya va uslublardan foydalanish, ta'lim oluvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan yangicha yondashuvlar tushuniladi. Bunday texnologiyalar o'quv jarayonini o'quvchi shaxsiga yo'naltirish, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa faqatgina texnik vositalardan foydalanish emas, balki didaktik maqsadga erishish uchun interfaol metodlar, muammoli vaziyatlar, loyihaviy ta'lim, aks ettiruvchi fikrlash kabi yondashuvlarni o'z ichiga oladi.

Innovatsion texnologiyalarning eng samarali jihatlaridan biri bu – o'quvchi shaxsini faol subyekt sifatida ko'rib, ularni bilim olish jarayonining to'laqonli ishtirokchisiga aylantirishdir. Misol uchun, "kritik fikrlash" asosida qurilgan metodlar, "klaster", "aqliy hujum", "blits-so'rov", "debat" kabi uslublar orqali talabalarda muammoni tahlil qilish, muqobil yechimlar topish va fikrini asoslash ko'nikmalari rivojlanadi. Shuningdek, STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) texnologiyasidan foydalanish orqali fanlararo integratsiya ta'minlanib, o'quvchilarda real hayotga yaqin fikrlash va amaliy ko'nikmalar shakllanadi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning yana bir muhim yo'nalishi bu – raqamli texnologiyalarning ta'limga integratsiyalashuvi hisoblanadi. Masofaviy ta'lim, interfaol platformalar, virtual laboratoriyalar, elektron test tizimlari, video-darslar va mobil ilovalar orqali ta'limning mavjud shakllari kengayib, individual yondashuv uchun qulayliklar yaratilmoqda. Ayniqsa, pandemiya davrida ushbu texnologiyalarning dolzarbligi va samaradorligi amalda isbotlandi.

Innovatsion texnologiyalarning samarali qo'llanilishi o'qituvchining faolligi, tashabbuskorligi va yangilikka ochiqiligiga ham bog'liq. Zamonaviy pedagog faqat bilim beruvchi emas, balki o'rgatuvchi, yo'l ko'rsatuvchi, maslahat beruvchi va motivatsiya uyg'otuvchi shaxs bo'lishi zarur. Shu bois, pedagoglar uchun uzluksiz kasbiy rivojlanish, malaka oshirish kurslari, tajriba almashish maydonlari – zamonaviy ta'limning ajralmas bo'lagiga aylanmoqda.

Shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini, qiziqishlarini va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda "shaxsga yo'naltirilgan ta'lim" texnologiyasini qo'llash ham muhim ahamiyatga ega. Bu uslub orqali har bir o'quvchining o'ziga xos fikrlash doirasi, o'rganish uslubi va rivojlanish sur'atlari hisobga olinib, ta'limda inklyuzivlik va teng imkoniyatlar tamoyili ta'minlanadi.

Yana bir muhim jihat – bu o'quvchilarda reflektiv (aks ettiruvchi) fikrlashni shakllantirishdir. Refleksiya orqali o'quvchi nafaqat ma'lumotni qabul qiladi, balki uni anglaydi, o'z fikrini shakllantiradi, baholaydi va unga o'z nuqtayi nazarini bildiradi. Bunday yondashuv esa o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va ongli qarorlar qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Ta'lim samaradorligini oshirishda innovatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyosdir. Ular orqali o'quv jarayonida yuqori sifatli, shaxsga yo'naltirilgan, ijodiy fikrlovchi va raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashga erishiladi. Shu bois, har bir pedagog zamonaviy yondashuvlarni chuqur o'zlashtirishi, ularni amaliyotda qo'llashi va o'quvchilar bilan o'zaro hamkorlikda faol o'quv muhiti yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A.A. *Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
2. Xasanboyeva S.X. *Innovatsion ta'lim texnologiyalari*. – Toshkent: "Ilm Ziyo", 2019.
3. Qodirova M. *Zamonaviy pedagogik yondashuvlar*. – Samarqand: "Registon", 2021.
4. UNESCO. *ICT in Education: A Critical Literature Review and Its Implications*. – 2020.
5. Jonassen D.H. *Learning to Solve Problems with Technology: A Constructivist Perspective*. – Pearson Education, 2015.
6. Vygotsky, L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Harvard University Press, 1978.

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING JANRLARNI O'RGANISH
JARAYONINI INTENSIVLASHTIRISH**

Usmonova Odinaxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Toshmatova Dilafuz Axlidinovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'lumotlarni o'rgatishda mnemotexnikadan foydalanishning samaradorligi yuzasidan fikr va mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, Kollaj, raqam, akrostik va boshqa usullardan foydalanish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini nutqini o'stirishda ahamiyatligi yuzasidan ilmiy asoslar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: she'riy asar, nutq texnikasi, vizual, assotsiatsiya, ta'lim berish, izchillik, texnologiya, muloqot, modellashtirish, o'rganish, usullar, tasavvur qilish, assotsiatsiya, akrostik, raqam.

Boshlang'ich sinflarda ma'lumotlarni o'rganish jarayonini intensivlashtirishga qaratilgan usullar yordamida o'quvchilar oz muddat mobaynida juda ko'p ma'lumotlarni tez va oson o'rganadilar. Bunga mnemotexnik usullar misol bo'la oladi. Mnemotexnik usullardan foydalanish orqali o'quvchi tanqidiy fikrlaydi, ijodiy yondashadi va jamoa bilan yoki individual ishlash jarayonida muloqot qila olish malakasi shakllanadi. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligini o'rgatishda o'qituvchilardan juda katta mahorat talab etiladi.

O'quvchilar turli janrlarni o'rganishlari uchun bir nechta mnemotexnik usullarni tavsiya etishimiz mumkin.

Akrostik. Bu – gapning birinchi harflaridan qaysidir ma'lumotni eslab qolish. “Akrostik – bu har bir so'zning bosh harflari kalit so'z sifatida ishlatiladigan ibora yoki she'rdir”. Kamalak ranglarini eslash uchun quyidagi gapning bosh harflarini olamiz. “*Qaysidir osmondagi sayyoraga yerdagi haqiqiy kosmonavt boribdi*”.

Qaysidir – qizil, Osmondagi – olovrang, Sayyoraga – sariq, Yerdagi – yashil, Haqiqiy – havorang, Kosmonavt – ko'k, Boribdi – binafsha.

Zanjir. Bu usulda o'rganiladigan ma'lumotlar bir-biriga zanjir sifatida bog'lab chiqiladi. Bog'lashda antiqa hikoyadan foydalanilsa, ma'lumot yanada esda qolarli bo'ladi. Ushbu yodlash texnikasining mohiyati so'zlarni yoki rasmlarni bir-biri bilan bog'lashdir. Zanjir usulida ma'lumotni bir-biriga ulashda ketma-ketlikka e'tibor beriladi. Buni qo'llaganda o'quvchining ma'lumotni o'rganish tezligi oshadi. A.Joshkun tadqiqotida “zanjir metodi”ga quyidagicha izoh bergan: “Assotsiatsiya zanjirlari – ushbu usulda ta'lim mazmuni ketma-ketlikda joylashtiriladi. Uni muayyan tarkibning tartibi muhim bo'lganda qo'llash mumkin”. Birlashtirilgan tasvirlar haqiqatdan juda katta farq qilishi mumkin. Zanjir usuli bilan eslab qolinganda, tasvirlar juft-juft bo'lib bog'lanadi. Nisbiy har bir juftlikdagi rasmlarning o'lchamlari bir xil bo'lishi kerak. Bir nechta eslab qolish va qo'llab-quvvatlovchi tasvirlarni shakllantirish uchun, ketma-ketlikni yodlashning boshqa usullari bilan kombinatsiyalarda ishlatiladi. Rus tadqiqotchisi V.Kozarenko zanjir usulini tasvirlashda rasmlarni bir-biriga bog'lashdan foydalangan.

Raqam. Raqamlarni harflar, so'zlar va rasmlar bilan almashtirish mumkin. Misol uchun, 0 – doira, 1 – qalam, 2 – ko'zoynaklar, 3 – lyustralar, 4 – stul, 5 – yulduz, 6 – soqol, 7 – hafta, 8 – o'rgimchak va hokazo. Raqamli ketma-ketlik quyidagicha o'rganiladi. Agar o'quvchi uzun raqamni eslab qolishi kerak bo'lsa, uni juftlarga bo'lishi mumkin. Masalan, 739 812 raqamini eslab qolish kerak bo'lsa, raqamni yana raqamlarga tarqatiladi: 73, 98 va 12.

Bizning fikrimizcha, mnemotexnikadan foydalanish, nafaqat maktabda, balki, oilada otanelar yordamida ham qo'llanilishi mumkin. Masalan, oilada o'quvchi uy vazifasini bajarish

vaqtida 1 dan 10 gacha sonlarni yozish jarayonida 2, 4, 7, 0 va 8 sonlarni esdan chiqargan bo'lsa, quyidagi mnemorasmani taqdim etishlari mumkin. (1-rasmga qarang)



1-rasm. Raqamlarni eslab qolish

Alifbo tartibini eslab qolish va yangi so'zlar hosil qilish uchun ham raqamlardan foydalanish mumkin: 1-A, 2-B, 3-D, 4-E [11; 6-b]. Masalan, 21, 1, 19, 1, 13 raqamlaridan VATAN so'zi hosil qilinadi.

Jadval usuli. Ushbu mnemotexnikani qo'llashda, eng avvalo, uning qoidalariga rioya qilish lozim. O'quvchilar uchun rangli jadvallar yoki rasmlar taqdim etish juda muhim. Chunki oq va qora rangdagi rasmlar kichik yoshdagi o'quvchilarni qiziqitmaydi. Jadvallarda berilgan rasmlar soni ham 7 yoki 9 tadan oshib ketsa, o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. Agar jadvallar doim bir mavzuga oid tuzilsa ham o'quvchining xotirasi rivojlanmaydi.

Mnemonik jadvallar bilan darslarda ishlash 5 bosqichdan iborat:

1-bosqich: jadvalni ko'rib chiqish va unda tasvirlangan narsalarni tahlil qilish;

2-bosqich: axborotni transkodlash amalga oshiriladi, ya'ni, mavhum belgilardan tasvirlarga o'tish;

3-bosqich: transkodlashdan so'ng, ertak yoki hikoya berilgan mavzu bo'yicha qayta hikoya qilinadi;

4-bosqich: mnemonik jadvalning grafik eskizi shakllantiriladi.

5-bosqich: jadval o'quvchilar tomonidan aytib beriladi

L.Xoxlovaning fikriga ko'ra, "mnemonik jadvallar shunday tuzilganki, ulardan hikoyalar tuziladi". Bunday jadvallarni qo'llashdan oldin mnemokvadratlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Jadvallarning soni ham ko'p bo'lmasligi talab etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga rangli jadvallardan foydalanish kerak. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun bir kunda bir yoki ikkita jadvalni o'rganish yetarli hisoblanadi. Mnemonik jadvallar bilan ishlash usullarini o'zlashtirish o'rganish vaqtini sezilarli darajada qisqartiradi va shu bilan birga asosiy aqliy jarayonlarni – xotira, e'tibor, xayoliy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan muammolarni hal qiladi.

Mnemonik jadvallarning hajmi o'quvchilarning yoshiga, ularning rivojlanish darajasiga qarab har xil tuziladi. Mnemonik jadvallar she'rlarni o'rganishda, ayniqsa, samarali. Har bir so'z yoki kichik ibora uchun rasm ixtiro qilinadi, shunda butun she'r sxematik tarzda chiziladi. Shundan so'ng, o'quvchi xotiradan grafik tasvirdan foydalanib, butun she'rni takrorlaydi. Dastlabki bosqichda o'qituvchilar tayyor reja sxemasini taklif qilishadi va ular o'rganayotganda o'quvchi o'z sxemasini yaratish jarayonida ham faol ishtirok etadi. She'rni jadval shaklida tashkil qilish qulayroq. Ushbu jadvalning har bir katakchasi she'rdan bitta so'z yoki butun iboraga mos kelishi mumkin. O'quvchi qofiyalarni yanada muvaffaqiyatli takrorlay oladi. Shuning uchun ham mnemojadvallardan foydalanish juda samaralidir.

Kollaj. Bu turli xil rasmlar, harflar, raqamlar yopishtirilgan yoki chizilgan karton yoki qalin qog'oz ko'rinishida bo'ladi. Kollaj turli xil ma'lumotlarni tartibsiz usulda joylashtirishga imkon beradi. Ushbu usul rasmi xotirani, nutqni, hayoliy fikrlash va idrokni rivojlantirishga hamda so'z boyligini kengaytirishga yordam beradi. Bu keyinchalik hikoya yodlash usulini qayta ishlashga olib keladi. Yodlashda, har bir o'quvchi o'zi yoqtirgan har qanday texnikadan foydalanishi mumkin. Asosiysi, xotirada ishonchli tarzda o'rnatiladigan g'ayrioddiy, majoziy to'plamlarni shakllantirishdir.

Mnemonotexnik usullar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslarida yozma nutqning fonetik, leksik va grammatik tomondan rivojlantirishga xizmat qilsa, o'qish savodxonligida esa og'zaki nutq va ilmiy dunyoqarashi boyib borishiga xizmat qiladi. Chunki

har qanday janrdagi asarning asosiy elementlarini eslab qolish butun asarni eslab qolishning kalitidir.

Xulosa qilib aytganda, mnemotexnik usullar xotira va diqqatni, nutq va lug'at boyligini, fantaziya va ijodkorlikni rivojlantiradi. Tevarak atrofimizni o'rab turgan ma'lumotlar miqdori har soniyada o'sib bormoqda. Shunday ekan, boshlang'ich sinf o'quvchisi yangi ma'lumotlar bilan ishlashga qodir bo'lishi lozim. Ta'lim jarayonida mnemotexnikaning xilma-xil usullaridan foydalanish juda foydali va samaralidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Козаренко В.А. Учебник мнемотехники. Метод запоминания “Джордано”. – Москва, 2007. – 115с.
2. . Зявгарова Л.А. Игровые технологии на начальном этапе обучения // Альманах школы, 2007, № 139. – С. 70-73.
3. Higbee K. L *Your memory: How it works and how to improve it* (2 ed.). NewYork: Marlow & Co, 1996 – 15 p.
4. Marina Brezović Umfrage zur Verwendung der Mnemotechniken im DaF-Unterricht Diplomski rad Mentorica: dr. sc. – Maja Häusler, 2015 – 85 b.
5. Suchá J. *Trénujte si paměť*. – Praha: Portál. 2010— 211 p
6. Sojková K. Mnemotechnische Hilfsmittel im Unterricht der deutschen Sprache an der Mittelschule. Diplomova Prace. – Plzen, 2013 – 100 p.
7. <http://www.dioo.ru/grammaticheskiy-navyik.html>
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki>

YANGI O'ZBEKISTON TALABASINING TA'LIM VA ILM-FANDAGI O'RNI

Yuldasheva Dilshoda To'lqinovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Abdujalilova Zarnigor Abdurazzoq qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar yoshlarni zamonaviy jamiyatga mos ravishda tarbiyalash va ilmiy bilimlarni taqdim etishning samarali yo'llarini yaratishga qaratilgan. Ta'lim tizimi, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va kasbga tayyorlashni rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar, yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirish va ularni mehnat bozoriga tayyorlashga xizmat qilmoqda. Zamonaviy texnologiyalar va ilm-fan sohasidagi innovatsion yondashuvlar yoshlarni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga qo'shadigan hissalarini oshiradi.

Kalit so'zlar: ta'lim, yoshlar, ilm-fan, ilmiy salohiyat, islohotlar, tarbiya, jamiyat.

Yangi O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar yoshlarni zamonaviy jamiyatga mos ravishda tarbiyalash va ularga ilmiy bilimlarni taqdim etishning samarali yo'llarini yaratishga qaratilgan. Bu islohotlarning markazida talaba-yoshlarning o'rni va ahamiyati beqiyos, chunki yoshlar jamiyatning kelajagi sifatida, ularga berilgan ta'lim va ilm-fan yordamida mamlakatning rivojlanishiga katta hissa qo'shishlari mumkin.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning rahbarligida olib borilgan islohotlar mamlakatni zamonaviy va raqamli iqtisodiyotga mos ravishda rivojlantirishni maqsad qilgan. O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga yo'naltirilgan.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimining asosiy yo'nalishlari sifatida o'qitish metodologiyasini zamonaviylashtirish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, shuningdek, yoshlarni kasbga tayyorlash va ular uchun mehnat bozorida raqobatbardosh imkoniyatlar yaratish ko'zda tutilgan. O'zbekistonning oliy ta'lim tizimida tizimli o'zgarishlar

amalga oshirilmoqda. Misol uchun, universitetlar va oliy o'quv yurtlari ta'lim sifatini oshirish, dunyo miqyosidagi ta'lim metodlarini joriy etish, shuningdek, xalqaro o'quv dasturlarini va grantlarni amalga oshirish kabi chora-tadbirlar ko'rilmogda.

Ilm-fan sohasida ham muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston ilmiy tadqiqotlarni va innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish uchun zarur infratuzilma yaratishga intilmoqda. Ta'lim muassasalarida ilmiy salohiyatni oshirish, yangi texnologiyalarni tadbiiq etish, ilmiy izlanishlar va innovatsion g'oyalar yaratish yoshlar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda.

Yoshlar – jamiyatning kelajagi, ta'lim tizimining asosiy foydalanuvchilari va bilimni ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi asosiy guruhdir. O'zbekistondagi islohotlar yoshlarni ta'limda faol ishtirok etishga undaydi va ularga o'z salohiyatlarini to'liq ro'yobga chiqarish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Bugungi kunda yoshlarni kasbga tayyorlash va ularni mehnat bozoriga tayyorlash o'ta muhim masala hisoblanadi. Yangi O'zbekistonda ushbu yo'nalishda amaliy ta'lim tizimini yaratishga e'tibor qaratilgan. Talabalar nafaqat nazariy bilimlar olishadi, balki amaliy tajriba ham orttirishadi. Oliy o'quv yurtlarida tashkil etilgan innovatsion markazlar, startaplar va ilmiy-laboratoriya komplekslari yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynamoqda.

O'zbekistonning oliy ta'lim muassasalari xalqaro ta'lim standartlariga moslashmoqda. Talabalar uchun xalqaro dasturlar va grantlar joriy etilmoqda, bu esa o'qishni xorijiy oliy o'quv yurtlarida davom ettirish va dunyo miqyosida bilim olish imkoniyatlarini yaratmoqda. Ushbu imkoniyatlar yoshlarning ilm-fan sohasida o'z salohiyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ilm-fan sohasidagi islohotlar yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb etishda katta ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda yoshlarning ilmiy izlanishlarga qo'shadigan hissasi o'ta muhim. Ular zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishda faol ishtirok etib, mamlakat iqtisodiyotini va ijtimoiy sohasini yaxshilashga yordam beradi.

Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalarni rivojlantirishda talabalar va yosh olimlarning o'rni juda muhimdir. Ular yangi g'oyalar va ilmiy yechimlarni taklif qilishda, yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda va ilmiy izlanishlar olib borishda faol ishtirok etadilar. Yangi O'zbekistonda ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish, startaplar va texnoparklar tashkil etish orqali yoshlarning ilmiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortmoqda.

Zamonaviy texnologiyalarni rivojlantirish va ilmiy izlanishlarni yuksaltirish yoshlarni yangi innovatsion sohalarga jalb qilmoqda. Kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt, biotexnologiya va boshqa zamonaviy sohalarda yoshlarning ilmiy ishlarini qo'llab-quvvatlash, innovatsion dasturlarni yaratish imkoniyatlari mavjud. Shuningdek, O'zbekistonning ilmiy jurnallari va konferensiyalarida yosh olimlar o'z ilmiy ishlarini taqdim etib, xalqaro miqyosda tan olinmoqda.

Yoshlarning ta'lim va ilm-fandagi o'rni nafaqat bilim olish bilan bog'liq, balki jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Yangi O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotga faol jalb etish, ularning huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, yoshlarning jamiyatdagi roli va mavqegini oshirishga yo'naltirilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Yoshlarning ta'limga bo'lgan qiziqishlari va ilm-fandagi yutuqlari jamiyatning turli jabhalariga ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb etish, ularni fuqarolik jamiyati faoliyatiga ishtirok etishga undash, shuningdek, yoshlarning huquq va erkinliklari uchun kurashda ularning o'rni alohida ahamiyatga ega.

Yoshlarning ta'lim va ilm-fan sohasidagi muvaffaqiyatlari, ayniqsa iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va texnologik yangilanishlari bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirishga yordam beradi. O'zbekiston iqtisodiyotining diversifikatsiyasiga xizmat qiladigan yoshlarni tayyorlash, ularni zamonaviy bozor ehtiyojlariga javob bera oladigan mutaxassislar sifatida tarbiyalash, mamlakatning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar talaba-yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ularning ilmiy faoliyatga qo'shgan hissasi jamiyatni rivojlantirish va mamlakatning iqtisodiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Yangi ta'lim tizimi yoshlarni nafaqat

ta'lim olishga, balki jamiyatda o'z o'rnini topishga, ilmiy izlanishlar olib borishga va mamlakatning kelajagini yaratishga undaydi. Zamonaviy ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarning muvaffaqiyati yoshlarning faolligiga va ularning bilimga bo'lgan qiziqishiga bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev, Sh. (2017). Yangi O'zbekiston – yangi imkoniyatlar // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ma'ruzasi. – Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
2. Tashkent, O. (2020). Yoshlarni ta'lim va ilm-fanda qo'llab-quvvatlashda davlat siyosati // Ta'lim tizimi va yoshlar: dolzarb masalalar. – Tashkent: O'zbekiston ta'lim nashriyoti.
3. Kasimov, M. (2022). O'zbekistonda ilm-fan va texnologiyalardagi islohotlar // O'zbekiston ilm-fan jurnali, 12(5), 45-50-betlar.
4. Abdullayeva, S. (2021). Ta'limdagi innovatsiyalar va yoshlar // O'zbekiston ta'lim va ilm-fan tadqiqotlari, 4(7), 31-38-betlar.
5. Rasulov, A. (2021). Ilmiy tadqiqotlar va startaplar rivojlanishi // O'zbekiston ilmiy-texnikaviy jurnali, 6(10), 120-125-betlar.
6. Jabborov, T. (2023). Yoshlar va ijtimoiy faollik // O'zbekiston yoshlar siyosati, 9(4), 72-78-betlar.
7. Saidova, N. (2022). Zamonaviy ta'lim tizimida yoshlarning o'rni // Ta'limdagi islohotlar va yoshlar, 3(5), 55-61-betlar.
8. Shodmonov, B. (2020). Oliy ta'limda xalqaro dasturlar va grantlar // O'zbekiston oliy ta'limi jurnali, 8(9), 83-89-betlar.
9. Akramov, A. (2021). O'zbekiston iqtisodiyotidagi texnologik yangilanishlar va yoshlarning roli // O'zbekiston iqtisodiyoti, 10(2), 112-116-betlar.
10. Shaykhov, F. (2023). Ilm-fan va innovatsiyalar yoshlarni rivojlantirishda // O'zbekiston ilmiy-innovatsion jurnali, 5(4), 54-59-betlar.

ВНЕКЛАССНАЯ РАБОТА ПО МАТЕМАТИКЕ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Мансурова Муштарий

Ферганский государственный университет факультет педагогики-психологии и искусствоведения направление начального образования, группа 21.35

Внеклассная работа - это применение педагогом разных видов деятельности учащихся во внеурочное время, которые обеспечивают те условия, которые необходимы для развития личности ребенка.

Внеклассная работа состоит из совокупности различных видов деятельности, и широко воздействуют на воспитание ребенка. Одной из главных целей использования внеклассной работы по математике является развитие интереса учащихся к математике, привлечение учащихся к занятиям в факультативах. У учащихся имеется большое желание проверить свои силы, математические способности, умение решать нестандартные задачи.

Внеклассная работа по математике помогает выявить у учащихся нестандартное мышление, интерес и склонности к предмету «Математика». Это всё важно, так как помогает решать вопрос о подготовке большего количества кадров для участия в олимпиадах и т.п. Руководить воспитательным процессом – это не только поддерживать и развивать способности, заложенные у ребенка природой, но и направлять его в нужное русло, развивать потребность в саморазвитии и самореализации своих способностей.

Внеурочная деятельность раскрывает индивидуальные способности ребенка, которые не всегда удается рассмотреть на уроке. Внеурочные занятия с успехом могут быть использованы для углубления знаний учащихся в области программного материала,

развития их логического мышления, пространственного воображения, исследовательских навыков, смекалки, развития правильной математической речи, привития вкуса к математической литературе. Внеклассная работа создает большие возможности для решения воспитательных задач, стоящих перед школой. Работа в кружке, подготовка математического вечера и другие виды совместных работ способствует воспитанию у детей чувства коллективизма.

Внеурочные занятия с учащимися приносят большую пользу и самому учителю. Чтобы успешно проводить внеклассную работу, учителю требуется постоянно расширять свои познания по математике, следить за новостями математической науки. Это благотворно сказывается и на качестве его уроков. Каждому учителю важно сблизиться с учащимися, а хорошо налаженная внеклассная работа обычно содействует такому сближению. Внеклассная работа по математике является неотъемлемой частью учебного процесса. Она направлена на раскрытие у учащихся индивидуальных способностей, углубления знаний учащихся в области программного материала, развития их логического мышления, воображения, логики и чувства коллективизма.

Существуют различные виды классификации внеклассной работы по математике, они весьма подробно освещены в многочисленной педагогической и методической литературе. Ю.М.Колягин различает три вида внеклассной работы по математике:

1. Работа с учащимися, отстающими от других в изучении программного материала.

Целью внедрения учащихся этого вида во внеклассную работу является выявление и устранение пробелов в знаниях по той или иной теме. Есть такое утверждение, что если есть необходимость в такой работе, значит работа на уроке учителем организована недостаточно хорошо. Но все -таки работа с такими детьми должна проводиться индивидуально и требует от учителя хорошей подготовки.

2. Работа с учащимися, которые проявляют интерес к математике.

Цели этого вида внеклассной работы по математике:

1. Развить и улучшить знания материала по учебной программе.

2. Побудить учащихся к исследовательской работе.

3. Развить нестандартное мышление, математическую речь.

3. Работа с учащимися для развития интереса к изучению математики.

Она проводится учителем для того, чтобы пробудить интерес у детей к математике.

Используются различные формы внеклассной работы:

-математический кружок;

-неделя математики;

-математические вечера;

-утренники, различные соревнования, игры;

-викторины, конкурсы, командные соревнования;

-школьные олимпиады по математике;

-школьная и классная математическая печать;

-математические экскурсии;

Каждый вид внеклассной работы имеет место в образовательном процессе, несущие за собой определенные цели, перечисленные выше.

Все формы внеклассной работы способствуют у учащихся повышению интереса к предмету «Математика», эффективно влияют на успешность учащихся: развивают мышление, логику, память; ликвидируют пробелы в знаниях учащихся по программе.

Характеристика форм внеклассной работы по математике. Во внеклассной работе по математике используются различные формы занятий, способствующие развитию интереса и желанию к изучению математики.

4.Кружковые занятия по математике и методика её проведения

Одной их форм внеклассной работы является *математический кружок*. Организация, содержание и методики его работы хорошо раскрыты в методической литературе.

Математический кружок - одна из наиболее и эффективных форм внеклассных занятий. Обычно учитель организывает кружковые занятия для учащихся хорошо успевающих по предмету. Но учителю следует иметь в виду, что учащиеся, имеющие трудности в изучении программы могут тоже изъявить желание принимать участие в математическом кружке, учитель не должен отказывать им и постараться укрепить и развить желание к изучению математики, которое есть на данном этапе.

При организации математического кружка необходимо заинтересовать учащихся, и сделать так, чтобы кружок не являлся дублированием классных занятий, четко и ясно сформулировать цели и раскрыть характер предстоящей работы.

5. Изготовление учащимися различных моделей и наглядных пособий

Для улучшения качества знаний учитель математики использует на уроках демонстрационный материал, поэтому этот вид работы имеет большое воспитательное значение.

6. Математические экскурсии – интересная, форма внеурочных занятий. Но применяется в школе очень редко. Во время экскурсии ученик может увидеть, где в жизни встречаются геометрические фигуры, которые он изучал на уроках и как они применяются.

Внеклассная работа по математике помогает выяснить учащимся с нестандартным мышлением, учащимся, которые имеют интерес и склонности к занятиям математикой. Внеклассная работа имеет большое влияние на познавательный процесс учащихся. Она связана с главной учебной деятельностью учащихся. Благодаря внеклассной работе учебная деятельность становится интересной, полезной, актуальной.

Различные формы внеклассной работы способствуют развитию восприятия, внимания, мышления, памяти, речи, фантазии, логики, воображения, то есть развитию познавательной деятельности учащихся. Также она формирует творческие способности у детей. Формы внеклассной работы способствуют у учащихся повышению интереса к предмету «Математика» и эффективно влияют на успешность учащихся. Во время внеклассной работы учащиеся учатся работать в коллективе, уважать мнение товарищей, прививает чувства долга и ответственности. А главное, внеклассная работа прививает интерес к предмету.

Каждый ученик при участии во внеклассной работе по математике должен поверить в свои силы, способности и возможности. У каждого учащегося развиваются личные качества: доброжелательность, ответственность, умение работать в коллективе. Учитель может на внеурочных занятиях в максимальной мере учесть возможности, запросы и интересы своих учеников. Внеклассная работа по математике дополняет обязательную учебную работу по предмету и должна, прежде всего, способствовать более глубокому усвоению учащимися материала, предусмотренного программой. Внеклассные занятия с учащимися приносят большую пользу и самому учителю. Чтобы успешно проводить внеклассную работу, учителю приходится постоянно расширять свои познания по математике. Это благотворно сказывается и на качестве его уроков.

Внеклассная работа эффективно влияет на качество знаний и успешность обучения учащихся по математике.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Доморяд А. П. Математические игры и развлечения. – М.: Физматгиз, 1961.
2. Колягин Ю.М., Оганесян В.А., Луканин Г.Л., Методика преподавания математики в средней школе, 1975.-230с
3. Бевз Г.П. Методика викладання математики. – К.: Вища школа, 1989. – 367 с.

4. . Рогановский Н.М. Методика преподавания математики в средней школе. – Минск: Вышэйшая школа, 1990. – 266 с.
5. Петраков И.С. Математические олимпиады школьников. – М.: Просвещение, 1982. – 96 с.
6. Гусев В.А., Орлов А.И., Розенталь А.А. Внеклассная работа по математике в 6–8 классах. – М.: Просвещение, 1990. – 228 с.

BOSHLANG'ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA O'YIN TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Usmonova Odinoxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Mashrabjonova Maftunaxon Mavlonjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda matematika darslarida o'yin texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish va dars samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi. Maqolada boshlang'ich sinflarda matematika darslarida qo'llaniladigan o'yinlarning turlari, qo'llanilish usullari va o'quvchilarning bilim samaradorligini oshirishni qulay yo'llari yuzasidan fikr- mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, rasimli rebus, belgi, harfli rebus, qoidalar.

O'zbek xalqining ulug' allomalaridan biri Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida yosh avlodga bilim berishning turli yo'llari va vositalari haqida tushunchalar bergan bo'lib, ularni mustaqil fikrlaydigan, yangilik yarata oladigan qilib tarbiyalash xususida to'xtalib o'tgan. "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida Beruniy dars samaradorligini oshirish yo'llarini izlash, bolalarning xotirasini rivojlantirishga, fikrlashga o'rgatishni ta'kidlab o'tgan. Maqsad, bolani zeriktirmaslik, darslarni bir-biriga o'xshamagan ko'rgazmali, didaktik o'yinlardan foydalanib o'tish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining 45 daqiqa bir joyda o'tirib darsni tinglashlari juda murakkab kechadi. Bunday murakkab jarayonlarni bola ongiga mavzuni qiyinchiliklarsiz singdirish uchun o'yin va ta'lim faoliyatlarini chambarchas bog'lash lozim. Ya'ni dars jarayonida ta'limiy va harakatli o'yinlardan foydalanish ta'lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo'lishiga erishishimizga yordam berishi mumkin.

Dars samaradorligini oshiradi: harakatli, zamon talabiga mos, yuksak dizaynli, barchani o'ziga jalb eta oladigan ko'rgazmali qurollar, o'quvchilarning yoshiga mos va qiziqarli didaktik o'yinlar, har xil ranglarda tovlanuvchi chizmalar, jadvallar ...

Matematika darslaridagi o'yinlarga quyidagi talablar qo'yilgan.

1. Matematik o'yinlar o'quv predmetlari bo'yicha dastur materialiga muvofiq yo'sinda tanlanishi lozim.
2. Matematik o'yin unda qatnashuvchilarga bilimlar bo'yicha ma'lum talablar qo'yiladigan yo'sinda ishlab chiqilishi kerak.
3. Matematik o'yinning muvaffaqiyatli o'tishi uning maqsadini yaqqol aniqlashiga bog'liq. Chunki bunda o'quvchilarning fikrini maqsadli yo'nalishga solish, ularning ishini bajarishga qiziqishini oshirish imkoniyati tug'iladi.
4. O'yinlarni tanlashda ma'lum izchillikka rioya qilish ham zarur. Mazmunan qiyin o'yinlardan oldin osonroq o'yinlarni o'tkazib, o'quvchilarni navbatdagi o'yinlarga puxtaroq tayyorlash juda muhimdir.

5. Matematik o'yinlarning qoidasini va tashkil etilishini tuzish va ishlab chiqishda o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlarini, ularning turli (b o'sh va kuchli, faol va loqayd) guruhlarini hisobga olish kerak.

6. O'yinning qoidalari sodda, aniq bo'lishi va yaqqol ifodalanishi lozim.

7. Har bir o'quvchi butun o'yin jarayonida faol ishtirok etishi kerak. O'z navbatini uzoq kutish o'yinga qiziqishni susaytirishi mumkinligini unutmaslik kerak.

8. Har bir o'yinga umumiy va yakka tartibda yondashish, undagi topshiriqlarning qiyinlik darajasini va qanchasi mustaqil holda bajarilishini hisobga olish kerak.

Matematik o'yinlardan darsning har bir bosqichida foydalanish tavsiya etiladi. Bundan tashqari darsdan tashqari to'garaklarda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalaniladi. A. Suxominskiy ta'biri bilan aytganda: «O'yinda bolalar oldida olam ochiladi, shaxsning ijodiy qobiliyatlari namoyon bo'ladi». Matematika darslarida didaktik o'yinlar ta'limning k o'rgazmaliligini, o'qituvchining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi. Buning natijasida k o'radiar, eshitadilar va sezadilarl

“Do'stini tanla va masalani yech” o'yini.

Barcha o'quvchilarga tarqatmalar beriladi va tarqatmalarda masalani berilganlari yozilgan bo'ladi. Lekin, nimani topish kerakligi yozilmagan bo'ladi. O'quvchi masalani davomini topishi kerak bo'ladi. Masala shartini bir nechta usulda berish va masalani bir nechta usulda yechish tavsiya etiladi. Masala. Bog'bon bog' yaratish maqsadida 240 t o'p gilos ko'chatini ekishi kerak. U har bir soatda 10 t o'pdan k o'chat o'tqazsa va bir kunda 8 soatdan ishlasa, hamma ko'chatni necha kunda ekib b o'ladi.

Masalani o'quvchilarga oson tushuntirish uchun uning qisqa yozuvini va masalaga oid rasmi ko'rgazmasi k o'rsatilishi lozim.

“Mozayka” o'yini.

Biror qoida qog'ozga qirqib tarqatmalarda yoziladi va o'quvchilar uni to'g'ri joylashtirib o'qib berishlari kerak. Rasmlar qirqib qo'yiladi, o'quvchi o'sha rasmi birlashtirib, rasmda tasvirlangan narsa haqida gapirib berishlari kerak.

M: Uchburchak, t o'rtburchak, aylana, konus. va hokazolar.

“Harfli rebuslar” o'yini .

Bunda berilgan misollarimizdagi ba'zi raqamlar o'rniga harflar beriladi. O'quvchilar harf o'rniga son q o'yib, t o'g'ri javobni topishadi

Harflar o'rniga raqamlar q o'yib, yig'indini toping.

ab8 Javob: 298

++

aba 292

5b0 590

“O'ylab top” o'yini

Sinf 2 guruhga ajratiladi. Bolalar bir-birlariga qarab saflanadilar. 1-guruhdagi birinchi o'quvchi bitta matematika fanidan atama aytadi. 2-chi guruhdagi birinchi o'quvchi uning oxirgi harfiga moslab boshqa matematik atama aytadi. Agar aytolmasa o'yindan chiqadi. O'yin shu tariqa davom etadi.

“Zanjir o'yini”

Bu o'yinda bir son aytiladi keyingi ishtirokchi shu sonni o'zini qo'shib aytadi.

• M: 15 soni aytilsa 2-chi ishtirokchi 15 sonini q o'shib aytadi. 15, 30, 60, 120, 240, 480, 960.....

Matematik o'yinlarda k o'rgazmalardan foydalanilsa, dars yanada samarali b o'lishiga erishiladi.

Demak, mavzularga moslab chiqarilgan har bir k o'rgazma qurol ham didaktik material hisoblanadi. Ko'paytirish jadvallari, geometrik shakllar, formulalar, masalalar yechish uchun berilgan chizmalar. K o'pgina ko'rgazma qurollarni: jadvallar, ba'zi modellar, individual

foydalanish uchun abak, payetka, hisoblash materiallari, tarqatma materiallarning ba'zi turlari va boshqalarni o'quvchilarning o'zlari yasashi mumkin. Har bir ko'rgazmali qurolni tayyorlash o'quvchilarda unga nisbatan qiziqish hosil qiladi. Uni matematik strukturasi bilish ishtiyoqi tug'iladi. Bu esa o'quv materialini yaxshi tushunishga va o'zlashtirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.E. Jumayev, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O'quv qo'llanma) Toshkent. "O'qituvchi" 2004- yil.
2. M.E. Jumayev Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan laboratoriya mashg'ulotlari. (O'quv qo'llanma) Toshkent. "Yangi asr avlodi"2006- yil.
3. www. tdpu. Uz
4. www. pedagog. uz

TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY TAJRIBALARNING AHAMIYATI

Asqarova Dilafruz Ibroximovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Abdukarimova Maftuna Qobiljon qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimida zamonaviy tajribalarning o'rni va ahamiyati tahlil etilgan. Dunyo miqyosida ta'limda yuz berayotgan innovatsion yondashuvlar, raqamlashtirish jarayonlari, interfaol metodlar va ilg'or pedagogik texnologiyalar misolida zamonaviy tajribalar yoritilgan. O'zbekiston ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni joriy etish yo'nalishidagi islohotlar, ularning natijadorligi va dolzarbligi muhokama qilingan. Maqolada zamonaviy ta'lim yondashuvlari talabalarning ijodiy fikrlashi, mustaqil qaror qabul qilishi va muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy tajribalar, ta'lim tizimi, innovatsion metodlar, pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim, xalqaro tajriba, interfaol yondashuvlar

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti bevosita ta'lim tizimi rivoji bilan chambarchas bog'liq. Globallashtirish, raqamlashtirish, sun'iy intellektning keng tatbiqi va axborot oqimlarining keskin ortishi sharoitida ta'lim endilikda nafaqat bilim beruvchi, balki insonni hayotga tayyorlovchi strategik soha sifatida yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ana shunday sharoitda ta'lim tizimida zamonaviy tajribalar, ilg'or xorijiy va milliy pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish muhim dolzarb masalaga aylanmoqda.

Bugungi tezkor o'zgarishlarga boy bo'lgan Yangi O'zbekistonni yaratish bosqichida har bir shaxsdan o'z ichki imkoniyatlaridan yuqori saviyada qo'llash, shu bilimlar zaxirasi bilan yaqinlari va hamkasblari ruhiy dunyosini boshqarishni talab qilmoqda. Aynan mana shunday talablarga mos faoliyat yuritish uchun esa inson o'zidagi tug'ma imkoniyatlarni vaziyatga moslashtira olishi, xolislik bilan faoliyat yuritishi lozim bo'ladi. Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish uzoq muddatli, murakkab jarayon bo'lib, ushbu jarayonning muvaffaqiyatli yakunlanishi umumiy pedagogik faoliyatni mazmun va metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish, yuqori samaradorlikka ega bo'lish va keng ko'lamlil axborotlardan foydalanishdan iborat.

Jahonning yetakchi davlatlari ta'lim tizimidagi islohotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Finlyandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar ta'limga doimiy tajriba maydoni sifatida qaraydi. Ular har bir talabani mustaqil fikrlovchi, muammolarni hal qiluvchi va jamiyatga foydali bo'lgan shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni doimiy joriy etmoqda. Bu tajribalarda pedagogning roli faqat bilim beruvchi emas, balki

yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, sherik vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, darsda talabalar faolligi, tanqidiy fikrlashi, o'z ustida ishlash ko'nikmalari alohida e'tiborga olinadi.

O'zbekiston ta'lim tizimida ham keyingi yillarda zamonaviy tajribalarning bosqichma-bosqich joriy etilishi kuzatilmoqda. Prezidentning ta'lim sifatini oshirish, pedagoglar salohiyatini kuchaytirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish bo'yicha qaror va farmonlari asosida maktabgacha, umumiy o'rta, oliy va kasbiy ta'lim sohalarida keng ko'lamlı islohotlar olib borilmoqda. Xususan, o'quv jarayonlariga zamonaviy tajribalar, elektron platformalar, interfaol metodlar, kredit-modul tizimi va talaba portfeli kabi tajribalar joriy etilmoqda. Bu esa ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy tajribalar deganda, avvalo, pedagogik texnologiyalarning yangilanishi, o'quv jarayoniga innovatsion metodikalar, raqamli platformalar, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar, hamkorlikka asoslangan ta'lim, muammoli o'qitish, loyiha asosida o'rgatish, STEAM texnologiyasi va reflektiv tahlil kabi usullarning kirib kelishi tushuniladi. Bu tajribalar talaba shaxsini markazga qo'ygan, uning ichki motivatsiyasi va qiziqishlarini harakatga keltirgan, faollik va ijodkorlikni targ'ib qilgan zamonaviy ta'lim modelini shakllantiradi.

Zamonaviy tajribalar, shuningdek, pedagoglarning professional rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Pedagoglar endilikda dars beruvchilar emas, balki o'z ustida muntazam ishlovchi, zamon bilan hamnafas bo'lishga intiluvchi, innovatsion yechimlarni izlaydigan mutaxassislar sifatida shakllanmoqda. Bu jarayonda malaka oshirish kurslari, onlayn platformalar orqali pedagoglarning uzluksiz ta'limi, xorijiy tajribalarni o'rganish bo'yicha almashinuv dasturlari va grant loyihalari muhim rol o'ynamoqda.

Shu o'rinda aytish kerakki, har qanday tajriba, u qanchalik ilg'or bo'lmasin, mahalliy sharoit, madaniy kontekst, ta'lim oluvchilarning ehtiyoj va imkoniyatlarini hisobga olgan holda joriy etilishi lozim. Aks holda, u faqat tashqi o'zgarish sifatida qolib, mazmuniy natija bermaydi. Shuning uchun ham zamonaviy tajribalarni tanlash va moslashtirishda ilmiy yondashuv, tajribasinoiv va reflektiv tahlil muhim hisoblanadi.

Ta'lim tizimida zamonaviy tajribalarning ahamiyati nihoyatda katta. Ular nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi, balki talaba shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydi, pedagog mehnatining qadriyatga aylanishiga xizmat qiladi va jamiyatda ilg'or tafakkurli, ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashga zamin yaratadi. Bu esa har bir xalqning barqaror taraqqiyoti, raqobatbardosh kuchga aylanishida eng muhim omil sanaladi. Ta'lim tizimida shaxsning fazilatları faoliyat ko'rsatish jarayonida shakllanadi va faoliyatning natijasi hisoblanadi, shuning uchun bo'lajak o'qituvchilarda yangilikka intilish va mustaqil ishlashga doimo zaruriyat sezish psixologiyasini singdirish lozim. Chunki innovatsiyalar insonga ulug'vorlikdan ko'ra ko'proq zavq bag'ishlaydi. Agar bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash vazifalari yuqori saviyada amalga oshirilsa, ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish samarali bo'ladi hamda sezilarli natijalarga erishish imkoniyati kengayadi.

Oliy ta'lim tizimini islohlari natijasida moddiy texnik bazani mustahkamlash, sifatli pedagogik kadrlar tayyorlash tizimidagi islohotlar, ta'lim va tarbiya jarayoni tubdan yangilash, shuningdek, ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish orqali natijaviylikni ta'minlash imkoniyatlari kengaytirildi. Oliy ta'lim tizimi oldida turgan ustuvor yo'nalishlarda «pedagog kadrlarning kasbiy mahorati sifati va saviyasini uzluksiz yuksaltirish» kabi vazifalar belgilandi. Shu asosda bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuvlar asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash, ushbu yo'nalishdagi vazifalarni tashkil etish texnologiyasi, uslubiy ta'minoti, faoliyatga oid kompetensiyalar tizimi va mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. — Paris, 2017.
2. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — T.: TDPU, 2014.
3. Anderson, L.W., & Krathwohl, D.R. A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives. — New York: Longman, 2001.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Yangi O'zbekiston strategiyasi"dagi ta'limga oid qarorlari.
5. Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. — Harvard University Press, 1978.
6. OECD. Future of Education and Skills 2030. — OECD Publishing, 2018.

TARBIYACHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, ZAMONAVIY TALABLARI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI

Vosibjonova Shalolaxon Abduvali qizi

Farg'ona viloyati Rishton tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi Ijro intizomi va murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiyachining jamiyatdagi o'rni, yosh avlodni ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy rivojlanishiga qo'shgan hissasi tahlil qilingan. Tarbiyachi kasbining o'ziga xos xususiyatlari, zamonaviy talablari hamda kelajak avlod tarbiyasidagi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviy tayanch, globallashuv, innovatsion texnologiyalar, kasbiy mahorat, komil inson, ijodiy yondoshish.

Аннотация. В данной статье анализируется роль воспитателя в обществе, его вклад в социальное, духовное и просветительское развитие. Освещаются особенности профессии воспитателя, современные требования к ней, а также роль воспитателя в воспитании будущего поколения.

Ключевые слова: духовная опора, глобализация, инновационные технологии, профессиональное мастерство, совершенная личность, творческий подход.

Annotation. This article analyzes the role of the educator in society, their contribution to social, spiritual, and educational development. It highlights the distinctive features of the educator's profession, modern requirements for it, as well as the educator's role in shaping future generations.

Key words: spiritual support, globalization, innovative technologies, professional skills, perfect individual, creative approach.

Kirish Jamiyatda pedagog tarbiyachi o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash, mehnatkash xalqimiz farzandlariga har tomonlama bilim berishdek savobli va ma'suliyatli vazifalarni bajaradi. Insoniyat tarixining barcha davrlarida ta'lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotining asosi bo'lib kelgan. Tarbiya jarayonining bosh ishtirokchisi bo'lgan tarbiyachilar bolalarning shaxsiy rivojlanishiga, ularning ma'naviy va axloqiy yetuk inson sifatida shakllanishiga asosiy ta'sir ko'rsatadi. Pedagogning eng buyuk burchi – xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli, uquvli shogirdlar tayyorlashdir. Tarbiyachi - bu nafaqat bilim beruvchi, balki yosh avlodni hayotga tayyorlovchi, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi, ma'naviy tayanch bo'ladigan shaxsdir. U bolalarga bilim, odob-axloq, vatanparvarlik, insonparvarlik kabi umuminsoniy qadriyatlarni singdiradi. Tarbiyachi faoliyati keng ko'lamni qamrab oladi:

Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya: Bolalarga milliy qadriyatlar, urf-odatlar, madaniyat va san'atni o'rgatish. Shaxsning shakllanishi kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan ijtimoiy-tarixiy

tajribani o'zlashtirish, ta'lim-tarbiya berish orqali amalga oshiriladi. Bu turli xil faoliyatlarda yuzaga keladi.

Axloqiy tarbiya: Bolalarda to'g'ri xulq-atvor, odob, hurmat va mehr-oqibat tushunchalarini shakllantirishdan iborat. Shaxsning muhim ma'naviy sifatlari bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish, vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya: Sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish va bolalarni faol hayotga o'rgatish. Bolalarni jismoniy tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad – barchamizning tayanchimiz va suyanchimiz bo'lgan farzandlarimizni har jihatdan sog'lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning jismoniy tarbiyasi ular hayotini saqlash, sog'lig'ini mustah kamlash, harakat malakalarini shakllantirish va to'la ma'nodagi jismoniy tarbiya berish, madaniy – gigienik malakalarni shakllantirish, batartib hayot kechirish odatini singdirishga qaratilgan.

Aqliy tarbiya: Tanqidiy fikrlash, bilim olishga qiziqish uyg'otish. Aqliy tarbiya – bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatishdir. Aqliy tarbiya yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning rejali jarayoni sifatida ro'y beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida tarbiyachi kasbiga qo'yilayotgan talablar zamon talabi asosida yanada ortib bormoqda. Hozirgi zamon tarbiyachisi quyidagi fazilatlariga ega bo'lishi zarur:

- Kasbiy mahorat va pedagogik bilimlarga ega bo'lish;
- Axloqiy poklik va shaxsiy namuna;
- Innovatsion texnologiyalardan keng foydalana olish;
- Doimiy o'zini rivojlantirish va zamon bilan hamnafas bo'lish.

Tarbiyachining jamiyatdagi o'rni faqat ta'lim va tarbiya bilan cheklanmaydi. U ijtimoiy barqarorlik, milliy birlik, fuqarolik ongining shakllanishida ham muhim rol o'ynaydi. Tarbiyachilar kelajak avlodga to'g'ri ta'lim-tarbiyaya berish orqali jamiyat taraqqiyotiga bevosita hissa qo'shadilar. Shuningdek tarbiyachi yosh avlodni halqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim va fahrli shu bilan birga ma'suliyatli vazifani bajaradi. Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarning tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o'z ma'suliyatini anglashga ta'lim - tarbiya ishlarini hal etishga ijodiy yondoshishga o'z mahoratini doimo faollashtirib borish va hamkasblarning ishdagi o'sishga ko'maklashuviga yordam beradi

Xulosa qilib aytganda tarbiyachi- jamiyatning ma'naviy ustuni, kelajak bunyodkori hisoblanadi. Uning faoliyati va mehnati natijasida ma'rifatli, vatanparvar va komil insonlar tarbiya topadi. Shu bois, tarbiyachi kasbiga hurmat bilan qarash va ularning salohiyatini qo'llab-quvvatlash jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni.
2. Jabborova M.Q. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning rol. Scientific progress volume 3 | issue 4 | 2022 issn: 2181-160
3. Jabborova M.Q. Tarbiyachi kasbining ma'naviy axloqiy negizlari. "Yangi o'zbekistonning umidli yos central asian research journal for interdisciplinary studies (carjis) ilmiy jurnali bilan hamkorlikda. Yangi o'zbekistonning umidli yoshlarahlari" 1(1)- son 03.28.22.son.
4. Jabborova M.Q. Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati. "Экономика и социум" №6(85) ч.1 2021

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING KASBIY MAHORATINI
INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH**

Alimjanova Matlyuba Yunusovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Boltaboyeva Umiya Orifjonovna

Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

O'ktamova Nilufar Mo'minmirzo qizi

Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Hozirgi paytda o'rganiladigan bilimlar miqdori shunchalik ko'pki, ularni darslikka to'liq sig'dirib bo'lmaydi. O'qituvchi ham dars jarayonida barcha ma'lumotlarni bevosita tushuntirib berish imkoniyatiga ega emas. SHuning uchun o'quvchilarni mustaqil bilim olishga, ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga, fikrlarini erkin bayon etishga, mustaqil ravishda xulosalar chiqarishga o'rgatadigan o'qitishning yangicha texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish zaruriyati tug'ilmoqda.

Kalit so'zlar: innovatsion faollik, ma'naviy qiyofa, ilmiy salohiyat, raqamli texnologiya, uzluksiz ta'lim, mehnat bozori, yuqori malakali kadrlar, global o'zgarishlar, axborot kompetentligi.

Ilg'or yangi pedagogik texnologiya "O'qituvchi-ta'lim-o'quvchi" tamoyiliga asoslanib unda o'quvchi sub'ektga, ya'ni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylanib, uning izlanishiga, mushohada yuritishiga sharoit yaratib beriladi. Bunda o'quv dasturi va darslik shu jarayonning bevosita tashkilotchisi, o'qituvchi esa mazkur murakkab jarayonni mohirlik va idrok bilan boshqarishi kerak. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlarida belgilangan talabalarning barcha o'quvchilar tomonidan to'la – to'kis bajarilishiga, ta'lim samaradorligini oshirishga erishish uchun yangi texnologiyalarni izlash, yangiliklarni yaratish va amaliyotga joriy etish lozim.

Bilim maskanlarining moddiy texnika bazasi mustahkamlanib, kompyuter texnologiyasi, laboratoriya jihozlari bilan to'liq ta'minlanmoqda. Ta'lim mazmuni ham tubdan yangilanib bormoqda. Tajriba-sinovdan o'tib takomillashtirilgan darslar, ta'lim standartlari, modernizatsiya qilingan o'quv dasturlari ta'lim jarayoniga kirib keldi. O'qituvchilarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish ishlari kundan-kunga yaxshilanib bormoqda. Bu esa, tabiiyki, boshlang'ich sinf o'qituvchilari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Buning uchun ularga mutaxassislar tomonidan yo'l yo'riqlar ko'rsatish, yo'nalish berish (albatta, ommaviy axborot vositalar yordamida ham), bir so'z bilan aytganda, o'qituvchilarning ijobiy mustaqilligini rivojlantirish va ularni innovatsion faoliyatga tayyorlash muhim vazifalardan sanaladi. Bu masala bugungi kunda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Darslarni yangicha tashkil etish, kundalik darslarga yangicha, ijodiy yondashishni, o'quvchilarning shu faoliyatda faol ishtiroklarini tashkil etishni taqozo etmoqda. Qisqacha qilib aytganda, maktabda ijodiy muhitni yaratish orqaligina ta'limning sifat va samaradorligini oshirish mumkin. Innovatsion faoliyat tushunchasiga:

1. Innovatsiyalash - yangilash, yangilik kiritish. Jumladan, ta'lim mazmuniga yangilik kiritish integratsiya tushunchasi bilan belgilanadi. Bunda «integr» (lotincha integrale - bog'lash) ta'lim mazmunida ba'zi fanlarni bir biriga bog'lash. Yunoncha esa, integratsiya - moslashish, aloqa yaratish.

2. Ta'lim usul, vosita, uslubiy jarayonga yangilik kiritish texnologiya tushunchasi bilan belgilanadi. Demak, o'qituvchilarning innovatsion faoliyatga tayyorgarlikni ta'minlash ularni integratsiyalashgan va texnologiyalashgan darslarni o'tkazishga tayyorlash tizimi sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash tizimi bizning fikrimiz bo'yicha uchta bo'limdan iborat bo'lishi kerak.

Mazkur tizimning yo'nalishlarini ko'rib chiqamiz:

1-yo'nalishi: talabalarni – bo'lajak pedagoglarni o'qitish jarayoniga innovatsion fanlarni kiritishni talab qiladi: «Boshlang'ich ta'limni integratsiyalash» (1-kursda), «Pedagogik texnologiyalar» (3-kursda), «Boshlang'ich ta'limda zamonaviy pedtexnologiyalar» (4-kursda). Mazkur fanlar bo'yicha darslarda talabalar innovatsion faoliyatning mazmun-mohiyati, o'tkazish printsiplari va usullari haqidagi bilimlari shakllanadi, pedagogik amaliyotda ushbu faoliyatni tashkillashga harakat qiladilar va shu bilan mustaqil faoliyatga o'zlarini tayyorlaydilar.

2-yo'nalish: oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalarni bitirib, yosh o'qituvchilar mustaqil ishlayotgan paytida innovatsion faoliyatni tashkillaydilar. Ular yordamiga maktablarda quyidagi ishlarni o'tkazishga tavsiya etiladi:

- metod birlashmalar mashg'ulotlarida innovatsion faoliyat mohiyati, mazmuni, turlari haqida tushuntirish;

- «ustoz-shogird» maktablarini tashkil etib, ular asosida pedagoglarning kasbiy mahoratini oshirish;

- seminar-treninglar asosida integratsiyalashgan darslarni o'tkazish, an'anaviy va interfaol usullar texnologiyalardan foydalanish bo'yicha tajribalar almashuvini tashkillash;

- innovatsion faoliyat, ya'ni integratsiyalash, texnologiyalash bo'yicha o'qishlarni tashkillash va boshqa.

3-yo'nalishi: malaka oshirish institutlarda o'qituvchilar uchun an'anaviy o'qish tizimiga maxsus mavzularni kiritish; ya'ni innovatsion faoliyatining mohiyati, yo'nalishlari, jumladan ta'limni integratsiyalash va texnologiyalashtirish masalalarni o'rganishni, tajribalar almashuvini tashkillash.

Xulosa qiladigan bo'lsak, yuqorida ko'rsatilgan barcha masalalarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki unda bu masalalarni ommalashtirish va muhokama etishga imkoniyat yaratiladi. Xulosa qilib aytganda, 4 ta ta'riflangan ish yo'nalishlari: 1-bo'lajak pedagoglarni nazariy jihatdan zaruriy bilimlar bilan ta'minlash, 2-o'quv muassasalarda ishlayotgan o'qituvchilarni ilmiy-uslubiy jihatdan uqtirish; 3-oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari o'qituvchilarning boshlang'ich maktab bilan hamkorlik ishlarini tashkillash hamda malaka oshirish institutida pedagoglarning bilimlarni va kasbiy mahoratini oshirish – boshlang'ich sinf o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashni ta'minlash bo'yicha tarmoqlashgan, yagona tizimini tashkil qiladi, deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I. A. (1997). Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. Toshkent; Ma'naviyat.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (2020). O'zbekiston Respublikasining
3. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni — 2020-yil 23-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi (2020). O'zbekiston Respublikasining “Innovatsion faoliyat to'g'risida”gi Qonuni — 2020-yil 24-iyul.
5. Yuldasheva, N. (2019). Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularni boshlang'ich ta'lim jarayoniga joriy etish. O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
6. Raxmonova, D. (2021). Pedagogik innovatsiyalar asoslari. Toshkent; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi.

TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH JARAYONIDAGI DOLZARB MASALALAR

Asqarova Dilafruz Ibroximovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Ilhomjonova Muslima Iftixorjon qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishda pedagogika fanining o'rni, dolzarb masalalari hamda bu sohada zamonaviy yondashuvlar haqida fikr

yuritilgan. Ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiya, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, integratsiyalashgan ta'lim tizimi kabi yo'nalishlarning ahamiyati tahlil etilgan. Maqolada zamonaviy pedagogik jarayonlarning nazariy va amaliy asoslarini chuqur o'rganish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiya, innovatsion metodlar, ta'lim islohoti, integratsiyalashgan ta'lim, zamonaviy pedagogika.

Ma'lumki, ta'lim– tarbiya insonga borliqni anglash sir asrorlarini tushunish, tinimsiz rivojlanayotgan dunyoga moslashish, dunyoqarashini shakllantirish, nihoyat, jamiyatda inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo'shish imkonini yaratadi. Har qanday davlatning qudrati va rivojlanish darajasini aynan ta'lim tizimi aniqlab beradi. Davlatning ushbu tizimga munosabati, uning kelajagini belgilaydi.

Zamonaviy jamiyatda inson kapitalining rivojlanishi, mamlakat taraqqiyotining asosi bo'lgan bilim va malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim tizimining o'rni beqiyosdir. Shu sababli ta'limni takomillashtirish, uning mazmun-mohiyatini zamon talablari asosida yangilash, pedagogik jarayonni innovatsion va ilmiy-metodik yondashuvlar asosida tashkil qilish dolzarb masalaga aylangan. Pedagogika fani esa aynan ushbu islohotlarning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish, ta'lim mazmunini ilmiy jihatdan boyitish va zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Hozirgi davrda ta'lim tizimida kuzatilayotgan eng dolzarb masalalardan biri – bu ta'limning sifatini oshirishdir. Ta'lim sifati esa, birinchi navbatda, pedagog kadrlarning salohiyati, ularning bilim va kompetensiyasiga bevosita bog'liq. Shu bois, pedagoglarni tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarini zamon talablari asosida tubdan isloh qilish pedagogika fanining asosiy vazifalaridan biridir. Ta'lim muassasalarida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, kreativ yondashuvlar asosida dars o'tish bugungi kunning ehtiyojiga aylangan. Bu borada pedagogika fani faqatgina nazariy asoslarni emas, balki amaliy mexanizmlarni ham ishlab chiqishi lozim.

Yana bir dolzarb masala – bu raqamli texnologiyaning rivojlanishidir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi ta'lim jarayonlariga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar, multimedialiy resurslardan foydalanish pedagogik faoliyatning ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli savodxonlikni oshirish, elektron ta'lim resurslarini to'g'ri tanlash va ulardan samarali foydalanish, raqamli madaniyat etikasini rivojlantirish kabi masalalar pedagogika fanida chuqur tahlil etilishi zarur bo'lgan yo'nalishlardir.

Ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni keng joriy etish zarurati ortib bormoqda. Har bir o'quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olish, ularning o'z-o'zini anglash, mustaqil fikrlash, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ta'lim samaradorligini oshirish mumkin. Bu esa pedagogdan nafaqat yuqori darajadagi bilim va metodik tayyorgarlikni, balki psixologik bilim va madaniyatni ham talab qiladi. Shu boisdan pedagogika fanida psixopedagogik yondashuvlar, ta'limda emotsional intellekt, motivatsiya, kommunikativ kompetensiyalar kabi masalalar bo'yicha tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'limni individuallashtirish, ya'ni uni faqat bilim berish jarayoni emas, balki inson tarbiyasining, ijtimoiy ong va madaniyatni shakllantirish vositasi sifatida qarash ham pedagogika fanining dolzarb yo'nalishidir. Bu borada etika, madaniyatlararo muloqot, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, tolerantlik, fuqarolik pozitsiyasi, gender tengligi kabi masalalar alohida e'tiborni talab qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida uzluksiz ta'lim turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- maktabgacha ta'lim;
- umumiy o'rta,

- o'rta maxsus va professional ta'lim
- oliy ta'lim;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- maktabdan tashqari ta'lim.

Bugungi kunda maktabgacha ta'limdan boshlab oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bo'g'inlarda integratsiyalashgan, tizimli va uzviy ta'lim modelini joriy etish ehtiyoji sezilmoqda. Bu model har bir bosqichdagi o'quv dasturlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlashi, fanlararo bog'liqlikni kuchaytirishi, tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu borada pedagogika fani o'zining tizimli yondashuvi, ilmiy-metodik asoslari va innovatsion metodlari orqali muhim rol o'ynaydi.

Bugungi kunda pedagogika fanining oldida turgan dolzarb masalalar nafaqat ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, balki inson kapitalini shakllantirish, milliy va global raqobatbardoshlikni ta'minlash kabi keng ko'lamli vazifalarni ham o'z ichiga oladi. Shu boisdan pedagogika fani zamonaviy yondashuvlar, ilg'or tajribalar va xalqaro tendensiyalar asosida takomillashib borishi, uning ilmiy-amaliy salohiyati esa ta'lim islohotlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida hal qiluvchi omil bo'lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4312-sonli qarori. "Ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar salohiyatini yuksaltirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil.
2. Qodirov A., Mahkamova D. "Pedagogika nazariyasi va amaliyoti". – T.: "Fan va texnologiya", 2021.
3. Yusupova D., Raxmonova Z. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar". – T.: O'zbekiston pedagogik nashriyoti, 2022.
4. UNESCO. "Reimagining our futures together: A new social contract for education". Paris, 2021.
5. Anderson T., Elloumi F. (Eds). "Theory and Practice of Online Learning". – AU Press, 2008.
6. OECD. "Education at a Glance: OECD Indicators". – Paris: OECD Publishing, 2020.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA HIKOYA VA ERTAK JANRIDAGI ASARLARNI O'RGATISHDAGI IZCHILLIK

Qoribekova Dilso'zxon Muxiddin qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Olimova Yorqinoy Mashrabovna

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinfdagi o'qish darslarida hikoya va ertak janridagi badiiy matnlarni o'rgatish jarayonida izchillikni ta'minlashning metodik asoslari yoritilgan. Asosan, matn tanlash mezonlari, janr xususiyatlarini tushuntirish, badiiy tahlil qilish va o'quvchilarda badiiy-estetik didni shakllantirishda bosqichma-bosqich ishlash muhimligi asoslab berilgan. Mavzuga doir namunalik metodik yondashuvlar va interaktiv usullar misolida dars samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: o'qish darslari, hikoya, ertak, janr, izchillik, badiiy tahlil, metodika, boshlang'ich ta'lim.

KIRISH

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, ularni mustaqil fikrlovchi, o'z nuqtayi nazariga ega shaxs sifatida shakllantirish – zamonaviy pedagogikaning

asosiy yo'nalishlaridan biridir. Bu borada **o'qish darslari**, xususan, hikoya va ertak janridagi badiiy asarlarni o'rgatish katta didaktik va tarbiyaviy salohiyatga ega.

Ertak va hikoya orqali bola badiiy obrazlarni anglaydi, voqealarni tushunadi, hayotiy saboqlar oladi, estetik dunyoqarashi, milliy qadriyatlarga hurmati va axloqiy qadriyatlari shakllanadi. Biroq bu jarayonning eng muhim sharti – **izchillik**, ya'ni o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, ketma-ket va mantiqan bog'langan tarzda o'rgatish tizimini yo'lga qo'yishdir.

ASOSIY QISM

Hikoya va ertak janrining boshlang'ich ta'limdagi o'rni va vazifalari. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan hikoya va ertaklar bola tafakkurining, tasavvurining, nutqining va axloqiy dunyoqarashining shakllanishida beqiyos rol o'ynaydi. Ayniqsa, hikoya real hayotga yaqin voqealarni tasvirlagani sababli bolani atrof-muhitdagi hodisalarni tushunishga, sabablilik bog'lanishlarini anglashga o'rgatadi. Ertak esa bolaning fantaziyasini rivojlantiradi, obrazlar olamiga olib kiradi, ezgulik va yovuzlikni farqlashga, har bir harakatning ijobiy yoki salbiy oqibatiga e'tibor berishga undaydi.

Bu janrlar yordamida o'quvchilar:

- badiiy obrazlar va syujetni tushunishni o'rganadilar;
- voqea rivojini taxmin qilish va yakun yasash malakasini egallaydilar;
- o'z fikrini izchil ifodalashni o'zlashtiradilar;
- nutq boyligini oshiradilar;
- ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni ongli qabul qiladilar.

O'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos izchil yondashuv. Boshlang'ich sinf o'quvchilari 7-10 yosh oralig'idagi farzandlar bo'lib, bu yoshda bolaning tasavvuri keng, biroq tafakkuri hali konkret-predmet darajasida shakllangan bo'ladi. Shuning uchun hikoya va ertaklar: oddiy syujetli bo'lishi;

- tushunarli obrazlar orqali berilishi;
- ma'naviy saboq bilan yakunlanishi;
- qisqa hajmli, ammo mazmunan boy bo'lishi lozim.

Masalan, 1-sinfda “Zumrad va Qimmat” yoki “Bo'ri va echki bolalari” kabi xalq ertaklari tanlansa, 4-sinfda “Alpomish” kabi murakkabroq va falsafiy fikrlarni o'z ichiga olgan asarlarga o'tiladi.

Hikoya va ertaklarni bosqichma-bosqich o'rgatish modeli. Izchillikni ta'minlovchi bosqichlar quyidagicha taklif qilinadi:

- I bosqich – Tanishtirish va qiziqtirish
- Asar muallifi va janr haqida qisqacha ma'lumot beriladi;
- Savollar orqali o'quvchilarda taxmin qilish, kuzatish, qiziqish uyg'otiladi;
- Rasm yoki video orqali kontekst yaratiladi (agar iloji bo'lsa, interaktiv tarzda).

II bosqich – O'qish va tahlil qilish

- O'qituvchi asarni ifodali o'qib beradi yoki o'quvchilar ketma-ket o'qiydilar;
- Asosiy voqealar, qahramonlar, syujetning rivojlanish nuqtalari ajratiladi;
- Lug'at ishlari olib boriladi (frazologik birliklar, sinonim-antonymlar ustida ishlash);
- Savol-javob, matn asosida suhbat.

III bosqich – Tadqiqiy va ijodiy faoliyat

- Asar qahramonlari orasidagi munosabatlar tahlil qilinadi;
- “Agar siz shu vaziyatda bo'lsangiz, nima qilgan bo'lardingiz?” kabi ijodiy savollar;
- Davomini yozish, yangi yakun yaratish, rolli sahnalashtirish, drammatizatsiya.

IV bosqich – Baholash va umumlashtirish

- Asarning g'oyasi, muallif pozitsiyasi, bola olgan saboq yuzasidan xulosa qilinadi;
- Tarbiyaviy maqsadlar muhokama qilinadi;
- Qisqacha yozma yoki og'zaki izoh, ijodiy topshiriq.

Metodik usullar va interfaol yondashuvlar. Quyidagi usullardan foydalanish izchillikni ta'minlashda muhim:

- “Klaster” usuli – matndagi asosiy tushunchalar atrofida tafakkurni rivojlantirish;
 - “Insert” usuli – o‘qish vaqtida belgilar qo‘yish orqali matnni anglash (V – bilganim; + – yangilik; - – qarama-qarshi; ? – tushunarsiz);
 - “Venn diagrammasi” – ertak va hikoyadagi qahramonlarni taqqoslash;
 - “Hayotiy bog‘liqlik” usuli – voqealarni real hayot bilan bog‘lash;
 - Juftlikda ishlash – savol-javob, rolli o‘yinlar, rasmi topshiriqlar.
- Nutq va til kompetensiyalarini rivojlantirishda hikoya va ertaklarning roli:
- Hikoya va ertaklar o‘quvchilarda quyidagi til kompetensiyalarini shakllantiradi:
 - Fonetik kompetensiya – tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish;
 - Leksik kompetensiya – so‘z boyligini oshirish, frazeologik birliklarni o‘zlashtirish;
 - Grammatik kompetensiya – gap tuzish, so‘z turkumlarini farqlash;
 - Kommunikativ kompetensiya – o‘z fikrini mustaqil ifoda etish;
 - Madaniy kompetensiya – xalq ijodi va milliy qadriyatlarini tushunish.
- O‘qish darslarida badiiy asarlarni o‘rganish orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish:
- Ertak va hikoya janridagi asarlar orqali o‘quvchilarga quyidagilar singdiriladi:
 - Axloqiy tarbiya – halollik, to‘g‘rilik, mehr-oqibat, sabr-toqat;
 - Estetik tarbiya – badiiy obrazlar vositasida go‘zallikni anglash;
 - Vatanparvarlik tarbiyasi – milliy qadriyatlar asosida ifodalangan obrazlar orqali;
 - Mehnat tarbiyasi – asarlarda mehnat qilgan qahramonlarga berilgan baho asosida.

XULOSA

Hikoya va ertak janridagi asarlarni o‘rganish orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining badiiy-estetik tafakkuri, nutq madaniyati, axloqiy dunyoqarashi izchil va puxta shakllanadi. Bu jarayonda izchillik tamoyilining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos metodlardan foydalanilishi, dars jarayonini interfaol, qiziqarli va maqsadga yo‘naltirilgan tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova, M. (2022). *O‘qish darslari metodikasi*. Toshkent: Yangi asr avlodi.
2. G‘ulomova, M. (2020). *Bolalar adabiyotini o‘rgatish usullari*. Toshkent: O‘qituvchi.
3. Hasanboyeva, N. (2021). *Didaktik materiallar asosida o‘qitish*. TDPU ilmiy jurnali.
4. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.
5. UNESCO (2020). *Teaching Reading in the Early Grades: Approaches and Strategies*. Paris.
6. Propp, V. (1968). *Morphology of the Folktale*. University of Texas Press.
7. Tompkins, G. E. (2014). *Children’s Literature in the Reading Program*. Pearson.

TA’LIM SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Ro‘zmetova Gulchiroy Ruslanbek qizi

FarDU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada milliy qadriyatlar asosida raqamli ta'lim resurslarini rivojlantirish va ularni innovatsion ta'lim jarayonlarida qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan. Raqamli ta'lim resurslari (RTR) ta'limni interaktiv va samarali qilishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular talabalarni zamonaviy texnologiyalar orqali o'qitishda keng imkoniyatlar yaratadi. Maqolada milliy qadriyatlar – madaniyat, til, tarix, axloqiy tamoyillar va urf-odatlar – ta'lim jarayoniga qanday integratsiya qilinishi, shuningdek, bu qadriyatlarining raqamli resurslarda qanday aks ettirilishi masalalari yoritilgan. Milliy qadriyatlar ta'lim tizimida talabalarga o'z

merosini tushunish va hurmat qilishni, shuningdek, jamiyatda axloqiy va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishni o'rgatadi. Raqamli ta'lim resurslari, masalan, interaktiv o'yinlar, e-kitoblar, video materiallar va onlayn kurslar orqali bu qadriyatlarni targ'ib qilish mumkin. Innovatsion ta'lim jarayonlari, xususan, "flipped classroom" (o'zgartirilgan darsxona) usuli, gamifikatsiya va shaxsiylashtirilgan o'qitish metodlari, milliy qadriyatlarni o'rgatishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Maqolada ta'lim jarayonidagi texnologik innovatsiyalar va milliy qadriyatlarning uyg'unlashuvi ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash va talabalar uchun madaniy, axloqiy va axborot texnologiyalari ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, maqolada milliy qadriyatlarni raqamli ta'lim resurslariga kiritishda duch kelinishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklar, jumladan, texnologiyaga kirish imkoniyati va madaniy sezgirlik masalalari ham muhokama qilinadi. Umuman olganda, maqola milliy qadriyatlar asosida ta'lim resurslarini rivojlantirish va ulardan innovatsion ta'lim jarayonlarida foydalanishning ahamiyatini, shu bilan birga, bu jarayonning ijtimoiy, madaniy va texnologik jihatlarini o'rganadi.

Kalit so'zlar: Raqamli ta'lim resurslari (RTR), milliy qadriyatlar, innovatsion ta'lim jarayonlari, madaniy meros, Flipped classroom, Gamifikatsiya, shaxsiylashtirilgan ta'lim, axloqiy ta'lim, madaniy sezgirlik.

Аннотация: В этой статье рассматривается разработка цифровых образовательных ресурсов на основе национальных ценностей и их применение в инновационных образовательных процессах. Цифровые образовательные ресурсы (RTR) важны для того, чтобы сделать обучение интерактивным и эффективным, предоставляя широкие возможности для обучения студентов с помощью современных технологий. В статье рассматриваются вопросы того, как национальные ценности – культура, язык, история, моральные принципы и традиции-интегрируются в образовательный процесс, а также как эти ценности отражаются в цифровых ресурсах. Национальные ценности в системе образования учат студентов понимать и уважать свое наследие, а также развивать моральную и социальную ответственность в обществе. Эти ценности можно продвигать с помощью цифровых образовательных ресурсов, таких как интерактивные игры, электронные книги, видеоматериалы и онлайн-курсы. Инновационные образовательные процессы, в частности метод "перевернутого класса" (модифицированного класса), геймификация и персонализированные методы обучения, могут служить эффективными инструментами в обучении национальным ценностям. В статье подчеркивается, что сочетание технологических инноваций и национальных ценностей в образовательном процессе способствует укреплению социальной сплоченности и развитию культурных, этических и информационных навыков учащихся. Однако в статье также обсуждаются проблемы, с которыми вы можете столкнуться при внедрении национальных ценностей в цифровые образовательные ресурсы, включая доступ к технологиям и культурную чувствительность. В целом, в статье исследуется важность развития образовательных ресурсов на основе национальных ценностей и их использования в инновационных образовательных процессах, а также социальные, культурные и технологические аспекты этого процесса.

Ключевые слова: цифровые образовательные ресурсы (RTR), национальные ценности, инновационные образовательные процессы, культурное наследие, Перевернутый класс, геймификация, персонализированное обучение, этическое образование, культурная чувствительность.

Abstract: This article examines the development of digital educational resources based on national values and their application in innovative educational processes. Digital Educational Resources (RTR) are important in order to make learning interactive and effective, providing ample opportunities for students to learn using modern technologies. The article examines how national values – culture, language, history, moral principles and traditions - are integrated into the educational process, as well as how these values are reflected in digital resources. National

values in the education system teach students to understand and respect their heritage, as well as to develop moral and social responsibility in society. These values can be promoted through digital educational resources such as interactive games, e-books, videos, and online courses. Innovative educational processes, in particular the "inverted classroom" (modified classroom) method, gamification and personalized learning methods, can serve as effective tools in teaching national values. The article emphasizes that the combination of technological innovations and national values in the educational process contributes to strengthening social cohesion and developing cultural, ethical and information skills of students. However, the article also discusses the challenges you may face when embedding national values in digital educational resources, including access to technology and cultural sensitivity. In general, the article examines the importance of developing educational resources based on national values and their use in innovative educational processes, as well as the social, cultural and technological aspects of this process.

Keywords: digital education resources (RTR), national values, innovative educational processes, cultural heritage, Flipped classroom, gamification, personalized education, moral education, cultural sensitivity.

KIRISH

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimida keng qo'llanilmoqda va ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishda muhim rol o'ynamoqda. Ta'lim resurslari va metodologiyalarining raqamlashtirilishi, shubhasiz, o'quvchilarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq, zamonaviy ta'limni rivojlantirishda faqat texnologiyalarga tayanish kifoya qilmaydi. Milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga kiritish, o'quvchilarda milliy madaniyatga, tarixga va urf-odatlariga nisbatan hurmatni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli ta'lim resurslari (RTR) milliy qadriyatlarni o'rgatishda samarali vosita bo'lishi mumkin. Milliy qadriyatlar, o'z navbatida, talabalarni o'z merosini anglash va jamiyatda ijtimoiy mas'uliyatni his qilishga undaydi. Shu nuqtai nazardan, raqamli ta'lim resurslari milliy qadriyatlar asosida ishlab chiqilishi va o'quvchilarga nafaqat bilim, balki axloqiy va madaniy tarbiya berishda ham yordam berishi kerak. Innovatsion ta'lim jarayonlari, masalan, "flipped classroom" va gamifikatsiya kabi metodlar, milliy qadriyatlarni o'rganishni qiziqarli va samarali qilishga imkon beradi. Ushbu maqolada raqamli ta'lim resurslarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish, ularni innovatsion ta'lim jarayonlariga qo'llash va bu jarayonlarning ijtimoiy va madaniy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni ta'limga integratsiya qilishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularga qarshi choralar ham ko'rib chiqiladi. Maqsad – raqamli ta'limning imkoniyatlarini milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirib, talabalarni yanada to'liq va keng qamrovli ta'lim olishga tayyorlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda raqamli ta'lim resurslarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish va innovatsion ta'lim jarayonlariga qo'llash masalalari o'rganildi. Tadqiqotning asosiy yo'nalishlari ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatini tushunishga qaratilgan. Adabiyotlarda raqamli ta'lim resurslari (RTR) ta'lim jarayonini samarali va interaktiv qilishda muhim o'rin tutishi ta'kidlanadi. Raqamli resurslar, masalan, e-kitoblar, interaktiv o'yinlar, video materiallar va onlayn kurslar, o'quvchilarga yanada qiziqarli va shaxsiylashtirilgan o'rganish imkoniyatlarini yaratadi (Anderson, 2008; Siemens, 2005). Shu bilan birga, milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga kiritishning ahamiyati ham ko'rib chiqiladi. Milliy qadriyatlar o'quvchilarda o'z xalqining madaniyatiga, tarixiga va urf-odatlariga hurmatni rivojlantiradi. Bunday qadriyatlarni ta'limga kiritish, nafaqat bilimlarni oshirish, balki ijtimoiy va axloqiy mas'uliyatni rivojlantirishga ham xizmat qiladi (Noddings, 2005). Milliy qadriyatlarni raqamli resurslarda aks ettirish, ta'limga muvaffaqiyatli integratsiya qilishning samarali yo'li bo'lib, ularni zamonaviy ta'lim jarayonlariga qo'shish imkonini beradi. Innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanish, masalan, flipped classroom va gamifikatsiya kabi yondashuvlar, o'quvchilarning faol ishtirokini

oshiradi va ta'limni qiziqarli qiladi (Bergmann & Sams, 2012; Deterding et al., 2011). Flipped classroom metodi, talabalar darsdan tashqari materiallarni o'rganishlari va darsda ko'proq interaktiv faoliyatlarga qatnashishlari uchun imkoniyat yaratadi. Gamifikatsiya esa, o'quvchilarga o'rganish jarayonini o'yin shaklida qilish imkoniyatini berib, ularning motivatsiyasini oshiradi. Tadqiqotda, raqamli ta'lim resurslarini milliy qadriyatlar asosida yaratishda yuzaga keladigan ba'zi muammolar ham o'rganildi. Xususan, madaniy sezgirlikni ta'minlash juda muhim. Raqamli ta'lim resurslarida milliy qadriyatlarni aks ettirishda barcha etnik va madaniy guruhlarning hurmatini saqlash zarur. Resurslarni ishlab chiqishda mahalliy madaniyat va urf-odatlarini hisobga olish, ularni o'quvchilarga to'g'ri va ehtiyotkorlik bilan yetkazish lozim. Tadqiqot metodologiyasi sifatida, bir necha yondashuvlar qo'llanildi. Avvalo, adabiyotlar tahlili orqali mavzu bo'yicha mavjud bilimlar o'rganildi. Shundan so'ng, eksperimental metod yordamida innovatsion ta'lim metodlarining amalda qanday ishlashini o'rganish mumkin bo'ldi. Shuningdek, intervyu va so'rovlar yordamida o'qituvchilar va talabalar fikrlari to'plandi, ularning raqamli resurslarga nisbatan munosabati tahlil qilindi. Umuman olganda, tadqiqot milliy qadriyatlar asosida raqamli ta'lim resurslarini yaratish va ularni innovatsion ta'lim jarayonlariga qo'llashning samaradorligini o'rganishga qaratilgan. Bu metodologiya orqali ta'limda texnologiyalarning o'rni va milliy qadriyatlarni o'rgatishda yuzaga kelgan muammolarni hal qilish usullari tahlil qilinadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot orqali raqamli ta'lim resurslarini milliy qadriyatlar bilan integratsiya qilish va innovatsion ta'lim metodlaridan foydalanishning samaradorligi o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi. Masalan, e-kitoblar, interaktiv o'yinlar va video materiallar o'quvchilarga o'rganishning yangi va qiziqarli usullarini taqdim etadi. Bu resurslar o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularni ta'lim jarayoniga yanada faolroq jalb qiladi. Anderson (2008) va Siemens (2005) kabi tadqiqotchilarning fikrlariga asoslanib, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonini o'zgartirishda juda katta rol o'ynaydi, chunki ular o'quvchilarga o'z vaqtida va shaxsiylashtirilgan ta'lim olish imkonini yaratadi. Bundan tashqari, milliy qadriyatlarni raqamli ta'lim resurslariga integratsiya qilish jarayonida muhim ijobiy natijalarga erishildi. Milliy qadriyatlar o'quvchilarda o'z xalqining madaniyatiga hurmatni rivojlantirishda, shuningdek, ijtimoiy mas'uliyatni oshirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqotda shuningdek, milliy qadriyatlarni raqamli resurslarga aks ettirish o'quvchilarga o'z madaniy meroslarini anglashda yordam berishini ko'rsatdi. Biroq, bu jarayonda madaniy sezgirlikka alohida e'tibor berish zarur. Har bir madaniyat va etnik guruhning o'ziga xos xususiyatlarini hurmat qilish, raqamli resurslarning har bir o'quvchi uchun teng va adolatli bo'lishini ta'minlaydi. Innovatsion ta'lim metodlari, xususan, flipped classroom va gamifikatsiya kabi yondashuvlar ta'lim jarayonining samaradorligini yanada oshirishga yordam berdi. Flipped classroom metodologiyasi o'quvchilarga o'z vaqtida materiallarni o'rganish imkoniyatini berib, ularni dars davomida amaliy faoliyatlarga jalb qiladi. Bu metod o'quvchilarning mavzuni chuqurroq tushunishlariga va o'z fikrlarini erkin ifodalashlariga yordam beradi. Gamifikatsiya esa, ta'lim jarayonini qiziqarli va interaktiv qiladi, bu esa o'quvchilarning motivatsiyasini oshirib, ularning o'rganish jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Bu metodlarning amaliyotda qo'llanilishi o'quvchilarning o'rganish samaradorligini sezilarli darajada yaxshiladi. Biroq, tadqiqotda milliy qadriyatlarni raqamli resurslarga integratsiya qilishda ba'zi muammolar ham yuzaga kelgan. Ayniqsa, madaniy sezgirlikni ta'minlash masalasi dolzarb bo'ldi. Raqamli ta'lim resurslarining turli milliy va madaniy guruhlarning qadriyatlarini inobatga olib ishlab chiqilishi kerak. Madaniy sezgirlikni ta'minlash, o'quvchilar uchun har bir madaniyatning o'ziga xosligini hurmat qilishni ta'minlaydi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Umuman olganda, tadqiqot shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim resurslari va innovatsion metodlar ta'lim jarayonini sifatli va samarali qilishda katta rol o'ynaydi. Milliy qadriyatlarni ta'limga integratsiya qilish, o'quvchilarda madaniy anglashni va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, raqamli ta'lim

resurslarini ishlab chiqishda madaniy sezgirlikni hisobga olish, ta'lim jarayonini barcha o'quvchilar uchun teng va adolatli qilishda muhim ahamiyatga ega. Yakunida, tadqiqotda ko'rsatilgan innovatsion ta'lim metodlarini va raqamli ta'lim resurslarini ta'lim jarayoniga qo'llash, o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi va ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi. Kelajakda, ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish uchun, ushbu yondashuvlarni kengroq qo'llash va takomillashtirish zarur.

XULOSA

Yuqoridagi tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim resurslarini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish va ularni innovatsion ta'lim jarayonlariga integratsiya qilish o'quvchilarga zamonaviy ta'limning yangi va samarali imkoniyatlarini yaratadi. Raqamli texnologiyalarni qo'llash, o'quvchilarga individual o'rganish jarayonini tashkil qilish, ularning motivatsiyasini oshirish va ta'limda yangi shakllar va metodlarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi. Shuningdek, milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, o'quvchilarda o'z madaniy merosiga hurmatni rivojlantiradi va ijtimoiy mas'uliyatni oshiradi. Innovatsion metodlar, xususan flipped classroom va gamifikatsiya, ta'limni yanada qiziqarli va samarali qiladi. Bu metodlar o'quvchilarga ta'lim jarayonida faol ishtirok etish imkonini beradi, ularga o'rganishni o'z vaqtida va o'ziga mos tarzda amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Biroq, raqamli resurslarda milliy qadriyatlarni aks ettirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan madaniy sezgirlikni unutmaslik zarur. Har bir millatning o'ziga xos madaniy qadriyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish, ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli va samarasini ta'minlaydi. Shu bilan birga, tadqiqotda raqamli ta'lim resurslarining yaratilishida yuzaga keladigan ayrim muammolar ham ko'rsatildi, xususan madaniy sezgirlikni ta'minlash va barcha etnik guruhlarining qadriyatlarini hurmat qilish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bularni hisobga olish, ta'limni barcha o'quvchilar uchun teng va adolatli qilishga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, raqamli ta'lim resurslari va innovatsion metodlarning milliy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi, o'quvchilarning o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Kelajakda, ushbu yondashuvlarni kengroq qo'llash, raqamli texnologiyalar va madaniy qadriyatlar asosida ta'lim jarayonini yanada takomillashtirish imkoniyatlarini ochadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Anderson, T. (2008). *The theory and practice of online learning*. Athabasca University Press.
2. Siemens, G. (2005). *Connectivism: A learning theory for the digital age*. *International Journal of Instructional Technology and Distance Learning*, 2(1), 3–10.
3. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip your classroom: Reach every student in every class every day*. International Society for Technology in Education.
4. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). *From game design elements to gamefulness: defining "gamification"*. *Proceedings of the 2011 annual conference extended abstracts on Human factors in computing systems*, 2425–2428.
5. Noddings, N. (2005). *The Challenge to Care in Schools: An Alternative Approach to Education*. Teachers College Press.
6. Banks, J. A. (2006). *Cultural diversity and education: Foundations, curriculum, and teaching* (5th ed.). Pearson Education.

QOIDALI O'YINLAR MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA TALIM-TARBIYA VOSITASI SIFATIDA

M.Q.Jabborova

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Y. Xolmatova

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi kichkintoylar uchun o'yin - bu nafaqat vaqtni maroqli o'tkazish vositasi, balki ularning shaxsiy, ijtimoiy, aqliy va jismoniy rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi ta'lim-tarbiya jarayoni ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, qoidali o'yinlar bolalarda muayyan me'yorlarga bo'ysunish, tartib-intizomni his qilish, guruhda ishlash, ijtimoiy tajriba orttirish va tafakkurni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: Qoidali o'yin, didaktik o'yin, harakatli o'yin, musiqali o'yinlar, ijtimoiy ko'nikma, tafakkur, mantiqiy fikr.

Аннотация. В статье показано, что игра для детей дошкольного возраста — это не только способ развлечения, но и образовательный процесс, который играет важную роль в их личностном, социальном, умственном и физическом развитии. Также было отмечено, что игры с правилами имеют большое значение для обучения детей соблюдению определенных норм, формирования чувства дисциплины, умения работать в группе, приобретения социального опыта и развития мышления.

Ключевые слова: Игры с правилами, дидактические игры, подвижные игры, музыкальные игры, социальные навыки, мышление, логическое мышление.

Annotation. The article shows that play for preschool children is not only a way of entertainment, but also an educational process that plays an important role in their personal, social, mental and physical development. It was also noted that games with rules are of great importance for teaching children to comply with certain norms, developing a sense of discipline, the ability to work in a group, acquiring social experience and developing thinking.

Keywords: Games with rules, didactic games, active games, musical games, social skills, thinking, logical thinking.

O'yin- inson o'zligining namoyon bo'lishi, uning takomillashuv usulidir. O'yin bolalarni har tomonlama rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga egadir. O'yinni «...bolalikning hamrohi» deb atash mumkin. O'yin maktabgacha kichik yoshdagi bolalar hayotining asosiy mazmunini tashkil etadi. O'yin mehnat va ta'lim bilan uzviy aloqada bo'lgan holda bola hayotida yetakchi faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. O'yinlar bola shaxsining sofdillik, rostgo'ylik kabi ijobiy xislatlari shakllanishiga imkon beradi. O'yinda bolaning barcha mavjud jihatlar ishga tushadi: bola harakat qiladi, gapiradi, idrok etadi, tasavvur qiladi. Har qanday o'yin tarbiyaning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Qoidali o'yinlar maktabgacha ta'lim tashkilotida talim-tarbiya vositasi sifatida keng qo'llaniladi. Qoidali o'yin ta'lim bilan bevosita bogliqdir. Bu borada shunday savol tug'iladi:

Qoidali o'yinlar nima?

Qoidali o'yinlar- bu qat'iy yoki moslashuvchan qoidalarga asoslangan holda o'ynaladigan o'yinlardir. Ular bolalardan belgilangan harakatlarni bajarishni, o'yinning mazmuniga mos ravishda harakat qilishni talab qiladi. Bu turdagi o'yinlar o'z ichiga harakatli o'yinlar, stol-ustida o'ynaladigan o'yinlar, rolli o'yinlar va didaktik o'yinlarni oladi. Qoidali o'yin turlariga didaktik, harakatli, musiqali o'yinlar kiradi. Ularning har biri bola shaxsining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, biroq o'yinning u yoki bu turiga mansub deyish uning asosiy tarbiyaviy ta'siriga ko'ra aniqlanadi.

Didaktik o'yin - bu maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlari va imkoniyatlariga mos keladigan ta'lim berish metodidir. Didaktik o'yinlarning muhim elementi qoidalar hisoblanadi. Qoidalarni bajarish o'yin mazmunini amalga oshirishni ta'minlaydi. Didaktik o'yin ta'lim bilan bevosita bog'liq bo'lib, ta'lim sifatini oshirishga yordam beradi. Didaktik o'yinlar bolalarning birgalikda o'ynab, o'z manfaatlarini jamoa manfaatlari bilan uyg'unlashish, bir-biriga ko'maklashish va o'rtog'ining muvaffaqiyatidan xursand bo'lish kabi ijobiy munosabatlarning tarkib topishiga yordam beradi. Didaktik o'yinda amal qilinadigan qoidalar o'yin harakatlarining to'g'ri noto'g'riligini aniqlovchi va ularga baho beruvchi mezon hisoblanadi. Bolalarning biror bolaga nisbatan "U o'yin qoidasini buzib o'ynayapti" yoki xattixarakatlarni noto'g'ri bajarganini anglashining o'zi ularning o'yin qoidalariga qandaydir o'zgartirib bo'lmaydigan qonundek munosabatda bo'lishlarini ko'rsatadi. Bolalarning o'yin qoidalarini o'rganib olishlari va ularga rioya qilishlari, ularda mustaqillikni, o'yin jarayonida o'zini-o'zi, o'zaro bir-birini nazorat qila bilish qobiliyatini tarbiyalashga yordam beradi. Shuningdek, qoidali o'yinlarni o'tkazishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir:

- har bir o'yin bolalarning yoshiga, psixologik va jismoniy holatiga mos tanlanishi lozim.
- tarbiyachi o'yinning maqsadini tushuntirishi va qoidalarni aniq aytib berishi kerak.
- o'yin davomida bolalarni rag'batlantirish, ularda ishtiyoq uyg'otish muhimdir.
- O'yinlardan keyin qisqa muhokama yoki tahlil o'tkazish kerak. Bu bolalarning o'z fikrini mustaqil aytishga o'rgatadi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qollaniladigan qoidali o'yinlar bolalarda quyidagi bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi:

- ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantiradi: bolalar o'zaro muloqot qilishni, boshqalarni tinglashni, navbat kutishni va guruhda ishlashni o'rganadilar. Bu esa ularning keyingi bosqichdagi ta'limga ijtimoiy tayyorligini oshiradi.

- Tartib va intizomni shakllantiradi: har qanday qoidali o'yin bolani belgilangan me'yorlarga amal qilishga o'rgatadi. Bu esa tartibga bo'lgan hurmat, mas'uliyat, sabr-toqat kabi xislatlarni rivojlantiradi.

- Aqliy rivojlanishni ta'minlaydi: qoidali o'yinlar tafakkur qilish, xotirani rivojlantirish, mantiqiy fikrlash va muammoni hal qilish kabi ko'nikmalarni rivojlantiradi. Masalan, "Kim chaqqon?", "To'rtta farqni top" kabi o'yinlar orqali bolalar e'tibor, tafakkur va kuzatuvchanlikni oshiradilar.

- Nutqni rivojlantiradi: o'yin davomida bolalar o'z fikrlarini ifoda etish, savol-javob qilish va o'zaro suhbatda bo'lish orqali og'zaki nutqni rivojlantiradilar.

- Harakat faolligini oshiradi: harakatli qoidali o'yinlar orqali bolalar jismoniy jihatdan faol bo'lishadi. Bu sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Shuningdek, didaktik o'yinlar guruh xonasida, zalda, maydonchada, dalada va boshqa joylarda o'tkazilishi mumkin. Bu o'yining ta'sirchanligini, taassurotlarning har xilligini, bolalarning faolligini oshiradi.

Demak, didaktik o'yin maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berish vositasi bo'lib, uni muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qoidali o'yinlardan foydalanish - bu bolani kompleks rivojlantirish vositasi bo'lib, u nafaqat o'qitish va tarbiyalash, balki ularni jamiyatga tayyorlashning ham samarali yo'lidir. Har bir tarbiyachi o'z faoliyatida bu vositadan unumli foydalanib, turli qoidali o'yinlar orqali bolaning qalbiga yo'l topmog'i zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Юсупова П. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ўқитувчи. 1993.
2. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
3. Sh.A.Sodiqova "Maktabgacha pedagogika". "Tafakkur sarchashmalari" T.: 2013 y
4. N.M.Kayumova "Maktabgacha pedagogika". "TDPU" nashriyoti T.: 2013 y

5. M.Q.Jabborova, Y.Xolmatova “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning umumiy boshlang’ich ta’limga tayyorligini takomillashtirish” JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230VOLUME 12, ISSUE 3, March – 2025

6. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.

7. Sh.M. Mirziyoyevning “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi qarori. T.: -2016y. 29-dekabr

8. “Bolangiz maktabga tayyormi?” metodik qo’llanma. T., 2001.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KASB TA’LIMI ISLOHOTI

Yorqinoy Qipchaqova

Farg‘ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi

Abdullayeva Mohigul

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Istiqloлга erishgan mamlakatimizda yuz berayotgan tub o‘zgarishlar ta’lim mazmunini davr nuqtai nazaridan yangilashni taqozo etmoqda. Bunday yangilanish O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Milliy dasturi” asosida amalga oshirilmoqda.

Kalit so‘zlar: kasbiy pedagogika, jamoa, mehnat tarbiyasi, o‘qituvchilarning ish tajribasi, elektr montaj, elektromontyor, elektroslesar, novatorlar, metall, yog‘och.

Аннотация. Коренные изменения, происходящие в нашей стране, обретшей независимость, требуют обновления содержания образования с точки зрения периода. Такое обновление осуществляется на основе Закона Республики Узбекистан “Об образовании” и “национальной программы”.

Ключевые слова: профессиональная педагогика, коллектив, трудовое воспитание, опыт работы педагогов, электромонтажник, электромонтажник, электрослесарь, новаторы, металл, дерево.

Annotation. The fundamental changes taking place in our country, which has gained independence, require updating the content of education in terms of the period. Such an update is carried out on the basis of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Education” and the “national program”.

Keywords: professional pedagogy, collective, labor education, teachers' work experience, electrician, electrician, electrician, innovators, metal, wood.

Bugungi kunda kasbiy pedagogika jahon miqyosida tan olingan eng ilg‘or metodlar va yo‘nalishlar bilan boyib bormoqda. Ayni vaqtda o‘zining keng tadbirini kutayotgan, fanning boshqa sohalari bilan aloqadorlikda ishlab chiqilgan yangi konsepsiya va nazariyalar rivojlantirilmoqda.

Kasb tanlashga yo‘llash butun pedagoglar jamoasi tomonidan hal etiladigan umummaktab vazifasi hisoblanadi. Shu bilan birga, bu ishda mehnat ta’limi alohida o‘rinni egallashini esdan chiqarmaslik kerak. Bunga sabab shuki, mehnat ta’limining mazmuniga qator kasblar bilan uzviy ravishda tanishtirish kiritib yuboriladi va bu tanishtirish faqat nazariy jihatdangina emas, amaliy jihatdan ham olib boriladi. Ma’lumki, kasb to’g’risida tasavvur ana shunday tarzda berilgandagina u haqda to’liq tasavvurga ega bo’lish mumkin bo’ladi.

Mehnat ta’limi jarayonida o‘quvchilarni yog‘ochga, metallga va boshqa materiallarga ishlov berish bilan, elektr montaj ishlarini bajarish, mashinalarga xizmat ko‘rsatish va shu kabilar bilan bog‘liq bo‘lgan qator ishchi kasblari bilan tanishtirish uchun qulay sharoit vujudga keladi. Ustaxonalarda mashg‘ulotlar o‘tkazilayotganda u yoki bu mutaxassis nima bilan

shug'ullanishi to'g'risida shunchaki tasavvur berish emas, balki kasbning barcha tomonlarini ochish, mehnat sharoitlarini ko'rsatib berish muhimdir. Buni amalga oshirish oson emas, albatta. Buning uchun o'qituvchi rejali ravishda ishlashi kerak.

O'qituvchilarning ish tajribasi o'quvchilarni kasb tanlash usul va metodlarini belgilab berdi. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat.

- Darslarda kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlari masalan, o'qituvchi o'quvchilarni ular ustaxonalaridagi mashg'ulotlarida bajaradigan ish bilan bog'liq kasblar bilan tanishtiradi. Bundan tashqari, o'qituvchi korxonalarda yog'ochga qo'lda ishlov berish bilan bog'liq ixtisosliklar o'rnini egallagan stanokchilar kasbi haqida ham gapirib beradi. O'quvchilarga ustaxonalaridagi mashg'ulotlarda metallga ishlov berishni o'rgatishda ular qator slesarlik va stanokchilar kasbi: tunukachi slesar, asbobsoz slesar, remontchi slesar, yig'uvchi slesar, tokar, parmalovchi kasblari bilan tanishtiriladi. Elektr montaj ishlariga bag'ishlangan mashg'ulotlarda o'quvchilar elektromontyor, elektroslesar (remontchi elektromontyor, elektromantajchi slesar, o'rovchi elektromontyor va h.k.) kasblari bilan tanishadilar.

- Ekskursiyalarda kasbga yo'naltirish o'quvchilarni o'quv rejasi doirasidan chiquvchi material bilan tanishtirishga qulay sharoit yuzaga keladi. Bu imkoniyatdan o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash uchun foydalanish mumkin. Masalan, o'quvchilar metallga va yog'ochga ishlov beriladigan mexanika sexlariga borganda uskunalarining ko'plab guruh va tiplarini ko'radilar. Shuning uchun o'qituvchiga ana shu uskunalarda ishlovchi ishchi kasblari haqida gapirib berish tavsiya etiladi. Agar ishchilarning o'zlari o'z ishlari, tayyorlaydigan mahsulotlari haqida gapirib bersalar, o'quvchilar bu kasblar to'g'risida ko'proq tasavvurga ega bo'ladi.

- To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirishga ko'proq imkoniyatlar vujudga keladi. To'garaklardagi mashg'ulotlar o'quvchilarga yuqori sinflarda mehnat ta'limining yo'nalishini tanlashda yordam beradi.

- Ishlab chiqarish novatorlari va maktabni bitirgandan so'ng moddiy ishlab chiqarish sohasida ishlayotganlar bilan uchrashuvlar o'tkazish o'quvchilar maktabni bitirgandan keyin sanoat korxonalarida ishlayotgan kishilarning chiqishlari o'quvchilarda katta taassurot qoldiradi.

Mehnat ta'limi jarayonida o'quvchilar tanishadigan kasblar ancha ko'p. Shuning uchun, o'qituvchilar o'quvchilarga o'z kasbi haqida hikoya qilib beradigan ishlab chiqarish novatorlarini topishda qiynalmaydi. Ishlab chiqarish novatorlari bilan uchrashuvlar ko'pincha tantanali vaziyatda o'tadi. Bolalar mehmonlarga atab sovg'alar tayyorlash, yaxshi o'qishga va'da berish majburiyatlarini oladi. Bunday tadbirlar katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

- Har xil madaniy tadbirlar o'tkazishda kasb tanlashga yo'llash ishining muvaffaqiyatli olib borilishiga yordam beruvchi har xil madaniy-ommaviy tadbirlar maktablarning ish tajribasidan ma'lum. Masalan, «Kasb haqida kim ko'proq biladi» mavzusiga bag'ishlab konkurslar o'tkazish, «Kasblar dunyosida» nomli og'zaki jurnallar chiqarish, «Kasb tanlashda shaxsiy va jamoat fikri» mavzusi bo'yicha munozaralar uyushtirish, tegishli adabiyotlar ko'rgazmasini tashkil qilish, kitob va kinofilmlarni muhokama qilish shular jumlasidandir. Mazkur tadbirlarning barchasi ustaxonalarda amalga oshirilishi mumkin.

- Kasblarni chuqur o'rganishda o'qituvchi muayyan kasblar to'g'risida tasavvur berish uchun bir yo'la barcha o'quvchilar bilan ish olib borishdan tashqari, u yoki bu kasb bilan yaxshilab tanishish istagi bo'lgan o'quvchilar bilan jiddiyroq ish olib boradi. O'quvchilar qiziqishlariga qarab guruhlariga yoki klublarga birlashtiriladi. Bunda ishning turli-tuman tashkiliy formalari qo'llaniladi. O'quvchilar o'z kuchi bilan muzey yaratadilar, referatlar yozadilar, ekskursiyalar o'tkazadilar. Bularning barchasi o'qituvchiga muayyan kasb insonga qanday talablar qo'yishini kengroq tushuntirib berishga o'quvchilarning kasb tanlash negizlarini tushunib olishlarida ko'maklashishga imkon beradi.

- Kasbga yo'naltirilgan fanlarga ajratilgan soatlarning ma'lum qismidan kasb tanlashga yo'llash ishi uchun foydalaniladi.

Xulosa qilib shuni aytib o'tish kerakki, har bir ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini va qobiliyatlarini aniqlashda yuqorida aytib o'tilgan forma va metodlardan samarali foydalanish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy mahoratlarini SMART-texnologiyalari asosida shakllantirish metodikasi." Qo'qon DPI Ilmiy xabarlari, 2025- yil, 2-son, 1007-10009-b
2. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna "Boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda SMART-texnologiyalarini qo'llashning xususiyatlari" Qo'qon DPI Ilmiy xabarlari, 2025- yil, 1-son, 461-465-b
3. Qipchaqova Yorqinoy Hamidjonovna BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISINING KASBIY MAHORATLARI TUSHUNCHASI JournalNX- A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal ISSN No: 2581 - 4230 VOLUME 12, ISSUE 2, February – 2025, 60-63-b
4. Yorqinoy Kipchakova The importance of artificial intelligence in developing professional knowledge of future educators Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations Special Issue – 11 (2024) / ISSN 2181-1415, 45-50-b
5. Yorqinoy Qipchaqova Hamidjonovna THE ROLE OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF FUTURE TEACHERS INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS IMPACT FACTOR

MANTIQUIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA MATEMATIKADA QO'LLANILADIGAN USULLAR VA METODLAR

Ra'noxon Shavkatovna Sharofutdinova

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti, (PhD)

Xursanova Zilola Mirzaxolmatoana

Boshlang'ich talim uslubiyoti kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematikada qo'llaniladigan usullar va metodlar tahlil qilinadi. Matematik ta'limda mantiqiy fikrlashning o'rni va ahamiyati, shuningdek, bu ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan turli pedagogik usullar (masalan, analitik, sintetik, induktiv, deduktiv yondashuvlar) ko'rib chiqiladi. Maqolada mantiqiy fikrlashni shakllantirishda matematik masalalar, formulalar, geometriya va algebraik metodlar, hamda muammolarni hal qilish uchun o'yinlar va mashqlar yordamida amalga oshiriladigan ta'lim metodikasi batafsil yoritiladi. Ushbu metodlar mantiqiy fikrlashni faollashtiradi va o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Tadqiqot natijalari bo'yicha, matematik metodlarni mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda samarali foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: mantiqiy fikrlash, matematik usullar, ta'lim metodikasi, pedagogik metodlar, analitik fikrlash, sintetik fikrlash, induktiv va deduktiv usullar, matematik masalalar, algebra va geometriya, o'yinli metodlar, ta'lim samaradorligi

Mantiqiy fikrlash – bu bilimlarni to'g'ri, aniq va izchil tarzda qabul qilish, tahlil qilish, sintez qilish, baholash va qarorlar qabul qilish qobiliyatidir. Ta'lim jarayonida mantiqiy fikrlashning rivojlanishi o'quvchilarning intellektual qobiliyatlari va bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, matematik ta'limda mantiqiy fikrlashning o'rni juda katta, chunki matematika o'quvchilarga murakkab masalalarni hal qilishda tizimli va izchil yondashuvni talab qiladi. Matematik masalalar va vazifalar mantiqiy fikrlashni rivojlantirish

uchun eng samarali vosita bo'lib, ular o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishda yuqori darajadagi analitik fikrlashga undaydi.

Matematikada qo'llaniladigan turli usul va metodlar, jumladan, induktiv va deduktiv usullar, analitik va sintetik yondashuvlar, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bularning barchasi o'quvchilarning matematik fikrlashini rivojlantirish va ularni o'z bilimlarini amalda qo'llashga yo'naltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, matematik o'yinlar, mashqlar va interaktiv metodlar yordamida mantiqiy fikrlashni faollashtirish va o'quv jarayonini yanada qiziqarli hamda samarali qilish mumkin.

Ushbu maqolada matematikada qo'llaniladigan metodlar va usullarni tahlil qilish orqali, mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda qanday yondashuvlarning samarali ekanligi, shuningdek, pedagogik amaliyotda qanday qo'llanilishini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot natijalari asosida, matematik metodlarni mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda qanday samarali qo'llash mumkinligi bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Mazkur tadqiqotda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematikada qo'llaniladigan usul va metodlarning samaradorligini aniqlash uchun turli pedagogik yondashuvlar va metodlar o'rganiladi. Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematikaning o'quv jarayonidagi o'rni va ahamiyati katta bo'lib, bu ko'nikmalarni shakllantirish uchun quyidagi metodik yondashuvlar qo'llaniladi:

Induktiv usul: Bu usulda o'quvchilar aniq misollar orqali umumiy qonuniyatlarga keladilar. Matematik masalalar va topshiriqlarni echish jarayonida o'quvchilar amaliyotda fikrlash orqali umumiy qoidalarni topadilar. Bu metod o'quvchilarda mustahkam mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Deduktiv usul: Bu yondashuvda umumiy qoidalardan kelib chiqqan holda aniq misollarni yechish yo'li ko'rsatiladi. O'quvchilarga matematik formulalar va teoremlardan foydalanish orqali amaliy masalalarni yechish vazifasi beriladi. Deduktiv usul o'quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantiradi.

Analitik yondashuv: Matematik masalalar yoki ifodalar bir nechta qismlarga ajratilib, har bir qismining xususiyatlari va bog'liqligi tahlil qilinadi. Bu metod, ayniqsa, algebra va geometriya fanlarida qo'llaniladi va o'quvchilarda masalaning har bir aspektini mustaqil tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

Sintetik yondashuv: Bu usulda o'quvchilar barcha qismlarni birlashtirib, umumiy yechimni topadilar. Sintetik metod orqali masalalarning umumiy yechimi yoki yechimlarining samarali usullari aniqlanadi.

O'yinli metodlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda samarali vosita bo'lishi mumkin. O'yinlar va interaktiv mashqlar yordamida o'quvchilarga matematik masalalarni qiziqarli va raqobatli tarzda hal qilish imkoniyatini yaratish mumkin. Bu metod, o'quvchilarning kreativ fikrlashlarini faollashtiradi hamda mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematik masalalar juda muhim rol o'ynaydi. Matematik masalalarni yechish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini izchil va mantiqan to'g'ri tarzda ifodalashadi. Har xil turdagi masalalar, jumladan, algebraik masalalar, geometriya, statistik va ehtimollik masalalari o'quvchilarni tizimli fikrlashga undaydi.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishda matematika mashqlari va sinovlari juda muhim o'rinni egallaydi. Mashqlarni muntazam ravishda bajarish orqali o'quvchilar mantiqiy fikrlashni rivojlantirib, matematikani o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni yengib o'tadilar. Sinovlar orqali o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalarini amalda tekshirish imkoniga ega bo'ladilar.

Matematik masalalarni hal qilishda eksperimentlar va tajribalar o'tkazish metodlari qo'llanilishi mumkin. Bu usul orqali o'quvchilar o'zlarining matematik bilimlarini real hayotdagi vaziyatlarga tatbiq qilishadi, bu esa ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi.

Ushbu metodikalar orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida qo'llaniladigan matematik usullar va metodlar o'quvchilarga fikrlashning turli usullarini

o'rganish va amaliyotda qo'llash imkonini beradi. Har bir metodning samaradorligi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga va ta'lim olish darajasiga qarab, alohida e'tiborga olinishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Piaget, J. "The Psychology of Intelligence". London: Routledge, 2001.
2. Vygotsky, L. S. "Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes". Cambridge: Harvard University Press, 1978.
3. Dewey, J. "How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process". Boston: D.C. Heath, 1933.
4. Tikhomirov, V. O. "Mantiqiy fikrlash va mantiqiy tahlil". Moskva: Pedagogika, 1984.
5. Asqarova, M. "Mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi". Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
6. Kolb, D. A. "Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development". Englewood Cliffs: Prentice Hall, 1984.
7. G'ofurov, Sh. "Didaktik o'yinlar va ular orqali ta'lim samaradorligini oshirish". Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
8. Prensky, M. "Digital Game-Based Learning". New York: McGraw-Hill, 2001.
9. Berkimov, K. "Pedagogik o'yin texnologiyalari". Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2019.
10. Nazarov, Q. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasi". Toshkent: O'zbekiston Universiteti nashriyoti, 2021.
11. Ismoilova, L. "O'qituvchi kasbiy tayyorgarligida interaktiv metodlarning roli". Qarshi: Nasaf nashriyoti, 2019.
12. Salimova, D. "Kasbiy ta'limda mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish". Toshkent: Fan va Ma'rifat, 2023.
13. Shakarova, S. "Matematik ta'limda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish metodlari". Toshkent: Ziyoyi, 2021.
14. Huizinga, J. "Homo Ludens: A Study of the Play-Element in Culture". Boston: Beacon Press, 1950.

BOSHLANG'ICH SINFLARGA RIM RAQAMLARINI O'RGATISH

Usmonova Odinaxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tojiboyeva Nilufar To'xtasin qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Anotatsiya: Boshlang'ich ta'limda rim raqamlari haqida ma'lumot berish muhim ahamiyatni kasb etadi. Maqolada rim raqamlarining yozilish qoidalari va o'qituvchilar tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklar yuzasidan fikr- mulohazalar bildirilgan. Ushbu maqola rim raqamlarini o'quvchilarga tushuntirishda qiynalayotgan o'qituvchilarimiz uchun tavsiya sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Raqam, arab raqami, rim raqami, belgi, qoidalar.

Raqamlar sonlarni ifodalaydigan belgilar hisoblanadi. Biz kundalik hayotimizda arab raqamlaridan foydalanamiz. 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlari arab raqamlari deb nomlanadi. Arab raqamlari aslida, Hindistonda vujudga kelgan. IX asrda yashab ijod etgan buyuk bobokalonimiz

Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy o'nta raqamdan foydalanib istalgan sonni yozish mumkinligini isbotlab bergan. Qadimgi Rimda I,V,X,L,C,D,M ko'rinishdagi belgilardan raqam sifatida foydalanishgan. Bu raqamlar esa, rim raqamlari deb atalgan. I=1, V=5, L=50, X=10, C=100, D=500, M=1000 sonlarini bildirgan. Boshlang'ich ta'limda 3-4-sinf matematika darsliklarida rim raqamlari mavzusi uchun alohida soat ajratilgan. 3-sinf matematika darsligining 88-89-sahifalarida rim raqamlari haqida juda yaxshi ma'lumotlar berilgan. 4-sinf matematika darsligining 10-11-sahifalarida esa 3-sinfda berilgan ma'lumotlarni takrorlab topshiriqlar berilgan. Rim raqamlari qaysi ketma-ketlikda yozilishidan qat'iy nazar, bir xil qiymatga ega bo'ladi. Masalan, CCC yozuvida har bir C belgisi 100 soniga teng. Shuning uchun rim raqamlari nopozitsion sanoq sistemasiga misol bo'la oladi.

Ma'lumki, o'qituvchilar uchun barcha fanlardan metodik qo'llanmalar ishlab chiqiladi. Ammo, metodik qo'llanmalarda uchraydigan noto'g'ri tavsiyalar oqibatida, nafaqat o'qituvchilar, balki, ularning qo'l ostilarida ta'lim olayotgan o'quvchilar ham noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Masalan 3-sinf o'qituvchilari uchun mo'ljallangan 2016-yilda nashrdan chiqqan matematika fanidan metodik qo'llanmada, "Rim raqamlari" deb nomlangan mavzu uchun mazmunli tavsiyalar berilgan. Biroq, ushbu qo'llanmaning 65-sahifasida rim raqamlarida to'rtta bir xil raqam yonma-yon yozilmasligi kerak degan ko'rsatma berilgan bo'lsada, 64-sahifasida 489-topshiriqda (hozirgi amaldagi darslikda 89-sahifadagi 2-misol) sonlarni rim raqamlarida yozilishi uchun berilgan uslubiy tavsiyasida ilmiy xatolikga yo'l qo'yilgan. Ya'ni, 148-CXXXVIII, 692-DCXXXII, 893-DCCCCLXVIII singari sonlarni rim raqamlari ko'rinishda yozilgan. Aslida, rim raqamlarini yozish qoidasiga rioya qilib yozilsa, quyidagicha yozilishi kerak edi.

148-CXLVIII, 692-DCXCII, 893-DCCCXCIII.

Demak, yuqoridagi qo'llanmada, 148 va 692 sonlarini yozishda, X raqamidan, 893 sonini yozishda esa, C raqamidan to'rt martadan takror holda noo'rin foydalanilgan. 692 va 893 sonlari uchun qo'llanilgan rim raqamlari esa mutlaqo boshqa son qiymatini ko'rsatib turibdi.

Shu sababli har bir yaratilayotgan metodik qo'llanmalar har tomonlama mukammal tuzilgan bo'lishi darkor.

Rim raqamlarini yozishda o'qituvchilarimiz quyidagi qoidalarga amal qilishlari zarur:

- Agar kichik raqam katta raqamning chap tomonida yozilgan bo'lsa, katta raqamdan kichik raqam ayriladi.

$IV=5-1=4$, $IX=10-1=9$, $XC=100-10=90$, $XL=50-10=40$

- Agar kichik raqam katta raqamning o'ng tomonida yozilgan bo'lsa, katta raqamga kichik raqam qo'shiladi.

$XV=10+5=15$, $CXV=100+10+5=115$

- Agar kichik raqam ikkita katta raqamning o'rtasida kelsa, avval o'rtadagi raqam qiymatini o'ngdagi raqam qiymatidan ayriladi. So'ng hosil bo'lgan ayrima birinchi raqam qiymatiga qo'shiladi.

$DXC=500+(100-10)=500+90=590$

- Rim raqamlarida bir raqam ketma-ket uch martadan ortiq takrorlanmasligi kerak.

Bir xil sonni ketma-ket to'rt marta ishlatishga ta'qiq XIX asrda paydo bo'lgan. Shu sababli eski matnlarda IV va IX raqamlari o'rniga IIII yoki, VIII, V va LX o'rniga IIIII yoki XXXXXX belgilardan foydalanilgan.

M(1000) raqami rim raqamlari tizimidagi eng katta raqam bo'lganligi uchun va biz raqam yaratishda faqat uchta bir xil belgidan foydalanishimiz mumkinligi sababli, rim raqamida yozilgan eng katta son 3999(MMMCMXCIX). Shunday bo'lsada, biz katta raqamlarni yozishimiz mumkin, faqat ularni sonini 1000 ga ko'paytirish uchun yuqorisiga chiziq chizish kerak bo'ladi.

Masalan, $I\bar{V}=4000$, $\bar{V}=5000$, $\bar{X}\bar{X}=20\ 000$

Rim raqamlari haqidagi to'liq ma'lumotlarni har qanday pedagog bilishi shart. Chunki, kitoblardagi bob va bo'limlarni belgilashda, tarixdagi asrlarni, oylarni, choraklar va boshqalarni

yo'zishda hamon rim raqamlaridan foydalanib kelinmoqda. XXI asr, III oy, IV chorak, V bob shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Abdullayeva, M.Toshpo'latova, A.Sadikova, Y.Jabborova, N.Muxitdinova. Matematika o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma 3-sinf. Toshkent. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"2016- yil.62-65 betlar.
- 2.Manzuraxon Madaliyeva. Sahnada matematika Farg'ona."Universal poligraf"2012 – yil.[35-37-betlar.]
- 3.S.Burxonov, O'.Xudoyorov, Q.Norqulova, N.Ruziqo'lova, L.Goibova. Matematika 3-sinf uchun darslik. Toshkent. "Sharq" Toshkent-2019.88-89-betlar.
- 4.N.U.Bikbayeva Matematika 4-sinf uchun darslik.Toshkent. "O'qituvchi" Toshkent-2020.10-11-betlar.

MAKTABGACHA TA'LIMDA BOSHQARUVNING AHAMIYATI

Yuldasheva Dilshoda To'liqinova

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Xolmatova Yodgoroy Baxtiyorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimida boshqaruvning o'rnini, uning ahamiyati va samarali boshqaruv usullariga oid muhim masalalar ko'rib chiqiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning vazifalari, tashkil etilish jarayoni, pedagogik xodimlar va ota-onalar bilan hamkorlik qilishning muhimligi, shuningdek, sifatli ta'limni ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqaruvning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Maktabgacha ta'lim tizimidagi boshqaruvni takomillashtirish va yangilash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: boshqaruv, menejment, maktabgacha ta'lim, nazorat qilish, rejalashtirish.

Maktabgacha ta'lim bosqichi — bolalar uchun hayotdagi ilk ta'lim davri bo'lib, maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimi, uning samarasini ta'minlashda katta ahamiyatga ega. Boshqaruv tizimi orqali ta'lim jarayonini to'g'ri yo'naltirish, pedagogik jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish, bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olish va ularni rivojlantirish mumkin. Bu davrda boshqaruv tizimi ta'lim muassasasining tashkil etilishida, pedagoglar va ota-onalar bilan aloqalar o'rnatishda, bolalar bilan ishlashda yangi pedagogik usullarni qo'llashda muhim rol o'ynaydi.

Boshqaruvning samaradorligi, o'quv jarayonini samarali tashkil etishda va pedagogik xodimlarni motivatsiya qilishda ko'zga tashlanadi. Ta'lim tizimi boshqaruvchilari faqatgina tashkilot ichidagi ishlarni boshqarish bilan cheklanib qolmasdan, pedagogik jarayonni mustahkamlash va rivojlantirishda faol ishtirok etadilar. Maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimining muvaffaqiyati, eng avvalo, pedagoglarning malakasi, bilim darajasi, ishga yondashuvi va pedagoglarga bo'lgan alohida e'tibori bilan bevosita bog'liq.

Maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimini samarali tashkil etish uchun bir qator usullar va metodlar qo'llaniladi. Ularning eng muhimlaridan biri markazlashtirilgan boshqaruv tizimi va desentralizatsiyalashgan boshqaruv tizimlarining uyg'unlashgan qo'llanilishi hisoblanadi. Markazlashtirilgan boshqaruv tizimida qarorlar yuqori darajada qabul qilinadi va ta'lim tashkilotlarining barcha jabhalarida yagona siyosatni amalga oshirishga intilish mavjud. Biroq, desentralizatsiyalashgan boshqaruv tizimi ko'proq erkinlik va o'zgarishlarga moslashishga imkon beradi, shuningdek, mahalliy darajadagi pedagoglar va xodimlarga tashkilot faoliyatiga ko'proq ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratadi.

Pedagogik boshqaruvning samarali tashkil etilishi, ayniqsa, bolalar ta'limining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Boshqaruvning samaradorligini oshirish uchun pedagoglarni o'z malakasini oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'rganish, yangi usullarni tatbiq etish va bolalar bilan ishlashda innovatsion yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Bu yondashuvlar bolalar rivojlanishining har bir jihatini hisobga olib, ularning ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga yordam beradi.

Maktabgacha ta'limda pedagogik boshqaruvni samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi zarur. Bu texnologiyalar o'quv jarayonida interaktiv metodlarni, bolalarni qiziqtiruvchi yangi usullarni va pedagogik materiallarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, pedagoglar o'rtasida o'zaro tajriba almashishni tashkil etish, malaka oshirish dasturlarini amalga oshirish va innovatsion pedagogik metodlarni qo'llash orqali pedagogik jarayonni takomillashtirish mumkin.

Pedagogik xodimlarning malakasini oshirish, ularning pedagogik qobiliyatlarini rivojlantirish ham maktabgacha ta'lim boshqaruvining samarali ishlashi uchun muhim omildir. Pedagoglar o'z ishlarini yanada samarali va ijodiy bajarish uchun yangi bilimlar va metodlarni o'rganishlari, o'zlarining pedagogik yondashuvlarini rivojlantirishlari zarur. O'z malakasini oshirish imkoniyatlarini yaratish, pedagoglarga o'z ustalarini takomillashtirishga yordam beradi va bu o'z navbatida bolalar ta'limining sifatiga ta'sir qiladi.

Maktabgacha ta'lim boshqaruvi samarali bo'lishi uchun ota-onalar bilan aloqalar mustahkam bo'lishi lozim. Ota-onalar bilan doimiy va samarali muloqot bolalar ta'limining sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega. Pedagoglar va boshqaruv tizimi, ota-onalar bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, ular bilan bolalar rivojlanishi bo'yicha doimiy aloqalar o'rnatish orqali bolalarning individual ehtiyojlarini inobatga olish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Boshqaruv tizimining samarali ishlashi bolalar bilan ishlashda individual yondashuvni tatbiq etishga yordam beradi. Har bir bola o'zining o'ziga xos rivojlanish xususiyatlariga ega, shuning uchun pedagoglar bolalarning ehtiyojlariga mos yondashuvni amalga oshirishlari zarur. Boshqaruv tizimi o'z faoliyatida bolalar rivojlanishining individual xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik jarayonni olib borish uchun zarur resurslarni ta'minlashi lozim.

Maktabgacha ta'lim boshqaruvini yanada takomillashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilishi kerak. Bular, birinchi navbatda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, pedagogik xodimlarning malakasini oshirish va innovatsion yondashuvlarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, boshqaruv tizimining shakl va usullarini yangi pedagogik talablarga moslashtirish, bolalar ta'limining sifatini oshirishga qaratilgan doimiy tahlil va nazoratni o'tkazish zarurdir.

Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining menejment tizimini rivojlantirish ham muhim ahamiyatga ega. Boshqaruvning samarali tashkil etilishi, xususan, bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish orqali pedagogik boshqaruvni yangi ko'rinishlari bilan boyitish talab etiladi. Boshqaruv tizimi nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar va jamiyat bilan hamkorlikni ham rivojlantirishi kerak.

Maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimi bolalar ta'limining sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Samarali boshqaruvning ta'lim jarayonida pedagog xodimlar va ota-onalar bilan hamkorlik, pedagoglarning malakali va motivatsiyalangan bo'lishi, ta'lim jarayonining doimiy nazorat qilinishi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tizimining rivojlanishi uchun boshqaruvni takomillashtirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish juda muhimdir. Bu jarayon nafaqat bolalar ta'limining sifatini oshirish, balki pedagogik jarayonni samarali boshqarish orqali jamiyatning kelajagini shakllantirishga ham yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo'chqorova, M. (2020). Maktabgacha ta'limda boshqaruv va uning samaradorligi. Toshkent: "Fan va texnologiya".

2. Ismoilova, R. (2019). Pedagogik boshqaruv metodlari: Nazariy asoslar va amaliyot. Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
3. Alimov, A. B. (2017). Maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimi: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
4. Ibragimov, Sh. A. (2019). Pedagogik boshqaruv metodlari: nazariy va amaliy yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston davlat pedagogika universiteti.
5. Kadirova, Z. T. (2018). Maktabgacha ta'limda pedagogik boshqaruvni rivojlantirish. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
6. Shodiyeva, N. Z. (2020). Maktabgacha ta'limda bolalar rivojlanishi va boshqaruv. Tashkent: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.
7. Muminov, D. F. (2021). Maktabgacha ta'limda boshqaruv tizimining yangiliklari va innovatsiyalari. Toshkent: Innovatsion ta'lim nashriyoti. Muminovning ilmiy ishlanmasi maktabgacha ta'limning boshqaruv tizimiga innovatsion yondashuvlar kiritishga qaratilgan.

РАЗВИТИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Абдурасулова Нилуфар

Ферганский государственный университет факультет педагогики-психологии и искусствоведения направление начального образования, группа 21.35

Тема доклада "Развитие математической грамотности у младших школьников" связана с важностью формирования математических навыков и умений у детей в начальных классах. Математическая грамотность означает уверенное владение базовыми знаниями, навыками и пониманием принципов предмета. Развитие этого аспекта образования имеет огромное значение, так как грамотность в математике является фундаментом успешной учебы в более старшем возрасте и важной компетенцией в повседневной жизни.

В начальной школе многие дети не понимают значимости математики в жизни и с трудом заставляют себя сесть за решение задач или заучивание таблицы умножения. Поэтому так важно помочь ребёнку понять ценность математики в реальной жизни ещё в младших классах, в период самой активной любознательности. Важно обеспечить им качественное освоение математических понятий и навыков. Развитие математической грамотности в этом возрасте также способствует формированию у детей уверенности в своих способностях и позитивному отношению к изучению математики. Таким образом, тема доклада является важной и актуальной, поскольку она напрямую связана с успешной учебой и дальнейшим развитием детей.

Математическая грамотность - это способность человека использовать математические знания, навыки и умения в повседневной жизни. Она включает в себя понимание базовых математических концепций, умение решать проблемы, анализировать информацию, работать с числами, измерениями, графиками и таблицами, и применять полученные знания на практике.

Ведущее место в «математической грамотности» отводится «учебной задаче». «Учебная задача» - это то, что выдвигается самим учеником для выполнения в процессе обучения в познавательных целях.

Математическая грамотность также включает умение использовать калькуляторы и компьютерные программы для решения задач, анализа данных и представления результатов исследований. Эти умения являются важным аспектом образования, поскольку могут влиять на повседневные решения, карьерные возможности и жизненный

успех. Математическая грамотность играет огромную роль в учебе и повседневной жизни по нескольким причинам.

Хорошее понимание математики и умение применять её помогают детям в учебе, особенно в предметах, где используется математика, таких как физика, химия, экономика и даже биология. Математическая грамотность помогает учащимся успешно справляться с заданиями. Так же математическая грамотность является ключевым фактором во многих профессиях, особенно в областях науки, техники, финансов, программирования и многих других. Грамотность в математике может открыть больше возможностей для работы и карьерного роста. В современном мире данные становятся все более важными в области бизнеса, науки, технологий и повседневной жизни. Математическая грамотность позволяет анализировать данные, видеть тенденции, делать выводы и принимать обоснованные решения и помогает людям решать разнообразные повседневные задачи, такие как планирование бюджета, покупки, ремонт, измерения, и многое другое.

Примеры заданий на формирование понимания необходимости математических знаний для решения учебных и жизненных задач, умения оценить учебные ситуации, которые требуют математических знаний:

- Сколько нужно заплатить за электроэнергию, если известны показания счетчиков и цена кв электроэнергии?

- В семье нужно отметить твой день рождения. Вместе с родителями необходимо договориться, сколько купить продуктов и украшений. Но есть ограничение: всего 1500 руб.

- Вычисли, на каком этаже находится квартира № 85, если в доме 5 подъездов и 200 квартир.

Таким образом, развитие математической грамотности у детей не только обеспечивает им успешную учебу, но и является фундаментом для их будущих профессиональных и повседневных достижений. Основные проблемы, с которыми младшие школьники сталкиваются в изучении математики, включают в себя следующее. Многие математические концепции, такие как умножение, деление, дроби и др., могут быть для детей абстрактными и труднопонимаемыми. Это затрудняет их способность к освоению материала. Для успешного изучения математики необходимо уверенное владение базовыми навыками, такими как сложение, вычитание, умножение и деление. У некоторых детей могут возникать трудности с этим, что затрудняет их продвижение вперед и понимание нового материала. Некоторые дети могут испытывать низкую мотивацию и уверенность в своих способностях в области математики из-за преждевременных неудач или отсутствия понимания.

Многие дети боятся совершать ошибки при решении задач, что может затруднять процесс обучения. В больших классах у учителей может не быть достаточно времени для индивидуальной работы с каждым ребенком, что осложняет устранение индивидуальных трудностей в изучении математики. Учитывая эти проблемы, важно обеспечить детей подходящими методами обучения и поддержку для развития их математической грамотности. Отрицательный опыт в изучении математики может иметь серьезное влияние на формирование математической грамотности у детей и подростков.

Провалы в изучении предмета могут снизить уверенность ребенка в своих способностях, что может привести к отталкиванию от предмета и ухудшению результатов в будущем. Неверный ответ может вызвать у учеников страх перед математикой, что затормозит их желание изучать этот предмет и будет мешать работать над улучшением своих навыков. Постоянное чувство неудачи может распространиться на отношение ребенка к учебе в целом и, таким образом, отрицательно сказаться на его успехах в других областях. Негативный опыт в изучении математики может вызвать у детей стресс, тревожность и чувство беспомощности, что, в свою очередь, отрицательно влияет на их обучение, эмоциональные и психологические состояния.

Поэтому важно предоставлять детям поддержку, позитивный опыт и помощь в преодолении трудностей в изучении математики. Поощрение и создание позитивной атмосферы в учебной среде может помочь изменить отношение детей к предмету и способствовать формированию их математической грамотности.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. М.И. Моро “Математика” учебник 4 класс Москва 2005г
2. Л.Г. Петерсон (УМК «Учусь учиться») Москва 2018г, 160с
3. Н.Б. Истомина (УМК «Система развивающего обучения Эльконина-Давыдова») (УМК «Учусь учиться») Москва 2019г, 144 с
4. М.И. Моро “Математика” учебник 3 класс Москва 2005г
5. М.И. Моро и др. (УМК «Школа России») Москва 2017г, 160с
6. «Развитие математических способностей» – Ткачёва, Бененсон 2017г, 112 с

MOTIVATSIYANING TA'LIMDAGI AHAMIYATI

Alimjanova Matlyuba Yunusovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi

Xaydarova Dinora

Farg'ona davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: O'quv jarayonining samaradorligida va xususan, ma'lumotni idrok etishda talabalarning o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi katta rol o'ynaydi. Motivatsiya-bu insonning xulq-atvori va faoliyatini belgilovchi psixologik jihatdan bir-biriga o'xshamaydigan omillar to'plami, tizimi. Boshqacha qilib aytganda, u inson faoliyatini keltirib chiqaradigan yoki uni kuchaytiradigan turtki vazifasini bajaradi. Motivatsiya, zamonaviy psixologik g'oyalarga ko'ra (E. S. Kuzmin, B. F. Lomov, K. K. Platonov va boshqalar), ma'lum bir ierarxiyaga ega bo'lgan va shaxsning yo'nalishini ifodalovchi doimiy motivlar to'plami sifatida tushuniladi. Shaxsning ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan va ularni qondirishga qaratilgan muayyan faoliyatga undaydigan ichki kuchlar motivlar deb hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Motiv, maqsad, ta'lim, ehtiyoj, vazifa.

Ta'lim motivatsiyasi o'quv faoliyati, o'quv faoliyatiga kiritilgan motivatsiyaning o'ziga xos turi sifatida belgilanadi.

Ta'lim motivatsiyasi, boshqa har qanday turlari singari, tizimli xarakterga ega. Bu yo'nalish, chidamlilik va dinamizm bilan ajralib turadi.

Ta'lim motivatsiyasining umumiy tuzilishi ehtiyoj, o'rganish ma'nosi, o'rganish motivi, maqsadi, qiziqishi, istaklari va niyatlari bilan shakllanadi, vazifa motivatsion tushunchalarning eng asoslari ehtiyoj tushunchasidir. Ehtiyoj-bu shaxsning mavjudligi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan muayyan ob'ektlarga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqadigan holat. Shuning uchun ehtiyoj inson faoliyatining asosiy manbalaridan biridir. Faoliyatning motivi va uning manbai bo'lgan ehtiyoj bir vaqtning o'zida uning natijasidir.

Ehtiyojlar insonning faoliyatga bo'lgan dastlabki motivlari bo'lib, ular uning tashqi dunyoga bog'liqligini va unga yo'naltirilganligini ifodalaydi. Barcha tirik mavjudotlarning ehtiyojlari bor. Ehtiyojlarning asosiy xususiyatlari: a) kuch; b) paydo bo'lish chastotasi; v) qondirish usullari; e) ob'ektiv tarkib (ya'ni, ushbu ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ob'ektlar to'plami).

Insonning motivatsion sohasini tavsiflovchi yana bir tushuncha-bu motiv. Motiv-bu shaxsning ma'lum bir ehtiyojni qondirish bilan bog'liq bo'lgan har qanday faoliyat turiga (faoliyat, aloqa, xulq-atvor, o'rganish) ichki motivatsiyasi. Shu bilan birga, motiv faoliyat

yo'nalishini, u yo'naltirilgan ob'ektni (moddiy yoki ideal) rag'batlantiruvchi va belgilovchi tanlovdir.

Ideallar, qiziqishlar, e'tiqodlar, ijtimoiy munosabatlar, qadriyatlar motivlar sifatida harakat qilishi mumkin. Shu bilan birga, yuqorida sanab o'tilgan barcha sabablarga ko'ra, insonning barcha xilma-xilligi (asosiy, biologik, yuqori, ijtimoiy) ehtiyojlari hali ham mavjud.

A. A. Fayzullayev bo'yicha motivning shakllanishi va rivojlanishida uch bosqich mavjud:

- 1) motivatsiyaning ma'lum bir ehtiyojni aks ettirish sifatida paydo bo'lishi;
- 2) motivatsiyani anglash;
- 3) shaxsning ongli motivni faoliyat motivi sifatida qabul qilishi.

Motivatsion sohaning umumiy tuzilishida muhim o'rin maqsadga tegishli. Maqsad-bu insonning kerakli hayotiy vaziyatlarining ba'zi ideal qiyofasi va oldindan aytib beradigan modeli. Bu inson faoliyatini aniqlashning o'ziga xos usuli va inson hayotining muhim xususiyatini belgilaydigan qonun bo'lib, uni atrof-muhitga oddiy moslashuvdan dunyoning faol ijodiy o'zgarishiga aylantiradi. Boshqacha qilib aytganda, maqsad inson erishmoqchi bo'lgan barcha narsalarni, uning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyatning yakuniy natijasini ko'rib chiqish mumkin. Inson faoliyatining o'ziga xos xususiyati shundaki, u ongli va maqsadga muvofiqdir. Aynan unda va u orqali inson o'z maqsadlarini amalga oshiradi, o'zi o'zgartirgan voqelikda o'z g'oyalari va g'oyalarni ob'ektivlashtiradi. Maqsadni amalga oshirish uchun uni amalga oshirish shartlarini hisobga olish kerak. Maqsadning shartlarga nisbati harakat bilan hal qilinishi kerak bo'lgan aniq vazifani belgilaydi.

Ehtiyojlar, motivlar va maqsadlar insonning motivatsion sohasining asosiy tarkibiy qismlari, shu jumladan o'qitishda ham ishlaydi. Shu bilan birga, ehtiyoj ichki, maqsad esa motivatsiyaning tashqi tomoni sifatida ishlaydi. Bu holda motivlar talabalarning xatti-harakatlarini belgilaydigan faol harakatlantiruvchi kuchlar deb tushunilishi kerak. Talabalarni rag'batlantirish-bu ularning muhim hayotiy manfaatlariga ta'sir qilish, ta'limot ushbu manfaatlariga to'liq mos kelishini va ularning ehtiyojlarini qondirishga qaratilganligini ko'rsatish, o'quv jarayonida o'zlarini amalga oshirish uchun sharoit yaratish.

Ehtiyojlar, motivlar va maqsadlardan tashqari, qiziqishlar, istaklar va niyatlar, vazifalar ham ta'limning rag'batlantiruvchi omillari sifatida ko'rib chiqiladi.

Qiziqish-bu kognitiv ehtiyoj, odamning biror narsaga qiziqishi. Faoliyatning maxsus turi-indikativ-tadqiqot qiziqish uyg'otadi. Aytganicha, faqat insonga xos bo'lgan bunday faoliyatning eng yuqori darajasi ilmiy va badiiy va ijodiy izlanishlardir. O'rganishga qiziqishni yaratishning eng muhim sharti bu faoliyatning keng ijtimoiy motivlarini tarbiyalash, uning ma'nosini tushunishdir.

Talabalarning ta'lim mazmuniga va o'quv faoliyatining o'ziga qiziqishini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur shart-bu ularning aqliy mustaqilligi va tashabbuskorligini ta'limotda namoyish etish qobiliyatidir. O'qitish usullari qanchalik faol bo'lsa, talabalarni ularga qiziqtirish shunchalik oson bo'ladi, ularning echimi talabalardan faol qidiruv faoliyatini talab qiladigan vazifalar qancha ko'p bo'lsa, ularning o'rganishga bo'lgan qiziqishi shunchalik barqaror bo'ladi.

Muammoli vaziyatni yaratish, talabalarning mavjud bilimlar zaxirasi yordamida hal qila olmaydigan qiyinchiliklarga duch kelishi o'rganishga qiziqishni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Qiyinchiliklarga duch kelganda, ular yangi bilimlarni olish yoki eski bilimlarni yangi vaziyatda qo'llash usullariga ishonch hosil qilishadi. Faqat doimiy kuchlanishni talab qiladigan ish qiziqarli. Aqliy zo'riqishni talab qilmaydigan engil material an'anaviy ravishda g'ayratli emas. Shu bilan birga, o'quv materiali va o'quv vazifasining qiyinligi, agar bu qiyinchilikni engib o'tish mumkin bo'lsa, qiziqishning oshishiga olib kelishi mumkin, aks holda qiziqish tezda pasayadi.

O'quv materiallari va o'quv ishlarining texnikasi yetarlicha (lekin haddan tashqari emas) xilma-xil bo'lishi kerak. Materialni taqdim etishning xilma-xilligi nafaqat o'quv jarayonida talabalarning turli ob'ektlar bilan to'qnashuvi, balki bir xil ob'ektda yangi xususiyatlar, tomonlar, imkoniyatlarni kashf etish imkoniyati mavjudligi bilan ham ta'minlanadi.

Talabalarda kognitiv qiziqishni uyg'otish usullaridan biri bu to'xtatib turish, ya'ni ularga tanish va kundalik narsalarda yangi, kutilmagan, muhim narsalarni ko'rsatish bo'lishi mumkin. Materialning yangiligi unga bo'lgan ishtiyoqning paydo bo'lishining asosiy shartidir. Shu bilan birga, yangi bilimlar talabalar uchun mavjud bo'lgan bilimlarga asoslanishi kerak.

Talabalarining o'quv materialiga bo'lgan qiziqishining muhim omili uning hissiy ranglanishi, o'qituvchining jonli so'zi, tabassumi, do'stona yuz ifodasidir.

Motivatsion soha tarkibida istak va niyatlar muhim o'rin tutadi. Istak-bu tajribaga bo'lgan ehtiyojni aks ettiruvchi, ushbu ehtiyojni qondirishning haqiqiy imkoniyati, biror narsaga ega bo'lish yoki biror narsani amalga oshirish imkoniyati to'g'risida samarali fikrga aylanadigan. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimlarga ega bo'lish uchun to'liq amal qiladi. Niyat motivatsion sohani rivojlantirishdagi keyingi ixtiyoriy darajadir va mo'ljallangan natijaga erishishga qaratilgan rejalashtirilgan dasturga muvofiq harakatni yakunlash uchun ongli intilishdir. Boshqacha qilib aytganda, istak va niyat – bu harakatlarning o'zgaruvchan shartlariga javob beradigan vaziyatli va tezda bir-birini almashtiradigan sub'ektiv holatlar.

Vazifa motivatsiyaning tarkibiy elementi sifatida muayyan maqsadga erishishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirish jarayonida ma'lum bir muammoni belgilash va hal qilish orqali engib o'tilishi kerak bo'lgan qiyinchilik yoki boshqa to'siq paydo bo'lganda yuzaga keladigan muayyan vaziyat va motivatsion omil sifatida ishlaydi.

Xulosa:

Umuman olganda, o'quv va kasbiy motivatsiyani o'rganish shuni ko'rsatadiki, u murakkab, ko'p qirrali, heterojen, ko'p bosqichli, ierarxik tuzilishga ega bo'lib, u talabaning o'ziga xos motivlari ustun bo'lishiga qarab har xil yo'nalishini belgilaydi va uni to'g'ri shakllantirish va rivojlantirish maqsadida sinchkovlik bilan o'rganish va tahlil qilishni talab qiladi. har bir talaba.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baranov M. T. va boshqalar. rus tilini o'qitish metodikasi. - M.: Ma'rifat, 2018.
2. Bystrova E. A., Lvova S. I., Kapinos V. I., Razumovskaya M. M., Gosteva yu. n., Tsybulko pedagogika universitetlari talabalar uchun darslik. M., 2019 yil.
3. O'rta maktab didaktikasi: zamonaviy didaktikaning ba'zi muammolari. M. N. Skatkin. - M., 2019 yil
4. Xutorskaya A. V. zamonaviy didaktika. Spb., 2021

INNOVATSION VA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH

Asqarova Dilafroz Ibroximovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Bozorboyeva Hosiyatbu To'ychiboy qizi

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada gender tenglik tushunchasining mohiyati hamda uning jamiyat va ta'lim tizimidagi o'rni tahlil etilgan. Shuningdek, gender stereotiplari orqali ta'lim ishtirokchilarining ongida shakllanadigan ijtimoiy tasavvurlar va ularning ijobiy- salbiy jihatlari ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasining tegishli qonun hujjatlari asosida gender tenglikni ta'minlash tamoyillari yoritilgan hamda yoshlar tarbiyasida gender tenglikni shakllantirishga oid takliflar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, gender stereotiplari, tenglik, ta'lim tizimi, ijtimoiy adolat, huquqiy kafolat, demokratik tamoyillar.

Bugungi globalashuv va axborot oqimi kuchaygan davrda har bir ijtimoiy hodisaga ongli yondashish zarurati ortib bormoqda. So'nggi yillarda "gender tenglik" iborasi hayotimizga tobora chuqur kirib kelmoqda. Ko'pchilik bu iborani eshitganida uni faqat ayollar masalasi bilan bog'laydi. Aslida esa gender tenglik – erkaklar va ayollarning jamiyatda teng huquqliligi, teng imkoniyatlarga ega bo'lishini anglatadi. Bu tamoyil inson huquqlari tizimining eng muhim asoslaridan biri bo'lib, har bir fuqaroga – u erkak bo'ladimi, ayolmi – o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga imkon yaratadi.

Ayollar insoniyatning yarmini tashkil etadi. Ularning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi nafaqat adolat tamoyilining ifodasidir, balki mamlakat taraqqiyotining muhim omilidir. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, ayollarni davlat va jamiyat hayotiga keng jalb etish orqali islohotlar samaradorligi ortadi, iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishga erishiladi. Demak, gender tenglik – bu nafaqat inson huquqlari masalasi, balki butun jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 5-moddasi "Jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik" deb nomlanadi. Ushbu modda gender tenglik masalasida yuzaga keladigan ko'plab bahs va tushunmovchiliklarga aniqlik kiritadi. Unda ochiq-oydin qilib aytilganidek, xotin-qizlar va erkaklar davlat tomonidan kafolatlangan teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, ayrim holatlarda gender farqlanishining qonuniy asoslari ham mavjud.

Kasbiy faoliyatda ham ba'zida ayrim majburiyatlar faqat muayyan jins vakillariga moslashtirilgan bo'lishi mumkin. Chunki erkaklar va ayollar o'rtasida jismoniy va ruhiy barqarorlik jihatidan aniq farqlar mavjud. Bu farqlarni inkor qilish yoki hisobga olmaslik jamiyat taraqqiyotiga, sog'lom avlod tarbiyasiga va millat genofondiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shu o'rinda, oiladagi ijtimoiy rollar masalasiga ham to'xtalish lozim. Farzand tarbiyasi, uy-ro'zg'or yumushlari yoki boquvchilik vazifasini bajarish borasida erkak va ayol o'zaro kelishuv asosida vazifalarni bo'lishib olishlari mumkin. Muhimi, bu borada ikki tomonning fikri va roziligi bir joydan chiqishi kerak. Jamiyatda bu kabi erkin va o'zaro hurmatga asoslangan yondashuvlar tobora keng quloch yozsa, gender tenglikka erishish yo'lida muhim qadamlar qo'yilgan bo'ladi.

Ayniqsa, gender tenglikka oid ijtimoiy farqlar ko'proq jamiyatning tarixiy rivojlanishi, madaniy qadriyatlari va ijtimoiy stereotiplari natijasida shakllangan. Ayollar ba'zi jabhalarda cheklovlariga duch kelayotganining asosiy sababi ularning biologik emas, balki ijtimoiy rolga doir noto'g'ri qarashlardir. Ularni o'zgartirish esa uzoq muddatli va puxta rejalashtirilgan ta'lim-tarbiya siyosatini talab qiladi.

Shu bois, gender tenglikka erishishda jamiyat a'zolarining dunyoqarashi muhim rol o'ynaydi. Bu borada nafaqat bolalar, balki kattalarning ham fikr yuritish uslubi, stereotiplarga munosabati qayta shakllanishi lozim. Ayniqsa, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarga tenglik, o'zaro hurmat, hamkorlik va oila ichidagi mas'uliyatlarni baham ko'rish kabi qadriyatlarni singdirish katta ahamiyatga ega.

Darvoqe, bu masalalar O'zbekiston Respublikasining Gender tenglikka erishish strategiyasi loyihasida ham alohida o'rin egallagan. Unda irq, millat, til, din, ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, barcha ayollar va erkaklar uchun chinakam tenglikni ta'minlash asosiy maqsad sifatida belgilangan. Ushbu hujjat yaqin orada keng jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilishi va keng qamrovli bahs-munozaralarga sabab bo'lishi rejalashtirilgan.

Ta'lim va tarbiya tizimida ham gender tenglikni targ'ib qilish nihoyatda muhim. Ayniqsa, bolalar uchun yozilayotgan adabiyotlarda, darsliklarda, didaktik materiallarda erkak va ayollarning rollari teng va adolatli aks ettirilishi lozim. Masalan, faqat o'g'il bolalarni jasur qahramon sifatida ko'rsatib, qiz bolalarni esa faqat g'amxo'r, itoatkor obrazda ifodalash noto'g'ri tasavvurlar shakllanishiga olib keladi. Shu bois, har ikki jins vakillarining bilimli, izlanuvchan, mehnatsevar, rahmdil, jasur va liderlik xususiyatlariga ega bo'lishi mumkinligi bolalarga teng asosda tushuntirilishi zarur.

Yosh avlodni gender tenglik ruhida tarbiyalash, ularga bu tushunchaning mohiyatini chuqur anglatish orqali kelajakda ijtimoiy barqarorlik, tenglik va taraqqiyotga asoslangan jamiyat barpo etish mumkin bo'ladi. Shuning uchun ham gender tenglik masalasini nafaqat yuridik hujjatlarda, balki amaliy hayotda – ayniqsa, bolalar tarbiyasida, o'qituvchilarning yondashuvida, ota-onalarning munosabatida faol qo'llash lozim.

Gender tenglik bu – oddiy bir shior emas, balki har bir insonning shaxs sifatida o'zini erkin namoyon etishi, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishi uchun yaratilgan imkoniyatdir. Bolalar bilan ishlashda bu prinsipga e'tibor qaratish – ularning ongli, teng huquqli va hurfikrli shaxs bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi. Gender tenglikka erishish oiladan boshlanishi kerak. Farzandlar ota-ona oila yumushlariga birdek yondashayotganini ko'rib ulg'ayganlarida, ularda to'g'ri va sog'lom tasavvur shakllanadi. Bu esa kelajakda jamiyatda adolatli, barqaror va teng imkoniyatlar asosida yashovchi avlodni tarbiyalash uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. – 2019-yil, 2-sentyabr.
2. Gender tenglik asoslari. O'quv qo'llanma / S. A. Shodiyeva, N. M. Abdurahmonova. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2020.
3. UNESCO. Gender Equality in Education: A Review of Progress – Paris, 2022.
4. A. X. Mahkamova. Gender pedagogikasi va psixologiyasi asoslari. – Toshkent: "Ilm Ziyο", 2021.
5. Tashanov, R. (2021). Gender tenglik va ta'limdagi yondashuvlar. // Pedagogik mahorat jurnalining 4-soni, 52-58-betlar.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING TIL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Baxromova Irodaxon Iftixorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Rahmonova Maftuna Ravshanbekovna

Pedagogika-psixologiya va san'atshunoslik fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining til kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining metodik asoslari yoritiladi. Til kompetensiyasi tushunchasining mazmuni, uning turlari va bosqichlari, shuningdek, zamonaviy ta'limda qo'llanilayotgan metodlar tahlil qilinadi. Muallif o'quvchilarda ona tilini o'rganish orqali funksional savodxonlik, kommunikativ layoqat va nutqiy madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni aniqlaydi hamda ularning samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: til kompetensiyasi, boshlang'ich sinf, metodika, funksional savodxonlik, kommunikativ kompetensiya, nutqiy faoliyat.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim tizimi boshlang'ich bosqichda o'quvchilarning nafaqat bilim olishini, balki kommunikativ, madaniy va funksional savodxonligini ham rivojlantirishni talab qiladi. Til kompetensiyasi bu borada asosiy kalit tushuncha bo'lib, uning tarkibida o'quvchining nutqiy faolligi, tushunish va ifoda qilish qobiliyati, ijtimoiy va madaniy kontekstda to'g'ri muloqotga kirishish layoqati mujassamdir. Til kompetensiyasini shakllantirish pedagogik mahorat, dars mazmunining metodik qurilishi, o'quvchi yoshiga mos ta'lim texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Shu sababli, ushbu maqolada metodik jihatdan asoslangan yondashuvlar nazariy va amaliy tomondan tahlil qilinadi.

ASOSIY QISM

Boshlang'ich sinf o'quvchisining til kompetensiyasi quyidagi asosiy komponentlardan iborat:

1. Nutqiy kompetensiya – o'z fikrini aniq, ravon, grammatik jihatdan to'g'ri ifodalash layoqati;

2. Kommunikativ kompetensiya – muloqotga kirishish, savol berish va javob qaytarish, suhbatdoshni tinglash va tushunish ko'nikmalari;

3. Lingvistik kompetensiya – so'z boyligi, grammatik qoidalarni bilish, matn bilan ishlash malakalari;

4. Madaniy-kommunikativ kompetensiya – milliy qadriyatlar va madaniyat doirasida to'g'ri muloqot qurish ko'nikmasi;

5. Funksional savodxonlik – yozma va og'zaki matnlarni tahlil qilish, ulardan amalda foydalanish qobiliyati.

Til kompetensiyalarini shakllantirish bo'yicha quyidagi metodik yondashuvlar amaliyotda samarali deb e'tirof etiladi:

1. Kommunikativ yondashuv

- Dars davomida o'quvchilarni faol suhbatga jalb qilish, muloqotli vaziyatlar yaratish. - Juftlikda yoki guruhda ishlash orqali o'z fikrini ifodalashga undash.

2. Matnga asoslangan yondashuv

- Badiiy, informativ, hikoyaviy matnlar bilan ishlash orqali til ko'nikmalarini rivojlantirish. - Matnni tahlil qilish, savol-javoblar tashkil etish, qisqacha mazmun chiqarish mashqlari.

3. Differensial yondashuv

- O'quvchilarning individual qobiliyatlari va til darajasini hisobga olgan holda topshiriqlarni taqsimlash.

- Kuchli o'quvchilarga murakkab, mustaqil ishlashni talab qiladigan vazifalar berish, sustroq o'quvchilarga vizual va auditiv yordam ko'rsatish.

4. Interfaol metodlar. - "Aqliy hujum", "Klaster", "Insert", "Sinkveyn" kabi metodlardan foydalanish orqali o'quvchini fikrlashga jalb qilish.

- Rasm asosida hikoya tuzish, rolklar ko'rish asosida og'zaki nutqni rivojlantirish.

5. Integrativ yondashuv

- Ona tili darslarini boshqa fanlar bilan bog'lab o'tkazish (tabiatshunoslik, tasviriy san'at, axborot texnologiyalari).

- Bu orqali tilning amaliy qo'llanish sohasini kengaytirish.

Masalan, 2024-yilda tasdiqlangan boshlang'ich sinf darsliklari tahlili shuni ko'rsatadiki, unda quyidagi uslubiy elementlar mavjud:- Har bir matn ortida savol-javob mashqlari va mustaqil fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar mavjud;

- So'z boyligini kengaytirish uchun izohli lug'atlar va sinonim-antonym juftliklar berilgan;

- Nutqiy vazifalarga asoslangan topshiriqlar (masalan: "Do'stingga bayram tabrigini yoz", "O'zing ko'rgan hayvon haqida hikoya qil") til kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Tadqiqotimiz natijasi shuni ko'rsatadiki o'qituvchining metodik roli juda muhimdir. Masalan: O'qituvchi til kompetensiyalarini shakllantirishda:

- Nutqiy muhitni tashkil etuvchi rahbar;

- O'quvchilarning individual qobiliyatlarini kuzatuvchi va rivojlantiruvchi metodist;

- Til o'rganish jarayonini reflektiv va interaktiv boshqaruvchi vositachidir.

Shuning uchun, o'qituvchining til o'rganish metodikasini chuqur bilishi va uni zamonaviy yondashuvlar bilan boyitib borishi ta'lim sifati uchun hal qiluvchi omildir.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun til kompetensiyasini shakllantirish bu – ularning umrbod o'zlashtiradigan bilim, ko'nikma va layoqatlarining poydevorini qurish demakdir. Metodik asoslar — bu jarayonning yo'l xaritasi bo'lib, o'qituvchining didi, tajribasi va zamonaviy yondashuvlardan foydalana olish mahorati bilan uyg'unlashgandagina maksimal

natija beradi. Shu bois, til kompetentsiyasini rivojlantirishda kommunikativ, interfaol va integrativ yondashuvlarning uyg'unligi dolzarb metodik mezon sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdullaeva, Z. (2022). *Boshlang'ich ta'limda ona tili darslarining lingvodidaktik asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
2. Karimova, G'. (2021). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining til kompetentsiyasini shakllantirishda innovatsion yondashuvlar*. Ilmiy maqolalar to'plami. Toshkent: TDPU.
3. Nazarova, N. (2020). *Til o'rganishda integratsiyalashgan yondashuvning samaradorligi*. Pedagogik ta'lim, 3(4), 56–60.
4. Xolmatova, M. (2019). *Boshlang'ich sinfda muloqot kompetentsiyasini rivojlantirish metodikasi*. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2-jild. Samarqand.
5. Hasanova, D. (2023). *Boshlang'ich ta'limda kommunikativ kompetentsiyani rivojlantirish vositalari*. Toshkent: Ma'naviyat.

MAKTAB O'QUVCHILARI ONA TILI DARSLARIDA MORFOLOGIK KOMPETENTSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Tillabayeva Gulruh Soxibbek qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Mahamatalimova Mohinur Shavkatbek qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta'lim maktabi o'quvchilarining ona tili darslari jarayonida morfologik kompetentsiyasini shakllantirish masalalari yoritilgan. Unda morfologik bilim va ko'nikmalarning o'quvchilarning tilshunoslik savodxonligi, grammatik tafakkuri hamda ifodali nutq faoliyati uchun ahamiyati asoslab berilgan. Morfologik birliklarni o'rganish orqali o'quvchilarda so'zning tuzilishi, yasalishi, turkumlanishi va grammatik shakllarini anglash qobiliyati rivojlanadi. Shuningdek, maqolada morfologik kompetentsiyani rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvlar va amaliy mashg'ulot turlari tahlil qilinadi. Tavsiflangan metodlar orqali o'quvchilar grammatik birliklarni anglashdan tashqari, ularni yozma va og'zaki nutqda to'g'ri qo'llash malakasiga ega bo'ladilar.

Kalit so'zlar: kompetensiya, morfologiya, morfologik kompetensiya, morfologiya metodikasi, boshlang'ich sinfda morfologiyani o'qitish metodikasi.

KIRISH

Davlat ta'lim standartlarining ikkinchi avlodining asosiy yo'nalishlaridan biri bu boshlang'ich umumiy ta'limning fan dasturlarini o'zlashtirish natijalarini rejalashtirishdir. Boshlang'ich ta'lim natijalarini rejalashtirish barcha o'quv fanlarini, shu jumladan ona tilini ham to'liq qamrab oladi.

ASOSIY QISM

Morfologiya boshlang'ich sinfda an'anaviy ravishda o'rganiladigan ona tilining bo'limlarini anglatadi. Shuning uchun bu bo'limni o'rganish mazmuni va metodikasi masalalari dolzarb emasdek tuyuladi. Shu bilan birga, o'quv maqsadlarining o'zgarishi va yosh o'quvchilar tomonidan Davlat ta'lim standartining ona tilidagi o'quv dasturini o'zlashtirish natijalariga, shuningdek o'qituvchilarning eng yaxshi amaliyotlari yutuqlariga yangi talablarning paydo bo'lishi morfologiya bo'yicha darslarning mazmuni, rejalashtirilishi va tashkil etilishini boshlang'ich sinfda doimiy ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi vaqtda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning ona tili morfologiyasidagi faoliyatining yakuniy natijalarini rejalashtirishga va o'quvchilarning morfologik vakolatlarini rivojlantirishga majbur bo'lmoqdalar, bu mening fikrimcha, nafaqat morfologiyani o'qitishning

yakuniy maqsadini doimo yodda tutishga, balki morfologiyani sifat jihatidan oshirishga ham yordam beradi.

Morfologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, uning asosiy ob'ekti tabiiy tillarning so'zlari, ularning muhim qismlari va morfologik xususiyatlari. Shuning uchun morfologiyaning vazifalariga so'zni maxsus lingvistik ob'ekt sifatida aniqlash va uning ichki tuzilishini tavsiflash kiradi.

Morfologiya (boshqa yunon tilidan "shakl" va "shakl" va "so'z, ta'limot")

Morfologiya, zamonaviy tilshunoslikda mavjud bo'lgan vazifalarini tushunishga ko'ra, nafaqat so'zlarning rasmiy xususiyatlarini va ularni tashkil etuvchi morfemalarni (tovush tarkibi, ketma-ketlik tartibi va boshqalarni) tavsiflaydi., shuningdek, so'z ichida ifodalangan grammatik ma'nolar (yoki "morfologik ma'nolar").

Yuqoridagi "kompetensiya" va "morfologiya" tushunchalariga asoslanib, biz morfologik kompetensiya haqida umumiy tushunchani shakllantirishimiz mumkin:

Morfologik kompetensiya-bu grammatika bo'limiga kiritilgan va til tizimining bir qismini tashkil etuvchi morfologiya bo'yicha olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash, so'zlarni grammatik ma'no tashuvchisi sifatida birlashtirish, ularning grammatik sinflari, ularning mavjudligi va shakllanishi qonunlari keng maydon.

Ona tili darslarida yosh o'quvchilarning morfologik kompetensiyasini shakllantirish-bu o'z maqsadiga ega bo'lgan maxsus morfologik mashqlar yordamida morfologiya bo'yicha bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning ongli jarayoni: o'quvchilarning ona tilining morfologik tuzilishi to'g'risida xabardorligi.

Morfologik kompetensiyani shakllantirish uchun maxsus texnika mavjud:

Morfologiya metodikasi-grammatika metodologiyasining nutq qismlarini o'rganishda o'quvchilar tomonidan grammatik tushunchalar va naqshlarni o'zlashtirish jarayonlarini, nutq qismlarini ishlatishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llarini, deklensiya, konjugatsiya va boshqalarni shakllantirish va ulardan foydalanishni o'rganadigan bo'limi., bu holda yuzaga keladigan odatiy qiyinchiliklar va xatolar, ularning chastotasi, sabablari va ularni yo'q qilish usullari.

Morfologiyani o'rganish metodikasining xususiyatlari uni o'rganish maqsadlari bilan belgilanadi. Morfologiyani o'rganishning kognitiv maqsadi asosiy morfologik tushunchalarni o'zlashtirishdir. Morfologiyani o'rganishning amaliy maqsadlari morfologik ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirishdir, ularning asosiysi nutq qismlarini ajratish va morfologik tahlil qilishdir.

Uni o'rganishning quyidagi tamoyillari morfologiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi:

1. leksiko-grammatik-ma'lum bir so'zning leksik ma'nosini va so'zning umumiy semantik ma'nosini nutqning bir qismi sifatida taqqoslash, (masalan, yugurish: "odamlarning turli yo'nalishlarda oyoqlarida tez harakatlari" leksik ma'nosi va "harakat" umumiy semantik ma'nosi. ism");

2. paradigmatic-bilvosita shakllarni va so'zning asl shaklini taqqoslash;

3. morfologik-sintaktik-so'zni jumla a'zosi va nutqning bir qismi sifatida taqqoslash.

Ta'lim va til ko'nikmalarini shakllantirish uchun mahalliy fanlarda mashqlar deb ataladigan o'ziga xos usullar ishlab chiqilgan.

Morfologik mashqlar bolalarning morfologiya bo'yicha olgan bilimlarini mustahkamlab, ham imlo, ham punktuatsiya malakalarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun quyidagi mashqlardan foydalaniladi:

1. morfologik tahlil;

2. so'zning to'liq yoki qisman morfologik tahlili;

3. so'zlarning hosil bo'lishi, so'zni belgilangan shaklda shakllantirish;

4. nutqning ma'lum bir qismi bilan iboralar va jumalarni qurish;

5. gapda, matnda nutqning bir qismini topish;

6. nutq qismlarini chiqarish.
7. nutqning bir qismini, nutqning ushbu qismining u yoki bu toifasini aniqlash;
8. nutqning bir yoki bir qismi, nutqning bir yoki bir nechta toifasi so'zlarini tanlash;
9. so'zlarni nutq qismlari, ularning toifalari bo'yicha guruhlash;
10. so'z paradigmasini tuzish;
11. nutqning turli qismlariga tegishli omonim so'zlarni farqlash;
12. jadvallarni tuzish va ushbu misollar bilan tayyor jadvallarni to'ldirish;
13. nutq qismlarining matnni shakllantirish funksiyasini kuzatish;
14. turli uslubdagi matnlarda nutq qismlarining ishlashini kuzatish;
15. gap tarkibidagi nutq qismlari o'rtasidagi sintaktik munosabatlarni kuzatish.

Morfologik tushunchalar ustida ishlash boshqa mavzularni o'rganish bilan davom etmoqda. Bilim va o'rganish va til ko'nikmalarini mustahkamlash darsliklar mashqlari uchun qo'shimcha vazifalardir. Agar ular muntazam ravishda bajarilsa, o'quvchilarning bilimlari kerakli darajada saqlanadi.

Morfologiyani o'rganish asoslarini shakllantirish talabalarning obrazli va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich sinflarda morfologiya kursida nutq qismlari va ularning shakl o'zgarishi o'rganiladi.

XULOSA

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, ona tili darslarida yuqori darajadagi morfologik malakaga erishish uchun ishni tashkil etish qobiliyati muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda va unga ko'plab o'qituvchilar jalb qilingan. Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilarning ona tili morfologiyasi bo'yicha faoliyatining yakuniy natijalarini rejalashtirishga majbur bo'lmoqdalar va bu, bizning fikrimizcha, nafaqat morfologiyani o'qitishning yakuniy maqsadini ko'z o'ngida saqlashga, balki o'quvchilarning ko'pchilikni o'zlashtirish darajasini sifat jihatidan oshirishga yordam beradi grammatik kategoriyalar va tushunchalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'raeva, D. (2021). *Ona tili darslarida grammatik kompetensiyani shakllantirish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. G'ulomova, M. (2020). *Boshlang'ich sinf o'quvchilarining morfologik bilimlarini rivojlantirish yo'llari*. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami, 2(5), 34–39.
3. Axmedova, Z. (2019). *Tilshunoslik asoslari*. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
4. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. (2022). *Ona tili fani bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun o'quv dasturi (5–9-sinflar)*. Toshkent: O'quv-uslubiy qo'llanma.
5. Shodmonova, S. (2021). *O'quvchilarda grammatik tafakkurni shakllantirishning psixolingvistik asoslari*. TDPU Ilmiy axborotnomasi, 3(1), 28–33.
6. Brown, H. D. (2007). *Principles of Language Learning and Teaching*. New York: Pearson Education.
7. Richards, J. C., & Schmidt, R. (2010). *Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics* (4th ed.). London: Routledge.
8. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
9. Vygotsky, L. S. (1986). *Thought and Language*. Cambridge: MIT Press.
10. UNESCO. (2021). *The Role of Language in Teaching and Learning*. Paris: UNESCO Publishing.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA O'QUVCHILARGA NOTANISH SO'ZLARNING MA'NOLARINI O'RGATISH METODIKASI

Davlatova Mastura Abdullajon qizi

BT va STI yo'nalishi talabasi

Sirojiddinova Nilufar Orifjon qizi

BT va STI yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'nosi notanish bo'lgan so'zlarni qulay va yangi usulda o'rgatish yo'llari tahlil ostiga olingan bo'lib, boshlang'ich sinflarga ma'nosi tushunarsiz so'zlarni o'rgatish metodikasi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, yo'l, usul, metod, metodika, ma'no, o'quvchilar nutqi, nutq, nutqiy kompetensiya.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

“Bugungi kunda yashayotgan har bir inson o'z farzandining baxt saodatini, kamolini ko'rish uchun, shu zamoni gullab-yashnashi uchun qo'lidan kelganicha harakat qiladi. Farzandlarining barkamol, sog'lom rivojlanishiga ko'maklashishi oila va barcha ta'lim muassasalarida amalga oshiriladi. Shu bois, har birimiz buyuk insonlarning tarbiyalanishida mas'ul ekanmiz, go'zal Vatanimizning yangi avlodini shakllantirish, ularni demokratik jamiyat qurishiga tayyorlashdek buyuk vazifani bajarishimiz va Vatanimizni jahon miqyosidagi kamolot bosqichiga ko'tarish uchun bor kuch-g'ayratimizni ayamashimiz zarur”¹¹.

Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilar ma'nolarini to'la anglamaydigan so'zlarni izohli lug'at yordamida ochib berilsa, o'quvchilarning tildagi so'zlarni to'liqroq anglashi uchun yordamlashgan bo'lamiz. Bola dunyoni to'liq anglashi uchun, avvalo, ona tilini mukammal darajada bilmog'i kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'qish darsliklarida berilgan terminlar ma'nolarini o'rgatsak, o'quvchilarning tafakkuri, dunyoqarashi o'sadi. O'qish darslarining sifat samaradorligini oshiradi. Bu esa, zamon bilan hamnafas fikrlay oladigan yoshlarni tarbiyalashda ko'makdosh bo'ladi.

O'quvchilarning o'qib tushinishi, tinglab tushinish, yozish savodxonligini, og'zaki va yozma shaklda fikrlarini yetkazib berishga bog'liqlik o'z boyligini boyitishga, t o'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini shakllantirish, mustaqil fikrlashi, o'z fikrini tortinmasdan yetkazib berishi uchun yordam beradi.¹²

Biz yashayotgan hozirgi davrda barkamol inson shaxsini shakllantirishdagi muhim vazifa erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga o'rgatish hisoblanadi. Fikrlash jarayoni har bir insonda o'ziga xos tarzda mavjud bo'lib, fikr yuritish insonni inson sifatida mavjud ekanligi, uni ruhan va aqlan sog'lom ekanligidan dalolat beradi. Fikrlash biror masala yechimini izlash, jumboqlarni javoblarini topish jarayoni sanaladi.

Har bir darsda o'quvchining ijodiy fikrlash doirasini kengaytirib borish uchun innovatsion metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu orqali o'quvchi o'qituvchining har bir savol yoki topshirig'iga munosib javob berish uchun fikrlashga majbur bo'ladi va bilimiga tayangan holda o'z fikrini bayon qiladi. Darslarda muammoli metodlarni qo'llash ta'lim sifatini oshirishga

¹¹ “Barkamol avlod yili” Davlat dasturi amalda Toshkent 2010 yil

¹² Abdunabiyeva, A. Q., Zuxra, X., & Mashhura, N. (2024). Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rgatish, ot so'z turkumi bilan egalik qo'shimchasining qo'llanishi. *Intellectual education technological solutions and innovative digital tools*, 3(27), 324-330.

xizmat qiladi. O'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatishda, avvalo, o'g'zaki nutqni rivojlantirishdan boshlanadi. Bu borada innovatsion ta'lim hozirda o'z samarasini ko'rsatmoqda.

Ta'lim jarayonini innovatsion metodlardan foydalanib tashkil etish uchun, avvalo, darsning rejasi va loyihasi aniq ishlab chiqilishi zarur. Dars loyihasini tuzishda o'qituvchi o'zining ish shakllari va o'quvchilarning ko'nikmani egallash jarayonidagi ishlari doirasini aniq belgilab olishi lozim.

So'zlarning ma'nosini tushuntirish o'quvchilar lug'atini boyitadi, nutqini o'stiradi. Boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlarning atamalari ham tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlar qatoriga kiritiladi. Atamalarning ma'nosini tushuntirish mazkur so'z anglatgan tushunchani yaxshi fahmlab olishga yordam beradi. Masalan, predmet atamasining ma'nosini tushuntirish bilan o'quvchilar predmet keng ma'noda qo'llanishini, tabiatdagi barcha narsa, hodisa, tushunchalar predmet deyilishini bilib oladilar. Bu ot, sifat, son, fe'l kabi atamalarni tez fahmlab olishda ularga yordam beradi. So'zning ma'nosini tushuntirish juda kam vaqt olishi va darsning asosiy mavzusidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmasligi kerak. Buning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanish jarayonida ma'nosi tushuntirilishi lozim bo'lgan so'zlarni, uni tushuntirishning eng qulay usullarini va darsning qaysi o'rnida tushuntirishni belgilab oladi.

O'qish kitoblaridagi matnlarda birinchi marta uchragan, bolalar ma'nosini bilmaydigan ayrim so'zlar matnni o'qishdan oldin tushuntiriladi. Matnni o'qish jarayonida so'z ma'nosini tushuntirishga chek qo'yish kerak. Agar biror so'zni matnni o'qish vaqtida tushuntirish zaruriyati tug'lsa, matn mazmunidan o'quvchilar diqqatini chalg'itmagan holda shu so'z ma'nosi qisqacha tushuntiriladi.

Ko'chma ma'noda ishlatilgan obrazli so'zlar va badiiy nutq birliklari matn o'qilgandan keyin tushuntiriladi, chunki ularning ma'nosi matn mazmunidan, kontekstdan yaxshi tushuniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Barkamol avlod yili" Davlat dasturi amalda Toshkent 2010 yil
2. Abdunabiyeva, A. Q., Zuxra, X., & Mashhura, N. (2024). Boshlang'ich sinflarda so'z turkumlarini o'rgatish, ot so'z turkumi bilan egalik qo'shimchasining qo'llanishi. *Intellectual education technological solutions and innovative digital tools*, 3(27), 324-330.
3. Madvaliyev A. Termin — terminologik lug'at — izohli lug'at. O'zbek tili va adabiyoti. 2008-yil 6-son.
4. A.Madaliyev O'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2017.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA BADIY ASARLARNI O'QITISH METODIKASI

Usmonova Odinoxon Sobirovna

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Holboyeva Eleonora Alijon qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida badiiy asarlarni o'qitishning maqsad va vazifalari haqida fikr mulohazalar bildirilgan. O'qish savodxonligi darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi sinfdan-sinfga o'tgan sari o'stirib boradi.

Kalit sozlar: asar, janr, hikoya, ertak tahlili, badiiy asar, onglilik, imlo, hissiy ta'sir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishni taqozo qiladi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi:

1. Asar mazmunini tahlil qilish va to'g'ri, tez, ongli, ifodali o'qish malakalarini shakllantirish bir jarayonda boradi (asarning mazmunini tushuntirishga oid topshiriq o'qish malakalarini takomillashtirish topshirig'i ham hisoblanadi).

2. Asarning g'oyaviy asoslari va mavzusini, uning obrazlari, syujet chizig'i, kompozitsiyasi va tasviriy vositalarini tushuntirish o'quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga yaxshi xizmat qiladi, shuningdek, bog'lanishli nutqining o'sishi (lug'atining boyishi va faollashishi)ni ta'minlaydi.

3. O'quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

4. Sinfdan o'qishga o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, atrof-muhit haqidagi bilimlarini kengaytirish va ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

O'qish metodikasi adabiyotshunoslik, psixologiya, pedagogika ishlab bergan nazariy qoidalarga asoslanadi. Sinfdan o'qishni to'g'ri uyushtirish uchun o'qituvchi badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlarini, ta'limning turli bosqichlarida o'qish jarayonining psixologik asoslarini, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning matnini idrok etish va o'zlashtirish xususiyatlarini hisobga olishi zarur.

Asarni tahlil qilishda hisobga olish zarur bo'lgan muhim omillardan biri uning o'quvchilarga **hissiy ta'siridir**. O'quvchilar muallifning asosiy fikrini tushunibgina qolmay, muallif hayajonlangan voqeadan ham hayajonlansinlar. Matnini tahlil qilish o'quvchida fikr qo'zg'atishi, hayotiy tajribasining muallif qayd etgan dalillarga to'g'ri kelish-kelmasligini aniqlashi zarur. Tahlil davomida asarning estetik qimmatini, badiiy go'zalligi ham alohida qayd qilib o'tiladi.

O'qish darslari o'quvchilarda badiiy asarlarning bir-biridan farqini ajrata olish, yozuvchining hayotiy voqealarni qanday badiiy vositalar orqali aks ettirgani va qanday obrazlar yaratganini aniqlay olish, mustaqil o'qish va asarni tahlil qilish malakasi sinfdan-sinfga o'tgan sario'stirib boriladi. O'quvchilar adabiy ma'lumotlarni o'zlashtirish orqali badiiy asarning mazmuni, g'oyasi va ahamiyatini anglab olish boshlaydilar. Adabiy tushunchalarni shakllantirish bilan birga o'quvchilarning nutqini o'stirishda ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilar adabiy tushunchalarni o'rganish natijasida badiiy adabiyot san'atining bir turi ekanligi, uning hayot bilan aloqadorligini bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflarda asar tahlilida badiiy til vositalari – sifatlash, o'xshatish, jonlantirish, mubolag'a va adabiy janr turlari – ertak, hikoya, masal, she'r, doston, maqol, topishmoq kabilar bilan amaliy ravishda tanishtiriladi.

Badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

“Asar o'qib bo'lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma'nosi matndan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi”.

Badiiy asar ustida ishlash va uning asosiy bosqichlarini belgilashda o'qituvchi badiiy asarning san'at asari sifatida o'ziga xos xususiyatlari va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasini nazarda tutadi.

Badiiy asarda barcha qismlar (g'oyaviy asos, kompozitsiya, syujet, tasviriy vositalar) o'zaro bog'liq bo'ladi. Syujet rivoji asosida asar qahramonlarining yangi-yangi qirralari ochila boradi. Bu xususiyatlar asar ustida ishlashda uni yaxlit o'qish va idrok etishni talab etadi.

O'quvchilarni badiiy asar ustida ishlashga o'rgatish ularda adabiy-estetik tahlil malakasini shakllantirish va o'stirish orqali ta'lim-tarbiya berishni nazarda tutadi. Asar matnini tahlil qilish muallif fikrini, hissiyoti va xulosalarini tushunishga yordam beradi, asarda ifoda etilgan voqealarga munosabat uyg'otadi. Asar tahlili o'qituvchidan o'quvchilar faoliyatini ma'lum maqsadga yo'naltirishni taqozo qiladi.

O'quvchi asarning mazmuni bilan uni mutolaa qilish paytida tanishsa, tahlil qilishda uning poetik vositalariga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil asar zamiridagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash uch asosiy bosqichga bo'linadi:

Birinchi bosqich matnini yaxlit idrok etish asosida asarning aniq mazmuni va tasviriy ifoda vositalari bilan tanishtirishdan iborat.

Ikkinchi bosqich voqealar rivojining bog'lanishini belgilash, ishtirok etuvchi shaxslarning xulq-atvori va ularning asosiy xususiyatlarini aniqlash (nega shunday qildi va bu uning qanday xususiyatini ochadi), asar kompozitsiyasini ochish (tugun, kulminatsion nuqta, yechim), asarning aniq mazmunini tasviriy vositalar bilan birga tahlil qilish va qahramonlar xulq-atvorini baholash (muallif nimani tasvirlagani, qanday tasvirlagani, nima uchun u yoki bu dalilni tanlagani)dan iborat.

Uchinchi bosqich ishtirok etuvchi shaxslarning muhim xususiyatlarini umumlashtirish, qahramonlarni taqqoslash va baholash, asarning g'oyasini aniqlash, badiiy asarni hayotni bilish manbai va san'at asari sifatida baholash (qanday ma'lumotlarga ega bo'ldik, asar nimaga o'rgatadi, muallif o'z fikri va taassurotlarini qanday qilib aniq, ravshan va ta'sirli tarzda yetkazadi va hokazo)dan iboratdir.

Asar maqsadga muvofiq tahlil qilinsa, o'quvchilar faolligi ortadi, chunki asarni tahlil qilish ular uchun ijodiy jarayondir.

O'qish ta'limi bo'yicha o'quvchilarni faqat matn bilan tanishtirish yordamida dastur talablariga javob berib bo'lmaydi. Negaki, matn tagzaminidagi tarbiyaviy g'oya uni tushunish, idrok qilish natijasidagina ochiladi. Boshqacha aytganda, har qanday asardagi sehr-joziba matn zaminidagi yashirin mazmun-mohiyatni anglab yetilganda o'quvchi diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin. Bunga adabiy-nazariy tushunchalarni o'zlashtirish, adabiy tahlil malakalarini shakllantirish orqali erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirqosimova M. O'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. – T.: Fan. 2006. B. 250.
2. Qosimova K. va boshqalar. Ona tilio'qitish metodikasi. –T.: Nosir, 2009.B.89.
3. Aydarova U.B O'qish savodxonligi. 2-sinf uchun darslik. – Toshkent.: “Novda Edutainment”, 2023 – 80 b.
4. Usmonova, O. (2016). Ikkinchi sinf darsliklarida shartli belgilar. Ta'lim va kasbiy mahorat. Ilmiy uslubiy maqolalar to'plami, 1(06), 46-49.

**MAKTABGACHA TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT
VOSITALARIDAN FOYDALANISH**

Yuldasheva Dilshoda To'iqinovna

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Xalilova Dilnozaxon Ne'matjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha ta'limda ta'lim-tarbiya jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, bolalar uchun yanada samarali o'quv jarayonini yaratish imkonini berish muamollari yoritilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, maktabgacha ta'lim, texnologiyalar, vositalar, o'quv jarayoni,

Yangi zamon ta'limi, ayniqsa maktabgacha ta'lim, doimiy yangilanish va modernizatsiya talab qiladi. Bolalarning intellektual rivojlanishi, ijtimoiy ko'nikmalarini oshirish, emotsional barqarorlikni ta'minlash uchun texnologiyalarni keng qo'llash zarurati ortib bormoqda. Maktabgacha ta'limda sun'iy intellekt (SI) vositalaridan foydalanish, bolalarning o'qish qobiliyatlarini oshirish va o'quv jarayonining sifatini yaxshilash uchun eng istiqbolli usullardan biri sifatida ko'rilmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellekt texnologiyalarining maktabgacha ta'limda qo'llanilishi, uning afzalliklari va muammolari, shuningdek, rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Sun'iy intellekt texnologiyalari o'zining yuqori potentsiali bilan nafaqat zamonaviy hayotda, balki ta'lim sohasida ham ijobiy o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellekt, kompyuter tizimlarining inson aqli faoliyatini simulyatsiya qiluvchi vositalarini o'z ichiga oladi. Bu texnologiyalar maktabgacha ta'limda bolalarning rivojlanishini, o'quv jarayonini interaktiv va individualizatsiyalangan tarzda tashkil etishda katta yordam beradi. Sun'iy intellektning maktabgacha ta'limdagi asosiy roli, ta'lim jarayonini yanada samarali qilish, bolalar uchun innovatsion o'quv vositalarini yaratish, bolalarning individual ehtiyojlariga mos ta'lim usullarini ishlab chiqishda namoyon bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim jarayonida sun'iy intellekt vositalari turli xil shakllarda namoyon bo'ladi. Quyida ba'zi asosiy vositalar va ularning bolalar ta'limida qo'llanilishiga doir misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak pedagoglar, boshlang'ich ta'lim, noan'anaviy tafakkur, ijodiy fikrlash, divergent tafakkur, metodik yondashuv, ta'lim texnologiyalari, kreativlik, pedagogik mahorat, o'quvchilarning tafakkuri, innovatsion metodlar, muammoli ta'lim, interaktiv usullar.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi — ijodiy, erkin fikrlaydigan, muammoga yangicha yondasha oladigan shaxsni tarbiyalashdir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf bosqichi bolaning intellektual, ijtimoiy-psixologik va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim poydevor hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak boshlang'ich ta'lim pedagoglarini noan'anaviy tafakkurga asoslangan metodlar bilan ishlashga tayyorlash dolzarb masala hisoblanadi.

Bugungi kunda globallashtirish va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson tafakkuriga yangi talablarni qo'yimoqda. Yangi zamon sharoitida faqat mavjud bilimlarni egallash kifoya emas, balki ularni yangicha tarzda tahlil qilish, o'ziga xos yondashuvlar asosida muammolarni hal eta olish, ijodiy fikrlash ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimining eng muhim bosqichi bo'lgan boshlang'ich sinflarda o'quvchilarda noan'anaviy (divergent) tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish masalasi o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Shu nuqtayi nazardan, kelajakdagi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini noan'anaviy fikrlashni rivojlantiruvchi zamonaviy texnologiyalar asosida tayyorlash, ularni kreativ yondashuvlarga o'rgatish va pedagogik mahoratini shakllantirish zaruriy vazifalardan biridir. Bu yo'nalishda ilg'or xorijiy tajribalar, innovatsion metodlar va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ta'lim yondashuvlarini qo'llash o'z samarasini bermoqda.

Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligini chuqurlashtirish, shuningdek, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan samarali texnologiyalarni o'rganish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda mustaqil, erkin va ijodiy fikrlashni shakllantirish asosiy maqsadlardan biriga aylangan. Bugungi kunda jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish, raqobatbardosh shaxsni tarbiyalashda noan'anaviy (divergent) tafakkur muhim rol o'ynaydi. Ushbu jihatlar, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilar tafakkurining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur yo'nalishdagi kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ta'lim tizimining dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Noan'anaviy tafakkur tushunchasi va uning ahamiyati. Noan'anaviy tafakkur — bu muammoni bir yo'l bilan emas, balki turli usullarda yechishga urinadigan, yangi g'oyalar topishga qaratilgan, ijodiy va erkin fikrlash jarayonidir. Bu tafakkur turi insonni shablon fikrlashdan holi qiladi, yangilikka intilishga undaydi. Yosh bolalarda bunday tafakkur tabiiy ravishda mavjud bo'lib, uni to'g'ri yo'naltirish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari — bu tafakkuri endi shakllanayotgan, atrof-muhitni o'zicha anglaydigan va uni o'zgartirishga harakat qiladigan yosh avlodidir. Agar bu davrda bolalarning noan'anaviy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilsa, keyingi bosqichlarda ular ijodiy yondashuvga ega, innovatsion fikrlovchi shaxs sifatida shakllanadi.

Bo'lajak pedagoglarning roli va tayyorgarligi. Bo'lajak boshlang'ich ta'lim pedagoglari pedagogik faoliyatda noan'anaviy fikrlashni rivojlantiruvchi zamonaviy metod va texnologiyalarni bilishi, ularni amaliyotda qo'llay olishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, oliy pedagogik ta'lim muassasalarida ularni sifatli tayyorlashni, zamonaviy ta'lim strategiyalariga asoslangan o'quv dasturlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Pedagoglar o'z darslarida quyidagi texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning noan'anaviy tafakkurini rivojlantirishga erishishlari mumkin:

- **Aqliy hujum (brainstorming);**

- **Klasster usuli;**
- **“Sinkveyn” (5 qatorli she’r);**
- **Rol o‘yinlari va drammatizatsiya;**
- **STEM-ta’lim yondashuvi;**
- **Muammoli vaziyat asosida o‘qitish texnologiyalari.**

Shuningdek, AKT (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari), ta’limiy platformalar, raqamli resurslardan foydalanish o‘qituvchilarning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi.

Noan’anaviy yoki divergent tafakkur — bu muammoga birdan ortiq yechim topish, har xil fikrlash imkoniyatlarini izlab topish, kreativ yondashuv orqali yangi g‘oyalar yaratish qobiliyatidir. Bunday fikrlash turi ayniqsa kichik yoshdagi o‘quvchilarda tabiatdan mavjud bo‘lib, uni to‘g‘ri yo‘naltirish va rivojlantirish o‘qituvchining metodik yondashuviga bevosita bog‘liqdir.

Bo‘lajak pedagoglarda quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirish zarur:

- Muammoli vaziyatlarni tahlil qila olish;
- Kreativ o‘yin va mashg‘ulotlar tuzish;
- O‘quvchilarning erkin fikrlashiga sharoit yaratish;
- Zamonaviy texnologiyalardan (AKT, interaktiv metodlar, gamifikatsiya) foydalanish.

Rivojlantirish texnologiyalari sifatida quyidagilarni misol keltirish mumkin:

• **BRAINSTORMING (Aqliy hujum):** o‘quvchilardan erkin fikrlar bildirish talab qilinadi.

• **SINKVEYN (5 qatorli she’r):** o‘quvchilarning mavzuga nisbatan erkin tasavvurini ifodalash uchun qulay.

• **STEM-ta’lim yondashuvi:** fanlararo yondashuv orqali muammoni har xil jihatdan hal qilishni rag‘batlantiradi.

• **Rol o‘ynash usullari va drammatizatsiya:** ijodiy ifoda va hissiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari o‘z faoliyatida o‘quvchilarning noan’anaviy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan metod va texnologiyalarni puxta egallashi zarur. Bu esa, o‘z navbatida, pedagogik ta’lim dasturlarini takomillashtirish, amaliy mashg‘ulotlarni ko‘paytirish va ijodiy muhit yaratish orqali amalga oshiriladi. Ana shundagina ta’lim jarayonida kreativ fikrlovchi, yangilikka intiluvchan avlodni shakllantirishga erishish mumkin bo‘ladi.

O‘quvchilarning noan’anaviy tafakkurini rivojlantirish — bu ularni mustaqil, erkin va ijodkor shaxs sifatida shakllantirish sari qo‘yilgan muhim qadamdir. Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim pedagoglari bu yo‘lda asosiy vositachilardan bo‘lib, ularning kasbiy kompetensiyasi, ijodiy yondashuvi va innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shunday ekan, ularni mazkur yo‘nalishda puxta tayyorlash, metodik salohiyatini kuchaytirish ta’lim tizimida ustuvor vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Guilford, J.P. (1956). The Structure of Intellect.
2. Torrance, E.P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim sifatini oshirish”ga oid qarorlari.
4. Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar (O‘quv qo‘llanma).

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI
O'QUVCHILARGA BOSQICHMA-BOSQICH O'RGATISH USULLARI**

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Xudoyberdiyeva Nasibaxon Sayidaxmadovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Respublikamizda xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora – tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbus amaliyotga tatbiq etildi, umumiy o'rta ta'limning kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlari hamda fan o'quv dasturlari ishlab chiqildi, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etishning me'yoriy asoslari yaratildi.

Bugungi kunda ta'lim sohasida boshlang'ich ta'limning roli va ahamiyati yanada ortib bormoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda matematika fanining o'rgatilishi o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish, ularni mantiqiy fikrlashga, aniq va izchil xulosa chiqarishga o'rgatishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolaning shaxs sifatida shakllanishi va kelgusida bilimlarni puxta egallashiga asos yaratadigan poydevor davridir. Shu bois, aynan ushbu bosqichda matematik tushunchalarni o'quvchilarga to'g'ri va samarali tarzda bosqichma-bosqich o'rgatish metodikasi muhim o'rin tutadi.

Matematika boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat hisoblash amallarini o'rgatish, balki atrofda borliqni matematik nuqtayi nazardan tushunish, ob'ektlar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqliklarni anglash ko'nikmalarini ham shakllantiradi. Bu esa bolaning fikrlash jarayonini yanada faollashtiradi, ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Matematik tushunchalarni bosqichma-bosqich o'rgatishda o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, idrok qilish va eslab qolish imkoniyatlari, shuningdek, ularning individual o'ziga xosliklari inobatga olinishi lozim. Yoshi kichik bolalarning abstrakt tafakkuri hali to'liq shakllanmagan bo'lgani sababli, ular uchun matematik tushunchalarni tasavvur qilish va amaliyot bilan bog'lash muhim metodik yondashuv hisoblanadi.

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni o'rgatishda samarali bo'lgan asosiy usullar — ko'rgazmali ta'lim, o'yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlardan foydalanish, guruhviy va individual ishlarni tashkil etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish kabi metodlarni o'z ichiga oladi. Har bir darsda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash, ularning mustaqil fikrlashiga va o'z bilimlarini amaliyotda qo'llashga imkon yaratish asosiy maqsad sifatida belgilanadi.

Ushbu mavzuni o'rganish boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'z kasbiy mahoratini yanada oshirish, darslarni samarali va qiziqarli tashkil etish, o'quvchilarda matematika faniga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shu munosabat bilan, ushbu ishda boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni o'quvchilarga bosqichma-bosqich o'rgatish usullarini tahlil qilish, samarali metod va vositalarni aniqlash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish ko'zda tutiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi bolalarning dunyoqarashi, tafakkuri va asosiy o'quv ko'nikmalarining shakllanish davridir. Ayniqsa, matematika fani o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni yechish va analitik yondashuv qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Matematik tushunchalarni o'rgatish esa oddiydan murakkabga tomon, bosqichma-bosqich olib borilsa, o'quvchilarning bilimlarni mustahkam egallashi va amalda qo'llay olishi osonlashadi.

Bu maqolada boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni o'quvchilarga bosqichma-bosqich o'rgatishning eng samarali usullari va metodik yondashuvlari batafsil yoritiladi.

Bosqichma-bosqich o'rgatish zarurati

O'quvchilarning yoshiga va psixologik xususiyatlariga ko'ra, ular ko'pincha konkret misollar va tajriba orqali yangi bilimlarni o'zlashtiradi. Murakkab nazariy tushunchalar asta-sekin, real hayotiy tajribalar bilan bog'langan holda berilishi kerak.

Asosiy tamoyillar:

- Oddiydan murakkabga o'tish
- Konkret dan abstraktga o'tish
- Bilimlarni amaliyot bilan bog'lash
- Mustahkamlab borish

Agar o'quvchilarga murakkab tushunchalar tayyor shaklda berilsa, ular buni faqat yodlab oladi, ammo mohiyatini anglamaydi. Shuning uchun ham har bir yangi bilim avval amaliy asosda, so'ng abstrakt shaklda o'rgatilishi lozim.

Matematik tushunchalarni bosqichma-bosqich o'rgatish usullari

Vizual va amaliy vositalardan foydalanish

Yangi matematik tushunchalarni o'rgatishda tasviriy va amaliy vositalar (kublar, rangli kartochkalar, chizilgan shakllar) yordamida ishlash bolalarda tushunchaning real shaklini anglashga yordam beradi.

Misollar:

- Son tushunchasini shakllantirishda — predmetlar sanashi (olma, qalam, kubiklar).
- Geometrik shakllarni o'rgatishda — qog'ozdan shakllar yasash, ularni solishtirish.

O'yin va mashqlar yordamida o'qitish

O'yin shaklidagi faoliyat o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularni faol fikrlashga undaydi.

O'yinlar:

- "Top va joylashtir" (figuralarni kattaligiga qarab tartibga solish)
- "Tezroq hisobla!" (raqamlar bilan tezlikka ishlash)
- "Sirli sonni top" (berilgan shart asosida sonni aniqlash)

Hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar

O'quvchilarga matematikaning hayotdagi ahamiyatini anglatish uchun real vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar taqdim etiladi:

Misollar:

- Do'konda xarid qilish (narxlarni qo'shish/ayirish)
- Sayohat qilish uchun vaqt va masofani hisoblash
- Tug'ilgan kun uchun odamlar sonini hisoblash

Bu usul matematikani "quruq bilim" sifatida emas, balki real hayotda zarur ko'nikma sifatida qabul qilishga yordam beradi.

Savol-javob va muloqot asosida o'rgatish

Aktiv muloqot orqali o'quvchilarning fikrlash jarayoni faollashadi. Savol-javoblar yordamida ularning fikrlash logikasini tekshirish va chuqurlashtirish mumkin.

Savollar:

- "Nega sen shunday yechim tanlading?"
- "Bu natijaga boshqa yo'l bilan qanday yetish mumkin?"
- "Qaysi usul tezroq va nega?"

Muammoli vaziyatlar yaratish

O'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar yaratish tavsiya etiladi. Bu metod orqali ular faqat berilgan formula yoki qoidani yodlamasdan, o'zlari yechim yo'lini izlashga o'rganadilar.

Misol:

• "Agar savatchada 5 ta olma bo'lsa va 2 ta olma olib ketsalar, savatchada nechta olma qoladi?"

Mustahkamlash va takrorlash

Har bir yangi o'rgatilgan bilim muntazam mashq va takrorlash orqali mustahkamlanadi. Har xil shakldagi mustahkamlovchi topshiriqlar bolalarning bilimni yanada chuqurlashtiradi.

Mustahkamlash usullari:

- Har kuni kichik mashq topshiriqlari
- Dars oxirida qisqa viktorinalar
- Jamoaviy topshiriqlar va musobaqalar

Bosqichma-bosqich o'qitishning namunaviy sxemasi

1-bosqich: Tushuncha bilan tanishtirish: Amaliy mashqlar va vizual vositalar yordamida.

2-bosqich: Tushunchaning mohiyatini ochish: O'xshash va farqli tomonlarini taqqoslash, muhokama qilish.

3-bosqich: Amalga oshirish: Oddiy va oson mashqlarni yechish.

4-bosqich: Mustahkamlash: Topshiriq va o'yinlar yordamida bilimlarni chuqurlashtirish.

5-bosqich: Tahlil va umumlashtirish: O'quvchilarning xulosalar chiqarishini rag'batlantirish.

Xulosa

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni bosqichma-bosqich va tizimli ravishda o'rgatish nafaqat bilim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va kreativ yondashuv kabi qobiliyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi. Har bir darsda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, qiziqishlari va individual rivojlanish sur'ati inobatga olinib, turli metodlardan kompleks tarzda foydalanish zarur.

Shu tarzda o'qitilgan o'quvchi matematikani nafaqat o'rganadi, balki uni sevadigan va hayotda qo'llay oladigan shaxs sifatida shakllanadi.

Boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni o'quvchilarga bosqichma-bosqich o'rgatish – ularning tafakkurini rivojlantirish, tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Mazkur jarayon izchillik, tizimlilik va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etilishi zarur. Matematik bilimlarning dastlabki bosqichda mukammal o'zlashtirilishi nafaqat keyingi bosqichlarda fanlarni o'rganishda, balki o'quvchilarning umumiy intellektual salohiyatini oshirishda ham katta ahamiyat kasb etadi.

Matematik tushunchalarni o'zlashtirishda quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilish muhimdir:

• **Soddadan murakkabga, konkretan abstraktga o'tish:** O'quvchilar dastlab oddiy, hayotiy misollar orqali tushunchalarni o'zlashtirib boradilar, so'ngra asta-sekin murakkabroq va abstrakt shakllarga o'tadilar.

• **Amaliyot bilan bog'liq o'rganish:** Matematik bilimlar o'quvchilarning hayotiy tajribalari bilan bog'lanib borilganda ularning bilimga qiziqishi va mustahkamlash darajasi ortadi.

• **Faol va interaktiv metodlardan foydalanish:** O'yinlar, rolli mashg'ulotlar, mantiqiy topshiriqlar va guruhviy ishlanmalar orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv rivojlanadi.

• **Bosqichma-bosqich va uzviylikni ta'minlash:** Har bir yangi tushuncha avvalgi bilimlarga asoslanishi va ular bilan mantiqiy bog'liq bo'lishi kerak.

Matematik tushunchalarni samarali o'rgatishda vizual vositalardan (rasmlar, sxemalar, modellar), zamonaviy axborot texnologiyalaridan, shuningdek, drammatizatsiya kabi noan'anaviy metodlardan foydalanish ham katta natija beradi. Bunda o'quvchilarning aqliy faolligi oshirilib, bilimlar mustahkam o'zlashtiriladi.

Shuningdek, har bir o'quvchining individual o'zlashtirish tezligi, qiziqishlari va qobiliyatlari inobatga olinishi lozim. Shu yo'l bilan differensial yondashuv qo'llanilib, har bir bola o'z imkoniyatiga qarab rivojlanish imkoniga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda matematik tushunchalarni bosqichma-bosqich o'rgatish murakkab, ammo juda muhim jarayon bo'lib, bu jarayonda o'qituvchining metodik

mahorati, didaktik vositalarni to'g'ri tanlash va darslarni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tashkil etish muvaffaqiyatning kalitidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Adolat, 2016-yil. – 8-dekabr
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: O'zbekiston, 2017 y.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bir-galikda barpo etamiz. Toshkent – «O'zbekiston». 2016. 13-14
4. “Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 2019-yil 8-oktabr. PF-5847
5. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. O'RQ–637-son 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida – LEX.UZ
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. <https://lex.uz/docs/-48401>
7. Andreev A.L. Kompetentnostnaya paradigma v obrazovanii: opyt filosofsko-metodologicheskogo analiza pedagogika // Pedagogika. – M. – 2005. –№ 4. – S.19-26.
8. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondoshuvini joriy qilishning didaktik asoslari // Uzluksiz ta'lim. – 2012. – № 4. 8-12 betlar.
9. Turg'unov S.T., Daniyurov B.X. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonlarigi tizimli yondashuv // Xalq ta'limi. – 2011. – № 5. 71- 76 betlar.
10. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2006
11. Bikboyeva N.U. va boshqalar «Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi», T., «O'qituvchi», 1996.
12. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo'llanma.)Toshkent. —SHarq|| 2005 yil.,

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA DIAGRAMMALAR YORDAMIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI O'RGATISH

Burxonova Marhabo Muxiddin qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24.140-guruh talabasi

Abduvaliyeva Mahliyo O'tkirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Boshlang'ich ta'lim — o'quvchilarning intellektual, ijtimoiy va hissiy rivojlanishida hal qiluvchi bosqichdir. Ayniqsa matematika fanini o'rgatishda bolalarning yosh xususiyatlariga mos metodlar va vositalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Diagrammalar — bu bilimlarni ko'rgazmali tarzda ifodalash va o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish uchun qulay vositadir. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik tushunchalarni diagrammalar yordamida o'rgatishning metodik yondashuvlari va ahamiyati tahlil qilinadi.

Diagrammalarning ta'limdagi o'rni va ahamiyati

Diagrammalar bolalarga murakkab ma'lumotlarni tushunarli va aniq shaklda tasavvur qilishga yordam beradi. Boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarning fikrlash xususiyatlari ko'proq aniq va vizual asoslangan bo'lganligi sababli, ular sonlar, nisbatlar va ma'lumotlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rish orqali tezroq o'zlashtiradilar.

Diagrammalar yordamida:

- Ma'lumotlarni to'plash va tartibga solish;
- Son va miqdorlar o'rtasidagi munosabatlarni taqqoslash;
- Qiyoslash va tahlil qilish;

- Natijalarni umumlashtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi.

Boshlang'ich sinfda qo'llaniladigan diagramma turlari

Boshlang'ich sinflarda quyidagi diagramma turlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

• **Tayoqcha diagrammalari (shtabik diagrammalar):** o'quvchilarga ma'lumotlarni oddiy va qulay tarzda taqqoslash imkonini beradi.

- **Chiziqli diagrammalar:** vaqt davomida ma'lumotlarning o'zgarishini ko'rsatadi.

• **Doira diagrammalari:** butun ma'lumotni qismlarga ajratib ko'rsatadi, nisbiy o'zaro bog'liqlikni tushuntiradi.

• **Piktogrammalar:** ma'lumotlarni piktogramma — rasmchalar yordamida vizuallashtiradi, ayniqsa kichik yoshdagi o'quvchilarga juda qulay.

Diagrammalar yordamida matematik tushunchalarni o'rgatish metodikasi

Diagrammalarni o'rgatish jarayonida quyidagi metodik bosqichlar muhim:

1. **Ma'lumot to'plash:** O'quvchilar bilan real hayotdan ma'lumotlar yig'ish (masalan, sevimli mevalari, uy hayvonlari soni, ob-havo kuzatuvlari).

2. **Diagramma tuzish:** Yig'ilgan ma'lumotlar asosida diagramma chizish va uni to'g'ri ifodalash.

3. **Diagrammani tahlil qilish:** Diagramma asosida savollar berish, taqqoslash, sabab va natijalarni aniqlash.

4. **Amaliy faoliyat:** O'quvchilarga mustaqil diagramma tuzish topshiriqlari berish va natijalarini sharhlatish.

Bu metodika orqali o'quvchilar faqat matematik bilimlarni emas, balki axborotni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Diagrammalar yordamida o'rgatiladigan asosiy matematik tushunchalar

- Qo'shish va ayirish amallari;
- Ko'paytirish va bo'lish amallari (guruhlash orqali);
- Taqqoslash: ko'proq, kamroq, teng;
- Miqdorlar va nisbatlar tushunchasi;
- Foizlar va nisbiy o'lchovlar (boshlang'ich darajada).

Amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati

Diagrammalar asosida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotlar o'quvchilarda:

- Dars jarayoniga faol qatnashish;
- Mustaqil fikrlash va izlanish;
- O'z fikrini asoslab ifodalash;
- Vizual axborotni tushunish va qayta ishlash kabi muhim ko'nikmalarni shakllantiradi.

Masalan, sinfdagi o'quvchilarning sevimli sport turlari haqida so'rovnomaga o'tkazib, natijalar tayoqcha diagrammasida ifodalansa, bu o'quvchilarning nafaqat matematik, balki muloqot va tahlil qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Diagrammalar yordamida matematik tushunchalarni o'rgatish boshlang'ich sinfda ta'lim samaradorligini oshiradi. Diagrammalar:

- O'quvchilarga bilimlarni aniq va oson o'zlashtirishga yordam beradi;
- Matematik tafakkurni rivojlantiradi;
- O'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatini oshiradi.

Shu sababli boshlang'ich sinf matematikasi darslarida diagrammalardan tizimli va maqsadga muvofiq tarzda foydalanish dolzarbdir.

- Har bir yangi mavzuni hayotiy misollar asosida diagrammalar orqali tushuntirish.
- O'quvchilarning o'zlari mustaqil diagramma chizishini rag'batlantirish.
- Diagramma tahlili asosida o'zaro bahs va muhokama tashkil qilish.

Axborotni vizual ko'rsatish orqali mantiqiy fikrlashni rag'batlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev. “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston Davlatini birgalikda barpo etamiz” –T.: “O‘zbekiston” 2016-y -56-b.
2. Sh.M.Mirziyoyev. “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” –T.: “O‘zbekiston” 2017 y. -488-b.
3. Sh.M.Mirziyoyev. “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”. –T.: “O‘zbekiston” 2017 y. -592 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar I-qism, T.: 1998 yil
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini isloh qilish bo‘yicha me‘yoriy hujjatlar II-qism, T.: 1998 yil
6. N.U.Bikbayeva, R.I.Sidelnikova, G.A.Adambekova. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (O‘rta maktab Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma.) T.: “O‘qituvchi” 1996-y. -512b.
7. M.E.Jumayev, Z.G. Tadjieva. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. (OO‘Y uchun darslik.) T.: “Fan va texnologiya” 2005-y.
8. M.E.Jumayev. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. T.: O‘qituvchi. 2006-y.
9. M.E.Jumayev. “Boshlang‘ich matematika o‘qitish metodikasidan amaliy mashg‘ulotlar to‘plami”. T.: O‘qituvchi 2005-y.
10. M.E.Jumayev. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. (KHK uchun) Toshkent.: “Ilm Ziyo” 2005-y.
11. M.E.Jumayev. Bolalarda boshlang‘ich matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. -T.: ILM ZIYO, 2013.-232 b.
12. V.V. Danilova “Matematicheskaya podgotovka detey v doshkolnix uchrejdeniyax”. - M., 1987 y.

BOSHLANG‘ICH TA’LIM O‘QUVCHILARINING MATEMATIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg‘ona davlat universiteti, pedagogika bo‘yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Xudoyberdiyeva Nasibaxon Sayidaxmadovna

Farg‘ona davlat universiteti Sirtqi bo‘lim talabasi

Ma’lumki, o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan asosiy fanlardan biri bu matematika fani hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda matematika fanining dastlabki tushunchalari soddaroq bosqichda olib boriladi. Maktabga ilk bor qadam qo‘ygan bolajonlar har bir fanni alohida qiziqish bilan o‘rganib boshlashadi. Jumladan, matematikani ham alohida taasurotlar bilan boshlaydi.

Bunda o‘qituvchilardan talab qilinadigan asosiy ish o‘quvchilarni bu fanga qiziqitira olishidir. Matematika faniga qiziqish uyg‘ota olish o‘qituvchining pedagogik mahorati bilan bog‘langan. Matematika haqidagi dastlabki tushunchalar o‘quvchilarga narsa-buyumlarni, barmoqchalarini, sinf xonasidagi stol-stullarni, sinfdagi o‘g‘il va qiz bolalarni, o‘zlarining daftarlarini va h.k. predmetlarni sanash orqali tushuntirib boriladi. Boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari matematik bilimlarni berishda yangi matematik tasavvurlar, ko‘nikma va bilimlarni shakllantiruvchi zamonaviy usullardan foydalanmog‘i darkordir. Agar o‘qituvchi bolalarga matematika fanini qiziqarli va aniq tushuntira olsa, bolalar boshqa fanlarni ham shu kabi o‘qiy boshlashadi. Chunki, matematika so‘zi yunonchadan tarjima qilinganda “fanlarni bilish” degan ma’noni berishi bejizga emas

Boshlang'ich ta'limda matematik tafakkurni shakllantirish o'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyatli ta'limi uchun muhimdir. Va albatta, matematikani yaxshi o'zlashtirgan bola, kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishiga shubha yo'q.

Endi matematika darslarida o'qituvchi qo'llashi mumkin bo'lgan va darsning qiziqarli va samarali borishini ta'minlaydigan ba'zi usullarni keltiramiz:

1. Matematik o'yin usuli. Matematik o'yinlar orqali o'quvchilar matematik tushunchalarni tez va oson o'zlashtiradilar.

Bu esa o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda juda foydalidir.

Quyida biz qiziqarli va foydali bo'lgan ba'zi bir matematik o'yinlarni keltiramiz:

Sonlar o'yini. Maqsad: O'quvchilar berilgan sonlar bilan amallarni bajarishadi.

Qoidalar: O'quvchilar navbatma-navbat sonlar aytishadi va har bir sonni oldingi son bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish yoki bo'lish orqali yangi sonlar hosil qilishlari kerak.

Matematik bingo o'yini. Bingo kartasida turli matematik masalalar joylashadi. O'qituvchi masalani aytadi, o'quvchilar uni yechishadi. Agar natija kartada bor bo'lsa, belgilashadi, yo'q bo'lsa belgilashmaydi. Shu tariqa g'olib aniqlanadi.

Matematik shaxmat va shashka o'yini. Maqsad: O'quvchilar shaxmat yoki shashka o'ynab, matematik masalalarni yechishadi. Qoidalar: Har bir yurishdan oldin o'quvchi matematik masalani yechishi kerak bo'ladi. Agar to'g'ri yechsa, yurishni davom etadi. Shu tariqa g'olib aniqlanadi.

Qiziqarli masalalar o'yini. Maqsad: O'quvchilar turli masalalarni yechish orqali raqobatlashadilar.

Qoidalar: O'quvchilar guruhlariga bo'linadi va har bir guruhga masalalar beriladi. Eng tez va to'g'ri yechgan guruh g'olib bo'lishadi.

Kim tezroq? o'yini. O'quvchilar bir-birlariga va o'qituvchi o'quvchilarga savollar berishadi. o'quvchilar javob berish uchun raqobatlashadi. Kim eng tez va to'g'ri javob bergan bo'lsa, o'sha o'quvchi g'olib bo'ladi.

Xulosa: matematik o'yinlar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va matematik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu o'yinlar orqali o'quvchilar matematikani o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladilar.

2. Vizual materiallar. Matematik ta'limda vizual materiallar o'quvchilarning tushunishini yaxshilash va matematik tushunchalarni osonroq o'zlashtirish uchun muhim hisoblanadi. Quyida biz vizual materiallarning turli xil turlari va ularning ta'limdagi ahamiyatlarini keltirib o'tamiz:

Diagrammalar. Matematik jarayonlarni va munosabatlarni ko'rsatadi. Uning turlari:

- Chiziqli diagrammalar: Funksiyalar va ularning o'zgarishlarini ko'rsatadi.
- Sektor diagrammalari: Ma'lumotlarni foizlar bilan ifodalaydi.

Grafiklar. Sonlar o'rtasidagi munosabatlarni vizual ko'rsatadi. Uning turlari:

- X va Y o'qlarida grafiklar: Funksiyalarni ko'rsatish.
- Bar grafiklar: Ma'lumotlarni qiyoslash uchun.

Modellar. Matematik tushunchalarni fizik ko'rinishda taqdim etadi. Uning turlari:

a) Geometrik modellar: Uchburchak, to'g'ri burchakli to'rtburchak va boshqa shakllarni ko'rsatadi.

b) Matematik ob'ektlar: Sonlar va ularning munosabatlarini ko'rsatadigan modellar.

Vizual yordamchilar. O'quvchilarga matematik masalalarni yechishda yordam beradi. Uning turlari:

- Raqamli chizg'ichlar: Raqamlarni o'rganishda foydalidir.
- Kalkulyatorlar: Murakkab hisob-kitoblarni osonlashtiradi.

Interaktiv ta'lim vositalari. O'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi. Uning turlari:

Ta'lim ilovalari: Matematik masalalar bilan ishlash imkoniyatini beradi.

Online diagramma va grafik yaratuvchilar: O'quvchilar o'z grafiklarini yaratishlari mumkin.

Video va animatsiyalar. Matematik jarayonlarni dinamik ko'rsatadi. Foydali tomoni o'quvchilar murakkab tushunchalarni osonroq tushunishlari mumkin.

Xulosa: Vizual materiallar matematik ta'limda o'quvchilarning tushunishini va qiziqishini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ular yordamida o'quvchilar matematik tushunchalarni osonroq o'zlashtiradilar va amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

3. Muammolarni hal qilish. Muammolarni hal qilish boshlang'ich ta'limda matematik tafakkurni rivojlantirishning muhim jihatlaridan biridir. Bu jarayon o'quvchilarga analitik fikrlash, ijodiy yondashuv va muammolarni yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Quyida biz muammolarni hal qilish jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan usullar va strategiyalarni keltiramiz:

Muammoni aniqlash. O'quvchilar muammoni to'g'ri tushunishlari kerak. Muammo shartlarini diqqat bilan o'qish va muammo ichidagi ma'lumotlarni ajrata olishi muhim.

Reja tuzish. Muammoni hal qilish uchun aniq strategiya ishlab chiqiladi. Muammoni yechish uchun zarur bo'lgan amallarni belgilash va qanday usullarni qo'llashni aniqlashtirish (masalan, diagrammalar, jadval va boshqalar) muhim hisoblanadi.

Muammoni yechish. O'quvchilar rejalashtirilgan strategiyalarni qo'llash orqali muammoni hal qilishlari kerak. Ular amallarni bajaradi va har bir qadamni diqqat bilan kuzatib borishadi.

Natijani tekshirish. Olingan natijani to'g'riligini aniqlash. Olingan natijani muammo shartlari bilan solishtiradi va agar natija to'g'ri bo'lmasa, yechimini qayta ko'rib chiqadi.

Muammoni tahlil qilish. O'quvchilar yechish jarayonini tahlil qilib, o'z bilimlarini mustahkamlashlari kerak.

Qanday usullar samarali bo'lgani va qaysilari kam foydali ekanini aniqlashadi hamda o'rganilgan tajribalarni kelajakdagi muammolarni hal qilishda qo'llash.

Xulosa: muammolarni hal qilish jarayoni boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon o'quvchilarga analitik va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek, muammolarni hal qilishda mustaqil yondashuvni rivojlantiradi.

4. Tadqiqot va eksperimentlar. Bu usul yordamida o'quvchilar matematik tushunchalarni amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Matematik ta'limda tadqiqot va eksperimentlar o'quvchilarning matematik tushunchalarni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi. Bu jarayon o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi.

Quyida biz tadqiqot va eksperimentlar orqali matematik ta'limni rivojlantirish uchun foydalanish mumkin bo'lgan usullarni bayon qilamiz:

Amaliy tadqiqotlar. O'quvchilar matematik qonuniyatlarni amaliyotda o'rganishlari kerak. O'quvchilar real hayotdagi muammolarni o'rganish uchun tadqiqot olib boradilar (masalan, savdo narxlari, statistik ma'lumotlar) hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishadi va natijalarni taqdim etishadi.

Eksperimentlar. Matematik jarayonlarni tajriba orqali o'rganishadi. O'quvchilar matematik qonuniyatlarni sinab ko'rish uchun eksperimentlar o'tkazadilar (masalan, geometrik shakllar bilan ishlash) hamda natijalarni tahlil qilib, natijalarni muhokama qilishadi.

Model yaratish. Matematik tushunchalarni modellashtirish orqali o'rganishadi. O'quvchilar matematik ob'ektlar yoki jarayonlarni modellashtirish uchun grafik yoki fizik modellar yaratadilar hamda modellar yordamida muammolarni yechib, natijalarni taqdim etishadi.

Statistik tadqiqotlar. O'quvchilar statistik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish orqali matematik tushunchalarni o'rganishadi. O'quvchilar o'zlarining tadqiqot mavzularini tanlaydilar va ma'lumotlarni yig'adilar. So'ng, olingan ma'lumotlarni grafiklar va diagrammalar yordamida taqdim etishadi.

Guruhlarda tadqiqot. O'quvchilar birgalikda ishlash va fikr almashish orqali o'rganishlari mumkin bo'ladi.

O'quvchilar guruhlariga bo'linib, muayyan mavzuda tadqiqot olib boradilar hamda har bir guruh o'z natijalarini taqdim etadi va boshqa guruhlar bilan muhokama qilishadi.

Xulosa: tadqiqot va eksperimentlar matematik ta'limda o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va qiziqarli qiladi. Bu jarayon o'quvchilarga matematik qonuniyatlarni amaliyotda qo'llash imkoniyatini beradi va ularning analitik fikrlash qobiliyatlarini shakllantiradi va rivojlantiradi.

5. Integratsiya. Matematikani boshqa fanlar bilan birlashtirish nazarda tutilgan, masalan, fizika, psixologiya, pedagogika, san'at, tabiatshunoslik va boshqa fanlar bilan bog'lab, dars jarayonlarini qiziqarli va mazmunli olib borish.

6. O'qituvchining roli. O'qituvchilar o'quvchilarni rag'batlantirish va ularga yordam berishlari kerak.

Har bir bolaga alohida e'tibor qaratishi va har xil misollar orqali o'quvchilarga ko'rsatma va tavsiyalar berishlari mumkin.

Boshlang'ich ta'limda matematik tafakkurni shakllantirish uchun turli usullarni qo'llash juda muhimdir. Bu usullar o'quvchilarning qiziqishini oshiradi va ularning matematik ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kelajakda yetuk matematik olim bo'lib chiqishi uchun asos bo'ladi. O'ylaymanki, har bir boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi har bir fanni shu kabi o'yinlar orqali qiziqarli olib borishsa, bolalar fanlarni qiziqib o'qishadi va shu fanning olimi va olimasi bo'lib chiqishiga ishonaman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi // Adolat, 2016-yil. – 8-dekabr
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak.-T.: O'zbekiston, 2017 y.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bir-galikda barpo etamiz. Toshkent – «O'zbekiston». 2016. 13-14
4. “Oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” 2019-yil 8-oktabr. PF-5847
5. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni. O'RQ–637-son 23.09.2020. Ta'lim to'g'risida – LEX.UZ
6. Axmedov M., Abduraxmonova N., Jumaev M.E. Birinchi sinf matematika darsligi metodik qo'llanma.)Toshkent. —SHarq 2005 yil.,
7. Bikbaeva N.U, R.I.Sidelnikova,G.A.Adambekova. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. (O'rta maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma.) Toshkent. —O'qituvchi 2006 yil.
8. Jumaev M.E, Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasidan praktikum. (O O'YU uchun) Toshkent. —O'qituvchi 2014 yil. “Maktabgacha ta'lim” jurnali maqolalari
9. Bikboeva.N.U. Yangiboeva .YA. Ikkinchi sinf matematika darsligi. Toshkent.—O'qituvchi 2012 yil.
10. Bikboeva.N.U. YAngiboeva E.Y. Uchinchi sinf matematika darsligi. Toshkent.—O'qituvchi 2015 yil.
11. <http://www.dissers.info>
12. www.natlib.uz internet kutubxona
13. www.ziyonet.uz materiallari

**O'QUVCHILARDA ONA TILI TA'LIMIDA MORFOLOGIK KOMPETENSIYANI
FORMALASHTIRISH VA USTUVOR RIVOJLANTIRISH**

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Shokirova Shaxlo Jobir qizi

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limda natijalarni rejalashtirish barcha o'quv fanlarini, jumladan, rus tilini ham to'liq qamrab oladi. Morfologiya — bu rus tilining boshlang'ich maktabda odatiy tarzda o'rganiladigan bo'limlaridan biridir. Shu sababli, mazkur bo'limni o'rgatishning mazmuni va metodikasi masalalari hozirgi paytda muhim emasdek ko'rinadi.

Asosiy tushunchalar: Morfologiya, kompetensiya, layoqatlilik, leksik, paradigmatik.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilari rus tili morfologiyasi bo'yicha o'quvchilar faoliyatining yakuniy natijalarini belgilash va ularning morfologik kompetensiyasini rivojlantirishga majburdirlar. Bu, mening fikrimcha, morfologiyani o'rgatishdagi asosiy vazifani doimiy nazarda tutishga yordam beribgina qolmay, balki o'quvchilarning grammatik toifalar va tushunchalarni chuqurroq egallashiga zamin yaratadi.

Kompetensiya — bu shaxs mahoratli bo'lgan soha yoki faoliyat yo'nalishi. Yana bir ta'rifi quyidagicha:

— umumiy muammolarni hal etishda yoki muayyan faoliyat sohasida amaliy tajriba asosida bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish va samarali harakat qilish qobiliyati.

Kompetensiya sohasi — bu shaxs yoki tashkilot yuqori darajada egallagan, raqobatbardosh bilim va ko'nikmalar majmuasidir.

Morfologiya — bu tilshunoslik sohasi bo'lib, u tabiiy tillardagi so'zlar, ularning qismlari va morfologik xususiyatlarini o'rganadi. Demak, morfologiya vazifalari orasida so'zni lingvistik birlik sifatida belgilash va uning ichki tuzilishini tavsiflash mavjud [1–13].

Morfologiya (yunon tilidan: *morph* – “shakl”, *logos* – “so'z, ta'limot”) – zamonaviy tilshunoslik doirasida so'zlarning tashqi belgilarini, ularning tarkibiy qismlarini (morfemalarini), shuningdek, so'z orqali ifodalanuvchi grammatik ma'nolarni o'rganadi.

“Kompetentlik” va “morfologiya” tushunchalariga asoslanib, **morfologik kompetensiya** quyidagicha izohlanadi:

Morfologik kompetensiya – bu til tizimining grammatik bo'limi bo'lgan morfologiya doirasida o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash qobiliyati bo'lib, bu so'zlar, ularning grammatik guruhlari, shakllanish qonuniyatlari va grammatik mazmunlarini tushunishni o'z ichiga oladi.

Morfologik kompetensiya qanday shakllantirilishini aniqlashdan avval “shakllanish” atamasiga to'xtalamiz.

Shakllanish – bu shaxsning rivojlanish jarayoni yoki uning shaxsiy sifatlarini, xarakter belgilarini ongli ravishda boshqarish va ularni oldindan belgilangan shakl, daraja yoki tasvirga olib kelishdir.

Morfologik kompetensiyani shakllantirish uchun maxsus uslub mavjud:

Morfologiyani o'rgatish metodikasi – bu grammatika o'qitish metodologiyasining bir bo'limi bo'lib, unda o'quvchilarning gap bo'laklarini o'zlashtirish jarayonlari, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish yo'llari, tuslanish, fe'lning qo'llanilishi, yuzaga keluvchi xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganiladi.

Morfologiyani o'rgatish metodikasining o'ziga xos jihatlari o'rganish maqsadlariga bog'liq:

– **bilimiy maqsad** – asosiy morfologik tushunchalarni egallash;

– **amaliy maqsad** – morfologik ko'nikmalarni shakllantirish bo'lib, ulardan eng muhimi – gap bo'laklarini ajrata olish va morfologik tahlil qilish sanaladi [48, 49].

Quyidagi metodik prinsiplar morfologiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi:

1. **Leksik-grammatik** – so'zning lug'aviy ma'nosi bilan u nutq bo'lagi sifatidagi umumiy semantik ma'nosini solishtirish (masalan, “aylanmoq” – “harakat yo'nalishiga ega bo'lgan yurish” va “ot shaklidagi harakat”);

2. **Paradigmatik** – so'zning turli shakllarini va asosiy shaklini taqqoslash;

3. **Morfologik-sintaktik** – so'zni gap bo'lagi va nutq bo'lagi sifatida solishtirish.

Rus tilini o'qitishda o'quvchilarda til ko'nikmalarini shakllantirish uchun **maxsus mashqlar** ishlatiladi.

Morfologik mashqlar orqali o'quvchilarning olgan bilimlari mustahkamlanadi hamda imlo va tinish belgilarini o'rgatish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bunda quyidagi mashqlardan foydalaniladi:

1. Morfologik tahlil bajarish;
2. So'zning to'liq yoki qisman morfologik tahlilini amalga oshirish;
3. So'z yasalishi yoki belgilangan shaklga keltirish;
4. Muayyan gap bo'lagi asosida so'z birikmasi va gap tuzish;
5. Matnda yoki gapda so'z bo'lagini aniqlash;
6. So'z bo'laklarining yasalish usullarini ko'rib chiqish;
7. Gap bo'lagini yoki uning aniq grammatik kategoriyasini aniqlash;
8. Ma'lum bir turkumga oid so'zlarni tanlash;
9. So'zlarni ularning gapdagi funksiyalariga ko'ra guruhlash;
10. So'z paradigmasini tuzish;
11. Nutq qismlariga oid omonimlarni farqlash;
12. Jadval tuzish va mavjud jadvallarni misollar bilan to'ldirish;
13. Gap qismlarining matn tuzishda tutgan o'rnini kuzatish;
14. Har xil uslubdagi matnlarda gap bo'laklarining ishlatilishini tahlil qilish;
15. Gapdagi bo'laklar o'rtasidagi sintaktik munosabatlarni aniqlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1.Xolmatova, Z. T. (2020). TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YOndashuv MODELINING XARAKTERISTIKALARI. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 7(3).

2.Xolmatova, Z. T. (2019). MAKTAB YOQADA BOLALARNING GENDER TARBIYASI. *Namangan Davlat universitetining ilmiy xabarnomasi*, 1(9), 199-207.

3.Xolmatova, Z. T. *Teoreticheskie osnovi gendernogo podxoda v pedagogika*. *Nauchniy jurnal «Gumanitarniy traktat»* www. gumtraktat. ru ISSN, 2500-115915.

4.Холматова, З. (2021). Гендерное образование в Узбекистане–критерии силы семьи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.

5.Xoliqova, D. M. (2019). ZAMONAVIY OLIY MAKTABNING INNOVATSION FAOLIYATI: RIVOJLANISH TENDENTLARI. *Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi*, 1(9), 215- 220.

6. Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.

7. Холикова, Д. М. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 80- 84.

8.Xoliqova, D. M. (2017). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining salomatlik kompetentsiyasini shakllantirish masalasi. *Sharqiy Yevropa ilmiy jurnal*, (1).

9.Xoliqova, D. M. (2020). TALABALARDA INNOVATSION KO'NIKMALARNI SHAKLANTIRISH MEKANIZMI. *INNOVATSII V PEDAGOGIKE VA PSIXOLOGII*, (SI- 3).

10.Xoliqova, D. M. (2021). TALABALARDA INNOVATSION tafakkurini orttirishning NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. Nazariy va amaliy fanlar, (5), 422-424.

12.Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 56-60.

13.Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.

14.Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 349-3

15.Nabijonova, F. (2022). BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 180-184.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI ZAMONAVIY KASBIY BILIM, MALAKA VA KO'NIKMALARINI OSHIRISH YO'LLARI

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

To'ranazarova Dilfuza Alijonovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Kelajakdagi o'qituvchining kasbiy kompetentligini yuksaltirish — bu uning kundalik faoliyatga layoqatini, mehnat samaradorligini oshirishga qaratilgan jarayondir. Ish jarayonida kasbiy ko'nikma va mahoratni shakllantirish bilan bog'liq masalalarni o'rganish va ularni bartaraf etish orqali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash mumkin bo'ladi.

Asosiy tushunchalar: kasbiy saviya, mahorat, ko'nikma, salohiyat, malaka mezonlari, nazariy bilimlar, metodologik yondashuv, taxminiy rejalashtirish, ilmiy yig'inlar, xalqaro anjumanlar, rivojlanish yo'nalishlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida oliy ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, mamlakat ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, kadrlar tayyorlash tizimini yangilash, xalqaro andozalarga mos oliy ma'lumotli mutaxassislarni yetishtirish uchun zarur infratuzilmani shakllantirish vazifalari belgilanmoqda. Shuningdek, uzviy ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli bilim berish imkoniyatlarini kengaytirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos mutaxassislar tayyorlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatga dastlabki tayyorgarligi — amaliy tayyorgarlikning poydevoridir. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy jihatdan tayyorlashda ularni zarur bilimlar, ko'nikmalar va malaka bilan ta'minlash muhim hisoblanadi. Bu yerda kasbiy bilim — muayyan sohadagi ish faoliyatini bajarishda zarur bo'lgan nazariy axborotlar majmuasidir. Bo'lajak o'qituvchilar egallashi zarur bo'lgan kasbiy bilimlar mazmuni mutaxassis shaxsiga qo'yiladigan malaka talablari asosida aniqlanadi va bu omil kasbiy moslashuvning samaradorligini ta'minlovchi mezonlardan biri sanaladi.

Shu sababdan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida quyidagi yo'nalishdagi bilimlar asosiy o'rin tutadi:

- **Nazariy:** ta'lim-tarbiya jarayonining maqsad, tamoyil va qonuniyatlari, metodologiyasi, darsni tashkil qilish shakllari, metodlari va vositalari bo'yicha bilimlar;

- **Metodik:** dars jarayonini loyihalash, rejalashtirish, didaktik usullarni tanlash, talabalarni motivatsiyalashga doir bilimlar;

• **Texnologik:** o'qitish muhitida yuzaga keluvchi vazifalar va vaziyatlarni hal qilish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish;

• **Prognostik:** ta'lim oluvchilarning intellektual va axloqiy rivojlanishini ilgari rejalashtirish, mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxsni shakllantirishning prognoz vositalari.

Zamonaviy o'qituvchi timsolida mukammallikning mujassam bo'lishi katta ahamiyatga ega. Kelajakdagi pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish — bu uning faoliyatda samaradorligini yuksaltirishdir. Kasbiy tayyorgarlikdagi muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish orqali yuqori malakali pedagoglar tayyorlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirish uchun ularni quyidagicha yondashuvlar bilan ta'minlash lozim:

- ilmiy daraja olish (magistratura, doktorantura);
- ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish (maqola yozish, konferensiyalarda qatnashish);
- pedagogik amaliyot (kurslar, yozgi maktablarda o'qituvchi sifatida ishtirok etish);
- kasbiy hamjamiyat bilan hamkorlik (tajriba almashinuvi, ilmiy birlashmalarda ishtirok);
- fikr-mulohaza olish va o'z-o'zini tahlil qilish (mustaqil baholash asosida o'qituvchilik mahoratini rivojlantirish);
- mustaqil ta'lim resurslaridan (kitoblar, jurnal, veb-seminarlar) foydalanib o'z ustida ishlash.

Shuni ta'kidlash joizki, kasbiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish doimiy davom etuvchi jarayondir. Bo'lajak pedagoglar esa uzluksiz o'rganishga tayyor bo'lishlari kerak.

Xulosa: Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishi, kerakli bilim va ko'nikmalarni egallashida asosiy omil — bu kasbiy fazilatlarini izchil rivojlantirishdir. Bu borada shaxsiy imkoniyatlardan kelib chiqib, tanlangan kasbga mos yondashuvni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 uil 20 apreldagi PQ - 2909-son "Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 uil 27 iyuldagi PQ-3151-son "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori
3. Jabborova, M. The importance of innovative technologies in the social development of society. *Ekonomika i sotsium*, (6-1), 129-132.
4. Jabborova, M. Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning roli. *Scientific progress*, 3(4), 167-173.
5. M.Q. Jabborova, M. Sharq mutafakkirlarining ilmiy me'rosida barkamol shaxs ta'lim tarbiyasi. *Science And Innovation*, 1(B8), 92-98.

ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA INNOVATSION ISH FAOLIYATINING AHAMIYATI

Mirsoliyeva Zebiniso Kamoliddinovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24.140-guruh

Abduraimova Dilafuz

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Ilm-fan sohasida bilimlar va integratsion jarayonlarning ustuvorlik kasb etishi bugungi zamon tafakkuri va dunyoqarashini shakllantirish bilan bog'liq muammolarni yuzaga keltirmoqda. Innovatsion faoliyat — bu ta'lim muassasalarida yangiliklarni joriy qilish jarayoni bo'lib, u ta'lim tizimining rivojlanishi va ijodiy o'zgarishlariga olib keladi.

Asosiy so'zlar: hozirgi zamon ta'limi, yangilik, uslub, o'qituvchi, uyg'un yondashuv.

Hozirgi ta'lim tizimi barcha bosqichlari, xususan, o'rta maxsus ta'lim darajasida tub islohotlar bilan xarakterlanmoqda. "Innovatsiya" atamasi o'zgarish, yangilanish, yangi elementlar joriy etilishini anglatadi. Innovatsiya ham vosita, ham jarayon sifatida yangilikni amaliyotga kiritishni talab qiladi. Pedagogik jarayonga nisbatan olganda, bu yangi maqsadlar, mazmun, metod va ta'lim shakllarini tatbiq etish, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi faol hamkorlikka asoslangan faoliyatdir.

Innovatsion jarayon — bu ta'limiy yangilikni ishlab chiqish va uni amaliyotda tatbiq etish bo'lib, bu yangiliklar keng doirada tarqatiladi. Innovatsion ish faoliyati ta'lim tashkilotlarida yangiliklarni egallash va ularni rivojlantirish orqali ta'lim tizimining sifat jihatdan yuksalishiga xizmat qiladi.

Ta'limni takomillashtirish yo'lida innovatsion yondashuv — bu ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik yangiliklarni kiritish va ulardan foydalanish demakdir. Olimlarning bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashdagi dolzarb masalalarga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari asosida quyidagi innovatsion yondashuvlar aniqlangan: integrativ yondashuv; faoliyatga asoslangan yondashuv; darajalangan o'qitish; kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda olib boriladigan yondashuv. Quyida ular haqida qisqacha ma'lumot berilgan:

1. **Ta'limda integrativ yondashuv.** Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, integratsiya jarayoni uch bosqichga ajraladi:

1. XX asrning 20-yillari — fanlararo muammoli va kompleks yondashuv asosidagi o'qitish;

2. XX asrning 50-70-yillari — fanlararo aloqadorlikni ko'zda tutgan ta'lim;

3. XX asrning 80-90-yillari — sohalararo xususiy integratsiya.

Ilm-fan va bilimlar sohasida integratsiya jarayonlari yetakchi o'rinni egallab borayotgani zamonaviy tafakkur va dunyoqarash shakllanishi bilan bevosita bog'liq. Fanlararo integratsiya — bu bilimlar tizimining insonparvarlikka yo'naltirilishi, nazariy asoslarning kuchayishi orqali ta'lim sifati oshishiga xizmat qiladi. "Integratsiya" atamasi — butunlik, bog'liqlik, uzviylik, yaxlitlikni anglatadi.

Integratsiyalash — lotincha "integer" (yaxlitlik) va "integrare" (tiklash, to'ldirish) so'zlaridan olingan bo'lib, ta'lim mazmunidagi uyg'unlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu atama bilim, ko'nikma, malaka va tushunchalarni umumlashtirish orqali ta'lim va tarbiyani izchil tizimga solishga imkon beradi.

Integratsiya — muhim ilmiy tushuncha bo'lib, tahlil va xulosa chiqarishda metodologik vosita vazifasini bajaradi. Uning yordami bilan turli jarayon va hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqlik, yaxlitlik, uyg'unlik qonuniyatlari aniqlanadi.

Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda hamda turli fanlarning ta'lim mazmunini uyg'unlashtirishda integratsiya jarayoni doimo yordam beradi va belgilangan maqsadlarga erishish uchun zamin yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, "Integratsiya" tushunchasi tizimlilik, jarayon, tamoyil kabi ilmiy kategoriyalar orqali ifodalanadi. Agar muayyan bir asosiy komponent atrofida turdosh fanlar o'zaro bog'langan holda uyg'unlashtirilsa, bu integratsiyalashuvga olib keladi. Ta'lim jarayonida turdosh fanlarning birgalikda olib borilishi o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq anglashiga, o'qituvchining didaktik vositalardan to'liq foydalanishiga, ijodiy va tadqiqotga yo'naltirilgan mashg'ulotlarga vaqt ajratilishiga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1. Xolmatova, Z. T. (2020). TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YONDASHUV MODELINING XARAKTERISTIKALARI. Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 7(3).

2. Xolmatova, Z. T. (2019). MAKTAB YOQADA BOLALARNING GENDER TARBIYASI. Namangan Davlat universitetining ilmiy xabarnomasi, 1(9), 199-207.

3. Xolmatova, Z. T. Teoreticheskie osnovi gendernogo podxoda v pedagogika. Nauchniy jurnali «Gumanitarniy traktat» www. gumtraktat. ru ISSN, 2500-115915.

4. Xolmatova, Z. (2021). Гендерное образование в Узбекистане—критерии силы семьи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.

5. Xoliqova, D. M. (2019). ZAMONAVIY OLIY MAKTABNING INNOVATSION FAOLIYATI: RIVOJLANISH TENDENTLARI. Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi, 1(9), 215- 220.

8. Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.

9. Холикова, Д. М. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 80- 84.

8. Xoliqova, D. M. (2017). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining salomatlik kompetentsiyasini shakllantirish masalasi. *Sharqiy Yevropa ilmiy jurnali*, (1).

9. Xoliqova, D. M. (2020). TALABALARDA INNOVATSION KO'NIKMALARNI SHAKLANTIRISH MEKANIZMI. INNOVATSII V PEDAGOGIKE VA PSIXOLOGII, (SI- 3).

10. Xoliqova, D. M. (2021). TALABALARDA INNOVATSION tafakkurini orttirishning NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. *Nazariy va amaliy fanlar*, (5), 422-424.

12. Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. *Gospodarka i Innovatsije.*, 22, 56-60.

13. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.

14. Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 349-3

15. Nabijonova, F. (2022). BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 180-184.

TA'LIM SIFATINI YUKSALTIRISHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Qurbonova Munira Toshpulatovna

Namangan viloyati Chust tumani 33 maktab

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxsdagi ko'nikmalar ongli harakatlarning avtomatiklashuvi natijasida shakllanishi haqida fikr yuritiladi. Ko'nikmalar inson tomonidan ilgari orttirilgan tajriba va malaka asosida yuzga chiqib, faoliyatda qo'llanishi ochib beriladi.

Kalit iboralar: kasbiy jarayon, ko'nikma, pedagogik saviya, ongli harakat, sezgirlik asosidagi ko'nikmalar, intellektual ko'nikmalar.

Ta'lim sifatini xalqaro mezonlar darajasiga olib chiqishda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirish muhim omil hisoblanadi. Kelajakdagi o'qituvchining kasbiy faoliyati mazmuni pedagogika fanining asosiy masalalaridan biri sanaladi. Bo'lajak pedagogning kasbiy faoliyatidagi maqsad va mazmun, aynan ushbu faoliyatni bajaruvchi shaxs orqali ifodalanadi. Bu faoliyat jamiyat tajribasini, madaniyatini katta avloddan kichik avlodga yetkazish, ularning shaxsiy rivoji uchun zarur sharoitlarni yaratish va ularni jamiyatda ijtimoiy vazifalarni bajarishga tayyorlashdan iboratdir.

Kasbiy ko'nikmalar mohiyatini tushuntirishda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, bu holat "ko'nikma" atamasining ko'p qirrali va murakkabligidan dalolat beradi.

Quyida "kasb", "ko'nikma", "kasbiy faoliyat sohasi", "pedagogik kasbiy jarayon", "pedagogik mahorat", "kasbiy layoqat", "pedagogik ijodkorlik", "pedagogik savodxonlik" kabi tushunchalar sharhlanadi. Chunki aynan shu tushunchalar zamonaviy o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Kasb (lotincha *professio* — rasmiy faoliyat turi, *profiteor* — "bayon qilmoq" so'zidan kelib chiqqan) — bu ma'lum tayyorgarlik va tajriba asosida egallangan maxsus nazariy bilimlar, amaliy mashqlar hamda ko'nikma va malakalarning yig'indisi asosida bajariladigan mehnat faoliyatidir.

Kasb — bu insonning ma'lum bir sohada faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan nazariy bilim, amaliy tajriba va ko'nikmalarning jamlanmasidir. Bu jarayonda jismoniy holat, aqliy salohiyat va huquqiy asoslar muhim o'rin tutadi.

Ko'nikma — bu belgilangan maqsad va sharoitlar asosida faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatidir.

Ko'nikma — bu ongli harakatni samarali, kam kuch sarflab, to'g'ri va tez bajarishga xizmat qiluvchi tajriba natijasi bo'lib, shaxsda mavjud bilimlar asosida shakllanadi. Dastlabki bosqichda harakatlar katta e'tibor bilan amalga oshiriladi, vaqt o'tishi bilan bu jarayon avtomatik tarzda bajara boshlanadi.

Harakatlar quyidagi turlarga bo'linadi: jismoniy harakatlar, sezuvchanlikka asoslangan ko'nikmalar, aqliy faoliyat asosidagi ko'nikmalar. Ko'nikmalar uzluksiz mashq qilish orqali mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Shu boisdan, ularning ta'lim va tarbiyada tutgan o'rni beqiyosdir.

Ko'nikmalar uzoq vaqt mashq qilinmasa, ularning faollik darajasi pasayadi. Biroq, muntazam mashq va tajriba orqali ularni qayta tiklash mumkin.

Ko'nikma — bu biror faoliyatni avtomatlashtirilgan shaklda bajarish usuli bo'lib, ongli nazoratni kamaytiradi va harakatni aniq maqsadga yo'naltiradi.

Ko'nikma inson tomonidan ilgari egallangan malakalarga asoslanadi va ular bilan chambarchas bog'liq holda faoliyatda namoyon bo'ladi. Aksariyat hollarda ko'nikma malakani shakllantirishga xizmat qiladi, ba'zida esa, malakaga salbiy ta'sir o'tkazib, uni o'zgartirib yuboradi. Bu hodisa — malaka va ko'nikmaning o'zaro ta'siri sifatida baholanadi.

Demak, **ko'nikma** — bu egallangan bilim asosida shakllanadigan maqsadga yo'naltirilgan faoliyat turi bo'lib, o'quv va amaliy mashg'ulotlar orqali rivojlanadi va insonni har xil holatlarda ham to'g'ri yo'nalishda harakat qilishga tayyorlaydi.

Pedagog — bu yosh avlodni hayotga va ongli mehnatga tayyorlashdek ulug' vazifani bajaruvchi, davlat va jamiyat oldida mas'uliyatli bo'lgan, zarur pedagogik tayyorgarlikka ega mutaxassisdir.

Shunday ekan, pedagog kasbiga xos bo'lgan asosiy ko'nikmalar haqida aniq tasavvurga ega bo'lish uchun, avvalo o'qituvchining kasbiy vazifalari va roli to'g'risida chuqur bilimga ega bo'lish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

- 1.Xolmatova, Z. T. (2020). TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YONDASHUV MODELINING XARAKTERISTIKALARI. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 7(3).
- 2.Xolmatova, Z. T. (2019). MAKTAB YOQADA BOLALARNING GENDER TARBIYASI. *Namangan Davlat universitetining ilmiy xabarnomasi*, 1(9), 199-207.
- 3.Xolmatova, Z. T. *Teoreticheskie osnovi gendernogo podxoda v pedagogika*. Nauchniy jurnali «Gumanitarniy traktat» www.gumtraktat.ru ISSN, 2500-115915.
- 4.Холматова, З. (2021). Гендерное образование в Узбекистане—критерии силы семьи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.

5.Xoliqova, D. M. (2019). ZAMONAVIY OLIY MAKTABNING INNOVATSION FAOLIYATI: RIVOJLANISH TENDENTLARI. Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi, 1(9), 215- 220.

10. Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.

11. Холикова, Д. М. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 80- 84.

8.Xoliqova, D. M. (2017). Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining salomatlik kompetentsiyasini shakllantirish masalasi. *Sharqiy Yevropa ilmiy jurnali*, (1).

9.Xoliqova, D. M. (2020). TALABALARDA INNOVATSION KO'NIKMALARNI SHAKLANTIRISH MEKANIZMI. INNOVATSII V PEDAGOGIKE VA PSIXOLOGII, (SI- 3).

10.Xoliqova, D. M. (2021). TALABALARDA INNOVATSION tafakkurini orttirishning NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. *Nazariy va amaliy fanlar*, (5), 422-424.

12.Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 56-60.

13.Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.

14.Qizi, G. S., & Umarova, N. R. (2021). The use of anthroponyms and pseudonyms in alisher Navoi's gazelles. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 349-3

15.Nabijonova, F. (2022). BOSHLANGICH SINFLARDA OZGA GAPNING QOLLANILISHI. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 180-184.

O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING SHART-SHAROITLARI VA SAMARALI OMILLARI

Alijonova Farishtabonu A'zamjon qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24.140-guruh talabasi

Akramova Gulsanam

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurining rivojlanishi ularning ijodiy harakati va intellektual o'sishiga asos bo'ladi. Bu esa o'quvchilarning bosqichma-bosqich rivojlanishini, jamiyatga moslashuv yo'lida ular egallagan bilimlarining uyg'unligi hamda o'rganganlarini amaliy hayot misollarida ifoda eta olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Natijada o'quvchining ijodiy salohiyati va ta'lim jarayonining o'zaro bog'liq qonuniyatlari, o'zaro ta'sirchanligi orqali shakllanadi. Bu esa o'quv-bilim olish faoliyati, kichik loyihaviy topshiriqlar asosida amalga oshiriladi.

Kalit so'zlar: ijod, ijodkorlik, qiziqish, ilhom, harakat, faoliyat

Bugungi davrda boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitish-tarbiyalash, ularni kelgusida munosib kasbga yo'naltirishni zamon talablari darajasida tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Bu esa umumta'lim maktablarining boshlang'ich bosqichida ta'limni zamonaviy standartlarga mos ravishda tashkil qilish, ta'lim tizimining fan va ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lanishini ta'minlash, zamonaviy o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida metodik bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga asos bo'lmoqda.

Yurtimizda "uzluksiz ta'lim tizimini yanada mukammallashtirish, sifatli ta'lim xizmatlariga keng imkoniyat yaratish, pedagog va mutaxassislarining malakasini oshirish,

umumiy o'rta ta'lim sifati va samaradorligini keskin yaxshilash, ayniqsa informatika, matematika kabi talab yuqori fanlarni chuqurlashtirib o'qitish, mehnat bozori ehtiyojlariga mos mutaxassislarni tayyorlash" yo'nalishlarida tizimli ishlar olib borilmoqda.

Jamiyatdagi tub o'zgarishlar shuni ko'rsatdiki, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnologik, madaniy-ma'naviy muammolar faqat inson tafakkuri va aqliy salohiyati orqali hal etilishi mumkin. Inson tafakkuri mahsuli esa jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etiladi. So'nggi yillarda shaxsni ijtimoiy muhitga moslashtirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun esa insonning ichki dunyosi, o'ziga xoslik jihatlari inobatga olinishi lozim. Hozirgi taraqqiyot davrida har bir insonning his-tuyg'ulari, orzu-istaklari va intilishlari ochiq-oydin namoyon bo'lib, u jamiyatda eng oliy qadriyat sifatida tan olinmoqda. Shaxsning izchil rivojlanishi esa uning ruhiy-ma'naviy dunyosi, ijtimoiylashuvi, o'ziga xosligi va betakrorligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Amerikalik olimlar D.Bush va S.Xitlar olib borgan tadqiqotlarida o'qituvchi, o'quvchi, psixolog hamda ota-onalar o'rtasidagi hamkorlik bolaning sog'lom rivojlanishida muhim omil bo'lishi ta'kidlangan. Shuningdek, o'quvchilarda tafakkur va o'qishga bo'lgan motivatsiyani kuchaytirishda taniqli insonlarning ushbu masalaga bo'lgan munosabati asosida ibratli yondashuvni yaratish samarali usullardan biri sifatida qayd etilgan. Masalan, o'quvchilarga vatanparvarlikni singdirishda tarixiy shaxslarning obrazlarini jonlantirish, ularni ulug'lash, unga taqlid qilish orqali sahna asarlari, qo'shiqlar vositasida ijodiy tafakkur, estetik didni rivojlantirish ko'zda tutiladi. Bu esa o'quvchilarning ijodga yo'naltirilgan ta'lim metodlariga — tushuntirish, namoyish, mashqlar, interfaol metodlar, "aqliy hujum", hayotiy vaziyatlarni modellashtirish, mantiqiy fikrlashga chorlovchi topshiriqlar orqali erishiladi.

Bunda o'quvchilar amaliy va hayotiy bilimlarni egallab, kundalik hayoti, yurish-turishi va muloqotida bu bilimlardan samarali foydalanadi. Natijada umumta'lim fanlari mazmunining zaruriyati va amaliy ahamiyati to'g'risida tushunchalar shakllanib, kasbiy qarashlar, ijtimoiy munosabatlar, malaka va ko'nikmalar vujudga keladi. Bu esa ularning fanga qiziqishini, o'quv motivatsiyasini oshirish bilan birga, maktabda o'rganilayotgan fanlarning hayotga tayyorlashdagi rolini anglashiga va kreativ qobiliyatlarining rivojlanishiga turtki beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixik o'sishi ularning ijodiy fikrlashini va intellektual salohiyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Ularning bosqichma-bosqich rivojlanishi, bilimlarining amaliy misollar orqali ifodalana olishi, mazmunli o'zgarishlarga moslasha olish qobiliyati bu jarayonning ajralmas qismidir. Shunga muvofiq, ularning ijodiy salohiyati va ta'lim metodlari o'rtasidagi uzviy aloqadorlik, o'zaro uyg'unlik asosida takomillashadi. Bu esa amaliy mashg'ulotlar, kichik loyihalar orqali amalga oshiriladi.

Agar o'quvchining intellektual va ilmiy salohiyati yoshiga mos bo'lmasa, u alohida o'quv dasturlari orqali maxsus ta'limga yo'naltiriladi. Umumiy ta'lim jarayonining samaradorligi aynan o'quvchining ijodiy faollik darajasi bilan belgilanadi.

Ta'lim jarayonini ijodiy yondashuv asosida tashkil etish, o'quvchilarning mantiqiy tafakkuri, dunyoqarashi va ijtimoiylashuvini rivojlantirishga qaratilgani bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta'lim materiallarini induktiv metodda yoritish, o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Bunda fikrlash jarayoni aniqdan mavhumga tomon rivojlanadi, biroq bu holatda o'quvchining ijodiy tafakkuri biryoqlama rivojlanib, natijada tushuncha va qonuniyatlarni to'liq anglashda qiyinchiliklar paydo bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1.Xolmatova, Z. T. (2020). TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YONDASHUV MODELINING XARAKTERISTIKALARI. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 7(3).

2.Холматова, З. (2021). Гендерное образование в Узбекистане—критерии силы семьи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.

3. Xoliqova, D. M. (2019). ZAMONAVIY OLIY MAKTABNING INNOVATSION FAOLIYATI: RIVOJLANISH TENDENTLARI. Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi, 1(9), 215- 220.

4. Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.

5. Холикова, Д. М. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 80- 84.

6. Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 56-60.

BOSHLANG'ICH SINFLARIDA O'QUVCHILARIDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHDA LOYIHA USULIDAN FOYDALANISH

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Mamasodiqova Gulnoza Avazbek

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimi — jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida talqin etilib, unda pedagogik loyihalash metodikasini samarali tatbiq etish orqali ta'lim sifati va natijadorligini oshirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, hozirgi zamonaviy o'quv jarayonida o'quvchi-yoshlarda loyihaviy fikrlash va ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishni shakllantirish muhimligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: matematik tushuncha, pedagogik loyiha, ta'lim sifati, matematik izlanish, ijodiylik, ko'nikmalarni egallash, kompetensiya, fan

O'zbekistonimizda so'nggi yillarda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning o'qish, yozish va matematik ko'nikmalarini chuqurlashtirish, ularning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalashga oid malakalarni shakllantirish, zamonaviy o'quv materiallarini ishlab chiqish bo'yicha zarur normativ asoslar yaratilmoqda. "Mamlakatda uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, yetuk mutaxassislar tayyorlash, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quv sifatini oshirish" asosiy vazifalardan biri etib belgilangan. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun pedagogik loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish, matematika fanini o'qitish metodikasini chuqur o'zlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Loyihaviy faoliyat usuli ilk bor 19-asr oxirlarida AQSH maktablarida "muammoli yondashuv" sifatida vujudga kelgan. Bu yondashuv ta'lim va falsafa sohasidagi insonparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Hozirgi kunda Buyuk Britaniya, AQSH, Isroil, Finlyandiya, Germaniya, Italiya, Braziliya, Niderlandiya, Belgiya kabi davlatlarda mazkur gumanistik g'oya keng qo'llanilmoqda. J.Dyui tomonidan ilgari surilgan loyiha usuli nazariy bilimlar bilan amaliy faoliyatni uyg'unlashtirishi sababli mashhurlikka erishgan. Loyihaviy ta'lim — o'quvchilarga nazariy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini beruvchi, ketma-ket loyihalar orqali amalga oshiriladigan o'qitish tizimidir. Ushbu usul rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasiga uyg'un tarzda tatbiq etiladi.

Matematika fanini o'qitish orqali shaxsiy intellektual salohiyatni rivojlantirish masalasi ko'plab pedagog-olimlar — V.A. Krutetskiy, L.M. Fridman, N.Ya. Vilenkin, A.N. Kolmogorov, G.B. Golub, V.A. Dalinger, J.Dyui, E.S. Po'lat, V.D. Simonenko, I.D. Chechel, S.T. Shatskiy, V.N. Shulgin kabi mutaxassislar tomonidan ilmiy asosda o'rganilgan. Hozirgi pedagogik yondashuvda loyiha usuli an'anaviy fanlar mazmunini to'ldiruvchi va chuqurlashtiruvchi vosita

sifatida foydalaniladi. Maktab ta'limida, ayniqsa matematikada, zarur bilim va fazilatlarini shakllantirishda bu fanning o'rni juda muhimdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari matematik mashg'ulotlar davomida mantiqiy fikrlashni, muammoga yechim topishni, fikrni asoslashni va umumlashtirishni o'rganadilar. Loyihaviy faoliyat orqali esa ular ilmiy tadqiqot metodlari bilan tanishadi va mustaqil izlanish olib borish ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'quv faoliyatini ikki bosqichga ajratish mumkin: birinchi bosqichda mehnatga oid faoliyat yuzaga chiqsa, ikkinchisida bilim, malaka va ko'nikmalarni amalda qo'llash jarayoni ro'y beradi. Loyiha ishlari jarayonida o'quvchilar umumiy loyiha tuzilmasiga mos holda faoliyat yuritadilar. Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yuqori talablar qo'yilmoqda: bu, o'z navbatida, o'quvchilarda mustaqil ta'lim olish uchun zarur usul va metodlarni egallash zaruratini keltirib chiqarmoqda. O'quvchilarning kelajakdagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan ularning bilimga nisbatan yondashuvi, mas'uliyati, ijodiy salohiyati va muloqotdagi layoqatiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim sifatiga qo'yilgan hozirgi talablar ta'lim strategiyasini yangilashni, insonparvarlik munosabatlarini o'z ichiga olgan, sifatli faoliyatga asoslangan tizimni shakllantirishni taqozo etadi. Shaxsiy ijodkorlik, tafakkur va ijobiy xususiyatlarni rivojlantirish — bugungi pedagogik amaliyotning asosiy yo'nalishlaridan biridir. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilarni mustaqil izlanish asosida bilim egallashga o'rgatuvchi ta'lim shakllariga — jumladan, loyiha usuliga bo'lgan talab ortib bormoqda. Ushbu usul o'quvchilarning tasavvuri, ijodiy tafakkuri, aqliy faolligi, mustaqilligi va javobgarlik hissini kuchaytiradi. Loyiha ishlari orqali o'quvchilarda mustaqil tadqiqot olib borish ishtiyoqi ortadi, bu esa ularni bilim olishga faol jalb etadi.

Bu texnologiya muammoli ta'lim metodikasining keng tarqalgan shakllaridan biri hisoblanadi. Loyiha usulining ahamiyati shundaki, uning yordamida kichik yoshdagi o'quvchilar o'z ustida mustaqil va ijodiy ishlashni o'rganadilar, bilish faoliyati orqali tajriba orttiradilar. Bu esa zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. O'qituvchining asosiy vazifasi — o'quvchilarni yo'naltirish, maslahat berish va loyihaviy ishlarda ishtirok etishga rag'batlantirishdan iborat. Har bir o'quvchi loyiha ishtirokchisi sifatida mas'uliyatni his qiladi. Agar o'qituvchi loyiha faoliyatini puxta tashkil etsa, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini namoyon etishi uchun qulay sharoit yaratiladi. Loyihaviy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) qo'llash samaradorlikni yanada oshiradi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, loyiha usuli so'nggi yillarda boshlang'ich ta'lim bosqichida keng qo'llanila boshlandi. Ko'plab darsliklar, jumladan, matematika fani bo'yicha tuzilgan o'quv qo'llanmalarda mualliflar o'quv loyihalarini kiritmoqda. Chunki loyihaviy faoliyat nafaqat o'quvchilarni mustaqil bilim olishga o'rgatadi, balki ularning fanning asosiy tushunchalarini egallashiga ham samarali ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich ta'limga oid darsliklar va dasturlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, ularning aksariyatida matematik tushunchalarni shakllantirishga xizmat qiluvchi loyihaviy topshiriqlar mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Полат Е.И. Метод проектов [Электронный ресурс]. Режим доступа: www.bgpu.ru/intel/representation/go13_04_0205.ppt. Загл. С экрана.
2. Перов В.И. Интеграция предприятий и формирование межотраслевы региональных кластеров // Региональная экономика: теория и практика. 2008. №17.
3. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 267-271.
4. Qizi, D. M. S., & Qizi, R. G. X. (2022). METHODS OF STUDYING ADDITION AND SUBTRACTION OF TWO-DIGIT NUMBERS IN ELEMENTARY SCHOOL. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 61-67.

**INKLYUZIV TA'LIMDA IMKONIYATI CHEKLANGAN BOLALARNI O'RGATISH
VA TARBIYALASHDA DOLZARB MUAMMOLAR**

Abdurahimova Gulbahor Mamasoli qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 24.140-guruh talabasi

Abdurahmonova Mahbuba

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Ayni vaqtda imkoniyati cheklangan bolalarni o'stirish va rivojlantirish masalasi dolzarb masalalardan biriga aylangan. Respublikamizda alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning rivojlanish darajasi, imkoniyatlari, o'ziga xosligi va salohiyatidan kelib chiqib, ularni maxsus yoki umumiy ta'lim tizimida o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimi joriy etilmoqda. Inklyuziv ta'lim madaniyati – Salamanka deklaratsiyasiga ko'ra, har bir bola o'z xususiyatlari inobatga olingan holda rivojlanishga haqli ekani e'tirof etiladi. Bu tizimning maqsadi irq, jins, millat, din, shaxsiy imkoniyatlar va ijtimoiy holatdagi farqlar sababli yuzaga keladigan ajratishni oldini olishdir. Ammo bu tushuncha ba'zi holatlarda universal tarzda qo'llash uchun mos emasligi ayon bo'lmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ko'plab maktablarda imkoniyati cheklangan o'quvchilar tengdoshlari bilan birga o'qitilishi o'rta ta'lim shakli sifatida ko'riladi (Judi Kugel'mas). Biroq inklyuziv ta'limning mohiyati haqida jamiyatda yetarlicha bilim va tushuncha mavjud emas. Ko'pincha "inklyuziya" va "integratsiya" tushunchalari bir-biriga tenglashtirib yuboriladi, garchi ular mazmunan farqli bo'lsa-da.

Kalit so'zlar: Ta'lim, bolalar, imkoniyati cheklanganlar, maxsus ta'lim, umumiy ta'lim, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ajratish, maktab, integratsiya, jins, ta'lim muassasalari.

KIRISH

Sharq mutafakkirlari Ibn Sino, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Alisher Navoiy va Abdulla Avloniylarning tarbiya haqidagi qarashlari har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida ta'limning tutgan o'rnini belgilab beradi va bugungi inklyuziv ta'limning nazariy asosini tashkil etadi.

Uzoq yillar davomida imkoniyati cheklangan bolalarni maxsus ta'lim muassasalarida o'qitish samaraliroq deb hisoblangan. 1970–1980-yillardan boshlab butun dunyo bo'ylab insonparvarlik va diskriminatsiyaga qarshi kurashish g'oyalari rivojlanib, alohida ehtiyojli bolalarga ko'proq e'tibor qaratila boshlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy bilishga asoslangan tarixiylik, izchillik, mantiqiylik va obyektivlik usullaridan keng foydalanildi. Inklyuziv ta'lim jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashdagi muammolar tahlil qilindi. Xususan, Крыжановская Л.М.ning “Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования” asari tahlil etildi.

MUHOKAMA VA XULOSALAR

Inklyuziv ta'limda quyidagi vazifalarni hal etish zarur:

- Ta'lim muassasalarida imkoniyati cheklangan bolalar uchun zaruriy psixologik-pedagogik va tuzatish (korreksion) sharoitlarini yaratish;
- Barcha o'quvchilarning teng huquqli ta'lim olishini ta'minlash;
- Jamiyat va oilaning faol ishtirokida sog'lom va nogiron bolalarning ehtiyojlarini qondirish hamda ijtimoiy hayotga moslashtirish;
- Imkoniyati cheklangan bolalarning oiladan ajralmasdan yashash huquqini qo'llab-quvvatlash;
- Jamiyatda nogiron bolalarga nisbatan mehr-muhabbat va tushuncha bilan yondashuvni shakllantirish.

Inklyuziv ta'limning asosiy muammolari:

- Normativ-huquqiy hujjatlarning yetishmasligi;

- Nogiron bolalarga nisbatan salbiy munosabat;
- Ularning jamiyatda va maktabda “ko‘rinmas” bo‘lib qolishi;
- Moliyaviy ta‘minot yetishmovchiligi;
- Moslashtirilmagan ta‘lim muassasalari;
- Sinflarda o‘quvchilar sonining ko‘pligi;
- Ijtimoiy tengsizlik, jinsiy kamsitish, qaramlik;
- Favqulodda vaziyatlar va kadrlar yetishmovchiligi.

Inklyuziv ta‘lim tizimining afzalliklari:

- Qashshoqlikdan chiqish imkonini beradi;
- Barcha uchun sifatli ta‘lim imkonini yaratadi;
- Ajratish va kamsitishlarni bartaraf etadi;
- Jamiyatda inklyuzivlik madaniyatini rivojlantiradi.

Inklyuziv ta‘limning asosiy tamoyillari:

1. Har bir inson qadrlidir, bu qobiliyat va yutuqlarga bog‘liq emas.
2. Har bir inson his etish va tafakkur qilish qobiliyatiga ega.
3. Har bir shaxs muloqotga kirishish imkoniyatiga ega.
4. Insonlar o‘zaro bog‘liq.
5. To‘liq ta‘lim jarayoni faqat hamkorlikda amalga oshadi.
6. Har bir inson yordamga muhtoj bo‘lishi mumkin.
7. O‘quvchining muvaffaqiyati uning nimani qilolmasligi bilan emas, balki nimani

bajara olishiga bog‘liq.

8. Hamkorlik inson hayotini boyitadi.

Inklyuziv ta‘lim quyidagi ta‘lim bosqichlarini qamrab oladi: maktabgacha, umumiy o‘rta, kasb-hunar va oliy ta‘lim. Bu tizim ta‘limda to‘siqlarni bartaraf etib, ochiq va hamjihat o‘quv muhitini yaratishni maqsad qilgan.

L.S. Vigotskiyning ta‘kidlashicha, ijtimoiy muhit imkoniyati cheklangan bola uchun asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Uning fikricha, imkoniyati cheklangan bolaning rivojlanishi ko‘pincha sharoitga bog‘liq bo‘ladi – agar mos muhit yaratilsa, u ham gullashi mumkin.

Ta‘lim va tarbiya tizimi milliy an‘analar, urf-odatlar va o‘quvchining psixofiziologik rivojlanish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirilsa, bu jarayon muvaffaqiyatli bo‘ladi. Bolaning istak va intilishlarini qo‘llab-quvvatlash orqali uning shaxsiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar bartaraf etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Inklyuziv ta‘lim amaliyotini joriy etish tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, imkoniyati cheklangan bolalarni erta aniqlab, ularni tayyorlash jarayonini mutaxassislar nazoratida olib borilsa, kutilgan natijaga erishish mumkin. Demak, inklyuziv ta‘lim samaradorligi yuqori bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. –С. 42.
2. Крыжановская Л.М. Психологическая коррекция в условиях инклюзивного образования. Пособие для психологов и педагогов. – М.: «Владос», 2013. 83-б. 3.
3. Maktablar hamma uchun – Save the children – 2002y. 20\23 bet
4. Pulatov Sh.N.Sankhya-ancient Indian philosophical school. //PUSTAK BHARATI RESEARCH JOURNAL// JAN-June. ISSUE Toronto, Canada. No: 1-2, 2020.

AN'ANAVIY DARSLAR VA ULARNING SHAKLLANISH TARAQQIYOTI

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Muxtorova Govxaroy Yusufjonovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Mazkur tezisda interfaol darslarga qo'yiladigan talablar, bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllanayotgan munosabatlar, milliy mustaqillik mafkurasining paydo bo'lishi, o'z ona tilimiz, tarixiy merosimiz va madaniyatimizni tiklash jarayoni, axborot oqimining keskin ortishi, fan-texnika yutuqlari ta'lim tizimini, xususan dars mazmunini tubdan yangilashni talab etayotgan asosiy omillar yoritiladi.

Asosiy tushunchalar: Interfaol dars, "an'anaviy dars", o'zaro ishtirok, harakatlilik, ta'sirchanlik

Interfaol darslarga qo'yiladigan talablar, avvalo, jamiyat ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. Jamiyatning taraqqiyoti hayotning barcha sohalariga, shu jumladan, ta'lim mazmuni, dars qurilishi hamda insonning kundalik faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. XX asrning oxiri va XXI asrning boshlarida mamlakatimiz mustaqillikka erishgani, bozor iqtisodiyotiga asoslangan munosabatlar shakllangani, milliy istiqloq mafkurasi yuzaga kelgani, til, tarix va madaniyatimiz qayta tiklangani, axborot hajmining oshgani, fan va texnikadagi yutuqlar — bularning barchasi ta'lim tizimining, ayniqsa, darsning mazmunan yangilanishini zaruratga aylantirgan muhim omillardir.

So'nggi yillarda metodik adabiyotlarda "an'anaviy dars", "noan'anaviy dars", "interfaol dars" kabi iboralar tez-tez tilga olinmoqda. Shu o'rinda "Interfaol dars deganda nima tushuniladi?" degan savolga aniqlik kiritish muhim sanaladi.

Quyida ayrim olim, metodist va amaliyotdagi o'qituvchilarning interfaol dars haqidagi fikrlariga e'tibor qaratamiz:

M.A. Danilov va M.N. Skatkinlarning fikricha, **interfaol dars** – bu o'quv jarayonini faollashtirishdir.

V.V. Davydov va D.B. Elkonin esa **interfaol dars** – nazariy tafakkurni rivojlantirish vositasidir, deya ta'riflaydi.

V.V. Shatalov esa **interfaol dars** – har bir o'quvchini va barcha o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etish deb hisoblaydi.

O'zbekistonlik pedagog olimlar ham interfaol dars masalalariga alohida e'tibor qaratib, uni quyidagicha izohlashadi: "Interfaol dars – bu, eng avvalo, o'quvchini mustaqil bilim olishga o'rgatishga xizmat qiluvchi usullar majmuasidir."

Ushbu fikrlar dars jarayonida asosiy e'tiborni o'qituvchi faoliyatidan o'quvchi faoliyatiga, ya'ni ta'lim oluvchining o'zlashtirish jarayoniga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi. O'qituvchi darsda o'zi savol berib, o'zi javob beruvchi bo'lib qolmasligi, balki o'quvchilarga bilimlarni mustaqil egallashda yaqin yordamchi bo'lishi kerak. U nafaqat bilim olish yo'lini ko'rsatishi, balki bu yo'lda o'quvchi bilan sheriklikda harakat qilishi lozim.

Bugungi kunda ta'lim jarayoniga yangi metodlarni yoki innovatsiyalarni joriy etish haqida so'z yuritilganda, ko'p hollarda interfaol yondashuvlar nazarda tutiladi.

Interfaollik — bu ikki tomonlama faol ishtirok, ya'ni o'quv-bilim jarayoni o'zaro muloqot, suhbat, dialog shaklida (jumladan, texnologik vositalar orqali) yoki o'quvchilar o'rtasidagi faol fikr almashinuvi asosida kechadi.

Interfaollik — bu o'zaro harakat, ta'sir, faol ishtirok bo'lib, u o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot orqali yuzaga chiqadi. Interfaol metodlarning asosiy vazifasi — o'quv jarayonida eng qulay sharoitni yaratishdir. U o'quvchining intellektual salohiyati va ichki imkoniyatlarini namoyon etishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O'zbekiston Respublikasi Prezidentilavozimigakirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan OliyMajlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. –488 b.
3. Akmaljonovna, Z. A., & Usmonaliyeva, A. R. (2022). Analysis Of Views On The Formation Of The Linguistic Landscape Of The World. *Anglisticum. Journal Of The Association-Institute For English Language And American Studies*, 11(1), 11-18.
4. Akmaljonovna, A. Z., & Usmonaliyeva, A. R. (2022). BOSHLANG 'ICH SINFI O 'QUVCHILARI ONGIDA OLAM LISONIY MANZARASINI SHAKLLANTIRISHDA RANG IFODALOVCHI LEKSEMALARNING ROLI. *IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIIY JURNALI*, 2(11), 208-214.

BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARINI IJODIY FAOLIYATGA YO'NALTIRIB O'QITISHDA HAMKORLIKNING AHAMIYATI

Egamberdieva Yulduz Urinboevna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Fargona davlat universiteti boshlang'ich ta'lim uslubiyoti kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinfi o'quvchilarini ijodiy faoliyatga yo'naltirish jarayonida hamkorlik va ta'lim muassasalarining roli, ta'lim-tarbiya sifatini uyg'unlashtirish, o'quv muloqotiga asoslangan individual yondashuv, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etishning uslubiy tizimini takomillashtirish masalalariga alohida urg'u qaratilgan.

Asosiy iboralar: hamkorlik, samaradorlik, ijodkorlik, aqliy salohiyat, ijodiy faoliyat, o'zaro bog'liqlik, mas'uliyatlilik, takomillashuv, konstruktiv yondashuv, individuallik, yo'naltirilganlik, bilim faolligi.

Hozirgi davrda inson resurslariga bo'lgan talabning ortib borishi "ijodiy faoliyat" tushunchasiga turli madaniy, ma'rifiy va ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan yondashuv zarurligini yuzaga keltirmoqda. Yetakchi xorijiy ta'lim tizimlarida boshlang'ich sinfi o'quvchilarining fikrlash doirasini kengaytirish, fanlarni interaktiv va integrallashgan shaklda o'qitish, virtual va amaliy loyihalarni tatbiq etish orqali ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish bo'yicha samarali tizimlar yo'lga qo'yilmoqda.

Bugungi kunda "ijod" tushunchasini keng qamrovda o'rganish, texnik fanlarni o'rgatishda o'quvchilarning ijodiy fikr yuritish qobiliyatlarini kuchaytirish, ta'limning kompetensiyaviy mezonlarini kengaytirish masalalari ilmiy izlanishlar markazida turibdi.

Axborot texnologiyalari rivoji sharoitida boshlang'ich sinfi o'quvchilarida ijodiy yondashuvni shakllantirish, tanqidiy va innovatsion fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Yurtimizda inson manfaatlarini ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich sinfi o'quvchilarining salohiyatini ro'yobga chiqarishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, texnologiya fanini o'qitishda ularning qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan usullarni kengaytirish ehtiyoji sezilmoqda.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlarini kengaytirish, yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo'llab-quvvatlash asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Shu munosabat bilan, texnologiya darslarida ijodiy fikrlash me'zonlarini aniqlashtirish, o'quvchilarning imkoniyatlari va moyilliklariga mos ravishda malaka hosil qilishga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Bugungi ta'limda shaxsni har tomonlama rivojlantirish, ichki dunyosini kashf etish va har bir insonning betakror imkoniyatlarini yoritish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosda ham ta'lim barqaror taraqqiyotning muhim omili sifatida tan olingan. 2030 yilgacha mo'ljallangan yangi ta'lim kontsepsiyasida o'qitish sifati va natijadorligini baholovchi mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda ta'lim muassasalari faoliyatini takomillashtirish, o'quv-tarbiya jarayonini shaxsga yo'naltirilgan holda tashkil etish, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish va uni tizimli ravishda joriy etish zarurati tobora oshib bormoqda.

Zamonaviy sharoitda ijodkorlik yondashuvi ta'lim tizimini yangilashda muhim mezonlardan biri bo'lib bormoqda. Bu jarayonda ta'lim nazariyasi va amaliyoti o'quv jarayonini ilmiy-uslubiy asosda takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik quyidagilarga asoslanadi:

1. Ijtimoiy va tarbiyaviy jarayonlarning jadalligi (insonparvarlik, demokratiyalashuv, innovatsion yondashuv, jamiyatning maktabga bo'lgan e'tiborining ortishi va boshqalar);
2. Ta'lim muassasalari o'rtasida yetarlicha hamkorlik yo'lga qo'yilmaganligi (pedagogik yordamning yetarli emasligi, o'quvchilarning ta'limdan qoniqmasligi, o'qituvchilarning insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishdagi malakalarining yetishmasligi va h.k.);
3. Innovatsion yondashuvlarga ehtiyojning ortib borayotgani (boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiladigan zamonaviy texnologiyalarni yaratish va amaliyotga joriy etish va boshqalar).

Xorijiy ta'lim tizimida hamkorlikda o'qitish — *cooperative learning* — an'anaviy ta'limga alternativ sifatida keng tadqiq etilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hamkorlik asosida o'qitish ishtirokchilarning faol ishtiroki, o'zaro bog'liqligi, mas'uliyati orqali umumiy natijaga olib keladi va bu tizim o'zaro konstruktiv hamkorlikni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz // O'zbekiston Respublikasi Prezidentilavozimigakirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan OliyMajlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. – Toshkent.: O'zbekiston, 2016. – 56 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. –488 b.

5. Akmaljonovna, Z. A., & Usmonaliyevna, A. R. (2022). Analysis Of Views On The Formation Of The Linguistic Landscape Of The World. *Anglisticum. Journal Of The Association-Institute For English Language And American Studies*, 11(1), 11-18.

6. Akmaljonovna, A. Z., & Usmonaliyevna, A. R. (2022). BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARI ONGIDA OLAM LISONIY MANZARASINI SHAKLLANTIRISHDA

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA DARS DAN TASHQARI
MASHG'ULOTLAR ASOSIDA IJODIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH**

Xolmatova Zulfiya Tillavoldievna

Farg'ona davlat universiteti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Karimjonova Gulnoza

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarning idrok faoliyatini shakllantirish, bilim olishga bo'lgan qiziqishini kuchaytirish, tafakkurlarini rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan ta'limiy-tarbiyaviy ishlar bilan tanishildi.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, yaratuvchanlik, qiziqish, ilhom, intilish, faoliyat

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilim va ko'nikmalarining miqdoriy jihatdan taqqoslanishi, tajriba hamda nazorat guruhlarida idrok faoliyatiga yo'naltirilganlik darajasi maxsus tayyorlangan savolnomalar orqali aniqlashtirildi. Ushbu so'rovnomada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim faoliyatini rivojlantirishga oid pedagogik tizimning holati aniqlangan. Tajriba guruhida ijodiy faoliyatni rivojlantirishga doir turli usullar qo'llanilib, bu uch bosqichda amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining natijalari asosida natijadorlik darajasi aniqlandi. Bu samaradorlik quyidagi yo'nalishlar bo'yicha baholandi:

- aynan texnologik jarayonlar va mashg'ulotlarni o'zlashtirish bo'yicha;
- texnologiyaga oid ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirish jihatidan;
- o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirish nuqtai nazaridan;
- o'quv muhiti bilan bog'liq jihatlar va hokazo.

Yuqoridagi yo'nalishlar asosida taqqoslash va umumlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Tajriba tadbirlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

Tadqiqot doirasidagi birinchi bosqich – **diagnostik tajriba ishlari** bo'lib, u boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini oshirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdagi mavjud ta'lim holatini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlashga yo'naltirildi. Ushbu bosqichda quyidagi vazifalar belgilandi:

- 1-4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan texnologiya faniga oid darslik va adabiyotlar o'rganilib, tahlil qilindi;
- pedagoglarning kasbiy va metodik tayyorgarlik darajasi baholandi;
- so'rovnomada va testlar orqali o'quvchilarning dastlabki bilim, ko'nikma va malaka holati aniqlandi;
- uzluksiz ta'lim tizimidagi bilim olish faoliyatini shakllantirish, qiziqishni oshirish, tafakkurni rivojlantirishga oid jarayonlar o'rganildi.

Ushbu diagnostik bosqich natijalarining ilmiy-nazariy tahlilida e'tibor quyidagilarga qaratildi:

1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantirishda texnologiya fanidan foydalanishdagi yutuq va muammolar (DTS, o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar) baholandi.
2. Pedagoglarning fikrlari umumlashtirildi, ularning ijodiy faollikni shakllantirishga doir qarashlari tahlil qilindi.
3. Amaliy faoliyat davomida aniqlangan kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqildi.

Shunday qilib, boshlang'ich sinf o'quvchilarining texnologiyaga oid bilimlarini chuqurlashtirish, mantiqiy fikrlashini rivojlantirish, ijodiy faoliyatini shakllantirish holati aniqlandi hamda takomillashtirish istiqbollari belgilandi.

Bu borada to'plangan ma'lumotlar umumlashtirildi, tegishli xulosalar chiqarildi va doimiy monitoring asosida nazorat o'rnatildi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, ularning fikricha texnologiya faniga asoslangan ijodiy faoliyatni rivojlantirish ko'proq nostandart topshiriqlar orqali samarali kechadi. Bunda musobaqalar, bilim bellashuvlari alohida ahamiyatga ega ekani qayd etildi. Bu esa ta'lim jarayonini amaliy faoliyat bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi.

Tajriba jarayonining navbatdagi bosqichi **shakllantiruvchi tajriba ishlaridan** iborat bo'lib, u birinchi bosqichda aniqlangan muammolarni bartaraf etishga yo'naltirildi. Bunda o'qitish mazmuni, samarali metodlar, shakl va vositalar sinovdan o'tkazildi va takomillashtirildi. Quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- tajriba va nazorat guruhlari ajratildi, ularga tajribaning maqsadi, vazifalari va ishtirokchilar roli tushuntirildi;
- texnologiya faniga asoslangan ijodiy faoliyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi mazmun, metodika va o'quv materiallari asosida ta'lim jarayoni yo'lga qo'yildi;
- pedagogik jarayon va mexanizmlarning monitoringi davom ettirildi, tajriba va nazorat guruhlari natijalari tahlil qilindi;
- tajriba jarayonida aniqlangan muammolar bartaraf etildi;
- olinayotgan natijalar asosida metodik ko'rsatmalar takomillashtirildi;
- ijodiy faoliyat rivojlanganlik darajasini baholovchi mezonlar ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Полат Е.И. Метод проектов [Электронный ресурс]. Режим доступа: www.bgpu.ru/intel/representation/go13_04_0205.ppt. Загл. С экрана.
6. Перов В.И. Интеграция предприятий и формирование межотраслевого регионального кластера // Региональная экономика: теория и практика. 2008. №17.
7. Farkhodovich, T. D. kizi, DMS., & kizi, AUY.(2022). Critical Thinking in Assessing Students. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 267-271.
8. Qizi, D. M. S., & Qizi, R. G. X. (2022). METHODS OF STUDYING ADDITION AND SUBTRACTION OF TWO-DIGIT NUMBERS IN ELEMENTARY SCHOOL. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 61-67.

BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA DARSLARIDA O'QUVCHILARNI MANTIQUIY MULOHAZA YURITISHGA O'RGATISH

Зайниева Мардонахон Рустамовна

Факультет: Педагогика - психологии и искусствоведения

Направление: Начальное образование

Курс 2, группа 23.31

Mukaramova Nazokatxon Shavkatjon qizi

Farg'ona davlat universiteti sirtqi bo'limi tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika mashg'ulotlari davomida o'quvchilarga mantiqiy vazifalarni taqdim etish orqali ularning fikrlash salohiyati, ijodiy tafakkuri va noan'anaviy yondashuvlarini shakllantirish yo'llari tahlil qilinadi.

Asosiy so'zlar: boshlang'ich ta'lim, matematika fani, mantiqiy tafakkur, masala, mulohaza, ijodkorlik, kreativlik, o'quvchilarning fikrlash faoliyati.

Bugungi kundagi ta'lim tizimi o'quvchilardan chuqur bilim va yuqori axloqiy sifatlarni egallashni talab qiladi. Jahon miqyosida matematika faniga doir tushunchalarni mukammal o'zlashtirishga bag'ishlangan ko'plab nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Sababi, matematika fani o'quvchi shaxsining intellektual va ma'naviy rivojida muhim rol o'ynaydi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev qayd etganidek: "Matematika – barcha aniq fanlarning asosi. Ushbu fan chuqur o'zlashtirilgan o'quvchi zukko, keng dunyoqarashli yetuk shaxs bo'lib voyaga yetadi va har qanday sohada muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladi." Bu fikrlar chuqur ma'no-mazmunga ega bo'lib, boshlang'ich sinf matematika kursining mazmuni o'quvchilarning asosiy matematik tushunchalar, atamalar, ko'nikma va malakalarni puxta egallashini ko'zda tutadi.

Matematika fanini o'rgatish o'quvchilarning ona tilida fikrni aniq, lo'nda ifodalash, izchil fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirishda xizmat qilishi kerak. Ya'ni har bir o'quvchi matematik qoida va formulalarni o'z ona tilida to'g'ri tushuntirib bera olishi, ularning ifodalarini aniq yozib bera olish malakasini egallashi lozim.

Dars jarayonining dastlabki bosqichlaridayoq o'quvchilar mustaqil fikr yuritish, xulosa chiqarish ko'nikmalarini hosil qilishadi. Bu xulosa va fikrlar kuzatish natijasida vujudga kelib, mantiqiy tahlil orqali matematik qonuniyatlarga asoslanadi.

Matematika darslarida masalalardan foydalanish qadimdan ta'lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bois ushbu fan doirasida masalalarning ahamiyatini quyidagi bosqichlar asosida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir:

1. Matematik nazariyani chuqurroq tushunish uchun masalalarni yechish muhimdir;
2. Ta'limda matematik tushunchalar bilan birga ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalari ham rivojlantiriladi;
3. Matematikani o'zlashtirish ko'p hollarda masala va misollar ustida ishlash orqali amalga oshiriladi.

Ushbu bosqichlar orqali ko'rinadiki, jamiyat taraqqiyoti davomida masalaning o'rni turlicha baholangan. 1966-yildagi xalqaro matematiklar simpoziumida qayd etilganidek, masalalarni yechish o'quvchilarda nafaqat fanga doir ko'nikmalarni rivojlantiradi, balki olgan bilimlarini hayotda qo'llashga ham yo'naltiradi.

Demak, biz kelajak avlodga matematika fanini chuqur o'rgatishda mantiqiy masalalarni qo'llash orqali ularning shaxsiy rivojlanishiga erishishimiz mumkin. Bunda o'qituvchi har bir dars mavzusiga mos mantiqiy vazifalarni tanlab, o'quvchilarni fikr yuritishga yo'naltirishi zarur.

Masalan:

1-mulohaza: Avtomobil yonilg'isiz harakatlanmaydi.

2-mulohaza: Mening mashinamda benzin yo'q.

Shunday qilib, o'quvchilar quyidagi xulosani chiqarishlari kerak: "Mening mashinam yurmaydi."

Bu kabi mashqlar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirib, ilmiy tafakkur va matematik tasavvurni rivojlantiradi.

Shuningdek, turli xil matematik masalalarni yechish orqali o'quvchilarda qonuniyatlarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalari shakllanadi va bu jarayon ularning mantiqiy tafakkurini izchil rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Akram Pirimov Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematik tushuncha va tafakkurini rivojlantirishda murakkab masalalarning o'rni va ahamiyati Academic Research in Educational Sciences VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2021

2. S. Alixonov. Matematika o'qitish metodikasi. Darslik Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent — 2011, 60-bet. 304.b.

SINFDAN TASHQARI O`QISH SIFATI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Соибова Толифа Дилмуродовна

Ферганский Государственный университет. Фергана, Республика Узбекистан

Avezova Iroda Ravshanbekovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: maqolada boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o`qish sifati va samaradorligini oshirish. Sinfdan tashqari o`qishning maqsadi, kichik yoshdagi o`quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og`zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirish.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, sinfdan tashqari o`qish, kichik yoshdagi o`quvchilar, bolalar adabiyoti, xalq og`zaki ijodi.

Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o`qishga kichik yoshdagi o`quvchilarni ta`lim olishida qo`shimcha darsni o`zlashtirishga tayyorlashning ajralmas qismi, ta`lim jarayonida ularni ahloqiy-estetik tarbiyalashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Sinfdan tashqari o`qishning maqsadi, kichik yoshdagi o`quvchilarni bolalar adabiyoti va xalq og`zaki ijodining xilma-xil namunalari bilan tanishtirish, ularda kitobxonlik madaniyatini tiklab tarkib toptirishdir.

Sinfdan tashqari o`qish dasturining mazmuniga ko`ra ta`limning har bir bosqichida ikki asosiy bo`lim ajratiladi:

1-bosqichda o`qish doirasi, ya`ni o`qitiladigan kitoblar va ularni qaysi tartibda o`qish bilan tanishtirish yuzasidan o`quvchilarga ko`rsatma beriladi.

2-bosqichda shu o`quv materiallari asosida bilim, ko`nikma va malakalar shakllantiriladi.

Umumiy o`rta ta`limning Davlat standartlari va o`quv dasturiga ko`ra 1-sinfda sinfdan tashqari o`qish mashg`ulotlarida savod o`rgatish darslarida hosil qilingan ko`nikma va malakalar asosida bolalarning ona-vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqidagi tasavvurlar-tushunchalari kengaytiriladi, boyitiladi.

Umumiy o`rta ta`limning Davlat standartlari va o`quv dasturiga ko`ra 1-sinfda sinfdan tashqari o`qish mashg`ulotlarida savod o`rgatish darslarida hosil qilingan ko`nikma va malakalar asosida bolalarning ona vatan, istiqloq, milliy qadriyatlar haqida ta`lim sohasida Q.Shodiyeva, F.R.Qodirova, M.R.Qodirova, Y.Razbayeva, Q.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yo`ldosheva, K.Qosimova, S.Matchonov, Sh.Sariyev, O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamroyev va boshqalar qator o`quv qo`llanmalar, darsliklar, uslubiy qo`llanmalar yaratganlar. Yuqorida keltirilgan olimlarimizdan Q.Shodiyeva, Q.Abdullayeva, K.Nazarov, Sh.Yo`ldoshevalarning maktabgacha ta`limda va umuman, savod o`rgatish metodikasi bo`yicha olib borgan ishlarini alohida ta`kidlab o`tish maqsadga muvofiqdir. Chunki, aynan, ularning olib borgan tadqiqotlari bolalarni savodga o`rgatish sohasida katta ahamiyatga egadir.

Sinfda va sinfdan tashqari o`qish darslari boshlang'ich sinflarda o`tiladigan barcha predmet dasturlarining bo`limlari bilan bevosita bog`liq mashg`ulotlarning yangiligini ta`minlashga qaratilgan innovatsion texnologiyalar asosida dars o`tish jarayoni tadqiqotimizning ob`ektini tashkil etadi.

Sinfdan tashqari o`qish darslari, o`qish samaradorligini ijobiy tomonga ta`sir qilishning eng qulay usulidir. Sinfda va sinfdan tashqari o`qish darslari boshlang'ich sinflarda o`tiladigan barcha predmet dasturlarining bo`limlari bilan bevosita bog`liq. O`qish darslarida o`tilgan mavzular asosida badiiiy kitoblar axtarish, asar qahramonlarining nomlarini yozish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishlash, fikrni yakunlash uchun mos maqollar yod olish ko`nikmalarini shakllantirish dolzarb metodik manba ekanligini aniqlash, ularning didaktik asosini belgilash ham mashg`ulotning predmeti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Maxsitovna, X. D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TIL O 'QITISHGA KOMMUNIKATIV YONDASHUV. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 825-829.
2. Xolikova, D. (2023). INCREASING LEARNING EFFICIENCY IN CLASSROOM STUDY LESSONS. Modern Science and Research, 2(5), 750-760.
3. Kalandarovna, Y. L. (2022). Identification And Education Of Gifted Children. Asia Pacific Journal Of Marketing & Management Review ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 42-47.
4. Yulchiboyeva, L. Q. (2022). IRIM-SIRIM BILAN BOG 'LIQ TIL BIRLIKLARINING TAHLILIIY O 'RGANILISHI. IJTIMOIIY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(11), 170-175.

IJODIY FIKRLOVCHI YOSHLAR – BARKAMOLLIK RAMZI

Насриддинова Маликахон дилшод кизи

Педагогика - психологии и искусствоведения Направление: Начальное образование

Курс 2, группа 23.31

Mahmadilloyeva Shahzoda

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ijodiy tafakkurga ega bo'lgan yoshlar – barkamol avlod timsoli sifatida ko'rib chiqilgan va bu boradagi ilmiy izlanishlar tavsiyalari yoritilgan. Shuningdek, unda muallif tomonidan ishlab chiqilgan nazariy g'oyalar va amaliy takliflar ham aks etgan.

Kalit so'zlar: tafakkur, xalq, axloq, axloqiy qadriyatlar, jamiyat, intellekt, idrok, faoliyat, ma'naviyat.

Zamonaviy davrda xalqimizning intellektual merosini, jahon ilm-fani va madaniyatining eng yangi yutuqlarini o'zlashtirgan yetuk yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biridir. Fikrlash jarayonining mustaqilligi – ijodiy faoliyatning ajralmas qismidir. Shaxs o'zini va atrofdagilar faoliyatini tahlil qilish, mustaqil fikr yuritish, dalillarni umumlashtirish, yangi g'oyalarni ilgari surish va hodisalarni tahlil qilishga qodir bo'lishi – bu ijodkor inson faoliyatining asosiy belgilaridir.

Psixologik va pedagogik adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bilimni egallash va faoliyat uslublarini o'zlashtirish uch bosqichda kechadi: anglab olish va yodda saqlash; bilimlarni andozaga tayangan holda yoki o'xshash vaziyatlarda qo'llash. Shu bois, oldimizdagi dolzarb maqsad – har bir fuqaro va ularning farzandlarini komil inson sifatida voyaga yetkazish, ularni Vatanimizga sodiq shaxslarga aylantirishdir. Chunki, o'z bilim va iqtidorini yurt taraqqiyoti yo'lida fido qiluvchi, mustaqil fikrlovchi yoshlar bo'lmas ekan, mamlakatimizning dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishi mushkul kechadi.

Har qanday ijodiy faoliyatda ijtimoiy omillar insonning tafakkur salohiyatini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi va tafakkur orqali atrofdagi voqelikning yangi jihatlari kashf etiladi. Markaziy Osiyo allomalaridan Muhammad al-Xorazmiy olimlarni uch toifaga ajratadi. Unga ko'ra, birinchi toifa ilgari o'rganilmagan ilmiy yo'nalishlarni tadqiq etib, keyingi avlodlarga meros qoldiradi. Ikkinchilari esa avvalgi asarlarni sharhlab, murakkab jihatlarni tushunarli qiladi. Uchinchi toifa esa, unutilgan bilimlarni yangilab, fanga yangilik olib kiradi. O. Fayzullayev bu fikrni rivojlantirib, aynan uchinchi guruhdagi olimlar – yangicha g'oyalar bilan ilmga hissa qo'shuvchi ijodkorlardir, deb ta'kidlaydi.

Savollarga mustaqil javob topish, vazifalarni o'zi hal etish orqali inson tafakkurida yangi tushunchalar shakllanadi. Bu esa ijodiy fikrlashning shakllanishini bildiradi. Buyuk olim Beruniy o'z qarashlarida tafakkur muammolarini ustuvor masala deb bilgan. U kuzatuv, tajriba va aql-idrok orqali ilmiy haqiqatlarga yetishni maqsad qilgan. Beruniy ilm-fan sohasida erishgan yutuqlari bilan inson aqliga sig'maydigan ilmiy xulosalarni ilgari surgan. Uning fikricha, bilim yetishmasligi – asossiz taqlidga olib boradi, bu esa izlanish zavqini yo'qotadi.

Shu bilan birga, G'arb olimlaridan A. Shopengauer "Ijod – tafakkurning butun fazilatlarini o'zida jamlaydi", deb ta'kidlagan.

Xulosa qilib aytganda, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy yondashuvga ega yoshlar – yurtimiz kelajagining intellektual tayanchi bo'lib, ular o'z salohiyatlari bilan O'zbekiston ravnaqiga ulkan hissa qo'shadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1.Xolmatova, Z. T. (2020). TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YOndashuv MODELINING XARAKTERISTIKALARI. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 7(3).

2.Холматова, З. (2021). Гендерное образование в Узбекистане–критерии силы семьи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.

3.Xoliqova, D. M. (2019). ZAMONAVIY OLIY MAKTABNING INNOVATSION FAOLIYATI: RIVOJLANISH TENDENTLARI. *Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi*, 1(9), 215- 220.

4.Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.

5.Холикова, Д. М. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 80- 84.

6.Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 56-60.

FARZANLARDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISHDA OILA VAKILLARINING AHAMIYATI

Orifjonova Mashxura

Farg'ona davlat universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

Maxsumova Madinaxon Umarxon

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Ma'lumki, o'zbek oilasining va oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos milliy xususiyatlari mavjud bo'lib, ota-bobolar va momolardan meros qolgan ma'naviy qadriyatlar, urf-odatlar zamirida tarkib topgan oiladagi ma'naviy tarbiyaning asosiga suyaniladi. Oila muhiti bolalarga ta'sir ko'rsatishi bilan birgalikda uni atrofidagi hayotga moslaydi. Jamiyatda esa bolalarni ruhan va jismonan sog'lom qilib voyaga yetkazish ota-onaning nafaqat shaxsiy ishi, balki ijtimoiy burchi hamdir.

Farzandlar ota-onalariga o'xshashga harakat qiladilar, ota-onalar esa o'zlari bilib-bilmasdan o'z xarakter va xususiyatlarini, orzu-havaslarini farzandlariga singdirib boradilar. Aynan ana shunday xarakter xususiyatlaridan biri bo'lgan mehr-muruvvatlilik ota-onadan farzandlariga o'tadi.

Ota-onaning tarbiyachilik vazifasi to'g'risida quyidagi xalq maqolini keltirish mumkin:

Daraxtdan meva olaman desang, niholligidan parvarish qil.

Suv bilan ekin o'sar, tarbiya bilan - odam.

Bola tarbiyasida kattalarning ibrati to'g'risida quyidagicha maqollar mavjud:

Daraxtga ko'ra - mevasi, otag'onasiga ko'ra - bolasi.

Igna qayoqqa yursa, ip ham shu yoqqa yurar.

Agar oila ma'nosiz hayot kechirsa, faqat shaxsiy huzur-halovati bilan mashg'ul bo'lsa, agar oilada rahmsizlik va xudbinlik hukm surayotgan bo'lsa, bularning hammasi bolaning ma'naviy qiyofasiga salbiy ta'sir etmasdan qolmaydi, albatta. Shuning uchun ota-onalar uchun oila tarbiyasi, avvalo o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lmog'i kerak. Ota-onalarning yuksak ijtimoiy ongi bolalarda ham shunga mos ong tarkib topishiga yordam beradi.

Ota-ona oldidagi mas'uliyatning naqadar muhimligi shundan iboratki, ular bolaning har bir qadamini, har bir hatti-harakatini zimdan kuzatib boradilar. Bolalar har qanday janjalni, yomon noo'rin so'zni uzoq vaqt eslab yuradilar, o'rni kelganda, vaziyat bo'lganda amalda qo'llashga harakat qiladilar.

Bola tarbiyasi ota-onalarning ijtimoiy vazifasidir. Ota-onalar o'z bolalarining tarbiyasi uchun jamiyat oldida javobgardirlar. Shaxsning qadr-qimmatini uning jamiyatga keltiradigan foydasi bilan baholanadi. Ota-onalar o'z bolalarining asosiy tarbiyachilari hisoblanadilar. Shuning uchun ular farzandlarini o'z xalqining eng yaxshi urf-odatlarini va oilaviy an'analari ruhida oliyjanab fazilatli, bilimdon, madaniyatli shaxs qilib tarbiyalashlari kerak.

Tarbiya ko'p qirrali, uzoq davom etadigan jarayondir. Bolani o'rab olgan muhitning hammasi - odamlar, narsalar, hodisalar, uning ongida, xulq-atvorida ma'lum iz qoldiradi, uni o'zgartiradi va rivojlantiradi. Ota-onaning burchi mana shu rivojlanishni ziyraklik bilan boshqarib borishdir. Ota-onaning mehri, muruvvati, g'amxo'rliqi bolalar uchun suv va havodek zarur. Oilada shaxsni axloqiy shakllantirish bolaning tug'ilishidan boshlanadi. U ko'pgina omillar ta'sirida tarkib topadi. Bu omillar oilaviy munosabatlar xarakteri, ota-onalarning namunasi, ulardagi umumta'lim darajasi, umummadaniy saviyasi hamda ularning pedagogik madaniyatidan iborat.

Bu omillar oilada axloqiy tarbiyalashning mazmunini tashkil etadi va ular bir qator pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bu quyidagilardan iborat:

1. Ayrim oilalarda bolalarning tarbiyasi faqat onalar zimmasida, ota esa bu ishdan o'zlarini chetga oladilar. Go'yo farzandlarni bog'cha, maktab tarbiyalab berishlari shart. Tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, qadimdan o'g'il bolalar tarbiyasi bilan otalar, qiz bola tarbiyasi bilan onalar shug'ullanganlar, ammo ular asosan erkaklar nazoratida bo'lgan.

2. Ota-onalar bolalarga birdek munosabatda bo'lishlari, bir xil mehribon va g'amxo'r, talabchan va qattiqqo'l bo'lsalar bolalar hayoti butun va mukammal bo'ladi. Biri talab qilganda, ikkinchisi yonini olsa tarbiya buziladi. Bolalarga haddan tashqari mehribonchilik qilayotgan ota-onalar ularni hurmat qilishni o'rgatishlari zarur.

3. Ko'pgina ota-onalar bolalarini tarbiyalash borasida o'z vazifalar va burchlarini to'la his qilmaydilar. Boshqacharoq aytganda ularda pedagogik tayyorgarlik yetishmaydi. Zotan oilaviy tarbiya, avvalo, ota-onalarning o'zlarini o'zlari tarbiyalash demakdir. Chunki bola ayni paytda ta'sir obyekti va subyektidir. Biroq ota-ona bola ana shunday obyekt ekanligini sezmasligi uchun xarakat qilishi kerak. Ammo barcha ota-onalar ham buni tushunib yeta olmaydilar.

4. Oila hayotini to'g'ri tashkil qilish, oilada sog'lom axloqiy muhitni yaratish lozim. Bu ishda hech qanday mayda-chuydalar bo'lmasligi kerak. Har bir narsa bolaga ta'sir qiladi. Ana shu ta'sir natijasida salbiy yoki ijobiy odatlar, turlicha xulq-atvorlar paydo bo'ladi. Ota-onalarning har bir xatti-harakatini bolalar kuzatib turadi. Shuning uchun bolaga u yoki bu ishni qil yoki qilma deb nasihat qabiladagi o'rgatish yo'li bilan tarbiyalayman, deb o'ylamaslik kerak.

5. Ota-ona shaxsining o'zi bola tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ularning oqilona o'gitlari, pand-nasihatlarining hech biri, ularning shaxsiy namunasi o'rnini bosa olmaydi. Bolalarning axloqiy fazilatlarini tarkib topishida, oiladagi o'zaro ahillik, halollik va rostgo'ylik, o'zaro ishonchning mavjudligi, umuman sog'lom ahloqiy muhit muhim ahamiyatga ega.

Oiladagi tarbiyani yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olish, bolani, axloqiy jihatdan tarbiyalashda, milliy axloqiy qadriyatlardan foydalanishning mohiyatini, ularning o'ziga xosligi va ahamiyatini tahlil qilishga yordam beradi.

Umuman olganda, tarbiya so'zi aytilishi bilan inson ko'z oldida oila namoyon bo'ladi. Zero, oila tarbiya maskanidir. Shunday ekan, ma'naviy-axloqiy tarbiya oiladan boshlanadi. O'zbek oilasining ma'naviyati o'zbekning milliy g'ururidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

14. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". PEDAGOGICAL SCIENCES, 22.
15. Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN.
16. Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 3(4), 174-180.
17. Шарипова Д., Холикова Д. Основные направления работы по технологиям оздоровления в начальной школе. "Халк та'лими" ильмий-журнал "Методика". 2017. № 6.
18. SHaripova, D., & Xolikova, D. Osnovnie napravleniya raboti po texnologii zdorovesberejeniya v nachalnoy shkole. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2017. № 6.
19. Maksutovna, K. D. (2022). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS AMONG STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 55-59.
20. Maksutovna, K. D. (2022). Development of innovative thinking skills among students of higher educational institutions. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603, 11(10), 55-59.
21. Khalikova, D. M. (2016). QUESTION OF EDUCATION IN IMPROVING THE PERSONALITY. Ученый XXI века, (3-1), 34-37.
22. Холикова, Д. М. (2016). QUESTION OF EDUCATION IN IMPROVING THE PERSONALITY. Ученый XXI века, (3-1 (16)), 34-37.
23. Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 3(4), 174-180.
24. Bahodirovna, A. M., & Maxsitovna, X. D. (2023). MIQDOR TUSHUNCHASINING BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O'QITISHGA O'RGATISH USULLARI. PRINCIPAL ISSUES OF SCIENTIFIC RESEARCH AND MODERN EDUCATION, 2(5).
25. XOLIKOVA, D., & SOLIYEVA, M. (2023). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(5), 80-85.
26. Maxsitovna, X. D. (2023). SINFDAN TASHQARI O'QISH DARSLARIDA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH. MODERN SCIENCE, 2181, 3906.
27. Xolikova, D. (2023). INCREASING LEARNING EFFICIENCY IN CLASSROOM STUDY LESSONS. Modern Science and Research, 2(5), 750-760.
28. Холикова, Д. (2023). ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НА УЧЕБНЫХ УРОКАХ В КЛАССЕ. Современная наука и исследования, 2(5), 750-760.
29. Maxsitovna, X. D. (2023). BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TIL O'QITISHGA KOMMUNIKATIV YONDASHUV. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(19), 825-829.

O'QUVCHI-YOSHLARNI ZARARLI ODATLARDAN HIMOYA QILAYLIK

Dadajonova Muhayyo

Boshlang'ich ta'lim 3-kurs talabasi

Shokirova Mohinur Xayrullo

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Yuksalib borayotgan o'quvchi-yosh avlodining har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishi, o'zlari hamda atrofdagilarning sog'lig'iga e'tiborli bo'lishi, kelajak avlod salomatligini ta'minlash maqsadida ekologik-gigiyenik talablarni bajara olishlari, sog'lom turmush tarziga amal qilishlari kerak. Bu jarayonda kerakli vazifalarni o'quvchilar ongiga sodda va tushunarli tarzda singdirish, ularni kundalik hayotga tatbiq etishga yo'naltirish — mohir ustozlarimizning salohiyatiga bog'liq.

Kalit so'zlar: yoshlar, salomatlik, zararli odatlar, ustoz, ta'lim va tarbiya

O'zbek xalqi uzoq kutgan muqaddas kun — istiqloлга erishganiga ham salkam 30 yildan oshdi. Bu millatimizning mustamlakadan xalos bo'lib, ozodlikka erishgan quvonchidir. O'tmishda ajdodlarimiz, ulug' mutafakkirlarimiz baxt va saodatni erkinlikda ko'rganlar va bu haqda o'z ta'limotlarida o'z ifodasini berganlar. Ular vatanning istiqboli, baxtli hayot, ilm-fan va madaniyat taraqqiyotining bevosita bog'liqligini ta'kidlab kelganlar.

O'zbekiston Respublikasi yosh avlodni har tomonlama sog'lom, barkamol qilib voyaga yetkazishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Ayniqsa, istiqloл yillarida hukumat tomonidan qabul qilingan qarorlar orasida "Sog'lom avlod" dasturi o'z dolzarbligi bilan alohida o'rin egallaydi. Dastur hayotga tatbiq etilayotganidan so'ng hududlarda keng qamrovli ishlar boshlab yuborildi. Bu jarayonda oila, maktab va jamoatchilik kuchini bir yo'nalishga safarbar qilish ustuvor vazifaga aylantirildi.

Savol tug'iladi: xalq ta'limi tizimi sog'lom avlodni tarbiyalash borasida qanday ishlarga qo'l urdi? Erishilgan ilk natijalar bizni qoniqtirdimi?

To'g'risini aytganda, sog'lom yoshlarni shakllantirish yo'lidagi pedagoglarning faoliyati kutilgan darajada emas. Bu borada ochiq gapirishga hozir haqqimiz bor. Misol tariqasida, haligacha o'quvchilar orasida nos, tamaki hatto alkogolli ichimliklardan foydalanayotganlar uchrab turibdi. Bunday zararli illatlarni yashirish, masalani hal qilish emas. Agar maktabda bitta bola bunday odatga o'rganib qolsa, zudlik bilan uni bu yo'ldan qaytarmasak, bu illat butun maktab muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Shunday ekan, pedagoglar o'quvchilar orasida sog'lom hayotiy yo'lni tushuntirishda yetarli ish olib bormayapti. Ko'pchilik o'qituvchilar faqat o'z fanini o'qitish bilan kifoyalanib, sinfdagi bolalar salomatligiga e'tibor qaratmayapti. Har bir ustoz sinfdagi bolalarning sog'lig'i uchun ham javobgarlikni o'z zimmasiga olishi lozim.

Yana achinarli jihati shundaki, ba'zi ta'lim sohasi vakillarining o'zlari ham bunday zararli odatlardan holi emaslar. Ayniqsa, ba'zi pedagoglar to'y-ma'rakalarda, ommaviy joylarda ochiqchasiga alkogol ichib, tamaki chekayotganlari kuzatiladi. Bu esa, shubhasiz, yoshlarning axloqiy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilar ko'z o'ngida bunday illatlarni ko'rsatish aslo kechirilmas xatodir.

Yoshlarni zararli odatlardan asrash umumxalq vazifasidir. Giyohvandlik vositalarining salbiy oqibatlari haqida, eng avvalo, ota-onalar va jamoatchilik o'rtasida targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish kerak. Bunday illatlarga qarshi kurashishni boshlang'ich sinflardan o'rgatish zarur. Dono xalqimiz bejiz: "Qush uyasida ko'rganini qiladi" — demaydi. Demak, ota-onalar o'z farzandlari oldida sigaret chekish, ichkilik iste'mol qilish kabi xatti-harakatlardan tiyilishi lozim.

Shu bilan birga, mahalla faollari, fuqarolar yig'inlari, ota-onalar bilan targ'ibot ishlarini kuchaytirish muhim. Farzandlar ta'lim-tarbiyasining bevosita markazi bu — maktabdir. Shu sababli maktablarda bu yo'nalishda jiddiy kurash olib borilishi kerak.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatadiki, bu sohadagi ishlar hali-hanuz qoniqarli emas. Malaka oshirish kurslariga qatnashgan pedagoglar bilan bolalarni zararli odatlardan himoya qilish mavzusida o'tkazilgan so'rovnomalar natijasiga ko'ra, ularning 50-55 foizi ekologik va gigiyenik bilimlar bo'yicha yetarli bilimga ega emasligi ma'lum bo'ldi.

Shuning uchun maktablarda narkotik vositalarning zarariga bag'ishlangan tematik kechalar tashkil etilishi, bu tadbirlarga narkolog shifokorlar, huquqni muhofaza qilish organlari vakillarini jalb qilish zarur. Pedagoglar dars davomida faol, fidokor kurashchilarga aylanishi lozim.

Biologiya darsida narkotikning organizmga salbiy ta'siri tushuntirilsa, kimyo darsida uning tarkibi ochib berilsa, huquq va tarix fanlarida esa u keltirib chiqaradigan oqibatlar izohlanadigan bo'lsa, bu albatta ijobiy samara beradi. Yangi O'zbekiston yoshlarini bu illatlardan asraylik. Shunda ular jismonan sog'lom, ruhan tetik, ma'naviy boy va bilimli inson bo'lib kamol topadilar.

FODALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Xolmatova, Z. T. (2020). TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YONDASHUV MODELINING XARAKTERISTIKALARI. *Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar*, 7(3).

2. Холматова, З. (2021). Гендерное образование в Узбекистане—критерии силы семьи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.

3. Xoliqova, D. M. (2019). ZAMONAVIY OLIY MAKTABNING INNOVATSION FAOLIYATI: RIVOJLANISH TENDENTLARI. *Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi*, 1(9), 215- 220.

4. Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.

5. Холикова, Д. М. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 80- 84.

6. Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 56-60.

BOLA SHAXSINING IJTIMOIIY XULQI, MA'NAVIIY QIYOFASI, INSONIY FAZILATLARINI RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Зайниева Мардонахон Рустамовна

Farg'ona davlat universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

Toshpulatova Bahora Tolebovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

Annotatsiya: Shaxsning rivojlanish jarayonida uning bilim darajasi, hayotiy tajribasi, kundalik odatlari va ijtimoiy muhit muhim rol o'ynaydi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlab, aniq baho berish uchun uni turli holatlarda, har xil munosabatlar tizimida kuzatish lozim. Bolaning tarbiyasi, uning shakllanishiga biologik omillar, ijtimoiy sharoit va tarbiya jarayoni ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jihatdan to'g'ri yo'lga qo'yilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy va iroda bilan bog'liq jihatlarini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: bolalik davri, o'smirlilik, o'spirinlik yoshi, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy aloqalar, biologik omillar, ijtimoiy ta'sir.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanish qonuniyatlarini, ularning jinsi, yoshi va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olib, pedagogik faoliyatni tashkil qila oladigan mutaxassislariga jamiyatda, ayniqsa, ota-onalar tomonidan talab ortib bormoqda.

Ta'kidlanishicha, hozirgi zamon maktabgacha ta'lim muassasalariga yuqori saviyali, yangicha fikrlovchi, o'z ustida doimiy ishlaydigan, zamonaviy bilimlarni yaratish va ulardan samarali foydalana oladigan, psixologik, pedagogik hamda axborot texnologiyalari sohasidagi masalalarni hal eta oladigan, ijtimoiy-iqtisodiy va gumanitar muammolarga yondashuv topa oladigan, yangi sharoitga moslasha oladigan, uni faol o'zgartirishga qodir tarbiyachi-pedagoglar zarur.

Maktabgacha ta'lim tizimi uzluksiz ta'lim tizimining eng dastlabki bo'lagi bo'lib, har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni shakllantirishda, uni maktabga tayyorlashda muhim o'rin tutadi. Maktabgacha yoshda bolaga berilgan bilim va qadriyatlar uning kelajak hayot yo'lini belgilaydi. Shu bois maktabgacha ta'lim barkamol shaxsni voyaga yetkazishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Insonning hayoti davomida tanaviy va ruhiy jihatdan taraqqiy etishi bolalik, o'smirlik va o'spirinlik bosqichlarida ayniqsa faollashadi. Bola yillar davomida jismoniy va ruhiy tomonlama o'zgarib, shaxs sifatida takomillashadi. Bola tarbiyasi maqsadli yo'naltirilsa, u jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida faol ishtirok etadi.

Shaxsning kamolga yetishida bilim darajasi, tajribasi, odatlari hamda unga ta'sir etuvchi muhit muhim ahamiyatga ega. Shaxsiy fazilatlarini to'g'ri anglab yetish va to'g'ri baholash uchun uni turli ijtimoiy holatlarda, xilma-xil vaziyatlarda kuzatish talab etiladi. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy fe'l-atvori, ma'naviy ko'rinishi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Shaxsning shakllanishida ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, ularning xususiyatini va inson tabiatini puxta tushunish zarur.

Inson ruhiy jihatlarining, ya'ni tafakkur, sezgi, idrok, e'tibor, faoliyat, tasavvur va irodaning rivojlanishi tufayli bola hayotda o'z o'rnini topa oladi, jamiyat va yurt farovonligi uchun sadoqat bilan xizmat qiladigan yetuk shaxsga aylanadi. Bunday xislatlarning shakllanishi esa bevosita tarbiya jarayoniga bog'liqdir.

Bolaning barkamol bo'lishi, ruhiy dunyosi va xarakterining shakllanishiga qanday omillar ta'sir qiladi? Bola rivojlanishiga biologik omillar, ijtimoiy muhit va tarbiya jarayoni ta'sir ko'rsatadi. Ushbu masala pedagogika sohasida qadimdan muhim muhokamalardan biri sifatida qaraladi.

Pedagogik nuqtai nazardan to'g'ri tashkil etilgan har qanday faoliyat bola shaxsining intellektual va irodaviy salohiyatini rivojlantiradi. Bola ulg'aygan sari uning faoliyati mazmun va shakl jihatdan o'zgarib boradi. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar uchun o'yin asosiy faoliyat turi hisoblanadi, maktab yoshidagi bolalar uchun esa bu o'qish va mehnat bilan bog'liq bo'ladi. Demak, bola hayotida faoliyat shakllarining almashinuvi orqali uning rivojlanish bosqichlari ham o'zgaradi.

Pedagogik jihatdan tizimli tashkil etilgan har qanday faoliyat bolaning intellektual, axloqiy, estetik, jismoniy va iroda bilan bog'liq rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Nazoratsiz faoliyat esa bola taraqqiyotiga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin.

Shuningdek, inson rivojlanishining ilmiy konsepsiyasi ham inson kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etadi va bu rivojlanish hamda shaxsni shakllantirish yagona, uzviy jarayon ekanligini ko'rsatadi. Bu jarayonda insonning faolligiga alohida ahamiyat beriladi. Bola tarbiyasida tarbiyachi yoki ota-onaning belgilagan maqsadi aniq bo'lsa va bu maqsad sari izchil harakat qilinsa, kutilgan natijaga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOT:

1.Xolmatova, Z. T. (2020). TA'LIM JARAYONIDA GENDERLI YONDASHUV MODELINING XARAKTERISTIKALARI. Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar, 7(3).

2.Холматова, З. (2021). Гендерное образование в Узбекистане–критерии силы семьи. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.

3.Холиқова, Д. М. (2019). ZAMONAVIY OLIY MAKTABNING INNOVATSION FAOLIYATI: RIVOJLANISH TENDENTLARI. Namangan davlat universitetining ilmiy axborotnomasi, 1(9), 215- 220.

4.Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.

5.Холикова, Д. М. (2020). ФОРМИРОВАНИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЫШЛЕНИЯ У БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ. *Управление дошкольным образовательным учреждением*, (5), 80- 84.

6.Kochkorbaevna, K. B. (2022). FORMATION OF MORPHOLOGICAL COMPETENCE OF JUNIOR SCHOOLCHILDREN IN THE LESSONS OF THE NATIVE LANGUAGE. *Gospodarka i Innowacje.*, 22, 56-60.

BOSHLANG'ICH SINFDATA TA'LIM OLAYOTGAN O'QUVCHILARDA MA'NAVIY QARASHLARNI RIVOJLANTIRISHNING EFFEKTIV YO'LLARI

Насриддинова Маликахон Дилшод кизи

Farg'ona davlat universiteti, Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

Xomidova Xadija Maxmudjon

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-marifiy o'zgarishlar mazmunida tarixiy, milliy, ma'naviy qadriyatlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'lim-tarbiya tizimini tubdan o'zgartirish, yosh avlodni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadaii, vatanparvar ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb vazifasi bo'lib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatib o'tilganidek, demokratik jamiyatda irisonni erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib tarbiyalash zarur. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Kaykovus singari Sharq mutafakkirlari e'tirof etgan inson ma'naviy kamolotining zaruriy shartlaridan biri mustaqil va mantiqiy tafakkurdir. Bu jarayonda o'quvchi mukammal faollik, ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yosh avlodni ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol, bilimli inson qilib tarbiyalash vazifasi ko'p jihatdan boshlang'ich sinflarda ta'limni to'g'ri uyushtirish, xususan, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, ularning nutqini talab darajasida o'stirish bilan o'zaro bog'liq. Farzandlarning ma'naviy kamolotida qadimdan nutq madaniyati va odobiga alohida ahamiyat berib kelingan.

Shu o'rinda 1-sinf o'qish kitobini "Biz-buyuklar avlodi" bo'limi orqali birinchi bo'lib yozuvchi Muhammad Alining "Amir Temur" bobomiz haqida ibratli matn berilgan bo'lib, undan so'ng Amir Temur o'gitlari o'quvchilarga aniq va tushunarli holda bayon etilgan. Bo'limdagi mavzularni o'tishda quyidagicha usullarni qo'llashimiz mumkin. O'quvchilar buyuk mutafakkirlar: Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo va Amir Temur nomlarini esda saqlab qolishlari lozim.

O'quvchilar yozib bo'lgach, pedagog ularga quyidagicha savol beradi: Bular ichidan qaysilari sizga tanish? Ular haqida nimalar bilasiz? O'quvchilar bilganlarini aytgach, pedagog o'quvchilarga, tarixiy shaxslar haqida qisqacha gapirib o'tadilar, buning uchun o'quvchilarga quyidagicha topshiriq beramiz: ushbu bo'limda keltirilgan tarixiy shaxslar nomini yozing. O'quvchilar bo'limda keltirilgan tarixiy shaxslar nomini **Klaster** usulida yozadilar. Buning natijasida boshqa mutafakkirlarning nomlarini esda saqlab qolishga erishishimiz mumkin.

Agar o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab ma'naviy dunyoqarashini shakllantirar ekanmiz, birinchi navbatda ularning qiziqishlarini, bilish darajasini hisobga olishimiz kerak.

Ma'lumki boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi 7-11 yoshni tashkil etsa, ularning o'yin faoliyatiga bo'lgan qiziqishi 75-80 foizni tashkil etadi. Shunday ekan o'quvchilarning yoshi va qiziqish darajasiga qarab quyidagi interaktiv metodlarni tavsiya etamiz.

Vena diagrammasi usulidan boshlang'ich sinf o'qish darslarida foydalanish mumkin. Bu usul yordamida o'quvchilar mavzuga oid alohida sifatlarni, xususiyatlarni, ikki toifadagi narsalarni farqlashni, ajratishni o'rganib oladilar.

Biror-bir bo'lim yakunlangach, ushbu bo'limni tahlil qilishda "Vena diagrammasi" usuli samarali natija beradi. Masalan, 2-sinf o'qish kitobi kitobi" da esa "Otalar so'zi- aqlning ko'zi" bo'limi orqali yuqorida aytib o'tilganidek, Ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk allomalar bilan tanishadilar. Bu darsda "Vena diagrammasi" usulini quyidagi tartibda qo'llash mumkin.

1. Birinchi doira ichiga Amir Temur bobomiz haqida.

2. Uchinchi doira ichiga Alisher Navoiy bobomiz haqidagi ma'lumotlarni yozamiz.

3. Ularning o'xshash tomonlarini 2-doira ichiga yozing, deb topshiriq beramiz. Bu topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarga vaqt beriladi, vaqt tugashi bilan har bir guruhdan bittadan o'quvchi chiqib, boshqa guruhdagi o'quvchilarni yozganlari bilan tanishtiradi. O'quvchilar qarsak chalib rag'batlantiriladi.

Bu usul orqali o'quvchilar tanqidiy, tahliliy va va ijo'diy fikrlashga o'rganadi. O'qituvchi, fikrlashga tayyor turgan o'quvchilar oldiga muammoli savollar qo'yib, uni aniqlashtirish, yechimini topishga undaydi.

Zakovat o'yini: O'qituvchi sinfdagi o'quvchilarni ikki guruhga bo'ladi va aylana stol atrofiga joylashtiradi. Guruhlarga bo'lim asosida navbati bilan savol beriladi. Savollar quyidagicha bo'lishi mumkin:

bo'limdagi hikoyalarni o'qib, buyuk ajdodlarimizdan kimlarning hayoti bilan tanishdingiz? vatanimiz va xalqimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan yana qaysi buyuk kishilarni bilasiz?

biz nima uchun ular bilan faxrlanamiz? Va hokazo...

Guruhlarning qaysi biri ushbu savollarga tez, mazmunli va aniq javob bersa, shu guruh g'olib hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang'ich sinflarda maktab ta'limining yetakchi predmetlaridan bo'lgan o'qish darslari orqali olingan bilimlar poydevori quriladi. O'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini o'stirishda eng munosib, eng qulay metod va usullardan, ilg'or pedagogik texnologiyalardan o'z o'rnida va maqsadga muvofiq foydalanish, o'qish-o'qitish ishlarida samarali natijalar beradi. Pedagog va o'quvchilarning birgalikdagi ijodiy faoliyati mavzularning o'zlashtirilishini osonlashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. I. Холматова, З. Т. (2020). ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ГЕНДЕРЛИ ЁНДАШУВ МОДЕЛИНИНГ ХАРАКТЕРИСТИКАСИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 7(3).

2. Kholmatova, Z. T. (2019). GENDER EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(9), 199-207.

3. Xolmatova, Z. T. Teoreticheskie osnovi gendernogo podxoda v pedagogike. *Nauchnyy jurnal «Gumanitarniy traktat» www.gumtraktat.ru ISSN, 2500-115915.*

4. Холматова, З. Т. (2017). ОПРЕДЕЛИТЬ ОДАРЁННЫХ ДЕТЕЙ И РАЗВИВАТЬ У НИХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ. *Ученый XXI века*, 58.

5. Холикова, Д. М., & Холматова, З. Т. (2019). ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЕ. *Школа будущего*, (4), 236-245.

6. Холматова, З. Т. (2019). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В ПЕДАГОГИКЕ. *Гуманитарный трактат*, (61), 77-80.

7. Холматова, З. (2021). Ўзбекистонда гендер тарбия–оила мустаҳкамлиги меъзони. *Общество и инновации*, 2(9/S), 253-265.
8. Холматова, З. (2017). Особенности субъект-субъектных отношений в процессе дискуссии, основанной на диалоге. *Педагогическое образование и наука*, (2), 104-106.
9. Холматова, З. (2016). Основные аспекты развития личностных структур сознания в школьном возрасте. *Вестник современной науки*, (1-2), 132-134.
10. Холматова, З. Т. (2013). Гендерный подход к проблемам обучения и воспитания. In *Аспекты в реализации научных исследований* (pp. 31-36).

**2-YO'NALISH. ILM-FANDA INSON SALOMATLIGINI SAQLASH
MUAMMOLARI: JISMONIY MADANIYAT, EKOLOGIK VA PSIXOLOGIK MUHIT**

**INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ORQALI MAKTABGACHA TA'LIM
YOSHLARIDA MA'NAVIY QIYMATLARNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI**

Sanakulov Hamrakul Rizakulovich

Pedagogika fanlari nomzodi, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada zamonaviy innovatsion texnologiyalarning, xususan, axborot-kommunikatsiya va multimedia vositalarining maktabgacha ta'lim tizimiga joriy etilishi orqali tarbiyalanuvchilarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada innovatsion ta'lim uslublarining tarbiyaviy samaradorligi, ko'rgazmalilik, interaktivlik, mustaqil fikrlashni rivojlantirish kabi afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, ma'naviy tarbiyaning pedagogik omillari, oilaviy muhit bilan uzviy aloqasi, milliy qadriyatlar, odob-axloq va insoniy fazilatlarini bolalar ongiga singdirish yo'llari ko'rsatib o'tiladi. Muallif ta'lim-tarbiya jarayonida multimedia texnologiyalarini kompleks qo'llash orqali tarbiyalanuvchilarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur maqola maktabgacha ta'limda ishlovchi pedagoglar, tadqiqotchilar hamda ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, maktabgacha ta'lim, multimedia vositalari, ma'naviy tarbiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, pedagogik omillar, milliy qadriyatlar, interaktiv ta'lim, ma'naviy-axloqiy tarbiya, yosh avlod tarbiyasi

САНАКУЛОВ ХАМРАКУЛ РИЗАКУЛОВИЧ

Кандидат педагогических наук, профессор, Декан факультета начального образования Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматриваются вопросы формирования духовных ценностей у воспитанников посредством внедрения современных инновационных технологий, в частности, информационно-коммуникационных и мультимедийных средств, в систему дошкольного образования. В статье анализируются воспитательная эффективность инновационных методов обучения, наглядность, интерактивность, развитие самостоятельного мышления. Также освещаются педагогические факторы духовного воспитания, его взаимосвязь с семейной средой, роль национальных ценностей, этики и человеческих качеств в формировании сознания детей. Автор уделяет особое внимание комплексному использованию мультимедийных технологий в образовательном процессе с целью укрепления идеологического иммунитета воспитанников. Данная статья представляет практический интерес для педагогов, работающих в системе дошкольного образования, исследователей и специалистов в сфере духовно-нравственного воспитания.

Ключевые слова: инновационные технологии, дошкольное образование, мультимедийные средства, духовное воспитание, информационно-коммуникационные технологии, педагогические факторы, национальные ценности, интерактивное обучение, духовно-нравственное воспитание, воспитание подрастающего поколения.

SANAKULOV HAMRAKUL RIZAKULOVICH

Candidate of Pedagogical Sciences, Professor, Dean of the Faculty of Primary Education at Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.

ANNOTATION: This article discusses the formation of spiritual values in preschool children through the introduction of modern innovative technologies, particularly information and communication technologies and multimedia tools, into the preschool education system. The article analyzes the educational effectiveness of innovative teaching methods, including visual aids, interactivity, and the development of independent thinking. It also highlights the pedagogical factors of spiritual upbringing, its connection with the family environment, and the role of national values, ethics, and human qualities in shaping children's consciousness. The author places special emphasis on the integrated use of multimedia technologies in the educational process to strengthen the ideological immunity of preschoolers. This article is of practical interest to educators working in preschool education, researchers, and specialists in the field of spiritual and moral education.

Keywords: innovative technologies, preschool education, multimedia tools, spiritual education, information and communication technologies, pedagogical factors, national values, interactive learning, spiritual and moral upbringing, education of the younger generation.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari barcha jabhalarda bo'lgani kabi, ta'lim tizimiga ham izchil va tizimli ravishda kirib kelmoqda. Jumladan, raqamlashtirilgan multimedia ta'lim texnologiyalarini maktabgacha ta'lim muassasalariga tatbiq etish orqali mashg'ulotlar mazmunini bolajonlarning ongiga to'liq va samarali singdirish, ularga innovatsion uskunalar va vositalarni tanishtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'limda multimedia texnologiyalaridan unumli foydalanishning o'ziga xos ustunliklari mavjud. Ular quyidagicha ko'rsatib o'tiladi:

- ta'lim jarayonida ko'rgazmalilik muhim o'rin egallaydi;
- tarbiyalanuvchini izlanishga ruhlantiradi;
- bola ta'limni bir vaqtning o'zida ko'radi, eshitadi, ko'p hajmdagi axborot tezda yetkaziladi;
- tafakkurini faol holatga keltiradi;
- ijobiy rag'batlantiruvchi omillar shakllanadi;
- mashg'ulotlar jonli va interaktiv shaklda o'tadi;
- kerakli materiallar kompyuter xotirasida saqlanib, istalgan vaqtda foydalanish imkonini beradi.

Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning ma'naviy tarbiyasini yo'lga qo'yish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Aynan shu orqali jamiyatning umumiy ma'naviy darajasini yuksaltirish mumkin bo'ladi. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar vositasida tarbiyalanuvchilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirib, uni barqaror rivojlantirish talab etiladi. Ushbu jarayon, avvalo, oilada boshlanishi kerak. Chunki bolaga berilgan ma'naviy tarbiya u bilan birga ulg'ayib, takomillashadi. Shu sababli, farzandlarimizda ma'naviyatni rivojlantirish jarayoni dastlab oiladan, keyinchalik esa bosqichma-bosqich uzluksiz ta'lim tizimi doirasida amalga oshiriladi.

Tarbiyalanuvchilarning ma'naviyatini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik omillar quyidagilardan iborat:

- mashg'ulot mazmunini ma'naviy yo'nalishdagi materiallar bilan boyitish;
- bolalarda mustaqil fikrlashni shakllantirish;
- ma'naviy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash;
- darsliklarga axloqiy va ma'naviy tarbiyaga oid ma'lumotlarni kiritish;
- buyuk mutafakkirlar hikmatlaridan foydalanish;
- xalq og'zaki ijodiyoti – maqollar orqali tarbiya berish;
- ta'lim jarayoniga ma'naviyatga oid tushunchalarni tatbiq etish.

Shuningdek, mashg'ulotlar tarkibida Vatanga sadoqat, milliy iftixor, urf-odatlar va qadriyatlar, muomala madaniyati, gigiyena, kiyinish madaniyati, saranjomlik, odob-axloq, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlarini bolalar ongiga singdirish zarur. Tasviriy san'at, musiqa,

odobnoma darslari va badiiy asarlar orqali tarbiyalanuvchilarning qalbida yurtga va xalqqa muhabbat uyg'otish muhimdir.

Ma'naviy tarbiyani quyidagi uch yo'nalishda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Ma'naviy kamolotga ijobiy ta'sir etuvchi omillarni rivojlantirish.
2. Salbiy ta'sirlarning oldini olish va ularni bartaraf etish yo'llari.
3. Multimedia ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim mazmunini boyitishga doir chora-tadbirlarni muntazam ravishda olib borish talab etiladi. Tarbiyalanuvchilar ma'naviy barkamolligini shakllantirishda ko'plab pedagogik omillar mavjud bo'lib, ular ta'lim mazmunini yangi bosqichga ko'tarishda mustahkam metodik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu jarayonda o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat va zamonaviy yondashuvlar talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

30. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo'llash namunalari. - I; RTM, 2000. - 46 b.
31. Kholikova, D. (2020). INTELLECTUAL ACTIVITY OF CREATIVE THINKING VERBAL TEST "UNUSUAL USE". PEDAGOGICAL SCIENCES, 22.
32. Kholikova, D. M. (2021). DEVELOPMENT OF INNOVATIVE THINKING SKILLS IN.
33. Xolikova, D. M. (2022). TALABALARDA INNOVATSION FIKRLASH KO'NIKMALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI. Scientific progress, 3(4), 174-180.
34. Шарипова Д., Холикова Д. Основные направления работы по технологиям оздоровления в начальной школе. "Халк та'лими" ильмий-журнал "Методика". 2017. № 6.
35. SHaripova, D., & Xolikova, D. Osnovnie napravleniya raboti po texnologii zdorovesberejeniya v nachalnoy shkole. "Xalq ta'limi" ilmiy-metodik jurnali. 2017. № 6.

ФИЗИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЕ НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТ ЛИЧНОСТИ УЧАЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ

Шаропов Ш.А., Насриддинова М.М.

*ГОУ «Худжандский государственный университет им.АК.Б.Гафурова»
(Таджикистан)*

В статье рассматриваются вопросы физического воспитания как фактора формирования нравственных качеств учащейся молодежи. Организации физического воспитания студентов - одна из важных проблем, стоящих перед современной высшей и средней профессиональной школой. Социальное значение проблемы физического воспитания учащейся молодежи состоит в том, что целенаправленное осуществление такого воспитания способствует сохранению здоровья человека. Здоровье людей является одним из важнейших условий сохранения человеческой цивилизации.

Ключевые слова: физического воспитания, нравственные качества, формирование, учащейся молодежи, воспитание, здоровье

Вопросы нравственного воспитания подрастающего поколения всегда были в центре внимания как философской, этической, так и педагогической мысли. Формирования молодежи как личности нравственной - одна из «вечных» проблем, стоящих перед обществом, а соответственно, и перед образованием, выполняющим социальный заказ на воспитание такого человека. Организации физического воспитания студентов - одна из важных проблем, стоящих перед современной высшей и средней профессиональной школой.

Проблема физического воспитания студентов – проблема в науке не новая, поэтому, казалось бы, нет необходимости раскрывать то, что уже теоретически обосновано и экспериментально проверено педагогической наукой. Однако мы обращаемся к данной проблеме, так как, во-первых, ее решение имеет не только педагогическое, но и социальное значение; во-вторых, как показывает анализ научной литературы, ученые далеко не всегда акцентируют внимание на нравственном аспекте физического воспитания.

Социальное значение проблемы физического воспитания учащейся молодежи состоит в том, что целенаправленное осуществление такого воспитания способствует сохранению здоровья человека. Здоровье людей является одним из важнейших условий сохранения человеческой цивилизации. Однако «современный человек, - как отмечает И.И.Брехман, - хорошо зная, что полезно и что вредно, очень часто поступает неразумно по отношению к своему здоровью» [1, с. 85].

Здоровье напрямую связано с образом жизни человека. Сохранению и укреплению здоровья способствует здоровый образ жизни. Как видим, спектр ценностей физической культуры, которые могут составить аксиологическую основу физического воспитания студентов, довольно широк. Мы полагаем, что организация физического воспитания студентов как их приобщения к ценностям должна базироваться на более конкретной системе ценностей, а их отбор, с нашей точки зрения, должен быть осуществлен, исходя из нравственной составляющей физического воспитания.

Мы полагаем, что такими ценностями могут стать нравственные ценности, представляющие собой аксиологические основания физического воспитания. Речь о ценностях, определяющих аксиологические основания физического воспитания, пойдет ниже.

На первый взгляд, нет необходимости наделять физическое воспитание нравственной составляющей, так как основными задачами физического воспитания, ориентированного на формирование физической культуры, являются: содействие правильному физическому развитию студентов, повышение их работоспособности, закаливание, охрана здоровья; развитие основных двигательных качеств; формирование жизненно важных двигательных умений и навыков; воспитание устойчивого интереса и потребности в систематических занятиях физической культурой; приобретение необходимого минимума знаний в области гигиены и медицины, физической культуры и спорта.

Однако мы убеждены в необходимости выявления нравственной составляющей физического воспитания. Естественно, речь не идет о подмене физического воспитания нравственным. Это два различных вида воспитания, каждый из которых имеет свои цели и задачи. Физическое воспитание, прежде всего, связано с телесностью человека. Однако обращение внимания на нравственное в физическом позволит, на наш взгляд, избежать тех ситуаций, когда человек использует свои физические данные, свою физическую активность во вред другим людям, а, главное, воспитать человека, готового и стремящегося направить свои физические силы на помощь другим людям.

Подтверждение сказанному мы находим в трудах известного таджикского ученого-исследователя Ш.А.Сафарова, который высказывает идею о значении нравственности личности в развитии телесности, о взаимосвязи телесности и нравственности человека. Нравственные кодексы, как подчеркивает ученый, просто абстракция, пока им не даруется жизнь через воплощение их в телесные предрасположения и действия. Всякое должным образом реализованное нравственное достоинство зависит не только от некоторого телесного акта (включая акт речи), но и от соответствующей позы и выражения лица, указывающих на подобающие чувства. То, что предлагается с недовольным, холодным, сердитым лицом, не может быть подлинным актом милосердия [10].

Постановка ученым вопроса о становлении нравственности человека через его

телесность представляет интерес для педагогики, потому что речь идет о взаимосвязи телесных действий человека и его нравственности: «Будучи вписанными в наши тела, социальные нормы и этические ценности могут сохранять свою силу и без того, чтобы высказываться явно или навязываться законами; они соблюдаются сами собой и навязываются нами привычками нашего тела, включая привычку чувствовать (коренящуюся в теле)» [10, с. 171].

Например, цветовое восприятие в цифровой среде отличается от реального. При просмотре через экран ребёнок не формирует адекватного представления о предметах. Современные дети всё больше смещаются в сторону восприятия нереального, цифрового мира, что формирует у них искажённые образы. А ведь именно через образы мозг взаимодействует с окружающей действительностью. Если ребёнок живёт у моря — у него складывается один набор образов, если в пустыне — другой. Эти образы помогают ему быть адаптивным в конкретной среде. Тот, кто развивается в виртуальном пространстве, в будущем будет успешнее именно там, а не в реальной жизни. К счастью, пока реальный мир преобладает: дети ещё ходят в настоящие школы и общаются с живыми людьми.

Четвёртая угроза — это недостаточное развитие так называемого «социального мозга». При постоянном взаимодействии с виртуальными персонажами у ребёнка формируется упрощённое представление о социальной среде. Как бы ни был продуман персонаж из игры, он не обладает тем многообразием черт, которое есть у реального человека. Взаимодействие с близкими, сверстниками, взрослыми помогает ребёнку осваивать сложный социальный мир.

Пятый риск — проблемы с развитием произвольного контроля, связанного с работой лобных отделов мозга. Эти участки отвечают за планирование, целеполагание, саморегуляцию. В виртуальной среде ребёнок использует в основном непроизвольное внимание, которое привлекается яркими образами, движениями, звуками. Ему не нужно прилагать усилий, чтобы удерживать внимание. Механизмы самоконтроля в таких условиях не развиваются. А в школьной среде, наоборот, от ребёнка требуется способность самостоятельно ставить задачи, контролировать поведение и справляться с учебной нагрузкой. Образно говоря, виртуальная среда формирует детей со слаборазвитыми лобными долями мозга, что в дальнейшем мешает им достигать целей.

Шестой фактор риска — влияние цифровизации на систему образования. Это снижает значимость личности учителя в сложном процессе передачи знаний, опыта и умений.

Список литературы

1. Effects of digital environments on children's cognitive function and mental health: a bibliometric study Xiao, N., Huang, X., Li, B., Sun, L. & Kiselev, S., 1 сент. 2024, в: *Current Psychology*. 43, 35, стр. 28038-28052 15 стр.
2. Effectiveness of animal-assisted activities and therapies for autism spectrum disorder: a systematic review and meta-analysis Xiao, N., Bagayi, V., Yang, D., Huang, X., Zhong, L., Kiselev, S., Bolkov, M. A., Tuzankina, I. A. & Chereshev, V. A., 2024, в: *Frontiers in Veterinary Science*. 11, 1403527.
3. Health-related quality of life in patients with inborn errors of immunity: a bibliometric analysis Xiao, N., Huang, X., Zang, W., Kiselev, S., Bolkov, M., Tuzankina, I. & Chereshev, V., 2024, в: *Frontiers in Immunology*. 15, 1371124.

4. Health-related quality of life in patients with inborn errors of immunity: A systematic review and meta-analysis Xiao, N., Huang, X., Yang, D., Zang, W., Kiselev, S., Bolkov, M. A., Shinwari, K., Tuzankina, I. & Chereshev, V., 2024, в: Preventive Medicine. 186, 108079.
5. МЕТОДИКИ ДЛЯ ОЦЕНКИ РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ РАННЕГО ВОЗРАСТА Морозова, И. Г. & Киселев, С. Ю., 2024, ПСИХОЛОГИЯ САМО-СТОЯНИЯ ДЕТЕЙ: ПРОБЛЕМЫ, РЕСУРСЫ, РАЗВИТИЕ, САМООПРЕДЕЛЕНИЕ: монография. Шинина, Т. В. (ред.). Москва: Общество с ограниченной ответственностью "Научно-издательский центр ИНФРА-М", стр. 335-343 9 стр.
6. The safety and efficacy of oral antiviral drug VV116 for treatment of COVID-19: A systematic review Xiao, N., Huang, X., Kang, X., Zang, W., Li, B. & Kiselev, S., 7 июл. 2023, в: Medicine. 102, 27, e34105.
7. Effects of Equine-Assisted Activities and Therapies for Individuals with Autism Spectrum Disorder: Systematic Review and Meta-Analysis Xiao, N., Shinwari, K., Kiselev, S., Huang, X., Li, B. & Qi, J., 2023, в: International Journal of Environmental Research and Public Health. 20, 3, 2630.
8. Significant adult and child interaction during early childhood in Russia and in Vietnam: Common trends Galasyuk, I., Shinina, T., Shvedovskaya, A. A., Mitina, O., Morozova, I. G., Nguyen, T. H. & Kiselev, S., 2023, в: International Journal of Psychology. 58, Supplement1, стр. 795-795 1 стр., 6546.
9. A psychometric study of the Russian-language version of the “Bayley Scales of Infant and Toddler Development–third edition”: An assessment of reliability and validity Pavlova, P., Maksimov, D., Chegodaev, D. & Kiselev, S., 2 сент. 2022, в: Frontiers in psychology. 13, 961567.
10. More than just immaturity: evidence supporting the hypothesis that sleep spindle characteristics reflect GABAergic depolarization in infancy Chegodaev, D., Pavlova, P. & Kiselev, S., 2022, в: Sleep Science. 15, 4, стр. 459-462 4 стр.
11. СРАВНЕНИЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НЕРВНО-ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РОССИЙСКИХ ДЕТЕЙ С ОРИГИНАЛЬНЫМИ НОРМАМИ МЕТОДИКИ “ШКАЛЫ РАЗВИТИЯ БЭЙЛИ-III” Павлова, П. А., Максимов, Д. М., Чегодаев, Д. А. & Киселев, С. Ю., 2022, в: Психологический журнал. 43, 6, стр. 85-93 9 стр.
12. Children With ADD Benefited From Meditation Training Kiseleva, N. & Kiselev, S., 1 мая 2021, в: Biological psychiatry. 89, 9, стр. S206-S206 1 стр.
13. Effect of Body-Oriented Training on Executive Abilities in Children With ADHD One Year After Completing Training Kiselev, S., 1 мая 2021, в: Biological psychiatry. 89, 9, стр. S217-S217 1 стр.
14. Long-Term Effect of Computer Game Addiction on the Development of Visuospatial Abilities in Children Kiselev, S., 1 мая 2021, в: Biological psychiatry. 89, 9, стр. S301-S301 1 стр.
15. Offspring Benefited From Maternal Mindfulness Training During Pregnancy Kiseleva, N. & Kiselev, S., 1 мая 2021, в: Biological psychiatry. 89, 9, стр. S302-S302 1 стр.
16. Visuospatial Training Has Positive Effect on Visuospatial and Linguistic Abilities in Children With SLI Kiselev, S., 1 мая 2021, в: Biological psychiatry. 89, 9, стр. S133-S133 1 стр.
17. Breathing Training has a Positive Effect on Children With Sleep Disordered Breathing Kiselev, S., мая 2021, в: Journal of Sport and Exercise Psychology. 43, стр. S73-S73 1 стр.
18. Children With Congenital Heart Disease Benefited From Body-Oriented Training Kiselev, S., мая 2021, в: Journal of Sport and Exercise Psychology. 43, стр. S13-S13 1 стр.

19. Long-Term Effect of Body-Oriented Training on Children With Attention Deficit Disorder (ADD) Kiselev, S., мая 2021, в: Journal of Sport and Exercise Psychology. 43, стр. S13-S13 1 стр.

20. Age-related differences in processing speed in children can be explained by heterochronicity of human brain development Kiselev, S., апр. 2021, в: European Psychiatry. 64, стр. S486-S486 1 стр.

THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EXERCISE IN HUMAN PSYCHOPHYSIOLOGICAL DEVELOPMENT

Mukhritdinov Farruh Rozmatjonovich,

Teacher of Exact and Natural Sciences External Studies Division, Fergana State University.

Abstract:

Physical exercise plays a pivotal role in human development, contributing to both the physiological and psychological well-being of individuals. This article explores the multifaceted impact of exercise on psychophysiological development, highlighting its influence on mental health, cognitive function, stress management, and overall physical health. It emphasizes the role of regular physical activity in improving neuroplasticity, enhancing mood regulation, and fostering a sense of self-worth, thereby promoting holistic development in individuals.

Keywords: physical exercise, psychophysiological development, mental health, cognitive function, neuroplasticity, stress management, emotional regulation.

Introduction

The significance of physical exercise in human development extends beyond its well-known benefits to physical health. Over the years, research has increasingly revealed how exercise influences not only the body but also the mind. Physical activity has been shown to impact brain function, emotional well-being, and cognitive abilities. Psychophysiological development refers to the intricate relationship between psychological processes and physical health, both of which are intricately influenced by regular participation in physical exercise.

In contemporary society, where sedentary lifestyles are becoming more prevalent, understanding the role of physical exercise in psychophysiological development is essential for promoting long-term health and well-being.

The Impact of Physical Exercise on Psychological Health

Physical exercise has long been recognized for its positive effects on mental health. Research has shown that regular physical activity can:

- **Enhance Mood and Reduce Anxiety:** Exercise stimulates the release of neurotransmitters such as **endorphins**, serotonin, and dopamine, which are associated with feelings of happiness and reduced feelings of anxiety. Regular exercise has been linked to a reduction in symptoms of depression and anxiety disorders.

- **Promote Neuroplasticity:** Neuroplasticity is the brain's ability to reorganize itself by forming new neural connections. Physical activity enhances neuroplasticity, particularly in the hippocampus, a brain region crucial for memory and emotional regulation. Increased neuroplasticity can contribute to improved cognitive function and mental flexibility.

- **Stress Reduction:** Exercise serves as an effective coping mechanism for stress. When engaging in physical activity, the body's stress response is activated, followed by relaxation and restoration of balance. This process can help individuals develop better stress-management strategies and improve their resilience to stress over time.

Cognitive Function and Physical Exercise

Physical exercise not only enhances mood but also significantly benefits cognitive function. Studies have demonstrated that regular physical activity improves:

- **Memory and Learning:** Exercise increases blood flow to the brain, promoting the growth of new neurons and improving the brain's ability to learn and remember. Regular cardiovascular exercise, such as running or swimming, has been shown to enhance working memory and overall cognitive performance.

- **Attention and Focus:** Exercise improves the brain's ability to focus and sustain attention. It enhances the efficiency of neural circuits responsible for attention regulation and executive functioning. These improvements are essential for success in educational settings and everyday tasks.

- **Decision Making and Problem Solving:** Physical exercise, especially activities that require coordination and quick thinking (such as team sports), enhances decision-making skills and problem-solving abilities. This occurs due to improved neural connectivity and cognitive flexibility.

The Role of Physical Exercise in Emotional Regulation

The ability to manage emotions effectively is crucial for personal development, interpersonal relationships, and mental health. Physical exercise aids emotional regulation in several key ways:

- **Improved Self-Esteem:** Regular participation in physical exercise leads to improvements in self-esteem and body image. The sense of achievement from overcoming physical challenges or achieving fitness goals enhances self-worth and self-confidence.

- **Better Emotional Resilience:** Exercise provides a structured environment in which individuals can confront challenges, manage frustration, and build resilience. This leads to a better ability to cope with negative emotions such as anger, sadness, or stress.

- **Social Interaction:** Engaging in physical activity, particularly in group settings, fosters social connections and emotional support. Whether through team sports or fitness classes, these interactions contribute to emotional well-being and a sense of belonging.

Physiological Benefits and Psychophysiological Integration

While the psychological benefits of physical exercise are significant, the physiological effects also play a crucial role in psychophysiological development. Exercise:

- **Improves Cardiovascular Health:** Regular physical activity strengthens the heart and improves circulation, ensuring that the brain receives an adequate supply of oxygen and nutrients. This, in turn, supports brain function and enhances overall mental well-being.

- **Enhances Muscle Strength and Mobility:** Physical exercise improves muscle strength, joint flexibility, and overall body function. This leads to greater physical independence and a reduction in the risk of injury, particularly in older adults.

- **Regulates Hormonal Balance:** Exercise helps regulate hormones such as cortisol, adrenaline, and growth hormone. These hormones play important roles in stress response, energy levels, and the body's overall health.

Conclusion

In conclusion, physical exercise is a powerful tool in promoting psychophysiological development. The integration of regular physical activity into daily life has profound effects on both the body and the mind, improving mental health, cognitive abilities, emotional regulation, and physical well-being. Given the increasing rates of sedentary lifestyles and the rising incidence of mental health conditions, it is imperative that physical exercise becomes a central component of personal development programs, educational curricula, and healthcare initiatives.

The multifaceted benefits of exercise make it an essential practice not only for physical health but also for psychological growth and overall quality of life. By fostering a balanced approach to both mind and body, individuals can achieve greater resilience, emotional stability, and cognitive excellence.

**HAYDOVCHI RUHIY SALOMATLIGINING HAYDOV XAVFSIZLIGIGA
TA'SIRI**

Usmonov Rahim Raxmonovich

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi

Muminova Ra'no Rahimberdi qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo'l harakati xavfsizligiga ta'sir qilish sohasidagi inson omilini baholash haqida so'z boradi. Shuningdek maqoladaning aksariyat qismi tezlik yoki traektoriyaning o'zgarishida haydovchi harakatlarini o'rganish, o'zgarishini aniqlash va baholashdan iborat.

Аннотация: В данной статье рассматривается оценка человеческого фактора в сфере влияния на безопасность дорожного движения. Также большая часть статьи состоит из изучения, определения и оценки действий водителя при изменении скорости или траектории.

Annotation: This article discusses the assessment of the human factor in the sphere of influence on road safety. Also, most of the article consists of studying, determining and evaluating the actions of the driver when changing speed or trajectory.

Kalit so'zlar: Yo'l, haydovchining salomatligi, reaksiya, harakat havfsizligi, haydovchining idroki, haydovchining reaksiyasi, yo'l harakat havfsizligi, asabiylashish, haydovchining ruhiy holati.

Ключевые слова: Дорога, здоровье водителя, реакция, безопасность движения, восприятие водителя, реакция водителя, безопасность дорожного движения, нервозность, психическое состояние водителя.

Key words: Road, driver's health, reaction, traffic safety, driver's perception, driver's reaction, traffic safety, nervousness, driver's mental state.

Haydovchining yo'ldagi favqulodda holatdagi xatti-harakati va xulqini faqat kichik ehtimollik darajasi bilan taxmin qilish mumkin. Yo'l harakati xavfsizligini boshqarish sohasida haydovchi ishidagi ishonchlilikni oshirish - "haydovchi - avtomobil - yo'l - atrof-muhit" tizimida boshqaruv elementi sifatida yo'l harakati xavfsizligini takomillashtirish siyosati sohasidagi asosiy vazifadir. Haydovchi uchun asosiy ma'lumot manbai yo'l bo'lib, u birinchi navbatda yo'lni vizual analizator orqali idrok qiladi. Yo'l holatini idrok etishning 95% ko'rish orqali amalga oshiriladi. Yo'l sharoitlari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilib, haydovchi avtomobilning tegishli haydash rejimini tanlaydi va shu asosda eng maqbul va xavfsiz rejimni belgilaydi. Yo'lning geometrik parametrlariga, tartibga solish vositalariga, ustun bo'lgan harakat intensivligiga, marshrut bo'ylab harakatlanish jarayonida yo'l bo'yidagi landshaftga qarab, harakat rejimi juda keng o'zgaradi. Avtomobil haydovchisi tanlangan rejimning xususiyatlarini va hozirgi harakat holatini doimiy ravishda taqqoslaydi. Haydovchi biror obyekt oldidan xavfsiz o'tish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan harakatlari haqida qo'shimcha ma'lumot oladi va kerak bo'lganda joriy holatdagi rejimga tuzatishlar kiritadi. Shunday qilib, yo'l holatini tashkil etishda haydovchining psixofiziologik imkoniyatlarini hisobga olish kerak. Shunday qilib "haydovchi - avtomobil - yo'l - atrof-muhit" tizimida havfsizlikni ta'minlashda haydovchining yo'ldagi harakatining ishonchliligi masalasi eng muhimdir. Bunga harakatni boshqarish vositalarining samarali bo'lishi, haydovchining ko'rish maydonidagi harakatni boshqarish vositalarini oqilona o'rnatish, haydovchining e'tiborini chalg'itadigan va uning hissiy holatini oshiradigan narsalarni yo'l bo'yida joylashtirishni optimal cheklash orqali erishish mumkin. Haydovchidagi foydali ish foefitsentini yuqori darajada bo'lishiga erishish faqatgina u tomonidan qabul qilinayotgan informatsiyalarning ma'lum bir meyyorda bo'lishini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Haydovchining ishonchliligi va harakat xavfsizligi to'g'ridan-to'g'ri

haydovchining hissiy holatiga bog'liq. Bu esa ko'p jihatdan yo'l haqidagi ma'lumotlarning ko'pligi yoki yetishmasligiga bog'liq. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, reaksiya vaqti juda katta farq qiladi va u har jihatdan transport holatiga bog'liq. Misol uchun, aytishlariga qaraganda haydovchining reaksiya vaqti har qanday transport holati uchun nazariy jihatdan doimiy ya'ni bir xil deb hisoblanadi.

Yo'l harakati xavfsizligiga ta'sir qilish sohasidagi inson omilini baholashni aniqlashga qaratilgan tadqiqotning aksariyat qismi tezlik yoki traektoriyaning o'zgarishida haydovchi harakatlarini o'rganish, o'zgarishini aniqlash va baholashdan iborat. Ammo shuni hisobga olish kerakki, harakat tezligini yoki traektoriyasini o'zgartirish yo'lda harakatlanayotganda transport holatini idrok etishdek murakkab jarayonining yakuniy bosqichidir.

Aksariyat, avariya sabablarini o'rganayotganda, haydovchining e'tibori ayni holatida reaksiyasi tezlikni o'zgartirishga emas, balki yo'l holatining ba'zi bir elementiga qaratilganligi ko'zga tashlanadi. Asabiylashishning kuchayishi, bosh miyya po'stlog'ida tarqaladi va haydovchiga ta'sir qiladi. Haydovchi nafaqat favqulodda vaziyatda, balki muncha vaqt o'tib undan muvaffaqiyatli chiqib ketgandan keyin ham haydovchi xato qila boshlaydi. Ayrim yo'l-transport hodisalari yo'lning eng xavfli yoki murakkab qismida emas, balki ancha olisda masofada yoki qatnov murakkab bo'lmagan joylarda sodir bo'lishini ham shu fakti tasdiqlaydi. Yo'l harakatini tartibga solish vositalaridan foydalanish samaradorligi, ushbu vositalarning yo'l sharoitlari qanchalik to'g'ri hisobga olinganligi va ular haydovchilarning psixofiziologik xususiyatlariga qanchalik mos kelishiga bog'liq. Tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, agar yo'l harakatini tartibga solish vositalari haydovchi idrokining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tanlansa, baxtsiz hodisalarni kamaytiradi va mehnat sharoitlarini yaxshilaydi. Moskva davlat avtomobil yo'llari institutida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, yo'lda mashina haydash vaqtidagi haydovchi diqqatining 95% yo'l uchun ajratilgan bo'ladi. Harakat tezligidagi o'zgarishlar diqqat maydonining hajmiga ta'sir qiladi. Yo'l holati tushuntiruvchi elementlarini o'z vaqtida va to'g'ri idrok etish, ularni idrok etish uchun kerak bo'ladigan vaqtning yetarli yoki yetarli emasligiga bog'liq. Haydovchi tomonidan yo'l elementlarini va belgilarni tanib olishi, mohiyatini anglashi, tushunishi uchun elementlarning soni va diqqatini jamlashiga sarflangan vaqt bir biriga mos bo'lishi kerak. Masalan, "cheklangan tezlik" belgisini tanib olish uchun, belgining foni aniq ko'rinadigan vaqtda taxminan 0,1 s, yomon kontrast bilan - 0,5 s, kechqurun esa - 0,7-0,8 s vaqt talab qilinadi. Yo'l belgilarini o'tkazib yuborish yoki ularni noto'g'ri idrok etish, haydovchi tomonidan noto'g'ri qarorlar qabul qilishini yoki xatoga yo'l qo'yilishi ehtimoli borligi tajribalarda aniqlangan.

Misol qilib Rossiya Federatsiyasining transport xavfsizligi kontseptsiyasi olaylik. U quyidagilarni o'z ichiga oladi. Transport infratuzilmasi sohasidagi milliy xavfsizlik ta'riflari, harakat xavfsizligi manfaatlariga tahdid soluvchi sabablarni tadqiq etish va aniqlash. Yo'l muhitiga salbiy omillar ta'sirini bartaraf etishga qaratilgan tizimni yaratish. Xalqaro standartlarga muvofiq Rossiyada transport xavfsizligi darajasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish.

Rossiyaning transport xavfsizligi tizimi mamlakat milliy xavfsizlik tizimining bir qismidir. Uning tashkiliy asosining asosiy elementlari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Rossiya Federatsiyasining transport xavfsizligini ta'minlashda ishtirok etadigan prezidentdan tortib fuqaroga qadar bo'lgan butun hokimiyat vertikalidir.

Davlatning fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini saqlashga qaratilgan barcha sa'y-harakatlariga qaramay, Rossiya yo'llarida o'limlar soni kamaymoqda, ammo Yevropa mamlakatlari bilan taqqoslaganda bu yuqori darajada qolmoqda. Rossiyadagi baxtsiz hodisalar darajasiga ko'ra, 100 ming aholiga to'g'ri keladigan o'limlar soni Buyuk Britaniya va Shvetsiyaga qaraganda uch baravar, Germaniya, Daniya va Kanadaga qaraganda ikki baravar yuqori. Yo'l-transport hodisalari oqibatlarining og'irligi Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSh kabi mamlakatlar bilan solishtirganda yo'l-transport hodisalarining asosiy ko'rsatkichlaridan 5-6 baravar yuqori. Ko'rinib turibdiki, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasida mamlakat

demografik salohiyatiga putur yetkazuvchi buzg'unchi jarayonlarni to'xtatish imkonini beruvchi kompleks chora-tadbirlar zarur[2.35].

Hozirgi vaqtda Rossiyada avtomobillar soni tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, transport hajmi oshdi, transport oqimlarining intensivligi, odamlarning harakatchanligi ortib bormoqda, hududlarning transportdan foydalanish imkoniyati kontseptsiyasi o'zgarib bormoqda. Shunga ko'ra, bu avtohalokat holatiga ta'sir ko'rsatadigan haydovchilar va tashuvchilar sonining ko'payishiga olib keladi. Oxirgi 10 yilda yo'l-transport hodisalarida 300,98 ming kishi halok bo'lgan, 2 millionga yaqin kishi jarohatlangan. Yo'l-transport hodisalarida halok bo'lganlarning to'rtidan bir qismi 26 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan faol mehnat yoshidagi odamlardir.

Texnogen avariya va ayniqsa og'ir oqibatlariga olib keladigan baxtsiz hodisalarning sabablarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati inson omili tufayli sodir bo'ladi.

Yo'l harakati xavfsizligi bilan bog'liq davom etayotgan murakkab vaziyatning sabablari aholining doimiy ravishda o'sib borayotgan harakatchanligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari avtoturargohlar soni va yo'l tarmog'ining uzunligi, ular o'rtasidagi nomutanosiblikning kuchayishi ham sabab bo'ladi. Chunki bu sharoit transport oqimlarining hozirgi intensivligi uchun mo'ljallanmagan. Natijada, yo'l harakati sharoitlarining yomonlashishi, tirbandlik, yoqilg'i sarfining oshishi, atrof-muhitning yomonlashishi va baxtsiz hodisalar sonining ko'payishi yuzaga kelmoqda.

Aksariyat baxtsiz hodisalarning asosiy sabablarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yo'l harakati qatnashchilari yo'l harakati qoidalarini ataylab buzadilar. Bunga misol qilib aniq shartlarga mos kelmaydigan tezlikni oshirishni keltirish mumkin. Bu esa yo'l madaniyatining nihoyatda pastligi va yo'l harakati qatnashchilarining mas'uliyatsizligidan dalolat beradi.

Rossiya Federatsiyasi ekspertlarning fikriga ko'ra, ushbu mamlakatda motorizatsiya o'sishi davom etadi. Shuning uchun bugungi kunda shahar, mintaqaviy, federal darajadagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, yo'l harakati xavfsizligini oshirishdan iborat bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmada yo'l-transport hodisalaridan yetkaziladigan zararni kamaytirish uchun yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash sohasidagi davlat tizimini doimiy ravishda rivojlantirish zarur. Yo'l harakati xavfsizligi muammolarini hal qilishda tegishli izchillikning yo'qligi butun yo'l harakati xavfsizligi jarayonining samaradorligini pasaytiradi. Mohiyatan eng muhim mezon xavfsizlik muammosi – inson va butun jamiyatni himoya qilishdir. Yo'l harakati xavfsizligining mohiyati ham shunda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mohinur, D., & Rahimjon, U. (2022). A Study Of Memory Processes And Their Development In Preschool. *Uzbek Scholar Journal*, 5, 62-65.

2. Климова Г.Н., Повышение работоспособности водителей автобусов в условиях города [Текст] / Г.Н. Климова, Э.Н. Бусарин, А.В. Старкова // Научно-электронный журнал «Концепт» том № 35 стр. 71-75 Сб.

3. Rahim, U. (2021, May). SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).

4. Usmonov, R. (2022). O'SMIRLAR XULQIDA NAMOIYISHKORLIK G'AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(B8), 127-135.

5. Usmonov, R. (2022). O'SMIRLIK DAVRI SHAXSIGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR. *Science and innovation*, 1(B8), 120-126.

6. Raxmonovich, U. R. (2022). O'SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYISHKORLIK, G'AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 87-97.

7. Raxmonovich, U. R. (2022). O'SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYISHKORLIK, G'AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 87-97.

8. Rakhmonovich, U. R. (2022). CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATIVENESS, ENTHUSIASM AND AGGRESSIVENESS IN ADOLESCENCE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 820-824.

9. Rakhmanovich, R. U., & Rakhmanovna, U. F. (2023). EASTERN THINKERS' VIEWS ON NATIONAL FOLK GAMES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(3).

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT KURSINI METODOLOGIK AHAMIYATI VA TUTGAN O'RNI

Muxidinov Abdubannob Akbaraliyevich

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Jismoniy tarbiya darslarining nazariy qismida o'tiladigan valeologiya fanining insonning sog'lom turmush tarzini kechirishda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarning o'rnini ochib beruvchi maqola hisoblanadi. Ulardagi nazariy masalalarning ketma-ketligida ochib berilgan. Shuningdek, TIQXMMI talabalari bilan jismoniy tarbiya va sport darslarida o'tiladigan amaliy mashg'ulotlardagi sport turlari bo'yicha o'tiladigan texnik-taktik, jismoniy va ruhiy tayyorgarlikning mashg'ulotlardagi barcha talablari tahlil qilib berilgan. Maqolada O'zbekiston Respublikasidagi barcha oliy talim muassalarining talim beruvchi o'qituvchilariga, sport turlarining murabbiylariga va talabalariga, jamoa marabbiylari va sportchilari foydalanishi uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Jismoniy tarbiya, sport, Jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish, jamoa murabbiyligi, xalqaro hamkorligi, tayyorgarlik, tajriba.

Ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanish odam organizmini har tomonlama jismonan rivojlanishi va mustahkamlanishi, fiziologik funksiyalarning takomillashtirishi va sog'lomlashtirishga olib keladi. Yurtimizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Turli sohalarida yo'lga qo'yilayotgan xalqaro hamkorlik garchi o'z samarasini berayotgan bo'lsa-da, biroq, milliy mustaqillikni har jihatdan mustahkamlash, erishilgan yutuqlarni boyitish, mavjud kamchiliklarni tezkor bartaraf etish jamiyat a'zolaridan alohida fidokorlik, jonbozlik, shijoat va qat'iyat ko'rsatishni talab etmoqda.

O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sport ning asosiy yunalishlari belgilab berilgan edi. Qarorda har bir tumanda qishloq sport – sog'lomlashtirish klublari tashkil etish, ularning faoliyatiga sportning ommoviy, milliy turlarini va xalq o'yinlarini keng joriy qilish;

- aholining barcha qatlamlarini jismoniy tarbiya – sog'lomlashtirish va ommoviy – sport ishlariga keng jalb etishga yo'naltirilgan muntazam ommoviy – sport musobaqalarini tashkil qilish va o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish;

-mamlakat hududidagi barcha mavjud sport inshoatlarning, ularning idoraviy mansubligidan qa'tiy-nazar, xatlovdan o'tkazish, shuningdek, mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda, ommoviy musabaqlarni muntazam o'tkazish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rish;

-aholining jismoniy tayyorgarligi va salomatligi darajasini belgilovchi maxsus testlarni ishlab chiqish va joriy qilish. Mazkur testlarni muvaffaqiyatli topshirganlar uchun uch darajali "Alpomish" va "Barchinoy" nishonlarini tasis etish;

-sport – sog'lomlashtirish klublari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni ishlab chiqish;
- sport – sog'lomlashtirish klublari, jamot tashkilotlari sifatida, o'z faoliyatlarida mutaxasislarning ulushli mablag'lari, a'zolik badallari, homiylik mablag'lari va qonunchilikka zid bulmagan boshqa manbalar hisobiga oshirish; -yangi tahrirdagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi" qonun loyihasini tayyorlash;

- respublika boksni rivojlantirish markazini tashkil qilish;
- umumxalq "Sport bayram"ni ta'sis etish;
-har yili ishlab chiqiladigan investetsiya dasturlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishga mablag'lar limitlarni ajratish;
-ommaviy axborot vositalarida jismoniy tarbiya va sportni, sog'lom murmur tarzini keng targ'ib qilishni, o'quv yurtlari va mehnatjamoalarining sport klublari, sport maktablari, mutaxassislar va murabbiylar faoliyatini muntazam yoritib borish va boshqa eng asosiy ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan edi.

Qarorga muvofiq ishlab chiqarilgan "O'zbekiston respublikasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish davlat dasturi Konsepsiyasida" da:

-dasturning asosiy vazifalari; -jismoniy tarbiya va sportni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish;

-jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish, ommaviy - sport ishlarini va sportning milliy turlarini rivojlantirish; -jismoniy tarbiya va sportni ilmiy-uslubiy va tibbiy ta'minlash;

-jismoniy tarbiya va sport tizimi imkoniyatlarini rivojlantirish;

-jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish;

-jismoniy tarbiya va sport sohasida mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, nodavlat sektorini rivojlantirish va boshqa eng muhim vazifalarni belgilash va amalga oshirish ko'rsatib o'tilgan edi.

Qisqa qilib aytganda qaror va uning ijrosiga ko'ra bugungi kunda: -yangi tahrirdagi Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi qonun qabul qilindi;

-Alpomish va Barchinoy salomatlik testlari joriy etildi;

-O'zbek kurashini jahon tan oldi; -Respublika "Talaba sport assosiasiyasi" tuzildi;

-“Umid nihollari”, “Barkamol avlod o'yinlari”va “Universiada” degan nomlarda umumta'lim maktab o'quvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchi-yoshlari va oliy ta'lim muassasalari talabalarining uch yilda, navbati bilan o'tkaziladigan uch bosqichli musobaqalar tizimi ishlab chiqildi;

-milliy olimpiada qo'mitasi ishlari rivojlantirildi, ko'plab milliy va xalqaro sport federatsiyalari tashkil etildi, O'zbekiston bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi tuzildi;

-O'zbekiston sporti jahon chempionatlari, olimpiada o'yinlari va boshqa nufuzli xalqaro musobaqalarda ishonchli, mustahkam o'rnlarga chiqib oldi, yuzlab sport klublari tuzildi va sportda menejment va marketing ishlariga asos solindi, jismoniy madaniyat va sport-sog'lomlashtirish ishlari davlat siyosati va ijtimoiy hayotning, xalq xo'jaligining eng muhim, ustuvor yo'nalishiga aylantirildi. Qarorning tarixiy ahamiyati shundaki, u jismoniy madaniyat va sportsog'lomlashtirish ishlarini xalqimizning boy o'tmishi va buyuk kelajagini tutashtiruvchi, ilmiy, nazariy va amaliy tizimini yanada takomillashtirdi.

Jamiyat taraqqiy etgan sari jismoniy madaniyat va sportning ijtimoiy ahamiyati yanada ortib boradi. Uning organizmni tiklovchi, o'z-o'zini dam oldiruvchi va boshqa noxush holatlardan chalg'ituvchi, noxush holatlarni bartaraf etuvchi, estetik zavq beruvchi, inson bioekologiyasini muhofaza etuvchi ahamiyati yanada ortadi va kishilar ongli ravishda jismoniy madaniyat vositalari bilan yanada ko'proq shug'ullanishga murojaat qiladilar va ular orqali o'z jismoniy madaniyatini takomillashtirib boradilar. Jismoniy madaniyatli kishi bo'lish ko'p jihatdan foydali bo'lib, jismoniy madaniyat vositalari: sayrlar, yurish, yugurish, sakrash, harakatli o'yinlar, sport o'yinlari-basketbol, voleybol, tennis, qo'l to'pi, futbol va boshqa mashqlar bilan faqat salomatlik maqsadida muntazam shug'ullanish kishi tanasini hamisha

baquvvat, yengil qilib, ruhining tetikligini ta'minlaydi. Jismoniy madaniyat sog'lom turmush tarzining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mukhidinov, A., & Tillaev, S. (2022). WAYS TO APPLY PHYSICAL EDUCATION IN THE FAMILY. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(3), 78-82.
2. Mukhidinov, A., & Tillaev, S. (2022). CLASSIFICATION OF SPORTS GAMES. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(3), 51-54.
3. Mukhidinov, A., & Tillaev, S. (2022). SPECIFIC CHARACTERISTICS OF SPORTS GAMES. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(3), 69-72.
4. Sanjar, U., & Abdubannob, M. (2022). NATIONAL SPORTS GAMES. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(10), 109-117.
5. Mukhidinov, A. (2023). PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE FIELD OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS. Research Focus, 2(2), 54-58.
6. Mukhidinov, A. (2023). THE IMPORTANCE OF PHYSICAL EXERCISES IN THE DEVELOPMENT OF MASS SPORTS AND THEIR CLASSIFICATION. Research Focus, 2(2), 37-40.
7. Muxidinov, A. (2023). JISMONIY TARBIYA SOHASI MUTAXASSISLARI KASB MAHORATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION JIHLTLARI. IJODKOR O'QITUVCHI, 3(30), 245-249.

KIBERJINOYATLARNI YOSHLAR TARBIYASIGA TA'SIRI

Shokirov Bobur Tohirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti yurisprudensiya yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kiberjinoyatlarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Internet va zamonaviy texnologiyalarning keng tarqalishi natijasida yoshlar kiberjinoyatlarga duch kelish xavfi ortib bormoqda. Kiberjinoyatlar, jumladan, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, moliyaviy firibgarlik, kiberhujumlar va kiberterrorizm, yoshlarning kelajakdagi hayoti va jamiyat xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada kiberjinoyatlarining yoshlar tarbiyasiga ta'siri, uning oldini olish choralari va huquqiy jihatlari muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: kiberjinoyat, yoshlar, raqamli xavfsizlik, internet, firibgarlik, kiberhujum, kiberxavfsizlik.

ВЛИЯНИЕ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ НА ОБРАЗОВАНИЕ МОЛОДЕЖИ

Аннотация В статье анализируется влияние киберпреступности на воспитание молодежи. В результате повсеместного использования Интернета и современных технологий молодые люди все чаще подвергаются риску киберпреступности. Киберпреступления, включая кражу личных данных, финансовое мошенничество, кибератаки и киберterrorизм, оказывают негативное влияние на будущую жизнь молодых людей и безопасность общества. В статье рассматривается влияние киберпреступности на воспитание молодежи, меры ее профилактики и правовые аспекты.

Ключевые слова: киберпреступность, молодежь, цифровая безопасность, интернет, мошенничество, кибератака, кибербезопасность.

IMPACT OF CYBERCRIME ON YOUTH EDUCATION

Annotation This article analyzes the impact of cybercrime on youth education. As a result of the widespread use of the Internet and modern technologies, young people are increasingly exposed to cybercrime. Cybercrime, including identity theft, financial fraud, cyberattacks and cyberterrorism, has a negative impact on the future lives of young people and the security of society. This article discusses the impact of cybercrime on youth education, its prevention measures and legal aspects.

Keywords: cybercrime, youth, digital security, internet, fraud, cyberattack, cybersecurity.

KIRISH

Hozirgi kunda yoshlarning aksariyati onlayn muhitga smartfon, planshet va boshqa zamonaviy qurilmalar orqali bog'langan hamda raqamli dunyoga to'liq moslashgan. Ushbu holat ularning turli tashqi ta'sirlarga, jumladan, kiberjinoyatlarga duchor bo'lish ehtimolini oshiradi. So'nggi yillarda yoshlar orasida kiberjinoyatlar, jumladan, shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi, moliyaviy firibgarlik va kiberhujumlar keng tarqalmoqda. Internet orqali turli jinoyatlarga aralashish holatlari ortib bormoqda. Yoshlarning kiberjinoyatlarga jalb etilishining asosiy sabablari sifatida texnologiyaga bo'lgan qiziqish, tajribasizlik va raqamli savodxonlikning yetishmasligi ko'rsatiladi. [1]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kiberjinoyatlar turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ular orasida moliyaviy firibgarlik, shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash, kiberterrorizm, noqonuniy dasturlar tarqatish, kiberpornografiya, DDoS hujumlari, fishing hujumlari va boshqa huquqbuzarliklar mavjud. Moliyaviy firibgarlik kiberjinoyatning eng keng tarqalgan turi bo'lib, bank kartalaridan noqonuniy foydalanish, onlayn savdo platformalaridagi firibgarlik va soxta veb-saytlar orqali amalga oshiriladi. Shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash jinoyatchilarga shantaj va firibgarlik maqsadlarida imkoniyat yaratadi. Shuningdek, DDoS hujumlari orqali kompaniya va tashkilotlarning internet resurslariga zarar yetkazish, fishing usuli bilan foydalanuvchilarning maxfiy ma'lumotlarini o'g'irlash kiberjinoyatlarning zamonaviy shakllari hisoblanadi. [2]

Metod sifatida maqolada huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar tahlili, statistik ma'lumotlarni o'rganish va taqqoslash usullari qo'llanildi. Olingan natijalar asosida kiberjinoyatlarga qarshi kurash choralari taklif etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Kiberjinoyat - bu kompyuter tarmoqlari, internet yoki boshqa texnologik vositalar yordamida sodir etiladigan huquqbuzarliklarning umumiy nomi. Ushbu jinoyat turlariga noqonuniy ma'lumot olish, shaxsiy yoki tijorat ma'lumotlarini o'g'irlash, moliyaviy firibgarlik va boshqa turli xil huquqbuzarliklar kiradi. Kiberjinoyatlar odatda moliyaviy foyda olish yoki ma'lumotlarni buzish, tarqatish, noqonuniy foydalanish maqsadida amalga oshiriladi [5].

Kiberjinoyatlar o'zining ko'lami va xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Quyida uning asosiy sohalari haqida to'xtalib o'tamiz: Moliyaviy firibgarlik bu kiberjinoyatning eng keng tarqalgan turi bo'lib, odatda bank kartalaridan noqonuniy foydalanish, onlayn savdo platformalaridagi firibgarliklar yoki soxta veb-saytlar yaratish orqali amalga oshiriladi.

Bunday jinoyatlar nafaqat jismoniy shaxslarga, balki bank va moliyaviy tashkilotlarga ham katta zarar yetkazadi. Shaxsiy ma'lumotlarni o'g'irlash deganda kiberjinoyatchilar odamlarning shaxsiy ma'lumotlarini noqonuniy yo'l bilan qo'lga kiritib, ularni shantaj qilish, firibgarlik yoki boshqa noqonuniy maqsadlarda ishlatishi mumkin. Bu turdagi jinoyatlar identifikatsiya o'g'irligi deb ham ataladi. Kiberjinoyatlarning yana bir jiddiy sohasi bu kiberterrorizmdir. Bunda jinoyatchilar davlat tizimlariga yoki strategik ob'ektlarga hujum qilib, ularni izdan chiqarish va xavfsizlikka tahdid solish maqsadini ko'zlaydi. Bu turdagi jinoyatlar nafaqat davlatga, balki xalqaro hamjamiyatga ham xavf tug'diradi. Noqonuniy dasturlar tarqatish esa kiberjinoyatchilar odatda zararli dasturlar (viruslar, troyanlar, spyware) orqali foydalanuvchilarning shaxsiy

kompyuterlari yoki korporativ tizimlariga kirib, ma'lumotlarni yo'q qilish yoki o'g'irlashga urinishadi.

Kiberpornografiya va shunga o'xshash noqonuniy turdagi kontentlar tarqatish yoki ulashish jinoyatlarda jinoyatchilar internet orqali noqonuniy kontent, jumladan bolalar pornografiyasini tarqatadilar. Bu esa butun dunyo miqyosida keskin tanqid va qarshilikka duch kelmoqda. Shu kabi kiberjinoyatlar hozirgi raqamli davrda juda ham ko'plab odamlarning mulkiga va ayniqsa fuqorolarning Konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga zarar yetkazish bilan yakunlanyapti. Bundan tashqari, shu kabi jinoyat turlari agar shu asnoda ortib borishsa davlatning ham moliyaviy farovonligiga rahna solishi muqarrardir, chunki kiberhujumga uchragan fuqorolar aksariyat o'z mablag'larini yo'qotishadi keyin esa ular ehtimol soliq va boshqa davlat tomonidan qat'iy belgilangan to'lovlarni o'z vaqtida amalga oshira olmasligi mumkin. Qo'shimchasiga, mamlakatda o'rnatilgan fuqorolik jamiyati ravnaq topa olmasligi shubhadan holi emas. Malumki, butun dunyo raqamlashtirish jarayonida islohotlar qilayotgan paytda O'zbekiston Respublikasi ham yuqori islohotlar olib bormoqda ulardan "O'zbekiston Respublikasining 2030 strategiyasida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi muhim o'rin tutadi [4].

Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadbirlar orasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini rivojlantirish, shuningdek, ITparklarni tashkil etish kabi loyihalar mavjud." [4] Shu kabi loyihalar ilgari surildi va bu mamlakat yosh avlodini kiberjinoyatga bo'lgan tushunchasini o'zgartirish ko'zda tutilgan. Ammo kiberjinoyatda shu kungacha bir qancha noqonuniy ishlar sodir bo'lgan shuning uchun biz quyidagi ma'lumotlarga to'xtalib o'tamiz.

Tahminlarga ko'ra, 2024-yilda kiberjinoyatchilikning global qiymati 9,5 trillion dollarga yetadi. Bu raqamni anglash uchun oddiy bir faktga e'tibor berish kerak: kiberjinoyatchilik ko'plab mamlakatlarning yalpi ichki mahsulotidan (YaIM) oshib ketadi. Hatto dunyoning eng yirik iqtisodiyotlari ham kiberjinoyatlardan keltirilgan zararni jilovlashda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bundan ham achinarlisi, 2025-yilga kelib, bu zarar har yili 10,5 trillion dollarga yetishi kutilmoqda [1]. Tasavvur qiling, bu raqam yildan-yilga o'sishda davom etayotgan, kiberjinoyatchilikni o'ziga xos "soya iqtisodiyoti"ga aylantiradi.

Bundan tashqari, ransomware ya'ni to'lov dasturlari orqali amalga oshiriladigan hujumlar, bugungi kunda eng xavfli kiberjinoyatlardan biri hisoblanadi. 2024-yilda ransomware tashkilotlarga 42 milliard dollarlik zarar yetkazishi ma'lumotlar qayd etilyapti. Ekspertlar 2031-yilga borib, ransomware tahdidlarining umumiy qiymati 265 milliard dollarga yetishini prognoz qilmoqda [2]. Yanada dahshatli statistikani keltirsak: o'sha yilga kelib, har ikki soniyada bitta ransomware hujumi sodir bo'ladi. Bu raqamlar oddiy statistik ko'rsatkichlar emas, ular muayyan tashkilotlarning hayotiga, obro'siga va moliyaviy barqarorligiga to'g'ridan-to'g'ri tahdid qilishini anglatadi. Bugungi kunda ransomware o'zining chastotasi va murakkabligi bilan ajralib turadi, shu sababli har bir tashkilot o'z himoya choralarini qayta ko'rib chiqishi lozim.

Ma'lumotlar buzilishi ham kiberjinoyatchilikning yana bir jiddiy oqibatidir. 2023-yilda dunyo bo'ylab ma'lumotlar buzilishidan o'rtacha global zarar 4,45 million dollarni tashkil etdi. Bu uch yil ichida 15% o'sish degani. Albatta, bu oddiy ko'rsatkich emas; bunday hujumlar faqat kompaniyalarga moliyaviy zarar yetkazib qolmay, mijozlar ishonchini ham yemiradi. Sog'liqni saqlash, hukumat va infratuzilma kabi sohalar ayniqsa yuqori xavf ostida [1]. Bu sohalar nafaqat qimmatli ma'lumotlarga ega, balki ularning buzilishi ijtimoiy ahvolga ham katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, sog'liqni saqlash tizimidagi hujumlar bemorlarning hayotini xavf ostiga qo'yadi yoki davlat infratuzilmasiga zarar yetkazish butun mamlakatni falaj qilishi mumkin. Kiberjinoyatchilik oddiy texnologik muammo emas, balki butun dunyo uchun dolzarb tahdidga aylanib bormoqda. Uning hajmi, murakkabligi oshib borayotgani faqat kompaniyalar emas, davlatlarni ham bu masalani jiddiy ko'rib chiqishga undaydi. Innovatsiyalar rivojlanayotgan bir vaqtda kiberxavfsizlik masalalarini chetlab o'tib bo'lmaydi. Shunday ekan,

kiberjinoyatchilarning oldini olish uchun kuchli tizimlar, puxta strategiyalar va global hamkorlik zarur. Aks holda, tahdidlar yanada kuchayib, yoshlar uchun yomon oqibatlarga olib kelishi aniq

XULOSA

Kiberjinoyatchilik butun dunyo bo'ylab dolzarb muammo hisoblanadi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda kiberjinoyatchilikning global qiymati 9,5 trillion AQSh dollariga yetgan. 2025-yilga borib, bu zarar yillik 10,5 trillion AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. [2] Yoshlarni kiberjinoyatlardan himoya qilish uchun huquqiy ta'limni kuchaytirish, raqamli xavfsizlik bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish, IT-mutaxassislarini tayyorlash va kiberxavfsizlik bo'yicha milliy strategiyalarni rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, ota-onalar va o'qituvchilar uchun kiberxavfsizlik bo'yicha maxsus seminarlar tashkil etish, yoshlarni ongli internet foydalanishga o'rgatish ham muhim hisoblanadi. Shu orqali kiberjinoyatlarning oldini olish va yoshlar orasida raqamli madaniyatni rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari, davlat organlari va xalqaro tashkilotlar hamkorligida maxsus kiberxavfsizlik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Global Kiberjinoyatchilik Statistikalari. 2024-yilgi tahlil - <https://cyberstats2024.com>
2. Kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro tadqiqotlar markazi. 2024-yilgi hisobot - <https://cybersecurity-research.org/2024-report>
3. O'zbekiston Respublikasi 2030 strategiyasi. Toshkent, 2023 - <https://strategy.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida, 11.09.2023 yildagi PF-158-son - <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
5. O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida" Qonuni 15.04.2022 yildagi O'RQ-764-son - <https://lex.uz/docs/-5960604>

JISMONIY TARBIYA JARAYONIDA O'QUVCHILARNI SALOMATLIKA BO'LGAN MUNOSABATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI.

A'loxonov Axatxon Axrorxon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Aniq va tabiiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarda salomatlikka ongli munosabatni shakllantirish texnologiyalari o'rganilgan. Sog'lom turmush tarzini rivojlantirish va ta'limda innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot davomida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining o'quvchilar sog'lig'i va ijtimoiy faolligiga ta'siri tahlil qilingan, amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: jismoniy tarbiya, salomatlik, sog'lom turmush tarzi, innovatsion texnologiyalar, ta'lim jarayoni, o'quvchilar, motivatsiya, individual yondashuv

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri – o'quvchilarda salomatlikni qadrlash va sog'lom turmush tarziga ongli munosabatni shakllantirishdir. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlari bu maqsadga erishishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Salomatlikni mustahkamlash, jismoniy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash va motivatsiyani oshirish uchun zamonaviy va innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya jarayonida salomatlikni tarbiyalashga qaratilgan samarali yondashuvlar va texnologiyalar tahlil qilinadi.

METOD

Tadqiqotda eksperimental va kuzatuv metodlari qo'llanildi. Bir guruh o'rta maktab o'quvchilari ustida tajriba olib borildi. Tajriba guruhida jismoniy tarbiya darslariga sog'lom

turmush tarzi elementlari (harakatli o'yinlar, motivatsion treninglar, sog'lom hayot targ'iboti) muntazam kiritildi. Nazorat guruhi esa an'anaviy usulda mashg'ulotlar olib bordi. Tadqiqot davomida o'quvchilarning salomatlik darajasi, jismoniy tayyorgarligi va sog'lom hayot tarziga munosabati o'rganildi. Baholash uchun sog'liq ko'rsatkichlari, so'rovnomalar va jismoniy tayyorgarlik testlaridan foydalanildi.

NATIJARLAR

Eksperimental guruh natijalari shuni ko'rsatdiki, darslarda innovatsion yondashuvlar qo'llanilganda o'quvchilarning jismoniy faolligi oshdi, sog'lom turmush tarziga qiziqish kuchaydi. So'rovnomalar natijalariga ko'ra, eksperimental guruh o'quvchilarining 87 foizi muntazam jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish zarurligini anglab yetdi va bu odatni hayotlariga joriy eta boshladi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich 62 foizni tashkil etdi. Jismoniy tayyorgarlik testlari eksperimental guruh o'quvchilarining koordinatsiya, chidamlilik va umumiy jismoniy holati nazorat guruhiga nisbatan yaxshilanganini ko'rsatdi.

MUNOZARA

Olingan natijalar jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan texnologiyalarni tatbiq etish o'quvchilar salomatligini mustahkamlashda samarali vosita ekanini ko'rsatdi. O'quvchilarning sog'lom hayotga ongli munosabatini rivojlantirish uchun darslarda interaktiv metodlardan, guruhiy o'yinlardan va motivatsion treninglardan faol foydalanish zarurligi ayon bo'ldi. Shu bilan birga, har bir o'quvchining individual salomatlik xususiyatlarini inobatga olib, mos yondashuvni ishlab chiqish natijadorlikni yanada oshiradi.

XULOSA

Аслида, ушбу тадқиқот намунаси обгон манёврини амалга оширган махсус ҳайдовчилар гуруҳидан иборат бўлиб, барча ҳайдовчиларни қамраб олмайди. Тадқиқот намунаси ва унда қўлланилган намуналаш усули ушбу ишнинг янгилигини ташкил қилади. Шунинг таъкидлаш лозимки, турли ҳайдаш манёврларида ҳайдовчилар хулқ-атворини ўрганиш хавфли манёврларни аниқлаш ва уларни яхшироқ назорат қилишга ёрдам беради.

²⁴ Bella, F. (2011) "How traffic conditions affect driver behavior in passing maneuver", Adv Transp Stud, pp. 113-126

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Климова Г.Н., Повышение работоспособности водителей автобусов в условиях города [Текст] / Г.Н. Климова, Э.Н. Бусарин, А.В. Старкова // Научно-электронный журнал «Концепт» том № 35 стр. 71-75 Сб.
2. Rahim, U. (2021, May). SOCIAL FACTORS OF THE INTERDEPENDENCE OF MENTAL AND PHYSICAL ACTIVITY. In *Archive of Conferences* (Vol. 25, No. 1, pp. 6-7).
3. Usmonov, R. (2022). O'SMIRLAR XULQIDA NAMOIYSHKORLIK G'AYRATLILIK XUSUSIYATLARI TADQIQ ETISH METODOLOGIYASI. *Science and innovation*, 1(B8), 127-135.
4. Usmonov, R. (2022). O'SMIRLIK DAVRI SHAXSIGA XOS ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLAR. *Science and innovation*, 1(B8), 120-126.
5. Raxmonovich, U. R. (2022). O'SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYSHKORLIK, G'AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 87-97.
6. Raxmonovich, U. R. (2022). O'SMIRLIK DAVRIDA NAMOIYSHKORLIK, G'AYRATLILIK TAJOVUZKORLIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON BO'LISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 87-97.
7. Rakhmonovich, U. R. (2022). CHARACTERISTICS OF DEMONSTRATIVENESS, ENTHUSIASM AND AGGRESSIVENESS IN ADOLESCENCE. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 820-824.
8. Rakhmanovich, R. U., & Rakhmanovna, U. F. (2023). EASTERN THINKERS' VIEWS ON NATIONAL FOLK GAMES AND THEIR INFLUENCE ON THE FORMATION OF A CHILD'S PERSONALITY. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(3).
9. Lawton, R., Parker, D., Manstead, A.S.R. and Stradling, S.G. (1997) The Role of Affect in Predicting Social Behaviors: The Case of Road Traffic Violations. *Journal of Applied Social Psychology*, 27, 1258-1276. <https://doi.org/10.1111/j.1559-1816.1997.tb01805.x>
10. Reason, J., Manstead, A., Stradling, S., Baxter, J. and Campbell, K. (1990) Errors and Violations on the Roads: A Real Distinction? *Ergonomics*, 33, 1315-1332. <https://doi.org/10.1080/00140139008925335>
11. Aristides Isidoro Ferreira, Luis F. Martinez, M. Adelina Guisande "Risky behavior, personality traits and road accidents among university students Comportamiento de riesgo, rasgos de personalidad y accidentes de carretera en estudiantes universitarios" *European Journal of Psychology of Education* DOI:10.30552/ejep.v2i2.23. License CC BY-NC-ND 4.0 July 2009
12. M. Eugenia Gras, Sílvia Font-Mayolas, Montserrat Planes Pedra, Mark J M Sullman "The impact of the penalty point system on the behaviour of young drivers and passengers in Spain" *Safety Science* 70:270–275 DOI:10.1016/j.ssci.2014.06.014 December 2014
13. Rebecca Lawton, Dianne Parker, Antony S R Manstead, Stephen Stradling The Role of Affect in Predicting Social Behaviors: The Case of Road Traffic Violations *Journal of Applied Social Psychology* 27(14):1258 – 1276 DOI:10.1111/j.1559-1816.1997.tb01805.x July 2006
14. Afshin Shariat Mohaymany, Ali Tavakoli Kashani, Andishe Ranjbari "Identifying driver characteristics influencing overtaking crashes" *Affiliations* expand:411-6. doi: 10.1080/15389588.2010.485283 2010 Aug;11(4)
15. Parvaneh Tavakoli, Pauline Foster "Task Design and Second Language Performance: The Effect of Narrative Type on Learner Output" <https://doi.org/10.1111/j.1467-9922.2011.00642.x> 20 May 2011

TA'LIM SAMARADORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qurbonova Saida Miralimjanovna,

Farg'ona davlat universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

Ahmedova Sayyoraxon Abdumutalovna,

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda ta'limdagi innovatsion texnologiyalar, ta'limni tartibga solish, uni to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish imkonini beradi. Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar natijasi o'laroq zamonaviy ta'limda bo'layotgan ijobiy o'zgarishlar hamda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni tadbiiq qilinishi haqida keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, zamonaviy ta'lim, innovatsion texnologiyalar, pedagogik mahorat, modernizatsiya, intellektual, individuallik, interaktiv metodlar.

Keyingi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga hamda xalqaro standartlar talablariga mos keladigan oliy ta'lim tizimini yaratish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalari o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari-interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib,

- O'quvchi-talabalarning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod qilish va izlanishga majbur etishi;

- O'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda - o'quvchi-talabalarning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- Pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi. Pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. "Innovatsiya" so'zi, ingliz tilidan olingan bo'lib, "innovation" kiritilgan yangilik, ixtiro degan ma'noni anglatadi. Ushbu so'z ishlab chiqarish sohasida paydo bo'lgan bo'lib, dastavval bu tushuncha texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun sarflangan iqtisodiy mablag'lar, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalaridagi yangiliklar, ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangan texnika, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanilishi kabi tushunchalar bilan izohlangan.

Hozirgi zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalarning rivojlanib borishi, ta'limning yangi metodlaridan keng foydalanish, moddiy-texnika bazasini modernizatsiya qilish,

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan ta'lim jarayonida samarali foydalanish, masofaviy ta'limni joriy etish, ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlikning hamda ta'lim sifatini boshqarishga xalqaro standartlar talablarini joriy etish tizimni rivojlantirishning kelajak avlod uchun foydali yo'nalishlari hisoblanadi. Ta'lim tizimini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etish o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishini sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning

innovatsion shakllari mamlakatimizda ta'limning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish va bu jarayonga tegishli o'zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda. Zamonaviy ta'lim mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini yaratishi bizga avvaldan ma'lum. Ta'lim ma'lum qobiliyatlarning rivojlanish darajasini belgilaydi va hatto mutaxassisning individualligi yoki shaxsiy xususiyatlarini to'g'rilaydi va shakllantiradi va albatta psixologik tomondan yondashib, baho berishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish hisoblanadi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanishda o'qituvchiga quyidagi bilimlarni bilish taqozo etiladi:

- AKT boyicha bilim, ko'nlikma va malakaga ega bo'lish;
- YaPT (yangi pedagogik texnologiya) boyicha xorijiy tajribalarda bohabar bo'lish;
- Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik o'yinlardan, interfaol usullardan foydalanish mahorati;

- Ilg'or pedagogik texnologiya bo'yicha bilimlarni o'zlashtirib bo'rish;
- Bilimlarni ko'nlikma va malakalarga aylantirish texnologiyasi shakllangan bo'lishi;
- Dars jarayonida harakatli o'yinlardan unumli foydalana bilishi;
- Imkoni bolsa darsni internet tarmog'iga bog'lab o'ta bilishi;
- O'z ustida tinmay ishlashi xar sohaga oid yangiliklarni kuzatib borishi va boshqalar.
- Psixologik bilimlarga qisman ravishda ega bo'lishi.

Ta'limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgani kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'zgarib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta'lim bilish qobiliyatlari, his-tuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir.

Shuningdek ta'lim sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar orasidagi sog'lom muhitni yarata olish dolzarb muammolarimizdan biri bo'lib hisoblanadi.

Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish — jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, munosabatlarni tarkib toptirish, jamiyatning yangi tarbiyalashga yordam beradi.

Ta'lim - bolaning bilish qobiliyatini o'stiruvchi asosiy omildir. Bolalar qobiliyatini o'stirishga qaratilgan tizimlar muayyan ta'limiy qoidalar tarzida namoyon bo'ladi. Ta'limiy tamoyillarda ta'limning mazmuni va jarayonlariga qo'yilgan talablar belgilanadi. Ta'limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum, shuningdek, muayyan o'quv tashkilotlarining xususiyatiga muvofiq tarixan o'zgarib boradi.

Xulosa o'rnida aytib o'tish mumkinki mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tasarrufida oliy ta'lim muassasalari mavjud vazirlik va idoralarning ommaviy axborot vositalarida chiqishlarni tashkil etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Yurtimizda innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish yuzasidan aniq choralar ko'rish ustuvor yo'nalishlarimizdan biri bo'lib hisoblanadi. Bu borada qabul qilingan

qonun va farmonlarni amalda tadbqiq etish yoshlarimiz istiqboli uchun muhim poydevor hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassalarida ta'lim sifatini oshirish, mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori.
2. G'oziyev. E.G'. Umumiy psixologiya. –T: ToshDU, 2010
3. Olimov Sh.Sh., Shamiyeva Sh.X., Aslanova N.X. Ro'ziyev F.J. "Innovatsion ta'lim texnologiyalari va metodlari"
4. Safarova R.G. va boshq.. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida modulli o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish mexanizmlari. Toshkent. "Tafakkur qanoti", 2017, b-3
5. Djamilova N.N. va Xasanboeva O. Pedagogika fanini o'qitish metodikasi.T.: "O'zbekiston". 2008 y. Metodik qo'llanma
6. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
7. Sayidahmedov N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya.- Toshkent: Oliy pedagogika instituti, 2003.

METHODOLOGY FOR IMPROVING SPEED AND AGILITY IN SCHOOLCHILDREN AGED 11–15

Qodirov Shohbozjon Gayratjon ugli,

*Lecturer at the Correspondence Department, Faculty of Natural and Exact Sciences,
Fergana State University*

Annotation: The adolescent years between 11 and 15 are critical for the development of fundamental motor skills such as speed and agility. This paper presents a comprehensive methodology aimed at improving these physical attributes through systematic, age-appropriate training programs. The proposed methods integrate scientific principles of physical development, targeted exercises, and pedagogical strategies within school physical education curricula. Results from a 12-week intervention demonstrate significant gains in sprint performance and agility tests, supporting the effectiveness of the proposed approach.

Keywords: speed training, agility development, adolescence, motor skills, physical education, neuromuscular training

Introduction: the enhancement of physical fitness in children is not only vital for athletic performance but also for overall health and cognitive development. In particular, speed and agility play crucial roles in a child's ability to respond quickly to external stimuli and to move efficiently during physical activity. These skills are foundational in most sports and daily physical tasks.

During the 11–15 age range, children experience rapid physical growth, motor learning, and neurological adaptation. This period is therefore ideal for targeted interventions that develop speed and agility. The aim of this paper is to design and evaluate a training methodology suitable for implementation in school settings that focuses on improving these qualities through structured and progressive exercises.

Importance of Speed and Agility in Youth Development

Speed and agility are not isolated skills but are interrelated with strength, coordination, balance, and reaction time. Their development contributes to:

- **Improved athletic performance:** Enhances competence in sports like soccer, basketball, athletics, and handball.

- **Injury prevention:** Better control over body movements reduces risk of falls and musculoskeletal injuries.

- **Neuromuscular coordination:** Repeated fast and agile movements improve communication between the brain and muscles.

- **Psychosocial benefits:** Success in physical tasks boosts confidence, encourages participation, and supports mental well-being.

Neglecting these attributes during this critical growth stage can lead to developmental delays and lower overall fitness levels.

Methodology

Participants

The training program was designed for a sample group of 60 schoolchildren (30 boys and 30 girls) aged 11–15 from three different schools. All participants were medically cleared and had no history of musculoskeletal injuries.

Training Principles

1. **Progressive Overload** – Training begins with basic drills and gradually increases in intensity and complexity to stimulate adaptation.

2. **Specificity** – All exercises directly target components of speed (acceleration, stride frequency) and agility (directional change, balance).

3. **Consistency** – The program runs over 12 weeks, with 3 sessions per week lasting 45–60 minutes.

4. **Individualization** – Training load and intensity are adjusted based on each child's progress and development.

5. **Fun and Motivation** – Games and challenges are integrated to maintain high engagement.

Weekly Training Structure

- **Warm-up (10–12 minutes):** Dynamic stretches, jogging, and joint mobility drills

- **Core Training (30–35 minutes):**

- **Speed Drills:**

- Flying sprints (10–20 m acceleration zones)

- Sled/resistance band sprints

- Reaction sprints (responding to light/sound signals)

- **Agility Drills:**

- T-test, Pro-Agility (5-10-5), and Illinois Agility Tests

- Cone zig-zag sprints

- Mirror drills (partner-based changes of direction)

- **Coordination Exercises:**

- Jump rope variations

- Ladder drills with rhythm changes

- Medicine ball toss and catch on balance platforms

- **Cool-down (5–10 minutes):** Static stretching and breathing exercises

Monitoring and Evaluation Tools

- **Speed Assessment:** 30m and 10m sprint timing using photo sensors

- **Agility Assessment:** Shuttle run and Illinois agility test

- **Other Metrics:** Heart rate recovery, perceived exertion, and movement efficiency scored weekly

Results

The intervention lasted for 12 weeks. Data analysis was conducted using paired t-tests to evaluate changes in pre- and post-training results.

- **Speed Improvement:**

- Average 30m sprint time reduced from 5.2s to 4.6s (11.5% improvement)

- 10m sprint improved by 8.2%

- **Agility Enhancement:**

- Illinois agility test scores improved by 14% on average
- Shuttle run scores improved by 16.7%

- **Additional Observations:**

- Improved confidence and enthusiasm in PE classes
- Better team cooperation and reaction control

Discussion

These results confirm the effectiveness of early intervention using a scientific and age-specific approach to developing physical fitness. Not only did the students gain in measurable performance, but they also showed visible improvements in posture, balance, and readiness to engage in other sports.

The neuromuscular adaptations observed may be due to the high frequency of directional changes, reaction exercises, and the progressive nature of load management. Additionally, involving students in game-based learning created a positive environment for sustained motivation.

Challenges included individual differences in maturation rates and initial fitness levels. Therefore, regular assessment and flexible programming were key components of the methodology.

Conclusion

The study demonstrates that a structured and diversified training program, applied consistently over 12 weeks, can significantly enhance speed and agility in schoolchildren aged 11–15. Incorporating scientifically-backed training principles with engaging, sport-like activities helps maximize results while maintaining student motivation.

It is recommended that schools integrate such programs into physical education curricula to support holistic development during adolescence.

References

1. Baechle, T. R., & Earle, R. W. (2008). *Essentials of Strength Training and Conditioning* (3rd ed.). Human Kinetics.
2. Lloyd, R. S., & Oliver, J. L. (2012). The Youth Physical Development Model: A New Approach to Long-Term Athletic Development. *Strength and Conditioning Journal*, 34(3), 61–72.
3. Faigenbaum, A. D., & Myer, G. D. (2010). Resistance training among young athletes: safety, efficacy and injury prevention effects. *British Journal of Sports Medicine*, 44(1), 56–63.
4. Bompa, T. O., & Carrera, M. C. (2015). *Periodization Training for Sports* (3rd ed.). Human Kinetics.
5. Gallahue, D. L., & Ozmun, J. C. (2006). *Understanding Motor Development: Infants, Children, Adolescents, Adults* (6th ed.). McGraw-Hill Education.
6. Sheppard, J. M., & Young, W. B. (2006). Agility literature review: Classifications, training and testing. *Journal of Sports Sciences*, 24(9), 919–932.
7. Moran, J., Sandercock, G. R., Ramirez-Campillo, R., Meylan, C., Collison, J., & Parry, D. A. (2017). Age-related variation in male youth athletes' countermovement jump after plyometric training: A meta-analysis of controlled trials. *Journal of Strength and Conditioning Research*, 31(2), 552–565.
8. Behm, D. G., Faigenbaum, A. D., Falk, B., & Klentrou, P. (2008). Canadian Society for Exercise Physiology position paper: Resistance training in children and adolescents. *Applied Physiology, Nutrition, and Metabolism*, 33(3), 547–561.
9. Myer, G. D., Faigenbaum, A. D., Edwards, N. M., Clark, J. F., Best, T. M., & Sallis, R. E. (2013). Sixty minutes of what? A developing brain perspective for activating children with an integrative exercise approach. *British Journal of Sports Medicine*, 49(23), 1510–1516.

10. International Youth Conditioning Association (IYCA). (2011). *Developing Speed and Agility in Youth Athletes*. IYCA Manual.

INSON SALOMATLIGINI SAQLASHDA JISMONIY HARAKAT VA TO'G'RI OVQATLANISHNING AHAMIYATI

Omonova Sevara Akramjonovna, Tuychiyeva Xilola Zokirjon qizi

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya: Hozirgi kunda kam harakatlik va ovqatlanishdagi o'zgarishlar tufayli insoniyatning million-million yillar davomida moslashib kelgan turmush tarzi o'zgarib bormoqda.

Jismoniy harakat va to'g'ri ovqatlanishning sog'liqning agarovi hisoblanadi. Kamharakatlilik va noto'g'ri ovqatlanish esa inson salomatligi o'zgarishida o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunday ekan doimo to'g'ri ovqatlanish tartibi va jismoniy faollikni birgalikda olib borish inson salomatligida ijtimoiy faolligini oshirishda ahamiyati juda katta.

Kalit so'zlar: gipodinamiya, davr kasalliklari, gipertoniya, insult, infarkt, qandli diabet, saraton, jismoniy faollik.

Gipodinamiyaning yuzaga kelishiga asosiy sabablar, texnika va mexanizmlarning har qanday jismoniy faoliyatni, xatti-harakatni yengillashtirishda tobora kengroq ko'lamda qo'llanilishi va kishini bevosita harakatlanishga majbur qiladigan sharoitning yo'qolib borishi (masalan, yovvoyi hayvonlarni ov uchun quvib tutish, urib yiqitish yoki ularning hujumidan qochib qutulish va boshqalar) tufayli sodir bo'lishidir. Odam qancha oz jismoniy harakat qilib o'zi ko'zlagan maqsadga erishishi inson uchun qulay va yoqimlidir.

Jismoniy faoliyatning kamayishi esa oziq-ovqatlar bilan tanaga qabul qilingan energiyaning sarflanishini cheklab qo'yadi. Ovqatlanishdagi xilma-xillik asosan XX asrlarda yuzaga keldi. Insoniyat fan va texnologik jarayonlarning muvaffaqiyatlari tufayli paydo bo'lgan va tez hazm bo'ladigan shirinliklar, hayvon yog'i va go'shti ishlatib tayyorlangan mazali taomlarni iste'mol qilishga o'tdi. Bir vaqtning o'zida bunday ovqatlar bilan qabul qilingan katta miqdordagi energiyaning ma'lum qismi kamharakatlilik tufayli sarflanmasdan qoladi.

Organizm va undagi barcha tizimlarning faoliyatida bu salbiy holat hisoblanib, moddalar va energiya almashinuvi izdan chiqadi. Natijada yurakning ishemik kasalligi, qon bosimining yuqori bo'lishi, qonda xolesterin miqdorining ko'payib ketishi, qandli diabet, ateroskleroz, o't va siydik yo'llarida tosh paydo bo'lishi, saraton kabi ancha xavfli davr xastalıkları paydo bo'lishi uchun keng yo'l ochiladi. Ehtiyojdan ko'p ovqatlanish dastlab iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlarda istiqomat qiluvchi o'ziga to'q kishilar orasida tarqalgan bo'lib, ko'p miqdordagi mazali taomlarni tanovul qilish obro' hisoblangan. Bunday ovqat bilan tanaga barcha zarur oqsillar, yog'lar, uglevodlar, vitaminlar hamda minerallar, ma'lum miqdordagi quvvat qabul qilinib kishining ularga bo'lgan ehtiyoji qonadi, ko'pgina yuqumli kasalliklar, avitaminozlar barham topadi, qolaversa, kishi o'zini yaxshi sezadi. Mazali taomlarga ishtaha ham yuqori bo'ladi va bu talab moddiy imkoniyat darajasiga qarab oshib boraveradi. Ayni paytda oziq moddalari va quvvatga boy mahsulotlar bilan doimiy ovqatlanish sog'lik uchun ancha xavfli ekanligi mutaxassislar tomonidan qayd qilina boshlandi, chunki yuqorida aytib o'tilgan «davrlar kasalliklari» bilan og'rish asosan mana shu aholi guruhi orasida ko'p uchraydi.

Ovqat umumiy quvvatining ko'pi bilan 35% yog' hisobidan qoplanishi me'yor hisoblanadi. Insoniyatning don va don mahsulotlari iste'mol qilishi yildan-yilga ko'payib bormoqda. Muhimi shundaki, rivojlangan mamlakatlarda aholi buncha donni to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilmasdan, uni mollarga yedirib semirtiradi va shundan keyin yog'ni, go'shtni yeydi. Bu holat tanaga to'yingan yog' kislotalarining ko'p miqdorda kirishini va yuqorida aytganimiz «davrlar kasalliklari» yuzaga kelishini tezlashtiradi. Uglevodlarni iste'mol qilish kishilik jamiyatining dastlabki davrlarida asosan kraxmal, kletchatka kabi dag'al polimerlardan iborat

bo'lgan, shirinliklar faqat meva-chevalardagi glyukoza, fruktoza shaklida qabul qilingan. Insoniyat shakarni ixtiro qilgandan beri uni iste'mol qilish yildan-yilga ko'payib, oziq-ovqatlardagi polimer ko'rinishdagi uglevodlar nihoyatda kamayib bormokda. Shakarni ko'p iste'mol qiladigan xalqlar orasida tish, yurak-qon tomirlari xastaliklari, qandli diabet, ichak raki hamda semizlik rivojlanayotgan davlatlarda yashaydiganlarga qaraganda ancha ko'p ekan.

Qayd qilingan kasalliklarning yuzaga kelishida shakardan tashqari kundalik ovqatda un mahsulotlarini ko'p bo'lishi, jismoniy mehnatning kamayib ketishi, harakatning cheklab qo'yilishi ham o'rin tutadi. Agar tana vazni me'yorga qaraganda 20% ko'p bo'lsa, bu semizlik alomati bo'lib, bunday odamlar uchun qon bosimining yuqori bo'lishi, yurakning ishemik kasalligi, qonda xolesterinning ko'payib ketishi, qandli diabet va boshqa xastaliklar «eshik qoqib» turishadi.

Hisob-kitoblarga ko'ra tana vazni me'yoridan 20% oshiqcha odamlar orasida o'lim me'yoriy tana og'irligiga ega odamlarga qaraganda 50% ko'p bo'lar ekan. Keyingi yillarda shu narsa ma'lum bo'lib qoldiki, ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda semizlik iqtisodiy jihatdan baquvvat va jamiyatning ardoqli kishilari orasida oddiy, unchalik ta'minoti yaxshi bo'lmaganlarga qaraganda kam uchraydi. Buning sababi yuqori martabali, katta boylklarga ega odamlar oshiqcha ovqatlanishining zarari haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lib, ular tana vaznini bir me'yorda ushlab turish uchun turli-tuman vositalardan keng foydalanadi.

Bolaligidanoq ortiqcha ovqatlanishga odatlanganlar tanasida qo'shimcha yog' to'qimalari paydo bo'lib, ulg'ayganida ham shu to'qimalarning rivojlanishi hisobiga osonlik bilan semirish kuzatiladi. Kuzatuvlar yoshligida me'yoridan ko'p ovqatlanadigan bolalarning beshtadan to'rttasi ulg'ayganidan so'ng semirib ketishini tasdiqdaydi. Emadigan bolani sun'iy oziqlantirishga o'tkazish ko'pincha ulgayganidan keyin ham semizlikka olib keladi. Semirish qon bosimining ko'tarilishi, qandli diabet va boshqa «davr kasalliklari»dan qutulishning eng oson yo'li bu tana vaznini me'yorlashtirishdir. Buning uchun avvalo ozish, shunda oshiqcha tana vazni bilan birga xastaliklar ham bartaraf qilinadi. Bunday davolanish davomli va oldindan iroda kuchini talab qiladigan yo'l bo'lib, har kimning o'ziga bog'liq. Taomlarning kam kaloriyali bo'lishi, kepakli undan pishirilgan nonlar, yormalardan tayyorlangan ovqatlar, karam, sabzi, ko'katlardan tayyorlangan salatlardan tanlab iste'mol qilish, spirtli ichimliklar, konfet, shokolad va tortlardan voz kechish lozim.

Yana hayvon yog'i aralashtirilgan ovqatlarni ham cheklash kerak. Bir vaqtning o'zida vujud uchun kerak bo'ladigan asosiy oziq moddalari, vitaminlar va mineral moddalar me'yordan kamaymasligi muhim. Shunday qilish kerakki, uglevodlarga bo'lgan kunlik me'yor (450-500 g) asosan tarkibida kletchatkasi ko'p bo'lgan karam, po'sti olinmagan olma, sabzi, ko'katlar, unchalik shirin bo'lmagan meva-chevalar hisobidan qondirilishi kerak. Go'sht, tuxum, baliq kabi oqsilga boy mahsulotlarni me'yoridan oshiq iste'mol qilmaslik, ayniqsa, yog'li go'shtdan o'zni tiyish, tuxum va baliqni ham qovurib emas, suvda qaynatib iste'mol qilish maqsadga muvofiq.

Ozishning ikkinchi sharti bu kam kaloriyali ovqat yeyish bilan bir vaqtning o'zida ko'proq harakatlanishdir. Har ikkala shartni doimiy ravishda bir-biriga bog'lab olib borish kerak, faqat bittasini batafsil bajarish bilan maqsadga erishish qiyin. Chunki birdaniga ko'p yugurish yoki betinim jismoniy mashq bajaraverish kimningdir sog'ligiga to'g'ri kelmaydi.

Yaxshisi, ko'proq piyoda yurish, har kuni oz-ozdan yugurish, iloji bo'lsa suzish mashqlarini bajarish, ochiq havoda ko'proq sayr qilish yaxshi samara beradi. Bunday davolanish jarayonini davomli deb bejiz aytmadik, u oylab, yillab davom etishi mumkin.

Ehtiyojdan ko'p ovqatlanish, kamharakatlilik hamda ruhiy-hissiy zo'riqish bilan hayot kechirish yurak-qon tomirlari faoliyatining yomonlashuvi bilan bog'liq yurakning ishemik kasalliklari, kardioskleroz, miokard infarkti kabi xastaliklarning ko'payishiga olib keladi. Hozir insoniyat ushbu kasalliklar bilan yoshu-qari demasdan bir xil og'rib, yosh nuqtai nazaridan serunum mehnat qiladigan davrida bir umrga nogiron bo'lib qolmoqda, hayotdan erta ko'z yummoqda. Yurakning ishemik kasalliklari iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar aholisi orasida

ko'p uchraydi, chunki ular iqtisodiy past, endigina rivojlanayotgan mamlakatlardagi kishilarga qaraganda yaxshi ovqatlanishadi, transport vositalaridan keng foydalanishadi.

Hozirgi paytda kishilar orasida keng tarqalgan kasalliklardan biri bu qon bosimining yuqori bo'lishi, yani gipertoniya (xafaqon). Ushbu kasallik bilan xastalanganlar kasallik tarixini o'rganib chiqish shu narsani ko'rsatadiki, kishi vaznining me'yorida yuqori bo'lishi va kundalik ovqatda osh tuzining ko'p ishlatilishi gipertoniya olib keluvchi asosiy sabablarga kirar ekan. Yaponiyada osh tuzining boshqa davlatlarga nisbatan ko'p iste'mol qilinishi ma'lum. Bu yerda eng ko'p uchraydigan kasalliklar yuqori qon bosimi va insult ekanligini olimlar aynan shu narsaga bog'lashadi. Yaponiyaning o'zida ham tuzni kamroq ishlatadigan janubiy aholi orasida shimoliy qismida istiqomat qiluvchi va tuzni ovqatda ko'p ishlatadiganlarga qaraganda xafaqon bilan og'ruvchilar kam uchraydi.

Xafaqon kasalligi ham ma'lum irsiy asosga ega, ota-bobolari yuqori qon bosimi bilan og'rib o'tgan odamlar tana vazni me'yorida oshiqcha bo'lmasa ham unga muhtalo bo'laveradi, lekin ular kam tuzli ovqatlar iste'mol qilsa xastalik kuchayishining oldi olinadi. Keyingi yillarda ovqatlanishda mo'l-ko'lchilikni xush ko'rganlar orasida qandli diabet kasalligi ko'paydi. Bu kasallikka irsiy moyil odamlar ham ovqatlanishga e'tibor berib, doimiy suratda badantarbiya mashqlarini bajarib turishsa va tana vaznining oshib ketishiga yo'l qo'yishmasa foyda ko'rishi aniqlangan.

Ovqatlanishda oshiqcha quvvat beruvchi yog', tez hazm bo'luvchi har xil shirinliklar hamda turli chanqoqbosdi ichimliklarga o'xshash aralashmalarning me'yorida ziyod qabul qilinishi tufayli orttirilgan kasalliklardan yana biri bu rak, ya'ni hali to'liq davosi topilmagan capatondir. Saraton bilan ko'pincha yeyish-ichishda mo'l-ko'lchilikka ega bo'lgan davlatlardagi yuqori tabaqaga mansub kishilar, yirik shaharlarda yashovchi o'ziga tinch odamlar og'riydi. Bunday kasallar iste'mol qiladigan kundalik ovqat tahlil qilib chiqilganida, ular ishlatadigan oziq moddalarning aksariyati o'ta tozalangan. Masalan, kepagidan tamoman ajratib olingan un, po'sti va urug'ida tozalab olingan meva-chevalar (olma, uzum, anor va boshqalar), shakar, oq qand kabi mahsulotlardan ekanligi aniqlangan. Bunday ovqatni muntazam iste'mol qilish esa ichaklardagi o'ziga xos mikroblarni o'zgartirib, kontserogen birikmalar (saron chaqiruvchi) ishlab chiqaradigan bakteriyalarni ko'paytirib yuboradi. Aksincha, iste'mol taomlarida dag'al ovqatlarning ko'proq ishlatilishi, kepagi va po'sti ajratilmagan un, meva-chevalar, ko'katlar, poliz mahsulotlari va boshqalar esa kontserogen moddalarning tanadan chiqib ketishini amalga oshirib, saron xavfini kamaytiradi.

Shahar aholisining saron bilan ko'proq kasallanishini chaqiruvchi omillardan yana biri, bu ularning turli xil sun'iy usullar bilan tayyorlangan ichimliklarni qishloq aholisiga ko'ra ko'p iste'mol qilishidir. Bunday ichimliklar tarkibidagi rang beruvchi moddalarning kontserogenlik xususiyati borligi esa sir emas. Biz yuqorida ehtiyojdan ortiqcha ovqatlanish sabablari, oqibatlar hamda uning zararidan qutulishning ayrim choralari haqida fikr yuritdik. Keragidan ko'p mikdorda tanaga energiya qabul qilish va bir vaqtning o'zida kam harakat qilish kishilar umrini qisqartirish, barvaqt nogiron bo'lib qolish, yurak-qon tomirlari kasalliklari, qandli diabet va saron kabi xastaliklarga muhtalo bo'lib qolishi borasida «ongli» qadamdir. Buning oldini olishda eng oson hamda eng foydali yo'l ommaning to'g'ri va oqilona ovqatlanishi haqida keng va har tomonlama tushuntirish ishlarini olib borish, kishilarning bu boradagi savodxonligini oshirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Нормы физиологических потребностей в пищевых веществах и энергии для различных групп населения Узбекистана № 0036-05
2. Обеспечения пассажиров и членов экипажей бортовым питанием в полете. СанЛиН № 0037-95.
3. Санитарные нормы и гигиенические нормативы к пищевым добавкам. СанПиН № 0070-94.

4. Гигиенические нормативы дезинфектантов, дезинсектантов и дератизационных средств в объектах окружающей среды и продуктах питания СанПиН № 0081-98.

5. енности. СанПиН № 0106-01. 15. Ekologik noxush hududlarda yashovchi maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nutriyentlar va energiyaning tavsiya etilgan me'yorlari. SanQ va M № 0107-01.

ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQODLARDA SPORTCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALASI

Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li

FarDU, Sirtqi bo'lim ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi,

Xalimbayeva Feruza Akmalovna

mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Mazkur maqola etnik aspektatsiya mavzusida ilmiy tadqiqotlarning tavsiyalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ham o'z ifodasini topgan

Kalit so'zlar: etnosotsiologiya, etnopsixologiyaga, ob'ektiv, xulq-atvor, struktura, sub'ekt, ong.

Psixologik salomatlikni individual rivojlanishning to'liqligi, boyligi nuqtai -nazaridan ko'rib chiqish g'arb olimlaridan A. Maslou, Sh. Buller, F. Frankllarning asarlarida ko'proq uchraydi, ya'ni psixologik salomatlik o'z-o'zini namoyon qilish, hayotning ma'nosini topish va shaxsning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish bilan ta'riflanadi²⁵. Misol uchun, A. Maslou "aqliy salomatlikka yo'naltirilgan" sog'lom odamlarni o'rganish orqali shaxsning "o'zini o'zi anglash" nazariyasini ishlab chiqdi. Muallifning aytishicha, xulq-atvorni o'rganishning hech bir yo'nalishi psixologik sog'lom odamning hayoti va maqsadlariga etarlicha e'tibor bermagan²⁶. Z. Freyd insonning ijobiy kuchlarini e'tiborsiz qoldirib, faqat inson tabiatining g'ayritabiyy tomonlariga asoslangan psixologik kasalliklar, patologiyalar, yomon moslashish, psixoanalitik nazariyaning biryoqlamaligini e'tiborga olib, uni haddan ortiq tanqid qildi. Psixologik salomatlikni, psixologik kasallikni tushunmasdan, chetlanishni bilish mumkin emas. Bizningcha, umumjahon psixologiyasi fani psixologik sog'lom, o'zini-o'zi anglaydigan insonlarni o'rganishi lozim. Shu sababli, gumanistik psixologiyada "o'z-o'zini rivojlantirish inson hayotining asosidir, aqliy buzilishi bo'lgan odamni o'rganish va aniqlash mumkin emas" talqin taklif qilinadi.

A. Maslou psixologik salomatlikning ikki komponenti ajaradi:

– Birinchidan, odamlarning imkon qadar o'zini namoyon qilish orqali o'z salohiyatini rivojlantirishga intilishi;

– Ikkinchi komponent - insonparvarlik qadriyatlariga intilish va hokazo. Psixologik salomatlik muammolari insonning asosiy ehtiyojlarini qondirish nuqtai-nazaridan yoritilish kerak. Bu ehtiyojlarning barchasi qondirilsa, shunda O'z-o'zini namoyon qilish zarurati paydo bo'ladi. Insonning o'z imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishi istye'dod va salohiyatning to'liq ochilishi bilan bog'liqdir. Ehtiyojlar iyerarxiyasining yuqori darajasida, psixologik sog'lom odamlar, ayniqsa, bir-biridan aniq ajratib o'tilgan. Dominant ehtiyojlar ijodiy, isteydodli odamlar bilan almashtirilishi mumkin. Psixik salomatlik muammosini shaxs rivojlanishi mazmunida hal qilishga o'rinishlarni, gumanistik yo'nalishda ko'zga ko'ringan olimlar V.Frankl, S.B.yuller va R.Meylarning asarlarida uchratish mumkin.

Gumanistik psixologiyada inson motivlari ikki toifaga bo'linadi: etishmovchilik motivlari va rivojlanish motivlari. Defyesit motivlar qo'zg'alishni kamaytirishga qaratilgan, ular passivdir;

²⁵ Маслоу, А. Мотивация и личность / А. Маслоу. - СПб.: Питер, 2013. - С.98.

²⁶ Маслоу А.Г. Дальние пределы человеческой психики. - М., 1997. - С.20.

sog'lom odamda ular umuman bo'lmaydi. Rivojlanish motivlari yoki metamotivasiyalar, yangi effektlarni izlash orqali, hayajonni oshirishga qaratiladi. Ular instinktiv, biologik asosga ega, aniq motivlar kabi. Shu sababli, insonning psixologik salomatligini saqlab qolish uchun uning imkoniyatlarini maksimal darajada oshirish uchun meta-ehtiyojlarni qondirish lozim bo'ladi. Bir tomondan esa, etishmovchilik ehtiyojlarini qondirmasdan metamotivasiya qilish mumkin emas. Meta-ehtiyojlardan mahrum bo'lish psixologik kasalliklarga olib keladi, bu metapatologiya, ya'ni apatiya, depressiya kabilar bilan uzviy bog'liqdir. Aktualizasiya qilingan shaxs - bu normal psixologik sog'likga ega bo'lgan shaxsdir. A. Maslou konsepsiyasidagi bunday qarashlar, bolaning psixologik salomatligini ta'minlashda muhim ahamiyatga egadir. Zero, ontogenezning barcha bosqichlarida normal rivojlanish va etuklik, bolaning atrof-muhit ta'sirlaridan marum bo'lishi bilan bog'liq vaziyatdir.

Z. Freyd esa, nevrozlar nazariyasining biologik masalalarini taklif etadi, ya'ni tug'ma ehtiroslar va jinsiy energiya shaxs rivojlanishi jarayonida nevroitik alomatlar manbai bo'lib qoladi²⁷.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rakhmatjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE IN PROVIDING THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF THE ATHLETE// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. International scientific online conference. Canada. Part 2, 23.01.2022. 1-3

2. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //SPORTCHI PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR// GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ). Vol. 10, Issue 11, Nov.(2022). 117-121 pages.

3. QURBONOVA Saida Miralimjanovna, RAXMATJONOV Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //MAMLAKATIMIZ PSIXOLOGLARI ISHLARIDA SHAXSLARARO MUNOSABATDA MUOMALA MUAMMOSINING TALQINI// Journal of Pedagogical and Psychological Studies. Vol. 1. № 5, (2023). 99-103 pages.

4. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS// IQRO JURNALI № 2. 04.2023. 503-511 betlar.

5. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li, Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li //XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI// INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. Vol. 1. № 12, 2022. 39-47 pages.

6. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH – IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA// International Journal of Economy and Innovation. Volume: 30. 2022. 66-70 pages.

7. Rakhmatjonov Shokhjahan Dilshodbek o'g'li //PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF THE SPORTSMAN PERSONALITY DURING COMPETITIONS// IJTIMOY FANLARDA INNOVASIYA ONLAYN ILMIY JURNALI. Vol. 2 No. 11 (2022). 215-221 betlar.

8. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //Motiv Va Motivatsiya Muammosining Jahon Va Mahalliy Psixologlar Tomonidan Tadqiq Etilganligi// American Journal of Social and Humanitarian Research, Vol. 3 No. 11 (2022). 256-259 pages.

9. Raxmatjonov Shoxjahan Dilshodbek o'g'li //TOLERANTLIK SHAKLLANAYOTGAN SHAXS MODELINING TAVSIFI// International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH». VOLUME 2 / ISSUE 5 /2023. 761-764 pages.

²⁷ Зигмунд Фрейд. Психопатология обыденной жизни. Толкование сновидений. Пять лекций о психоанализе / З. Фрейд. - М.: Эксмо, 2018. – С.52.

10. Raxmatjonov Shoxjahon Dilshodbek o'g'li. (2023). PSIXOLOGIYADA MOTIVATSIYA TURLARI, NAZARIYALARI VA TAHLILI. Научный Импульс, 1(10), 665-670.

11. Raxmatjonov, S. (2023). DESCRIPTION OF THE PERSONALITY MODEL FOR FORMING TOLERANCE. *Modern Science and Research*, 2(5), 761-764. Dilshodbek o'g'li R. S. TALABALARDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH-IJTIMOY PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – T. 30. – C. 66-70.

12. Dilshodbek o'g'li, R. S., & Boxodirjon o'g'li, V. A. (2022). XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 1(12), 39-47.

13. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon, and Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li. "XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI." *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION* 1.12 (2022): 39-47.

14. Dilshodbek o'g'li R. S., Boxodirjon o'g'li V. A. XORIJ PSIXOLOGLARINING ISHLARIDA SHAXSNING TADQIQ ETILISHI //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 39-47.

15. Dilshodbek o'g'li, R. S. (2023). SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS. *IQRO JURNALI*, 2(2), 503-511.

16. Dilshodbek o'g'li, Raxmatjonov Shoxjahon. "SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS." *IQRO JURNALI* 2.2 (2023): 503-511.

17. Dilshodbek o'g'li R. S. SPEECH ISSUES IN PSYCHOLINGUISTICS //IQRO JURNALI. – 2023. – T. 2. – №. 2. – C. 503-511.

18. Rakhmatdjonov, S., & Dadajonova, N. (2023). CONCEPT OF WILL AND IST THEORIES. В INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (T. 3, Выпуск 10, сс. 269–273).

YUQORI SINIF O'QUVCHILARIDA ISHONCH HISSINING RIVOJLANISH OMILLARI VA PSIXOLOGIK IMKONIYATLAR

Asqarov Anvarjon Rahimjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi,

Zokirova Nozima Maxmudjon qizi

*Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi
2- bosqich magistranti.*

Annotatsiya: Maqolada yuqori sinf o'quvchilarida ishonch hissini shakllantiruvchi omillar, uning psixologik jihatlari va pedagogik usullar yordamida rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. Ishonchda shaxsning o'z qobiliyatlariga, bilimlariga va qarorlariga bo'lgan ichki ishonch sifatida talqin qilinib, uning akademik yutuqlar va ijtimoiy muvaffaqiyatdagi ahamiyati ko'rsatilgan. Tadqiqotda oila tarbiyasi, maktab muhiti, shaxsiy tajriba va jamiyatning ishonch shakllanishiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan individual yondashuv, ijobiy tavsiyalar, guruh ishlari va psixologik qo'llab-quvvatlash kabi samarali metodlar taklif etiladi.

Kalit so'zlar: shaxsiy rivojlanish, Maktab muhiti, Oila tarbiyasi, Psixologik qo'llab-quvvatlash, Muvaffaqiyatli tajriba, Ijtimoiy munosabatlar

Kirish. So'nggi paytlarda turli ijtimoiy va gumanitar fanlarning o'rganish mavzusi bo'lgan ishonch muammosiga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Ishonch, psixologiyada muhim tushuncha bo'lib, uning psixologik jihatlari ko'plab tadqiqotlar va nazariyalar orqali o'rganilgan. P.N. Shixirevning ijtimoiy psixologiya bo'yicha qo'llanmasida ta'kidlanganidek, XX asrning 90-

yillari xorijiy ijtimoiy psixologiyada ishonch yillari deb hisoblanishi mumkin. Ishonch hissi bolaning shaxsiy rivojlanishida, ijtimoiy munosabatlarida va akademik yutuqlarida hal qiluvchi rol o'ynaydi. "Ishonch" tushunchasi odatda odamlar o'rtasidagi kundalik munosabatlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli, iltimoij-psixologik va psixologik tadqiqotlarda ishonch turli masalalarni o'rganish jarayonida psixologlar tomonidan tez-tez tilga olingan, chunki u insonlar o'rtasida ijobiy munosabatlar o'rnatishda juda muhim omil sifatida qaralgan. Psixologiyada ishonch mustaqil ijtimoiy-psixologik tahlil obyekti sifatida o'rganilmagan. Faqat ayrim tadqiqotlarda, ayniqsa, psixologik ta'sir usuli sifatidagi ishonch muammosiga bag'ishlangan ishlar mavjud. Shu bilan birga, ishonch tushunchasi boshqa masalalar doirasida keng qo'llanilgan (V.Vichev, B.F.Porshnev, I.S.Kon, A.V.Mudrik, V.A.Losenkov, V.N.Kulikov, L.A.Petrovskaya, A.I.Donsov, A.U.Xarash, M.Y.Kondratev, V.A. Petrovskiy va boshqalar). Ushbu mualliflarning asarlari umumiy holda ishonchning mohiyatini to'liq ochib bermasada, uning ko'plab fenomenologik ko'rinishlarini tasavvur qilish imkonini beradi. Psixologik adabiyotda ishonchli muloqot muammolariga bag'ishlangan yagona maxsus tadqiqot V.S.Safonov tomonidan amalga oshirilgan.

Yuqori maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ishonch nafaqat o'ziga bo'lgan irodasi, balki muhit bilan muvaffaqiyatli muloqot qilish qobiliyatini ham belgilaydi.

Ishonch hissi tushunchasi va ahamiyati

Ishonch – bu shaxsning o'z qobiliyatlariga, bilimlariga va qarorlariga bo'lgan ichki his-tuygusidir. U o'quvchilarga:

- Yangi bilimlarni o'zlashtirishda jasorat ko'rsatish,
- Xatolardan qo'rqmaslik va ularni tuzatishga harakat qilish,
- Ijtimoiy munosabatlarda faol ishtirok etish imkoniyatini beradi.

Psixologlar ta'kidlashicha, ishonch hissi bolalik davrida shakllanib, o'smirlik davrida mustahkamlanadi. Shuning uchun Yuqori sinf yoshidagi o'quvchilarda ishonchni oshirish uchun qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish muhimdir.

Ishonch hissiga ta'sir etuvchi omillar.

1. Oila tarbiyasi – Ota-onalarning bolaga bo'lgan munosabati, ularni qo'llab-quvvatlashi yoki haddan tashqari qat'iy talablar qo'yishi ishonch darajasiga bevosita ta'sir qiladi.

2. Maktab muhiti – O'qituvchilar bilan munosabat, sinfdoshlararo raqobat yoki hamjihatlik mavjudligi.

3. Shaxsiy tajriba – Muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklarni boshdan kechirish orqali ishonch shakllanadi.

4. Jamiyat va madaniy qadriyatlar – Ba'zi jamoalarda bolalarga mustaqillik beriladi, ba'zilarida esa haddan tashqari nazorat o'rnatiladi.

Ishonchni oshirishning psixologik usullari

1. Individual yondashuv – Har bir o'quvchining qobiliyatlarini hisobga olib, ularga mos vazifalar berish.

2. Ijobiy feedback – O'quvchilarning har qanday kichik yutuqlarini qayd etib, ularni rag'batlantirish.

3. Guruh ishlari va loyihalar – Jamoada ishlash orqali o'z fikrlarini ifodalashga urinish.

4. Muvaffaqiyatli tajribalarni ko'paytirish – Oson boshlanadigan, asta-sekin murakkablashadigan topshiriqlar berish.

5. Psixologik qo'llab-quvvatlash – Maktab psixologi bilan ishlash, ishonchsizlikka olib keladigan sabablarni aniqlash.

Xulosa

Yuqori sinf o'quvchilarida ishonch hissini shakllantirish – bu uzoq muddatli psixologik jarayon bo'lib, u oila, maktab va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlarini talab qiladi. O'qituvchilar bolalarga nafaqat bilim, balki o'ziga ishonch hissi bilan yashash ko'nikmalarini ham o'rgatishlari kerak. Kelajakda ushbu mavzuda chuqurroq tadqiqotlar o'tkazish orqali ishonchni oshirishning samarali metodikalari ishlab chiqilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Skripkina . psychological Confidence. 2004
2. Fukumaya F. Trust.
3. Антоненко И. В .Доверие: является социально –психологическим событием. М., 2004.
4. Ебер Д., Розенштиль . Организационная психология. 2006.624 p
5. Juravleva L.A. Insonning xushmuomalaligi va odamlarga bo'lgan ishonchi o'rtasidagi bog'liqlik: M.,2004
6. Илин Е. Р. Психология доверия . Санкт -Петербург , 2003
7. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control.
8. Maslow, A. H. (1943). A theory of human motivation.
9. Shodiyeva, N. (2020). Bolalar psixologiyasi va pedagogik mahorat.

SOTSIAL PSIXOLOGIYADA RAHBARLIK TUSHUNCHASI TAVSIFI

Qurbonova Saida Miralimjanovna,

Farg'ona davlat universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi.

Ahmedova Mushtariy Xatamovna,

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutgan rahbarlik tushunchasi va uning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Unda rahbarlarga xos ijtimoiy xislatlar tavsifi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: rahbar, lider, intellektual saviya, talabchanlik, mustaqillik, boshqaruv, madaniyat, talabchanlik.

XXI asr yuksak axborot texnologiyalari va intellektual saviyaning keskin oshishi asri bo'layotgani sir emas. Bu holat insoniy munosabatlar sohasida ham islohotlar yuz berishi, intellektual saviyasi yuqori insonlar bilan muomala qilishning va ularga samarali ta'sir ko'rsatishning nozik hamda o'ziga xos usullarini tanlashni talab qiladi. Agar yurtimiz misolida olinadigan bo'lsa, muomala an'analari, milliy qadriyatlarimiz, mentalitetimizning o'ziga xos nodir qirralarini yo'qotmagan holda jahon sivilizatsiyasining ta'sirlaridan, umuminsoniy qadriyatlardan holi bo'lmagan boshqaruvchilar qatlamini shakllantirish, ularning faoliyati orqali adolat, insoniylik va demokratiyaning asoslarini insonlar ongi va shuuriga singdirish – davr talabidir.

Jamiyat rivojlanishidagi o'tish, o'zgarishlar davrida davlat (jismoniy tarbiya va sport sohasi) boshqaruvidagi, shu jumladan boshqaruvning barcha darajalaridagi rahbarlar oldida turgan murakkab vazifalarni bajarishda professionalizmga, keng, davlat (jismoniy tarbiya va sport sohasi) darajasidagi tafakkurga, kuchli irodaga, maqsadga intilganlikka egaligi bilan ajralib turishlari kerak. Zero, Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ish yuzasidan talabchanlik qilish boshqa, odamlarning shaxsiyatiga tegish butunlay boshqa narsa. Odamlar ish yuzasidan sizga bo'ysunishi mumkin, boshqa har qanday masalada siz bilan tepa-teng huquqqa ega ekanini aslo esdan chiqarmang. ... Barchamiz yaxshi bilamiz, xalqimiz oriyatli, nomusli xalq. Xalqimiz barcha narsaga chidashi mumkin, lekin takror-takror aytaman, adolatsizlik va nohaqlikka chiday olmaydi. Haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'indagi rahbarlar – u vazir yoki hokim bo'ladimi, idora yoki tashkilot boshlig'i bo'ladimi, odob-axloqi va madaniyati bilan hamma o'rnak va namuna bo'lishi zarur".

Вышеизложенное позволяет сделать вывод о том, что общая направленность учебной деятельности и определенная просветительская работа, проводимая в области экологического образования, среди учителей, дают положительные результаты. Тем не менее, полагаем, что данные результаты недостаточны, они могут быть значительно выше, если работу с педагогическим коллективом по экологическому просвещению и повышению их общего уровня экологической подготовки проводить не только в рамках отдельного предмета, а планомерно, целенаправленно и системно под общим руководством администрации учебного заведения.

Значительного улучшения требует экспериментальная, прикладная подготовка учащихся, что самым непосредственным образом связано с укреплением материально-технической базы школы, оснащением её современным учебным оборудованием, техническими средствами обучения.

Литературы

1. Кавтарадзе Д.Н. Иммитационные игры в экологическом образовании. // Биология в школе.-1990.-№ 6.- С.43-46. С.9].
2. Калинин, В.Б. Формула экологического образования [Текст]: // Экология и жизнь. 1996, №1 с. 38-44.
3. Концепция профильного обучения на старшей ступени общего образования [Текст]. - М. , 2002.
4. Ломов, Б. Ф. Методологические и теоретические проблемы психологии: проблемы развития психики [Текст] / Б. Ф. Ломов; отв. ред.: Ю. М. Забродин, Е. В. Шорохов. - М.: Наука, 1984. — 444 с.
5. Лутфуллозода М. Национальная педагогика таджикского народа.(на тадж.яз.). Душанбе, Ирфон. -2015. - 660 с.
6. Массен, П., Развитие личности ребенка[Текст]: Пер.с англ. / П. Мас- сен, Дж. Конгер, Дж. Каган. - М.: Изд-во Прогресс, 1987.-С. 272

7. Райков, Б.Е. Пути и методы натуралистического просвещения [Текст]:/Б.Е. Райков М.: Изд. АПН РСФСР. -1960.- с.86.
8. Суравегина, И.Т. Последовательность введения природных знаний [Текст]-М.: Просвещение, 1981.- 186 с.
9. Философский энциклопедический словарь [Текст] /под. ред. Е.Ф.Губского. -М.: Изд-во Инфарм -2006. -с.576.

IMPROVING EXPERIMENTAL TEACHING METHODOLOGY IN ZOOLOGY AND ITS IMPORTANCE IN EDUCATION

Obidjanov Umid Isojonovich

Head of the Department of Exact and Natural Sciences Evening Division, Associate Professor, Fergana State University.

Annotation: the field of zoology is rich in content and offers tremendous potential for interactive and experimental learning. However, traditional teaching approaches often limit students' engagement and fail to foster +critical scientific skills. This paper presents a comprehensive analysis of experimental teaching methodologies in zoology and outlines effective strategies for their enhancement. The ultimate goal is to strengthen students' scientific literacy and to prepare future educators with the skills needed for modern biology education.

Keywords: experimental teaching, zoology education, active learning, laboratory instruction, biology teacher preparation

Introduction

Zoology, a fundamental branch of biology, provides learners with knowledge about the structure, functions, behavior, and evolution of animals. Traditionally taught through lectures and textbook reading, zoology often lacks the practical engagement required to develop deeper understanding and scientific thinking. With the increasing demand for inquiry-based learning and competency-based education, experimental teaching has become essential. This paper explores how improving experimental teaching methodologies in zoology can significantly benefit student learning and teacher preparation.

The Limitations of Traditional Zoology Instruction

In many educational institutions, zoology is still taught in a passive and theoretical manner. This approach leads to:

- Low student motivation
- Poor retention of knowledge
- Minimal skill development
- Weak connection between theoretical and real-world biological concepts

Moreover, many future teachers enter the workforce with insufficient laboratory experience, limiting their ability to conduct practical lessons effectively.

The Role of Experimental Teaching in Zoology

Experimental teaching refers to a learner-centered approach involving direct observation, manipulation, and analysis of biological specimens. In zoology, this includes:

- Dissections
- Microscopy of tissue samples
- Behavioral studies
- Taxonomic classification
- Habitat analysis

Such methods allow students to gain hands-on experience, enhance their analytical thinking, and develop scientific inquiry skills.

Modernizing Zoology Laboratory Practice

To address current deficiencies, modern methods must be integrated:

a) Use of Digital Technology

- Virtual labs and 3D dissection tools
- Augmented reality apps for animal anatomy
- Data logging tools for behavioral experiments

b) Student-led Investigations

- Designing independent experiments
- Hypothesis testing and result analysis
- Presenting scientific findings

c) Integration of Fieldwork and Outdoor Labs

- Biodiversity surveys in natural habitats
- Species sampling and ecological monitoring
- Observing animal behavior in the wild

Impact on Student Learning and Teacher Preparation

Improved experimental methodology leads to:

- Higher student engagement and performance
- Better conceptual understanding of zoological principles
- Development of critical thinking and research skills
- Increased confidence in future biology teachers to conduct labs

Laboratory-rich teacher training programs result in educators who are better prepared to deliver interactive and meaningful lessons in the classroom.

Recommendations for Effective Implementation

- Allocate adequate time for labs in the curriculum
- Train instructors in modern experimental techniques
- Equip laboratories with up-to-date tools and safety protocols
- Encourage reflective practices and continuous evaluation

Conclusion

Reforming experimental teaching methodology in zoology is a key factor in enhancing both student learning and teacher development. By embracing modern technologies, fostering hands-on learning, and focusing on inquiry, educational institutions can significantly improve the quality of zoology education. This, in turn, prepares future biology teachers who are scientifically competent and pedagogically skilled.

References

1. Allen, D., & Tanner, K. (2005). *Infusing active learning into the large-enrollment biology class: Seven strategies, from the simple to complex*. *Cell Biology Education*, 4(4), 262–268. <https://doi.org/10.1187/cbe.05-08-0113>
2. Hofstein, A., & Lunetta, V. N. (2004). *The laboratory in science education: Foundations for the twenty-first century*. *Science Education*, 88(1), 28–54. <https://doi.org/10.1002/sce.10106>
3. Tamir, P. (1991). *Practical work in school science: An analysis of aims*. *Science Education*, 75(6), 653–670. <https://doi.org/10.1002/sce.3730750606>
4. Abrahams, I., & Millar, R. (2008). *Does practical work really work? A study of the effectiveness of practical work as a teaching and learning method in school science*. *International Journal of Science Education*, 30(14), 1945–1969. <https://doi.org/10.1080/09500690701749305>
5. Minner, D. D., Levy, A. J., & Century, J. (2010). *Inquiry-based science instruction—What is it and does it matter? Results from a research synthesis years 1984 to 2002*. *Journal of Research in Science Teaching*, 47(4), 474–496. <https://doi.org/10.1002/tea.20347>
6. Biggs, J., & Tang, C. (2011). *Teaching for Quality Learning at University: What the Student Does* (4th ed.). McGraw-Hill Education.

7. Wellington, J., & Osborne, J. (2001). *Language and Literacy in Science Education*. Open University Press.

8. National Research Council. (2000). *Inquiry and the National Science Education Standards: A Guide for Teaching and Learning*. Washington, DC: The National Academies Press. <https://doi.org/10.17226/9596>

9. Bybee, R. W. (2002). *Learning science and the science of learning*. National Science Teachers Association Press.

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA MA'RIFATLI INSON SENSUALISTIK QARASHLARINING ILMIY ASOSLARI

Asilbek Mo'ydinov

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ma'rifatni inson va jamiyat taraqqiyotidagi sensualistik yondashuvni boshlanishi faylasuf olim Immanuel Kantning "Ma'rifat nima?"²⁸ nomli maqolasidan keyin yangi sifat bosqichga ko'tarilgan. Jamiyat taraqqiyotida ma'rifatli inson sensualistik qarashlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati haqida De Sent-Evremon, Beyl, Volter va Monteske kabi faylasuflar Yevropada rivojlanishga o'z qarashlari bilan hissa qo'shgan. So'nggi o'n yilliklarga kelib ma'rifatni rivojlanishi faqatgina moddiy (jismoniy) aktivlardan iborat degan fikr o'z kuchini yo'qotdi. Endi kelajakda har qanday moddiy yoki insoniy munosabatlar ma'rifatdir degan qarash ilgari surilmoqda.

Kalit so'z: hissiy, sezgi, rivojlanish, hissiy qarashlar, jamiyat, insonlar, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni beligisi sifatida e'tirof, sensualizm, sezish, his qilish.

Jahondagi global o'zgarish va tortishuvlar jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy, ma'rifiy asoslarini o'rganish zaruratini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mening nazaramda, u – biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir"²⁹, bu esa ma'rifatli jamiyat qurish, yangi ma'naviy makonni yaratish taraqqiyot uchun muhim jarayon ekanligini ifodalaydi.

Rivojlanayotgan mamalakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni beligisi sifatida e'tirof etiladi. XXI asr intellektual avlod asri sifatida bunyodkorlikni jamiyat yuksalishiga samarali tadbiriq etish orqali jamiyatni ma'rifiy modernizatsiya qilish va ma'naviy ehtiyoj uyg'unligida shakllanadi. Bu esa ma'rifatli insonlarni va jamiyat qiyofasini o'zgartirishga qodir bo'lgan munosabatlarni shakllantirish zaruratini vujudga keltirgan. Jamiyatdagi yangi ma'naviy makonni yaratilishi davr nuqtayi nazardan ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarni amalga oshirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ma'rifatli jamiyat shakllanishi marginal shaxslarni jamiyatga ta'sirini kamaytirish, aksincha ma'naviyatli shaxslarni yetishtirishni takomillashtirish zarurati bilan ifodalanadi.

Ma'rifatli jamiyat taraqqiyotining ma'naviy jarayondagi uzluksizligi bilan belgilanadi. Ma'rifatli jamiyat qurish haqidagi tadqiqotlar mamlakatimiz faylasuf olimlarining dastlabki tadqiqotlaridan biri hisoblanadi. Ya'ni ma'naviy makon yaratishning maqsadi ma'rifatli jamiyat milliy taraqqiyot strategiyasining ustuvor jihatidir. Shu munosabat bilan "Yangi O'zbekiston-ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasini ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Ma'rifatga bo'lgan munosabatning davlat siyosati darajasidagi maqomi, yoshlar tarbiyasiga ta'siri va jamiyatni yuksalishiga oid qarashlar Sharq va G'arb mutafakkirlari asarlarida qisman o'z ifodasini topgan.

Xakim Termiziy "Kitob bayan-al-ilm" asarida ma'rifatni nurga, yorug'likka qiyoslagan³⁰ bo'lsa, Rog'ib Isfahoniyni fikricha, "Ilm, amal, odob yuksak unvonga, oliyjanob nasabga va

²⁸ <https://khyuldoshev.wordpress.com/2022/01/03/marifat-nedir/>

³⁰ Чориев З., ва бош. Ал-Хаким ат-Термизий. Тошкент, 2008. – Б 150.

va boylikka teng”³¹ deb ta'kidlaydi. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida ilgari surilgan qarashlar aynan ma'rifatli jamiyat qurishning metodologik asosi sifatida ma'rifatning o'rni beqiyos ekanligini asoslaydi³². Uzoq vaqt davomida iqtisodiy tafakkur moddiy boylik orttirish sohasida ro'y berayotgan jarayonlar ta'sirida edi. Moddiy omillarga universal va hal qiluvchi vosita sifatidagina qaralgan bo'lsada, uning asosini ilm va ma'rifat tashkil etadi. O'zbek xalqining buyuk mutafakkirlari insonning jamiyatdagi o'rni, uning ulkan salohiyatiga ma'naviy jihatdan yuqori baho bergan, insonni ham jismoniy, ham ma'naviy kamol toptirish bilan ma'rifatli jamiyat qurish haqidagi nazariyalari ilgari surilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy inson o'z tafakkuri va ma'rifatga intilishi bilan har qanday vazifani hal eta olishini³³ o'z asarlarida ochib bergan.

Faylasuf Tomas Gobbs insonni birinchi navbatda davlatning bir qismi deb hisoblagan. U xalqning xizmatkori bo'lishi va uning baxti va xavfsizligini ta'minlashi kerak. Shu bilan birga faylasuf davlat tuzumini tanqid qilib, u odamlarni kamsitadi, haqorat qiladi, deb hisoblaydi. Uning fikricha, “Bilimga ega bo'lgan qobiliyat shaxsda ma'rifat”³⁴ shaklida namoyon bo'ladi.

Ma'rifatni inson va jamiyat taraqqiyotidagi sensualistik yondashuvni boshlanishi faylasuf olim Immanuel Kantning “Ma'rifat nima?”³⁵ nomli maqolasidan keyin yangi sifat bosqichga ko'tarilgan. Jamiyat taraqqiyotida ma'rifatli inson sensualistik qarashlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati haqida De Sent-Evremon, Beyl, Volter va Monteske kabi faylasuflar Yevropada rivojlanishga o'z qarashlari bilan hissa qo'shgan. So'nggi o'n yilliklarga kelib ma'rifatni rivojlanishi faqatgina moddiy (jismoniy) aktivlardan iborat degan fikr o'z kuchini yo'qotdi. Endi kelajakda har qanday moddiy yoki insoniy munosabatlar ma'rifatdir degan qarash ilgari surilmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishida insonga faqat iqtisodiy sohadagina emas, balki bilim hosil qilish mumkin bo'lgan ma'rifat va uning ma'naviy jarayonlardagi mohiyati markaziy o'rinni egallamoqda Zero, bevosita inson avloddan avlodga meros bo'lib qoladigan bilimlarni egallash va ulardan samarali foydalanish qobiliyatiga ega hisoblanadi. “Ma'rifatli jamiyat” ma'naviy kategoriya sifatida o'z ifodasini topgan bu g'oya jahon BMT ekspertlari tomonidan jamiyatni, insonni rivojlantirish dinamikasiga ta'sirini aniqlaydigan modellar yordamida ishlab chiqilgan yangi “Insoniyatni barqaror rivojlantirish” nazariyasi, “Milliy boylik konsepsiyasi” kabi ijtimoiy tafakkur negizini tashkil etmoqda.

Tadqiqotda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma'rifatli jamiyatni qurishda inson sensualistik qarashlarining ijtimoiy-falsafiy mohiyati tizimli ravishda o'rganish hamda uni taqqoslash metodi orqali yuksalishiga e'tibor qaratiladi.

Jamiyat taraqqiyotida sensualistikaning mazmun-mohiyatini, uni ma'rifatga va inson qarashlariga ta'sirining ilmiy-nazariy asoslari haqidagi tadqiqotlar tahlili quyidagi xulosalarga olib keladi.

Sensualizm (lot. *sensus* — his, sezish, idrok, ma'no), degan mazmunda falsafaning empirizmga yaqin psixologik yo'nalish sifatida, insonning sezgirligi, bilimning ishonchligi va boshlang'ich asosiy shakli sifatida e'tirof etiladi³⁶. Bu esa insonning bilimga, ma'rifatga asoslangan qarashlarini shakllanganlik darajasini belgilaydi.

Sensualizmning mumtoz formulasi sifatida “Ongda tuyg'u shakllanadi”³⁷ qarashiga borib taqaladi. Unga ko'ra insonning hissiy idroki psixologik va jismoniy nuqtayi nazardan harakat qilishga undaydi.

Bir nechta G'arb faylasuflari jumladan, J. Berkli inson qarashlarida sensualistik sezgilarni idrok etish uchun bilim kerak deb ta'kidlaydi. Boshqa bir faylasuf D. Yum esa inson sensualistik

³¹ Роғиб Исфаҳоний “Ал-муфрадат фи ғарибил қуръон”. – Б 450.

³² Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. – Тошкент, 2016. – Б 45.

³³ Алишер Навоий. “Хайрат ул-аброр” МАТ. Т.7. – Тошкент, 1991.

³⁴ Гоббс Т. О человеке // Сочинения: в 2 т. Москва. 1991. Т. – С 513.

³⁵ <https://khyuldoshev.wordpress.com/2022/01/03/marifati-nedir/>

³⁷ Ўша манба. – С 206.

qarashlari ancha izchil shakllanishi uchun shaxsning hislari yig'indisini nimadan iborat ekanligini o'z qarashlarida bayon etadi. E. Koidillak inson sensualistik qarashlarining eng tizimli vakillaridan biri sifatida edi. U "Hislar haqida risola" sidda sezgilardan bilim va aqliy hayotning butun mazmunini chiqarishga harakat qilgan. E. Kondillakning fikricha, "sezgilar to'plami (ma'rifatli inson sezgisi) tasavvurlari, zavq va norozilik tuyg'ulari ham ulardan kelib chiqadi"³⁸, deb ta'kidlaydi. Bu yerda hislar va tasavvurlar birikmasi sifatida ifodalashga harakat qilgan bo'lsa kerak. Chunki, xotirada saqlangan sezgilar yoki hislarni inson qarashlarini ifodalaydi.

Sensualizm (fransuzcha sensualisme, lotincha sensus — sezish, his qilish) bilish nazariyasidagi yo'nalish bo'lib, unga ko'ra ma'rifatli inson haqiqiy bilim shaklini namoyon etuvchidir. Ratsionalizmdan farqli o'laroq, sensualizm sezgi a'zolari faoliyatidan bilimning butun mazmunini olishga intiladi. Sensualizm hissiyotlarni tan oladigan empirizmga yaqin ishonchli bilim manbayidir.

Jahon falsafa qomusi lug'atida "sensualizm"ga qo'yidagicha ta'rif berilgan. "Sensualizm – bilimning mohiyati va paydo bo'lishini o'rganuvchi falsafiy yo'nalishlardan biri;

Bilimlarning aniqligi, haqqoniyligi va ishonchliligi sezgilarga bog'liqdir, deb hisoblaydigan ta'limot;

Olamni anglash va idrok etishda hissiy bilishning ahamiyatini mutlaqlashtiradigan g'oya va qarashlar majmuyi.

Sensualizm emperizmning ajralmas qismidir. Insonning sezgilar (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, badan sezgisi) vositasida bilishi narsa va hodislarga xos bo'lgan tashqi xususiyatlar, belgilarni farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalani uchun yordam beradi"³⁹. Bundan ma'lumki, inson o'zligini anglashi uchun zarur bo'lgan tuShuncha sifatida namoyon bo'lishini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Mo'ydinov, A. (2021). Yoshlarni turli tahdidlardan himoya qilishda ajdodlar merosidan foydalanishning ahamiyati. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 132-137.
2. Asilbek, M. (2022). Socio-philosophical aspects of education of an enlightened person in the development of society. *Conferencea*, 183-186.
3. Adham o'g'li, M. A. (2022). The role of national witchcraft heritage in the spiritual rise of society (socio-philosophical analysis). *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 10, 122-127.
4. Muydinov, A. (2022). Enlightenment in turkestan in the second half of the xix-early xx centuries. Enlightenment by jadid school. *Asia pacific journal of marketing & management review issn: 2319-2836 Impact Factor: 7.603*, 11(10), 14-20.

TA'LIM JARAYONIGA "YASHIL" BIZNESNI FAN SIFATIDA TASHKIL ETISH VA SOHANI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Raximova Kizlarxon Ne'matjon qizi

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Maqolada yashil biznesni tashkil etish rivojlantirish uchun nazariy ma'lumotlar berilgan va talabalar uchun yashil iqtisodiyot fani bilan yashil biznes fani ham fan sifatida kiritish tavsiya etilgan. Shu bilan birga, tadbirkorlikni joriy etish bo'yicha yo'l yo'riqlar hamda statistic ko'rsatgichlar haqida ma'lumotlar ketgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, tadbirkorlik, yashillashtirish, Yashil iqtisodiyot, fan, ta'lim, talabalar, mehnat layoqatlilik.

³⁸ Кондиллак Э. "Трактат об ощущениях". Москва. Мысль, 1980—1983. — Серия «Философское наследие».

Jahonda “Yashil” biznes jadal rivojlanayotgan soha bo‘lib, iqtisodiyot va atrof-muhitga sezilarli ta’sir etmoqda. Bu ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni birinchi o‘ringa qo‘yadigan yangicha korxonalarni shakllantirish va rivojlantirishni nazarda tutadigan tadbirkorlik turidir. Yevropa atrof-muhit agentligi (EEA) tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi yalpi ichki mahsulotining (YIM) 2,5 foizini ekologik mahsulotlar tashkil etgan. Bu tarmoqda 4,2 milliondan ziyod mehnatga layoqatli insonlar ish bilan ta’minlangan⁴⁰. Evropa Ittifoqi “yashil” tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida hududlarda uglerod chiqindilarini 2030-yilga kelib 55%ga kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish, binolarni ta’mirlash, transport tizimini “Yashil”lashtirish va barqaror rivojlanishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirmoqda. “Yashil” infratuzilmani tashkil etish rejasini to‘liq amalga oshirish albatta investitsiyalarni jalb qilishni taqazo etadi. Yevropa investitsiya banki hisobotiga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi qayta tiklanadigan energiya loyihalari, “yashil” transport va “yashil” tadbirkorlikni rivojlantirish uchun 4,1 milliard yevro sarmoya kiritgan⁴¹. Ushbu holat mamlakatimizda “Yashil” biznesni ilmiy tadqiq etish bugungi kundagi dolzarb malalardan biri hisoblanadi.

Jahonda “Yashil” biznes faoliyati bilan bog‘liq tadbirkorlik faoliyati ushbu turining o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda “Yashil” biznesning zamonaviy yondashuvlarini ishlab chiqish, faoliyatni samarali yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish, tashkil etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, rivojlantirish imkoniyatlarini o‘rganish, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar asosida “Yashil” biznes faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish alohida kasb etadi.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasi hamda “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda bir qator vazifalar belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qaroriga muvofiq 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasida “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish va “Yashil” o‘sishni ta’minlash dasturi qabul qilindi. U yerda “Yashil” investitsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, xususiy sektorga keng imkoniyatlar yaratish va “Yashil” innovatsiyalarni joriy etishda xususiy investorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida davlat-xususiy sheriklikni va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish vazifalari belgilab berilgan⁴². Mazkur vazifalarning izchil va samarali amalga oshirilishi o‘z navbatida, bu boradagi muammolarni ilmiy tadqiq etish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Bunda mamlakatimiz ichki bozorini sifatli tovar va xizmatlar bilan ta’minlash borasida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlarda kichik va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar va imtiyozlar tizimi amal qila boshladi. Tadbirkorlik sub’ektlariga nisbatan huquqiy ta’sir choralari endilikda faqat sud orqali qo‘llaniladi. Bu esa nazorat organlari xodimlarini o‘z ishiga yanada mas’uliyat bilan yondoshishini taqozo etadi. Boisi ular tekshiruv yakuni bo‘yicha tadbirkorga jarima qo‘llash lozim bo‘lsa, buni sud hukmiga havola etadi. Barcha xujjat va dalillar sud tomonidan holis va chuqur o‘rganilib, da’vo asosli bo‘lsagina bu haqida qaror chiqariladi. O‘zbekistonda kichik tadbirkorlik va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining

⁴⁰ EEA, (2019). Employment in the environmental goods and services sector. Available at: <https://www.eea.europa.eu/data-and-maps/data/external/employment-in-egsseurostat>

⁴¹ M.R.Marković, Kabir Md. Shahjahan. Green entrepreneurship at the global level: Challenges and perspectives-2023. 16-23 B.

⁴² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrda “2030 yilgacha O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarori.

O'zbekistonga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mulk shaklidan qat'iy nazar tarmoq yo'nalishiga qarab qo'yilgan miqdoriy ko'rsatkichlar belgilangan:

- ishlab chiqarish sohasidagi mikrofirmalarda 10 nafargacha;
- savdo va xizmat ko'rsatish sohalarda 5-nafargacha;
- ishlab chiqarish sohasidagi kichik korxonalarda 40 nafargacha;
- qurilish, qishloq xujaligi va boshqa ishlab chiqarish sohalarda 20 nafargacha;
- ilm-fan, ilmiy, xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish sohalarda 10 nafar kishini

tashkil etadi.

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarga biznes faoliyatini tahlil qilishning murakkab bo'lgan usullari orqali turli raqobat jarayonlarini, kon'yunkturaviy o'zgarishlarni yoritib berish, shu bilan bir satorda biznes muhitini tashkil etish, iste'molchi xulq-atvorini modellashtirish, tovarning sifati, uning raqobatdoshligini ta'minlash, firmaning bozordagi strategiyalarini to'g'ri tanlash bo'yicha yo'nalish profiliga mos bilim, ko'nikma va malaka shakllantirishdir.

Fanning vazifasi - talabalarga ishlab chiqaruvchilar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlarini, bozor kon'yunkturasini tahlil qilish yo'llari va usullarini, turli iqtisodiy matematik modellar yordamida tahlil qilish va prognozlashni amapga oshirish yo'llarini, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar bozorida vujudga kelishi mumkin bo'lgan turli vaziyatlarni mantiqiy evristiq va iqtisodiy matematik modellar orqali tahlil qilish amalga oshirish, firmaning bozor strategiyasini tanlash bo'yicha turli holatlarni tahlil qilish va qarorlar qabul qilishni o'rgatishdan iboratdir.

Kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar davlatga bog'liq bo'lmagan holda, ya'ni katta kapital mablag'larsiz o'zlari ish joylarini joriy etishlari, hozirgi davrda bizda vaqtinchalik mavjud bo'lgan tovarlar tanqisligini kamaytirishlari va, hattoki, bu tanqislikni butunlay yo'qotishlari mumkin. Hozirgi jamiyatimizda kichik korxonalar faoliyatini ayrim kishilarning ehtiyojlarini qondirish sari yo'naltirish zarur. Bu narsa maishiy xizmat ko'rsatish hamda xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish sohalarda yaqqol ko'rinmoqda. Kichik korxonalar texnologiya yangiliklarini joriy etishda ham g'oyat katta ahamiyatga ega.

Bizning respublikamizda kichik korxonalar soni va ular ishlab chiqargan mahsulotlar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Kichik korxonalar O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar to'g'risida", "Mulk to'g'risida", "Erkin tadbirkorlik faoliyati kafolatlari to'g'risida"gi kabi qonunlari, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa mexyoriy hujjatlar asosida tashkil etilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.:O'zbekiston, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son, www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 3 maydagi "Pilla yetishtirish va ipakchilik sohasida bozor mexanizmlarini joriy qilishni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-72-son farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 1 iyundagi PF-80-son "Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi" Farmoni.
6. Rakhimova, Q. Socio-economic necessity of increasing the importance of green business. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(4), 2022, 034-1037.
7. Raximova Qizlarxon Ne'matjon qizi, Z.I.Jumaqulov. Qishloq xojaligi ishlab

chiqarishini modernizatsiyalshni takomillashtirish va innovatsion samaradorlikni oshirish yo'nalishlari. Muqobil energiya turlari va ulardan foydalanish istiqbollari. 3 bet, 2017-yil.

8. Raximova Qizlarxon Ne'matjon qizi. Xizmat ko'rsatish korxonalari iqtisodiy rivojlanishi va yuksalish omillari. "Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida real sector korxonalarini baholash". 3 bet, 2016-yil.

9. Raximova Qizlarxon Ne'matjon qizi. Global axborot xavfsizligi muommalari va uning salbiy oqibatlari. "Axborot xuruji davrida yoshlar ongini shakllantirish omillari". 3 bet, 2013-yil.

10. Raximova Qizlarxon Ne'matjon qizi. Mamlakatimiz agrosanoat majmuasining tarkibi va uni rivojlantirishning o'ziga xos hususiyatlari; Zamonaviy fan ta'limning dolzarb masalalari. 3, 2017-yil.

11. Raximova Qizlarxon Ne'matjon qizi. Mustaxkam oila yilida oilaviy biznesni rivojlantirish omillari. "O'zbekiston iqtisodiyoti taraqqiyotida kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, kasanachilikni rivojlantirish, qishloq xo'jalik xomashyosini qayta ishlash va sanoat ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning o'rni". 3 bet, 2012-yil.

12. Raximova Qizlarxon Ne'matjon qizi. Yer maydonlarini optimallashtirish orqali oziq-ovqat mahsulotlarini yanada ko'paytirish istiqbollari. "Ilm-zakatimiz senga, ona-vatan!" ilmiy-amaliy anjuman. 3 bet, 2016-yil.

KORRUPSIYAVIY MUNOSABATLARNI OLDINI OLIHNING FALSAFIY-ANALITIK TAHLILI

Soxibov Salohiddin Anvar o'g'li

FarDU dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda korrupsiya xavfsizligini shakllantirishda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar rejasini aniq va izchillikda belgilab olishning analitik tahlili keltirilgan. Korrupsiyaviy munosabatlarni yuzaga kelishini oldini olish, shu bilan birga turli zanjirli korrupsiyaviy munosabatlar asosida iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir o'tkaza oladigan, davlat byudjetini noto'g'ri yo'anltirilishiga, noto'g'ri sarflanishiga olib keladigan sharoitni yaratilishiga qarshi kurashish mumkinligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, korrupsiyadan xavfsizlik, korrupsiyaviy munosabat, давлат, конун, порахўрлик, iqtisodiy barqarorlik, халоллик, manfaatlar to'qnashuvi.

Аннотация: В данной статье представлен аналитический анализ четкого и последовательного определения плана мероприятий по предотвращению и устранению конфликта интересов при формировании коррупционной безопасности в обществе. Предупреждение возникновения коррупционных отношений, в то же время возможность борьбы с созданием условий, которые могут негативно сказаться на экономической стабильности, привести к нерациональному и нецелевому расходованию средств государственного бюджета на основе различных цепных коррупционных отношений с учетом.

Ключевые слова: коррупция, защита от коррупции, коррупционное отношение, государство, закон, взяточничество, экономическая стабильность, честность, конфликт интересов.

Annotation: This article presents an analytical analysis of clearly and consistently defining a plan of measures to prevent and eliminate conflicts of interest in the formation of corruption security in society. Preventing the occurrence of corrupt relations, at the same time, the ability to fight against the creation of conditions that can have a negative impact on economic

stability, lead to misdirection and improper spending of the state budget on the basis of various chain corrupt relations given.

Keywords: corruption, safety from corruption, corrupt attitude, state, law, bribery, economic stability, honesty, conflict of interest.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida korrupsiyaga qarshi kurash yangi bosqichga olib chiqildi. Ayniqsa, O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida korrupsiyaga qarshi murosasizlikni shakllantirish, davlat miqyosida kuchli kurash mexanizmlarini yaratish, jamiyatda jamoatchilik monitoringini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ishlar yo'lga qo'yilmoqda. Zero, «yangi O'zbekiston strategiyasi korrupsiyadan holi mamlakat barpo etishni nazarda tutadi. Ushbu maqsad bugun butun jamiyatimizni jipslashtiruvchi omilga aylanmoqda. Korrupsiya balosini jamiyatimiz hayotidan yo'q qilishga qaratilgan siyosat kelgusida ham qat'iy davom ettiriladi»⁴³. «Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo'l qo'ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to'g'risidagi qonun talablarini amalda ta'minlash bo'yicha qat'iy choralar ko'rishimiz zarur.»⁴⁴ Shuningdek, korrupsiyaviy munosabatlarning ochiq-oydin tan olinishi, xalqaro tashkilotlar tomonidan baholangan vaziyatni to'g'rilash uchun davlat siyosati darajasida chora-tadbirlarning belgilanayotganligi e'tirofqa sazovordir. Jumladan, «Bu borada Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reestri»ning yuritilishi, «Davlat xizmatchilarining daromadlari va mol-mulkini deklaratsiya qilish to'g'risida»gi qonun qabul qilinishi olib borayotgan sa'y-harakatlarimizning samarasini oshirishga xizmat qiladi. «Korrupsiyani qabul qilish indeksi» reytingida mamlakatimizning egallayotgan o'rinlari bu boradagi harakatlarimizni baholovchi asosiy ko'rsatkichlar sirasiga kiradi»⁴⁵. Bu esa, korrupsion xavfsizlikni shakllantirishda nimalarga e'tibor qaratish, qanday kurash usullarini ishlab chiqish, jazolash mexanizmlarini yaratish borasida rivojlangan davlatlar tajribasi asosida aniq chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishga imkon beradi.

Bugungi kunda jamiyatda korrupsiya xavfsizligini shakllantirishda manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va uni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar rejasini ham aniq va izchillikda belgilab olishni talab etmoqda. Bu orqali korrupsiyaviy munosabatlarni yuzaga kelishini oldini olish mumkin bo'ladi, shu bilan birga turli zanjirli korrupsiyaviy munosabatlar asosida iqtisodiy barqarorlikka salbiy ta'sir o'tkaza oladigan, davlat byudjetini noto'g'ri yo'qantirilishiga, noto'g'ri sarflanishiga olib keladigan sharoitni yaratilishiga qarshi kurashish mumkin bo'ladi.

«Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida»gi qonunga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun «davlat organlarining davlat xizmatchilari mansab yoki xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymasligi»⁴⁶ kerakligi aniq belgilangan. Bu esa, davlat organlari davlat xizmatchilari, mansabdor shaxslar faoliyatini tartibga solish zaruratini ham keltirib chiqaradi. Unga ko'ra, mansabdor shaxslarni turli sohalarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishini cheklash, yoki yaqin qarindoshlarini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishiga doir aniq qoidalarni ham ishlab chiqishni talab etadi. Mazkur qonunga ko'ra, davlat organlari davlat xizmatchilari yoki mansabdor shaxslar faoliyatida «manfaatlar to'qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, bevosita rahbarni darhol xabardor qilishi kerak. Manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar olgan rahbar bu to'qnashuvning oldini olish yoki uni bartaraf etish

⁴³Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston. 2022. – 428-430 b.

⁴⁴Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston. 2016. – 10 b.

⁴⁵Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston. 2022. – 433 b

⁴⁶O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni. 2017. 4 yanvar// <http://parlament.gov.uz/uz/laws/adopted/253/19165>

yuzasidan o'z vaqtida choralar ko'rishi shart»ligi belgilangan bo'lsada, bu qoida bajarilmaganda qanday huquqbuzarliklar sodir bo'lishi, qanday jazo qo'llanishi aniq belgilab qo'yilmagan. Shuning uchun korrupsiya xavfsizligini shakllantirishda manfaatlar to'qnashuvi holati kuzatilishi mansabdor shaxs faoliyatini so'roq ostida qoldiradigan darajada munosabatga tortilsa, jamoatchilik monitoringini bunday holatlarda yuqori mas'uliyat bilan ishlasa maqsadga muvofiq bo'lardi.

Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasini quyidagicha tariflash mumkin. Davlat tashkiloti xodimining, uning yaqin qarindoshlarining va unga aloqador shaxslarning shaxsiy manfaatlari bilan fuqarolarning, tashkilotning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan va kelayotgan (mavjud manfaatlar to'qnashuvi) yoxud yuzaga kelishi mumkin bo'lgan (taxmin qilinayotgan manfaatlar to'qnashuvi) vaziyatga nisbatan manfaatlar to'qnashuvi ishlatiladi. Demak, manfaatlar to'qnashuvi deganda shaxsiy manfaatdorlik tashkilot xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoki ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan tashkilotning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat tushuniladi.

Iqtisodiy erkinlik, iqtisodiy demokratiya to'g'risida gap ketgan zahoti AQShlik siyosatshunos Robert Dalni esga olishadi va uning «plyuralistik demokratiya» g'oyasiga murojaat qilishadi. Uning ilmiy g'oyasiga ko'ra, tenglik har doim erkinlikka, iqtisodiy demokratiya har doim siyosiy demokratiyaning rivojlanishiga olib kelavermaydi. Sanoatning rivojlanishi, mulkiy plyuralizmning rang-baranglashuvi «siyosiy hayotda foydalanadigan resurslarga teng ega bo'lmagan fuqarolar korrupsiyani shakllanishiga olib keldi»⁴⁷. Siyosiy hayotda faol qatnashishini ta'minlaydigan resurslarga (mulkka, mavqega va b.) ega bo'lmaslik kishilarning ijtimoiy-siyosiy hayotga ta'sirini susaytiradi, hatto siyosiy demokratiyani fiksiyaga aylantiradi. Bu o'rinda AQSh prezidentligiga, mer lavozimlariga mudom yirik mulk egalari, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yuqori mavqega ega bo'lgan shaxslar da'vogar bo'lib kelganini eslash o'rinlidir. Demak, iqtisodiy demokratiya hamma vaqt ham siyosiy demokratiyaga xizmat qilavermas va jamiyatda tenglik, adolat tamoyillarining qaror topishiga xizmat qilavermas ekan.

Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi rahbari A.Burxonov fikricha, «so'nggi yillarda davlat organlari faoliyati ochiqligi va shaffofligini ta'minlash mexanizmlari, shuningdek, jamoatchilik nazorati institutlari tubdan takomillashtirildi. Raqamli va onlayn texnologiyalarning keng qo'llanilishi davlat organlarining jamiyat oldidagi hisobdorligini oshirdi. Yer uchastkalari va davlat aktivlarini, shuningdek, avtotransport vositalari uchun davlat raqam belgilarini onlayn auksionda sotish tizimi yo'lga qo'yildi hamda doimiy takomillashtirilib borilmoqda»⁴⁸. Mana shunday tashkiliy masalalarni yangicha munosabat asosida hal etilishi ham jamiyatda korrupsiyaviy munosabatlarga bo'lgan fikrlash tarzini tubdan o'zgartirdi. Shu bilan birga davlat xizmatlarini raqamlashtirilishi va inson omilini chiqarib tashlanishi ham o'z samarasini ko'rsata boshladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston. 2022. – 428-430 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston. 2016. – 10 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.: O'zbekiston. 2022. – 433 b

⁴⁷Dal R. Vvedenie v ekonomicheskuyu demokratiyu. Per. s angl. –M.: Nauka; SP IKPA, 1991. 15 s.

⁴⁸Korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy birdamlikni talab etadi.

<https://anticorruption.uz/uzc/item/2021/04/06/2021>. 6 aprel.

4. O'zbekiston Respublikasining «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi Qonuni. 2017. 4yanvar// <http://parlament.gov.uz/uz/laws/adopted/253/19165>
5. Dal R. Vvedenie v ekonomicheskuyu demokratiyu. Per. s angl. –M.: Nauka; SP IKPA, 1991. 15 s.
6. Korrupsiyaga qarshi kurashish umummilliy birdamlikni talab etadi. <https://anticorruption.uz/uzc/item/2021/04/06/2021>. 6 aprel.

O'ZBEKISTONDA IJTIMOY FANLARNI O'QITISHDA ADOLAT, TENGLIK VA INSON HUQUQLARINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI

Do'stov Bahodir Tashpo'latovich

O'zbekiston-Finlyandiya Pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
bohodustov@inbox.ru <https://orcid.org/0009-0001-6968-3490>

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ijtimoiy fanlarni o'qitishning dolzarbligi adolat, tenglik va inson huquqlari tamoyillarini rivojlantirish nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o'zgarishlar sharoitida o'quvchilarda ushbu qadriyatlarni uyg'un va demokratik jamiyatning poydevori sifatida anglashni shakllantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy adolat, gender tengligi va inson huquqlariga hurmat g'oyalarini targ'ib qilishda ta'lim dasturlarining o'rni tahlil etadi, shuningdek, o'quv jarayonida ushbu tamoyillarni samarali o'zlashtirishga ko'maklashadigan usul va yondashuvlarni tadqiq qiladi. Ijtimoiy fanlarni o'qitishda xalqaro tajriba va milliy an'analarni uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratiladi. Maqola jahonshumul va mahalliy muammolar sharoitida ijtimoiy fanlarni o'qitishni takomillashtirish masalalari bilan qiziquvchi pedagoglar, tadqiqotchilar va ta'lim sohasidagi mutaxassislarga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy fanlar, ta'lim, adolat, tenglik, inson huquqlari, Jamiyat o'zgarishlari, texnologik o'zgarishlar, bag'rikenglik.

KIRISH. Milliy islohotlarga muvofiq 2016-yildan buyon O'zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida modernizatsiya, ochiqlik va xalqaro hamkorlikka urg'u berib, muhim islohotlarni amalga oshirib kelmoqda. Ta'lim islohoti mazkur kun tartibining asosiy yo'nalishi bo'lib, ijtimoiy fanlar fuqarolik mas'uliyati va tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. O'quv dasturlariga adolat, tenglik va inson huquqlarini singdirish ushbu maqsadlarga mos keladi va o'quvchilarni taraqqiyparvar jamiyatga hissa qo'shishga tayyorlaydi. Demokratik qadriyatlarni targ'ib qilish orqali ushbu tushunchalarni o'rgatish demokratik tamoyillar, qonun ustuvorligi va inklyuziv boshqaruv haqida xabardorlikni shakllantirishga yordam beradi. Bu tarixan mustabid tuzumdan siyosiy va ijtimoiy ochiqlikka o'tayotgan O'zbekiston uchun juda muhim. Ijtimoiy fanlar ta'limi yoshlarga jamiyat muammolariga konstruktiv yondashish imkonini beradi. Jamiyatning barqaror rivojlanishi va aholi farovonligini ta'minlashda ijtimoiy fanlarning o'rni salmoqli hisoblanadi. O'zbekistonda ijtimoiy fanlarni o'qitish, ularning ahamiyati va zamon talablariga javob berish yo'llari haqidagi qarashlar, bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy dunyo jahonshumullashuv, texnologik o'zgarishlar va ijtimoiy o'zgarishlar kabi misli ko'rilmagan muammolarga duch kelmoqda. Bu borada o'zgaruvchan sharoitlarga muvaffaqiyatli moslasha oladigan va yechim topa oladigan malakali kadrlarni tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda bunday yangi avlod mutaxassislarni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlar muhim o'rin tutadi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik va siyosat kabi keng ko'lamli fanlarni qamrab oladi. Ular ijtimoiy jarayonlarni, madaniy xususiyatlarni va inson faoliyatining psixologik jihatlarni tushunishga yordam beradi. Etnik va madaniy guruhlar xilma-xilligi mavjud bo'lgan O'zbekiston sharoitida bag'rikenglik va madaniyatlararo muloqotni

rivojlantirish uchun ushbu fanlarni o'rganish ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy fanlar sotsiologiya, psixologiya, antropologiya, ta'lim, iqtisodiyot va boshqa tarmoqlarni qamrab oladi.[3] Bu fanlar inson xulq-atvorini, jamiyatning strukturasi va ijtimoiy munosabatlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. O'zbekistonda ijtimoiy fanlarni o'rganish orqali, davlat siyosati, iqtisodiy rivojlanish va jamiyatdagi o'zgarishlarni yaxshiroq anglash mumkin. Inson huquqlari va xalqaro standartlar O'zbekiston o'tmishdagi inson huquqlari muammolari uchun xalqaro tanqidlariga duch keldi. Inson huquqlari sohasidagi ta'limni joriy etish inson qadr-qimmatini hurmat qilish, xilma-xillik va huquqiy himoyani rag'batlantirish orqali bu muammoni hal qiladi. Shuningdek, u O'zbekistonning BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari va inson huquqlari bo'yicha konvensiyalar kabi xalqaro tuzilmalar oldidagi majburiyatlariga mos keladi. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning asosiy vazifalaridan biri talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishdir.[2] Tanqidiy fikrlash murakkab ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish va ijtimoiy hayotda konstruktiv ishtirok etish uchun zarurdir. Axborot tez o'zgarib turadigan zamonaviy iqtisodiyot va siyosat sharoitida o'z bilimlarini tanqidiy idrok etish va asosli qarorlar qabul qilish qobiliyati eng muhim ko'nikma hisoblanadi. Ijtimoiy fanlar ta'limining eng muhim maqsadi talabalarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishdir. Talabalar ijtimoiy fanlar predmeti orqali voqealarni, ijtimoiy protsesslarni chuqur tahlil qilish va mustaqil fikrlash, o'z fikrlarini bayon etish qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega bo'ladilar. O'zbekistonda adolat, tenglik va inson huquqlarini ta'lim tizimida rivojlantirishning ijtimoiy-siyosiy islohotlar konteksti yaratilib kelindi. O'zbekiston 2016-yildan buyon amalga oshirilayotgan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar davrida adolat, tenglik va inson huquqlari prinsiplarini joriy etishga alohida e'tibor berib kelmoqda. Bu jihatdan ta'lim sohasi strategik ahamiyatga ega bo'lib, yangi avlodning qadriyatlar tizimini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan

Islohotlarning asosiy yo'nalishlari va ta'limga ta'siri quyidagicha:

- Konstitutsiyaviy islohotlar: 2023-yilda qabul qilingan yangi Konstitutsiyada inson huquqlari, adolat va tenglik tamoyillari kuchli ta'kidlangan (13, 18, 45-moddalar). Bu ta'lim dasturlariga inson huquqlari mavzusini joriy etishning huquqiy asosidir.[1]
- Milliy ta'lim strategiyasi 2021-2030-yillarga mo'ljallangan.
- "Ijtimoiy adolat" va "inklyuziv ta'lim" tushunchalarining kiritilishi;
- Darsliklarda gender tengligi, inson huquqi va fuqarolik jamiyati mavzularini kengaytirish.
- Qonunchilikdagi o'zgarishlar: "Ta'lim to'g'risida"gi qonun (2020) va "Oilaviy zo'raonlikka qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun (2019) ta'limda tenglik va huquqlarni muhofaza qilishni talab etadi.[7]

Ta'lim tizimini rivojlantirishdagi amaliy qadamlar:

- Qayta ishlangan darsliklar: Ijtimoiy fanlar (jumladan, "Fuqarolik jamiyati", "Inson huquqlari") darsliklariga BMTning "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi", O'zbekistondagi qonunlar bilan tanishtirish bo'limi kiritildi.

- O'qituvchilarning salohiyatini oshirish: Xalqaro hamkorlikda (YUNESKO, YUNISEF) "Inson huquqlari va tenglik" mavzusida treninglar o'tkazilmoqda.

- Innovatsion usullar:

- Ta'lim muassasalarida "Inson huquqlari maktabi" to'garaklarining tashkil etilishi;
- "Adolatli jamiyat" mavzusida simulyatsion o'yinlar va munozaralarning o'tkazilishi.

Ijtimoiy fanlarning o'zgaruvchi roli (tarix, fuqarolik jamiyati, huquq) darslarida:

- Qadriyatlarining o'zgarishi, Sovet davridagi targ'ibot o'rniga insonni markazga qo'yuvchi qarashlarning o'rganilishi,

- Ijtimoiylashuv mexanizmi, O'quvchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish uchun ijtimoiy loyihalarda ishtirok etishi (masalan, "Yosh huquq himoyachilari" tashkiloti) amalga oshirilishi belgilangan.[5]

Ijtimoiy fanlarni o'qitishda, albatta, muammolar va istiqbollor ham mavjud.

- Muammolar:

- Ayrim o'qituvchilarning an'anaviy metodlarga moyilligi;

- Darsliklardagi ma'lumotlarning nazariy va amaliy jihatdan notengligi.

- Istiqbolli yo'nalishlari:

- Ijtimoiy fanlarni o'qitishda raqamli platformalardan foydalanish (masalan, inson huquqlariga oid onlayn kurslar);

- Xalqaro tajribalarni (Finlyandiya, Kanada) milliy ta'limga moslashtirish.

O'zbekistonda 2021-2030-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston ta'lim strategiyasi"da ijtimoiy adolat va tenglikni ta'lim tizimiga integratsiyalashning quyidagi asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan.

Konstitutsiyaviy va huquqiy asoslar 2023- yilgi Konstitutsiyadagi yangiliklar:

· 18-modda - "Har bir inson huquq va erkinliklarga teng"

· 45-modda - "Har bir shaxsning bilim olish huquqi kafolatlanadi".[1]

· "Ta'lim to'g'risidagi ""gi 2020-yildagi qonunda inklyuziv ta'lim prinsiplari belgilangan.

· Gender tengligini ta'minlash O'quvchilarning 49% ayollardan iboratligini nazarda tutish.

· STEM (fan-texnika) sohasida qizlarni qo'llab-quvvatlash dasturlari.

· O'qituvchilarning 65% ayollardan iboratligini hisobga olib, gender tafovutlarini bartaraf etish.

Ta'lim sifatini tenglashtirish Yagona milliy ta'lim standartlarini joriy etish.

Digital tengsizlikka barham berish.2023 yildan "Elektron maktab" loyihasi

· Qishloq joylariga 10 000 dan ortiq kompyuter uskunalarini taqsimlash.

Ijtimoiy adolatning yangi mexanizmlari "Adolatli ta'lim" indeksini joriy etish (har yili monitoring o'tkazish).

· Huquqiy ma'rifatni ko'paytirish.

· "Yosh huquq himoyachilari" klublari.

· Maktablarda ombudsman institutini joriy etish.

· Ijtimoiy moslashuvchilik Pandemiya tajribasidan saboq olish.

· Nogironlar uchun alohida dasturlar.

· 1 millionga yaqin o'quvchiga distansion ta'lim imkoniyatlarini yaratish.

· Ijtimoiy tabaqalashtirishga qarshi kurash.

· Qashshoq oilalar farzandlariga stipendiyalarni ko'paytirish.

· "Ijtimoiy shartnoma" tizimi orqali ta'limdagi ijtimoiy mobillikni oshirish.

Metodik tahlil. Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish va texnologiyalarning innovatsion yondashuvlari bo'yicha quyidagilarni keltirib o'tish mumkin.

1. O'qitishning turli usullari:

- Problemani o'qitish: Bu metod talabalarni haqiqiy hayotdagi muammolarni hal qilishga undaydi. Masalalar orqali talabalar fikrlash, muammolarni aniqlash va ularni yechish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

- Tadqiqotga asoslangan o'qitish: Talabalar mustaqil tadqiqotlar olib borish orqali bilim olishadi. Bu metod o'z-o'zini boshqarish va tanqidiy fikrni rivojlantirishga yordam beradi.

2. Kuchli aloqa va muloqot.

- O'qitish jarayonida o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ochiq va samarali muloqot muhimdir. O'qituvchilar, talabalarni tinglash va ularga izohlar berish orqali ular bilan mustahkam aloqalar o'rnatishi kerak.

3. Gibril ta'lim:

- Gibril ta'lim modelida an'anaviy darslar va onlayn darslar birlashtiriladi. Bu yondashuv talabalar uchun yuqori moslashuvchanlikni ta'minlaydi va turli sharoitlarda o'qish imkonini yaratadi.

4. Samarali baholash tizimlari:

- Ta'lim jarayonida talabalarni baholashning zamonaviy usullari, masalan, shaklli baholash va o'rganish jarayonidagi rivojlanishlari uchun qayta aloqa berish muhimdir. Bu usullar, talabalarga o'z natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

5. O'quv dasturlari va modellarini yangilash.

- Ta'lim tizimida o'quv dasturlari va modellarni zamon talablari asosida yangilash zarur. Bu, o'qitilayotgan fanlarning dolzarbligini va samarasini ta'minlaydi.

6. O'qituvchilarni tayyorlash va rivojlantirish:

- O'qituvchilar uchun har 3 oyda texnologik treninglar hamda Yosh o'qituvchilar va tajribali ustozlar juftligini ta'minlash ishlari.

- Zamonaviy o'qituvchilar uchun doimiy ravishda ta'lim va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi kerak. O'qituvchilar yangi metodlar va texnologiyalarni o'rganish orqali o'zlarini yangilashlari lozim.[11]

7. Ijtimoiy-gumanitar fanlarning transditsiplinar yondashuvi.

- Ijtimoiy-gumanitar fanlar bir-biri bilan bog'liq bo'lgani uchun transditsiplinar yondashuvlar, ya'ni turli fanlarni birlashtirgan holda ta'lim berish, talabalar uchun yanada kengroq ko'lamda bilim olish imkonini yaratadi.

Bu ma'lumotlar ijtimoiy-gumanitar fanlarni O'zbekiston Jamiyatlarning transformatsiyasi va jamiyat o'zgarishlari bilan yuzma-yuz kelmoqda. Bugungi kunda globalizatsiya, texnologiyalar, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi ijtimoiy fanlarning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ijtimoiy fanlar jamiyatning muammolarini yanada chuqur o'rganish, tahlil qilish va ularga yechim izlashda muhim vosita hisoblanadi.[10]

Ijtimoiy fanlar ta'limi jamiyatning konstruktiv rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ushbu fanlar talabalarni ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlari munosabatlarini tushunishga yordam berishi bilan, ularning ijtimoiy faoliyatini va yosh avlod orasidagi o'zgarishlarni rivojlantirishda kerakli asoslarni taqdim etadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar talabalarni nafaqat nazariy faoliyatga, balki bilimlarni amalda qo'llashga ham tayyorlaydi. Ta'lim muassasalarining ushbu fanlarga yo'naltirilgan dasturlari amaliyot, tadqiqot va loyihalarni o'z ichiga oladi, bu esa kelajakdagi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan amaliy tajriba va ko'nikmalarni egallashga yordam beradi. Ijtimoiy-gumanitar fanlar iqtisodiyot, huquq va ekologiya kabi boshqa akademik fanlar bilan faol integratsiya qilinmoqda. Ushbu fanlararo o'zaro ta'sir ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun kompleks yechimlar ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, sotsiologiyani iqtisodiyot bilan birlashtirish kambag'allikni kamaytirish uchun samarali ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqishga yordam berishi mumkin.[9]

Ijtimoiy adolat va me'yorlar.

Ijtimoiy fanlarni o'qitish ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlarini rivojlantirishga yordam beradi. O'zbekistonda ta'lim tizimida ijtimoiy fanlarni joriy qilish, yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirish, gender tengligi va ijtimoiy inklyuziyani shakllantirish uchun alohida ahamiyatga egadir. Ijtimoiy fanlar inson huquqlari va ularning muhofazasi masalalariga alohida e'tibor qaratishi kerak. Inson huquqlarini, muhofaza mexanizmini, jamiyatdagi murosalar va huquqiy sifatida ijtimoiy transformatsiyalarni o'rganish, talabalarni faol jamiyat fuqarolariga aylantiradi. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim, rivojlanishda muhim elementlardan biri sifatida, tenglik, adolat va farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy adolatni rivojlantirish uchun ijtimoiy fanlar bilim olishning birlamchi manbai hisoblanadi.[4] Talabalar ijtimoiy faoliyatlar, betakrorlik, ma'naviy qoidalar va odob-axloq normalari haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar. Misol uchun, sotsiologiya va psixologiya fanlari talabalarga ijtimoiy xususiyatlarni, xalqning ixtiyor va ehtiyojlarini o'rganishda yordam beradi. Ijtimoiy adolatni rivojlantirish uchun ijtimoiy fanlar bilim olishning birlamchi manbai hisoblanadi. Ijtimoiy fanlarni o'qitish orqali tenglik konsepsiyasini tushunish tarbiyalanadi. Talabalar gender tengligining, ijtimoiy madaniyatning, rasa va etnik tenglikning muhimligini inobatga olishadi. Ijtimoiy fanlarni o'rganish, o'zgalarga nisbatan ehtirom, bo'ysunish va o'zaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam olib, ijtimoiy javobgarlikni oshiradi. Ijtimoiy fanlar talabalarni amaliy ishlar, tadqiqotlar va jamiyat muammolarini samarali hal qilish uchun tanlovlar va qarorlar qabul qilishda faol ishtirok etishga tayyorlaydi. Talabalar ijtimoiy vazifalarni hal qilishda, muhitni tadqiq qilishda, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni aniqlashda amaliy ko'nikmalarga ega bo'ladilar.[6]

Tadqiqot va natijalar. Amaliy tadqiqotlar ijtimoiy fanlar sohasida muammolarni aniqlash va hal qilish uchun olib boriladi. Ularda e'tibor jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni tadqiq qilishga qaratiladi. Talabalarning mazkur tadqiqotlari hayotiy vaziyatlarni o'rganish va yechimlarni taklif qilish maqsadida amalga oshiriladi. Amaliy tadqiqotlarda foydalaniladigan usullar mos ravishda ijtimoiy falsafa, sotsiologiya, psixologiya va iqtisodiyot fanlaridan olingan metodlarga asoslanadi. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun ma'lumot to'plashda oshkora mustaqillik, sotsiologik anketa, intervyu, fokus-gruppalar, tadqiqot stajirovkalaridan foydalanish mumkin. Tadqiqotlar yordamida olingan ma'lumotlar jamiyatning holati, muammolari va imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Qabul qilingan ma'lumotlar jamiyatni faol ravishda o'zgartirish uchun zarur bo'lgan yordamlarni taklif qiladi. Mos ravishda, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy doiralari takliflarini umumlashgan holda tadqiqot natijalari bilan bog'langan qarorlarni qabul qilishda asos bo'ladi. Tadqiqotlar natijalari asosida qarorlar qabul qilish jarayoni ijtimoiy fanlarda asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. Talabalar, muammolarni hal qilish uchun ilmiy asoslantirilgan takliflar uyg'unlashadi va amal qilishga tayyorlashadi. Tadqiqot orqali olingan ma'lumotlar jamiyatda ijtimoiy adolatni ta'minlash, tenglikni rivojlantirish va inson huquqlarini muhofaza qilishga yordam beradi. Amaliy tadqiqotlar jamiyat qarorlarini, ijtimoiy fanlar ta'limida istiqbollarni belgilash, jamiyatdagi muammolarni hal qilish va innovatsion yechimlarni ishlab chiqish uchun zarurdir. Har bir tadqiqot natijalari fuqarolik jamiyatining rivojlanishida, ijtimoiy adolatni ta'minlashda hamda inson huquqlarini hatto boshqa yo'sinda masalaga mos ravishda tashkil etilgan qarorlarga asos bo'ladi.[7]

Takliflar.

- Ijtimoiy fanlar o'qitishida zamonaviy metodlarni joriy etish.
- Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlarga e'tiborni kuchaytirish.
- Tadqiqotlar olib borish va ularni amaliy qo'llab-quvvatlash bugungi kunning eng muxim dolzarb vazifalaridan biridir..

XULOSA. O'zbekistonda adolat, tenglik va inson huquqlarining ta'lim jarayonida rivojlantirilishi bu faqat ta'lim masalasi emas, balki umumiy ijtimoiy-siyosiy modernizatsiyaning muhim qismidir. Bu yo'lda nafaqat davlat tomonidan qo'llanilayotgan chora-tadbirlar, balki har bir mutaxassisning shaxsiy ishtiroki zarur. Ijtimoiy fanlarning O'zbekistonda o'qitilishi jamiyatning rivojlanishi, iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shundan kelib chiqib, ijtimoiy fanlarning ta'limga integratsiyasi yoshlarning bilimni va qobiliyatlarini rivojlantirish, jamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.[8] Shunday qilib, ijtimoiy-gumanitar fanlar O'zbekistonda yangi avlod kadrlarini tayyorlashda tanqidiy fikrlash, kasbiy ko'nikmalar va fanlararo yondashuvni rivojlantirishda beqiyos rol o'ynaydi. Jahonshumullashuv va jamiyatning shiddat bilan o'zgarishi sharoitida zamonaviy tahdidlarga tayyor malakali mutaxassislarni shakllantirish uchun ta'lim muassasalarida ushbu fanlarga e'tiborni kuchaytirish zarur. Ijtimoiy fanlarni o'qitish ijtimoiy adolat, tenglik va inson huquqlarini rivojlantirishda so'zsiz muhim ahamiyatga ega. Bu fanlarning ta'limi, oldingi avlodga e'tibor berishdan tortib, ijtimoiy to'g'rilikni, faollikni va inson huquqlarini tushunishni rivojlantirishga yordam beradi. Ijtimoiy fanlarni yaxshi shakllantirish, fuqarolik jamiyatining dastlabki ta'lim manbai sifatida, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda katta rol o'ynaydi. Ijtimoiy fanlar orqali adolat, tenglik va inson huquqlarini o'qitish nafaqat qonuniy jihatdan, balki ma'naviy-axloqiy jihatdan ham jamiyatni yaxlitlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda ushbu yo'nalishda metodik yondashuvlarni ishlab chiqish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish va jamiyatning barcha qatlamlarini jalb etish orqali barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yilgi tahrir) – Toshkent: "Adolat", 2023.
2. "Inson huquqlari" Umumjahon deklaratsiyasi (1948) – BMTning rasmiy tarjimasasi.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning nutqlari va qarorlari: "Adolatli jamiyat va fuqarolarning huquqiy himoyasini ta'minlash yo'lida" 2021y.
4. Sh. Nigmonov - "Ijtimoiy adolat: nazariy va amaliy strukturalari" T- 2014-y
5. A. Madjidova - "Gender tengligi: nazariy va amaliy asoslar" — T-2019 y
6. Rahimova M. Yusupov A. Ijtimoiy fanlarni o'rgatishda innovatsion usullar" (TDPU, 2022 yil)
7. O'zbekiston 2021-2030 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston ta'lim strategiyasi"
8. F. T. Mirzaev "Ijtimoiy tadqiqotlar: nazariy va amaliy asoslar" T-2015y
9. A. I. Muxamedov Jamiyatning ijtimoiy munosabatlar tarixi" — T-2020 y
10. N. A. Ibodullaev — "Ijtimoiy o'zgarishlar va madaniyat" T-2018 y
11. Azizxo'jayeva N. "Ijtimoiy fanlarni o'qitishda zamonaviy metodlar" –Toshkent: "O'qituvchi", 2020.

HUQUQIY ONG VA MAJBURIYATNI ANGLASH – QONUNIYLIKNING POYDEVORI SIFATIDA

U.R.Sobirova

*Farg'ona viloyati Pedagogik Mahorat Markazi Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar metodkasi
kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada fuqarolarning o'z huquq va majburiyatlarini bilish darajasi jamiyatdagi qonuniylikka qanday ta'sir ko'rsatishi falsafiy, huquqiy va sotsiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat tushunchalari orqali qonuniylik tushunchasining ichki mohiyatini yoritadi. Shuningdek, huquqiy savodxonlikni oshirish qonunlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllanishiga, jamiyatda barqarorlik va adolat qaror topishiga olib kelishi ta'kidlanadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, huquqiy ong va majburiyatni anglash fuqarolarning qonuniylikka ongli ravishda amal qilishini ta'minlaydi va demokratik jamiyatni mustahkamlovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: huquqiy ong, huquqiy madaniyat, ijtimoiy mas'uliyat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmonida ta'kidlanganidek, "Yoshlarni ijtimoiy faollik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir." Bu yo'nalish nafaqat darslarda, balki talabalarning kundalik hayoti, ijtimoiy faoliyati va madaniy muhitida ham aks etishi zarur. Chunki zamonaviy jamiyatda har bir fuqaroning huquqiy, siyosiy va ijtimoiy faolligi davlatning demokratik taraqqiyotini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlod, xususan, talabalar orasida fuqarolik ongini shakllantirish, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga o'rgatish muhim vazifalardan biri sanaladi.

Ma'rifatparvar Abdulla Avloniy aytganidek, "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir". Shunday ekan, fuqarolik tarbiyasi bugungi kunda ta'lim tizimining ajralmas va dolzarb yo'nalishlaridan biridir. Yoki Mahmudxo'ja Behbudiy "Agar bizga madaniyatli, ozod, bilimli va vatanparvar avlod kerak bo'lsa, avvalo uning qalbiga fuqarolik tuyg'usini ekishimiz zarur" deb yozgan edi. Pedagog olim A.A. Jalolov fikricha esa "Fuqarolik tarbiyasi – bu shunchaki yod olish emas, balki shaxsni ongli fuqaroga aylantiruvchi murakkab pedagogik jarayondir."

Bugungi kunda huquq pedagogikasi – bu pedagogika (ta'lim-tarbiya nazariyasi) va huquqshunoslik (huquqiy bilimlar) fanlarining tutashgan sohasi bo'lib, u yosh avlodga huquqiy

bilimlar berish, huquqiy ong va madaniyatni shakllantirish va fuqarolik tarbiyasi orqali qonuniylikka hurmat uyg'otish masalalarini o'rganadi. Talabalarda fuqarolik tarbiyasi orqali qonunlarga hurmat uyg'otish va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish muhim masaladir. Zamonaviy jamiyatda qonuniylik, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yoshlar, xususan talabalar, mamlakatning kelajagi bo'lganligi sababli, ularni qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, jamiyat hayotida faol ishtirok etishga o'rgatish, o'z huquq va burchlarini anglab yashashga yo'naltirish – har bir ta'lim muassasasining dolzarb vazifasidir. Huquqiy ta'limni kuchaytirishning bir necha usullari mavjud. Ular ta'lim muassasalaridagi “Huquq asoslari”, “Fuqarolik jamiyati”, “Konstitutsiya saboqlari” fanlari orqali hamda ochiq darslar, viktorinalar, seminar-treninglar yordamida amalga oshiriladi. Shuningdek, yoshlarni ijtimoiy loyihalarda talabalarni ishtirok ettirish, ya'ni talabalarni “Yoshlar ittifoqi”, “Yosh huquqshunoslar klubi”, “Yoshlar parlamenti” kabi tuzilmalarga jalb qilish, volontyorlik (ko'ngillilik), atrof-muhit, yetim bolalar, qonun targ'iboti kabi aksiyalarda ishtirok etishlarini ta'minlash orqali amalga oshiriladi. Talabalar o'rtasida “Men qanday fuqaro bo'lishni istayman?”, “Qonunga hurmat – ozodlik kafolati” kabi mavzularda bahs-munozaralar tashkillash yaxshi samara beradi. Talabalarda fuqarolik tarbiyasini shakllantirish – bu faqat dars emas, balki doimiy ijtimoiy-tarbiyaviy jarayondir. O'z burchini, huquqini, jamiyatdagi o'rnini anglagan yosh fuqaro – jamiyatning eng barqaror va ishonchli tayanchidir. To'g'ri tashkil etilgan fuqarolik tarbiyasi natijasida talabalar qonunlarga hurmat bilan qaraydi; o'z huquq va majburiyatlarini anglaydi; ijtimoiy hayotda faol ishtirok etadi; tanqidiy fikrlovchi, vatanparvar va ongli fuqaro sifatida shakllanadi.

Zamonaviy fuqarolik jamiyati taraqqiyoti uchun qonuniylik, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyati muhim konseptual tushunchalar sifatida maydonga chiqadi. Ular jamiyatda barqarorlik, taraqqiyot, adolat va inson huquqlarining himoyasini ta'minlovchi asosiy tayanchlar hisoblanadi. Qonuniylik – bu davlat va jamiyat hayotining huquqiy me'yorlarga asoslangan tarzda boshqarilishidir. U jamiyatda huquqiy tartibot va ijtimoiy adolatni qaror toptiradi.

Falsafiy yondashuvda qonuniylik inson erkinligini belgilovchi va tartibga soluvchi omil sifatida qaraladi. Ayniqsa, demokratik davlatlarda qonunlar inson huquqlarining kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Bu qonunlar nafaqat jazolash, balki himoya qilish va ijtimoiy tartibni saqlash vazifasini bajaradi. Qonunlar ijrosi esa fuqarolarning huquqiy ongi va mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat jamiyatning huquqqa bo'lgan munosabatini belgilaydi. Har bir fuqaro o'z huquq va majburiyatlarini yaxshi bilsa, jamiyatda qonuniylik mustahkamlanadi. Jamiyatda qonuniylikni ta'minlash faqat qonunlarning mavjudligi yoki ularning rasmiy kuchi bilan emas, balki ularning fuqarolar tomonidan anglanishi, qabul qilinishi va ongli ravishda bajarilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Aynan shu yerda har bir fuqaroning o'z huquq va majburiyatlarini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Huquqiy ong – qonuniylikning ichki mexanizmi sanaladi. Huquqshunoslar fikricha, huquqiy ong bu – fuqarolarning huquqiy bilim darajasi, huquqiy qadriyatlarga bo'lgan munosabati, va huquqqa rioya qilishga tayyorlik darajasidir (Saidov, 2017). Agar fuqaro o'z huquqlari (masalan: erkinlik, fikr bildirish, mulk huquqi) va majburiyatlari (masalan: qonunlarga bo'ysunish, soliqlar to'lash, boshqalarning huquqlariga hurmat) haqida yetarlicha bilimga ega bo'lsa, u ongli ravishda qonuniylikka amal qiladi. Majburiyatni anglash ijtimoiy barqarorlikni kuchaytiradi. Majburiyatni tushunmaslik – huquqbuzarlikning asosiy sababi bo'lishi mumkin. Falsafiy nuqtai nazardan, majburiyatni anglash bu shaxsning jamiyat bilan o'zaro aloqasini ongli tarzda boshqarishidir (Kant, 1785). Shaxs o'z burchini tushunmas ekan, jamiyatda qonuniylikni ta'minlash faqat tashqi nazorat vositalari bilan cheklanib qoladi. Huquqiy madaniyat – huquqiy davlat uchun shart. Huquqiy ong yuqori bo'lgan jamiyatda fuqarolarning huquqiy madaniyati ham yuksaladi. Huquqiy madaniyat bu – qonunlarni hurmat qilish, ularga ijobiy munosabat bildirish, qonuniy yo'l bilan o'z huquqlarini himoya qilish madaniyatidir. Shunday jamiyatda qonuniylik tashqi zo'rvonlik emas,

ichki ishonch va ongli harakat bilan qaror topadi. Ta'lim va targ'ibot – qonuniylikni mustahkamlovchi vosita. Huquqiy ta'lim va ma'rifat fuqarolarning huquq va majburiyatlarini tushunishida asosiy o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yildagi "Huquqiy savodxonlikni oshirish" to'g'risidagi farmonida ham fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi etib belgilangan. Bu davlat siyosati bevosita qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Sotsiologik asos: Qonunga bo'ysunuv – ijtimoiy ishonch ifodasi. Sotsiologiyada qonunga bo'ysunish – bu jamiyatda ishonch muhitining mavjudligiga ishora qiladi. Odamlar qonunni bilsa va unga ishonch bildira olsa, ular ijtimoiy tizimga ham ko'proq ishonch bilan qaraydi. Bu esa fuqarolik jamiyatining yuksalishi, ijtimoiy barqarorlik va demokratik boshqaruvning shakllanishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, fuqaro o'z huquq va majburiyatlarini bilgan sayin, qonuniylik ichki ehtiyojga aylanadi. Huquqiy ong va madaniyatning yuqori darajasi esa qonuniylikni tashqi nazoratga emas, fuqarolarning ongli tanloviga asoslangan tarzda mustahkamlaydi. Bu holat nafaqat qonunchilik tizimini, balki ijtimoiy barqarorlikni, adolatni va fuqarolik jamiyatini rivojlantiradi.

Bunday holatda qonuniylik davlat tuzilmasining poydevori sifatida harakat qiladi. Huquqiy ongni rivojlantirish orqali fuqarolarni o'z burchlariga ongli yondashishga, jamiyat muammolariga befarq bo'lmaslikka undash mumkin. Ijtimoiy faollik – fuqarolarning jamiyat hayotida faol ishtirok etishini anglatadi. Bunga siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik sohalarda faol bo'lish kiradi. Ijtimoiy faol fuqaro – bu nafaqat o'z manfaatlarini himoya qiluvchi, balki jamoatchilik manfaatini ko'zlab harakat qiluvchi shaxsdir. Ijtimoiy faollik jamiyatdagi islohotlarga fuqarolarning bevosita ta'sirini oshiradi va davlat boshqaruvida ishtirok etish imkoniyatini kengaytiradi. Fuqarolik mas'uliyati esa bu faqat qonunga itoat qilish emas, balki ijtimoiy qadriyatlarga, jamiyat farovonligiga va kelajak avlodlar oldidagi axloqiy burchga sodiqlikdir. Falsafiy nuqtai nazardan bu ongli tanlovdir – fuqaro jamiyatning faol a'zosi sifatida o'z pozitsiyasini bildiradi, vijdoniga tayanadi, adolatga intiladi. Shu sababli fuqarolik mas'uliyati faqat davlat tomonidan belgilangan majburiyatlar emas, balki ichki axloqiy zaruratdan kelib chiqadi. Jamiyatda qonuniylik mustahkam bo'lsa, korrupsiya, huquqbuzarlik va ijtimoiy beqarorlik kamayadi. Huquqiy davlatda har bir fuqaro qonun oldida tengdir va bu prinsip barqarorlikni kafolatlaydi. Qonun ustuvorligi fuqarolarning o'z huquq va erkinliklariga ishonchini oshiradi, ularni jamiyat hayotida faol ishtirok etishga undaydi. Fuqarolik jamiyati uchun esa bu ishonch eng muhim ijtimoiy kapitaldir. Zamonaviy jamiyatda qonuniylik, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyati o'zaro uzviy bog'liqdir. Bu tushunchalar bir-birini to'ldiradi va uyg'unlashganda, haqiqiy huquqiy-demokratik jamiyat shakllanadi. Shunday jamiyatda inson qadri, adolat va erkinlik asosiy ijtimoiy qadriyatlar sifatida qaror topadi. Falsafa, huquq va axloqni uyg'unlashtirish orqali fuqarolik jamiyatining poydevorini mustahkamlash mumkin. Huquqiy madaniyat yuksak bo'lgan jamiyatda tinchlik, barqarorlik va taraqqiyot bo'ladi. Bu esa zamonaviy davlatlarning ustuvor maqsadlaridan biridir. Ha, fuqarolik mas'uliyati – bu kelajak avlodlar oldidagi burch, degan fikr nihoyatda chuqur ma'no kasb etadi. Bu nafaqat falsafiy, balki axloqiy va huquqiy mazmunga ega bo'lgan tamoyildir. Fuqarolik mas'uliyati deganda, insonning davlat, jamiyat va atrofidagi odamlarga nisbatan bo'lgan ijtimoiy, axloqiy va huquqiy javobgarligi tushuniladi. Ammo bu javobgarlik faqat bugungi kundagi munosabatlar bilan cheklanib qolmaydi. U insonning kelajak avlodlar oldidagi burchini ham o'z ichiga oladi. Bu yondashuv falsafiy nuqtai nazardan insoniyatning davomiyligi, jamiyatning barqarorligi va taraqqiyotining kafolatidir. Bugun atrof-muhitni asrash, ta'lim sifatini oshirish, adolatli jamiyat qurish, huquqiy ongni rivojlantirish va korrupsiyaga qarshi kurashish kabi harakatlar – barchasi kelajak avlodlar uchun qulay va adolatli muhit yaratish yo'lida amalga oshiriladigan fuqarolik mas'uliyatining amaliy ko'rinishlaridir. Masalan, agar bir fuqaro ekologik xavfsizlikka befarq bo'lsa, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi harakatlarni qila boshlasa, bu nafaqat hozirgi jamiyatga, balki kelajak avlodlarga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ekologik ong ham fuqarolik mas'uliyatining bir shakli sifatida qaraladi. Shuningdek, demokratik qadriyatlarni qo'llab-

quvvatlash, fuqarolik jamiyati institutlarida ishtirok etish, huquqiy madaniyatni rivojlantirish va ijtimoiy adolat uchun kurashish kabi harakatlar ham kelajak avlodlarga mustahkam huquqiy, ijtimoiy va axloqiy asoslar qoldirishni ko'zda tutadi. Bunday mas'uliyat, faqat huquqiy majburiyat emas, balki ichki axloqiy ehtiyoj, vijdon chaqirig'i asosida vujudga keladi. Falsafa bunday yondashuvni "intergeneratsion adolat" — ya'ni avlodlararo adolat tushunchasi orqali asoslaydi. Talabalarda fuqarolik tarbiyasini shakllantirish – bu ta'lim muassasasining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu yo'nalishda tizimli va bosqichma-bosqich ishlov berilsa, davlatimizga sodiq, qonunlarga hurmatli, mas'uliyatli va ijtimoiy faol yoshlar voyaga yetadi. Shu bois har bir o'qituvchi, tarbiyachi va rahbar bu masalaga jiddiy yondashishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli Farmoni, 2022-yil 28-yanvar.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: "Fan va texnologiya", 2012.
3. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – T.: "Sharq", 2010.
4. Jalolov A.A. Pedagogika. – T.: "Ilm Ziyo", 2019. – 224-bet

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA KUTUBXONALARNI YOSHLARNING MA'NAVIY KAMOLOTIDAGI O'RNI

Abduraxmonov Aliyorjon Abduqaxxorovich

FarDU Sirtqi bo'lim Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlar o'rtasida axborotlardan foydalanishda mavjud muammolar va axborot madaniyatini shakllantirishning o'ziga xos uslublari, uning yoshlar kamolotidagi tutgan o'rni haqida qarashlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, axborot, axborot madaniyati, internet, ta'lim.

Dunyodagi axborot oqimining kuchayishi globallashtirish va turli yo'nalishlarda yangi mutaxassisliklarni paydo bo'lishi ta'limning tabaqalashuvi jarayonlari bo'lajak mutaxassisliklarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish: global dunyoning axborotlar oqimiga moslashish jamiyatdagi doimiy yangilanuvchi axborotlar oqimidan foydalanish ko'nikmasiga ega yosh avlodni tayyorlash va uni zamon ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida faol ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirish bugungi kunda kutubxonalarini dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. O'zbekistonda ta'lim sifat darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yosh avlodni tarbiyalash dunyoqarashini kengaytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, yosh avlodni kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Binobarin, har qanday davlatning kuch-qudrati o'z fuqarolarining ongliligi bilan belgilanar ekan, bunda albatta kitobxonlik masalasiga alohida e'tibor zarur.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning samarasi barcha sohalar qatori kutubxonalar faoliyatida ham o'zining yorqin ifodasini topdi. Kutubxonalar mamlakatdagi yangilanish va bunyodkorlik ishida muhim o'rin egallaydi. Chunki butun axborot imkoniyatlari kutubxonalarda yig'ilgan bo'lib foydalanuvchilar kutubxonada yig'ilgan yoki uzoqdagi axborotdan foydalanishi mumkin. Axborot va internet texnologiyalarining rivojlanishi kutubxonalarda elektron ma'lumotlar bazalarini shakllantirish, axborot resurslarini integratsiyalash va ularga erkin kirib borish, foydalanish imkonini berdi. Barchamizga ma'lumki kitobxonlik shaxsning barkamol inson bo'lib etishini va o'z faoliyati bilan jamiyat taraqqiyotini ta'minlash insonni bevosita amaliyotga kirishishini ta'minlash hayot bilan uyg'unlashish, ma'naviyatini oshirishga yo'naltiradi. Ma'naviyatning rivojlanishi jamiyatning intellektual imkoniyatlari mavjudligini hal qiluvchi omildir. Aynan shu jabhada kutubxonaning

o'rni alohida ahamiyat kashf etadi. Zero kutubxonaning asosiy maqsadi kitobxon shaxsini har tomonlama kamolga etkazishdir. Jadal axborotlashayotgan jamiyatda shaxsni kitobxonlik madaniyati, axborot olish madaniyatini shakllantirish zarurati kitob va uning o'rni bosadigan axborot manbalarni shiddat bilan oshib borishi, internet tarmog'ining rivojlanishi shaxsning axborot olish madaniyatini egallash orqali qisqa vaqt sarflab ko'p bilimga ega bo'lishida o'z ifodasini topmoqda. Bunday vaziyatda kitobxonlarni kitobga bo'lgan qiziqishini qo'llab – quvvatlab an'anaviy hamda noan'anaviy axborot olish yo'llarini ko'rsatish zarur.

Kitobxonlarni kitobxonlik va axborot olish madaniyatini tarbiyalashda quydagi ish shakllaridan foydalanish mumkin:

- bibliografik ko'rsatkichlardan foydalanish va adbiyotlardan foydalanish;
- mamlakat va jahon axborot tizimi va undan foydalanish qoidalari;
- an'anaviy va elektron resurslardan foydalanish qoidalari;
- kutubxona ma'lumotnoma bibliografik apparati (kataloglar, kartotekalar va bibliografik nashrlardan foydalanish;
- axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, umummilliy muammo hisoblanadi.

Bu ma'lum davr bilan chegaralanadigan hodisa bo'lmasdan, inson umr bo'yi o'rganadigan ma'naviy ehtiyojdir. Bugungi kunda kutubxona faoliyati hayotning tezkorlik bilan o'zgaruvchan sharoitlariga zudlik bilan moslashishni, uning vositalari, shakllari va usullarini takomillashtirib borishni talab qilmoqda.

Jahonda axborot oqimining kuchayishi "axborot madaniyati" tushunchasini shakllantirdi. Takomillashtirilgan ta'lim-tarbiya asosida yuksak ma'naviyatni shakllantirish, barkamol insonni tarbiyalash, XXI asrda mamlakatimizni rivojlangan mamlakatlar darajasiga ko'tarish singari o'zaro aloqador vazifalarni amalga oshirish kutubxonalarning ham asosiy maqsadidir. Jamiyatimizning bugungi taraqqiyoti taqdirini ma'naviy kamol topgan yosh avlod hal qiladi. Ushbu avlodni yangi g'oyalar va texnologiyalarni yaratishga intilishi, mustaqil erkin tafakkur yuritishi ma'naviy kamoloti belgisidir. Kutubxona xizmati ko'rsatishning maqsadi jamiyatning maqsadidan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kutubxona xizmatining asosiy maqsadi turli sohalaridagi axborotlarni mutolaa va tahlil qilish orqali kitobxonlarni ma'naviy kamolotga yo'llashdir. O'zbekistonni kelajagi jamiyat a'zolarining qanday intellektual salohiyatga ega ekanligi, ma'naviy kamoloti darajasiga bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi 2017 yil, 12-yanvardagi Farmoyishi hamda "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi 2017 yil, 13-sentyabrdagi Qarorida kutubxona-axborot xizmatini yanada yuksak saviyaga ko'tarishning yo'nalishlari belgilab berilgan. Bular kitobxonlik madaniyati va axborot olish madaniyatini oshirish, kutubxona-axborot xizmatiga aholining yanada kengroq qatlamlarini qamrab olish, kitoblar mualliflari bilan ijodiy uchrashuvlar uyushtirish, mutolaa va kitobxonlik madaniyatini oshirishga doir ishlarni tizimli va samarali tashkil etish, bu borada foydalanuvchilar, kutubxonachilar va targ'ibotchilar o'rtasida "Eng kitobxon maktab" "Eng kitobxon mahalla" "Eng kitobxon oila" "Eng faol kutubxonachi" kabi ko'rik tanlovlarining saralash va respublika bosqichlarini yuqori saviyada o'tqazish kabi vazifalardan iboratdir. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi kutubxona-axborot xizmati samaradorligini yanada oshirish, davr talablariga mos va monand tarzda takomillashtirib borishga yordam beradi.

Kutubxonachilik jarayonida asosiy maqsad ma'naviy yetuk insonni tarbiyalash va rivojlantirish bo'lib, kutubxonachi ish faoliyati davomida foydalanuvchilarni

- muloqot madaniyatini shakllantirish;
- mutolaa va axborot olish
- bilim, ko'nikma, malakalarni madaniyatini shakllantirish;

– mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlilga o'rgatish;

Axborot-kutubxona muassasasida axborot olish madaniyatini tarbiyalash masalasi borasida quyidagi xulosalarni keltirish mumkin. Axborot olish madaniyatini tarbiyalaydigan asosiy maskan - axborotkutubxona muassasalaridir. Axborot-kutubxona muassasalari o'z imkoniyatlari bilan foydalanuvchilarni mustaqil ta'lim olish sari yo'llaydi. Axborot olish madaniyatini tarbiyalashda maktab-oila-kutubxona hamkorligini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega. Axborot-kutubxona muassasalarining axborot olish madaniyatini tarbiyalashdagi asosiy vazifalarni belgilash zarur. Axborot olish madaniyatini tarbiyalashning asosiy mas'uliyati kutubxonachilar zimmasiga tushadi. Bu jarayon esa soha mutaxassislaridan professional bilimni, eng muhimi, o'z kasbiga bo'lgan fidoyilikni talab etadi. Shu sababli ham kutubxonachi mutaxassislariga bo'lgan talabni kuchaytirish va ta'lim sifatini oshirish zarur. Bu bilan birga kutubxona xodimining o'z bilim malakasini oshirishga undovchi va so'g'lom raqobat muhitini yaratuvchi kutubxona xodimlari uchun turli tanlovlar tashkil qilish va bu tanlov natijalariga ko'ra moddiy rag'batlantirishlar amalga oshirilish lozim. Kutubxona xodimlari uchun attestatsiya sinovlari shakllantirilib mehnatga haq to'lashda sinov natijalari inobatga olinishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M.Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.- T., O'zbekiston: NMIU, 2016. 14-bet.
2. B.Xodjayev, M.Maxmudova. O'quvchi – yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini rivojlanish texnologiyasi. – T., 2016.
3. A.Lutfullayev, E Jabborov. OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI. ARES, Volume 2, Issue 4, 2021. 642-bet.
4. <http://uz.infocom.uz/2016/03/30/axborot> olish-madaniyatini shakllantirishda ijtimoiy-meyorlarning o'rni.

TA'LIM JARAYONIGA “BUXGALTERIYA HISOBI” FANINING TARIXI, UNING STANDARTLARI

Kenjabayeva Gulfuza

Farg'ona texnika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada buxgalteriya hisobining jamiyatda tutgan o'ri, vazifasi, tamoyillari va usullari kabi nazariy bilimlar bo'yicha talabalarda tushuncha hamda ko'nikma hosil qilishga yo'naltirilgan. Shuningdek, buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish borasida mamlakatimizda qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi qonun, «Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standard va shu kabi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarning mazmunmohiyatidan kelib chiqqan holda yozildi.

Kalit so'zlar: moliyaviy aktivlar, aksiya, hisob, buxgalteriya hisobi, tadbirkorlik, tarixiy hisob kitob, firma, ko'rsatkichlar.

Ta'lim jarayonida buxgalteriya hisobi fanining dolzarbligi shundaki uning korxonalarda ish yuritish va shoyotlar bilan ishlash jarayonini bilishi tavsiya etiladi. Oliy ta'lim talabalari uchun “Moliyaviy aktivlar” tushunchasi va uni buxgalteriya hisobi hamda tahlil obyekti sifatida tadqiq etish, aksiyadorlik jamiyatlari moliyaviy aktivlari turlari hamda ularni likvid aktivlar sifatida tasniflash shartlari jarayonlari juda muhim hisoblanadi.

Hisobning paydo bo'lishi bevosita kishilik jamiyatining vujudga kelishi bilan bog'liq. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ibtidoiy jamoa tuzumi davrida hisobdan foydalanishgan. Qabila

boshlig'i o'z qabilasini saqlab qolish uchun qaysi fasl qachon keladi, qabilasida qancha odam bor, ular uchun qancha oziq-ovqat to'plash kerak kabi hisob-kitoblarni amalga oshirgan. Dastlab hisob qurollari sifatida qo'l barmoqlaridan foydalanilgan (ba'zi hollarda bu odatdan hozir ham foydalanamiz). Hozirda ham jamiyatning bir bo'lagi hisoblangan har bir oilaning o'z hisob-kitobi bor. Qaysi oilada hisob-kitob yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, o'sha oilaning turmush sharoiti yaxshi. Bundan ko'rinib turibdiki, hisob insonlarning hayotiy hamkoridir. Buxgalteriya hisobining ma'lumotlari ayrim korxonalar, tashkilot va muassasalar hamda ma'lum bir kompaniya tarkibiga kiradigan korxonalar guruhi bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ishini audit qilish uchun audit manbai sifatida xizmat qiladi. Buxgalteriya hisobining qator ko'rsatkichlari umumlashgan ko'rinishda korxonaning moliyaviy holatini baholashda qo'llaniladi. Umumlashgan ko'rsatkichlarning bir guruhi faoliyatni baholashda ko'pincha buxgalteriya hisobining ma'lumotlariga asoslanadigan statistika yordamida olinadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining yagona tizimi o'zaro bog'liq bo'lgan ikki qismdan rahbariyat tomonidan ichki foydalanish uchun o'lchanadigan, ishlanadigan va topshiladigan hisob axborotining barcha turlarini o'z ichiga oladi. Moliyaviy hisob rahbariyat tomonidan firma ichida qo'llaniladigan axborotdan tashqari, tashkilotdan tashqaridagilarga xabar qilinadigan axborotdan iborat bo'ladi.

Buxgalteriya hisobi – iqtisodiy fanlardan biri bo'lib, uning nazariyasi buxgalteriya hisobini tashkil etish texnikasi, predmeti va usulini o'rgatadi. Bu fan xo'jalik tarmoqlarida buxgalteriya hisobini yuritish usullarini o'rganib, umumlashtirib, uning ilg'or usullarini joriy etish bilan shug'ullanadi. Shu bilan birga bu fan boshqa mamlakatlar buxgalteriya hisobini yuritish usullarining ilg'or shakllarini xo'jalik tarmoqlariga joriy etish yo'llarini ishlab chiqadi va amaliyotga joriy etishga tavsiya etadi. Kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida ham xo'jalikdagi hisob turlariga talab mavjud bo'lgan. Chunki xo'jalik hisobi insoniyat uchun zarur bo'lgan iste'mol buyumlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat va boshqalarni ishlab chiqarish, taqsimlashni hisobga olish demakdir. Har bir jamiyatning ham asosiy maqsadi zaruriy buyumlarni ishlab chiqarish, ayirboshlash, taqsimlashdan iborat. Bu maqsadni amalga oshirish uchun kishilar ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni kuzatish, jamiyatda mavjud bo'lgan mehnat buyumlari, mehnat qurollarini hamda mehnat jarayonlarini hisobga olib borish zarur bo'ladi. Xuddi shu vazifani esa xo'jalik hisobi bajaradi. Tovar ayirboshlash davrida xo'jalik hisobi ahamiyati ko'paydi, chunki tovar ayirboshlash uchun umumiy ekvivalent talab etiladi. Umumiy ekvivalentga esa faqat hisob-kitobni tashkil etish, to'g'ri yurgizish orqaligina ega bo'lish mumkin, ya'ni almashtiriladigan tovarni ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat miqdorini aniqlash kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini o'sishi natijasida xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilish murakkablashgan va moddiy ishlab chiqarish asosida vujudga kelgan xo'jalik hisobi ahamiyati oshgan, jamiyatning hamma sohalarida mulklarni hisobga olish borasidagi, iqtisodiy faoliyatini boshqarishdagi roli oshib borgan. Iqtisodiy faoliyatni boshqarish xo'jalik hisobi orqali olingan ma'lumotlar asosida olib boriladi va tegishli qaror va qonun hamda qoidalar qabul qilinib, shular asosida butun xo'jalik faoliyati boshqariladi. Xo'jalik hisobi asosan quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- a) xo'jalik hisobi tarmoqiari korxonalar, tashkilot va muassasalarda sodir bo'layotgan xo'jalik jarayonlarini kuzatib borish;
- b) kuzatish orqali olingan ma'lumotlarni miqdoriy ko'rsatmalarda ifodalash;
- d) korxonalar, tashkilot, muassasa xo'jalik faoliyatlarini kuzatish natijalarini maxsus hujjatlarda qayd etish;
- e) maxsus hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va guruhlantirish, xo'jalik jarayonlari ustidan nazorat o'rnatish va ularga ta'sir etish.

Xo'jalik hisobini yuqoridagi funktsiyalari ayrim korxonalar, muassasa, tashkilot va umuman butun xo'jalikning iqtisodiy jihatdan asoslangan joriy va kelgusidagi reja ko'rsatkichlarini tuzishda, ular bajarilishi ustidan nazorat olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rus olimi Ya.V. Sokolov o'zining «История развития бухгалтерского учёта» nomli

asarida buxgalteriya hisobining paydo bo'lishini quyidagi uch qarashga bo'ladi: 600 yil oldin, xo'jalik hayotidagi maqsadli jarayonlarning ro'yxatga olinishi natijasida; 500 yil oldin, bu borada Luka Pacholining kitobi chiqishi bilan; 100 yil oldin, bu borada har xil maktablarning paydo bo'lishi bilan. 1 G'arb mamlakatlarida «Buxgalteriya hisobi tadbirkorlik tili» degan ibora mavjud. Bundan ko'rinib turibdiki, oddiy tadbirkordan tortib to korxonalar rahbarigacha «Buxgalteriya hisobi» fanini o'rganishi va uning asosiy usul hamda uslubiyatini o'zlashtirib olishi bugungi kun talabidir.

Korxonada mavjud bo'lgan boyliklar saqlanishini ta'minlash, ular nazoratini yaxshilash maqsadida, yuritilayotgan hisob ma'lumotlari nechog'lik haqiqiyliги, to'g'riligini tekshirish maqsadida inventarizatsiya o'tkaziladi. Korxonadagi boyliklar deganda, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, ishlab chiqarish zaxiralari, tayyor mahsulot, tovar, pul mablag'lari va boshqa moliyaviy aktivlar tushuniladi. Korxonaning moliyaviy majburiyatlari ham inventarizatsiya qilinib, bunday majburiyatlarga kreditorlik qarzlari, bank kreditlari, olingan qarzlarning misol bo'ladi. Korxonalarda yillik hisobot tuzilib, bundagi ma'lumotlar albatta, haqiqiy ma'lumotlar asosida bo'lmog'i lozim. Bu shart bajarilishi uchun ham korxonada inventarizatsiya o'tkazilmog'i shartdir.

Tovar ayirboshlash davrida xo'jalik hisobi ahamiyati ko'paydi, chunki tovar ayirboshlash uchun umumiy ekvivalent talab etiladi. Umumiy ekvivalentga esa faqat hisob-kitobni tahlil etish, to'g'ri yuritish orqaligina ega bo'lish mumkin, ya'ni almashtiriladigan tovarni ishlab chiqarishga sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnat miqdorini aniqlash kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini o'sishi natijasida xo'jalik faoliyatiga rahbarlik qilish murakkablashgan va moddiy ishlab chiqarish asosida vujudga kelgan xo'jalik hisobining ahamiyati oshgan, jamiyatning hamma sohalarida mulklarni hisobga olish borasidagi, iqtisodiy faoliyatini boshqarishdagi roli oshib borgan. Xo'jalik hisobi yagona bir tizim bo'lib, uning ajralmas, bir-biri bilan o'zaro bog'liq 3 turi mavjud: tezkor hisob, statistik hisob, buxgalteriya hisobi. Kishilik jamiyatining hamma bosqichlarida ham xo'jalikdagi hisob turlariga talab mavjud bo'lgan. Xo'jalik hisobida quyidagi o'lchov birliklaridan foydalaniladi: natura o'lchovi, pul o'lchov birligi, mehnat o'lchov birligi. Buxgalteriya hisobining predmeti korxonaning xo'jalik mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarini, ularni xo'jalik jarayonlari natijasida o'zgarib borishlarini yoppasiga, uzluksiz, qonun-qoidalarga asosan hujjatlarda to'liq, aniq, to'g'ri aks ettirib borishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida» gi qonuni qabul qilindi. 1996- yil 30 avgust.
2. Vazirlar Mahkamasining 1999- yil 5- fevraldagi 54-sonli qarori bilan qayta ko'rib chiqilgan «Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida»gi nizom.
3. O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya Hisobi Milliy Standarti «Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobi schyotlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» nomli 21-sonli standarti. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2007.
4. I. Karimov. 2009- yil 13- fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008- yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'ruzasi. «Xalq so'zi» gazetasi, 2009- yil 14- fevral, № 33-34 (4696—4697).
5. Ю.А. Бабаева и др. Бухгалтерский финансовый учет: Учебник для вузов-М: Вузовский учебник — ВЗФЭН. 2010.

**INTERFAOL ELEKTRON AXBOROT TALIM KONTENTINI LOYHALASH
PEDAGOGIK ILMIIY TADQIQOT FAOLIYATIGA TAYYORLASH OMILI SIFATIDA**

Ahunova Tamannoxon Zokir qizi

Farg'ona davlat texnika universiteti Kompyuter muhandisligi va sun'iy intellekt kafedrası

Annotatsiya. Zamonaviy ta'limda interfaollik tamoyili muhim o'rin tutadi. Bu tushuncha 1990-yillarda shakllanib, hozirgi kunda pedagogikada muhim yo'nalishga aylangan. Interfaol o'qitish texnologiyasi nafaqat bilim berish, balki talabani ta'lim jarayoniga faol jalb qilishni ham nazarda tutadi. Bugungi kunda o'qitishning bu usuli, ayniqsa raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan yanada ommalashmoqda. Shunga qaramay, interfaol usullarning aniq tasnifi mavjud emas, ularning xilma-xilligi va natijadorligini aniqlash zarurati mavjud. Shuning uchun interfaol o'qitish imkoniyatlarini o'rganish va ularni pedagogik tadqiqot faoliyatiga qo'llash dolzarb ilmiy vazifadir.

Kalit so'zlar: interfaol ta'lim, elektron axborot-ta'lim resurslari, interfaollik darajalari, o'quvchi faolligi, pedagogik texnologiyalar, ilmiy tadqiqotga tayyorlash, virtual haqiqat, onlayn dars, o'quv muhiti, ta'limda raqamli texnologiyalar.

Interfaol ta'lim qanday prinsiplarga asoslanadi:

O'qitish markazi va interaktiv ta'limda darsni loyihalashning oltita tamoyili ishlab chiqildi:

* Darsning barcha elementlari, shu jumladan atrof-muhit talabaga ta'lim maqsadiga erishishda yordam berishi kerak.

* Talabalar-subyektlar, o'quv jarayonining faol ishtirokchilari.

* O'qituvchi bilim tarjimoni emas, balki katta murabbiy, o'qituvchi.

* Guruh bilan ishlash monologik uslubdan dialogik uslubga o'tadi. Ya'ni, o'qituvchi nafaqat ma'lumot almashibgina qolmay, balki fikr-mulohazalarni qabul qiladi, guruh bilan o'zaro aloqada bo'ladi.

* O'qituvchi asta-sekin mas'uliyat va mustaqillikni guruhga topshiradi. Dastlab talabalar uning nazorati ostida vazifalarni bajarishlari mumkin, ammo vaqt o'tishi bilan ular mustaqil va avtonom bo'lib qoladilar.

* Darsdagi vazifalar va formatlar har xil. O'qituvchi talabalarga turli xil o'zaro ta'sirlar, mexanika, atrof-muhit vositalarini taklif etadi: individual, juftlik va guruh ishlari, namunaviy topshiriqlar va ijodiy, tadqiqot, dizayn.

Onlayn darslarda interaktiv usullar qanday qo'llaniladi

Raqamli muhitda interaktiv ta'lim ikki shaklda qo'llanilishi mumkin. Birinchisi, odamlar o'rtasidagi onlayn o'zaro munosabatlarga o'tish. Masalan, xuddi shu guruh muhokamasi videokonferentsaloqa platformasida o'tkazilishi mumkin. Siz virtual doska, oddiy yoki fazoviy chat yordamida aqliy hujum qilishingiz va vazifa kuzatuvchisi yordamida loyiha bo'yicha masofaviy ishlarni tashkil qilishingiz mumkin.

O'zaro ta'sirning ikkinchi turi talaba va interaktiv vosita — foydalanuvchi harakatlariga javob beradigan va fikr-mulohazalarni bildiradigan o'quv vositasi o'rtasida sodir bo'ladi. To'g'ri, xarakteristikasi "interaktiv" shu nuqtai nazardan, u shu qadar xiralashganki, u slaydni bosish orqali o'quvchi va VR simulyatsiyasini o'zgartiradigan taqdimotni anglatishi mumkin.

Multimedia texnologiyalarining interaktivligining uch darajasi:

*Reaktiv o'zaro ta'sir-foydalanuvchi dasturni boshqarish uchun juda cheklangan imkoniyatlarga ega va unga ma'lumot berilgan tartibda beriladi. Bu, masalan, Slayd kursi yoki oddiy elektron darslik bo'lishi mumkin.

*Faol o'zaro ta'sir-foydalanuvchi dasturni boshqaradi: u tarkibni qanday ketma-ketlikda olish va vazifalarni bajarishni o'zi hal qiladi, materialni o'rganish hajmi va tezligini aniqlaydi. Bunday o'zaro ta'sirning misoli — bilim bazalari va onlayn entsiklopediyalar bilan ishlash, o'quv traektoriyasini mustaqil tanlashni o'z ichiga olgan ta'lim platformalarida o'qitish.

* O'zaro ta'sir-foydalanuvchi va dastur bir-biriga ta'sir qiladi va Real vaqtda fikr bildiradi. Ushbu darajadagi interaktivlikni o'yin simulyatorlarida, virtual haqiqat simulyatorlarida va boshqalarda topish mumkin.

VR va AR texnologiyalari bir vaqtlar elektron ta'limda Interaktivlikning eng yuqori cho'qqisi bo'lib, virtual laboratoriyalarda tajribalar o'tkazish va talabalarni kosmosga yoki boshqa tarixiy davrlarga ekskursiyalarga yuborish imkonini berdi. Endi, ehtimol, inqilobni sun'iy intellekt amalga oshirmoqda — xususan, foydalanuvchi bilan chinakam suhbatlashishga qodir bo'lgan katta til modellari. Bugungi kunda bunday neyron tarmoqlar interfaol ta'limda qo'llaniladi — masalan, realistik dialoglarda yumshoq ko'nikmalarni o'rgatish uchun.

Faol o'rganish shuni anglatadiki, talaba endi o'qituvchi bilimlarni uzatadigan ob'ekt emas, balki mustaqil sub'ektdir. U ma'lumotni qidirish va tahlil qilish, tajribalar o'tkazish va hokazolar orqali o'z bilimlarini quradi. Faol o'qitish uslubiga misol-bu loyiha faoliyati bo'lib, unda talaba muammo yoki muammoni o'rganadi va uni hal qilish uchun mahsulot yaratadi.

Talabani interaktiv ta'limdagi faoliyati quyidagi shakllarga ega bo'lishi mumkin:

*Muloqotning o'zaro ta'siri-o'rganish sub'ektlar o'rtasida o'zaro fikr almashish orqali amalga oshiriladi. Michelin chi dialogning ikki turini aniqlaydi. Birinchisi talaba va mutaxassis o'rtasida sodir bo'ladi (bu o'qituvchi, repetitor yoki hatto mavzuni yaxshiroq biladigan boshqa talaba bo'lishi mumkin). Mutaxassis dialog davomida olib boradi-etakchi savollar beradi, tushuntiradi, tuzatuvchi qaytarib beradi. Muloqotning ikkinchi turi talabalar o'rtasida. Bu erda ikkala suhbatdosh ham teng pozitsiyani egallaydi: ular bir-birlarining g'oyalarni rivojlantiradilar, biron bir muammo haqida bahslashadilar, savollarga navbatma-navbat javob berishadi.

*O'quv muhiti bilan o'zaro aloqalar-masalan, raqamli ta'lim platformasi. Interaktivlik nafaqat tarkibni iste'mol qilishni, balki ma'lumot va fikr-mulohazalarni almashishni ham o'z ichiga oladi. Masalan, talaba video ma'ruzani tomosha qilganda, bu passiv faoliyat, va u o'quv simulyatorida o'qiyotganda — allaqachon interaktiv.

*Jismoniy o'zaro ta'sir-bu o'quvchilar har qanday o'quv vazifasini bajarish uchun motor harakatlarini muvofiqlashtirishlari kerak bo'lganda sodir bo'ladi. Masalan, bir nechta talabalar Lego quruvchisini birlashtiradilar yoki bitta kompyuterda o'yin mashinasidagi belgini boshqaradilar.

Michelin chi ta'kidlaganidek, interaktiv o'zaro aloqada talaba, aslida, konstruktiv faoliyat bilan bir xil aqliy operatsiyalarni amalga oshiradi — mustaqil ravishda ma'lum bo'lgan ma'lumotlar asosida yangi ma'lumotlarni yaratadi. Faqat ular bu jarayonni individual harakatlar (masalan, mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish) emas, balki birgalikda boshlaydilar va boshqaradilar. Masalan, munozarada talaba suhbatdoshning dalillaridan kelib chiqadi va ularga qarshi dalillar keltiradi. Yoki o'qituvchining etakchi savollari yordamida tezislarni shakllantiradi.

Bu interfaol ta'limni boshqa turlardan ajratib turadigan boshqa ishtirokchilarning hissasi. Bunday o'zaro almashinuv muhim afzalliklarni beradi, deydi tadqiqotchi:

* Suhbatdosh o'quvchiga yangi ma'lumotlarni berishi, muammoni boshqa tomondan ko'rib chiqishga yordam berishi, murakkab masala bo'yicha fikr yuritishga undashi, konstruktiv fikr bildirishi mumkin. Bularning barchasi talabani tajribasini boyitadi.

* Muloqot jarayonida erishilgan umumiy tushuncha barcha ishtirokchilar uchun chuqurroq va o'ziga xos bo'lishi mumkin. Ya'ni, fikr va g'oyalarni almashish orqali ular alohida erisha olmaydigan natijaga erishishlari mumkin.

Interfaol usullarning tamoyillari

* Barcha ishtirokchilarning tengligi.

* Shaxsni tanqid qilmaslik.

* Har qanday javob haqiqat emas, balki aks ettirish uchun ma'lumotdir.

Usullar

Tadqiqot davomida interfaol o'qitish usullari va ularning ta'lim jarayonidagi roli tahlil qilindi. Interfaol o'qitish texnologiyasining asosiy prinsiplariga quyidagilar kiritildi:

• o'quvchilarning bilim olishdagi faol ishtiroki;

- o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi samarali muloqot;
- mustaqil fikrlashni rivojlantirish;
- o'z fikrini ifoda qilish, bahslashish va qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish;
- o'zlashtirish darajasini oshirish;
- bilimlarni shaxsiylashtirish.

Interaktivlik darajasi multimedia ta'lim tizimlarida quyidagicha ajratiladi:

- **Reaktiv daraja** – foydalanuvchi buyruqlariga oddiy javoblar;
- **Faol daraja** – foydalanuvchi harakatiga javoban tizimdagi holatning o'zgarishi;
- **O'zaro ta'sirli daraja** – foydalanuvchining oldindan aytib bo'lmaydigan harakatlari va natijalari.

Yuqoridagi fikrlarga suyangan holda, tarixiy sharoitda yangi ijro yo'llari sayqallangan ko'rinishlari bilan jilolanib kelgan. Keyinchalik xalqning etnik joylashishi, yashash sharoitlari, turmush tarziga qarab ularning turlicha madaniy rivojlanish davriga asoslanib har xil maqom yo'llari ham o'z o'rnini topganligi ehtimoldan holi emas. XVIII asrga kelib Buxoroning “Shashmaqom”, ya'ni olti maqomi “Buzruk”, “Rost”, “Navo”, “Dugoh”, “Segoh”, “Iroq” maqomlari o'zining nasr va mushkulot qismlari bilan rivojlangan bo'lsa, Farg'onaning “Chor maqom”i, ya'ni to'rt maqomi, “Dugoh Xusayniy”ning yettita yo'li, “Chorgoh”ning oltita ijrochilik yo'li, “Shahnozi Gulyor”ning oltita ijrochilik yo'li hamda “Bayot” yo'llarining savti va taronalari bilan jilolanib, ijro etib kelingan.

Xorazm maqomlarida ham yuqorida ta'kidlangan olti maqom ijrosini alohida uslubiy va o'ziga xos yo'nalishini kuzatish mumkin. Bunda faqat keyinchalik yettinchi maqom sifatida chertim yo'lidagi “Panjgoh” maqomi kiritilgan. Shuning uchun avloddan - avlodga o'tib kelgan bebaho musiqiy boyligi sanalmish Buxoro, Xorazm va Farg'ona, Toshkent maqomlari, betakror ashula va katta ashulalar singari durdonalar bizga berilgan ulug' ne'mat sifatida ardoqlanadi.

O'zbek musiqa san'ati va madaniyatida yorqin iz qoldirib ketgan Yusufjon qiziq Shakarjonov “Milliy musiqa san'atimiz bamisoli bir daraxt bo'lib, uning tomiri Xorazm, tanasi Buxoro, shohlari Farg'onadir” - deb ta'riflagan ekanlar. Musiqiy ijrochiligimizning yana bir yo'nalishi dostonchilik san'ati Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm vohalarida juda rivojlangan bo'lib, xalq baxshilari tomonidan sevib ijro etib kelinadi.

Madaniy tarixiy manbalarning guvohli berishicha, o'zbek musiqa san'ati va madaniyati uzoq tarix bilan bog'langanligini ko'rsatadi.

Arxeologlar tomonidan topilgan ashyoviy dalillarda tosh devorlarga chizilgan musiqiy sozlar va sozandalar suratlari, miniatura ko'rinishidagi shoxlar saroylaridagi bazmlarda sozandalar tasviri, musiqiy ijrochiligimizning sadolari asrlar osha bizga yetib kelganligidan dalolat beradi. IX-XII asrlarda O'rta Osiyo musiqiy madaniyatida o'zgarishlar davri bo'lganligi manbalarda ko'rsatib o'tiladi. Lekin, X-XII asrlarda ijod qilgan sozandalar, hofizlar va bastakorlarning nomlari va ularning ijodiy faoliyatlari haqida juda kam ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Ustoz musiqashunos olimlarning yozma manbalariga asoslanib ba'zilar ustida to'xtab o'tishni lozim topdik. VI-VII asrlarda yashab ijod etgan O'rta Osiyolik Faxlobod Borbad haqida ma'lumotlarga qaraganda musiqashunoslik, bastakorlik, sozandalik va hofizlik borasida tengi yo'q san'atkor bo'lganligi e'tirof etiladi. Afsonaviy ijrochilik mahoratiga ega bo'lganligi xaqida yozgan ustoz musiqashunos olim Ar-roziy Borbadning buyuk ijrochilik mahorati bilan birgalikda musiqiy sozlarning ham yaratuvchisi bo'lganligini aytib o'tadi. Borbad yaratgan musiqa asbobi X-XII asrlarda Xuroson va Turonda keng tarqalganligini va uning to'rt torli bo'lganligini yozadi. Qadimiy qo'lyozmalarda X-XII asrlarda ijod qilgan Abubakr Rubobiy, Bunasr, Buamir va changchi Lukoriy kabi boshqa sozanda va hofizlarning nomlari eslab o'tiladi.

IX-X asrda yashagan buyuk shoir Abu Abdullo Rudakiy o'z zamonasining chang sozlarini chalishda mohir bo'lganligi, ayniqsa «Bo'yi juyi muliyon» she'rini ushshoq kuyida aytilgani qadimgi qo'lyozmalarda ko'rsatilgan. Adabiyotshunos olim N.Mallaev qadimiy ko'lyozmalar asosida X-XII asrlarda tanbur, rubob, kus nog'ora, qo'biz, tabl, tanburok, zir, nay, chag'ona, shaypur, surnay, karnay, arg'unan, qonun kabi torli, zarbli va puflab chaladigan cholg'u asboblari o'lkamizda keng tarqalganini va o'n ikki maqom taraqqiy topib takomillashganini ko'rsatib o'tgan. O'sha davrning buyuk olimi Mahmud Qoshg'ariyning «Devoni lug'otiy turk» asarida qadimiy turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi va qo'shiqlari, bayram va marosimlaridagi mexnat qo'shiqlari, qaxramonlik qo'shiqlari haqida namunalar berilgan bo'lib, o'sha zamonda qo'shiqchilik janri rivoj topganini ko'rsatadi.

XVI-XII asr musiqiy san'atning taraqqiyotiga nazar solsak, o'rtadagi bir qancha uzilishlardan so'ng, oldinga siljishlar ro'y berganini guvohi bo'lamiz. XVI asrning yirik shoiri va musiqashunos olimi Najmitdin Kavkabiy rahbarligida o'n ikki maqom yanada mukammalashdi. Darvish Alining hikoya qilishicha, Hirotda tahsil ko'rgan mavlono Najmitdin Kavkabiy Ubaydulloxon tomonidan Buxoroga oldirib kelingan va bu yerda o'z maktabini yaratib, o'zbek musiqasi takomili ustida ish olib borgan. U Xo'ja Muhammad Mavlono Rizo Samarqandiy, Xo'ja Xasan Nisoriy, Mavlono Xasan Kavkabiy, Boqi jarroh kabi musiqashunoslarni tayyorlagan. Kavkabiy «Risolai musiqiy» asarini yaratib musiqa nazariyasi faniga katta hissa qo'shgan. XVII asrning yirik sozandasi, musiqa tarixchisi va nazariyotchilaridan biri Darvish Ali Changiy bo'ldi. U o'n ikki bo'limdan iborat «Risolai musiqi» asarini yaratdi. Bu asar o'sha davr musiqa tarixini o'rganishda muxim manba bo'lib xizmat qiladi. Unda maqomlar, maqomlarning sho'balari, usullariga va musiqa nazariyasiga keng to'xtaydi. Darvish Ali risolasiga turli davrlarda yashagan sozandalar haqida va o'sha zamon musiqa asboblari tanbur, chang, nay, qo'shnay, qonun, ud, barbad, rubob, qo'buz, rud, g'ijjak, ishrat, kungura, dutor, setor, surnay, bolobon, nog'ora, karnay, doira kabi sozlar to'g'risida keng ma'lumot beradi. Bu davrda yana noma'lum mualliflar tomonidan «Risolatun fiilmil musiqiy», «Prisolai karamiya» kabi musiqa nazariyasiga oid asarlar ham yoziladi.

XVII asrning ikkinchi yarmiga kelib musiqa san'ati yana tushkunlikka tushadi. Movarounnahrning uch xonlik va amirlikka bo'linib ketilishi sezilarli ta'sirini ko'rsatadi. Buning natijasida madaniy-musiqiy hayotda ajralishlar ro'y beradi. Shunga qaramasdan Xiva xonligida, Buxoro amirligida, Qo'qon xonligidagi musiqiy san'at muxiti o'z xolicha davom etdi va birmuncha muvaffaqiyatlarga ham erishildi. O'lkamizda musiqiy merosimizning ajralmas qismi bo'lmish hofizlik azaldan muqaddas sanalgan. Islom olamida muqaddas kitobimiz bo'lmish «Qur'on» oyatlarini dilga jo qilib, uning zeri - zabarlari bilan yoddan ijro etgan allomalarni «Hofizi Qur'on» deb yuritganlar. «Hofiz» arabcha so'z bo'lib, «yodda saqlamoq» ma'nosini anglatadi. Hofiz - Ollohning 99 ismlaridan biri deb ham ta'riflanadi. Mumtoz hofizlarimiz islomiy bilimlardan hamda badiiy she'riyatdan habardor bo'lganlar. Shuning uchun ham ular ijro etgan qo'shiqlar nihoyat ta'sirchan bo'lib, tinglovchilarni o'zlariga rom eta olgan. Mumtoz shoirlarimizning beqiyos ma'noga ega bo'lgan g'azallarini kuyga solib, ijro etgan qo'shiqlari uchun «Hofiz» degan nomga musharraf bo'lishlari ham qandaydir ramziy ma'no kasb etishi tabiiydir. Musiqa inson jismiga jon bilan kirganligini, bunda ilohiy qudrat borligini islom ulamolari ham e'tirof etishgan.

O'zbek va tojik musiqa san'ati hamda madaniyatining rivojida xalq bastakorlari hamda hofizlari tomonidan yaratilgan maqom va an'anaviy mumtoz musiqa asarlari barcha davrlarda o'ziga xos tarzda hamohang bo'lgan. Bunga mashhur bastakor va ijrochilar Borbad Marvaziy, Abu Xafz Sug'diy, Abu Bakr Rubobiy, Abul Abbos Baxtiyor, Abdulqodir Marog'iy, Darvishali Changiy, Pahlavon Muhammad singari bobokalonlarimizning ijodlarini misol tariqasida keltirish mumkin. G'azal mulkini sultoni Navoiyning hofiz ahliga bo'lgan chuqur hurmat - ehtiromi, xonanda san'atini ulug'lash, hushxon hofizlarning sifatleri ifodalanadi. O'zbek va tojik xalq musiqasining janrlariga asoslanib yaratilgan asarlarni ijro etuvchilar qadimdan turlicha nomlangan, masalan xonanda, hofiz, ashulachi, qo'shiqchi, yallachi, katta ashulachi, laparchi, talqinchi, maqomxon, savtxon, baxshi, shoir, zokir, mug'anniy, mutrib, yirovchi, go'yanda singlarlar. Bu ijrochilar bir necha guruhga bo'linadilar, chunonchi, maqom ijrochilariga maqomxon, hofiz, xonanda, savtxon deyilsa, doston, musiqa ijrochilariga baxshi, shoir, dostonchi, yirovchi deyilgan. Xalq orasida keng tarqalgan janr ijrochilari - yallachi, laparchi, ashulachi, qo'shiqchi singari nomlar bilan atalib kelingan.

Shu o'rinda aytish kerakki, barcha maqom ijrolari va mashhur qo'shiqlar turli davrlarda qaysidir bastakor tomonidan yaratilgan. Bu ijrolar xalqona bo'lganligi sababli xalq orasiga singib ketgan va xalqning ma'naviy boyligiga aylangan. Shu bois bizning davrimizda ham yaratilgan an'anaviy qo'shiqlarimizning mashhurlari bastakorlar tomonidan yaratilib, xalq orasida mashhur bo'lib ketishining sababi ham shundadir. Masalan, Yunus Rajabiyning «Ne navo», «Kuygay»,

To'xtasin Jalilovning «Kokiling», «O'ynasin», Komiljon Jabborovning «Etmasmidim», Imomjon Ikromovning «So'lim», Saidjon Kalonovning «Ey sarvi ravon», Doni Zokirovning «Ey sabo», Orifxon Xatamovning «Xoh inon, xoh inonma», Rahmatjon Tursunovning «G'amzasin» singari yuzlab qo'shiqlar bunga misoldir.

An'anaviy qo'shiq ijrochiligi tarixiga nazar tashlasak, XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida o'lkamizda bu muqaddas san'atning butun bir ijrochi avlodi yetishib chiqqanligining guvohi bo'lamiz. Ota Jalol Nosirov, Ota G'iyos Abdulg'ani, Xoji Abdulaziz Abdurasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Sodirxon hofiz Bobosharifov, Zohidxon hofiz, Madali hofiz, Mulla To'ychi Toshmuhammedov, Matyoqub Xarratov singari zabardast hofizlar shular jumlasidandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. N.N. Mironov. Farg'ona, Buxoro, Xiva ashulalar. Toshkent. O'zdatnashr. 1931 yil.
2. Ye. Ye. Romanovskaya, M. Uspenskiy. O'zbek xalq ashulalari. Toshkent. O'zdatnashr. 1931 yil.
3. Yu. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent. O'zdatnashr. 1955 yil.
4. K. Olibboyeva, F. karamatov, O'zbek xalq ashulalari. Toshkent. O'zdatnashr. 1956 yil.
5. V. Uspenskiy. Gulyor-Shaxnoz. Toshkent. O'zdatnashr. 1956 yil.

TA'LIM OLUVCHILARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASHDA QO'SHIQCHILIK SAN'ATINING TUTGAN O'RNI

Soliev Abdusalom Raximovich

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqoladan ta'lim oluvchilarni milliy ruhida tarbiyalashda qo'shiqchilik san'atini ta'lim muassasalarida tutgan o'rni, milliy ruhidagi qo'shiqchilik san'atimiz o'z maqsad va vazifalari, ta'lim oluvchilarda ma'naviy his-tuyg'ularni o'stirish, yuksak badiiy didni tarbiyalash hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, yosh avlod qalbi va ongiga, ona yurtiga muhabbat hamda uni himoya qilishda, sevish va qadrlashga o'rgatish haqida fikrlar yuritilgan

Аннотация. В данной статье рассматривается роль пения в учебных заведениях в воспитании учащихся в национальном духе, цели и задачи нашего пения в национальном духе, воспитание духовных чувств у учащихся, воспитание высокого художественного вкуса и развитие творческих способностей, привитие в сердцах и умах подрастающего поколения любви к Родине, ее защите и признательности.

Annotation. This article examines the role of singing in educational institutions in educating students in the national spirit, the goals and objectives of our singing in the national spirit, the education of spiritual feelings in students, the education of high artistic taste and the development of creative abilities, instilling in the hearts and minds of the younger generation love for the Motherland, its protection and gratitude.

Kalit so'zlar. Milliy, ruhidagi, qo'shiqchilik, san'atimiz, ta'lim, ma'naviy, his-tuyg'u, yuksak, badiiy, did, tarbiya, ijodiy, qobiliyat, himoya, sevish, qadrlash.

Ключевые слова. Национальный, в духе, пение, наше искусство, образование, духовность, эмоции, высокий, художественный, вкус, воспитание, творческий, способность, защита, любовь, признательность.

Keywords. National, in the spirit, singing, our art, education, spirituality, emotions, high, artistic, taste, education, creative, ability, protection, love, gratitude.

Mamlakatimizda ta'lim oluvchilarning jismoniy va ma'naviy yetuk insonlar bo'lishini ta'minlashda, qobiliyati hamda iqtidorini yuzaga chiqarishda, yashab turgan zaminiga sadoqat va fidoyilik ruhida tarbiyalash borasida beqiyos ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yosh avlodga uzluksiz ta'limni rivojlantirishning huquqiy, ijtimoiy-siyosiy, pedagogik-psixologik, ilmiy-uslubiy va moliyaviy asoslar yaratilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimining zaminida sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanish, mehnat bozorining zamonaviy talablariga muvofiq yuqori malakali kadrlar tayyorlashga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor berilishi, ta'lim tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik baza yaratilishi, bu intellektual salohiyatlar barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga olib kelmoqda.

Ta'lim oluvchilarni yuksak ma'naviy fazilatlarini kamol toptirishda va har tomonlama rivojlantirishda ta'lim muassasalarini tutgan o'rni benihoyat kattadir. Zero, milliy ruhidagi qo'shiqchilik san'atimiz o'z maqsad va vazifasi orqali ta'lim oluvchilarda ma'naviy his-tuyg'ularni o'stirishda, yuksak badiiy didni tarbiyalashda hamda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali milliy qadriyatlarimiz, an'ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylashda, yosh avlod qalbi va ongiga, ona yurtiga va milliy ruhidaga qo'shiqchilik san'atimizga muhabbat, yurtimiz taraqqiyotiga sadoqat tuyg'ularini chuqur singdirishda, o'zi tug'ilib o'sgan Ona zaminni e'zozlash va uni himoya qilishda, sevish va qadrlashga o'rgatadi. Bu fazilatlar esa ta'lim muassasalarida o'z o'rnini topgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 29-aprel kuni "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni 2019 yil 30 sentyabr kun "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019 yil 26 noyabr kungi "Zamonaviy maktab"larni tashkil etish to'g'risida"gi Qarorlari hozirgi ayni kunda islohotlar amalga oshirishlayotgan jarayonda yoshlarni madaniyat va san'at muassasalarida istedodlarini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga egadir.

Bu qabul qilingan Farmon va Qarorlar O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasalarida musiqa ta'limini tizimli belgilashda, ta'lim muassasalariga ilg'or Xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishda, yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlarning vujudga kelishida, ularning ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko'tarishida, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etilishida pedagog xodimlar qatorida musiqa ta'limi olib boruvchi o'qituvchisiga ham katta ma'suliyat yuklaydi.

Yosh avlodga daslabki boshlang'ich musiqaviy - ma'naviy tarbiya berish asosan ta'lim muassasasi ostonasida boshlanadi. Ta'lim muassasasi ostonasiga qadam qo'ygan ta'lim oluvchilar o'z hayotlarida birinchi bor musiqaviy ma'lumotni ta'lim muassasasida oladilar. Ularning musiqa haqidagi ilk tushuncha, bilim va tasvurlari, musiqa san'atiga bo'lgan xavas va qiziqishlari ta'lim muassasasi quchog'ida o'sadi, shakllanib boradi. Ta'lim muassasalarida musiqa darslari Davlatimiz tomonidan joriy etilgan talab va ko'rsatmalar asosida o'quv yilini boshidayoq to'g'ri va muntazam yo'lga qo'yishi, pedagoglar o'z ish tajribalariga yondoshgan holda darsini tashkillashi bugungi kun talabi bo'lmog'i kerak.

Musiqa ta'limi o'z tabiatiga ko'ra san'at darsidir. Uning asosiy shartlaridan biri ta'limni sermazzun, rang-barang va qiziqarli tashkil etishdir. "Bolalarni san'atga o'rgatish juda ham qiyin, - deb ta'kidlagan edi kompozitor D.B.Kabalevskiy - hamma qiyinchilik shundaki, ularning ma'naviy dunyosini boyitmay turib haqiqiy san'atga o'rgatish mutloq mumkin emas". Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchilar qalblarga ta'sir ko'rsatishning ko'plab vositalari orasida musiqa katta o'rin egallaydi. Musiqa asarlarini ijro hamda idrok etish hissiy va ruhiy kechinmalar bilan chambarchas bog'liq ravishda sodir bo'ladigan jarayondir. Uning ta'siri ostida paydo bo'ladigan har qanday kechinma esa ayniqsa, yosh avlod yuraklarida o'ziga xos yuksak va

olijanob his-tuyg'ularni uyg'otadi. Ta'lim oluvchilar musiqani sevsalar, unga jon-dildan qiziqsalar, qo'shiq aytish borasidagi bilimlarni o'rganish ularga sevinch, quvonch baxsh etsa, har qanday ta'lim va tarbiya uchun keng imkoniyatlar ochiladi.

Jamiyat rivoji, eng avvalo, milliy ruhdagi qo'shiqlarda aks etadi. Milliy ruhdagi qo'shiqlar xalq mulki, unda xalq hayoti, millat mafkurasi ifodalanadi. Milliy ruhdagi qo'shiqlar bamisoli shunday nafis bir musiqiy asbobki, oqilu donolar undan yoqimli va sehrli sado chiqarib, inson qalbini o'ziga maftun etadilar. Misol uchun O'zbekiston xalq artisti, kompozitor M.M Burhonov tomonida yaratilgan "O'zbekiston Respublikasi davlat madhiyasi" yurtimiz bo'ylab va Xalqaro maydonlarda ona tilimizda yangrayotganda, O'zbekiston xalq artisti, O'zbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi a'zosi S.Mannopovning "O'yna bolajon", "Prezident bolalari", O'zbekiston kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi a'zosi, bastakor M.Dadaboevning "Ona tili", S.Nurmetovning "O'zbek tilim" kabi qo'shiqlarni bolajonlar tomonidan tinglaganlarida va kuylaganlarida qalblarida Vatan tuyg'usi jo'sh urishi muqarrardir.

Milliy ruhdagi qo'shiqlar xalqimiz ijtimoiy hayotida va Xalqaro miqyosdagi obro'e'tiborini tubdan oshirishida, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug' ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalashda ularning madaniyat va san'at muassasalarida istedodlarini yuzaga chiqarishda, yuksak gumanistik ideallar ruhida tarbiyalashda musiqa san'atini o'rni va axamiyatini xech narsa bilan o'lchab baxolab bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018-yil 5-sentyabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. Xalq so'zi gazetasi.2018 yil 6-sentyabr.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 29-mart kungi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlashtirish to'g'risida"gi Farmoni.Xalq so'zi gazetasi.2019 yil 30-aprel.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2019-yil 30-sentyabr kungi "Xalq ta'lim tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. "Xalq so'zi" gazetasi 2019 yil 1-oktyabr.

4.Yu. Rajabiy. O'zbek xalq musiqasi. Toshkent. 1959 yil.

5.R.Nosirov. Xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi. Toshkent. Fan. 2006 yil.

6.N.Ortiqmatov. Qo'shiqlarda takrorlarning tiplari. O'TA. 2008 yil.

BO'LAJAK TARBIYACHILARGA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI LOY BILAN ISHLASH VA IJODKORLIGINI OSHIRISH USULLARINI O'RGATISHNING O'RNI

Axmedbekova Maxpuzaxon

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola bo'lajak tarbiyachilarga maktabgacha yoshdagi bolalarni loy bilan ishlash va ijodkorligini oshirish usullarini o'rgatishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida loydan buyum yasash faoliyatlarini olib borish jarayoni, loydan buyum yasash faoliyatlarida bolalarda plastik ashyolardan shakl hosil qilish malakalarini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari hamda loydan buyum yasash faoliyatlarida bolalarda plastik ashyolardan shakl hosil qilish malakalarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan..

Kalit so'zlar: bola, borliq, buyum, hajmi, parametr, ko'rish, his, qo'l, barmoq, haykalcha, yasash, ifodaviy, vosita, foydalanish, oid.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda olamni anglash, o'rganishga qiziqishni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning eng qulay va samarali turlaridan biri, shubhasiz, loydan buyum yasash faoliyatlaridir. Bu turdagi faoliyatlarda bolalarda ijodkorlik ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bir qatorda maktab Ta'limida muhim ahamiyat kasb etuvchi qo'llarning mayda motorikasini rivojlantirish jarayoni kechadi. Shuning uchun ham loydan buyum yasash faoliyatlarida muayyan didaktik vazifalar qoyiladi. Unga ko'ra, loydan buyum yasash faoliyatlarining maqsadi, birinchi navbatda, bolalarda ijodkorlikni shakllantirish, ularda loydan buyum yasash sohasiga oid texnik va ijodiy malakalarni tarkib toptirish orqali tasviriy sanoatga, umuman go'zallik namunalarini yaratishga qiziqish, rag'batni tarbiyalashdan iborat. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan loydan buyum yasash faoliyatlarida quyidagi o'quv-tarbiyaviy vazifalar hal etilishi nazarda tutiladi.

Bolalarni borliqdagi buyumlarni hajmi va boshqa parametrlarini ko'rish va his qilish, ya'ni qo'l barmoqlari orqaliga o'rgatish. Bolalarda haykalcha yasashning turli ifodaviy vositalaridan foydalanishga oid texnik va ijodiy malakalarni shakllantirish. Loydan buyum yasash asbob-anjomlaridan o'rinli foydalanish malakalarini tarkib toptirish. Berilgan mavzuga mos tasvir, ya'ni haykal yasash malakalarini shakllantirish. Atrof-muhitdagi voqea va hodislarni kuzatish, idrok etish orqali hosil bo'lgan taassurot va tasavvurlar asosida mustaqil kompozitsiya yaratishning dastlabki malakalarini tarbiyalash. Bajargan ishlarini mazmunini sharhlay olishga o'rgatish. Jamoa bo'lib ishlash ko'nikmalarini tarbiyalash vositasida bolalarda kommunikativlik kompetentsiyalarining dastlabki bo'laklarini tarkib toptirish. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarni tartibli ishlash va gigienik qoidalarga rioya qilishga o'rgatiladi.

Yuqorida sanab o'tilgan maqsad va vazifalar bir asosiy maqsadga - tasviriy faoliyat vositasida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashga yo'naltiriladi. SHuning uchun tarbiyachilar bu ta'limiy va tarbiyaviy jarayonga kompleks tarzda yondashishlari talab etiladi. Zero, tasviriy faoliyat faoliyatlarida faoliyatning boshqa turlari bilan uzviy aloqadorlikda jarayonga integrativ yondashish faoliyatning sifatli va samarali kechishini ta'minlaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tasviriy faoliyat faoliyatlari tizimida loydan buyum yasash faoliyatlariga keng o'rin ajratilgan. CHunki, loydan buyum yasash faoliyatlari maktabgacha yoshdagi bolalarda maktab ta'limi uchun kerakli tasavvur, amaliy malakalarni tarkib toptirish uchun qulay faoliyat turi hisoblanadi.

Taniqli haykaltarosh I.Y.Gintsburg loydan buyum yasashning Ta'limiy ahamiyatini taoriflar ekan, matematika fanini o'rganish uchun arifmetika qanday o'rin o'ynasa, loydan buyum yasash tasviriy sanoatni o'rganishda shunday ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'tgan. CHunki, tasviriy faoliyatning boshqa turlarida buyumlarning ayrim detallari, elementlari masalan, perspektiva qonuniyatiga ko'ra buyumlarning ko'rinishi, umuman borliqning vizual ko'rinish o'zgarib ketadi. Natijada tasviriy sanoat asarini to'laqonli idrok etish va muayyan qonuniyatlar asosida tasvirlash uchun tasvirdagi illyuziyalarni anglash talab etiladi. Loydan buyum yasashda ularni yaqqol ko'rish, tasvirlash imkoniyati mavjudligi bois bolalarni nisbatlarni to'g'ri talqin qilish, asosiyni ikkinchi darajalidan ajratishga o'rgatish jarayoni oson kechadi. SHuning uchun ham maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi loydan buyum yasash faoliyatlariga bolalarda buyumlar haqidagi dastlabki tasavvurlarni hosil qilish, ularni "o'qish alifbosi" sifatida qarash lozim.

Loydan buyum yasashning bosh mavzusi, shubhasiz, inson qiyofasidir. Biroq, inson obrazini to'laqonli ochib berish uchun haykaltaroshlar borliqdagi boshqa buyum va detallarni ham tasvirlaydilar.

Tasviriy sanoatning rangtasvir va grafika turlarida rassomlar ifodaviylik vositasi sifatida nur va soya munosabatini ifodalash, hajmdorlik haqida illyuzionistik tasvir hosil qilish orqali asar yaratadilar. Haykaltarosh asarlari ham shu qonuniyat asosida yaratilsa-da, nur va soya munosabatlari real tarzda ko'rinadi. Chunki aynan o'yoq yoki bo'rtiq qismlar hisobiga yorug'-soya ifodasi haykalning shaklini, hajmdorligini bildiradi. Bu xulosa maktabgacha yoshdagi

bolalarga loydan buyum yasash asoslarini o'rgatish ularning tasviriy faoliyatlarida yetakchi o'rinni egallashi lozimligini anglatadi.

Maktabgacha Ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan "Tasviriy faoliyat" yo'nalishining loydan buyum yasash faoliyatlarining, asosan, uch turidan foydalanish tavsiya etiladi.

Bunda buyumlar bilan bog'liq mavzularda o'tkaziladigan faoliyatlarda bolalar, asosan, buyumlar, ya'ni piyola, choynak, likopcha, oyinchoq mashina kabilar, meva va sabzavotlar, ya'ni olma, nok, sabzi kabilar, shuningdek, odam va hayvonlar tasvirini yasashni o'rganadilar. Mazkur faoliyatlarning didaktik maqsad va vazifalarini bajarish yuzasidan qulayligi shundaki, birinchidan, agar bola tasviriy faoliyatning boshqa turida muayayn qiyinchiliklarga duch kelsa, loydan buyum yasash faoliyatlarida ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud. Masalan, hajmni, nisbatni his etish bilan bog'liq qiyinchiliklar.

Shular qatorida hakaltaroshlik faoliyatlaridagi ta'limiy jarayon faoliyatga umumlashgan holda yondashishini talab etadi. Masalan, bola odam tasviri, ya'ni haykalchasini ishlashda undagi mayda detallarga, ya'ni ko'zi, qoshi, barmoqlari, kiyimining shakli, undagi buramalari, rangi va boshqa jihatlar ahamiyat berishi talab etilmaydi. Bu bolalarni oboektlarni umumiy tarzda, yaxlit idrok etishga o'rgatadi.

Bolalarni tasviriy faoliyatida ko'p uchraydigan holatlardan biri - ularni xato qilib qoyishdan cho'chishi bois bu jarayonda ularning ijodiy faollik ko'rsatmasliklari bilan tavsiflanadi. Bola rang bilan ishlayotganda noto'g'ri qoyilgan rang ishning muvaffaqiyatli yakunlanishda muayyan qiyinchilik, muammolarni keltirib chiqaradi. SHuning uchun ham tasviriy faoliyatda bolalarda ehtiyotkorlik holatlari kuzatiladi. Bir necha urinish ko'ngildagidek chiqmagan taqdirda bolada ishtiyoq, faollik pasayib boradi. SHuningdek, qalamda ketma-ket berilgan chiziqlar rejadagidek chiqmasa qayta-qayta o'chirilishi natijasida qog'ozning sifati buzila boradi. Loydan buyum yasash faoliyatlarida bu xatolarni muammosiz hal etish imkoniyatlari mavjud. Yasalgan haykalcha o'xshamay qolsa uni buzib tashlab yo'l qoyilgan kamchilikni bartaraf etgan holda qaytadan yasash mumkin. Plastilinning massasi o'zgarmaydi, sifati qo'l bilan ishlov berish natijasida yaxshilanib, ishlash uchun qulay bo'la boradi.

Maktabgacha Ta'lim tashkilotlarida bolalarni loydan buyum yasash bilan tanishtirish jarayonida, avvalo, uning umumiy xususiyatlari haqida elementar tushunchalar berib o'tish maqsadga muvofiq. Loydan buyum yasashning turlari haqidagi ma'lumotlar dastlabki saboqlar sirasiga kiradi. Demak, bu borada bolalarning real va dekorativ loydan buyum yasash turlari haqida dastlabki tasavvurlarga ega bo'lishi ularning tasviriy-ijodiy faoliyatini aniq yo'nalishga ega bo'lishini ta'minlaydi. Loydan buyum yasash faoliyatlari uchun mavzu tanlash muhim jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, jamoaviy tarzda haykalcha ishlash faoliyatlarida bu omilga alohida eotibor qaratish lozim. Zero, hamma uchun birdek qiziqarli bo'lgan mavzu tanlash qiyin. SHu maonoda tarbiyachi boshqa turdagi faoliyatlar jarayonida, shuningdek, tabiatga sayrga chiqqan davrda bolalarning har birini individualligidan kelib chiqqan holda oldindan bo'lajak faoliyat uchun mavzu tanlab borishini tashkil etish mumkin, yaoni mavzu tanlashda tarbiyachining maslahatlari, tavsiyalariga ko'ra ko'proq bolalarning o'zidan tashabbus, taklif chiqishiga erishish, tanlovni asoslashga o'rgata borish, bu turdagi faoliyatlarni tashkil etishda bolalar olingan taassurot asosida haykalcha yasashi haqida ogohlantirilishi lozim. Bunday metodik yondashuv bolalarni borliqni to'g'ri idrok etish, maqsadli kuzatish va idrok etish yoki hikoya qilib berilayotgan voqelikni tahliliy idrok etishga undaydi, ularda mushohada yurtish va qaror qabul qilish malakalari shakllanib boradi. SHu tariqa ular ko'rgan narsa va hodisasini xotirada saqlab qolish va uni keyinchalik tasviriy faoliyatda badiiy obraz shaklida qayta jonlantirishga o'rganadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. "Ilk qadam" MTT davlat o'quv dasturi. T.: 2018.
2. Maktabgacha Ta'limga qo'yiladigan davlat talablari. T.: 2018

3. M.Nurmatova, Sh Xasanova Rasm, buyumlar yasash va tasviriy faoliyat metodikasi. “Musiqqa” nashriyoti 2010.
4. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvchi. 1993.
5. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
6. Sodiqova Sh.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013
7. N.Kayumova. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU 2013.
8. Боголюбов М.С. Лепка на занятиях школьном кружке. - М.: просвещение, 1988. - 144с., ил.
9. Иванова Т.Э. Занятие по лепке в детском саду. Методическое пособие. - М.: Сфера, 2010. - 96 с.
10. Коншева Н.М. лепка в начальных классах: Кн. для учителей. Из 3-х работ. - 2-е изд., дораб. - М.: просвещение, 1985. - 80 с., ил., 4 л ил.

TA'LIM JARAYONIDA MUSIQA ORQALI O'QUVCHILARNI TARBIYAGA YO'NALTIRISHNING SHAKL VA METODLARI

Xadjayeva Shohsanam Oybek qizi

FarDU Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Jamiyatimizning madaniyatini vujudga keltirishda, uning ma'naviy hayotida, davrimizga munosib har tomonlama barkamol badiiy didli, sog'lom fikrli yoshlarni tarbiyalash voyaga yetkazishda musiqa san'atining o'rni ahamiyatli bo'lib kelmoqda. Jumladan, chet el, o'zbek musiqa madaniyatining poydevorini vujudga keltirishda mehnatkash xalq tomonidan yaratilgan kuy va qo'shiqlar kishi qalbini o'ziga rom qilib, asrlash osha xalq uchun ilhom manbai bo'lgan va insonlarga ma'naviy ozuqa berib kelgan. Xalqimiz o'zlarining bebaho musiqa durdonalarini yaratgani, bu asarlar hozirgi milliy musiqamizga asos bilan bir qatorda, doimo go'zallikka tashnalik sezgan inson qalbi to'ridan o'rin olib kelmoqda. Inson qalbi go'zallikka tashnalik sezish bilan bir vaqtda go'zallik muhitidan o'ziga oladi va shakllanadi. San'at kishilarga faqatgina ma'naviy ozuqa berib qolmasdan jismoniy kamolotga erishuvda ham muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: musiqa, ta'lim, tarbiya, o'quv jarayoni, tarbiya turlari, vatanparvarlik, qobiliyat, ijrochilik, dunyoqarash, tafakkur.

Musiqa keng ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyatini o'rta asr mutafakkirlari A.N.Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqalar yuqori baholashgan. Ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy asarlarida tambur, rubob, g'ijjak, nay, karnay, surnay kabi ko'pgina cholg'ularning nomlari qayd qilinadi. Bular o'rta asrlarda kashf etilgan. Navoiy buyuk shoir, mutafakkir olim, musiqachi, tarixchi, pedagogik va mashhur davlat arbobi bo'lgan. Shoir o'z asarlarida insonning go'zalligini va ma'naviy boyligini va ijodiy mehnatini zavq, shavqini tarannum etadi. Olim o'z asarlarida musiqa san'atining tarbiyaviy imkoniyatlarini yuqori baholaydi. O'rta Osiyoning progressiv mutafakkirlari asrlar mobaynida musiqa go'zalligini real mavjud bo'lgan juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan san'at ekanligini tushuntirib berganlar. Jumladan, o'zbek xalq og'zaki ijodining ertak janrida ham musiqaning ta'sirchan tarbiyaviy imkoniyati keng o'rin olgan.

Musiqa kishining ruhiga tez ta'sir etadi, uning ahloqiy-estetik qiyofasining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sadiiy She'roziy aytganidek: “Musiqqa inson ruhining yo'ldoshidir”. Shu bois o'quvchilarda inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lgan musiqiy idrokni tarbiyalash musiqa tarbiyasining bosh masalasi bo'lib turadi. Sharqning ko'pgina xalqlari kabi o'zbeklar o'tmish avlodning musiqa san'atida professionalizm eramizning birinchi asrlaridek vujudga keldi va asrlar davomida rivojlanib borib, ijrochilik madaniyatida ham vokal va cholg'u musiqa janrlarida ham yuksak badiiy natijalarga erishdi. Ammo professional musiqachilar bizning asrimizgacha ya'ni XX asrgacha amalda nota yozuvini qo'llashmadi. Milliy ta'lim va

tarbiya o'z mazmunida insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, axloqiy va umuminsoniy fazilatlarni mujassam etishi bilan jamiyat rivojida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda milliy ta'lim va tarbiya oldidagi eng muhim vazifalardan biri ham o'quvchi-yoshlarda milliy ong va milliy madaniyatni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu esa, birinchi navbatda ta'lim va tarbiya ishlarida milliy-ma'naviy qadriyatlardan unumli, oqilona va o'z o'rnida foydalanishni taqozo etadi. Fikrimizni prezidentimiz I.A.Karimovning "Biron bir jamiyat ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirmay hamda mustahkamlamay turib o'z istiqbolini tasavvur eta olmaydi. Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaratishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz" – degan gaplari ham tasdiqlaydi O'zbek xalqi milliy qadriyatlari tizimida xalq musiqa ijodiyoti xalq hayotini barcha tomonlarini aks ettirish qamrovi va ko'lami bilan o'tmishning "jonli ensiklopediyasi" hisoblanadi. Unda xalqimiz hayotining turli davrlaridagi tarixiy badiiy ko'rinishlari bilan birga xalq pedagogikasining eng ilg'or, oliyjanob g'oyalari umumlashganligi bois, yoshlarning badiiy-estetik va axloqiy, ma'naviy tarbiyasida foydalanish ta'lim sohasiga qo'yilayotgan ijtimoiy buyurtmani bajarishda qo'l keladi. Umumta'lim maktablarida xalq musiqa ijodiyotini o'rganishda nimalarga e'tibor berish, ta'limi va tarbiyaviy faoliyatni qanday tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi? Ushbu yo'nalishdagi tadqiqiy izlanishlar quyidagi pedagogik talab va mezonlar asosida ish tutish ijobiy natijalarga erishish imkonini berishni ko'rsatdi:

1. a) Xalq musiqa ijodiga mansub asarlarni har bir sinfnig musiqiy mavzulari (yil, chorak) ga va dastur talablariga mosligi; b) Asarlarning o'quvchilarni musiqiy qiziqishi, qobiliyati va ijrochilik imkoniyatlariga to'g'ri kelishi; v) Tanlangan asarlarni o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashi va tafakkurini pirovard natijada milliy madaniyatini shakllantirish nuqtai nazaridan tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lishi; g) O'quvchilarda o'qishga, mehnatga, ijodiy izlanish, ijtimoiy foydali ishlarga rag'bat uyg'otishi; d) Xalq musiqa ijodiyoti namunalarining, hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan umumhalq bayramlari, madaniy-ma'rifiy va ommaviy tadbirlar mavzulariga mosligi; s) Asarlarni o'rganish ta'limning boshqa tarkibiy qismlarini (musiqasavodi, musiqa adabiyoti, musiqa ijodkorligi) o'zlashtirish uchun ahamiyatligi yoki ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyatiga egaligi;

2. Xalq musiqa ijodiyoti namunalaridan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarda foydalanishda sinfda o'rganilgan mavzularni mustahkamlash nuqtai-nazaridan yondashish. Bu pedagogik talab musiqa darslarining asosiy faoliyat turlari mazmuni va mohiyatiga muvofiq holda ish yuritishni nazarda tutadi. Ya'ni, erkin tanlov asosida o'rganilgan asar ayni vaqtdagi asosiy maqsad va hal etilayotgan vazifalarga ijodiy yondashish xarakterida bo'lishi lozim.

3. Dars va darsdan tashqari faoliyatda o'rganish uchun tanlab olingan namunalar o'quvchilarni an'anaviy mumtoz va folklor yo'nalishida mustaqil bilimlar olishga bo'lgan talab va istaklariga mos kelishi va o'qituvchi tomonidan mashg'ulotlarni tashkil etishda e'tiborda tutilishi lozim. Bu pedagogik shart o'z mazmunida o'quvchilarni musiqiy iqtidor va qobiliyatlarini yuzaga chiqarish uchun izchil va maqsadli mashg'ulotlar olib borishni nazarda tutadi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida o'quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarga imkon qadar keng va ommaviy jalb qilishni sinf va sinfdan tashqari ishlarda o'zaro aloqadorlikni kuchaytirishni o'qtiradi.

4. Xalq musiqa ijodiyotiga murojaat qilganda ularni qaysi mahalliy uslubga xosligi, janri, ijrodagi cholg'ular ishtiroki, raqs jo'rliqi kabilarga e'tibor berish eng muhim shartlardan hisoblanmog'i lozim. Chunki, bu jihatdan o'quvchilarni umummusiqiy biluv darajasini takomillashuviga, milliy musiqaning o'ziga xos uslublarini, ijrochilik an'alarini chuqur o'zlashtirishlariga ijobiy ta'sir etadi, ta'kidlab o'tilgan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarga erishishni kafolatlaydi.

5. Umumta'lim maktablarida musiqa o'qituvchisi dars va darsdan tashqari faoliyatda o'quvchilarni xalq musiqa ijodiyoti bilan tanishtirib borishga nazariy, amaliy va uslubiy jihatdan doimiy ravishda tayyorgarlik ko'rib, o'z bilim va malakalarini oshirib borishi lozim. Xalq

musiqa ijodiyoti orqali o'quvchi-yoshlarni milliy madaniyatni shakllantirishda ushbu pedagogik talab va mezonlarni eng maqbul va mukammallikdan holi deyish fikridan yiroqmiz. Zotan, milliy musiqiy ta'lim va tarbiya'ni milliy negizda takomillashtirish vazifalari har bir pedagogmurabbiydan fidoyilikni, o'z imkoniyatlaridan to'liq foydalangan holda ish tutishni talab qiladi.

O'zbek professional ijrochilik madaniyati rivojlanganli sababli, hofiz va sozandalar oldiga qadim vaqtlardayoq alohida talablar qo'yilgan. Havaskor sozanda va xonandalar mashhur ustozlardan uzoq yillar ta'lim olganlaridan keyingina professional ijrochi sifatida yetishganlar. Eng mashhur musiqachilar hatto XX asrlarda ham xon saroylarida xizmat qilish uchun amir saroyiga (yoki boshqa mansabdor shaxslar dargohiga) jalb etilardi. Ular hukmron shaxslarning ijozatisiz xalq oldiga chiqib o'z san'atlarini namoyish qilishdan mahrum edilar. Ko'p qirrali muhabbat lirikasi lapar va yalla, ashulalar asosini tashkil etgan.

Xalq ta'limi tizimidagi, musiqa ta'lim-tarbiyasining mazmunini qayta tiklash jarayonida milliy musiqamiz tarixini, madaniy merosimizni, boy an'analarimizni har tomonlama o'rganib yosh avlodni ma'naviy, estetik va ahloqiy fazilatlarini tarbiyalab shakllantirish vazifasini musiqa o'qituvchisi zimmasiga yuklaydi. Demak, musiqa ta'lim-tarbiyasining saviyasini va samaradorligini oshirish hamda malakali mutaxassislar bilan taminlash hozirgi vaqtning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib, shuningdek, musiqa o'qituvchisini musiqa san'atining nazariy va amaliy sohalaridan bilim va malakalarga ega bo'lish bilan birga miliy maqsadimiz, madaniyatimio' va ma'naviyatimiz haqida ham puxta bilimga ega bo'lishi bilan uni o'quvchilar ongiga singdirishni taqozo etadi. Musiqa darslarining maqsadi o'quvchilarni san'at olami sir-sanoatlaridan bahramand qilish orqali ularni umuminsoniy qadriyatlarini shakllantirish, ularning dunyoqarashini, badiiy saviyasini, bilim doirasini, didini shakllantirishdir.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Tanlangan asarlar. 2-jildlik. 2 jild. T.: Ma'naviyat, 1998.
2. Is'hoq Rajabov. Maqomlar. "San'at". Toshkent 2006. 15-bet.
3. R.Yunusov, Fattohxon hofiz nomli monografiyasi, Toshkent 2022 yil.
4. I.Rajabov. Maqomlar. San'at nashriyoti. Toshkent 2006 yil. 14-bet.
5. I.Rajabov. Maqomlar. San'at nashriyoti. Toshkent 2006 yil. 15-bet.
6. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
7. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. EuroAsia Conferences 1 (1), 34-36.
8. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139- 141.

O'ZBEKISTONDA AMALIY SAN'AT FANINING O'RNI VA RIVOJLANISHI

Siddiqova Feruza Murotjonovna

Farg'ona davlat universtiteti Sirtqi bo'lim Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: O'zbekiston, o'zining boy madaniy merosi va an'anaviy san'atlari bilan mashhur bo'lgan bir davlatdir. Amaliy san'at, bu yerda nafaqat estetik jihatdan, balki ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Amaliy san'at fanining rivojlanishi, milliy identitetni saqlash va yosh avlodni tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada

O'zbekistonda amaliy san'at fanining o'rni, uning rivojlanishi va zamonaviy tendensiyalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: amaliy san'at, fan, hunarmandlar, turizm, iqtisodiyot, madaniyat, an'analar, urf-odatlar, iqtisodiy rivojlanish.

Amaliy san'at, asosan, kundalik hayotda qo'llaniladigan san'at turlarini o'z ichiga oladi. Bunga to'qimachilik, keramika, yog'och o'ymakorligi, metallga ishlov berish, zargarlik va boshqa ko'plab san'at turlari kiradi. O'zbekistonda amaliy san'atning tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. O'zbek xalqining an'anaviy hunarmandchiligi, ularning turmush tarzini, madaniyatini va urf-odatlarini aks ettiradi. Har bir hududning o'ziga xos amaliy san'at turlari mavjud bo'lib, ular xalqning madaniy merosini saqlashda muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda amaliy san'at fanining rivojlanishi, asosan, XX asrning o'rtalaridan boshlangan. Mustaqillikdan so'ng, amaliy san'atga bo'lgan qiziqish yanada ortdi. Davlat tomonidan bu sohani rivojlantirishga qaratilgan bir qator dasturlar va loyihalar amalga oshirildi. Amaliy san'at ustalari va hunarmandlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratildi. Ularning ishlarini qo'llab-quvvatlash, yangi avlod hunarmandlarini tayyorlash va xalqaro maydonda tanitish maqsadida turli ko'rgazmalar, festival va tanlovlar o'tkazildi.[1]

Amaliy san'at, nafaqat san'at sifatida, balki iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Bu soha, ko'plab ish o'rinlarini yaratadi va mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga hissa qo'shadi. O'zbek san'atkorlari o'z asarlarini nafaqat ichki bozor, balki xalqaro bozor uchun ham ishlab chiqaradilar. Turizm sohasining rivojlanishi, amaliy san'at mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirdi. Sayyohlar O'zbekistonning an'anaviy hunarmandchiligini, to'qimachilik san'atini va boshqa amaliy san'at turlarini xarid qilish uchun keladilar, bu esa mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy davrda amaliy san'at fanining rivojlanishi, yangi texnologiyalar va innovatsiyalar bilan chambarchas bog'liq. Yosh san'atkorlar, zamonaviy uslublarni va texnikalarni o'z ishlarida qo'llashmoqda. Bu esa amaliy san'atning yangilanishiga va rivojlanishiga olib kelmoqda. Yosh avlodning ijodiy yondashuvi, an'anaviy uslublarni zamonaviy talablarga moslashtirish imkonini bermoqda. Shuningdek, amaliy san'atda ekologik jihatlarni hisobga olish ham muhim ahamiyatga ega. Yosh san'atkorlar, tabiiy materiallardan foydalanishga, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishga e'tibor berishmoqda.[2]

O'zbekistonda amaliy san'at fanining rivojlanishi, ta'lim tizimida ham o'z aksini topmoqda. San'at ta'limi, o'zbek yoshlariga amaliy san'atni o'rganish va rivojlantirish imkonini beradi. O'zbekistonning ko'plab oliy o'quv yurtlarida amaliy san'at bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Talabalar, an'anaviy san'atni o'rganish bilan birga, zamonaviy dizayn va texnologiyalarni ham o'zlashtirmoqdalar. Bu esa amaliy san'atning kelajagini yanada yorqin qiladi. Shuningdek, O'zbekistonda amaliy san'at fanining rivojlanishida xalqaro hamkorlik ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston, turli xalqaro ko'rgazmalar va festivalda ishtirok etib, o'z san'atini jahon miqyosida namoyish etmoqda. Bu esa nafaqat o'zbek amaliy san'atini tanitadi, balki xalqaro tajriba almashish imkonini ham beradi. Xalqaro aloqalar, o'zbek san'atkorlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va ularning ijodiy rivojlanishiga yordam beradi. Amaliy san'at, O'zbekistonning madaniy hayotida muhim o'rin egallaydi. U, xalqning urf-odatlari, an'analari va madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Amaliy san'at, nafaqat estetik qiyofani, balki ijtimoiy va iqtisodiy jihatlarni ham o'z ichiga oladi. O'zbekistonda amaliy san'at fanining rivojlanishi, yosh avlodni tarbiyalashda, milliy identitetni saqlashda va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, amaliy san'atni rivojlantirish, uni qo'llab-quvvatlash va yangi avlodga o'rgatish, O'zbekistonning kelajagi uchun juda muhimdir.[3]

Zamonaviy davrda amaliy san'atning rivojlanishi, jahon madaniyatining bir qismi sifatida, ko'plab o'zgarishlar va yangiliklar bilan bog'liq. O'zbekiston kabi mamlakatlarda amaliy san'at, an'anaviy texnikalar va uslublarni saqlab qolish bilan birga, zamonaviy talab va tendensiyalarga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu jarayon, san'at va madaniyatning o'zaro aloqasi, iqtisodiy o'sish va globalizatsiya bilan chambarchas bog'liq. Zamonaviy amaliy san'atning rivojlanishi, avvalo,

texnologik yangiliklar bilan bog'liq. 3D bosib chiqarish, raqamli dizayn va boshqa innovatsion texnologiyalar, san'atkorlarga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bu texnologiyalar yordamida, an'anaviy san'atni zamonaviy shakllarda takomillashtirish va yangi dizaynlarni yaratish mumkin bo'ladi. Masalan, 3D bosib chiqarish orqali, san'atkorlar murakkab naqshlar va strukturalarni osonlik bilan yaratish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu jarayon, an'anaviy san'atni zamonaviy estetikaga moslashtirishga yordam beradi. Shuningdek, zamonaviy amaliy san'atda ekologik masalalar ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ko'plab san'atkorlar, tabiiy materiallardan foydalanishga, qayta ishlanadigan mahsulotlarni yaratishga va atrof-muhitga zarar bermaslikka e'tibor berishmoqda. Bu yondashuv, nafaqat san'atkorlarning ijodida, balki iste'molchilarning talablarida ham o'z aksini topmoqda. Masalan, ekologik toza materiallardan tayyorlangan mahsulotlar, zamonaviy iste'molchilarning afzalliklariga aylangan.[4]

Zamonaviy amaliy san'atning yana bir muhim jihati, madaniy merosni saqlash va rivojlantirishdir. O'zbekistonning boy tarixiy merosi, amaliy san'at orqali davom ettirilmoqda. San'atkorlar, an'anaviy uslublarni zamonaviy dizayn bilan birlashtirib, yangi va qiziqarli mahsulotlar yaratmoqdalar. Bu jarayon, nafaqat san'atni rivojlantirish, balki milliy identitetni saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. An'anaviy naqshlar, ranglar va shakllar, zamonaviy kontekstda qayta talqin qilinadi, bu esa yangi avlod san'atkorlariga ilhom beradi. Zamonaviy amaliy san'atda, shuningdek, globalizmning ta'siri ham sezilarli. O'zbekistonlik san'atkorlar, xalqaro miqyosda tanilib, o'z ishlarini boshqa mamlakatlarga taqdim etish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. Bu esa, o'z navbatida, yangi g'oyalar va uslublarni o'z ichiga olgan ijodiy almashuvga olib kelmoqda. O'zbekistonning amaliy san'ati, xalqaro ko'rgazmalarda, festival va tanlovlarda ishtirok etib, global san'at maydonida o'z o'rnini topmoqda. Zamonaviy davrda amaliy san'atning rivojlanishi, shuningdek, ta'lim tizimiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. San'at ta'limi, zamonaviy talabalarga mos ravishda yangilanmoqda. Talabalarga nafaqat an'anaviy san'at texnikalari, balki zamonaviy dizayn va texnologiyalarni o'rganish imkoniyatlari berilmoqda. Bu esa, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. San'at maktablari va universitetlarida, amaliy san'atning turli yo'nalishlari bo'yicha kurslar va dasturlar tashkil etilmoqda. Talabalar, o'z ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va amaliy san'at sohasida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishmoqda.[5]

Zamonaviy amaliy san'at, shuningdek, iqtisodiy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. San'at va madaniyat, iqtisodiy o'sish va rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda amaliy san'at sohasida faoliyat yuritayotgan san'atkorlar, o'z mahsulotlarini sotish orqali iqtisodiy mustaqillikni ta'minlashga harakat qilmoqdalar. Bu jarayon, yangi ish o'rinlarini yaratishga, mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirishga va turizm sohasida yangi imkoniyatlar ochishga yordam beradi. Zamonaviy amaliy san'atning rivojlanishi, shuningdek, jamiyatda san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishni oshirishga ham xizmat qiladi. San'atkorlar, o'z ishlarini omma bilan bo'lishish, ko'rgazmalar, ma'ruzalar va seminarlar orqali, san'atning ahamiyatini keng jamoatchilikka etkazishga harakat qilmoqdalar. Bu esa, san'at va madaniyatga bo'lgan qiziqishni oshirish, yosh avlodni san'atga jalb qilish va madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy amaliy san'atning rivojlanishida ijtimoiy media va raqamli platformalarning roli ham katta. San'atkorlar, o'z ishlarini Instagram, Facebook va boshqa ijtimoiy tarmoqlar orqali taqdim etish imkoniyatiga ega. Bu esa, ularning ishlarini keng auditoriyaga etkazishga, yangi muxlislar va mijozlar topishga yordam beradi. Raqamli platformalar, shuningdek, san'atkorlarga o'zaro aloqalar o'rnatish, tajriba almashish va yangi g'oyalar bilan bo'lishish imkoniyatini beradi. Zamonaviy amaliy san'at, shuningdek, ijtimoiy masalalarga ham e'tibor qaratmoqda. Ko'plab san'atkorlar, o'z ishlarida ijtimoiy muammolarni yoritishga, adolat, tenglik va barqarorlik kabi mavzularni ko'tarishga harakat qilmoqdalar. Bu jarayon, san'atning ijtimoiy o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatish qobiliyatini namoyish etadi va san'atni faqat estetik jihatdan emas, balki ijtimoiy jihatdan ham muhim vosita sifatida ko'rsatadi.[6]

Zamonaviy amaliy san'at, shuningdek, o'z-o'zini ifoda etish va shaxsiy brend yaratish imkoniyatini taqdim etadi. San'atkorlar, o'z uslublarini va ijodiy g'oyalarini rivojlantirib, o'z

shaxsiy brendlarini yaratishga harakat qilmoqdalar. Bu jarayon, ularning ijodiy faoliyatini yanada kengaytirishga, yangi mijozlar va auditoriyaga erishishga yordam beradi. Shaxsiy brend yaratish, san'atkorlarning bozor raqobatbardoshligini oshiradi va ularning ishlarini yanada tanilishga yordam beradi. Zamonaviy amaliy san'atning rivojlanishi, shuningdek, xalqaro hamkorlik va tajriba almashish orqali amalga oshmoqda. O'zbekistonlik san'atkorlar, boshqa mamlakatlardagi san'atkorlar bilan hamkorlik qilib, o'z ishlarini yanada rivojlantirishga harakat qilmoqdalar. Xalqaro ko'rgazmalar, festival va tanlovlar, san'atkorlarga o'z ishlarini boshqa mamlakatlarda taqdim etish imkoniyatini beradi. Bu jarayon, san'at va madaniyatni global miqyosda rivojlantirishga yordam beradi. Zamonaviy davrda amaliy san'atning rivojlanishi, an'anaviy va zamonaviy uslublarni birlashtirish, yangi texnologiyalarni qo'llash, ekologik masalalarga e'tibor berish, iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lish va ijtimoiy masalalarga e'tibor qaratish kabi ko'plab omillar bilan bog'liq. O'zbekistonning amaliy san'ati, zamonaviy talab va tendensiyalarga mos ravishda rivojlanib, nafaqat san'atkorlar, balki jamiyatning barcha qatlamlari uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bu jarayon, kelajakda ham davom etishi va amaliy san'atni yangi cho'qqilarga olib chiqishi kutilmoqda.[7]

Umuman olganda, O'zbekistonda amaliy san'at fanining o'rni va rivojlanishi, mamlakatning madaniy merosini saqlash, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Amaliy san'at, xalqning urf-odatlarini va an'analari bilan bog'liq bo'lib, uning rivojlanishi O'zbekistonning kelajagi uchun muhimdir. O'zbek san'atkorlarining ijodiy yondashuvi va zamonaviy texnologiyalarni qo'llashi, amaliy san'atni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik va tajriba almashish, O'zbekistonda amaliy san'atning rivojlanishiga yangi imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov, M. (2020). "O'zbek amaliy san'ati: Tarixi va zamonaviy tendensiyalar." Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
2. Rahmonov, A. (2019). "Amaliy san'at va uning ijtimoiy ahamiyati." Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Abdullaeva, S. (2021). "Zamonaviy amaliy san'at: Innovatsiyalar va an'analari." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi.
4. Xodjayev, R. (2022). "O'zbek xalq san'ati va amaliy san'atning o'zaro aloqasi." Tashkent: O'zbekiston San'at Akademiyasi.
5. Isroilov, D. (2021). "Amaliy san'at va ekologik masalalar." Tashkent: O'zbekiston ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi.
6. Murodov, R. (2020). "O'zbek amaliy san'ati: An'anaviy va zamonaviy uslublar." Tashkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
7. Tursunov, B. (2018). "Amaliy san'at va iqtisodiy rivojlanish." Tashkent: Iqtisodiyot va tadbirkorlik universiteti.
8. Karimova, N. (2019). "O'zbek amaliy san'ati va uning ta'lim tizimidagi o'rni." Tashkent: O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining nashriyoti.
9. Sultonov, E. (2022). "Amaliy san'at va zamonaviy texnologiyalar." Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi.
10. Mamatqulov, A. (2021). "O'zbek amaliy san'ati: Yangi g'oyalar va tendensiyalar." Tashkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

**MUSIQA FOLKLOR SAN'ATINING RIVOJ TOPISHIDA QO'SHIQCHILIK
SAN'ATINING O'ZIGA XOS O'RNI**

Raxmonov Ulug'bek Karimovich

Farg'ona davlat univesiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti,

Mirzamaxmudov Xabibullo Qudratjon o'g'li

Sirtqi bo'lim musiqa ta'limi yo'nalishi 3-kurs talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqola musiqa folklor san'atini rivoj topishida qo'shiqchilik san'atining o'ziga xos o'rni, marosim qo'shiqlari o'zbek xalqi hayotini, tarixi, etnografiyasi, diniy e'tiqodi bilan bog'liqligi, ularda so'z va kuy mutanosibligi muhim o'rin o'ynaydi va ahamiyat kasb etishi haqida fikr yuritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается особая роль песенного искусства в развитии музыкального фольклора. Автор раскрывает взаимосвязь обрядовых песен с жизнью, историей, этнографией и религиозными верованиями узбекского народа. Подчеркивается важность гармонии слова и мелодии в этих песнях, их значимость и выразительность.

Abstract. This article explores the unique role of the art of singing in the development of musical folklore. It discusses how ritual songs are closely connected to the life, history, ethnography, and religious beliefs of the Uzbek people. The harmony between lyrics and melody in these songs is emphasized as playing a significant and meaningful role.

Kalit so'zlar. O'zbek, xalq, juda, boy, an'ana, ijtimoiy, munosabat, shartli, ravishda, tabiat, geografik, muhit, mehnat, milliy, turmush, madaniyat, kuy, qo'shiq, zavq, shavq.

Ключевые слова: узбек, народ, богатое, традиции, социальные отношения, условно, природа, географическая среда, труд, национальный, быт, культура, мелодия, песня, эстетическое наслаждение.

Keywords: Uzbek, folk, rich, tradition, social relations, conditional, nature, geographical environment, labor, national, lifestyle, culture, melody, song, aesthetic pleasure.

Kuy va qo'shiq uyg'unlikda nisor etilgan zavq va shavq shodalari kishining qalb ko'zini munavvar etadi. Qalb va ko'ngil tuyg'ular silsilasida ruhlarimizga yorug'lik ulashadi. G'ayritabiiy ilohiy sadolar og'ushida qalb larzaga keladi. Entikasan, huzurlanib talpinasan – qo'shiq sajdagohiga. Zero, u tiriklining eng tansiq ne'matlaridandir. Qo'shiq butun borligini baxshida etadi tinglovchiga. Bizning ruhlarimiz ham tobora unga – qo'shiqqa yukinib boradi. Musiqa inson xotirasi va tuyg'usini poklar ekan, uning qudratini, inson hayotidagi o'rnini hech kim inkor eta olmaydi. Ayniqsa, kelajagimiz egalari qalbida estetik his-tuyg'uni jo'sh urdirishda, ularni yuksak didli, madaniyatli kishilar qilib o'stirishda musiqaning ahamiyati benihoyatdir. Yoshligidanoq soz chalib, qo'shiq aytib har bir o'spirin go'zallikni teran his etadi, qalbidagi eng nozik tuyg'ularni e'zozlashga harakat qiladi.

Marosim qo'shiqlari musiqa folklorining murakkab va muhim masalalaridandir. San'atning ba'zi bir tomonlari, xalq ma'naviy madaniyati, she'riyati, maishati marosim qo'shiqlarida o'ziga xos ravishda namoyon bo'lgan va u bilan birlashib ketgan. Marosim qo'shiqlari o'zbek xalqi hayotini, tarixi, etnografiyasi, diniy e'tiqodi bilan bog'liqligi, ularda so'z va kuy mutanosibligi muhim o'rin o'ynaydi va ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqi juda boy, xilma-xil an'analarga ega. Bularni ijtimoiy munosabatlar turlariga qarab shartli ravishda tabiat, geografik muhit, mehnat turlari, milliy turmush va madaniyatga doir an'analarga bo'lish mumkin. O'zbek xalqining o'ziga xos iqlimi, aholining mashg'uloti, xo'jalik faoliyatidagi an'analar avloddan-avlodga o'tib kelgan. Maishiy turmushda musiqa va she'riyatning o'zni, so'z, raqs va tomosha san'atlarining sehrli kuchidan foydalanishda o'ziga xos an'analar yuzaga kelgan. Marosimda urf-odatlar qo'shiqlar bilan bir butunlikda olinadi. Zero, marosimning tarixiy taqomilini ko'rish uchun qo'shiqlarning badiiy obrazi muhim o'rin tutadi. Qo'shiqlar mehnatkash xalqni moddiy va ma'naviy hayotining hamma tomonlari bilan mahkam bog'langan bo'lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyotda insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o'ziga

xos obrazlarida badiiy aks ettiradi. Qo'shiqlar o'zlarida eng qadimiy tushunchalardan tortib turli davrlarning har xil qatlamlarini ham saqlaganlar. Navro'zning kelishi, birinchi gul-boychechakning ochilishi; yomg'ir, shamol va qorlarni chaqirish, shamolni to'xtatish, bahor faslida qo'sh chiqarib yerni haydash, lola sayli, xirmon quvonchi, farzand tug'ilishi, yoshlarni nikohlash, marhumni dafn etish, kasalni davolash singari voqealarga maxsus marosim qo'shiqlar, cholg'u kuylar va duolar bag'ishlangan. Marosimlarda xatti-harakat va so'z vositalari qatorida musiqa muhim o'rin tutadi. Biz birorta marosimni qo'shiq yoki aytim-yo'qlovlar tasavvur eta olmaymiz. Marosimlarga ko'ra qo'shiqlar ham mavsumiy, oilaviy-maishiy va diniy-ibodat turlariga bo'linadi. O'zbek xalqi boy tasviriy vositalarda ifodalangan, serqirra mavzusi hamda janrlarning turli-tumanligi bilan xarakterlanuvchi qadimiy marosim qo'shiqlari va ularning ijrochilik usullariga ega. Turli marosimlarda ko'pchilik guruh yoki yakka ijro holi, ya'ni ma'lum cholg'u jo'rliги yoki jo'rsizda turli kuy-ohanglarda ushbu qo'shiqlar talqin, ya'ni kattalar yoki bolalar tomonidan qilinmoqda. O'zbekistonning hamma mintaqa va hududlarida marosim qo'shiqlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos musiqiy tili va shevasi, shakl va mahalliy ijro uslublari bilan ajralib turadi.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari orasida Navro'z bilan bog'liq "Muborakbod", "Yil boshi", "Boychechak", "Salom, Navro'z", "Bahor keldi", "Sumalak"; fasllar bilan bog'liq chaqiriqlar "Sust xotin", "Choy momo", "Qor keldi"; sharq taqvimini bilan "Ramazon" yoki "Yo rabbim" kabi aytim-terma va qo'shiqlar keng tarqalgan. Mavsumiy-mehnat marosimlarida "Ko'sh haydash", "Shoxmoyilar", "Mayda", "Oblo baraka"lari erkaklar tomonidan erkin uslubda, baland va ochiq ovozdagi aytilgan qo'shiqlar mavjud. Oilaviy-maishiy marosim qo'shiqlari to'y, aza-motam va davolash marosim va urf-odatlar bilan bog'liq. Bular "Ona allasi"; to'y marosim qo'shiqlari janrlari "Muborak", ya'ni "To'y muborak", "Al-muborak", "To'y boshlovi" kbilar, "Qutlov" haqida ya'ni "Xush keldingiz", "Kelin va quyov qutlovi" kabilar, "Yor-yor" haqida "Yor-yor yoki O'lan", "Kelin salom" haqida "Kelin salom", "Chor salom", "Xazor ali" kabilar, "Aytishuvlar" haqida "Muborak, Baytxonlik, Lapar" kabilar, "Hayrlashuv" haqida "To'y javobi, Xorazm vohasida tarqalgan" kabi qo'shiq janrlari mavjud. Aza-motam marosimlarining asosiy aytim shakli "yig'i" va "yo'qlov"dir; "marsiya" qo'shig'i dafn marosimda cholg'u jo'rligisiz erkaklar tomonidan kuylangan. Davolash marosimda ayollar tomonidan yakka va jo'rsiz "badiq" aytimi o'tmishda keng o'rin olgan.

Ma'lumki, o'zbeklarning axloqi, odati islom dini qoidalari bilan bog'lanib ketgan. Islom dinining tazyiqi qanchali kuchli bo'lmasin, xalqdagi juda qadimiy ishonch-e'tiqod, urf-odatlar marosim aytim-qo'shiqlar va ashulalar bilan bog'liq bo'lgan va ular yetuk hofiz-xonandalar tomonidan ijro etilgan. Ular bevosita mumtoz musiqasi namunalarini bo'lib, professionallik darajasi bilan belgalanadi. Bular o'zgacha diniy-ibodat marosim aytim-ashulalarni tashkil etadi, jumladan, "azon", "Kur'on aytimi", "mavlud", "zikir ayimlari", shomonlik "ko'ch ayimlari", diniy mavzudagi ashula yo'llari "munojot", "na't", "kalandariy va xonakoij"lardir.

Mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlarining turlari ko'p bo'lib, ular inson umri va uning mehnat faoliyati davomida uzoq o'tmish davrlarda shakllangan bo'lib, o'zida xalqning dunyoqarashi, hayot voqeliklari, orzu-istaklari, ma'naviy, madaniy va moddiy dunyosi o'z aksini topgan. Shuni ham aytish kerakki, ma'lum marosimlar va ularda ijro etiladigan qo'shiqlar masalan "Sust xotin", "Choy momo", "Qo'sh haydash", "Qor chaqirish" endilikda o'z mavqeini yo'qotgan bo'lsa-da, ammo ijtimoiy-badiiy tafakkurning rivojlanishi jarayonida ma'lum ahamiyat kasb etib kelmoqda. Modomiki, ushbu marosimlarda qo'llangan musiqiy janrlar haligacha xalqimiz hayotida saqlanib, o'z holidagi yoki qayta tiklangan, sahnaviy folklor-etnografik ansambllari talqinida ijro etilmoqda. Ushbu qo'shiqlarga xos bo'lgan ijrochilik uslublari va usullari ham ayrim o'zgarishlarga duch kelmoqda, masalan, yakkaxon aytim yo'li o'rnida aytishuv yoki guruh bo'lib aytish shakllari keng qo'llanilmoqda; jo'rsizlik ijro etilgan qo'shiq va aytim yo'llari endilikda doira, dutor, chang-qo'biz yoki an'anaviy cholg'ular ansambli jo'rliгida tinglovchilarga taqdim etilmoqda.

Marosimlar va marosim qo'shiqlari muhofaza qilish, saqlash va keng omma orasida targ'ibot etish O'zbekistonda ekspeditsiya jarayonlarida ohangrabo tasmalariga yozib olish va notaga tushirish ya'ni kitoblar va to'plamlar nashri, radio va televidenie orqali eshittirishlar tayyorlash, autentik folklor jumladan, alla va to'y marosim qo'shiqlari bo'yicha tanlovlar, anjumanlar, festivallar o'tkazilmoqda va ular ilmiy-tadqiqot ishlarida juda qo'l kelmoqda. Darvoqe, o'tmishdagi an'ana hamda urf-odatlarini aniqlash bevosita marosim qo'shiqlari, kengroq, marosim musiqasi janrlarini jiddiy tadqiq etish orqali amalga oshmoqda. Xalqimizning dunyoqarashi, ijtimoiy-siyosiy, maishiy-estetik va falsafiy qarashlarini o'ziga xos tarzda badiiy talqin qiluvchi marosim qo'shiqlari o'nlab janrlari o'z ichiga olgan g'oyat nodir manba hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi. 2018- yil 1-noyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buyuk ipak yo'li" Xalqaro folklor musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida" Qarori. Xalq so'zi. 2018- yil 18- may.
3. H.Razzoqov. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor. Toshkent. 1965-yil.
4. K.Imomov. T.Mirzayev. B.Sarimsoqov. O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. 1990 yil.
5. B.Sarimsoqov B. O'zbek folklori ocherklari. 2-tom. Toshkent. 1989 yil.

FOLKLOR RAQS SAN'ATIDA O'ZBEK ERKAKLAR RAQSINING TUTGAN O'RNI

Soliev Abdusalom Raximovich

Farg'ona davlat univesiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi,

Usmonova Dilafuz

Pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola folklor raqs san'atida o'zbek erkaklar raqsining tutgan o'rni, erkaklar raqsi asosan xalq raqs madaniyatida o'z aksini topgani, bugungi kunga qadar ularning aksariyati qadimdan an'ana bo'lib kelayotgan ustoz-shogirdlik asosida o'rganiladi hamda eng muhimi harakatlarda ham asliy qiyofasini saqlab qolganligi haqida fikr yuritilgan.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение мужских танцев в узбекском фольклорном хореографическом искусстве. Подчеркивается, что мужские танцы преимущественно отражены в народной танцевальной культуре, и до настоящего времени большинство из них передаются по системе «учитель–ученик», являющейся традиционной формой обучения. Особое внимание уделяется сохранению подлинного характера движений в этих танцах.

Abstract. This article explores the role of men's dance in Uzbek folklore dance art. It emphasizes that male dances are primarily reflected in folk dance traditions, and to this day, most are transmitted through the traditional "master-apprentice" method. The study highlights that, most importantly, these dances have retained their original character and authenticity in movement.

Kalit so'zlar. Bugun, badiiy, jarayon, sahnaviy, raqslarda, o'zbek, erkaklar, raqslar, boyishi, laganda, raqqos, mahorat, dona, guruch, tushirmagan, holda, abjir, tannovul.

Ключевые слова: современность, художественный процесс, сценическое искусство, танцы, узбекские мужские танцы, обогащение, техника исполнения, мастерство, грация, ловкость, ритуальные элементы, пластика.

Keywords: contemporary, artistic process, stage performance, dance, Uzbek men's dances, enrichment, technique, artistry, precision, agility, ritual elements, plasticity.

O'zbek erkaklar raqsining badiiy xususiyatlari bevosita folklor raqs san'ati bilan chambarchas bog'langan. Erkaklar raqsi asosan xalq raqs madaniyatida o'z aksini topgan. Bugungi kunga qadar ularning aksariyati qadimdan an'ana bo'lib kelayotgan ustoz-shogirdlik asosida o'rganiladi hamda eng muhimi harakatlarda ham asliy qiyofasini saqlab qolgan. Bugungi badiiy jarayonlarda sahnaviy raqslarda ko'zga tashlanayotgan ayrim o'zgarishlar o'zbek erkaklar raqslarinig boyishiga sabab bo'lmoqda. O'zbek erkaklar raqsi xazinasidan o'rin olgan "Pichoq", "Yog'och oyoq", "Osh", "Kichkinavoy" raqslari, Surxondaryo folklorining "Boysun", "Chillik", "Qayroq", "Choynak", "Ota gov-gov" raqslari, Qashqadaryo vohasining "Pichoq", "Qoshiq" raqslari, Samarqand viloyatining "Besh qarsak" raqslari, Xorazmning "Qayroq", "Qum pishak", "Norin-norin", "Qovun", "Chugurma", "Gina qilma", "Etik", "Sartarosh" kabi ko'plab asarlar joy olgan. Mazkur raqsning har biri o'z xarakteri, uslubiy jihati, kompozitsion xususiyatlari bilan ajralib turgan. O'zbek folklor raqsalaridan yana biri "Yog'och oyoq" raqsi bo'lib bu raqs asosan o'zbek xalqining sunnat va aqiqa to'ylarida karnay-surnay ostida faqatgina erkaklar oyoqlariga uzun yog'ochni kiyib, bog'lab ijro etishgan. Shu tariqa to'y bo'layotgan xonadonning ko'chasini boshidan karnay-surnaylar ostida "Yog'och oyoq" raqslari bilan to'y jarayonini butun mahallaga bildirib kirib keladi. Bu "Yog'och oyoq" hozirda ham yurtimizda nishonlanadigan bayram va marosimlarda ham ijro etib kelinmoqda. "Osh" raqsi ham o'zbek milliy erkaklar raqsalaridan sanalib, bunda raqsda laganda suzilgan osh bilan raqqos o'zining mahoratini ishga solib, lagandagi bir dona ham guruchni yerga tushirmagan holda, o'ta abjirlik bilan hamda oshni tannovul qilib mazasini yuzidagi mimikasi orqali tomoshabinga ko'rsatibgina qolmay, balki og'irligi 5 kilogram bo'lgan laganni egilgan holda boshidan beligacha tushirib va uni qaytadan beldan boshiga to'xtovsiz aylanish orqali laganni beldan boshga chiqaradi. Shu bois raqsda ko'p harakatlar asosan aylanish va egilishdan iboratdir. Bu raqsda nafaqat "Lagan" bilan balki laganni o'ynatib ijro etishdan tashqari raqqos qayroq tosh bilan raqsni ijro etadi. Shu sababdan bu raqs eng mashaqqatli hisoblanib, yuqori jismoniy harakatni va sog'lomlikni talab etadi. Hozirgi kunda ham bu "Osh" raqsi ommaviylashgan deyishimiz mumkin. Asosan bu raqsqa xorij mamlakatlarida qiziqish kattadir. Ular bu raqsqa o'zgacha ishtiyoq bilan qaraydilar. O'zbek milliy raqsalaridan yana biri vodiy xududiga tegishli bo'lgan "Kichkinavoy" raqsi hisoblanadi. Unda raqqos yigitlar ikki guruh bo'lib, har bir guruh 6 yoki 8 nafar yigitlardan iborat bo'ladi katta doira shaklida turib, har bir guruhdan bittadan eng uddaburon yigitni davraga chiqaradilar. Ular xo'rozlarga mos harakatlari ostida, ya'ni cho'qib, bir oyoqda saqragan holda yelkasi bilan yelkasiga turtib o'zining raqibini doiradan tashqariga chiqarib tashlashi kerak bo'ladi. Chunki har bir xo'roz bo'lgan yigit g'oliblikka davogar bo'ladi. Har ikkala guruh yigitlari o'zining xo'rozini "kichkinavoy-kichkina, tariqdan ham kichkina, kichkinavoy-kichkina, tarvuzdan ham kichkina" deb qarsaklar ostida jamoasini qo'llab-quvvatlab turadilar. Raqsda kim g'olib bo'lishidan qat'iy nazar, guruh yigitlari bir-birlariga do'stona munosabatda qolishib, oxir oqibat ularning musobaqasi raqsqa ulanib ketadi.

Surxondaryo folklor raqsalaridan hisoblangan "Boysun" raqsi alohida xususiyatga ega, chunki bu raqs ushbu vohaning milliy raqsalaridandir. "Boysun" raqsini erkaklar, ayollar, yosh bolalar ham baravar ijro etadilar. Bu raqs orqali raqqos va raqqosalar o'zlarining millatiga mansub bo'lgan urf-odatlarini, udumlari, o'yinlarini tarannum etib raqs orqali o'z hududiga xos bo'lgan milliy xususiyatlarini ochib beradilar. Ushbu vohaga tegishli raqsalaridan yana biri "Chillik" raqsi bo'lib, bunda erkak raqqoslarining har bir qo'lida bittadan kaltak bilan o'ynaydi. Raqqos chap qo'lidagi kaltakni osmonga otib, qaytib tushayotganida o'ng qo'lidagi kaltak bilan

uzoqqa bor kuchi bilan uradi. Kimning kaltagi uzoqqa o'zib ketsa, shu kaltak egasi g'olib hisoblanadi. Shu asosda "Chillik" raqsi ijro etiladi.

Surxondaryoning "Choynak" raqsi Qashqadaryo viloyatida ham bir xil ijro etiladi. Bunda ham choynaklarning qopqoqlarini qo'llarining barmoqlariga kiyib, choynakka urib, ohangning ritmiga mos xolda ijro etadilar.

"Ota gov-gov" raqsi esa ushbu vohaning qiziqarli raqslaridan hisoblanib, bu raqsning tarixi qadimda o'ynalgan maishiy o'yinlarga borib taqaladi. U o'yinda 6 tadan 8 tagacha bo'lgan yigitlar koptok bilan o'ynalgan. Koptoklar qo'y junidan o'rab yasalgan. Bu o'yinda bir raqqos "gov-gov" ya'ni koptokni yog'ochdan yasalgan tog'oraga tushirmasliklarini qo'riqlab turgan. Qaysiki guruh yigitlari shu koptokni tog'oraga tushursa, shu guruh g'olib hisoblangan. Shu tariqa ushbu o'yin orqali "Ota gov-gov" raqsi vujudga kelgan. "Ota gov-gov" raqsi asrlar davomida ijro etib kelingan. Yuqorida aytib o'tilgan raqslarning barchasi maishiy raqs turlari hisoblanadi. Raqslarning mazmunidan kelib chiqib, raqsga mos keladigan predmetlar bilan ijro etilishi bu raqsni tomoshabinga yorqin tarzda ko'rsatib beradi va bu raqslar asosan xazil raqslardir. Yurtimizning yuqorida aytib o'tilgan viloyatlarida ijro etiladigan bu kabi raqsleri tomoshabinga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki o'zbek milliy erkaklar raqslarini folklor raqslari an'anasi sifatida avloddan-avlodga yetkazish joizdir va bu masalada katta tajribaga ega bo'lgan baletmeysterlardan folklor an'anaviy raqslarni sahnaga olib chiqish va yosh raqqos hamda raqqosalar uchun sahnalashtirish talab etiladi. Shundagina bu folklor an'anaviy raqslari abadiyatga yuz tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Xalqaro hunarmandchilik festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Qarori. Xalq so'zi. 2018- yil 1-noyabr
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Buyuk ipak yo'li" Xalqaro folklor musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida" Qarori. Xalq so'zi. 2018- yil 18- may.
3. H.Razzoqov. O'zbek xalq og'zaki ijodida satira va yumor. Toshkent. 1965-yil.
4. K.Imomov. T.Mirzayev. B.Sarimsoqov. O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent. 1990 yil.
5. B.Sarimsoqov B. O'zbek folklori ocherklari. 2-tom. Toshkent. 1989 yil.

MUSIQA MADANIYATINI IJROCHILIGIDA XALQ QO'SHIQLARINI QAYTA ISHLASHNING O'ZIGA XOS TAMOYILLARI

Ibrohimova Xilola To'xtasinjon qizi
Farg'ona davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada musiqa madaniyati ijrochiligida xalq qo'shiqlarini qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek kompozitorlari tomonidan ularni xor uchun moslashtirib, zamonaviy sayqal berishlari sababli ularning jozibalar haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются особенности обработки народных песен в исполнительской практике музыкальной культуры. Анализируются подходы узбекских композиторов к адаптации народных мелодий для хорового исполнения и их художественная интерпретация в современном звучании. Отмечается выразительность и обаяние таких обработок, а также их значение в развитии музыкального вкуса.

Abstract: This article explores the specific features of reworking folk songs within the performance practice of musical culture. It analyzes how Uzbek composers adapt folk melodies

for choral performance and refine them with a modern artistic touch. The expressiveness and appeal of such adaptations are discussed, as well as their significance in the development of musical taste.

Kalit so'zlar: acapella, lad, monodiya, garmoniya, faktura, polifoniya, kanon, antifon, imitatsiya, melizm, mordent, forshlag, dirijyor, xormeyster.

Ключевые слова: акапелла, лад, монодия, гармония, фактура, полифония, канон, антифон, имитация, мелизм, мордент, форшлаг, дирижёр, хормейстер.

Keywords: a cappella, mode, monody, harmony, texture, polyphony, canon, antiphon, imitation, melisma, mordent, appoggiatura, conductor, choirmaster.

Musiqqa - ulkan ta'sirchan kuchga ega bo'lgan tarbiya vositasi, inson ruhiyatiga hayotbaxsh kuch beraoladigan jon ozug'idir. Quddratli kuchga ega bo'lgan musiqqa o'z jozibasini bilan inson qalbinini qamrab oladi. Musiqqani qalbi go'zallikka ishtiyoqmand kishilargina sevadi, anglaydi. Musiqqa tinglash va uni idrok etish bolalikdan tarbiyalanadi va singdirib boriladi, tarbiyalanadi. Insonning go'zallik tuyg'usini taraqqiy ettirmay turib, ma'naviy barkamollik haqida gapirib bo'lmaydi. Musiqqa ana shu nozik tuyg'ularni shakllantirish va tarbiyalashning quddratli vositalaridan biridir. Musiqqa badiiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega san'at turidir. Xalq musiqqasi minglab yillar davomida shakllanib sayqal topib, badiylashib yuksak pog'onalariga ko'tarilgan va har bir xalqning madaniy-ma'naviy boyligiga aylangan. O'zbek xalq musiqqasi xalqning turmush tarzi, axloq-odobi, diniy e'tiqodining ayrim jihatlari o'zida mujassamlashtirib, orzu-umidlari, mehnatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni, sevgiga vafodorlikni tarannum etadi. Xalq bayramlari, sayillari, katta yig'inlari, to'y-tomoshalarini musiqqasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ularda yangragan har bir kuy-qo'shiq, raqs ishtirokchilarining ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Marosim, bayram va sayillarda ijro etilgan, xalq tomonidan yaratilgan qo'shiqlar tabiat manzaralariga, ijtimoiy voqeelikka bo'lgan munosabatlari natijasida vujudga kelgan. O'zbek xalq musiqqasi tabiat, jamiyat hodisalari va inson hulq-atvoridagi go'zallikni idrok etishga, ulardan zavqlanishga xizmat qiladi. Barcha xalq qo'shiqlari muayyan sharoitda yuzaga kelib hayotni o'zida aks ettiradi. Xalq musiqqasi kishilar ongiga san'at asarlarining eng ta'sirchan vositasi sifatida tevarak-atrofdan ro'y berayotgan voqea va hodisalarni singdirishga yordam beradi. Xalq qo'shiqlari va musiqqasi ijodkorlarni har doim o'ziga jalb qilib kelgan. Har bir xalq folklorini qayta ishlash bastakordan asarlarni puxtalik bilan o'rganib chiqishni talab etadi. Ayniqsa, bu jarayon tabiatan bir ovozli bo'lgan xalq qo'shiqlari bilan ishlashda o'ta noziklik ila namoyon bo'ladi. Ko'povozli milliy musiqqaning shakllanishi va rivojlanishida xalq qo'shiqlarining o'rni beqiyosdir. O'zbek musiqqa san'atida kompozitorlik yo'nalishi bilan o'chmas iz qoldirgan, atoqli o'zbek kompozitori Mutavakkil Burhonov o'zbek va qardosh xalqlar qo'shiqlarini qayta sayqal berib, jamoaviy ijro uchun moslashtirgan birinchi kompozitorlardan. Uning badiiy yetuk darajada qayta ishlangan o'zbek xalq qo'shiqlari: "Yorlarim", "Tanovar", "Go'zal qizga", "Ganji Qorabog'", qoraqolpoq xalq qo'shig'i "Bibigul", uyg'ur xalq qo'shig'i "Sayra", tojik xalq qo'shiqlari "Zarra gul" va "Sari ko'hi baland" kabi jo'rsiz asarlari hali-hamon kompozitorlar va xor san'ati ijodkorlariga namuna sifatida xizmat qilib ijro etib kelinmoqda. Ushbu asarlar o'zbek xor musiqqasining namunali, o'ziga xos yo'l boshchisiga aylangan. Uning iste'dodli izdoshlari Sobir Boboev, Botir Umidjonov va bir qator xormeysterlar Sh.Yormatov, J.Shukurov, Ye.Nechaev, N.Sharafievalar xalq qo'shiqlarini xor uchun moslashtirishib o'zbek musiqqasi xor ijrochilik janrini boyitdilar. Qayta ishlash - ijodiyotning qiziqarli va mustaqil sohasi bo'lib, har bir xalq qo'shiq madaniyatining betakror, o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib berish, uning musiqiy tafakkurini ochib berish imkoniyatiga ega. Qayta ishlashning asosiy vazifasi turli ifodaviy vositalar orqali qo'shiq mazmunining o'ziga xos mazmunliliigi, uning milliy "rang-bo'yoqlari"ni ochib berishdan iboratdir. S.Boboevning xor ijrochiligi uchun qayta ishlagan "Chaman ichra", "Yali-yali", "Galdir", "Tanovar", "Endi sendek" xalq qo'shiqlari hozirgi kunda ham o'quv va professional xorlar dasturida yangrab kelmoqda. Bu borada, ayniqsa, ustoz dirijyor, ijodkor xormeyster, o'zbek xor san'ati bilimdoni, kompozitor Botir Umidjonovning

yuzlab xalq qo'shiqlarini qayta ishlab, yangi, yaxlit asarlarni yaratib xor san'atini xalqimizga manzur etishda xizmatlari juda kattadir. U "Ilillayor", "Qorasoch", "Chamandagul", "Qilpillama", "Lapar", "Galbari" o'zbek xalq qo'shiqlari, hamda turli O'rta Osiyo xalq qo'shiqlaridan tojikcha "Diliman", qozoqcha "Yapuray", uyg'urcha "O'ynamdu yaxshi", "Dolan mekti", "Almixan", "Qomuzchu", "Chaloyna" kabi nafaqat miniatyuralarini yaratdi, shuningdek, mumtoz an'anaviy kasbiy musiqa bo'lmish maqom namunalari ko'povozli xorga moslashtirishda ham B.Umidjonovning hissasi katta. Uning tomonidan qayta ishlangan Xurshid g'azali bilan "Segoh", Furqat g'azali bilan "Chorgoh", Hofiz g'azali bilan "Sarahbori Navo"lar xor ijrosida yangicha bo'yoq va jarang bilan yangradi. Ustoz dirijyor jo'rsiz xor uchun pomir xalq qo'shiqlari asosida "Dilbarume", tatar xalq qo'shiqlari asosida "Yashlar uloni" va "Baxt nuri" syuitalarini ham yaratdi. B.Umidjonov xormeysterlik faoliyati jarayonida xor ijrochiligining akademik yo'lini - milliy xonandalik an'analari bilan muvofiqlashtirdi. O'zbek milliy xor ijrochiligiga o'ziga xos uslub va bezak topishda O'zbekiston xalq artisti, xor dirijyori, bastakor Botir Umidjonovning mehnatlari va kasbiy mahorati beqiyos bo'lgan. Bu jamoa o'zining milliy ijro uslubi bo'yicha boshqa xor jamoalaridan ajralib turadi. Xor uchun moslashtirilgan ustozlarning barcha asarlarini asosan "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan" xor jamoasi tomonidan kuylab, O'zbekiston radio va televideniya sinovining oltin fondi saqlanib kelinmoqda. Turli xor jamoalari bilan muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatgan ustoz professor Ye.Nechaevning o'zbek xalq qo'shiqlari: "Zar do'ppi", "Namanganning olmasi", "Ho laylo", "Qiyiq", uyg'ur xalq qo'shiqlari "Nazugum", "Dutarimning tarliri", "Chiraylig'im", "Seriq sebde", turkman xalq qo'shig'i "Bibijan", tojik xalq qo'shiqlari "Chashmoni siyoh tu", "Mavji jonon mezanad", qozoq xalq qo'shiqlaridan "Aytim salemqalam qas", qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan "Kizlar seyili", bugungi kunda ham hali faoliyat ko'rsatib kelayotgan professor N.Sharafievaning "O'zbekiston taronalari", "Ey, nozanin", "Xorazm navolari", "Sayri bog'", "Hazil", "Ey mexribonim", "Tasadduq", "Mustahzod", "Navro'z salomi", "Deydi-yo", tatar xalq qo'shiqlaridan "Tan atganda", qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan "Sonday kuldim" kabi bir qator asarlarini ham keltirish mumkin. Ustozlar qo'shiq janri, kuy mazmuni, mazmuni, ohangining tarkibini xususiyatlariga qarab, xor yozuvining turli-tuman uslublarini qo'llaganlar. Bir ovozli qo'shiqlarni yevropacha turdagi ko'povozli keng ko'lamlil tarannumi tarkibiga kirishiga va uni ovoz osti polifonik va fakturali jihatini shakllantirishga muvaffaq bo'ldilar.

Xalq qo'shiqlarini, ya'ni monodik qo'shiqlarni xor ijrochiligi uchun qayta ishlash jarayonidagi ko'povozlilikning dinamik sur'atining o'sish tamoyillarini kuzatar ekanmiz, xor ko'povozlilik uslubida nisbatan oddiy shakl bo'lgan kvarta-kvinta intervali, paralel ovozlar harakatini ko'rishimiz mumkin. Bu harakatlar, ayniqsa, xorning bir qismi cholg'u jo'rligini, garmonik fonni o'z zimmasiga olgan hollarda qo'llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг "Ўзбек миллий мақом санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Қарори. Халқ сўзи. 2017 йил 17 ноябрь.
2. Ю.Ражабий. Муסיқа меросимизга бир назар. Тошкент. 1978 йил.
3. Соломонова Т.Е. Ўзбек муסיқа тарихи. Тошкент. 1981 йил.
4. Караматов Ф.И. Ўзбек халқ муסיқа мероси. Тошкент. 1985 йил.
5. Жабборов. Ўзбекистон композиторлар, бастакорлари ва муסיқашунослари. Тошкент. 2018 йил.
6. У.Раҳмонов, Д.Сулейманова. Муסיқа тўғарақларини ташкил этиш. Фарғона. 2022 йил.

“CHOLG‘U SAN‘ATI — MILLIY O‘ZLIK VA MA‘NAVIY UYG‘ONISHNING MEZONI SIFATIDA”

X.A.Abdullayeva

FarDU Musiqiy ta'lim va madaniyat kafedrası 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada cholg‘u san‘atining milliy o‘zlikni shakllantirish va jamiyatning ma‘naviy uyg‘onishidagi o‘rni tahlil etiladi. Cholg‘u san‘ati tarixiy jarayonlar davomida xalq ruhiyatini ifodalagan, milliy qadriyatlar va estetik tafakkurning rivojlanishida muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Maqolada cholg‘u asboblari orqali ifodalangan musiqiy merosning yosh avlodni ma‘naviy tarbiyalashdagi ahamiyati ham yoritiladi. Tadqiqot natijalari asosida cholg‘u san‘ati milliy o‘zlikni anglash va jamiyatda ma‘naviy uyg‘onish jarayonlarini kuchaytirishga xizmat qilishi asoslab beriladi.

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается роль исполнительства на народных музыкальных инструментах в формировании национальной идентичности и духовного возрождения общества. Отмечено, что на протяжении истории искусство игры на инструментах служило выражением народного духа, важным средством развития национальных ценностей и эстетического мышления. Также в работе освещается значение музыкального наследия в процессе духовного воспитания молодого поколения. По результатам исследования обосновано, что исполнительство на народных инструментах способствует осознанию национальной самобытности и усилению процессов духовного обновления в обществе.

ANNOTATION: This article examines the role of instrumental music performance in shaping national identity and promoting the spiritual revival of society. Throughout history, instrumental art has reflected the spirit of the people and served as an important means of developing national values and aesthetic thinking. The article also highlights the significance of musical heritage in the spiritual upbringing of the younger generation. Based on the findings, it is argued that instrumental music plays a key role in fostering national self-awareness and enhancing processes of spiritual renewal within society.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida milliy madaniyat va ma‘naviyatning asosi bo‘lgan qadriyatlarni asrash va rivojlantirish dolzarb masalaga aylangan. Xalqning o‘ziga xoslik belgilarini, tarixiy xotirasini, ruhiy va estetik dunyoqarashini saqlashda musiqiy san‘at, ayniqsa, cholg‘u ijrochiligi muhim o‘rin tutadi. Cholg‘u asboblari orqali ifodalangan milliy musiqiy meros yoshlar ongida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyatga ega. Shu sababli cholg‘u san‘atining chuqur tarixiy ildizlari va uning jamiyatning ma‘naviy rivojlanishidagi tutgan o‘rni zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.⁴⁹ Mazkur maqolada cholg‘u san‘atining milliy o‘zlikni shakllantirishdagi roli, uning ma‘naviy yuksalish jarayonidagi o‘rni tizimli tahlil qilinadi. Shuningdek, cholg‘u asboblari va ular orqali ifodalangan musiqiy asarlarning yosh avlod tarbiyasiga, jamiyatning ma‘naviy qiyofasini shakllantirishga ta’siri nazariy va amaliy jihatdan o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Xalq cholg‘ularini yig‘ish va o‘rganish bo‘yicha olib borilgan ishlarda mashhur kompozitor, etnograf va pedagog V.A.Uspenskiy chuqur iz qoldirgan. Uning faol ishtiroki va harakati natijasida 1919 yili Toshkentda musiqiy-etnografik bo‘lim ochiladi va u bu bo‘limga

⁴⁹ Karimov, I.A. "Yuksak ma‘naviyat — yengilmas kuch." — Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. — 184 b.

rahbarlik qiladi. Bu bo'lim olib borgan ishlardan biri xalq cholg'ulari kolleksiyasini yig'ish va ularning ijrochilik imkoniyatlarini o'rganish bo'ldi. O'zbek musiqasini o'rganish tarixida keng ko'lamdagi olim, iste'dodli folklorchi, pedagog V.M.Belyayevning xizmatlari ham kattadir. V.A.Uspenskiyning Turkmanistonda (1925-1926) o'tkazilgan ekspeditsiyasi materiallari V.M.Belyayevning Sharq musiqa madaniyatini o'rganishi uchun katta turtki bo'ldi. Musiqa nazariyasini o'rganishda V.M.Belyayev Sharq olimlarining musiqa haqidagi risolalarining ahamiyatini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning o'zbek xalq cholg'ulari rivoji tarixi bo'limida olib borgan izlanishlari, ularni sinflashtirish va o'lehash ishlari katta qiziqish uyg'otadi. 38 1933 yili Moskvada V.M.Belyayevning "O'zbekiston musiqiy cholg'ulari" nomli kitobi nashr qilinadi. Unda 50 dan ortiq cholg'ularning tavsiflari berilgan. Kitobda birinchi marta o'zbek xalq cholg'ulari ilmiy darajada sinflashtirilgan. Xulosa qilib muallif quyidagicha fikrlaydi: o'zbek xalq cholg'ularining musiqiy madaniyatni rivojlantirishda keng qo'llash uchun ularni qayta ta'mirlash, nota yozuvini kiritish kerak. An'anaviy musiqa cholg'ularini o'rganish va ularda ijro etishni o'rgatish masalalari bo'yicha izlanishlarni F.M.Karomatov, cholg'ularni qayta ta'mirlash va modernizatsiya qilish borasidagi izlanishlarni esa A.I.Petrosyans olib bordilar. A.I.Petrosyans «Cholg'ushunoslik» kitobida xalq cholg'ularining asosiy guruhlarini, sinflashtirishni ilmiy asoslab bergan. Bu guruhlar oilalarini yaratib, ularning tuzilishini, texnik va badiiy imkoniyatlarini tavsiflab berdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Cholgu san'ati o'zbek milliy musiqasining ajralmas qismi sifatida, xalqning madaniy merosi va ma'naviy uyg'onishini aks ettiradi. Musiqa asosan milliy qadriyatlarini, tarixni va urf-odatlarini saqlashga xizmat qiladi. Cholgu musiqasining o'ziga xos xususiyatlari uning xalqchilligi, shakl va tuzilishidagi an'anaviylik, hamda yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatidadir. Cholgu musiqasi qadimdan o'zbek xalqining ijtimoiy va madaniy hayotini aks ettirib kelgan. Ularning har bir kompozitsiyasi xalqning turmush tarzini, orzu-umidlarini va dardlarini ifodalagan. Cholgu musiqasi, ayniqsa, Shashmaqom kabi janrlar orqali xalqning dunyoqarashini va ma'naviyatini saqlagan. Cholgu musiqasi asosan an'anaviy musiqiy asboblardan, masalan, **doira**, rubob, tanbur, sato kabi asboblardan orqali ijro etiladi. Har bir asbob o'zining o'zgacha ma'naviy yuki va tarixiy ahamiyatga ega. Misol uchun, rubob asbobi o'zining o'ziga xos sadosi bilan o'zbek musiqasida ahamiyatli o'rin tutadi, va u ma'naviyatni aks ettirishning eng kuchli vositasiga aylangan. Cholgu san'ati o'zbek xalqining milliy o'zligini saqlash va milliy g'oyalarni targ'ib qilishda asosiy vosita hisoblanadi. Cholgu musiqasi, uning an'anaviy shakllari orqali, millatning ruhiyatini, uning ajdodlaridan meros bo'lib qolgan qadriyatlarini, va hayotning eng ko'zga ko'rinmas jihatlari ifodalashga imkon beradi.⁵⁰Bu musiqaning asosiy vazifasi nafaqat xalqni birlashtirish, balki o'zlikni anglash, millatni o'z tarixiga hurmat va g'urur bilan qarashga undashdir. Shuning uchun, cholgu san'ati, nafaqat san'at asari, balki milliy uyg'onishning vositasi sifatida ham muhim o'rin tutadi. XX asrning boshlarida o'zbek xalqining milliy uyg'onishi, ayniqsa, mustaqillik g'oyalarining tarqalishi jarayonida cholgu san'ati alohida o'rin tutdi. Cholgu musiqasi xalqni birlashtirish, ularning g'oyaviy rivojlanishiga turtki berish va o'zligini tiklashda katta rol o'ynadi. Bu san'at shakli, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda xalqning ma'naviyatini yuqori darajaga ko'tarish va mustaqillik yo'lida kurashda faol ishtirok etishga undagan. Cholgu musiqasi, ayniqsa, o'zbek xalqining tarixini, madaniyatini va dunyoqarashini yangi sharoitlarda saqlashga yordam beradi. Bunday musiqaning ijtimoiy ta'siri yuqori, chunki u xalqning turmush tarzini, orzu va g'oyalarini ifodalaydi. Zamonaviy cholgu san'ati, globalizatsiya jarayonlari ta'sirida, yangi shakllar va uslublar bilan boyidi. Zamonaviy cholgu musiqasi, global musiqa sanoatida o'z o'rnini topishda davom etsa-da, uning an'anaviy shakllari, o'zining badiiy va ma'naviy mazmunini saqlab qolmoqda. Boshqa xalqlarning musiqiy uslublari

⁵⁰ Jo'rayev, A. (2010). O'zbek musiqa san'ati tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.

bilan uyg'unlashgan cholg'u san'ati, uning xalqaro maydonda keng tarqalishiga imkon yaratdi, ammo milliy o'zlikni saqlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ydi.

XULOSA

Cholg'u san'ati — bu o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, milliy o'zligi va ma'naviy dunyosining timsolidir. U asrlar davomida shakllanib, xalqimizning hayoti, urf-odatlarini, quvonchu tashvishlari, orzu-umidlarini musiqiy ohanglarda mujassam etgan. Aynan shu jihatlari bilan cholg'u san'ati nafaqat badiiy ifoda vositasi, balki ma'naviy uyg'unishning kuchli omilidir. Bugungi globallashuv davrida milliy san'atni asrash, rivojlantirish va yosh avlodga yetkazish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Cholg'u musiqasi bu jarayonda yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni ajdodlar merosiga e'tiborli bo'lishga undashda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Shu bois, cholg'u san'atini faqat o'tmish merosi sifatida emas, balki milliy o'zlikni anglash, jamiyatda ma'naviy uyg'unishni rag'batlantiruvchi vosita sifatida qabul qilish lozim.⁵¹ Uning imkoniyatlarini to'liq ochib berish, uni zamonaviy sahnaga olib chiqish, yoshlar qalbida milliy iftixor tuyg'usini uyg'otish bugungi kunning muhim maqsadlaridan biri bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev O'ktam Oripovich "Cholg'u ijrochiligi va ansambli" Respublika oliy o'quv yurtlari bakalavriyatining 5111100 — «Musiqqa ta'limi» yo'nalishidagi talabalari uchun o'quv qo'llanma. 2019, 20 – 30 betlar.
2. Jo'rayev A. O'zbek musiqqa san'ati tarixi. — Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2010.
3. S.B.Saidiy. Cholg'ushunoslik va cholg'ulashtirish asoslari.-Darsligi. "Musiqqa" nashriyoti. Toshkent- 2016, 25 betlar
4. Karimov, I.A. "Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch." — Toshkent: Ma'naviyat, 2008. — 184 b.
5. Usmonov E. "olam nurga to'ladi...". T.: G ' . G 'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1984. 68- bet.
6. Viktor Aleksandrovich Uspenskiy (1879-1948) — O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti, san'atshunoslik fanlari doktori, butun umrini O'rta Osiyo xalqlari musiqiy madaniyatini rivojlantirishga bag'ishlagan ma'rifatparvar olim.
7. Н. Аведова — Искусство оформления узбекских народных музыкальных инструментов. Ташкент. 1956. С, 586.
8. Yo'ldoshev, O. "O'zbek milliy cholg'u san'ati tarixidan." — Toshkent: San'at, 2015

⁵¹ Qodirova, M. (2015). *Cholg'u asboblarining rivojlanish bosqichlari*. Toshkent: San'at nashriyoti.

**5-YO'NALISH. O'ZBEK VA XORIJIY TILLARNI SAMARALI O'QITISH
MUAMMOLARI.**

**TURK TILINI O'RGANISHDA AKRONIMLARDAN FOYDALANISH
METODIKASI**

Doç. Dr. Gül Banu DUMAN

*Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi, ORCID: 0000-0002-6593-3587,
gulbanuduman@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada turk tilini ikkinchi til sifatida o'rganish jarayonida til o'rganuvchilarining so'z boyligini oshirish va yangi leksikani mustahkamlash uchun akronimlardan, ya'ni bir nechta so'zlarning birinchi harflaridan yangi, eslash oson so'z yoki jumla yaratishdan foydalanishning samarali usullari tahlil ostiga olingan bo'lib, akronimlar yordamida o'rganish o'rganuvchilarga murakkab tushunchalar va so'zlarni eslab qolishda yordam beradigan mnemotexnika usul ekanligi va akronim usulidan foydalanishning ta'limiy samaradorligini baholash hamda ushbu metodning turk tilini o'rganayotganlar uchun kerak ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: xotira, metod, metodika, leksema, leksikologiya, akronim, mnemotexnika, vizualizatsiya, turk tilini o'rganish.

KIRISH

Bugungi globallashuv davrida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar mustahkamlanib borayotgan bir vaqtda turk tiliga bo'lgan qiziqish keskin oshmoqda. Shunday sharoitda turk tilini o'rgatishning samarali usullarini joriy etish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ushbu muammoni hisobga olgan holda "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida quyidagilar ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

- "dunyo bo'yicha samarali natija bergan o'qitish metodikalari, dastur va darsliklarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari va o'quv markazlarida joriy etish;

- xorijiy davlatlarda chop etiladigan zamonaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni, xalqaro testlar va ularni joriy qilish uchun tegishli ruxsatnoma va litsenziyalar, xorijiy tillarni o'rgatishga qaratilgan kontentlarni mualliflik huquqlarini xarid qilish;

- xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, dasturiy ta'minot loyihalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish, tilning asosiy ko'nikmalarini shakllantirish uchun videorolik, o'yin, ko'ngilochar ko'rsatuv, filmlar va boshqa o'rgatuvchi kontent yaratish;

- fuqarolik-huquqiy shartnomalar asosida yuqori malakali mutaxassislarni, shu jumladan mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etish;"⁵².

Belgilangan vazifalarning ijrosi yuzasidan mazkur maqola turk tilini o'rganishda akronimlardan foydalanish, ularning lingvodidaktik imkoniyatlarini ochib berish hamda ta'lim jarayoniga integratsiyalash masalalarini qamrab oladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turk tili — dunyodagi eng qadimiy va boy tillardan biridir. Bu til Turkiya, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston kabi ko'plab turkiy xalqlar orasida tarqalgan. Hozirda taxminan 90 milliondan ortiq inson turk tilida so'zlashadi. Turk tili turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, o'zining oson talaffuzi, qat'iy grammatik qoidalari va boy so'z boyligi bilan ajralib turadi. Hozirda turk tili zamonaviy hayotda keng qo'llaniladi — adabiyot,

⁵² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-son

san'at, kino, internet va diplomatiyada muhim o'rin tutadi. "Turk tili – asosan turk tilida gaplashuvchi xalqlar Turkiyada yashaydilar"⁵³.

Turk tilini o'rganish – nafaqat yangi bir tilni egallash, balki boy tarix, madaniyat va adabiyot olamiga sayohat qilish demakdir. Ushbu til o'zining soddaligi, tovushlarning aniq talaffuzi va mantiqiy grammatikasi bilan ko'plab til o'rganuvchilarni o'ziga jalb etadi. Til orqali tafakkur shakllanar ekan "odamlar qanchalik ko'p tillarni o'rgana boshlasa, shunchalik dunyo ahli bir-biri bilan yaxshi kommunikatsiya aloqalarini yo'lga qo'ya oladi va shu yo'l orqali bir-biriga yaqinlashadi"⁵⁴.

O'zbekistonda ham turk tiliga qiziqadiganlar ko'pdir. Turk tili mamlakatda chet tili sifatida keng tarqalmoqda. Biroq, aslida bir o'zbek uchun turk tilini o'rganish, boshqa chet tillarini o'rganishdan farqlidir. Chunki o'zbek tili va turk tili bir xil til oilasiga mansub bo'lib, ular orasidagi leksik va grammatik o'xshashliklar bor.

O'zbek va turk tillarida ham aynan o'xshash kalimalar uchraydi, "sari" (sariq), "kara" (qora), "at" (ot), "eshak" (eshak) "gitmek" (ketmoq), "anne" (ona), "gelmek" (kelmoq), "gulmek" (kulmoq), "oturmak" (o'tirmoq) Türkçe asıllı kelimelerde değil, "kitap" (kitob), "cevap" (javob), "telaffuz" (talaffuz), "dünya" (dunyo) kabi. Shuning uchun o'zbeklar uchun turk tilini o'rganish qulaydir.

Bugungi kunda turk tilini o'rganish internet orqali ham osonlashdi. Online darslar, mobil ilovalar, filmlar va qo'shiqlar orqali bu tilni zavq bilan o'rganish mumkin. Ayniqsa, Turkiya madaniyatiga qiziqadiganlar uchun bu til – kalit vazifasini o'taydi. Turk tilini bilish sizga nafaqat Turkiyada, balki boshqa turkiy davlatlarda ham aloqa qilish, o'qish yoki ishlash imkoniyatini beradi. "Turk tilini chet tili sifatida o'qitishda asosiy so'z boyligini har tomonlama va dolzarb tushunish aniqlay olmaslik o'qituvchilar uchun ham, talabalar uchun ham turli muammolarni keltirib chiqaradi. Boshqa tomondan, og'zaki va yozma til farq qilishi mumkin. Shu jihatdan, so'zning mavjudligi uni aniqlashda faqat yozma manbalardan foydalanish yetarli emas"⁵⁵.

Ushbu holatni hisobga olgan holda biz turk tilini o'rganishda akronimlardan foydalanishni maqsad qilib olganmiz. Akronimlar (qisqartmalar) orqali tilni o'rgatish metodikasi til o'rganishni osonlashtirish, eslab qolishni kuchaytirish va real kontekstda tilga xoslikni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Akronimlar (qisqartmalar) lingvistik va kognitiv jihatdan yengil qabul qilinadigan birliklar bo'lib, eslab qolish, tez anglash va kontekstni tushunishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Turk tilini o'rganuvchilar turk tilida erkin so'zlasha olish darajasiga yetsa ham, turk tilida mavjud maqollarni o'rganishga qiynaladilar. Shuning uchun biz ushbu maqolamizda til o'rganuvchilariga maqol akronimini tavsiya etdik.

Masalan, "**Aziçık aşım, kaygısız başım**" maqoli uchun "**AzAş, KaBaş**" akronimi mos keladi. Bu maqol shuni bildiradiki, inson hayotda ko'p boylik, mol-dunyoga ega bo'lmasligi mumkin, ammo eng muhimi — ruhiy xotirjamlik va yurak tinchligidir. Yani, kamtarona hayot kechirish, ortiqcha hirs qilmaslik, boriga shukr qilish — baxtli yashashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

"**Sakla samanı, gelir zamanı**" maqoli uchun esa, "**Saksam, gelzam**" Bu maqolning ma'nosi — hozir keraksizdek tuyulgan, arziyas narsalar ham vaqt o'tib foydali bo'lishi mumkin, degan fikrni ifodalaydi. Ya'ni, hayotda hech narsani mensimay tashlamaslik, har bir narsaning bir kun kelib ahamiyatli bo'lishi mumkinligini unutmaslik kerak.

Akronimlar maqollarni o'rganish jarayonini osonlashtiradi. Tadqiqotda jarayonida turk tilini o'rganayotganlar ishtirokida akronimlar asosida darslar tashkil qilindi.

⁵³ Otaqo'ziyev, A., & Ashurova, Z. (2024). Turk tilini o'rganishda o'quvchilarga qo'llaniladigan metodlar. *IMRAS*, 7(4), 260-263.

⁵⁴ Raxmatova, D. (2024, February). Til pedagogikasi: o'rganish va muloqotni kuchaytirish. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 146-150).


⁵⁵ Kadirova, Gulbakhor Melsova Turk tilini chet tili sifatida o'rganadiganlar darsliklarda so'z boyligi tahlili // Orienss. 2023. №22. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/turk-tilini-chet-tili-sifatida-o-rganadiganlar-darsliklarda-so-z-boyligi-tahlili> (дата обращения: 16.04.2025).

NATIJA

Tajriba yakunida quyidagi natijalar kuzatildi. Akronimlar asosida dars olgan guruhda soʻz birikmalarini kontekstda tushunishi va yangi soʻzlarni eslab qolish darajasi 22% yuqori boʻldi. Turk tilini oʻrganayotganlar dars jarayonini qiziqarli deb baholadilar.

№	Tajriba guruhi				Nazorat guruhi			
	Tajriba boshi		Tajriba oxiri		Tajriba boshi		Tajriba oxiri	
1	Oʻquvchi soni	54	Oʻquvchi soni	54	Oʻquvchi soni	63	Oʻquvchi soni	63
2	Oʻzlashtirish koʻrsatkichi	67%	Oʻzlashtirish koʻrsatkichi	74%	Oʻzlashtirish koʻrsatkichi	67%	Oʻzlashtirish koʻrsatkichi	89%

Ushbu jadvalni diagrammada ifodalanishi quyidagicha



MUHOKAMA

Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, akronimlar turk tilini oʻrganish jarayonida samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ular nafaqat soʻz boyligini oshiradi, balki tilni real kontekstda oʻzlashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, rasmiy va zamonaviy matnlarda tez-tez uchraydigan qisqartmalar oʻrganuvchilarda tilga xos muloqot madaniyatini shakllantiradi. Xorijiy tillarda akronimlarning rolini oʻrgangan K n l Kerimova⁵⁶ va Berna Aydoĝanlar⁵⁷ ham oʻz tadqiqotlarida akronimlarning til oʻrganishdagi roli haqida batafsil xulosalar berib oʻtganlar.

Turk tilini oʻrganishda akronimlardan foydalanish soʻzlarni yod olishni osonlashtiradi hamda ibora va jummalarni qisqartma shaklida eslab qolish osonroq boʻladi. Til oʻrganuvchilarining vaqtini tejaydi, matn yozishda yoki soʻzlashuvda tez va qisqa ifoda qilish imkonini beradi. Tez tushunishga yordam beradi, doimiy ishlatiladigan iboralarni tez aniqlashga koʻmaklashadi. Akronimlar til oʻrganayotganlarda kuzatuvchanlikni oshiradi, oʻquvchi akronimlarni izlab, ularning maʼnosini tushunishga harakat qiladi, bu esa faollikni oshiradi. Bundan tashqari nutqni soddalashtiradi va rasmiy va noformal suhbatlarda aniq va qisqa fikr bildirishni oʻrganishga yordam beradi.

Akronimlar turk tilini oʻrganishda eslab qolishni osonlashtiradi, kontekstni anglashni kuchaytiradi va oʻrganuvchilarning motivatsiyasini oshiradi. Bu esa ularni lingvodidaktik jihatdan samarali vosita sifatida taqdim etadi. Kelgusida ularni darsliklar va oʻquv dasturlariga kiritish tavsiya etiladi.

XULOSA

⁵⁶ Karimova, K. (2021). The relationship between reading and listening skills with the self-concept in studying of Russian and English in Azerbaijan (Doctoral dissertation, Szegedi Tudományegyetem (Hungary)).

⁵⁷ Aydoĝan, B., & Vardar, G. (2020). Evaluating the role of renewable energy, economic growth and agriculture on CO2 emission in E7 countries. *International Journal of Sustainable Energy*, 39(4), 335-348.

Tadqiqotimiz jarayonida turk tilini o'rganishda akronimlardan foylanish yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi.

Professional tildan foydalanishni o'rgatadi va turk tilida rasmiy va kasbiy sohalarda keng ishlatiladigan qisqartmalarga o'rgatadi. Madaniy kontekstni tushunishga yordam beradi, turk madaniyatida ishlatiladigan maxsus qisqartmalarni o'rganish orqali madaniy bilimlar kengayadi. Kontekst asosida tushunishni mustahkamlaydi, qisqartmalar matnda qanday qo'llanilganiga qarab ularning ma'nosini taxmin qilishni o'rgatadi.

Imlo va yozuv malakalarini kuchaytiradi, akronimlarni to'g'ri yozish orqali grammatikaga e'tibor oshadi. Matn tahlilini chuqurlashtiradi, matndagi qisqartmalarni tahlil qilish orqali mantiqiy fikrlash rivojlanadi. Til strukturasi anglashga yordam beradi, qanday qisqartirishlar qabul qilinganini ko'rish orqali til tuzilmasini tushunadi. O'rganilgan bilimlarni tezda amaliyotda qo'llash imkonini beradi chunki matbuot, televideniye va internetdagi ko'plab materiallarda akronimlar uchraydi.

Ta'lim muassasalari va dastur ishlab chiquvchilariga turk tilini o'rganish dasturlarida akronimlarni kengroq qo'llashni hamda kelajakdagi tadqiqotlar uchun ushbu metodni boshqa tillar va ta'lim sohalarida qo'llash imkoniyatlarini o'rganishni taklif qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Aydoğan, B., & Vardar, G. (2020). Evaluating the role of renewable energy, economic growth and agriculture on CO2 emission in E7 countries. *International Journal of Sustainable Energy*, 39(4), 335-348.

2. Kadirova, Gulbakhor Melsovna Turk tilini chet tili sifatida o'rganadiganlar darsliklarda so'z boyligi tahlili // Orienss. 2023. №22. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/turk-tilini-chet-tili-sifatida-o-rganadiganlar-darsliklarda-so-z-boyligi-tahlili> (дата обращения: 16.04.2025).

3. Karimova, K. (2021). The relationship between reading and listening skills with the self-concept in studying of Russian and English in Azerbaijan (Doctoral dissertation, Szegedi Tudományegyetem (Hungary)).

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 19.01.2022 yildagi 34-son

5. Otaqo'ziyev, A., & Ashurova, Z. (2024). Turk tilini o'rganishda o'quvchilarga qo'llaniladigan metodlar. *IMRAS*, 7(4), 260-263.

6. Raxmatova, D. (2024, February). Til pedagogikasi: o'rganish va muloqotni kuchaytirish. In *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit* (pp. 146-150).

МНЕНИЕ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ ВУЗОВ О ПРИМЕНЕНИИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ЯЗЫКАМ: ПРИМЕР КАЗАХСТАНА

Доц. доктор наук Гуль Бану ДУМАН

Зонгулдак Бюлент Эджевит Университет, ORCID: 0000-0002-6593-3587,

gulbanuduman@gmail.com

PhD. Арай МУКАЖАНОВА

Казахстанско-Американский свободный университет, ORCID: 0000-0002-4633-6736,

mukazhanova.aray@gmail.com

Аннотация. XXI век называют веком технологий. Одним из самых новых и вызывающих интерес технологических достижений нашего столетия стала технология «искусственного интеллекта», представленная на мировом рынке в ноябре 2022 года. Искусственный интеллект применяется во многих сферах — от здравоохранения до образования. Масштабы использования искусственного интеллекта в преподавании языков в вузах Казахстана и подходы преподавателей к этой технологии имеют важное значение для её дальнейшего развития. В данной работе исследуется отношение

преподавателей вузов к технологиям искусственного интеллекта в процессе преподавания иностранных языков.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, преподавание языков, искусственный интеллект в Казахстане, высшие учебные заведения.

ACADEMICIANS' ATTITUDE TOWARDS ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN LANGUAGE TEACHING AT HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: THE CASE OF KAZAKHSTAN

Annotation. The 21st century is often referred to as the age of technology. One of the most recent and intriguing technological advancements of our time is the "artificial intelligence" technology, which entered the global market in November 2022. Artificial intelligence is used in many fields — from healthcare to education. The extent of its use in language teaching at universities in Kazakhstan and the attitudes of instructors towards this technology play a crucial role in its further development. This paper explores academicians' attitudes towards artificial intelligence technologies in the process of teaching foreign languages.

Keywords: Artificial intelligence, language teaching, artificial intelligence in Kazakhstan, higher education institutions.

ВВЕДЕНИЕ

21-й век называют «веком цифровых технологий». Несмотря на то что технологии искусственного интеллекта являются относительно новыми, они уже начинают оказывать значительное влияние на все сферы жизни, включая сферу образования и преподавание языков. В Казахстане также наблюдается тенденция к расширению применения искусственного интеллекта в различных отраслях. Среди этих направлений особое место занимает изучение и преподавание иностранных языков. Целью данного исследования является выявление мнений преподавателей высших учебных заведений Казахстана по поводу использования технологий искусственного интеллекта и выявление текущего состояния использования технологий ИИ в преподавании иностранных языков в высших учебных заведениях.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ КАЗАХСТАНА

В прошлом образование основывалось на письменных материалах, включавших обучение, чтение, заучивание и обсуждение. Однако с переходом к эпохе информационного общества в 1900-х годах образовательные материалы стали более разнообразными. Наряду с книгами в образовании стали использоваться изображения, фотографии, графики, фильмы, стереограммофоны, модели и реальные предметы⁵⁸. В наши дни незаменимым элементом эпохи стал искусственный интеллект, который начал применяться во всех сферах образования. Обучающие платформы, поддерживаемые искусственным интеллектом (ИИ), приобретают большое значение в современной образовательной среде. Эти платформы персонализируют процесс обучения, учитывая индивидуальные потребности каждого ученика. Это повышает эффективность обучения и способствует индивидуальному успеху. Системы, основанные на ИИ, способны анализировать сильные и слабые стороны учащихся.

В системе образования Казахстана преподавание и использование искусственного интеллекта также стало обязательным. В настоящее время научные учреждения и университеты страны имеют бесплатный доступ к международным базам данных. Компания Google оказала поддержку в запуске курсов по искусственному интеллекту для 5000 студентов из 15 университетов страны. Образовательная онлайн-платформа Coursera

⁵⁸ Şahin Toptaş, A. (2024). Yapay zekânın yabancı dil öğretiminde kullanımı: Almanca örneği. A. P. Deregözü içinde, Contemporary research in language education (s. 77-96). İstanbul: Eğitim Yayınevi.

предоставила студентам из 93 университетов Казахстана 40 тысяч лицензий и выдала 153 тысячи сертификатов студентам, завершившим курсы. Кроме того, на базе технологического парка AstanaHub были запущены курсы по искусственному интеллекту для преподавателей вузов, и эта программа начала обучать ИИ 700 преподавателей из 47 высших учебных заведений⁵⁹.

В дополнение к этому Казахстан предпринимает международные инициативы в области образования, чтобы охватить больше тем, связанных с искусственным интеллектом, и заключил соглашения с ведущими мировыми центрами по обучению ИИ. В рамках проекта AI-Sana планируется обучить 100 000 студентов казахстанских университетов программированию, искусственному интеллекту и ускоренному предпринимательству. В этом направлении было разработано 20 новых образовательных программ, и в университетах начали реализовываться курсы при поддержке таких глобальных технологических компаний, как Google, NVIDIA и Huawei⁶⁰.

РОЛЬ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

Очень важно отметить положительные стороны использования искусственного интеллекта в преподавании иностранных языков. Они включают в себя персонализацию учебного опыта, предоставление обратной связи в реальном времени, снижение коммуникационных барьеров и поддержку моделей дистанционного обучения. В литературе положительное влияние ИИ на языковое образование представлено следующим образом⁶¹:

- Персонализированный учебный опыт;
- Анализ учащихся и повышение эффективности обучения;
- Мгновенная обратная связь и точность;
- Неограниченные возможности для практики;
- Преодоление языковых и переводческих барьеров;
- Понимание культурных различий;
- Инновационные подходы к обучению;
- Развитие дистанционного образования.

Технологии искусственного интеллекта с каждым днём становятся всё более эффективными инструментами в обучении иностранным языкам. Сегодня мобильные приложения и онлайн-платформы с поддержкой ИИ делают процесс изучения языка более персонализированным, интерактивным и продуктивным. Эти приложения помогают людям расширять словарный запас, укреплять грамматические навыки и улучшать произношение. Они предоставляют персонализированный учебный опыт, предлагая контент, адаптированный к уровню и потребностям учащегося.

Благодаря системам распознавания речи анализируются ошибки произношения, предоставляется мгновенная обратная связь и поддерживается практика правильной речи. Автоматические переводчики способствуют преодолению языковых барьеров, переводя тексты и устную речь на другие языки. Эти системы также помогают в освоении структуры предложений и значений слов.

Инструменты лингвистического анализа на основе ИИ выявляют грамматические и орфографические ошибки в письменных и устных текстах, что позволяет учащимся сразу замечать свои ошибки и совершенствовать языковые навыки. Кроме того, благодаря

⁵⁹ Кудайбергенов, А. (17 Январь 2025 г.). Как казахстанских студентов учат работать с искусственным интеллектом. Получено из Inform buro: <https://informburo.kz/novosti/kak-kazaxstanskix-studentov-ucat-rabotat-s-iskusstvennym-intellektom>

⁶⁰ Рузматова, М. (17 январь 2025 г.). Казахстан укрепляет позиции в международном образовании через интернационализацию вузов. Получено из El Kz: https://el.kz/ru/kazahstan-ukreplyaet-pozitsii-v-mezhdunarodnom-obrazovanii-cherez-internatsionalizatsiyu-vuzov_400009790/

⁶¹ Eran, U. (2024). Yapaý zekânın yanamcı dil eđitiminde kullanılması. Nava Kuvvetleri Dergisi, 56-59.

интерактивным диалоговым системам пользователи могут практиковаться в общении с персонажами, управляемыми ИИ, развивая таким образом навыки коммуникации, применимые в реальной жизни. Все эти возможности показывают, что искусственный интеллект является мощным помощником в процессе изучения языков⁶².

По этой причине исследование значимости искусственного интеллекта в процессе преподавания языков в высших учебных заведениях становится актуальной и важной темой. Объектом данного исследования являются преподаватели, работающие на кафедрах иностранных языков и центров преподавания ИЯ при университетах. В рамках исследования был проведён опрос среди академических работников, занимающихся преподаванием языков в вузах, с целью выявления их мнений относительно использования искусственного интеллекта.

ГРУППА И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ

В данном исследовании рассматривались мнения преподавателей иностранных языков, работающих в высших учебных заведениях Казахстана, к применению технологий искусственного интеллекта в образовательном процессе. С этой целью был разработан опросник, включающий 25 вопросов. Однако в данной работе анализу подверглись не все данные, а лишь ответы на открытый вопрос, размещённый в конце анкеты: «Каковы ваши мнения и предложения по использованию искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам?». В опросе приняли участие 135 преподавателей. Ответы на открытый вопрос были проанализированы с целью выявления доли положительных и отрицательных мнений относительно использования искусственного интеллекта. На основе полученных данных предпринята попытка определить текущее состояние применения искусственного интеллекта в преподавании иностранных языков в вузах Казахстана.

РЕЗУЛЬТАТЫ И ОБСУЖДЕНИЕ

Общее число преподавателей, принявших участие в исследовании, составляет 135 человек. Эти преподаватели работают на кафедрах иностранных языков в государственных и частных университетах, расположенных в различных регионах и городах Казахстана. На вопрос: «Каковы ваши мнения и предложения по использованию искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам?» — 35 участников дали положительный ответ, 45 выразили отрицательное мнение, а оставшиеся 55 респондентов отметили, что в целом не поддерживают широкое использование ИИ, однако считают, что при умеренном применении он может быть полезен в процессе преподавания иностранных языков.



⁶² Şahin Toptaş, A. (2024). Yapay zekânın yabancı dil öğretiminde kullanımı: Almanca örneği. A. P. Derogözü içinde, Contemporary research in language education (s. 77-96). İstanbul: Eğitim Yayınevi.

Мнения преподавателей по поводу использования искусственного интеллекта различаются. Некоторые из участников исследования дали отрицательные ответы на вопрос: «Каковы ваши мнения и предложения по использованию искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам?». Примеры ответов участников:

У-1: Использование искусственного интеллекта существенно снижает качество образования.

У-2: Искусственный интеллект приводит к снижению роли преподавателя и может препятствовать взаимодействию между студентом и преподавателем.

У-3: Искусственный интеллект не может полностью заменить общение с преподавателем при изучении языка; в центре учебного процесса всегда должны находиться преподаватель и студент.

У-4: Искусственный интеллект — это всего лишь инструмент. Он не является человеком. Поэтому не научит языку как это делает преподаватель в аудитории.

У-5: В обучении языкам необходимы практика и живое общение; использование роботов и компьютеров не может в полной мере заменить эту потребность

Другая группа преподавателей, ответивших положительно на вопрос «Каковы ваши мнения и предложения по использованию искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам?», выделила следующие преимущества использования искусственного интеллекта:

У-1: Искусственный интеллект может существенно улучшить процесс обучения языкам, предлагая персонализированные учебные материалы, мгновенную обратную связь и анализ ошибок, что помогает студентам быстрее развивать грамматику, словарный запас и коммуникативные навыки.

У-2: Я считаю, что университеты должны включить обучение использованию искусственного интеллекта во все образовательные программы. Каждый преподаватель должен обучать студентов, как использовать искусственный интеллект, соблюдая правила академической честности.

У-3: Искусственный интеллект крайне полезен для практики устной речи при изучении иностранных языков.

У-4: Искусственный интеллект развивается с невероятной скоростью, и это не только облегчает процесс обучения, но также предоставляет отличные возможности для улучшения его некоторых аспектов. Отказ от новых технологий в наши дни не является разумным, это приведет к тому, что преподаватель окажется на уровне предыдущих лет. Хороший преподаватель — это тот, кто умеет сочетать традиционные методы с новыми технологиями, что способствует развитию.

Третья группа преподавателей, которая составляет 41% участников, продемонстрировала комплексное отношение к использованию искусственного интеллекта в обучении иностранным языкам. С одной стороны, они осторожно относятся к чрезмерному и неконтролируемому использованию ИИ, с другой стороны, они утверждают, что искусственный интеллект должен применяться в преподавании иностранных языков осторожно и сбалансированно. Кроме того, они подчеркивают, что искусственный интеллект может стать многофункциональным и эффективным инструментом в обучении иностранным языкам при его умеренном использовании.

У-1: Искусственный интеллект облегчает работу преподавателей, однако его следует использовать осознанно и эффективно, чтобы избежать зависимости от него.

У-2: Всё должно быть в балансе. Лично я (например, я) ещё не видел конкретного примера, когда студент учил язык с помощью искусственного интеллекта, поэтому трудно сделать объективную оценку.

У-3: Я считаю, что университеты должны включить обучение использованию искусственного интеллекта во все образовательные программы. Каждый преподаватель

должен обучать студентов, как использовать искусственный интеллект, не нарушая принципы академической честности.

У-4: При подготовке к урокам иностранных языков следует выбирать хорошие и эффективные инструменты искусственного интеллекта.

У-5: Использование искусственного интеллекта больше подходит для преподавания грамматики, словарного запаса и подготовки оценочных материалов. Однако для развития коммуникативных навыков более эффективным является живое взаимодействие в естественной обстановке. Также следует учитывать, что инструменты, поддерживаемые искусственным интеллектом, могут допускать множество ошибок, которые учащиеся не всегда могут заметить и исправить. Поэтому процесс обучения с использованием искусственного интеллекта должен обязательно проходить под контролем преподавателя.

Как видно, несмотря на свою новизну, искусственный интеллект успел быстро внедриться в различные области, и среди преподавателей существуют различные мнения по этому поводу. Его новизна вызывает у некоторых академиков осторожное и дистанцированное отношение к технологиям искусственного интеллекта, в то время как другие считают, что эту новую технологию нужно быстрее интегрировать в образовательную систему. 26% участников опроса положительно относятся к использованию искусственного интеллекта в обучении языкам, в то время как 33% выражают негативное отношение. Судя по процентам, различия между теми, кто настроен положительно и отрицательно, незначительные и близки друг к другу. Оставшиеся 41% участников поддерживают использование искусственного интеллекта в преподавании иностранных языков в некоторых аспектах, но также подчеркивают, что при неправильном применении оно может иметь негативные последствия. Эти участники продемонстрировали двусторонний подход, указывая как на положительные, так и на отрицательные стороны технологий искусственного интеллекта. Искусственный интеллект является новой технологией, и это приводит к тому, что как преподаватели, так и студенты ещё не полностью осознали его потенциал в области языкового обучения. По мере того как искусственный интеллект будет всё шире внедряться в преподавание языков, станет возможным увидеть как положительные, так и отрицательные результаты его применения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

На основе полученных данных можно сделать вывод, что, наряду с возможностями, которые предоставляет искусственный интеллект в преподавании иностранных языков, существуют и определённые ограничения. Согласно оценкам преподавателей, инструменты искусственного интеллекта могут внести значительный вклад в процесс преподавания языков, при условии их умеренного и этически обоснованного использования в соответствии с педагогическими целями.

ИИ следует рассматривать не как замену преподавателям, а как вспомогательный элемент, усиливающий их роль в образовательном процессе. В этом контексте образовательный подход, интегрирующий возможности современных технологий с педагогическими методиками, способен обеспечить более продуктивную учебную среду как для преподавателей, так и для студентов. Контролируемое и этически ориентированное использование искусственного интеллекта может стать важным инструментом в повышении качества обучения иностранным языкам.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

Eran, U. (2024). Yayıp zekânın yanamcı dil eğitiminde kullanılması. *Hava Kuvvetleri Dergisi*, 56-59.

Şahin Toptaş, A. (2024). Yayıp zekânın yabancı dil öğretiminde kullanımı: Almanca örneği. A. P. Deregözü içinde, *Contemporary research in language education* (s. 77-96). İstanbul: Eğitim Yayınevi.

Кудайбергенов, А. (17 Январь 2025 г.). *Как казахстанских студентов учат работать с искусственным интеллектом*. Получено из Inform buro: <https://informburo.kz/novosti/kak-kazaxstanskix-studentov-ucat-rabotat-s-iskusstvennym-intellektom>

Рузматова, М. (17 январь 2025 г.). *Казахстан укрепляет позиции в международном образовании через интернационализацию вузов*. Получено из El Kz: https://el.kz/ru/kazahstan-ukreplyaet-pozitsii-v-mezhdunarodnom-obrazovanii-cherez-internatsionalizatsiyu-vuzov_400009790/

QORAQALPOQ SHE'RIYATIDAGI PUBLITSISTIK SHE'RLARDA LIRIK XARAKTERNING YARATILISHI

(G. Dávletova, O. Saparova, B. Seytaev lirikasi misolida)

Aliyeva Xurliman Raxmanbergenovna
filologiya fanlari bo'yicha falsafasi doktori (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada publitsistik lirikadagi lirik qahraman xarakterining aks ettirilish masalasi G.Dávletova, O.Saparova, B.Seytayevlarning she'riyati misolida o'rganildi.

Kalit so'zlar: she'riyat, publitsistik she'riyat, lirika, lirik qaharmon, lirik qahorman xarakteri va b.

Hozirgi adabiy jarayonda qoraqalpoq she'riyatida o'zining salmoqli o'rniga ega shoirlarimizdan G.Davletova, O.Saparova, B.Seytaev ijodining o'zining g'oya-tematik, janr xususiyatlari bilan ajralib turadi. Biz ushbu maqolamizda shoiralarning publitsistik she'rlaridagi lirik xarakterning yaratilish masalasini o'rganishni maqsad qildik.

Adabiyotshunoslik ilmida publitsistik lirika bo'yicha bir nechta ilmiy ishlar olib borilgan [2]. Olim I.Tulakov publitsistik lirika to'g'risida: «Bugungi she'riyat markazidagi qahramon davri singari tinchsiz, harakatchan bo'lish bilan birga chuqur o'ylay oladigan inson. Lirik qahramon tabiatidagi bunday o'zgarishlarning jamiyat-siyosiy hayotda yuz berayotgan voqea-hodisalar bilan chambarchas bog'liq ekanligini nazardan chetda qoldirmaslik kerak», deb bildirgan fikrni ta'kidlaydi [9.13]. J.Kamolning nuqtai nazarida esa, qarama-qarshi tendensiyalarni tahlil qilgan holda turmushdagi konfliktlar — lirik xarakter, lirik ma'no butunligicha, juda chuqurlik bilan namoyon bo'ladigan ajoyib maydon, deb alohida ta'kidlaydi [6.38]. Qoraqalpoq adabiyotshunosligida publitsistik lirika bo'yicha maxsus izlanishlar olib borgan olim A.Ayapov esa, publitsistik lirikaning badiiy tafakkurning o'zagi bo'lib, xalqning dardini, arzularini tasvirlashda yuqori imkoniyatlardan samarali foydalanadi, deb ta'kidlaydi [1]. Publitsistik lirikaning asosiy talablaridan biri haqida professor Q.Jarimbetov quyidagi fikrni bildiradi: «Publitsistikaning asosiy janr talablaridan biri — barcha o'quvchini, ya'ni auditoriyani fikrini, talablari va ehtiyojlarini inobatga olish, muhim yangi g'oyalarni, voqealarni, hodisalarni, jamiyatdagi yangiliklarni keng ommaga yetkazish va tarqatishdir» [5.81].

Haqiqatan ham, publitsistikaning asosiy talabi jamiyatdagi o'zgarishlarni ochiq tarzda e'lon qilishdan iboratdir. Ammo bu holatda jurnalistik publitsistika va badiiy publitsistikani qanday ajratish mumkin degan savol tug'iladi. Shu masalada professor Q.Jarimbetov: «Publitsistika haqida gapirganda, biz albatta jurnalistik publitsistika va badiiy adabiy publitsistikaning farqlarini aniqlashimiz kerak. Jurnalistika jamiyat, siyosat, ijtimoiy turmush holatlaridan kelib chiqib, kundalik talablariga javob bersa, badiiy publitsistika bu holatlarni estetik filtrdan o'tkazib, ularni badiiy obrazlar orqali ifodalaydi», deb ta'kidlaydi [5.81].

Lirikada insonning ruhiy dunyosi, davrning muhim masalalari, sevgi, iffat, vatan, insonning qayg'usi va quvonchi, shaxsiy insoniy fazilatlari, jamiyatdagi o'rni haqida fikrlar aks etadi. Bunday his-tuyg'ularni berishda har bir ijodkor o'z fikrini ongidan o'tkazib, lirik his-tuyg'ularni sub'ektning qoniga singdirib, uning ichki dunyosidan chiqarishi kerak. Publitsistik

lirikalarda ham badiiy tafakkur orqali berilgan bunday xususiyatlar hisobga olinadi. Shoirlar G.Davletova, O.Saparova, B.Seytaev ijodida aynan shu belgilarning namoyon bo'lishi kuzatiladi.

Shoira G.Davletovaning «Balajanlarim» qo'shig'ida bolalar taqdiri masalasi ko'tariladi. Shoira G.Davletovaning «Balajanlarim» qo'shigi haqida tadqiqidchi J.Esenov: «Lirik qahramonning his-tuyg'ulari va vatanparvarlik gumanistik ruhiy obrazini kengaytirib, uni milliy xususiyatlar bilan boyitadi», deb fikr bildiradi [4.168-169]. She'rda ota-onalarning bolalar tarbiyasiga befarq qarashlari ochiq tanqid qilinadi.

Júripsiz arqayın mazardı gezip,
Mısalı júrgendey bazardı gezip,
Kúydirmey analıq qálbimdi ezip,
Ne qılıp júripsiz balajanlarım? [3.24]

She'ning lirik qahramoni xayoliy, analik mehri, g'amxo'rligi va e'tiborsiz bolgan bolalarni qayg'uradi. Davrning qiyinchiliklari kun ko'rish uchun deb, farzandlariga vaqt ajratmay, zarur bo'lsa, ularni ham "ish" deb ko'chalarga chiqaradigan odamlarga g'azablanadi.

Qol jayıw uyat, góy, uyat masqara!

Sadaqa sorama, jumıs, is sora,

Dárwishlik is etpes, sendey jas bala [3.24].

Lirik qahramanning farzandlarini bolalik davrida bolalarcha o'yin-kulgi vaqtdan ajratib, sadaqa so'rashga majbur etib, ularning bugungi va ertangi kuniga befarq bo'lgan ota-onalariga g'azablanadi. «Maman, O'razanning ruhini chirqiratma» kabi misralar orqali, xalqimiz qanday qiyin davrlarni o'tsa ham, bola va bolalarga nisbatan hurmatni kamaytirmasdan, ularni tilanchilik darajasigacha olib bormasligini aytadi.

Úylerińe barıń, bunı qoyıńlar,

Ne qılıp júripsiz dep aytsa bir janlar,

Ata-anam ólgen dep ayta qoyıńlar [3.24].

Shoir G.Davletovaning lirik qahramoni oxirgi bandida qahr, g'azab ham kuchayadi. Inson dunyoga kelganida, uning asosiy maqsadlaridan biri o'zidan meros qoldirib ketish hisoblanadi. O'zining kelajakdagi avlodlariga, farzandlarining tarbiyasiga shunday beparvo qarovchi ota-onalaridan xavotirlanadi, ular "o'lganlar" qatorida deb qayg'uradi.

Shoir G.Davletovaning lirik qahramoni faqatgina qarovsiz qolgan bolalarning taqdiriga ashula emas, balki xalqining kelajagidan ham qayg'uradi. Jamiyatdagi beparvolikning qurboni bo'lib, bugungi kunning yetimchiligi tarbiyasida ulg'aygan avlod, ertaga kimlarni tarbiya qiladi? Mana, bu savol shoira lirik qahramoniga tinchlik bermaydi.

Shoir G.Davletovaning lirik qahramoni bolalar taqdiriga onalik sezgisi bilan birga, ularni xalqining kelajagi sifatida qayg'urib, vatanparvarlik nuqtai nazarida bo'ladi.

Shuningdek, O.Saparovanning "Alısqın, Jaqıńın..." deb nomlangan she'rda bugungi kundagi ijtimoiy-psixologik muammolarni ko'taradi.

Akeń telefon,

Anań telefon.

Waqt telefon

Baxıt telefon.

Óldi saat

Óldi kitap.

Sóylesiw joq,

Pikirlesiw joq.

Alla telefon,

Yalla telefon [7].

She'rda bugungi kunda insonning on fifth mushasiga aylangan telefon masalasi ko'tariladi. Lirik qahramon turmushda keng qo'llanilayotgan jansiz bir ob'ekt bo'lgan telefonga deb ota-onasini, qimmatli vaqtini boshqa sarflayotganlarga kuyinadi. Hatto, odamlarning shu buyum sababli kitob o'qimay, bir-biri bilan chin ko'rsatuvdan suhbatlashmay, fikrlashmay yotganidan,

bir paytlar insonlarning vaqtni bilishi uchun qo'llangan alvon soatlar o'rnini turli markadagi (Ayfonlar, Smartfonlar, Nokiya, Samsung, Redmiler) telefonlar egallab borayotganiga qavotir qiladi.

- Ulin qayda?
- Telefonda.
- Qizini qayda?
- Telefonda.
- Qatn qayda
- Bayagi jayda.
- Tapjilmay otir
- Koz telefonda
- Qiyal telefonda [7].

Lirik qahramon vaqtidan ijtimoiy tarmoqlarda boshqa o'tib ketayotgan katta yoshdagi va yosh bolalarga, hattoki farzand tarbiyasiga ham telefon sababli e'tibor bermaslikdan o'zini xafa qiladi. Bugungi kunda telefon bilan band bo'lgan yoshlarning, ertangi kunining ham, hayotidagi hamrohni tanlashi ham internet orqali bo'lib, milliylikning yo'qolishi, moddiy maqsadlar bilan mashina, pulga qiziqqan avlodga ta'sir etmoqda. Ota-onasidan, yaqinlaridan xabar olmay, mehr bermay o'sib borayotganlarning ertangi kunini, el-xalqning ertangisini chuqur qayg'iradi. Lirik qahramon barcha odamlarni jonlantirishga, to'g'ri yo'lga chaqiradi. Vaqtni behuda sarf qilmasdan milliyligimizni, adabiyotimizni, madaniyatimizni, umtozlarimizni, an'ana va urf-odatlarimizni o'rganishga undaydi. Lirik qahramon birgina telefon detali orqali butun insoniyatning XXI asrdagi global muammosini ko'taradi. U uzoqni yaqinlashtirib, yaqinini uzoqlashtirib, bu - buyum (telefon - X.R) orqali chaqaloqlarni turli kasalliklarga duchor etmasdan, kelajak avlodni mehrdan mahrum qilish haqida fikrlarini bildiradi. Oralxan Saparovanning bu qo'shig'ida keng jamiyatdagi muammolar va uning yechimi lirik qahramonning turli fikr-mulohazalari, xayoliy, gumanistik his-tuyg'ulari orqali ifodalangan.

Shoir B.Seytaevning "Sawda-satiq dunyasi" [8.134-136] deb atalgan she'rida esa kun-ko'rsatish uchun sotuvchiga aylanib ketgan kichik savdogardan boshlab, sudxo'rlar, xonandalar, shoirlar, daldalchilar haqida so'z yuritiladi. Lirik qahramon "soz kesak", "saqqiz" detallari orqali xalqning qiynalgan og'ir turmushini bayon etganida, qiyinchiliklardan charchab, odamlar hatto "shilim"ni sotishga majbur bo'lib xafa bo'ladi. Insonlarning fe'li qochib, sutga suv qo'shib sotayotgan harakatlaridan gazablanadi. Lirik qahramon kelajak avlodning ertasi haqida qayg'urib "Vatan! Ota-yurtim o'zimda qalsin!" degan chaqiruvni ilgari suradi. Shayir B.Seytaevning lirik qahramon xarakterida Ana Vatanga, xalqiga jonkuyar fuqarolik obrazini yaratadi.

Umumlashtirib aytganimizda, yuqorida nomi keltirilgan shoirlarimizning she'rlarida lirik qahramon o'zini yuz berayotgan hodisalarga beparvo emas, balki jonkuyar qahramon sifatida ko'rsatadi. Ularning lirik qahramonining asosiy xususiyati - tug'ilgan yeri, xalqiga, Ana Vatanga bo'lgan vatanparvar farzand va mehribon ona sifatida ko'rinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Аяпов А.Т. Ғәрезсизлик дәүириндеги каракалпақ публицистикалық лирикасы. Филол. илим. канд...дисс. – Нөкис.: 2010. – Б. 150.

2. Волкова Б.И. Стихотворная публицистика: Генезис и формы (на примере российских масс-медиа конца XX - начала XXI веков). Автореф... канд. филол. наук. – Москва: 2017. – С. 25.; Горпиняк П.А. Публицистика Бродского И.А. Автореф... канд. филол. наук. – Екатеринбург: 2009. – С. 23.; Акавов Р.З. Поэзия Макая Алибекова и проблемы публицистики в кумыкской литературе начала XX века. Автореф... канд. филол. наук. – Махачкала: 1998. – С. 29.; Бакалов А.С. Немецкая послеромантическая лирика (традиции и новаторство). Авторефер. соискание ученой степени доктора филологических наук. – Москва: 2004. – С. 36.; Магомедова Л.К. Дагестанская

публицистика XX века: формирование, развитие, тенденции. Авторефер. соискание ученой степени доктора филологических наук. – Махачкала: 2010. – С. 45.

3. Даўлетова Г. Қыз тахтым. –Ташкент: Meriyus, 2009. – Б. 24.

4. Есенов Ж. Еркеликтин хэм мэртликтин де үлгилери. // Даулетова Г. Тумар қыз. Нөкис: Қарақалпақстан, 2014. – Б. 168-169.

5. Жаримбетов Қ. XIX әсир қарақалпақ лирикасының жанрлық қәсийетлери хэм раўажланыў тарийхы. – Нөкис: Билим, 2004. – Б. 81.

6. Камол Ж. Лирик шеърят. – Тошкент: Фан, 1986. – Б. 38.

7. Сапарова О. Алысың жақының... [Электронный ресурс] // https://t.me/a_blognot

8. Сейтаев Б. Алма гүллеген пасыл. – Нөкис: Билим, 2007. – Б. 134-136.

9. Тўлаков И. Ҳозирги ўзбек лирикасида давр ва қаҳармон талқини: Филол. фанлар. доктори...автореф. –Тошкент: 1994. – Б. 13.

O‘ZBEK TILI MANBALARINI LINGVOPOETIK TADQIQ QILISH ETISH MASALALARI

Qo‘ldasheva Dilnavoz Xatamovna

Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

Annotatsiya. Bugungi kunda o‘zbek tili manbalarini ilmiy asosda tadqiq etishning qator yo‘nalishlari rivojlandi. Badiiy adabiyot tili va uning tahlili masalalariga bag‘ishlangan asarlar, tadqiqot ishlari salmog‘ining ortib borayotgani buning dalilidir. Ushbu maqolada o‘zbek tili manbalarining lingvopetik tahlili masalalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: til va poetika, badiiy nutq, lingvopoetika, konnotativ ma‘no, ironika, M.Yo‘ldashev, J.Lapasov.

Adabiy va filologik tadqiqning o‘zaro uyg‘unlikdagi jarayoni lingvopoetika yo‘nalishining shakllanishi va rivojlanishiga asos bo‘ldi. Tadqiqotlarda lingvopoetika tushunchasini poetik xarakterdagi asarlarning til xususiyatlari o‘rganiladi, degan tor mazmundagi fikrning borligi xato ekanligi, aslida *poetika* tushunchasining mundariyasi juda kengligi ta‘kidlanadi⁶³. Qadimgi yunon faylasufi Arastu o‘zining “Poetika” asarini yaratadi va uning “Til va fikr” bobida nutq va fikrga tegishli hodisalarning ritorikaga aloqadorligini ta‘kidlab, uning nutq tuzish bilimlari bilan bog‘liqligini alohida e‘tirof etadi⁶⁴. Rus tilshunosi V.Zadornovanning ta‘kidlashicha, “filologiyaning alohida bo‘limi bo‘lgan lingvopoetikaning predmeti bu – yozuvchi badiiy asarda foydalanadigan va g‘oyaviy-badiiy maqsadni amalga oshirish uchun kerak bo‘ladigan estetik ta‘sirni ta‘minlovchi til vositalarining majmui hisoblanadi”⁶⁵. Ingliz tilshunosi S.Saportaning bu boradagi fikrlari ham alohida diqqatga molik: “...poetika bu – til, poetika bu – til emas, san‘at, poetika bu san‘at va til tajassumidir”⁶⁶.

Tadqiqotlarda qayd etilganidek, “Poetik nutq – bu, ekspressiv nutqdir. Shuning uchun ham poetik nutqni o‘rganishda uning ekspressiv jihatlariga e‘tibor qaratish, ekspressivlikning yuzaga kelishini ta‘minlovchi vosita va figuralarni tadqiq etish poetik nutq mohiyatini keng va atroflicha o‘rganish uchun imkoniyat yaratadi”⁶⁷. Shu jihatdan olib qaraganda, poetik nutq tadqiqi masalasi tilshunoslikda alohida ustuvorlik kasb etadi.

⁶³Тошхўжаева. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD). ...дисс. – Фарғона, 2017. – Б.13-14.

⁶⁴Аристотель. Поэтика. – Тошкент, 1979. – Б. 39.

⁶⁵Задорнова В. Лингвопоэтика. Слово в художественном тексте //Язык, сознание, коммуникация: СБ.статей. – Москва: МАКС Пресс, 2005. – С.160.

⁶⁶Сапорта С. Применение лингвистики в изучении поэтического языка // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. IX/ – Москва, 1980. – С.97.

⁶⁷Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. д-ри (DsC)дисс.автореф. – Фарғона, 2021. – Б.16.

Ma'lumki, badiiy asarlar adabiy til rivojining yorqin namunasi sifatida o'z davriga xos barcha lingvistik tahlillar olib borish, muhim xulosalar chiqarish uchun asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. O'zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o'rganish XX asrning 40-yillaridan boshlangan.

Tilshunoslik fanining qadim davrlaridan boshlab, hozirgi kungacha ham badiiy asar tilini tahlil etish olimlar oldidagi muhim va qiziqarli masalalardan biri bo'lib kelgan. Bu yo'nalishda jahon tilshunosligida⁶⁸, rus tilshunosligida⁶⁹ samarali ishlar olib borilgan. O'zbek tilshunosligida I.Qo'chqortoyev, R.Qo'ng'urov, A.Shomaqsudov, Sh.Shoabdurahmonov, Q.Samadov, N.Mahmudov, B.Yo'ldoshev, S.Karimov, B.Umurqulov kabi olimlarning ishlarini ko'rsatib o'tish o'rinli⁷⁰. Ayniqsa, keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida olib borilgan izlanishlar badiiy asar tilini tadqiq etishda lingvopoetik yo'nalishda ish olib borish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatdi.

Tadqiqotlarning ba'zilari masalaning umumiy tomonlariga, ayrimlari tanlab olingan ijodkor asarlari tiliga, ayrimlari esa badiiy nutq stilistikasi masalalariga bag'ishlangani bilan karakterlanadi.

O'zbek filologiyasida lingvopoetikaning shakllanishi saksoninchi yillarda yaratilgan nutq va uni yuzaga keltiruvchi omillarni tadqiq etuvchi asarlarning maydonga kelishi bilan bog'lanadi. Mazkur tadqiqotlarda badiiy til va badiiy nutqni tadqiq etadigan lingvistik poetika yo'nalishiga oid mavzular yoritib berildi, ushbu ishlar lingvistik poetikaning o'rganish obyekti va mundarijasining oydinlashishiga xizmat qildi. O'zbek tilshunosligida ham muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarini aniqlashga bag'ishlangan, umuman, lingvopoetik aspektdagi ko'plab tadqiqotlar mavjud.

Badiiy nutqning lingvopoetik xususiyatlarini tadqiq etish natijasida o'zbek tilining badiiy imkoniyatlari keng o'rganilib kelinayotgani diqqatga molikdir. Bu borada N.Mahmudov va S.Karimovlarning tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Badiiy matnning lisoniy tahlili borasida M.Yo'ldoshev tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar o'zbek tilshunosligida lingvopoetika yo'nalishining nazariy asoslarini yaratishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik yillarida adabiy til birliklarining lingvistik tahliliga bag'ishlangan ilmiy asar va tadqiqot ishlarining ko'lami ancha kengaydi. XXI asr o'zbek tilshunosligi esa bu boradagi ilmiy izlanishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. G.Keldiyorovning "O'zbek badiiy nutqida antiteza" (2000), O.Mamaziyaevning "O'zbek poetik nutqida xiazm va gradatsiya" (2004), D.Shodiyevaning "Muhammad Yusuf she'riyati lingvopoetikasi" (2007), A.Xaydarovning "Badiiy tasvirning fonostilistik vositalari" (2008), "Konnotativ ma'noning fonetik vositalarda ifodalanishi" (2009), F.Ibragimovning "Badiiy matnda ellipsis va antiellipsis" (2011), S.Maksudovning "Erkin Vohidov asarlarida konnotativlikning ifodalanishi" (2012), O.Tursunovning "O'zbek badiiy nutqining fonopoetik tadqiqi" (2018) singari tadqiqotlarida lingvistik poetika masalalari keng yoritib berilgan. Bu esa so'nggi yillarda tilshunoslikning lingvopoetika yo'nalishi o'zining rivojlanish maqomini olgani va mazkur yo'nalishda salmoqli ishlar yuzaga kelganini ko'rsatadi. Jumladan, I.Mirzayev, Z.Hamidov, M.Yoqubbekova, S.Karimov, M.Yo'ldoshev, G.Yaxshiyeva, A.Abdullayev, I.Hojaliyev, D.Shodiyeva, O.Mamaziyaev, M.Abdupattayev, G.Muhammadjonova, M.Akbarova, A.Shofqorovlarning

⁶⁸Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Наука, 1961. – С.219. Брандес М. П. Стилистика немецкого языка – Москва: Высшая школа, 1983. – С.104

⁶⁹Шчерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – Москва, 1957. – С. 97; Рубайло А.Т. Художественные средства языка. – Москва, 1961; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М.: Искусство, 1979; Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – Москва: Высшая школа. 1981; Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – Москва: Наука, 1969.

⁷⁰Кўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Университет, 1975. –Б 62-76; Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. Б. 50-66; Шомақсудов А. ва б. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. – Б.248; Шоабдурахмонов Ш. "Равшанхон" достонининг тил хусусиятлари: Автореф. дисс. конд. филол.наук. – Тошкент, 1949, – С.18; Самадов Қ. Ўзбек тили услубияти. – Тошкент: Фан, 1991. – Б.5-6, 15.

monografik ishlari maydonga keldi. "Ularda, asosan, poetik nutqning fonetik, leksik va ayrim morfologik xususiyatlari, shuningdek, badiiy tasvir vositalari sifatida troplar va stilistik figuralarning o'ziga xos belgilariga urg'u berilgan. Jumladan, she'riy matnlarning lingvistik interpretatsiyasi

(I.Mirzayev), badiiy matnning lingvopoetik xususiyatlari (M.Yo'ldoshev), o'zbek xalq qo'shiqlarining lingvopoetik belgi-xususiyatlari (M.Yoqubbekova), badiiy uslubning lingvistik belgilari (S.Karimov) yoritilgan. Shuningdek, badiiy nutqdagi parantez birliklar (D.Jamoliddinova), poetik individuallik (S.Umirova), poetik fonetika masalalari (O.Tursunova), o'zbek she'riyatining davriy lingvopoetik talqini (G.Muhammadjonova), ironik mazmun ifodalovchi usul-vositalari talqini (E.Ibragimova) yoki ma'lum bir ijodkorlar asarlari misolida M.Yusuf lingvopoetikasi (D.Shodiyeva), Usmon Azim ijodining lingvopoetik xususiyatlari (S.Umirova) tadqiq etildi"⁷¹. Bu esa lingvopoetika yo'nalishi o'zbek tilshunosligida o'zining rivojlanish bosqichiga ko'tarilganidan dalolat beradi.

Tilshunos olimlar tomonidan mumtoz adabiy manbalarning lisoniy, badiiy xususiyatlarini o'rganishga ham jiddiy kirishildi. Mumtoz matnlarning leksik xususiyatlarini tadqiq etish yuzasidan olib borilgan ilmiy izlanishlar o'zbek adabiyotining o'ziga xos qirralari va til imkoniyatlari, uslubiy xarakterini ochib berishga qaratildi. Xususan, o'zbek tilshunosligida XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari badiiy manbalarining o'rganilishi orqali yurtimizning ko'plab ma'rifatparvar adiblari, jadidchi shoir va yozuvchilari asarlari ilmiy tadqiq qilinishiga erishildi. Bu esa mustabid tuzum davrida milliy istiqloq g'oyalarini kuylagan, millat ma'rifati, ma'naviyati yuksalishi yo'lida fidoyilik ko'rsatgan, ayni vaqtda xalqimiz xotirasidan o'chirishga urinilgan Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'lpon, Abdurauf Fitrat, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat singari mo'tabar zotlarning nomlarini abadiylashtirish, ularning o'lmas badiiy-ilmiy merosini puxta o'rganishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo'ldi.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni qayta tiklash va o'rganishga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratildi. Buning natijasi o'laroq, sho'ro tuzumi yillarida ma'lum sabablarga ko'ra faqat bir tomonlama talqin qilib kelingan barcha mumtoz adabiyotimiz namoyandalari ijodi ilmiy tahlil qilinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол. фан. д-ри (DsC)дисс.автореф. – Фарғона, 2021. – Б.16.
2. Аристотель. Поэтика. – Тошкент, 1979. – Б. 39.
3. Балли Ш. Французская стилистика. – Москва: Наука, 1961. – С.219. Брандес М. П. Стилистика немецкого языка – Москва: Высшая школа, 1983. – С.104.
4. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. М.: Искусство, 1979.
5. Винокур Г.О. О языке художественной литературы. – Москва: Высшая школа, 1981. Ефимов А.И. Стилистика художественной речи. – Москва: Наука, 1969.
6. Задорнова В. Лингвопоэтика. Слово в художественном тексте //Язык, сознание, коммуникация: СБ.статей. – Москва: МАКС Пресс, 2005. – С.160.
7. Қўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. Б. 50-66;
8. Қўчқортюев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: Университет, 1975. –Б 62-76;
9. Рубайло А.Т. Художественные средства языка. – Москва, 1961.
10. Сапорта С. Применение лингвистики в изучении поэтического языка // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. IX/ – Москва, 1980. – С.97.

⁷¹Абдупаттоев М. Ўзбек тилининг поэтик синтаксиси: Филол.фан.д-ри (DsC). ... дисс.автореф. – Фарғона, 2021. – Б.8.

11. Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. б-ча фалс. д-ри (PhD). ...дисс. – Фарғона, 2017. – Б.13-14.
12. Шчерба Л.В. Избранные работы по русскому языку. – Москва, 1957. – С. 97.

**ASQAD MUXTORNING “TO‘QQIZINCHI PALATA” HIKOYASIDA
INSONIYLIK MASALASINING YORITILISHI**

Madinaxon Yusupova Egamberdi qizi,

*Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD)*

Qurbonova Gulnoza Mahmudjanovna

*Farg‘ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish(o‘zbek tili) yo‘nalishi
talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada Asqad Muxtorning “To‘qqizinchi palata” hikoyasi talqinida insoniylik masalasi haqida fikr yuritilgan. Umrining so‘nggi lahzalarida ham odamiylik xarakterini o‘zida namoyish eta olgan va nafs quliga aylangan obrazlar haqida mulohaza qilingan.

Аннотация: В статье рассматривается проблема человечности в интерпретации повести Аскада Мухтара «Девятая палата». Размышления были сделаны о персонажах, которые даже в последние минуты своей жизни смогли проявить свой человеческий характер и стать рабами своих желаний.

Abstract: This article discusses the issue of humanity in the interpretation of Asqad Mukhtar's story “The Ninth Chamber”. It discusses the characters who were able to demonstrate their human character even in the last moments of their lives and who became slaves to their desires.

Kalit so‘zlar: Asqad Muxtor, Gang daryosi, umid, kulminatsion nuqta, lirika.

“Bolasini yo‘qotgan ona yuragi yorilib o‘lishi mumkin. Nomusi, izzat-nafsi toptalgan qizning boshidan kerosin quyib, o‘ziga o‘t qo‘yganini ko‘p eshitganmiz. Tahqirlangan, tuhmatga uchragan odam alamdan o‘zini osib o‘ldiradi. Endi ayting, tan yarasi yomonmi yo dil dardimi?”⁷².

Asqad Muxtor o‘zbek xalqining zabardast ijodkorlaridan biridir. Uning juda ko‘plab asarlari mushtariylar qalbidan chuqur joy egallagan. Yozuvchi tomonidan yozilgan juda ko‘plab hikoyalarda insoniylik tuyg‘ulari, jamiyatning siz va bizga ma‘lum voqeliklari yozuvchining o‘ziga xos mahorati o‘laroq yuzaga keladi. Unda falsafiy lirikaning yaqqol namoyon bo‘lishi ham muallif badiiy mahoratidan darak beradi. Asqad Muxtor 1920-yil 23-dekabrda, Farg‘ona shahrida temiryo‘lchilar oilasida tavallud topgan. 11 yoshida otasini yo‘qotib, mehribonlik uyiga ravona bo‘ladi. Yetimlik dardini, yolg‘izlik hissini, hayot uchun kurash ta‘mini qalban his qilgan ijodkor. Yuqorida dil yarasi haqida chuqur mulohaza yuritilishiga ham ana shu beshavqat taqdir zarbasi sabab bo‘lgandir. Har bir asarlarida insoniylik konsepsiyasini bosh g‘oya sifatida jamlab oladi. Ayniqsa, hikoyalarida qisqagina umrni faqat yaxshilikka, insonlarga beminnat yordam berishga sarflash borasida fikr yuritadi. “To‘qqizinchi palata” hikoyasi xususida so‘z ketganda, albatta hikoya epigrafi o‘ziga xos bo‘lib, hikoyaning butun mazmunini qamrab oladi: “Nafing qancha bo‘lsa-umring shuncha”⁷³. Darhaqiqat, chuqur falsafiy manzara kasb etuvchi ushbu jumla orqali muallif hikoya voqeliklarining manmun-mohiyatini belgilab boradi. Shunday insonlar bor-qisqagina umr kechiradi. Umrini manfaatli tadbirlar ustiga quradi. Shunday insonlar bor-ki, umrni faqatgina o‘z nafsini qondirishga sarflaydi. Ushbu aqida hikoyadagi Bahromov va

⁷² Muxtorov A. Tundaliklar. - T., Ma'naviyat, 1997. B. - 32.

⁷³ Muxtorov A. Tundaliklar. - T., Ma'naviyat, 1997. B. - 32.

“imonsiz chol” obrazlarida o‘z aksini topadi. “Qurilish shaharchasida joylashgan yangi kasalxonasi juda qulay joyga tushgan-tog‘ning kungay etagi, bir tomoni yosh terakzor, katta yo‘ldan uzoqda. Yoz kunlari bemorlar derazalarni lang ochib, tog‘ havosini to‘yib-to‘yib shimirishadi. Bahromovning palatadagi qo‘shnisi keskin odam, ahvoli ancha og‘ir, lekin ko‘p sergap ekan, yotgan joyida han inqillab gapirishini qo‘ymaydi”⁷⁴. Bizningcha, hikoya kasalxonada davolanayotgan ikki keksa qariya obrazida insoniylik g‘oyasini aks ettirgan. Bahromovning ikki o‘g‘li frontda vafot etgan keng fe‘l, hilmli, insonlarga yaxshilik ulashuvchi, kamgap inson. Hoji buva - maydagap, so‘zi va amali orasida nomutanosiblik mavjud, Bahromov ta‘biricha “imonsiz chol”, nafsiga qul kimsa. Ikkisining suhbatlarini kuzatsangiz, Bahromov “umid nima?” degan savolga “kelajak” deb javob beradi. Hoji buva esa, “yashash” deb qo‘yadi. Hatto hikoyada Gang daryosi bo‘yida vafot etgan hindistonliklar to‘g‘ri jannatga kirishi (chunki, ular tasavvurida Gang-Hindistondagi muqaddas daryo. Uning bo‘yida vafot etganlar, shahid holida ketadilar) tilga olingan. Bahromovga qat‘iy o‘rnidan turmasdan yotish uqtirilgan. Agar o‘rnidan tursa, ahvoli og‘irlashishi shifokorlar tomonidan qayta-qayta uqtirilgan. Shunday bo‘lsa-da, u qo‘shni xonada davolanayotgan bolakay - Alisher kasalxona hovlisida tomdan uzilib yotgan elektr simi tomon yugurib borayotganida, o‘rnidan ishtonchang turib, bolakayni qutqaradi. Derazadan Bahromov bolakayning onasi nazoratidan qochib, elektr simi tomon yugurib borayotganini ko‘radi. “-Hoji buva! Hoji buva! Alisher kelyapti, qarang! -Qoch!Qoch! Kelma, Alisher! Qarang, simga qarab kelyapti. Qoch! Oying qani?”⁷⁵ O‘sha onda Bahromov qo‘shnisiga yulvorib, Alisherni elektr simi tomon yugurib borishidan himoya qilishini so‘raydi. Qo‘shnisi esa, bamaylixotir, sovuqqonlik bilan bu holatga qarab turadi Bahromovga o‘rnidan turish ma‘n etilgan edi. Ilojsiz cholga iltijo qiladi. Afsus! Hoji buva o‘rnidan turmasdan, “bachchag‘ar”, “qiztaloq”, “taqvoingdan o‘rgildim” deb qarg‘anib, karavotda paytava o‘rab o‘tiradi. Bu holat hikoyadagi kulminatsion nuqtadir. Bahromov qarasa, qo‘shnisi o‘tiraveradi. Alisher esa tobora sim tomon yaqinlashaverardi. Kasaliga va yotoq holiga qaramasdan, dast o‘rnidan turib, o‘zini derazaga uradi. Shunda ham Hoji buva derazadan voqeani kuzatib turaveradi. Ichi qizimaganini qarang-a? Bahromov bolakayni qutqarib, elektr simni tayoq uchida devor ustiga olib qo‘yadi. Shunda ham Hoji buvaning: “G‘oradan ola keling ,qo‘shni” degan gapi quloqqa chalinadi. Hoji buva oxirgi kunlari yeyishga qattiq ruju qo‘yadi. Goyoki, bu dunyodagi rizqining hammasini apil-tapil tugatayotgan edi. Nevarasi Ergashni tinimsiz kutadi. Uni sog‘inganidan emas, qo‘lida ko‘tarib kelajak-xaltasiga nima solib kelishini kutadi. Nafs shunchalik bu cholni yeb, tugatayotgan edi. Hattoki, Bahromovning yeguliklaridan o‘g‘irlab yeya boshlaydi. “O‘g‘ritomoq va insofsiz, imonsiz chol “kun sayin semira boshlagandi. Alisherning qutqaruv sahnasida ham uzoqdan xayoli g‘o‘ra tomon oshiqadi. Og‘zining suvi ketadi. Zo‘rga nafas olayotgan keksa xonadoshiga murakkab vaziyatda ham yegulik - g‘ora olib kelishini yuklaydi. Naqadar xudbinlik! Badnafslilik! Shu tarzda Bahromovning holati og‘irlashadi Ertasi kuni jon beradi. Shunda ham Hoji buvaning ko‘ngliga o‘lik ustida ovqatni chapillatib yeyish sig‘adi. Kir qo‘llari bilan olma yeb o‘tiradi. Xonaga kirgan yosh bolakaydan olma qizg‘onib, qo‘llari bilan to‘sib oladi. Kimdir shu bolakayni qutqarish uchun umrining so‘nggi lahzalarini fido qildi. Kimdir esa, bittagina olma qizg‘ondi. Hikoya insonni falsafiy va diniy mushohada sari tortqilab ketadi. Epigrafi ham antiqa tarzda tanlangan. Insonning yuksalishida ham, qulashida ham nafsning o‘rni beqiyos. Jaloliddin Rumi ta‘biricha: “Sen nafsingni yengmaguningcha, sen o‘zingni topmaysan”⁷⁶. Inson hayoti - eng bebaho ne‘mat. Umrni shunchaki yashash va nazmunli yashash orasida katta farq bor. Har kim yashaydi. Har kim ham manfaatli yashamaydi. Manfaatli umr - o‘zgalarga foyda keltirishda. Yaxshilik urug‘ini sochishda. Bunday insonlar tanasi dunyoni tark etadi. Lekin ruhi va nomi abadiy yashaydi.

⁷⁴ Muxtorov A. “Ildizlar”. T., “Yosh gvardiya”, 1984. B. - 176.

⁷⁵ Muxtorov A. “Ildizlar”. T., “Yosh gvardiya”, 1984. B. - 176.

⁷⁶ Rumi Jaloliddin “Yetti majlis” - T., - Yangi asr avlodi, 2021

Asqad Muxtor ham shunday sermazmun umr kechirdi. Yozgan asarlarida ilgari surilgan ma'naviy, insoniy g'oyalari tarbiyaviy sabog'i asrlar osha mangu qoldi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi-muallif Asqad Muxtor o'zining "To'qqizinchi palata" hikoyasi orqali inson umrining naqadar qimmatbaho ekanligi, uning qimmatini o'z vaqtida to'g'ri baholay olinishi kerakligi xususida yaratilgan asar bo'lib, uning salmoqdorligini ijtimoiy muhitdagi dolzarb mavzu xususida yaratilganligi bilan muallifning boshqa hikoyalardan tubdan farq qiladi.

Bu o'rinda rus adabiyotining tipik vakillaridan biri Fyodr Dostoyevskiyning quyidagi iqtibosi o'rindir: "Inson umrining bahosi -necha yil yashagani bilan emas, nimalar uchun yashagani bilan o'lchanadi"⁷⁷

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muxtorov A. Tundaliklar. - T., Ma'naviyat, 1997. B. - 32.
2. Muxtorov A. "Ildizlar". T., "Yosh gvardiya", 1984. B. - 176.
3. Rumi Jaloliddin "Yetti majlis" - T., - Yangi asr avlodi, 2021
4. <https://hikmatlar.uz>.

AUDIO MATNLARNI TRANSKRIPSIYALASH BOSQICHLARI: LOTIN ALIFBOSI ASOSIDAGI TAJRIBA

Vosiljonov Azizbek Boxodirjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi audiomatnlarni lotin alifbosi asosida transkripsiyalash bosqichlari yoritilgan. Tadqiqot doirasida ma'ruza, intervyu, badiiy ijod, rasmiy va norasmiy nutq kabi besh turdagi audiomatnlarni tanlab olinib, ular ustida transkripsiya ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilgan. Transkripsiya jarayonida dastlab audiodaymlarni shovqindan tozalash, segmentlash, dastlabki va kengaytirilgan transkripsiya, tahrir va verifikatsiya kabi bosqichlar ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, rasmiy-adabiy nutq transkripsiyasi nisbatan oson kechgan, norasmiy va dialektal nutqlarda esa cho'ziqlik, unli va undosh almashinuvlari kabi fonetik xususiyatlar transkripsiya jarayonini murakkablashtirgan. Ekspertlar taqqoslashida transkripsiyaning aniqlik darajasi 96–97% ni tashkil etgan. Shuningdek, avtomatik nutq tanish tizimlarining imkoniyatlari va cheklovlari tahlil qilinib, ayniqsa dialektal nutqlarda qo'lda transkripsiyaning afzalligi ko'rsatib o'tilgan. Maqolada cho'ziqlik va kirik hodisalarini ifodalash uchun maxsus metodik yechimlar va texnik ko'rsatmalar zarurligi ta'kidlangan. Tadqiqot natijalari o'zbek tili audiokorpuslarini yaratish va rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: audiomatn, transkripsiya, lotin alifbosi, o'zbek tili, fonetik xususiyat, dialekt, avtomatik nutq tanish, korpus lingvistikasi, cho'ziqlik

KIRISH

Audiomatnlarni transkripsiyalash hozirgi zamon lingvistikasida, xususan, korpus lingvistikasi, nutq texnologiyalari va til o'rganish jarayonlarida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli platformalarda audiomatnlarni (intervyular, suhbatlar, ma'ruzalar, nutq namunalari)ni yozma shaklga o'tkazish va ularning fonetik-lingvistik xususiyatlarini tadqiq qilish uchun mustahkam poydevor yaratiladi. O'zbek tilining lotin alifbosiga asoslangan imlo tizimi (keyingi o'rinlarda "lotin alifbosi") audiomatnlarni transkripsiya qilishda texnik va metodik qulayliklar taqdim etishi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolada o'zbek tilidagi audiomatnlarni lotin alifbosi

⁷⁷<https://hikmatlar.uz>

asosida transkripsiyalash bosqichlari, bu bosqichlarning mazmuni va amaliy natijalari IMRaD (Introduction, Methods, Results and Discussion) talablari asosida yoritiladi. Mavzuning dolzarbligi, bir tomondan, o'zbek tilidagi lingvistik korpuslarni kengaytirish, ikkinchi tomondan, nutqni avtomatik tanish tizimlari va audiomatnlarni tahlil qilish bo'yicha axborot texnologiyalari rivoji bilan chambarchas bog'liqdir. Tadqiqotning asosiy maqsadi audiomatnlarni transkripsiyalash jarayonining asosiy bosqichlarini tizimli bayon etish, lotin alifbosiga asoslangan transkripsiya standartini ishlab chiqish va shu asosda metodik ko'rsatmalarni takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot vazifalari audiomatnlarni transkripsiyalashga zarur metodik asosni aniqlash, lotin alifbosi asosidagi transkripsiya bosqichlarini izchil ko'rsatib berish va qisqa amaliy sinovlar orqali sifat hamda samaradorlikni baholashdan iborat.

METOD

Tadqiqot doirasida o'zbek tilidagi audiomatnlarning beshta kategoriyasi tanlab olindi: ma'ruza nutqlari (universitet ma'ruzalari), intervyular (ommaviy axborot vositalaridagi suhbatlar), og'zaki badiiy ijod namunalari (hikoya aytish), rasmiy nutqlar (televideniye chiqishlari) va norasmiy suhbatlar (oilaviy yoki bozor nutqlari). Umumiy hajm taxminan 6 soatni tashkil etdi. Maqsad har bir uslub va vaziyatga xos fonetik o'zgarishlarni transkripsiya jarayonida aniqlash, lotin alifbosiga asoslangan yozuv orqali qayd etish va jarayonning samaradorligini o'lchashdan iborat bo'ldi. Tadqiqot dizayni bosqichma-bosqich yondashuvga asoslandi. Avval audiod fayllar dastlabki qayta ishlashdan o'tkazildi, shovqin darajasi pasaytirildi va segmentlarga bo'lindi. Keyin dastlabki transkripsiya qilinib, natijada nutq mazmuni adabiy me'yorga yaqin shaklda yozma ko'rinishga keltirildi. Keyingi bosqichda transkripsiya kengaytirilib, lotin alifbosidagi ba'zi o'zgarishlar, cho'ziqlikni ko'rsatish, unli-almashinuvlar, undosh qisqarishlari yoki dialektal unsurlar maxsus belgilash yoki sharh orqali yozib chiqildi. So'ngra ekspertlar yoki yarim-avtomatik dasturlar yordamida matnning to'g'riligini tekshirish, tuzatish, xato yoki noaniq nuqtalarni bartaraf etish bosqichiga o'tkazildi. Transkripsiya jarayonida Audacity va Express Scribe kabi dasturlardan audio segmentlarni qayta ishlash va tinglash qulayligi uchun foydalanildi. Matnni yozishga mo'ljallangan Notepad++ yoki Sublime kabi matn muharrirlarida maxsus lotin alifbosiga mos shriftlar tanlandi. Ba'zi sinovlar Google Speech-to-Text, Yandex SpeechKit kabi avtomatik nutq tanish xizmatlaridan ham foydalanildi, biroq dialektal va tez og'zaki nutqlar uchun xizmatning xato ulushi ko'pligi sababli asosan qo'lda transkripsiya metodiga e'tibor qaratildi. Verifikatsiya bosqichida ayrim segmentlar kesib olinib, ikki nafar mutaxassis-tilshunos tomonidan mustaqil ravishda qayta yozildi va natijalar taqqoslandi. Keng hajmdagi matnlarda chorak qismi nazorat qilinib, transkripsiya aniqlik darajasi o'rganildi.

NATIJALAR

Kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, shovqinsiz muhitdagi ma'ruzalar va televideniye chiqishlari nisbatan oson transkripsiyalanadi. Bir soatlik bunday audio materialni to'liq matnga aylantirish o'rtacha 3-4 soat vaqt oladi. Tez aytiladigan yoki turli dialektal unsurlar ko'p bo'lgan bozor nutqi singari norasmiy suhbatlarda esa xatoliklar soni ortishi kuzatildi va bir soatlik material uchun taxminan 5-6 soat sarflandi. Lotin alifbosida cho'ziqlik va unli-almashinuvlarni ifodalash muayyan muammo tug'diradi, chunki "aa" yoki "uu" shaklida yozish natijasida ba'zan orfoepik noaniqlik, transkripsiyada uzun unli yoki cho'ziq tovushni qay darajada izchil ko'rsatishni belgilash qiyin bo'ladi. Norasmiy so'zlashuvlarda "bir narsa" o'rniga "binnarsa" shaklida yozilgan hodisalar ham uchraydi, bu nutq tezligining o'zgarishi va undoshlarning ketma-ketligi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Ekspertlarning takroriy tekshiruvida transkripsiyaning o'rtacha 96-97 foiz mosligi aniqlandi, ya'ni mutaxassislar jarayonning ancha barqaror va xatosiz kechganini e'tirof etdilar. Avtomatik tanish tizimlari ma'ruza kabi aniq talaffuz bilan aytilgan matnlarda 85-

90 foiz ishonchlilikni ko'rsatdi, ammo dialektal yoki tezkor nutqlarda xato miqdori ko'payib, 65-70 foizlargacha pasayib ketdi. Shu bois bu tizimlar hozircha yordamchi rolni bajara olishi, ammo aniq ilmiy transkripsiya uchun, ayniqsa dialektal uslubda, yetarli darajada to'g'ri natija bermasligi ma'lum bo'ldi.

MUNOZARA

Olingan natijalar asosida transkripsiya jarayonining lotin alifbosi bilan integratsiyasi adabiy me'yordagi nutqlarni qayta ishlashda samarali ekani, biroq dialektal ko'rinishlar yoki tez gapirish, cho'ziqlik, undoshlarning tushib qolishi kabi fonetik jarayonlarda hali ham maxsus yechimlar zarurligini ko'rsatdi. Cho'ziqlikni "aa" yoki "oo" shaklida ko'rsatish, kirik hodisalarini aniq yozish (masalan, "bir narsa" o'rniga "binnarsa") bir tomondan haqiqiy talaffuzni aniqlashda yordam bersa-da, adabiy normalardan ancha chetga chiqishni talab qiladi. Shu sababli transkripsion maqsadga mos metod va maxsus sharhlar ishlab chiqilishi zarur. Avtomatik nutq tanish texnologiyalarining texnik qobiliyati dialektal xususiyatlar bilan to'lib-toshgan matnlarda cheklangan bo'lib qolayotgani aniqlik darajasiga ta'sir ko'rsatdi. Shu bois asosiy bosqichda transkripsiya har holda qo'lda yoxud yarim-avtomatik usulda olib borilishi kerak. Lotin alifbosining texnik amaliy qulayligi shubhasiz. Zero o'zbek tili hujjatlari, matbuoti, rasmiy yozishmalarida keng joriy bo'lgan. Biroq bu alifboni chuqur fonetik transkripsiya darajasida qo'llash uchun qo'shimcha diakritik belgilardan yoki sharhlardan foydalangan ma'qul bo'ladi. Xususan, cho'ziqlik yoki almashinuv kabi jarayonlar maxsus indekslar yoki sharh orqali ifodalansa, transkripsiyaga xos aniqroq ko'rsatkichlar yaratiladi. Shunday shaklda audiomatnlar raqamli formatlarda keng o'rganilishi va korpuslar vujudga kelishi o'zbek tili bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlarni tashkil etish imkonini beradi.

XULOSA

Mazkur ilmiy tadqiqot audiomatnlarni transkripsiyalash bosqichlarini lotin alifbosi asosida tahlil qilishga qaratildi. Dastlab audiofayllarni sifati yaxshilash, so'ngra dastlabki va kengaytirilgan transkripsiya bosqichlarini o'tkazish, tahrir va verifikatsiya orqali asosiy bosqichlar belgilab chiqildi. Rasmiy-adabiy nutqni transkripsiyalash o'rtacha 3-4 soat vaqt talab qilsa, norasmiy suhbatlarda 5-6 soat sarflandi. Ekspertlar taqqoslashida 96-97 foiz moslik aniqlandi. Avtomatik tanish tizimlari ma'ruza va aniq talaffuz namunalari uchun maqbul, ammo dialektal va tezkor nutqlarda noto'g'ri natijalar ko'p uchradi. Olingan natijalar transkripsiya jarayonining lotin alifbosiga tayanishida qulaylik, lekin cho'ziqlik va fonetik o'zgarishlarni aynan yozib chiqish davrida muayyan e'tibor talab etilishini ko'rsatdi. Kelgusida cho'ziqlik, kirik hodisalarini, dialektal almashinuvlarni standartlashtirish, umumiy metodologiyani takomillashtirish hamda malakali dasturiy avtomatlashtirish usullarini joriy etish zarurligi ma'lum bo'ldi. Shu tariqa, audiomatnlarni transkripsiyalash bo'yicha yaratiladigan yondashuvlar o'zbek tili korpuslarini boyitish, lingvistik tadqiqotlarga keng imkoniyat yaratish va texnik innovatsiyalar bilan uyg'un ishlashga zamin hozirlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonova N. Kompyuter lingvistikasi. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. –394 b.
2. Turdialiyev A. Denov shevasini areal o'rganish va til korpusiga joylashtirish: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) avtoref. – Toshkent, 2024.
3. Abdurakhmonova, N., & Urdishev, K. (2019). Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. *Journal of Foreign Language Teaching and Applied Linguistics (J-FLTAL)*, 6(1-2019), 131-7.
4. Abdurakhmonova, N. (2019). Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In *of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All)* (pp. 1-4).

5. Azizbek, V. (2024). JAHON KORPUS LINGVISTIKASIDA DIALEKTAL KORPUSLAR. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 71-74. <https://uzbekcorpus.uz/>

NUTQNING SOFLIGINI BUZUVCHI OMILLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH USULLARI

Tillabayeva Gulruh Soxibbek qizi

Farg'ona davlat universiteti ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada nutqning kommunikativ sifatlari, nutqning sofligi, nutq sofligini buzuvchi omillar, fonetik-orfoepik xatoliklar, dialektizmlar, varvarizmlar, jargonlar, parazit soʻzlar, vulgarizmlar, konselyarizmlar, adabiy til meʼyorlari, oʻqituvchi-pedagoglar nutqiga qoʻyiluvchi talablar, „Davlat tilida ish yuritish toʻgʻrisida” gi qonun, „Davlat tili toʻgʻrisida” gi qonun, nutqning sofligini buzuvchi omillarni bartaraf etish va bu sohada olib borilayotgan chora-tadbirlar toʻgʻrisida soʻz boradi.

Kalit soʻzlar: nutqning kommunikativ sifatlari, nutqning sofligi, dialektizmlar, varvarizmlar, jargonlar, vulgarizmlar, parazit soʻzlar, konselyarizmlar, sinonimlar, „Davlat tili toʻgʻrisida” gi qonun, badiiy asarlar, adabiyot, adabiy nutq, milliy til.

Abstrakt: In this article, communicative qualities of speech, purity of speech, factors that destroy the purity of speech, phonetic-orphoepic errors, dialectisms, barbarisms, slangs, parasitic words, vulgarisms, conciliarisms, standards of literary language, requirements for the speech of teachers and pedagogues, „Law on conducting business in the state language”, „Law on the state language”, a word about the elimination of factors that violate the purity of speech and the measures taken in this area goes.

Keywords: Communicative qualities of speech, purity of speech, dialectisms, barbarism, slangs, vulgarisms, parasitic words, conciliarisms, synonyms, „Law on the state language”, works of art, literature, literary discourse, national language.

Inson zoti biz yashayotgan sayyoradagi yagona ongli mavjudot hisoblanadi. Uning boshqa jonzodlardan farqi soʻzlay olishida va odob-axloq doirasida oʻzini tuta bilishidir. Gapirganda ham soʻzlarni oʻz oʻrnida ishlata bilishi, tinglovchining holatiga, nutq sharoitiga eʼtibor berishi lozim. Nutqning kommunikativ qoidalariga amal qilish faqatgina davlat idoralarida, diplomatik aloqalarda kerak deb oʻylash bizning eng birinchi xatomiz sanaladi. Oʻz tilimizga nisbatan hurmat-eʼtibor koʻrsatishimiz, uning jozibasini, mazmun-mohiyatini anglashimiz uchun qilinishi kerak boʻlgan birinchi vazifa til imkoniyatlaridan toʻgʻri foydalanishdir.

Nutqning asosiy talablaridan biri uning sof boʻlishidir. Nutqning sofligi deyilganda, adabiy til meʼyorlariga amal qilingan ifoda tushuniladi. Baʼzida uchrab turuvchi til uchun begona boʻlgan unsurlar, axloq normalariga toʻgʻri kelmaydigan soʻzlar nutqning sofligiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Bunday soʻzlarni ishlatilish usuliga koʻra bir necha guruhlariga ajratamiz:

1. Gaplarda soʻz va qoʻshimchalarning notoʻgʻri qoʻllanilishi;
2. Shevaga oid soʻz va iboralarning, soʻz birikmalarining ishlatilishi;
3. Varvarizm – oʻrinsiz qoʻllangan chet soʻz va soʻz birikmalari;
4. Jargonlar;
5. Vulgarizmlar;
6. Parazit soʻzlar;
7. Kanselyarizmlar

Madaniy nutq qoidalarini, tilnin sofligini buzuvchi nome'yoriy unsurlarning birinchisi fonetik-orfoepik jihatdan so'z va qo'shimchalarning noto'g'ri ishlatilishidir. Tomni usti, kiyimlarim uyga turibdi kabi. Aslida tomning usti, kiyimlarim uyda turibdi shaklida bo'lishi kerak. Bir qaraganda bir-biriga o'xshash ko'rinadigan bu qo'shimchalarning imlosi tubdan farq qiladi. Bundan tashqari sinonim bo'lgan so'zlarning o'rin almashinishi ham nutqning mazmuniga putur yetkazadi. Masalan yuz so'zini olaylik. Uning bet, aft, bashara, turq, oraz, uzor, jamol, chehra singari ma'nodoshlari bor. Bu so'zlar turli hissiy-emotsional bo'yoqdor so'zlar hisoblanadi va har birining qo'llanish usuli bor. Jumladan, jamol, chehra so'zlari ijobiy, turq, bashara, aft so'zlari salbiy, oraz, uzor so'zlari tarixiy, yuz, bet so'zlari esa dominanta, ya'ni, barcha shaklda qo'llana oladi. Ularning o'rni almasha, gap ma'nosida ham g'alislik paydo bo'ladi. Masalan jamoling qurisin, basharangdagi dona xoling o'zingga juda yarashadi kabi gap ma'nosi o'zgaradi.

Nutqning sofligini buzuvchi ikkinchi omil – bu dialektizmlar, ya'ni shevaga oid so'zlar hisoblanadi. Biz uyda, ko'cha-ko'yda, yoki qarindosh va do'stlar orasidagi suhbatlarda shevadan foydalansak bo'ladi, lekin ta'lim- tarbiya ishlarida, rasmiy tadbirlarda, ish va o'qish jarayonlarida shevaga oid so'z va unsurlarning ishlatilishi nutqimizning sofligiga ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa o'qituvchi-pedagoglar, davlat organlari ishchilaridan adabiy tilda so'zlashish talab etiladi.

Varvarizmlar – chet so'zlar, adabiy tilimiz uchun begona bo'lgan so'zlarni ishlatish ham nutqning sofligiga putur yetkazadi. O'rinsiz ishlatiladigan bu so'zlar boshqa tillarga mansub bo'lib, bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlar, migratsiya, tijorat va boshqa yo'llar orqali nutqimizga kirib kelmoqda. Masalan ok, okey, malades, obshi, pajalista, vabshe singari so'zlar o'zbek adabiy tili uchun xos bo'lmagan so'zlardir.

Jargonlar. Ayrim kasb egalari yoki guruhlarining o'zlari o'ylab topgan „tili“ bo'lib, faqat ular uchun tushunarli bo'lgan terminlar jargonlar deyiladi. Jargonlar ma'lum guruhga mansub kishilar o'rtasidagi sun'iy til hisoblanadi. Masalan pul so'zi o'g'rilar tilida mullajiring, aqcha qassoblar tilida soqqa tarzida ishlatiladi. Biz badiiy asarlarda bunday so'zlarga ko'p marotaba duch kelganmiz. Bunday so'zlarni qo'llash orqali yozuvchi qahramonlar va ularning atrofidagi muhitni haqqoniy tarzda tasvirlab beradi.

Nutqning sofligini buzuvchi omillardan yana biri vulgarizmlar hisoblanadi. Vulgarizm so'zi lotinchadan olingan bo'lib, dag'al, qo'pol degan ma'noni bildiradi. Vulgarizmlarga adabiy tilga xos bo'lmagan qo'pol so'zlar, so'kish, qarg'ish, haqorat so'zlar kiradi. Bu so'zlarni ishlatish nafaqat odob-axloq qoidalariga balki qonun-qoidalarga ham ziddir.

Insonlar nutqida uchrovchi ortiqcha takrorlar, pauzalar, duduqlanishlar ham nutqning sofligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ular gapirayotgan gapimizni saviyasiz va mantiqsiz qilib qo'yadi. Bunday nutq tinglovchini zeriktiradi, matnning mazmuniga putur yetkazadi. Xo'p, mayli, haligi, anovi, masalan, aytganicha, menimcha, uni-buni, nimaydi, ehh, uhh, uff, balki singari so'zlar insonlar nutqida ko'p takrorlanaversa, bu holat ham nutqning sifatiga ta'sir o'tkazmay qo'ymaydi. Buning oldini olish uchun ko'proq kitob mutolaa qilish, adabiy so'zlashuv ustida mashq qilish tavsiya etiladi.

Konselyarizmlar – rasmiy nutqlarda, yozishmalarda ishlatiladigan so'z va so'z birikmalari hisoblanadi. Ularni ishlatish ham nutqning sofligiga putur yetkazadi.

Nutqimizni adabiy til me'yorlariga rivoya qilish, so'zlarning yangi ma'nolaridan foydalanish, badiiy-uslubiy jihatdan boyitish orqali ta'sirchan qilishimiz mumkin. Buning uchun ko'proq badiiy asarlar o'qish, so'zlarning imlosiga, izohiga ahamiyat qaratish lozim. Bugungi kunda nutqning sofligini buzuvchi omillarni bartaraf etish yuzasidan bir qator chora-tadbirlar olib borilmoqda. Jumladan, o'zbek va jahon adabiyotidagi asarlar nashrlari ko'paytirildi. „Davlat tilida ish yuritish asoslari“ qo'llanmasi ishlab chiqildi. „O'zbekiston Respublikasi Davlat tili to'g'risida“ gi qonunning ijrosi ta'minlandi.

Tilning sofligini saqlash va uni buzuvchi unsurlarning oldini olish uchun yana qator vazifalarni bajarish kerak deb hisoblayman. Jumladan:

- Chet el asarlarini, kinofilmlarini, multfilmlarini o'zbek tiliga tarjima qilayotganda, tilimiz uchun tushunarsiz va mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan so'zlarni tilimizdagi ijobiy variantiga almashtirishni nazoratga olish;

- Jahon ilmiy asarlari va ensiklopediyalaridagi qiyin so'z va terminlarning tilimizdagi muqobil variantini ishlab chiqish;

- Maktab va universitetlarda imlo lug'ati va izohli lug'atlar asosida yangi darslar tashkil qilish;

- Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun adabiy til me'yorlarini oson tushuntirib beruvchi ko'rgazmali darsliklar va multfilmlar yaratish;

- Adabiy til me'yorlari va nutqning sofligini o'rgatuvchi turli darslik, qo'llanma va videolavhalar tanlovlarini muntazam o'tkazib turish.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, adabiy til me'yorlariga amal qilish, milliy til va nutqimizni boyitish, o'zbek tilining jozibasini ochib berish va tilimizning sofligiga putur yetkazuvchi omillarni bartaraf etish uchun kurashish shu tilda so'zlashayotgan barcha insonning burchidir. Navoiy, Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Bobur, Furqat-u Mashrablardan meros bo'lib kelayotgan ona tilimizning so'z zaxirasi juda ulkan. Faqat uni o'qib-o'rganishva boshqalarga o'rgatish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA "SHAXS" TUSHUNCHASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 182-196.

2. Tillaboyeva, G., & Umarova, N. R. (2021). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BADIY TAXALLUSLARNING QO'LLANILISHI. *Студенческий вестник*, (13-5), 70-72.

3. Tillaboyeva, G. S. Q. (2022). TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI. *Scientific progress*, 3(4), 506-514.

4. Tillaboyeva, G. S. (2023). FORMATION STAGES OF ANCIENT PERIOD DRESSES. *International journal of advanced research in education, technology and management*, 2(2).

qizi Tillaboyeva, G. S. TILSHUNOSLIKDA LIBOS NOMLARI

TILSHUNOSLIKDA LINGVISTIK BELGI IFODASI

Nurmatova Sadbarxon Erkinovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'limi Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada tilshunoslik sohasida qo'llaniladigan pragmatika tushunchasi, mohiyati, tilshunoslik taraqqiyotining keyingi davrlarida pragmatikaning semiotik hodisalar qatoridagi o'rnini aniqlash, uning lisoniy faoliyatda ustuvorligini asoslash, til birliklarining semantik strukturasi tekshirish va uslubiy-semantik ma'nolarini chegaralash kabi qator masalalar turli ilmiy tadqiqotlarning o'rganish borasidagi ilmiy tadqiqot ishlar va ularning mazmuni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, antropotsentrik paradigma, sistem-struktur paradigma, til, belgi, sistema, belgilar sistemasi, lingvistik semantika, shaxs omili, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik paradigma.

Jahon tilshunosligida matnni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish asosan lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatik paradigma asosida o'rganish asosan lingvistik semantika, lingvokognitologiya, psixolingvistika,

lingvokulturologiya, pragmatik tilshunoslikka oid tadqiqotlarda ko'zga tashlanadi. Xususan, N.Xomskiy, U.Cheyf, B.A.Serebrennikov, L.V.Shcherba, Yu.N.Stepanov, I.R.Galperin, N.I.Karaulov, N.I.Jinkin, A.A.Leontev, J.Lakoff, T.A.van Deyk, A.Vejbiskaya, Ye.S.Kubryakova, E.Rosh, V.P.Belyanin, V.Z.Demyankov, V.A.Maslova, T.M.Dridze, K.F.Sedov kabi tilshunoslarning ishlarida til tizimi shaxs omili bilan bog'liqlikda tadqiq etilgan.

Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til egasi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o'zida va o'zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi⁷⁸. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalardan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi, kuch oldi⁷⁹. Ushbu so'z yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum – markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan⁸⁰. Antropotsentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining “Inson – koinot markazidir” degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya ayniqsa, O'rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi⁸¹. Antropotsentrik paradigma tilni immanent tarzda, ya'ni o'z egasidan ayro holda tadqiq etishga antipozitivistik qarashlarning yuzaga kelishi natijasida shakllandi⁸².

Professor Sh.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem-struktur yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalishlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarning yaratilishiga sabab bo'ldi”⁸³. Professor N.Mahmudov esa tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritarkan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday obyektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmadagi inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Inson o'zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida uning unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalanadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi⁸⁴.

Tilning belgilar sistemasini ekani uning asosiy xususiyati va universal tomonidir. XIX asrdagi belgilar sistemasiga bag'ishlangan falsafiy asarlar orasida Ch.S.Pirsning asari alohida ajralib turadi. Semiotikaning asoschisi sanaluvchi Ch.Morrisning Ch.S.Pirs qarashlariga tayanishi ham bejiz emas. Garchi F.de Sossyurning «Umumiy lingvistika kursi» asarida Ch.S.Pirs asarlariga ishora sezilmasa ham, ammo bu ikki olimning belgilar haqidagi qarashlarida bir-biriga juda o'xshashlik bor. Shuning uchun R.O.Yakobson: «Ikki olimning belgilar sistemasini o'rganishdagi harakatida qandaydir genetik aloqa bormi yoki fikriy muvofiqlikni uchratamizmi, degan masalani hal qilish juda qiziqarli bo'lar edi», degandi⁸⁵.

Ch.Pirs belgilarni birinchi marotaba tasnif qiladi. U tasnifda belgining moddiy tomoni –

⁷⁸ Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

⁷⁹ Бу ҳақда қаранг: Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3., Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С.

⁸⁰ Farzad Sharifian. Cultural Conceptualisations and Language. Amsterdam, Philadelphia 2011. P.5

⁸¹ Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Кўрсатилган асар. – Б. 8.

⁸² Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012. 3-жилд. – Б. 262-263.

⁸³ Лутфуллаева Д. Тасдиқ гапларда шаклий-мазмуний номувофиқлик. – Тошкент, Фан, 1997. – 55 б.

⁸⁴ Қаранг: Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16..

⁸⁵ Нурмонов А. Танланган асарлар. 3 жилдлик. – Тошкент: Академнашр, 2012. 3-жилд. – Б. 262-263.

ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasidagi farqlanishga asoslanadi. Ana shu belgi asosida Ch.Pirs belgilarni uch katta guruhga ajratadi:

1. Sanam belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi ma'lum darajada ifodalanmish bilan o'xshashlikka ega bo'ladi (masalan, hayvonlarning tasvir belgisi sifatida aks ettirilishi).

2. Indeks belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi ifodalanmish bilan sabab-natija yoki boshqa munosabat (yaqinlik, makon va zamondagi bog'liqlik va h.k.) orqali bog'lanadi. Masalan, tutun olovning indeks belgisi sanaladi.

3. Simvol belgilar. Bunday belgilarda ifodalovchi bilan ifodalanmish o'rtasida shartli, konvensional, motivlanmagan munosabat mavjud bo'ladi. Bu munosabat erkin va ma'lum qoida asosida vujudga keladi. Ana shu jihatdan lingvistik belgilar simvol belgilarga o'xshaydi. Lekin belgilar tipologiyasida alohida o'rin egallaydi⁸⁶.

Motivlanmagan belgilar ichida lingvistik belgi alohida o'rin tutadi. Lingvistik belgilar konvensionalligi bilan motivlanmagan barcha belgilar bilan umumiylikni hosil qilsa-da, ammo axborot tashish imkoniyatining kengligi, diskretligi, akustikligi, ko'psathliligi va bu sath birliklari o'rtasidagi pog'onali (ierarxiyali) munosabatning murakkabligi bilan boshqa motivlanmagan belgilardan farqlanadi. Shuning uchun lingvistik belgi alohida tipdagi belgidir. F.de Sossyur ham lingvistik belgining qurilish modelini tavsiya etib, uning ikki asosiy tamoyilini belgilaydi⁸⁷: ifodalanmishning erkinligi va ketma-ketligi.

Birinchi tamoyil ifodalovchi va ifodalanmish o'rtasidagi munosabat asosida belgilanadi. Bu o'rinda erkinlik atamasining ma'nosiga alohida ahamiyat berish lozim. Garchi lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish tomoni o'rtasidagi munosabat erkin bo'lsa-da, lekin bundan so'zlovchi belgining ifodalovchi tomonini erkin tanlaydi, degan xulosaga kelmaslik lozim.

So'zlovchi lingvistik belgining jamoatchilik tomonidan qabul qilingan ifodalovchi tomoniga ozgina bo'lsa-da o'zgarish kiritolmaydi. U o'zining til xotirasida o'zigacha bo'lgan ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan lingvistik belgini bir butun holda o'zlashtiradi.

Lingvistik belgining erkinligi faqat uning ifodalovchi tomonining ifodalanmish tomoniga nisbatandir. Chunki bu ikki tomon o'rtasida hech qanday tabiiy aloqa yo'q. Lingvistik belgining ikkinchi tamoyili ifodalovchining ketma-ketligidir. F.de Sossyur asarida mazkur tamoyil birinchi tamoyilga nisbatan kamroq o'rin olgan bo'lsa ham, lekin unga katta ahamiyat berildi.

Ifodalovchi o'z tabiatiga ko'ra eshitish sezgisi orqali qabul qilinish xususiyatiga ega bo'lgani tufayli vaqtda kengayib boradi. Shuning uchun u vaqt belgisiga ko'ra tavsiflanadi: a) u cho'ziqlik belgisiga ega; b) cho'ziqlik bir o'lchovli sanaladi.

Lingvistik belgining ketma-ketligi uning boshqa belgilar bilan sintagmatik munosabatini ko'rsatadi. Lingvistik belgining mazkur xususiyati til va nutq aloqasiga ham ishora qiladi.

Lingvistik belgining uchinchi xususiyati ham mavjud. Bu ifoda tomonining diskretligi, ya'ni mayda elementlarga ajralish xususiyatidir. Diskretlik lingvistik belgining ketma-ketlik xususiyati bilan uzviy bog'liq. Nutqiy jarayonda o'zaro ketma-ket qo'llanuvchi lingvistik belgilar parchalanish xususiyatiga ega. Ifodalovchi tomondan bo'linishning eng kichik parchasi tovush sanaladi. Shuningdek, belgi ifodalanmish tomonidan ham parchalanish xususiyatiga ega.

Tilshunoslikda tilning belgilar sistemasi ekaniga ikki xil yondashuv bor. Ularning birinchisi tilning belgilar sistemasi ekanini umuman rad etadi. Bu nazariya marksistik falsafaga zid idealistik nazariya sifatida baholanadi. Xususan, L.O.Reznikovniig dastlabki asarlarida ushbu nuqtai nazar yorqin aks etadi. Uning fikricha, tilshunoslikda agnostitsizm, birinchi navbatda, tilning belgilar sistemasi ekani hakidagi nazariyada ifodalanadi. In'ikos nazariyasiga asoslangan

⁸⁶ Kўrsatilgan asar. 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild. – B. 262-263.

⁸⁷ Ф.де Соссюр. Курс общей лингвистики (извлечения) // Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. – М., 1956. – С.101., Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. – М.: Прогресс, 1977. – 696 с. <http://www.philol.msu.ru>sa>

dialektik materialistik ta'limot agnostitsizmning mazkur ko'rinishini keskin tanqid qilish lozimligini ta'kidlaydi. Lingvistik belgi haqidagi nazariya g'ayriilmiy nazariyadir. U tilshunoslikka eng zararli agnostik qarashlarning kirib qolish vositasidir, shuning uchun uni fosh qilish va rad etish zarur, deydi⁸⁸.

R.A.Budagov ham lingvistik belgi haqidagi nazariyani inkor etadi. U har qanday milliy til ma'lum ifodalar sistemasigina emas, balki bu tilda muloqot qiluvchilarning barcha faoliyatini o'ziga xos aks ettirish natijasi hamdir, deydi. Uning ta'kidlashicha, tilning belgili tabiati konsepsiyasi milliy tillar tabiatini, shu bilan birga, lingvistikani ham nihoyatda kambag'allashtiradi⁸⁹.

Dunyo tilshunosligida pragmalingvistika, diskursiv tahlil, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi sohalarining yuzaga kelishi va rivojlanishi qator til birliklari talqinida ham jiddiy nazariy qarashlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Xususan, matn tahliliga antropotsentrik nuqtai nazardan yondashish bugungi tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Murakkab va serqirra hodisa hisoblangan matn tadqiqida so'zlovchi – matn – tinglovchi (matn muallifi – matn – resipient) dan iborat uchlik asosiy obyekt bo'lishi lozimligi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanmoqda⁹⁰. Matn tadqiqiga oid ishlarda uni yaratuvchi shaxsga e'tiborning qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalingvistika yo'nalishidagi tadqiqotlarda ko'zga tashlangan bo'lsa, bugungi kunda shiddat bilan rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik, funksionalizm, etnolingvistika, lingvokulturologiya, diskursiv tahlil kabi sohalar ushbu masalani tilshunoslikning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi.

Abdulhamid Nurmonov tilning belgilar sistemasi ekanligi barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa-da, o'zbek tilshunosligida belgi nazariyasi haqidagi qarashlar jamlangan yaxlit asar yo'qligi va shunga ko'ra ayrim tilshunoslar belgi haqidagi ta'limotni noto'g'ri talqin etayotganliklarini e'tiborga olgan holda, lingvistik belgi va uning turlari, o'ziga xos xususiyatlari: belgining erkinligi va ketma-ketligi, diskretlik xususiyati; o'zgarimaslik va o'zgaruvchanlik jihatlari xususida, shuningdek, uning strukturasi va besh tomoni haqidagi nazariy qarashlarini o'zbek tili materiallari asosida yoritib beradi va bu qarashlar tilshunosligimizdagi ko'p tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovlenie antropotsentricheskoy paradigmi v yazikoznani G'G' Filologicheskie nauki. – Moskva, 2001. – № 1. – S. 64.
2. Demyankov V.Z. Kratkiy slovar kognitivnix terminov. Sostaviteli: Kubryakova Ye.S., Demyankov V.Z., Pankras Yu.T., Luzina L.G. – M.: MGU im. M.V.Lomonosova, 1997. – S. 47.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Academia, 2001. – S. 17;
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... G'G' O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild. – S. 17.

⁸⁸ Qarang: Ma'xudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5. – B. 3-16., Gorelov I.N., Sedov K.F. Osnovy psixolingvistik: Ucheb. posobie. – M.: Labirint, 2001. – S. 4., Demyankov V.Z. K'rsatilgan maqola., Kratkiy slovar kognitivnix terminov. Sostaviteli: Kubryakova E.S., Demyankov V.Z., Pankras Yu.T., Luzina L.G. – M.: MGU im. M.V.Lomonosova, 1997. – S. 47.

⁸⁹ Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild. – S. 59.

⁹⁰ Demyankov V.Z. K'rsatilgan maqola., Kratkiy slovar kognitivnix terminov. Sostaviteli: Kubryakova E.S., Demyankov V.Z., Pankras Yu.T., Luzina L.G. – M.: MGU im. M.V.Lomonosova, 1997. – S. 47., K'rsatilgan lugat. – B.51., Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild. – S. 17.

6. Pimenova M.V., Kondrateva O.N. *Konseptualnie issledovaniya. Vvedenie.* – M.: Flinta, 2014.
7. Safarov Sh. *Kognitiv tilshunoslik.* – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 91.

TILNING SEMIOTIK DUNYOSI

X.Shokirova

filologiya fanlari doktori, professor

Nurmatova Sadbarxon Erkinovna

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'limi Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Annotasiya: mazkur maqolada semiotika yillar davomida fanlar shohi bo'lib kelayotgani, u haqdagi tadqiqotlar bardavom sanalib, ochilmagan qirralari yoritilishi natijasida soha yanada yosharib, yangi tadqiqotlarga beshik bo'layotgani, belgilar sisteması haqidagi fan ekanligi yoritilgan. Shunga ko'ra semiotika belgilar sistemasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni o'rganadi. Semiotika belgilarni, belgilar sistemasiga kiruvchi hodisalarning tildagi ifodasini aniqlaydi.

Annotation: This article highlights how semiotics has long held the status of the "queen of sciences," with continuous research shedding light on its unexplored aspects. As a result, the field continues to evolve and inspire new studies. The article emphasizes that semiotics is a science concerning systems of signs. Accordingly, semiotics studies the general characteristics typical of sign systems. It identifies signs and the linguistic expression of phenomena within these systems.

Kalit so'zlar: semiotika, belgi, sistema, borliq, inson, til, ob'ekt, predmet, muloqot, belgilar nazariyasi, ta'limot, sezgi, idrok, tafakkur, voqelik, ramz.

Keywords: semiotics, sign, system, existence, human, language, object, subject, communication, theory of signs, doctrine, perception, cognition, thinking, reality, symbol.

Til butun dunyo xalqlarining kommunikativ ehtiyoji sanalib, ijtimoiy, ma'naviy- ma'rifiy borliqni bilishning, idrok etishning eng birinchi quroli – vositasi bo'lib xizmat etadi. Inson hayotida muloqot mazmuni, maqsadi va uning natijasi asosiy omildir. Zero, muloqotning mazmunli va maqsadli tashkil etilishi uning natijaviyligini ta'minlab beradi. Til borliqni idrok va ifoda etish qurolidir. Ma'lumki, bilish faoliyati insonning voqelikni bevosita sezishi, his etishi, idrok etishi bilan boshlanadi. Sezgi idroki tafakkurda voqelik ramzining shakllanishi uchun zamin tayyorlaydi. Til barcha sohalarning negizi hisoblanadi. Sababi, biz tafakkurimizdagi mahsulni, har bir fikr va yangilikni til orqali vujudga keltiramiz. Borliq insonni qanchalik hayratga solsa, uni o'rganish va izlanishga bo'lgan ehtiyoji ham shunchalik orta boradi. Borliqaro mavjud bo'lgan insonning o'z-o'zini o'rganishi esa borliq bilan o'zining aloqasi, munosabatlarining cheksizligida namoyon bo'ladi. Inson ongli mavjudot va o'zidagi imkoniyatlarning barchasidan hali to'liq voqif bo'lmagan xilqatdir. Borliq va odam, hayot va inson, jamiyat va shaxs tushunchalari to'la-to'kis poyoniga etmagan, ular har bir fan uchun asosdir. Fanlararo ko'hna hisoblangan semiotika necha asrlardan buyon inson tafakkuri va idrokida sayqallanib, qancha-qancha tadqiqu tahlillar asnosida shakllanib kelmoqda. Semiotika yillar davomida fanlar shohi bo'lib keldi. U haqdagi tadqiqotlar bardavom sanalib, ochilmagan qirralari yoritilishi natijasida soha yanada yosharib, yangi tadqiqotlarga beshik bo'layotgani bejiz emas, albatta.

Semiotika (yunoncha, semeiotikos – “belgilar haqidagi ta'limot”), ya'ni semiologiya, birinchidan, axborot, ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o'rganadigan fan sohasi hisoblansa, ikkinchidan, u yoki bu

ob'ekt va predmetning bir ma'nodagi semiotika nuqtai nazaridan o'rganiladigan tizimdir, masalan, badiiy asar semiotikasi yoki ma'lum bir jurnal, san'at asari, muayyan xalqdagi muomala-murojaat semiotikasi va boshqalar bunga misol bo'ladi. Semiotika belgilar sistemasini haqidagi fandir. Shunga ko'ra semiotika belgilar sistemasiga xos bo'lgan umumiy xususiyatlarni o'rganadi. Semiotika belgilarni, belgilar sistemasiga kiruvchi hodisalarni, ularning tabiati, mohiyati, turlari, ko'rinishlari, amal qilishi kabi jarayonlarni tekshiradi. Semiotika, aytilganidek, belgilar nazariyasi haqidagi ta'limot bo'lib, uning muayyan yo'nalishi sifatida tilshunoslik va semiotikaning o'zaro maqsadli aloqaga, munosabatga kirishishidan tilshunoslik fanining lingvosemiotika deb ataluvchi sohasi shakllanadi. Demak, til belgilar sistemasini sifatida lingvosemiotikaning tekshirish ob'ekti hisoblanadi, ya'ni lingvosemiotika tilning belgilik tabiatiga egaligini, axborot uzatuvchi til birliklarining xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Ma'lumki, til – til (nutq) birliklari (so'z, so'z birikmasi, gap va boshqalar) muayyan belgilar sifatida ma'no, tushuncha, fikr ifodalaydi. Ular ma'no, tushuncha, fikr kabilarning ramzi yoki belgisi bo'lib hisoblanadi. Shunga ko'ra, Ferdinand de Sossyur til g'oya va fikr ifoda etuvchi belgilar sistemasidir, deydi. Semiotikaning tekshirish ob'ekti jamiyat tomonidan faol qo'llanadigan belgilar sistemasini bo'lib, ular inson paydo bo'libdiki, jamiyatga xizmat qiladi. Boshqacha aytganda, belgilar sistemasini ham jamiyat kabi qadimiydir.

Lingvosemiotik struktura asosini tashkil etayotgan belgi har bir sohani qanday vujudga keltiradi, unga qanday sifat o'zgarishlar kiritadi, semiotik nazariyaning semantika, sintaktika, pragmatika hamda sigmatika sathlarining alohida kategoriya sifatidagi potentsiallari nimalarda ko'rinadi, tilning lingvosemiotik strukturasi qanday shakllanadi tarzidagi savollarga tilning belgilik xususiyatlari nuqtai nazaridan javob topishga harakat qilinadi. Tilni shartli belgilar sistemasini deb hisoblagan F.de Sossurni yoqlab chiqqan Ch.Morris ham tilni umumiylik va xususiylik ko'rinishida bo'lgan fan sifatida e'tirof etadi. Shu sababdan semiotik birliklarni, ya'ni Ch.Pirs ilk bor belgilagan belgilar: sanam (ikonik), indeks va simbol belgilarni lisoniy kontseptsiya sifatida o'rganib, tildagi ifodasini yoritishga harakat qilamiz. Negaki, hayotda uchraydigan ushbu belgilarni har kuni qo'llash doirasida biz ulardan maqsadli foydalanamiz. Maqsadimizni amalga oshirishda ko'mak beradigan, yaqinlik, bog'liqlik asosida ishora beradigan (indeks), shartli farqini ko'rsatadigan (simbol), o'xshashligiga ko'ra ifodalanadigan (sanam-ikonik) belgilar fikrimizni dalillaydi.

Semiotik sath olimlar tomonidan uchga bo'lib o'rganildi. Bular semantika, sintaktika va pragmatikadir. Ushbu paradigma olim G. Klaus sigmatikani kiritganiga qaramay, zamonaviy lingvistika bu fikrni faraz sifatida qabul qildi va mazkur masala to'la-to'kis hal etilmadi. G. Klausning o'zi ham ushbu to'rtinchi paradigmani to'liq asoslay bilmadi. Olmon semiotigi V.Nyot "Sigmatik mezonni ajratib qo'yish – semiotik jarayonning muhim qismi bo'lgan interpretatorning nazardan chetda qolishiga sabab bo'ladi", degan fikri bilan sigmatikani semiotika tarkibiga kirituvchi qarashlarni birinchilardan bo'lib yoqlab chiqdi. T.P.Lomtevning ta'kidlashicha, lingvistik belgi ma'no mohiyatining (signifikat) konventsionalligini emas, balki ob'ektivligini e'tirof etish muhimdir. Belgi ma'nosi va ob'ekt o'rtasida aks ettirish munosabati mavjud. Ko'p hollarda signifikat ob'ektiv olamda korrelyati bo'lmagan, inson tomonidan sun'iy ravishda hosil qilingan timsolni bildirish mumkin: dev, pari, ajina va boshqalar. Bu vaqtda belgida olam qiyofasini ong tomonidan ijodiy to'ldirilgan xayoliy predmetlar aks etadi. Mazkur fikrni olga surgan olim aynan so'zma-so'z bo'lmasa-da, sigmatik mezonning mavjudligiga ishora qiladi. A.Nurmonov risolalarida semiotik belgining to'rt tomoni haqidagi mulohazalarga qo'shiladi, Sh.Safarov esa sigmatikani semiotikaning to'rtinchi qismi ekanligi haqidagi fikrlarni rad etadi. "Fikrimcha, lisoniy belgining 'matnda qo'llanishi' yoki 'nutqiy faollashuvi' degan qo'llanishning har bir konkret misolini nazarda tutmasdan, balki qo'llanish tiplari va alohida tipik holatlari haqida gapirgan ma'qulroqdir. Chunki tipik qo'llanish ma'lum lisoniy jamoada qabul qilingan qonun-qoidalarga, norma shartlariga javob berishi kerak. Demak, lisoniy belgining nutqiy

mazmuni ham struktura va sistem xususiyatlarga ega bo'lgan hodisa sifatida qaralgani ma'qul", deya yozgan olimning sigmatikaga shubha bilan qaragani sezilib turibdi. Ko'rinadiki, tilshunos Sh.Safarovning ham faqat semantika, sintaktika va pragmatika semiotikani tashkil etuvchi qismlar degan fikrda ekanligi anglashiladi. Maqsad, semiotikani uch bo'limdan emas, to'rt – yaxlit va mukammal bo'lim holida o'rganish va taqdim etishdan iborat.

Xullas, til belgilar sistemasi bo'lib, uning belgilar so'z, so'z birikmasi, gap kabi birliklar va ularning turlicha bog'lanishidan tuziladigan konstruktsiyalar lingvistik belgilar sifatida voqelashadi, jamiyatda muayyan ijtimoiy vazifa bajarish uchun xizmat qiladi. Semiotika rivoji yo'lida Ch.S.Pirs, Ch.U.Morris g'oya va qarashlari o'ziga xos nazariyani vujudga keltirdi. Ular tomonidan bir qator risola va monografiyalar dunyo yuzini ko'rdi. Demak, belgilar sistemasi jamiyat bilan birga paydo bo'ladi, unda aks etadi, chunki ular inson faoliyati tufayligina hosil bo'ladi, shu faoliyat orqali harakatga keladi, muayyan vazifa bajaradi, inson faoliyatining natijasi hisoblanadi. Darhaqiqat, inson faoliyati, yashash tarzi, tushunchalari, fikr ifodasi, ma'no – bular hammasi belgi bo'lib, inson hayotini qamrab oladi, uning faoliyat yo'nalishini belgilab beradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики (извлечения) // Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. – М., 1956. – 432 с.
2. Серебрянников Б. Общее языкознание. – М.: Наука, 1970. – 597 с.
3. Степанов Ю. С. Семиотика и Авангард: антология. М.: Академия-Центр. -2000. -С 57.
4. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики (извлечения) // Хрестоматия по истории языкознания XIX-XX веков. – М., 1956. – 432 с.
5. Серебрянников Б. Общее языкознание. – М.: Наука, 1970. – 597 с.
6. Степанов Ю. С. Семиотика и Авангард: антология. М.: Академия-Центр. -2000. -С 57.
7. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. S harfi. – T.: O'zME, 2018. – B 293. www. ziyouz.com kutubxonasi.
8. Shokirova X. O'zbek tilida kesimlik kategoriyasi: shaxs aktanti va uning nutqiy voqelanishi. Filol.fan. nomz.diss.– Toshkent, 2019.– 127 b.
9. Shokirova X. Tilning lingvosemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Filol.fan. doktori diss. – Farg'ona, 2022. – 240 b.
10. Shokirova X. Savodxonlik asoslari. – Farg'ona, Classic. 2023. – 174 b.
11. Shokirova X. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. – Farg'ona, Poligraf Super servis. 2023. – 268 b.
12. Shokirova X. Mazmuniy sintaksis. – Farg'ona, Classic. 2023. – 206 b.

ОБ ОСНОВНЫХ ХАРАКТЕРИСТИКАХ КУЛЬТУРЫ РЕЧИ УЧИТЕЛЯ

Д.М.Газиева

Старший преподаватель ФерГУ

Шарикова Венера

студентка ФерГУ

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные аспекты речевой культуры учителя, ее значение для образовательного процесса и предлагаются рекомендации по повышению речевой культуры учителей начальных классов.

Ключевые слова: речевая культура, языковая грамотность, выразительность речи, адаптация речи.

В современном образовательном процессе речевая культура учителей начальных классов занимает важное место. Она не только обеспечивает эффективное взаимодействие

учителя и ученика, но и выступает образцом для подражания, влияя на развитие и общения у ребенка. Воспитание правильной, выразительной и грамматически выверенной речи у младших школьников невозможно без высокого уровня речевой культуры учителей.

Речевая культура — это комплекс правил и навыков, обеспечивающих правильное, точное, выразительное и уместное использование языка в различных ситуациях общения. Основными компонентами речевой культуры являются грамматическая точность: соблюдение норм грамматики и орфографии; лексическое разнообразие: использование разнообразной лексики, избегая повторов и однообразия; выразительность: использование образных средств языка, интонаций и жестов для передачи своих мыслей и чувств; интонационная гибкость: умение изменять тон и темп речи, подчеркивая важные мысли и выражая эмоции. Речь учителя начальных классов служит примером для учеников, поэтому педагог должен обладать высокой речевой культурой. Это необходимо для:

- Формирования у детей норм правильной речи.
- Развития их коммуникативных навыков.
- Создание благоприятной учебной атмосферы.

В фильме "Доживем до понедельника" (1968) уже поднималась проблема речевой культуры педагогов. В одной из сцен молодая учительница жаловалась коллеге на учеников, употребляя некорректную форму глагола: "Я им говорю: не кладите зеркало на парту...". К сожалению, и сегодня эта проблема актуальна. Даже в речи участников конкурса "Учитель года" встречаются ошибки, такие как слова-паразиты, неверное словообразование и неправильное ударение.

Между тем, речь учителя – это важнейший инструмент в его работе и пример для подражания для учеников.

Что же подразумевается под "культурой речи"? Однозначного определения нет. Л.И. Скворцов определяет это понятие как владение нормами литературного языка (произношение, грамматика, словарный запас и т.д.) и умение эффективно использовать языковые средства в различных ситуациях общения, учитывая цели и содержание высказывания.

Для повышения культуры речи необходимо знать и соблюдать нормы литературного языка, которые подразделяются на: орфоэпические и акцентологические (для устной речи), орфографические и пунктуационные (для письменной речи), а также лексические, словообразовательные, синтаксические (грамматические) и стилистические, применимые как в устной, так и в письменной форме.

Для эффективного формирования у детей правильной речи учитель должен знать и соблюдать нормы грамматики и орфографии, обладать богатым словарным запасом, уметь использовать образные средства языка, интонации и жесты, уметь адаптировать свою речь к возрасту и уровню подготовки учащихся.

Речь учителя выполняет не только образовательную, но и воспитательную функцию. На начальном этапе обучения дети особенно восприимчивы к манере речи педагога, его языковым и интонационным особенностям. От культуры речи учителя во многом зависит успех в формировании правильного языкового восприятия и навыков общения у учеников.

Компонентами культуры речи учителя начальных классов являются

Языковая грамотность: соблюдение орфоэпических, лексических и грамматических норм языка

Выразительность речи: использование выразительных средств: интонация, темп, паузы, удержание внимания учеников, содействие лучшему пониманию материала

Умение адаптировать речь: формулирование мыслей понятным и интересным для детей способом, учет возрастных и когнитивных особенностей младших школьников

Культура речи учителя не только помогает учащимся усваивать учебный материал, но и закладывает основы их речевой культуры, способствует развитию критического мышления и формированию личности. Учитель, использующий богатый, точный и эмоционально окрашенный язык, формирует у детей положительное отношение к языку и общению, что способствует их общему интеллектуальному и эмоциональному развитию.

Культура речи учителя начальных классов — важнейший компонент его профессиональной компетенции. От уровня речевой культуры учителя зависит, насколько эффективно будет организован учебный процесс и в какой степени будут сформированы навыки общения у детей. Высокая культура речи помогает учителю устанавливать доверительные отношения с учащимися, повышает интерес к учебе и способствует всестороннему развитию учеников.

Таким образом, учитель начальных классов, обладающий высокой культурой речи, способствует не только успешному усвоению знаний, но и формированию речевой и коммуникативной культуры своих учеников. Повышение культуры речи учителя должно стать одной из приоритетных задач в системе педагогического образования, поскольку от этого зависит качество и эффективность взаимодействия с детьми.

Список используемой литературы

- Бондаренко, Т. Г. *Психология и педагогика речевого общения*. – М.: Академия, 2003. – 224 с.
- Винокур, Т. Г. *Речевое поведение и речевое общение*. – М.: ЛКИ, 2006. – 356 с.
- Еськова, Н. А. *Культура речи и деловое общение учителя начальных классов*. – М.: Флинта, 2010. – 238 с.
- Рахманова, Л. В. *Культура речи педагога начальных классов*. – М.: ИПЛ, 2015. – 196 с.
- <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/raznoe/2017/10/29/kultura-rechi-uchitelya>
<https://multiurok.ru/files/kultura-rechevogo-povedeniia-uchitelia.html>

PIRIMQUL QODIROV ROMANLARIDA GAVHARSHODBEGIM OBRAZINING TARIXIY VA BADIY TALQINI

To'liqinov Bobirjon Baxtiyorjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola mashhur o'zbek yozuvchisi Pirimqul Qodirovning “Amir Temur siymosi” va “Ona lochin vidosi” romanlarida tarixiy shaxs — Gavharshodbegim obrazining badiiy va tarixiy talqinini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda tarixiy-badiiy, qiyosiy va psixologik tahlil usullari asosida ushbu obrazning estetik va dramatik jihatlari ochib berilgan. Asarlarda Gavharshodbegim turlicha uslubda tasvirlangan: biri tarixiy faktlarga asoslangan rasmiy portret bo'lsa, ikkinchisi onalik kechinmalari va fojiali ruhiy holatlarni aks ettirgan chuqur psixologik obrazdir. Muallif obraz orqali o'zbek ayolining matonatli, fidoyi, ilm-fan homiysi sifatidagi timsolini yaratgan. Mazkur tadqiqot milliy qadriyatlar, tarixiy haqiqat va zamonaviylik uyg'unligini adabiy tahlil orqali ko'rsatishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Pirimqul Qodirov, Gavharshodbegim, tarixiy roman, o'zbek adabiyoti, ayol obrazi, badiiy talqin, psixologik portret, estetik tahlil, tarixiy haqiqat, Ona lochin vidosi, Amir Temur siymosi, milliy qadriyatlar

KIRISH

Adabiyot millat ma'naviyatining eng yuksak ifodasidir. Xalq tarixining eng dolzarb voqealari, ruhiy kechinmalari, ma'naviy qiyofasi badiiy obrazlar orqali asrlar davomida o'z aksini topib kelgan. Ayniqsa, o'zbek adabiyotida tarixiy shaxslar obrazi badiiy talqinning muhim

qismi bo'lib, adibning dunyoqarashi, ijtimoiy pozitsiyasi, estetik qarashlari aynan ana shunday obrazlar orqali namoyon bo'ladi. Pirimqul Qodirov o'zbek adabiyotida tarixiy roman janrining yirik namoyandasi bo'lib, uning "Amir Temur siymosi" hamda "Ona lochin vidosi" kabi asarlarida tarixiy voqealarning badiiy talqini bilan bir qatorda, tarixda chuqur iz qoldirgan siymolar — xususan, Gavharshodbegim obrazining g'oyaviy-estetik yoritilishi alohida e'tiborga loyiqdir.

Gavharshodbegim Amir Temurning nabirasi Shohruh Mirzoning rafiqasi, alloma Mirzo Ulug'bekning onasi, o'z zamonasida davlat ishlarida faol ishtirok etgan ayol arbob sifatida tarixda nom qoldirgan. Pirimqul Qodirov ana shu siymoni ikki asarida har xil uslubda, ammo umumiy ehtirom va chuqur psixologik yondashuv asosida gavdalandirgan. Maqolada Gavharshodbegim obrazining tarixiy haqiqat asosida badiiy talqini, uning Pirimqul Qodirov romanlaridagi dramatik, estetik va g'oyaviy yuklamalari tahlil qilinadi. Asarlar o'rtasida obrazning ifodalanishidagi o'xshash va farqli jihatlar ilmiy asosda yoritiladi.

METODLAR

Tadqiqotda tarixiy-badiiy tahlil, qiyosiy o'rganish, psixologik va estetik yondashuv usullari qo'llanildi. Asosiy material sifatida Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siymosi" va "Ona lochin vidosi" asarlari tanlab olindi. Obraz tahlilida tarixiy faktlar, adibning badiiy ifoda vositalari, obrazning voqealar rivojidadagi o'rni, ichki kechinmalari va dramatik qiyofasi o'rganildi. Bundan tashqari, ayol obrazini ifodalashdagi ramziylik, intertekstual ishoralar, psixologik portretga e'tibor qaratildi. Adabiyotshunoslikka oid ilmiy manbalar, tarixiy hujjatlar va zamonaviy maqolalar qo'llanildi.

NATIJALAR

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Gavharshodbegim obrazi Pirimqul Qodirov asarlarida ikki xil yondashuv asosida yoritilgan: "Amir Temur siymosi"da u tarixiy faktlarga asoslangan siymoni eslatuvchi portret sifatida, "Ona lochin vidosi"da esa dramatik obraz, psixologik murakkab qahramon sifatida aks etgan. Har ikki asarda ham Gavharshodbegim oqila, sadoqatli, ilm-fanga homiylik qilgan, farzandlariga mehribon, saltanat tinchligi uchun kurashgan siymo sifatida gavdalandiriladi. Asosiy farqlardan biri shuki, "Amir Temur siymosi"da Gavharshodbegimning tarixiy lavhalardagi ishtiroki asosida umumiy baholovchi ifoda mavjud bo'lsa, "Ona lochin vidosi"da uning ruhiy holati, ona sifatidagi iztiroblari, nabiralari orasidagi nizolar, fojeali yakun badiiy vositalar orqali kengroq ochib berilgan.

MUHOKAMA

Gavharshodbegim siymosi orqali Pirimqul Qodirov o'zbek ayolining dono, matonatli, fidoyi va mehribon qiyofasini tiklaydi. Bu obraz orqali o'tmish ayollarining nafaqat oiladagi, balki ijtimoiy-siyosiy hayotdagi faol ishtiroki, tarixda tutgan o'rni ko'rsatiladi. Shuningdek, adib obraz orqali ilm-fan homiyliги, ma'naviyatga hurmat, sulola tinchligi va sadoqat kabi qadriyatlarni tarannum etadi. "Ona lochin vidosi"da adib ramziy rivoyatlar, maktublar, dramatik sahnalar orqali Gavharshodbegimning onalik tuyg'ulari va fojiali kechinmalarini tasvirlaydi. Bu esa obrazni o'quvchiga yanada yaqinlashtiradi. Shunday qilib, adib tarixiy haqiqat bilan badiiy tasavvurni uyg'unlashtirib, unutilmas ayol siymosini yaratishga erishgan.

XULOSA

Pirimqul Qodirovning "Amir Temur siymosi" va "Ona lochin vidosi" asarlarida Gavharshodbegim obrazining tarixiy va badiiy talqini bir-birini to'ldiradi. Gavharshodbegim tarixiy shaxs sifatida o'zbek adabiyotida yuksak ruhiy-ma'naviy darajadagi ayol siymosiga aylantirilgan. Bu obraz orqali adib tarix, badiiyat va zamonaviylikni uyg'unlashtirib, o'zbek adabiy tafakkuriga ulkan hissa qo'shgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Gavharshodbegim obrazini o'rganish bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, bu obraz orqali yosh avlodda milliy iftixor, o'zlikni anglash, ona va yurtga sadoqat tuyg'ularini shakllantirish mumkin. Shu bois bu mavzuni yanada kengroq doirada o'rganish, ayniqsa, ayol obrazlarining zamonaviy adabiy talqinlaridagi izchil rivojini tadqiq etish muhimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qodirov P. Amir Temur siymosi. – T.: Sharq, 1995.
2. Qodirov P. Ona lochin vidosi. – T.: Sharq, 2000.
3. Zafarnoma. Sharafiddin Ali Yazdiy. – T.: G'afur G'ulom, 1997.
4. Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – T.: O'zbekiston, 2006.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.
6. Abdurahimov D., Otabekova O.X. Pirmiqul Qodirovning "Ona lochin vidosi" asarida ayol obrazi. – *Komparativistika*, 2022.
7. Eshmatova Y. Istiqloq davri o'zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. – PhD dissertatsiyasi, 2020.
8. "Temur tuzuklari". Forschadan Alixon Sog'unuy va Habibullo Karomatov tarjimasi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot- matbaa birlashmasi- 1991.
9. A.Sagdullayev, B.Aminov, O'.Mavlonov, N. Norqulov "O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti". UNESCO. "Amir Temur jahon tarixida". Toshkent- 2001.
10. Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL" MASHRAB". In Конференции.
11. Mukhammadjonova, G. (2020, December). ARTISTIC INTERPRETATION OF THE CREATIVE CONCEPT IN WORLD LITERATURE. In Конференции.
12. Abdurashidovich K. A. Motivation and National Character of Foolishness in Uzbek Literature //ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2018. – T. 7. – №. 4. – С. 47-51.
13. Qayumov A. CREATING OF A NATIONAL CHARACTER THROUGH MEANS OF LITERATURE //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 1. – С. 235-240.
14. Kayumov, A. A., & Isakova, J. B. (2022). DESCRIPTION OF A CHILD'S IMAGE IN UZBEK LITERATURE. *Oriental Journal of Social Sciences*, 2(02), 115-122. 8. Kayumov, A. (2021). Character And Psychophysiology. *Zien Journal of Social Sciences and Humanities*, 3, 9-1

INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN FOREIGN LANGUAGE TEACHING AND THEIR PRACTICAL SIGNIFICANCE

Kambarova Dilnoza Musakulovna

UzSWLU, English language department №3, teacher

Annotation: This article examines the role of innovative technologies in foreign language teaching, exploring their practical significance in modern education. Through a comprehensive overview of various technological tools and methods, and aims to highlight how these innovations have transformed language acquisition and how they continue to shape the future of language education.

Key words: Innovative Technologies, globalization, foreign language teaching, technological tools, Websites.

The teaching and learning of foreign languages have evolved considerably over the past few decades, especially with the advent of innovative technologies. With globalization fostering increased interaction across borders, the demand for individuals proficient in multiple languages has skyrocketed. In response, educational institutions have embraced various technological advancements to enhance the way languages are taught and learned. These innovations have significantly altered traditional language instruction, offering new, dynamic, and more personalized approaches that cater to a wide range of learners. The integration of technology into foreign language teaching not only facilitates a more engaging learning experience but also enables students to develop language skills more effectively and efficiently.

Over the years, traditional methods of foreign language teaching have largely focused on classroom-based instruction, textbooks, and teacher-led lectures. However, with the rise of the digital age, the methods of language instruction have expanded to include an array of technological tools that have made the process more interactive, flexible, and learner-centered. The rapid development of technology has opened up various possibilities for language learners, moving beyond simple rote memorization of vocabulary and grammar rules to immersive and interactive learning experiences.

The primary role of technology in language education is to offer a more engaging and interactive environment where learners can practice and enhance their skills. Various technological tools, such as digital learning platforms, mobile applications, and multimedia resources, provide students with opportunities to engage with language learning in ways that were not previously possible. These tools enable teachers to create more personalized and tailored learning experiences, while students can learn at their own pace, choosing activities and lessons that suit their individual needs.

The introduction of digital learning platforms has had a profound impact on the way languages are taught. Websites such as Duolingo, Babbel, and Rosetta Stone offer learners the ability to study a wide range of languages from the comfort of their homes. These platforms typically combine a mix of interactive lessons, quizzes, and games designed to help students acquire vocabulary, improve grammar, and practice speaking and listening. The flexibility of digital platforms enables learners to access lessons at their convenience, making it possible to integrate language learning into their daily routines.

Furthermore, platforms like Coursera and edX offer online courses designed by universities and language institutes that cater to different proficiency levels. These platforms provide a more structured learning environment, which is particularly useful for students who prefer a more academic approach. Moreover, these courses often provide assessments and certificates that can be used to demonstrate proficiency, offering learners a sense of accomplishment and a tangible goal.

In recent years, mobile applications have become one of the most popular tools for learning foreign languages. These apps, such as Memrise, HelloTalk, and Anki, have made language learning more accessible by allowing students to practice their skills on-the-go. One of the key advantages of mobile apps is the ability to learn anywhere, at any time, with minimal time commitment. For example, apps like Duolingo use gamified approaches to motivate learners, with activities like daily challenges, progress tracking, and rewards that encourage regular use. This gamification element has proven to be highly effective in boosting engagement and making the learning process more enjoyable.

Additionally, mobile apps provide a personalized learning experience, adjusting the difficulty of lessons based on the learner's progress. Spaced repetition systems (SRS) in apps like Anki help students retain vocabulary and grammar structures more effectively, reinforcing previously learned material at optimal intervals. This technology is beneficial for language learners at all levels, providing them with constant feedback and enabling them to track their progress.

Multimedia resources, including videos, podcasts, audiobooks, and interactive websites, play a crucial role in foreign language education. These resources provide students with exposure to authentic language use, helping them improve their listening comprehension and familiarize themselves with different accents, dialects, and cultural contexts. YouTube, for example, offers a wealth of language tutorials, lessons, and authentic content like movies, music videos, and interviews that allow learners to hear the language in its natural context.

Podcasts are another excellent resource for improving listening skills. Many language learners use podcasts to practice listening to native speakers, picking up new vocabulary, and understanding sentence structures in real-world settings. Interactive multimedia websites, such as

FluentU, provide students with videos accompanied by interactive subtitles, quizzes, and vocabulary lists, making it easier for learners to understand and absorb the content.

The emergence of Virtual Reality (VR) and Augmented Reality (AR) has introduced new dimensions to foreign language teaching. VR offers immersive environments where learners can interact with computer-generated surroundings, providing them with a fully interactive and realistic experience. For instance, students can participate in virtual conversations, practice language skills in simulated real-world scenarios, and immerse themselves in the culture of the language they are learning. This technology allows learners to practice speaking and listening in real-time, improving their confidence and fluency.

Augmented Reality, on the other hand, overlays digital information onto the physical world, providing interactive language exercises and learning opportunities. For example, AR applications can display translations of objects in the environment or offer language exercises that require the learner to interact with real-world objects. By incorporating AR and VR into language learning, educators can create a more engaging, dynamic, and culturally relevant learning experience.

One of the greatest advantages of integrating technology into foreign language education is the ability to provide personalized learning experiences. Digital platforms, mobile applications, and multimedia resources enable students to learn at their own pace, choosing lessons and exercises that suit their individual needs. For instance, students who struggle with pronunciation can focus on listening and speaking activities, while those who need to improve their grammar can concentrate on exercises that address those specific areas.

Furthermore, technologies like adaptive learning algorithms ensure that students are presented with content that is appropriately challenging, thus preventing frustration and ensuring steady progress. This individualized approach to learning helps students gain confidence, especially when they see measurable progress, fostering a greater sense of achievement and motivation.

Innovative technologies have proven to be highly effective in keeping students engaged and motivated. The gamification elements in many language-learning apps—such as point systems, badges, and leaderboards—create a fun, competitive environment that encourages regular practice. By turning language learning into a game, students are more likely to stay committed and enthusiastic about continuing their studies.

Additionally, multimedia content such as videos, podcasts, and interactive lessons offer students a more dynamic learning experience, increasing their interest and engagement. These resources help break the monotony of traditional textbook-based learning, offering variety and real-world applications that keep learners interested.

Technology also fosters global communication and collaboration. Online language exchange platforms, such as Tandem and Speaky, connect learners with native speakers, providing them with opportunities to practice speaking and writing in real-life contexts. Through video calls, messaging, and voice chats, learners can improve their conversational skills and gain insights into the culture associated with the language they are studying.

Moreover, collaborative tools like Google Docs and social media platforms enable students to work together on projects, share resources, and receive feedback from peers and instructors. These interactions not only improve language skills but also prepare students for real-world communication in global contexts.

Access to authentic content is another significant benefit of using technology in foreign language teaching. Through online platforms, learners can access films, TV shows, news articles, music, and books in their target language, providing them with exposure to natural, unfiltered language use. This exposure helps students understand nuances in meaning, idiomatic expressions, and cultural references that are difficult to convey through traditional language instruction.

By incorporating authentic content into the learning process, educators can help students develop a deeper understanding of the language, making them more prepared for real-world conversations and enhancing their cultural competence.

While innovative technologies offer numerous benefits, their integration into foreign language teaching is not without challenges. One of the primary issues is the digital divide, which can prevent students in certain regions from accessing the necessary technology or internet connectivity required for online learning. In addition, teachers may require training to effectively utilize new technologies in the classroom, and the over-reliance on technology may lead to reduced face-to-face interaction, which is crucial for developing certain language skills.

Furthermore, the use of technology should not overshadow the importance of traditional methods, such as classroom interaction and immersion, which remain critical for language development. A balanced, hybrid approach that combines technology with face-to-face instruction is often the most effective way to ensure comprehensive language learning.

Innovative technologies have had a profound impact on the teaching and learning of foreign languages, offering new and exciting opportunities for both students and educators. The integration of digital platforms, mobile apps, multimedia resources, and immersive technologies has significantly enhanced the language learning experience, making it more personalized, engaging, and effective. While challenges remain, the potential for technology to transform foreign language education is immense. As the field continues to evolve, it is clear that innovative technologies will play an increasingly important role in shaping the future of language teaching and learning.

LIST OF REFERENCES

1. Ahmadi, M. R. (2018). The growing importance of computer-assisted language learning. *Sanako Blog*.
2. M. Warschauer. (2011). A Developmental Perspective on Technology in Language Education. *University of California, Irvine*.
3. Musakulovna, Kambarova Dilnoza. "USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN TEACHING LANGUAGE." *TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS*: 105.
4. Musakulovna K. D., Najmitdinovna I. M. Improving the System of Teaching Foreign Languages //International Journal on Orange Technologies. – 2021. – T. 3. – №. 12. – C. 152-153.

BADIIY ASARLARNI O'QITISHDA KREATIV VA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

H.A. Zaynalova

Farg'ona tumani 57-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Y.I. Xomidova

Farg'ona davlat universiteti filologiya tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 23-34-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiyot fanlarida badiiy asarlarni o'qitishda yordam beradigan metodlar haqida ma'lumotlar va tavsiyalar berilgan. Maqolani yozish jarayonida asar qahramonlarining xarakter-xususiyatlari, asrning badiiy tahlili, syujetiga alohida ahamiyat berilgan va interfaol, kreativ metodlarga alohida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari, bu ishimizda o'quvchilarning fikrlash qobiliyatini shakllantirishga yordam beradigan tadqiqot usullari ham kiritilgan. Maqoladan joy olgan har bir metodning maqsadi va undan kutilayotgan natijalar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, interfaol metodlar, rolli o'yinlar

Adabiyoti bo'lmagan, adabiyotining taraqqiysiga intilmagan va adiblar yetishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ydan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqirozga yuz tutadi.

Abdulhamid Cho'lpon

Adabiyot ta'limi, badiiy asarlar mutolaasi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, erkin fikrlay olishi, o'zgaralar fikrini tinglashi, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon eta olishi, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la oladigan ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu o'rinda adabiyotga o'quv fani emas, balki butun ta'lim tizimini uyushtiruvchi ta'lim jarayoni sifatida qaraladi.

Adabiyot ta'limida kitobxonlikni yanada takomillashtirish, o'quvchilar orasida badiiy asarlarga bo'lgan qiziqish va e'tiborni kuchaytirish, qolaversa, bu jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga erishish bugunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Barchamizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil mart oyida beshta muhim tashabbus ilgari surildi. Besh tashabbusning to'rtinchisi - yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan. Bu masala yuzasidan samarali loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Yosh kitobxon", "Eng yaxshi kitobxon", "Kitobxon oila"⁹¹ ko'rik-tanlovlari tashkillandi. Shuningdek, muammoni hal qilishda ko'plab mutaxassis ustozlarimiz ham o'z hissalarini qo'shishmoqda. Badiiy asarlarni o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalar ishlab chiqilyapti va amaliyotda qo'llanyapti. Zero, Shavkat Mirziyoyev aytganidek: "Kitob o'qigan, o'zini ustida ishlagan odamda qanot bo'ladi. U befarq bo'lmaydi. Uning kuchi bilimida bo'ladi. Shuning uchun hech kimni pisand qilmaydi. "Kattalar"ga xushomad qilmaydi. Uning bilimi bor, ilimi bor. Mana nima uchun kitob o'qinglar deymiz. Kitob o'qisangiz savol berishni bilasiz".

Darhaqiqat, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, ona tilimizning hayotimizdagi o'rni va ta'sirini kuchaytirish, uni tom ma'noda milliy qadriyatga aylantirish borasida katta ishlar amalga oshirildi. O'zbek tilining qo'llanilish doirasi sezilarli darajada kengaydi. Uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, o'quv qo'llanmalari, yangi lug'atlar yaratilganligi buning isbotidir.

Adabiy tilning shakllanish, rivojlanish va takomillashish yo'llarini, bu jarayonda amal qiladigan qonuniyatlarini belgilash asosiy vazifalardan biri sanaladi. Bu masalalarni to'la va to'g'ri yoritmay turib, o'zbek tili sistemalarini tadqiq etishdagi nazariy muammolarni hal etmay turib o'zbek tiliga bog'liq ishlarni hal etib bo'lmaydi.

Badiiy adabiyot davrga xos ravishda rivojlanar, unga nisbatan talab o'zgarar ekan, badiiy asarlarni o'rganish metodlari, qonuniyatlari ham o'zgarib boraveradi. Masalan, davrning o'ziga xos aksi bo'lgan Tohir Malik, Iqbol Mirzo, Siddiq Mo'min, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Usmon Azim, O'lmas Umarbekov, Husanboy Karimov asarlarida bugungi kun mavzulari ifodalangan bo'lib, ularning tili ham o'ziga xosdir. Mana shu o'ziga xoslikni adabiyotshunoslik nuqtai nazardan ochib berish bugungi kun o'qituvchilarining dolzarb muammolaridan ekanligini bu o'rinda ta'kidlab o'tish lozim. Zero, badiiy adabiyot tilni rivojlantiruvchi, adabiy me'yorni shakllantiruvchi manbalardan biridir.

P.Qodirovning ta'kidlaganidek: "Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning musiqa, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglari chiziqlar, bo'yoqlar vositasi bilan emas, so'z bilan yaratilishida ko'rinadi"⁹²

⁹¹ <https://lex.uz.doc>

⁹² <http://Ziyo.Net.uz>

O'qib tushunish ko'nikmasi ma'lum bir axborotni o'qish orqali tushunish ko'nikmasi hisoblanadi. Lirik asarlar va ularni o'rganish boshqa turdagi asarlarni o'rganishdan farq qiladi. Bunday asarlar hajm jihatdan kichik, mazmunan siqiq bo'adi. Mazmundorligi, bo'yoqliligi va ayniqsa, emotsionalligi ularni o'qishga alohida e'tibor berish kerakligini talab etadi. O'quvchilarda she'riy asrlarni o'qib tushunish ko'nikmasini shakllantirish uchun biz quyidagi metodlardan foydalanishimiz mumkin.

1. Sinov topshiriqlari. She'r matni tahlilidan oldin o'quvchilarni she'rni o'qish va tushunishga tayyorlovchi, ularni fikrlashga undovchi metodik ishlar amalga oshiriladi. Bunda she'r mavzusiga aloqador topishmoqlardan, maqollardan, afsonalardan foydalanishni bir usul sifatida qo'llash mumkin:

Biz gul bo'lsak, u chaman,
Biz uchun aziz maskan-
Unga fido jon va tan
Budir muqaddas... (Topishmoq)

Baliq suv bilan tirik,
Odam-el bilan.

Ko'rpang qayerda bo'lsa, Ko'ngling shu yerda.

Eldan ayrilguncha, jondan ayril.

(O'zbek xalq maqollari)

Shu bilan birgalikda, Vatan haqidagi qisqa hikoyalardan "Ertakterapiya" sifatida foydalanishimiz mumkin.

2. O'quvchilarning Vatan, Vatan sog'inchi kabi tushunchalarini aniqlash. Buning uchun Vatanga xos xususiyatlar klaster metodi orqali ifodalaniladi.

Xattaxtaga mavzu- Ibroyim Yusupovning "Qadrdon so'qmoqlar" she'ri yoziladi.

3. Ifodali o'qish.

Lirik asarlarni ifodali o'qish orqali uning o'ziga xos xususiyatlarini, shoirning his-tuyg'ularini, umid-orzularini aks ettirishga erishish zarur. O'qish jarayonida she'rning mazmuni, ohangi, his-tuyg'ularni o'quvchi-yoshlar sezishlari, shoirning yurak to'lqinlariga sherik bo'lishlari kerak. Bunday jarayonda o'qituvchi darslikdagi she'rni iloji boricha yoddan aytishi, yoki she'rning audiosi, videosidan foydalanishi mumkin. O'quvchilarda she'rga bo'lgan qiziqish ortadi va mazmunini tushunish osonlashadi. Xususan, 6-sinf adabiyot darsligida berilgan Ibroyim Yusupovning "Qadrdon so'qmoqlar" she'ri misolida ko'rib chiqamiz.

Dars davomida You Tube tarmog'iga joylangan videolavha qo'yib beriladi. Bundan kutilayotgan maqsad: o'quvchilarda tinglab tushunish kompetensiyalarini shakllantirish, sinfda nisbatan bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarning ham diqqatini tortish, ularni she'riy asarlarni to'g'ri tushunish va tahlil qila olishga o'rgatish.

Qadrdon so'qmoqlar

Har kimning tug'ilgan yeri- Misr shahri

Maqol

Qizil kendir bilan shivirlashar tol,

Turna uchib borar olis yoqlarga.

Talay yo'llar bosib misoli shamol

Chamamda qush bo'lib parvoz etaman.

Ushbu tor so'qmoqqa qadam qo'yganda,

Qaytadan men bola bo'lib ketaman.

Intiqqan yuragim kengayib shunda,

Chamamda qush bo'lib parvoz etaman.

Mosh paykalda gala chumchuq chug'urlar,

She'r o'qishib turgan yosh shoirlarday.

Burilishda tanish qo'shig'in kuylab,

Qo'shni qiz oldimdan chiqib qolarday.

Biroq u bunda yo'q, u yiroqlarda...
Bizning joylar o'rni hozir paxtazor.
Nechog'lik monandsan bizning yoqlarda,
Deb doim maqtayman, so'rashsa agar.

Gul terib, kapalak quvgan sho'x vaqtim,
Anov bedazorda yurgan toy dersan.
Yo tavba, shu bitta qiyshiq so'qmoqning
Dilga yaqinligin qanday aytarsan!

* * *

Cholga salom bersam o'sha so'qmoqda,
"Kimsan?" deb tanimay menga qaradi.
Bir bola uchrasa sal nariroqda:
-Kimning o'g'lisan?- debmen ham so'radim.

-Ota, narvon bo'пти anov qo'sh terak!
-Bolam, terak emas, bu umr-ku, bu!
-Inim bog'ga nega bog'lading eshak?
- E, anov chiriy deb qolgan olma-ku!⁹³

3. She'r bilan tanishtiriladi va o'quvchilarning she'rdan olgan dastlabki tushunchalari aniqlanadi.

4. She'r matni ustida ishlash o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini takomillashtirish bilan bog'lab olib boriladi.

Birinchi to'rtlikni o'qing. Qaysi misralarda jonlantirish qo'llangan? Jonlantirish san'ati deganda nimalarni tushunasiz?

Qizil kendir bilan **shivirlashar tol**,
Turna uchib borar olis yoqlarga.
Talay yo'llar bosib misoli shamol
Chamamda qush bo'lib parvoz etaman.

5. Barcha misralarning ma'nolarini sharhlashga harakat qiling. Tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlar lug'atini tuzing.

Mustaqil ish.1-topshiriq. She'rni ichingizda qayta o'qing. Qaysi misralarda o'xshatishlar borligini aniqlang.

Talay yo'llar bosib **misoli shamol**
Chamamda qush bo'lib parvoz etaman

Mosh paykalda gala chumchuq chug'urlar,
She'r o'qishib turgan **yosh shoirlarday**.

2-topshiriq. Shoir quyidagi misralarda nimalarni nazarda tutadi?

Cholga salom bersam o'sha so'qmoqda,
"Kimsan?" deb tanimay menga qaradi.
Bir bola uchrasa sal nariroqda:

-Kimning o'g'lisan?- debmen ham so'radim.

3-topshiriq. She'r matni asosida xattaxtaga yozilgan so'zlarning ma'nosini izohlang: qizil kendir, so'qmoq, monand, intiqqan

4-topshiriq. She'rdagi qahramonlar ustida ishlash.

⁹³6-sinf adabiyot. Toshkent- 2022. 187-189-betlar

- She'rdan nimalar haqida gap boryapti? She'rning asosiy g'oyasi nima?
- She'rdan ishtirok etgan qahramonlarni ayting. (shoir, chol, bola, qo'shni qiz...)

- Gul terib, kapalak quvgan sho'x vaqtim,

Anov bedazorda yurgan toy dersan.

Yo tavba, shu bitta qiyshiq so'qmoqning

Dilga yaqinligin qanday aytarsan! Bu misralarda lirik qahramon ichki kechinmalari qay holatda tasvirlangan?

- Shoarning bola bilan bo'lgan suhbatini topib o'qing, mazmunini sharhlang.

5. Ijodiy ish uchun topshiriq: She'r mazmuniga mos rasm chizish.

She'rdan olgan taassurotlaringizdan foydalanib 4-5 gapdan iborat matn tuzing. Matningizda she'r matnidagi quyidagi so'z va iboralardan unumli foydalaning. **Parvoz etmoq, so'qmoqlar, shamol, narvon, qo'sh terak, umr, sho'x vaqt.**

Darsdan kutilayotgan natija

She'rni o'qiganda o'quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetic tasviridan hayajonlanishlari, Vatanga muhabbatni his qilishlari, bolalik, sog'inish, umrning o'tkinchiligini anglashlari zarur. She'riy hikoya, she'riy ertaklarda syujet, ya'ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik she'r "Biror hayotiy voqea-hodisa ta'sirida insonda tug'ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali turmushni aks ettiradi". Lirik she'rning xususiyati kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'sirliroq ifodalashda qo'l keladi. Lirik she'rni o'qish va tahlil qilish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko'p hollarda she'rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda she'riy san'athissiyot bilan bog'liq ekanligi unitiladi, she'r ma'nosining satrlar, so'zlar zaminida yashirin berilishi anglab yrtilmaydi. Buning oqibatida o'quvchilar she'rdagi obrazlilikning mag'zini chaqa olmaydirl. Vaholanki, har qanday asar zamiridagi yashirin ma'noni o'qish mehnattalab ishdir.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, lirik asarlarni dars mashg'ulotlari davomida o'rgatishda ifodali o'qish va o'qitish eng ustuvor metod bo'lib, u o'quv jarayonining turli jihatlarini har tomonlama ko'rib chiqadi. Bu usulidan samarali foydalanish o'quvchilarga mashq qilish uchun ko'proq imkoniyatlar beradi. Sinfda o'zaro muloqot qilishda o'qituvchilar talabalarning darajasi va ehtiyojlarini tushunishlari kerak. Misol uchun, agar o'quvchining nutqida, mimikasida bir qator kamchiliklar sezilsa, o'qituvchilar ularga maslahatlar berish, sinf muhitini saqlash, aniqlik yoki noaniqlikni oydinlashtirish va har doim motivatsiya qilish kabi tegishli yordam ko'rsatishi kerak. O'qituvchi uchun eng muhim narsa o'quvchilarga o'rganish modellarini berish uchun haqiqiy manbalar bilan ta'minlashdir. Nihoyat, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga qarab to'siqlarni, kamchiliklarni asta-sekin olib tashlash kerak. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilarga amaliyot uchun ko'plab imkoniyatlarni taqdim etishi kerak. Bu shuni anglatadiki, sinfda o'qituvchilar emas, balki o'quvchilarning o'zlari ustunlik qiladi.

Epik asarlarda makon va zamonlarda sodir bo'lgan voqealar aks ettiriladi. Bunday asarlarda hajm yirik, bir zarb bilan o'qib bo'lmaydi, o'quvchiga badiiy ta'sir etish kechimi ham bir necha bosqichli bo'lishi mumkinligini inobatga olib, tahlilda o'ziga xos jihatlarga alohida e'tibor qaratish kerak. Buning uchun darslikda berilgan nasriy asarlarni tinglash orqali ham o'quvchilarda asar mazmunini tushunish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Quyida tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirishga oid bir qator tavsiyalar bilan tanishib chiqamiz.

Audiomatnlar. O'quvchilarga mazvuga oid ma'lumotlarni yoki ma'lum topshiriqlarni audio ko'rinishida taqdim qilish orqali ularda tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantirish mumkin. Bunday axborotlarni o'quvchilarga yetkazishda bizga mini kalonkalar yordamga keladi. Yoki audiomatnlarni QR kodlarga joylab, turli kartochkalarda ham taqdim qilishimiz mumkin. O'qituvchi yordamida telefon orqali kodni skayner qiladilar va audiomatnni tinglay oladilar.

1. Audiomatnni tinglang. 7-sinf adabiyot darsligida berilgan ErnestXemingueyning "Chol va dengiz" qissasini o'qitishda yaxshi samara beradigan usullardan biri asar matni asosida

ishlangan film yoki uning audimatni. O'quvchilarga electron doska orqali filmdan parcha, mini kalonkalar orqali ovoqli holatini qo'yib eshittirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Audiomatni tinglang va kitobingizdan kuzating. Bunda o'qituvchi bolalarga o'qish uchun berilgan asarni audiosini turli o'rinlardan qo'yib beradi, o'quvchilar esa topqirlik bilan kitoblaridan audiomatni matnini topishlari kerak. Birinchi topgan o'quvchi rag'bat kartochkasi bilan taqdirlanadi. Misol uchun, Chexovning 7-sinf adabiyot darsligida berilgan "Xamelyon" hikoyasi orqali ham sinab ko'rish mumkin.

Metoddan kutilayotgan natija:

- tinglab tushunish ko'nikmasini shakllantiradi;
- xotirasini kuchaytirishga yordam beradi;
- o'quvchilarning diqqat rivojlantiradi;
- o'quvchilar orasida sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi;
- o'quvchilarni epchillikka va topqirlikka undaydi.

3. "Musavvir" metodi. Ushbu metod darsning o'tgan mavzuni takrorlash va yangi mavzun mustahkamlash qismida foydalanish uchun mos keladi.

Musavvir metodidan foydalanish uchun A3 formatdagi yoki undan kattaroq qog'ozdan foydalanishimiz mumkin.

Metoddan foydalanishda o'tilgan mavzudagi asar qahramoni portretini, yoki asar peyzajini tasvirlash topshirig'i beriladi. Masalan, "Chol va dengiz" asariga rasm ishlash.

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga mavzu yuzasidan turli savollar va topshiriqlar beriladi. Berilgan savolga to'g'ri javob bergan yoki berilgan topshiriqni to'g'ri bajargan o'quvchi qalam yordamida A3 formatdagi qog'ozga bir dona shakl chizadi. Ushbu shakl tanlangan mavzuga mos bo'lishi lozim. Agar tabiat tasviri mavzusi tanlangan bo'lsa, tabiat mavjud birorta narsaning shakli chiziladi, masalan, bulut yoki quyosh.

Har bir o'quvchi bilan savol-javoblar qilinadi va javob bergan o'quvchi o'zidan oldingi o'quvchi tasvirlagan rasmni to'ldirgan holda shakl chiqadi. So'nggida ham o'quvchilar bilan mavzu mustahkamlanadi, ham tabiat tasviri tushirilgan peyzaj yoki qahramon tasviri chizilgan portret tayyor bo'ladi.

Metoddan kutilayotgan natijalar:

- ✓ san'atga muhabbat uyg'otadi;
- ✓ kreativ fikrlash qobiliyatini shakllantiradi;
- ✓ iqtidorlarini ochishga yordam beradi;
- ✓ tasviriy san'at bilan aloqa o'rnatiladi;
- ✓ Dars mashg'ulotlariga qiziqish ortadi.

4. Har sohadan bir shingil metodi. Bu metod orqali o'quvchilarning duyoqarashlarini, nazariy, amaliy va ilmiy bilimlarini sinovdan o'tkazishimiz mumkin. Buning uchun bizga yozuv taxtasiga turli xil shakllarida har xil sohalarga tegishli atamalar yozilgan rangli qog'ozlar kerak bo'ladi. Guruh sardorlari xattaxta yoniga kelishadi va o'qituvchi tomonida aytilgan ta'riflarning javobini tezlik bilan topishlari kerak. Bu metodikani o'tkazish uchun savollar:

1. Shamol-havoning gorizontali yo'nalishi.
2. Atom- "bo'linmas" ma'nosini bildiradi.
3. Adabiyot- odoblar yig'indisi.
4. Qit'a-qism, bo'lak.
5. Sifat-belgi bildiruvchi so'zlar.
6. 1914-1918-yillar- Birinchi jahon urushi bo'lib o'tgan yillar.
7. $5 \times 8 = 40$

5. Brainstorming metodi – ijodiy fikrlarni to'plash uchun o'tkaziladi., bunda ishtirokchilar tanqid va kesatqlarsiz muayyan muammo yuzasidan o'z fikrlarini ochiq-oydin bayon etadilar va uchbu muammoning yechimini izlaydilar.⁹⁴ Masalan, Said Ahmadning "Ufq"

⁹⁴F. O. Mirzayeva Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent. 84-bet

trilogiyasidan olingan “Qochoq” parchasidagi Tursunboyning urushga bormasdan qochib kelishi - ota-onasining yuzi xalq orasida shuvut bo'lishiga sabab bo'ldi. Tursunboy endi nima qilishi kerak? Qanday yo'l tutsa, uning aybi kechiriladi, ota-onasi, qishloqdoshlari va Vatan oldidagi burchini oqlagan bo'ladi? Bu vayyat yuzasidan o'quvchilar o'z fikrlarini aytadilar, hamma fikrlar qayd etib olingandan so'ng ushbu muammo bilan kurashish usullarining eng maqbul variantlari ko'rib chiqiladi.

6.Qiyoslash va tahlil qilish metodi. Bu metod orqali biz ikki ijodkorning asarlarini qiyoslab, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashimiz, umumiy xulosa chiqarishimiz mumkin. 8-sinf adabiyot darsida Asqad Muxtorning “Chinor” romanini o'qitishda Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” dostonida keltirilgan “Abadiyat qonuni” rivoyatiga o'quvchilar e'tiborini qaratiladi.. Rivoyatni ifodali qilib o'qib beriladi va chinor daraxtining uzoq umr ko'rishi, uning xususiyatlari haqida tabiiy fandan olgan bilimlari asosida fikr-mulohazalar yuritiladi.

7.Psixologik tanaffuz-o'quvchilarga madaniy hordiq berish, ularning ruhiy holatini va xarakterlarini o'rganish uchun dars mavzusiga bog'lab “Daraxtlar tilga kirganda” interfaol metodidan foydalanish maqsadga muvfiq bo'ladi. O'qituvchi tomonidan taqdim etilgan daraxt rasmlaridan har kim o'ziga yoqqanini tanlab oladi va o'qituvchi tanlangan daraxtlar orqali o'quvchining ayrim xususiyatlarini sanab beradi. Tinglovchilar esa daraxt tanlangan o'quvchilarning kayfiyatni ko'tarish uchun ularni olqishlab turishadi.

Kreativ fikrlash – bu qimmatli va asl g'oyalarni yaratishga olib keladigan fikrlash yo'nalishidir. Kreativ fikrlash o'quvchilarning tajribalarini, harakatlarini, voqealarni yangi va shaxsan mazmunli talqin qilishlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning ilmiy qiziqishi va yutuqlariga, o'z-o'zini anglashi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Adabiyot darslarida dramatik asarlarni o'qitishda rolli o'yinlardan keng foydalaniladi.Bu metodni qo'llash ishtirikchilarning faolliklarini oshirib, ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Adabiyot va san'atga, xususan, teatr va kinomatografiya sohalriga qiziqish tuyg'usi o'quvchilarda shakllanadi, bir qator afzalliklar keltirib chiqaradi.

Anjuman-bahsli rolli o'yinlar

Olib boruvchi- o'rgatuvchi barcha vakolatlar ega- bahs borishini boshqaradi , isbotlar va rad etishlarning dalilligini, tushuncha va atamalrni foydalanishining aniqligini, badiiy tahlilining haqiqatga yaqinligini tekshiradi, muloqot xushmuomalaligini kuzatadi.

Opponent-tadqiqotchilar muhitida qabul qilingan opponentlik jarayonini amalga oshiradi.U nafaqat nutq so'zlovchining asosiy nuqtai nazarini ifodalashi, balki uni tushunishi orqali uning xatolarini topishi va hal etishning o'z variantini taqdim etishi zarur.

Mantiqchi – bu roldagi o'quvchi nutq so'zlovchi va opponent fikrlaridagi qarama-qarshiliklarni va mantiqiy xatolarni aniqlaydi, tushunchalar tavsifini, dalillar va rad etishlar borishini va farazni oldinga surish haqqoniyiligini tahlil qiladi.

Psixolog-mahsulli muloqotni tashkil etish uchun javob beradi, birgalik harakatlar kelishishligiga erishadi, bahs mojaroga aylanishiga yo'l qo'ymaydi. Lirik qahramon xarakterini, his-tuyg'ularini ochib berishda ustuvor bo'ladi.

Ekspert- butun bahs mahsuldorligini baholaydi, oldinga surilgan farazlar va takliflar, xulosalar haqqoniyiligini baholaydi, bahsning aniq bir ishtirokchilarining hissasi to'g'risida fikr bildiradi.⁹⁵

Dramatik asarlarni o'qitishda o'quv-axborotlarini ekranli-ovozli aks ettiruvchi asbob va moslamalar, kinofilmlar, diafilmlar, radioeshittirishlardan unumli foydalanish tavsiya etiladi. Masalan, 9-sinf adabiyot darsida Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasini o'tishda asarning spektakili yoki filmidan lavha namoyish etiladi

Kutiladigan natija:

- ta'limning sifati va samaradorligini oshiradi;
- o'quv jarayonining jadallashuvini ta'minlaydi;

⁹⁵Bahodir Xodiyev, Lyudmila Golish. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. Toshkent-.2010

-o'quvchilarni idrok qilishga yo'naltiradi;
-bilimlarni egallashda katta qiziqish hosil qiladi;
-dunyoqarashni, ishonchni, o'quvchilarning axloqiy qiyofasini shakllantirishga yordam beradi;

-dramatik asarlarga nisbatan o'quvchilarda emotsional munosabatni oshirishni ta'minlaydi.
Xulosa, adabiyot darslarida yuqoridagi kabi metodlardan foydalanish o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirishda, badiiy asarlarni tahlil qilish, kitobxonlikni keng targ'ib etishda yordam beradi hamda dars jarayonining sifatli tashkil qilinishi, ta'lim samaradorligini oshirilishini, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini, kreativ fikrlashlarini o'stirishni ta'minlaydi.

Biz bu metodik tavsiyamizdamaktab darslarida badiiy asarlarni o'qitishda qo'llanilayotgan interfaol metodlar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'sirinio'rganish bilan birga, bugungi jarayonda yaratilayotgan badiiy asarlarning o'quvchilar ruhiyatiga emotsional ta'sir doirasini ham ochib berishga harakat qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F. O. Mirzayeva Pedagogika nazariyasi va tarixi. Toshkent. 84-bet
2. Turg'unov S.T, Daniyarov B.X, Umaraliyeva M.A, Shodmonova Sh.S, Turg'unova Sh.M, Tojiboyeva H.M. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. – Toshkent: Sano-standart, 2012-yil.
3. Bahodir Xodiyev, Lyudmila Golish. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish usul va vositalari. Toshkent.-2010
4. Internet ma'lumotlari. [http:// Ziyo.Net.uz](http://Ziyo.Net.uz).
5. <https://lex.uz.doc>

NAVOIY OBRAZINING O'ZIGA XOS TALQINLARI (Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani misolida)

Yusupova Madinaxon Egamberdi qizi

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)*

Rustamova Nargiza Rasuljon qizi, Abduvaliyeva Nigora Baxrom qizi

*Farg'ona davlat universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi
talabalari*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kun adabiy jarayonida ijodiy faollik bilan Navoiy obrazining yangicha ko'rinishlarini o'zida mujassam etgan Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romanidagi talqini yoritilgan. Shuningdek, maqolada buyuk mutafakkir haqida yozilgan Oybekning "Navoiy" hamda Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" asari roman janriga oidligi va ayrim voqeliklar tasvirida o'xshashlik borligi bilan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, bayon uslubi, tasvir unsurlari, ayrim obrazlar xilma-xilligi bilan farqlanishi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: obraz, mutafakkir, Navoiy, roman, tarixiy shaxs

Isajon Sultonning "Alisher Navoiy" romani to'rt qismdan iborat bo'lib, ular quyidagilar: a) "G'aroyibu-s-sig'ar"; b) "Navodiru-sh-shabob"; s) "Badoe'u-l-vasat"; d) "Favoyidu-l-kibar"dan iborat bo'lib, muallif bu qismlar orqali xuddi Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasi") asari kabi buyuk mutafakkirning umr mazmuni mohiyatini aks ettirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Romanning "G'aroyibu-s-sig'ar" qismida yoshlik g'aroyibotlari, umrning bahori, bolalikning samimiyati aks etadi. Alisherning bolalik pallalari voqeliklarida uning she'riyat olamidagi quvvai hofizasi tobora yuksalib boradi, "bilish va o'rganish insonlikning eng oliy vazifasi" ekanligini, "inson – o'rgana oladigan, anglay oladigan va yarata oladigan xilqat"ligini

mudarris Abu Abdulloh Kulohiyning darslari orqali, ayniqsa, sevimli kitobi Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari bois tushuna boshlaydi.

Muallif yosh Alisher obrazini ochib berishda uning atrofidagi kishilar (tag‘oyilari, mudarris, bo‘lajak podshoh Husayn, Qutb, otasi G‘iyosiddin va onasi “volidi beka”) badiiy tasviridan unumli foydalanadi. Masalan, Qutb obrazi – Alisherning enagasi, asli ismi “Qutbiya bo‘lmish bu qizaloqni G‘iyosiddinbek Shohrux Mirzoning Iroq yurishlari vaqtida, hech kimi bo‘lmagani uchun o‘zi bilan olib kelib tarbiyat qilgan” edi. “Qora qoshli, oq cho‘zinchoq yuzli joriya” Qutb obrazi tashqi va ichki siyrati birdek “go‘zal” yosh Alisherning bolalik samimiyatini ochib berishda hamda Hiriyning o‘sha davr ijtimoiy muhitida ayollar obrazining ayrim qirralarini haqqoniy aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi: “Qizlar to‘qqiz yoshidan chodra o‘ranmoqlari shart bo‘lib, shundan buyon unga tashqariga chiqish taqiqlab qo‘yilgan edi. Hiriya zaifalar berunga chiqsalar ham chimmat ila paranji yopinurlar. Ichki hovlida sarig‘-u qizil aralash qabosi ustidan qora to‘nini kiyib, chimmatini tutib tomga chiqqan Qutb, Alisherbek kechikayotgani uchun xavotirda har yonga alanglardi. Bu iroq go‘zalining Alisherga mehri shoyon, bir dam ko‘rmasa, o‘zini qo‘yarga joy topolmas, uning beg‘ubor muhabbatidan xonadondagi barcha xabardor edi. Shu sababli ham uni boshqa yumushlardan ozod qilib, Alisherbekka enaga qilib tayinlashdi”.

“Alisher Navoiy” tarixiy romanining ikkinchi qismi “Navodiru-sh-shabob” deb nomlanib, unda yigitlik nodirliklari, “ilmi nujum, jug‘rofiya, hisob, tib – bularning barchasini mujassam aylagudek qudratga ega she‘r san‘ati, shuningdek, insoniyat tarixi haqidagi fanlar Alisherni dunyo ishlaridan yupatib, jilvakor fikr olamiga” olib kirgan davr voqeliklari aks etadi.

Uchinchi qism “Badoe‘u-l-vasat” bo‘lib, bu qismda o‘rta yosh badialari, Navoiyning arboblikda muhrdor bo‘lishi, ijodda esa so‘z zohiridagi donoliklar mavjlanayotgan baytlarda aks etgan taqdir bitiklari yoritilgan:

“Ul chehra furug‘i tushubon zor tanimg‘a, bir nav kuyarkim,

Har kimsa ani ko‘rdi, sog‘indiki, yonodur o‘t ichida xoshok”

Podshoh tomonidan “bir oltin, bir shingar, bir yashil to‘n” hadya etilgan ushbu g‘azalni Navoiy “Abulqosim Mirzo xizmatida qishlov uchun Mashhad borilgan” kezlarida yozganligini aytadi. “She‘r san‘atida” mohir shoirning bu g‘azali orqali muallif obrazga xos nozik qirralarni, uning ichki kechinmalarini to‘liq aks ettiradi. Bu qismda Navoiyning muhrdor lavozimida ishlashini “ko‘rolmagan” hasadgo‘y vaziri a‘zam va ayrim beklar tomonidan uyushtirilgan fitna voqeligi keltiriladi.

To‘rtinchi qism “Favoyidu-l-kibar” – keksalik foydaliklari bo‘lib, “kechalarning birida koinotni qorong‘ulik bosib, quyosh obi hayot bulog‘idek yashiringan edi. Garchi u buloq ko‘zga ko‘rinmasa ham, Xizr ko‘k uzra undan qatralar sochardi”. Bu qismda ilmning nurli yo‘llariga o‘zni baxshida etgan Navoiy obrazi yanada yaqqolroq gavdalanadi, shoir umrining sarhisob onlari haqida shunday yozadi:

“Men ul menki, to turk bedodidur,

Bu til birla to nazm bunyodidir”.

So‘nggi lahzalarda tanadagi “mafosil”ning yanada zo‘rayishi “ulug‘ she‘r quyoshining so‘nishi” va oxir-oqibat mutafakkirning tildan qolishi, ammo u o‘zining o‘lmas asarlari orqali “umri boqiylikka” erishganligi xususida so‘z yuritiladi.

Isajon Sulton adabiy suhbatlaridan birida amerikalik yozuvchi German Melvillning “Mobi Dik” (“Oq kit”) romanini “Asrning eng yaxshi asari” deb ta‘riflaydi va asar muallifining mahorati sifatida “Mobi Dik”da tasvirlanayotgan voqelikdan ba‘zan chekinib, boshqa voqelik orqali kitobxonni asar mazmuniga yanada yaqinlashtirish maqsadida keltirilgan voqelikni “adabiy hiyla” deb nomlaydi. Yozuvchi Isajon Sultonning o‘zi ham “Alisher Navoiy” romanida yuqorida keltirilgan “adabiy hiyla”dan unumli foydalanadi. Masalan, yosh Alisherning mardligi, jasurligi tasvirida “Amir Temur” voqeasini keltirib o‘tish orqali obrazni yanada tushunarli va ta‘sirli ifodalashga erishadi. Muallif mahorati bilan yuzaga kelgan ushbu badiiy yutuq asarning boshqa bir qator tasvirlarida ham ko‘zga tashlanadi.

Adabiyotshunos G.Muhammadjonova “Badiiy idrok va Navoiy obrazi tadriji” maqolasida ushbu yutuqlarni quyidagicha ifodalaydi: asarda keltirilgan “falsafiy xulosa, hissiy-emotsional nutq, poetik takrorlar ohangi asnosida yaratilgan ifoda jo‘shqin lirik kechinmani aks ettirgan. Shuningdek, bir badiiy asarning, she‘rning yaratilish bosqichlari – ta’sirlanish, badiiy idrok, ijod to‘lg‘og‘i, ijod jarayoni, adabiy-ruhiy hosila – asarning yaratilishi va uning kitobxon oldida qanday baho olishi mumkinligi to‘g‘risidagi hadiklardan iborat ruhiyat lahzalari obrazli tasvirlanadi. Bu bilan nafaqat Navoiyning, balki ijodkor insonning ruhiy olami, “ijodiy bo‘shlanish onlari umumlashma tarzda ta’sirli ifodalanadi. Muallif Isajon Sultonning boshqa mualliflardan farqli yutug‘i uning ayni jo‘shqin hissiyotlarga to‘la ilhom onlarini ifodalay olganligida ko‘rinadi. To‘g‘ri, ularning barchasida ham ijodiy ruh, estetik ta’sir ustuvor, deya olmaymiz. Ammo ijod onlaridagi hissiyotlar, ijod lazzati bevosita kitobxonga o‘z ta’sirini o‘tkaza olish quvvai hofizasiga ega”.

U.Normatov va Sh.Normatovaning “Navoiyga mangu maftunlik” maqolasida “Alisher Navoiy” romani muallifining maqsadi “keng kitobxon ommasiga buyuk ajdodimizni yaqindan tanishtirish, nurli siymosi va hayot yo‘lini haqqoniy gavdalanitirish hamda bu chin inson, ulkan arbob va noyob iste’dodning o‘tmish hamda abadiyat oldidagi ulkan xizmatini anglatishdan iborat”, deya e’tirof etadi.

Muallif tarixiy-ijodkor shaxs obrazini shunchaki tasvirlamaydi, balki hayot ziddiyatlarini hal etishda Navoiyning teran tafakkurini shoir g‘azallariga murojaat etish orqali yanada ta’sirchan tasvirlab beradi. Asarda “Xazoyin ul-maoniy”dan bir qator g‘azallar keltiriladi. Tarixiy voqealarning izchilligiga hamohang g‘azallar tarixiy shaxsning yana bir muhim jihatini, ya’ni uning ijodkor shaxs sifatidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, Navoiyning ichki kechinmalarini ifodalashda ijod namunalaridan unumli foydalanadi. Jumladan, “Qizil, sorig‘, yashil...” g‘azalidan hayotning turli bo‘yoqlarda ekanligini, shaxs xarakterining rango-rangligini ochib berishda hamda shu rangdagi tog‘larning keltirilishida umrning turli past-baland cho‘qqilardan iboratligi va ular har xil holat va tusda bo‘lishi o‘z ifodasini topadi: “Taqdirning yana bir hadyasi mana shu safar chog‘ida zuhur etdi. Ko‘hsordan o‘tilgach, o‘ng tarafda uch xil tusdagi kichik tog‘lar namoyon bo‘ldi. Ularning biri qizil, biri sariq bo‘lib, har ikkisi ham yaydoq, ustida o‘t-o‘lan o‘smagan, uchinchisini esa yosh archalar qoplab olgan, yashilliklarga burkanib ko‘zga tashlanib turardi

Ayni chog‘da shom sajdasi yumalagan quyoshning tavbadan qizarishi, ko‘k toqida uyilgan qoramtir bulutlar ostidagi sariqlik va yuksak tog‘ ustidagi yashillik uch rangning samoviy aksidek tuyuldi. Tangri taolo yaratgan qizil, sariq va yashil mo‘jizalarning bunday ajoyib silsilasi yigitcha ongida ajoyib larza paydo qildi.

Kuz san‘atida tevarak yoqutday tovlanardi. Quyosh nurlari qatida uchub kelgan rango-rang yog‘du qushlari yonbag‘irlardagi anvoyi bog‘lar uzra qanot qoqib, qavs semurg‘ining ukparlari tushgan joylar oltin tus oldi. Bu so‘zsiz jilvalar musiqaday jonli bo‘lib, go‘zal va g‘aroyib tovlanishlari yigitcha xayolida ohang-u surat va taassurot-u hayratga birlashib, matla‘ga aylana qoldi:

Xil’atin to aylamish janon qizil, sorig‘, yashil,
Shu’lai ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil”.

Kuz tabiati manzalariga qiyosan “inson umrining kuz pallasida tafakkur va aql tiniqligi, fikrlar quyug‘ligining yoqutga mengzalishi, “sajdaga yumalagan quyoshning tavbada qizarishi” kabi betakror tashbehlar inson ruhiyatining eng nozik pallalarini aks ettirishi bilan g‘oyat ta’sirli” ifodalangan.

Ijod ahlining obrazlarini yaratish davomida muallif oldida qahramonning ijtimoiy turmush bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan faoliyatini, dard-u izzatlarini tekshirish va ko‘rsatishgina emas, balki uning ijodiy psixologiyasini, asarlarida keyinchalik ifoda etilgan poetik mayllarning tarixiy-real ildizini ham ochib ko‘rsatish vazifasi turadi. Muallif mana shu “vazifa”ning mas’uliyati o‘laroq obraz mukammalligiga erishadi. Zero, “ijod ruhi – dunyoda tengi yo‘q, inson

aql-u kamolotining eng oliy cho'qqisi, ... inson ruhi erishishi mumkin bo'lgan muzayyan olamlarning bepoyon ma'volari uzra ozod parvoz qiladi”.

Ijodkor shaxsiyatini o'rganish iste'dod tabiatinigina emas, balki adabiy jarayon masalalarini ham tadqiq etishdan iborat ekanligini akademik M.B.Xrapchenko o'rinli ta'kidlaydi. Shu sababdan ham olim ijodkor shaxsiga yondashganda unga “ijodiy individuallik” sifatida baholaydi va ijodkorning o'ziga xosligi aks etib turgan asarlarigina adabiy jarayon rivojiga xizmat qilishini, milliy adabiyot ravnaqini belgilashini ko'rsatib o'tadi. “Alisher Navoiy” romani mana shunday xususiyatlarni o'zida mujassam etganligi bilan ham katta ahamiyatga ega.

Isajon Sultonning “Alisher Navoiy” romani voqealari davomida Navoiyning asarlaridan keltirilgan iqtiboslar, shoh va shoir, shoir va shahzoda, pir va murid o'rtasidagi noma-maktublar nutq bayoni adabiy-badiiy asarlardagi namunalardek ta'sirli va allomalarga xos fikriy mukammallik bilan tarixiy haqiqatni o'zida aks ettiruvchi jumlar bayon etilgan, shuning uchun ham “tarixiy romanlarda muhitni aks ettirishda til unsurlari katta ahamiyatga ega. Boshqacha aytganda, mohir adiblar nasriy matnda personajlar nutqida qo'llangan til birliklari orqali tarixiy muhitni kitobxonlar ko'z o'ngida yorqin gavdalanantira oladilar”.

Muallif romanda inson taqdiri, uning jamiyat bilan o'zaro munosabati badiiy tadqiqi orqali olam-u odam mohiyatini anglashga intiladi. Shuning uchun ham G.Lukach fikriga ko'ra, dunyoning yaxlitligi va butunligini, mavjudlikning tub mohiyatini anglash romanning bosh muammosi bo'lsa, qahramonning dunyo bilan ziddiyati o'sha muammoni hal qilish vositasidir. Asarda bosh qahramon Alisher Navoiy obrazi turli ziddiyatli vaziyatlar orasida bir insonning bu “foniy hayot”dagi yuksak vazifalarini uddalay olgan matonat sohibi, yosh iqtidorlarni, jamiyatning eng kichik qatlami vakillarini qo'llab-quvvatlovchi saxiy, ilm ummonini javohirlar bilan to'ldirgan valiy zot, xalq manfaatini o'zinikidan ustun qo'yadigan vallomat, har qanday vaziyatda ham yordam qo'lini cho'zishdan og'rinmaydigan, buni o'ziga burch deb bilgan samimiy do'st, dunyo ne'matlaridan ilm-u irfonni afzal biladigan shoir sifatida gavdalanadi. Mana shu sifatlarni adib umrning to'rt faslidagi inson holati orqali tasvirlashga erishadi.

Tarixiy romanning eng muhim shartlaridan biri unda tarixiy qahramonlarning ishtiroki etishi hisoblanadi. Real tarixiy voqealar, o'z navbatida, real tarixiy qahramonlarni ham taqozo etadi. “Tarixiy romanning yana shunday tiplari ham borki, ularda faqat tarixiy shaxslar yetakchilik qiladi va asar voqealari, asosan, ularning boshlaridan kechgan real voqealardan iborat bo'ladi. Bunday romanlar tarixiy-biografik romanlar deb yuritiladi”. Shu jihatdan ham, “Alisher Navoiy” romanini tarixiy-biografik roman deyish mumkin. Romanda tarixiy shaxs sifatida faqat Navoiyning boshidan o'tgan voqealar tafsiloti bilangina chegaralanilmagan, balki ulug' shoir haqida yaratilgan asarlardan farqli ravishda badiiy an'anaga yangicha yondashgan holda, Alisher Navoiyning nafaqat tarixiy shaxs, balki tarixiy-ijodkor shaxs ekanligini ta'kidlab boruvchi lirik kechinmaga xos tasvirlarning mavjudligi roman voqealigini yanada yorqinroq aks etishiga xizmat qiladi:

“Har qayon boqsam, ko'zumga ul quyoshdin nur erur,
Har sori qilsam nazar, ul oy manga manzur erur.
...Gar Navoiy siymbarlar vaslin istab ko'rsa ranj,
Yo'q ajab, nevhunki xom etgan tama' ranjur erur”.

“Alisher Navoiy” romanida ham ko'plab tarixiy shaxslar keltirilgan, ammo ulardan bosh qahramon Navoiyning butun bo'y-basti, so'z mulkida benazirliklarini ochib berishda muhim obrazlardan biri Husayn Boyqaro obrazidir. Yoshlikdan birga bir mudarrisning ta'limini olgan, keyinchalik biri – so'z mulkida sulton, biri esa mamlakat sultoni bo'lib yetishgan, mamlakatning siyosiy ishlarida hamisha do'stining maslahatiga tayanadigan Husayn “bir yerda tinch o'tirolmaydigan, yerga ursa ko'kka sapchiydigan bola edi”. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro – bu ikki buyuk shaxs o'z davri ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida g'oyat faol ishtirok etib, ana shu “mukammallik”ni jam etadi.

Asarda tarixiy shaxslardan Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Abdurahmon Jomiy, Hadichabegim, Badiuzzamon, Mo'min Mirzo, Darveshali, Binoiy, Majididdin obrazlari

uchraydi. Yuksak badiiy mahorat bilan yaratilgan bu obrazlar roman mazmun-mohiyatini, ijodiy g'oyasini hamda bosh qahramon xarakterini ochib berishda muhim o'rin tutadi. Muallif bu obrazlar yordamida XV asr hayotini, Xuroson mamlakatining amir va beklari adolatsizligini, zolimligini, shahzodalarning beboshligi, podshoh saroyidagi niyatlari faqat mol-mulk bo'lgan ayrim amirlarning "oyog'i tagidan" chiqadigan fitna va adovat urug'lari mamlakatning ertasi uchun jiddiy g'ov ekanligini ko'rsatib beradi.

Romanda podshoh Husayn Boyqaroning o'z o'g'li Badiuzzamon bilan jangga kirishishi, nabirasi Mo'min Mirzo (amirlarning fitna va nayrangi qurboni)ning qatl etilishi borasida berilgan shafqatsiz farmoni, valiahdlarning bir-biriga qarshi qilich qayrashlari va xiyonati kabi ziddiyatli voqealiklar g'oyat ta'sirchan ifoda etiladi. Ushbu ziddiyatlarni, boshboshdoqliklarni hal qilishda podshoh do'sti Husayn Mirzoga tadbirli maslahati ila ko'makdosh bo'lgan Navoiy shahzodalarga "otalarcha" mehribonlik va samimiyat ruhi bilan yo'g'rilgan maktublari orqali yoki aynan itoatsiz shahzodalar bilan suhbat qurish asnosida ularni insofga chaqirishi bilan so'zi o'tkir, maqsadi darajotini anglata olish kabi siyosiy taktikalarga boy arbob sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanadi. Navoiyning shahzoda Badiuzzamonga yozgan nasixatnoma-maktubida hamisha ilm-u urfon olamini bilishlik va ixlos qilishlikka, faqatgina yuksak bilim va xarakterli xulq-atvor bilangina adolat hamda to'g'riso'zlikka erishish mumkinligini uqtiradi: "...mol-u mulk ishidan va arzchilar ishlaridan farog'at hosil bo'lgach, ...kutubxona ahli bilan mashg'ul bo'linsa. Munosib ko'rilgan xizmatchilardan biriga tarix o'qish buyurilsa, xususan, "Zafarnoma"ni. Agar mashoyixlar so'zlari yoki ba'zi devonlar haqida so'zlashilsa ham, nomunosib emas".

Asarda tarixiy shaxslar bilan birgalikda badiiy to'qima obrazlar ham bor bo'lib, ularning ham badiiy bayon maqsadida ma'lum vazifasi mavjud. Navoiyni yoshlikdan suyib erkatlagan, huddi opasidek mehribon Qutbi, bolakay Xusrav (suv chiqarmoqchi bo'lgan yigit), Qora Mo'g'ul ("qo'rsroq, so'zi dag'al, ammo xiyonat neligini bilmas") kabi badiiy to'qima obrazlar muallifning g'oyaviy maqsadi va ijodiy niyatiga erishishida katta o'rin tutadi. Bu obrazlar bosh qahramon Navoiy siymosini gavdalandirishda hamda asar syujet liniyasining mazmunli, qiziqarli bo'lishida katta ahamiyatga ega. Jumladan, asar so'ngida Xurosondagi tala-to'plar natijasida vatani Sherozga qaytib ketgan Qutb obrazining yana gavdalanishi, uning keyinchalik, qochqindan so'ng oila qurib o'g'illi bo'lishi, o'g'lining ismini Alisher deb qo'yishi hayotning davom etishini, ammo Alisher Navoiydek mutafakkirlar yana qayta dunyoga kelishi mushkul ekanligini, Navoiy badiiyat olamida so'nmas quyosh singari uning ijodiyotidan bahramand bo'lgan yosh avlodni hamisha saodatga yo'llovchi she'riyati orqali o'z avlodlari qalbini zabt etaveradi: "She'r-u g'azal, bayt-u doston, devon masjid kabidir. Andoqkim, kishilar masjidga o'z oyoqlari bilan kelsalar, abyot ularning qalblariga o'zi kirib borgaydir". Navoiyning ilmiy merosi ham, uning shaxsiyatidagi o'ziga xosliklar ham o'z davri odamlari va bugungi kitobxon ko'ngliga birdek singib, kelajakning yorug' yo'llarida hamon yorug' mash'ala bo'lib xizmat qilmoqda.

Muallif romanda Navoiy obrazini nafaqat tarixiy shaxs balki tarixiy-ijodkor shaxs sifatida gavdalandirganini asardagi bo'limlarning nomlanishida ham kuzatish mumkin. Romanning ko'plab bo'limlari shoir g'azallari va asarlari nomlari bilan atalib, bunda davriy izchillikka rioya etiladi. "Orazin yopqach...", "Qizil, sorig', yashil...", "Olam ahli bilingiz...", "Xamsa" quvonchi", "Saddi Iskandariy", "Xazoyinu-l-maoniy", "Lisonu-t-tayr" va asar so'ngida "Mahbub ul-qulub" bo'limining keltirilishi bunga misoldir. Asar voqealari ketma-ketligida shoir umri mantiqiy izchillikda tasvirlanadi. Ana shu tariqa tarixiy shaxs timsoli o'zining boqiy siyratini namoyon etib boradi.

"Alisher Navoiy" romani yaratgan Parvardigor va uning ijodi bo'lmish inson zotiga, inson dahosiga ulkan muhabbat, cheksiz ixlos, zavq-u shavq bilan dunyoga kelgan asar bo'lib, roman janrining o'ziga xos namunasi sanaladi. Romanda tarixiy sharoitning real tasviri asosiy o'rinlardan birini egallab, asar badiiyatini belgilovchi mezonlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Tarixiy sharoitning bunday talqiniga muallifning badiiy mahorati sifatida baho beriladi. Muallif

asarda Navoiy obrazini tarixiy-ijodkor shaxs sifatida butun bo'y-basti bilan mukammal tasvirlashga erishgan.

Yozuvchi romanda tarixiy-ijodkor shaxs obrazini gavdalantirish bilan birga tarixiy voqelikning hayot haqiqatiga yaqinligi va o'sha davr ma'naviy-ma'rifiy hayotini o'quvchi ko'z o'ngida tarixiy tamoyil asosida haqqoniy aks ettiradi. Shuni ham alohida aytish lozimki, muallif badiiy o'xshatishlar orqali obrazning o'ziga xos xususiyatlarini kitobxon onggida obrazli ifoda etishga urinadi. Asar so'nggida keltirilgan to'bi nomli daraxt detali ham ayni shu vazifani bajarishga xizmat qiladi. Xususan, yozuvchi Alisher Navoiyning badiiy obrazini, uning umri davomidagi hayotiy faoliyatini hali hech bir muallifda keltirilmagan quyidagi chizgilar orqali ifoda etadi: "alqissa shuki, bir nihol bor edi, o'sib-undi, gulladi va chunon meva tugdiki, adog'iga yetib bo'lmadi. U xuddi xurmo kabi edi, unga biron dunyoviy illat yaqin yo'lay olmadi. O'z ona tuprog'i bag'ridagi ma'danlarni singdira- singdira shunday ma'nilarni bunyod qildiki, olam ahli hayrat barmog'ini tishlab qoldi. Shunday mevalarni berdiki, o'z elining To'bi daraxti kabi bo'ldi". Ma'lum bo'lishicha, "To'bi daraxti jannatdagi bir daraxt bo'lib, jannatda bu daraxtning shoxi kirmagan biron-bir uy yo'q. Qancha go'zal qushlar bo'lsa, hammasi o'sha daraxtda bo'ladi, qanchalik chiroyli meva bo'lsa, barchasi o'sha daraxtdadir". Anglashiladiki, Alisher Navoiy ilm olamining juda ko'plab nihollariga asos bo'ldi, Navoiydek ilm daraxtining mevalari barcha tashna qalblarni to'yintirdi, uning shoxlari shuqadar keng quloch yoydiki, butun olam ahli uning mevasidan totdi, unga qo'ngan qushlarning go'zal navosini, mutafakkir ijodining rango-rang ohanglariga mengzash mumkin va bu go'zal ohanglar bugun ham xushnavo taralib ko'ngil torlarini chertib kelmoqda.

Mazkur romanning boshqa tarixiy romanlardan farqini insonning ilm olami va jamiyat hayotidagi o'rnini turli voqeliklar orqali ishonchli ifodalanishida hamda shoirning hayoti va ijodi – "tarozisi pallasini"ni teng tasvirlanishida deb aytish mumkin.

Xullas, Isajon Sulton g'oyat sinchkovlik va mulohazakorlik bilan ulug' so'z san'atkori Alisher Navoiyning xarakter qirralarini ijtimoiy-siyosiy hayot hamda ilm-u urfon muhiti bilan hamnafas holatda yangidan kashf etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Исажон Султон. Алишер Навоий. – Тошкент: Adabiyot, 2021. – Б. 38.
2. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Тошкент, 1955. – Б. 510.
3. Аҳмедов Б. Навоий замондошлари хотирасида. – Тошкент, 1985. – Б. 14.
4. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 106.
5. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Ayxodjayeva G. Estetika asoslari. – Toshkent, 2004. – B. 47.
6. Расулов А. Истеъдод ва эътиқод. – Тошкент, 2000. – Б. 6.

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA UCHRAYDIGAN TERMINLARNI O'RGANISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Muxtoriy Mohro'y Sodirzoda

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi,

Davlatova Mastura Abdullajon qizi

Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ishi yo'nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida uchraydigan terminlarni o'quvchilarga o'rgatishning nazariy va amaliy asoslari tahlil ostiga olingan bo'lib, bunda terminlarning xususiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, tilshunoslik, atamalar, sohaga oid atamalar, metod, metodika, metodologiya, bilim, tafakkur.

Zamonaviy til o'rganish jarayonida terminlarni o'rgatish muhim komponent hisoblanadi. Ayniqsa, kasbiy yo'nalishdagi chet tillarini o'rgatishda, aniq va to'g'ri terminlarni o'zlashtirish talab etiladi. Terminlar tilning leksik boyligida alohida o'rin egallaydi va ularni o'rgatish maxsus yondashuvni talab qiladi.

Termin grekcha "Terminus" so'zidan olingan bo'lib, "chek", "chegara" degan ma'noni bildiradi. U fan-texnika, qishloq xo'jaligi, san'at va madaniyat sohasiga xos so'z hisoblanadi. Terminologiya – terminlar haqidagi ta'limot va terminlar majmui degan ma'nolarni anglatadi. Termin so'zi o'rnida ba'zan atama, istiloh so'zlarini ishlatish hollari uchrab turadi. Ammo bu to'g'ri emas. Atama termin so'ziga nisbatan tor tashunchani ifodalaydi. Istiloh so'zi esa arabchadir. Uni xalq tushunmaydi va me'yorga aylangan emas. Terminologiya masalalari hamisha tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo'lib kelgan. Chunki terminlarning sohalar lug'aviy qatlamlaridagi o'rni va vazifasini belgilash, tushunchaning mazmun-mohiyatini to'g'ri anglash imkonini beradi.

Tilshunos olim N.A. Chechlova o'zining maqolasida shunday deb yozadi: "Har qanday taraqqiy etgan terminologiya oliy darajadagi mavhumlashishni taqozo etadi. Terminologiya real narsani va harakat nomlarining majmuidan emas, balki narsa va harakat tushunchalari nomlarining muayyan tizimidan iboratdir. Shuning uchun predmetlar, sifatlar va harakatlar haqidagi tushunchalarni ifodalovchi yagona leksik-semantik vositalar bo'lib, so'zning tom ma'nosida otlar maydonga chiqadi.

"Tilshunoslik sohasiga qaytadigan bo'lsak, ritorikadan olingan metafora, metonimiya, sinekdoxa, va shu kabilarni uchratishimiz mumkin."⁹⁶

Terminologiyaga bag'ishlangan ishlarning barchasida u yoki bu sohaning muayyan tushunchalarini anglatadigan, definitsiyaga ega bo'lgan va asosan, nominativ funksiyani bajaradigan birliklar termin hisoblanadi deb qaraladi. A.Reformatskiy terminga ta'rif berar ekan, "... terminlar – bu maxsus so'zlardir" degan xulosaga keladi.

Terminlarga munosabatda, terminologik tizimini yangilash, o'zgartirish va takomillashtirishda tilning rivojlanish qonuniyatlariga, uning lug'aviy tizimini me'yorlashning o'ziga xos ob'ektiv talablariga, mezon, ilmiy o'lchov hamda tamoyillariga amal qilgan holda ish tutish g'oyat muhimdir.

XX asrning 30-yillari o'zbek tilining ko'plab terminologik lug'atlari tuzilib nashr etildi. Shu jarayonda terminlar tarixi, terminlarning ma'no va mavzu guruhlari, grammatik tuzilishi va yasalishi, taraqqiyot yo'li va boyish manbalari haqida nazariy masalalari ham ishlab chiqildi. Ulug' Tursunov, birinchilardan bo'lib, o'zbek tili terminologiyasi masalalariga oydinlik kiritishga harakat qildi va ushbu masalaga bag'ishlab asarlar yozdi: «Til-terminologiyada burjuaziya intilishlariga qarshi», «O'zbek terminologiyasi masalalari», «Terminologiya masalalari», «O'zbek adabiy tilida so'z-terminlar tanlash prinsiplari» kabilar. Bu asarlarda terminlarni hosil qilish, to'plash, tartibga solish, unifikatsiyalash va nashr etish sohasidagi turli xil qarashlar va tushunchalar haqida mulohaza yuritiladi. Bundan tashqari, terminologiya sohasida ro'y bergan va ro'y berayotgan chalkashliklar yaqqol ko'zga tashlana boshlashi ta'kidlanadi. Masalan, bir tushunchaning turlicha atala va yozila boshlashi; aniq va ixcham terminlar o'rniga uzundan uzoq izohlarning berilishi; termin yaratishda ona tili imkoniyatlaridan kam foydalanish; o'zbek terminologiyasini boyitishdagi manbalardan biri tashqi omilga turlicha yondashish faktlari mavjudligi ko'rsatildi.

Professor U.Tursunov asarlarida o'zbek tili terminologiyasining boyish manbalari batafsil yoritilgan. O'z asarlarida U.Tursunov o'zbek tili terminologik tizimining ichki va tashqi manbalar hisobiga rivojlanishi haqida ma'lumot beradi. O'zbek tili terminologik tizimlarining rivojlanishi, shakllanishi va takomillashuvida shu tilning ichki imkoniyatlari asosiy rolni

⁹⁶ Н.А.Щетлова, К вопросу о грамматических средствах терминологизации русских глаголов в профессиональной речи XVII-XVIII вв. – «Ученые записки МОПИ» Т. XXXVIII, вып. 8, М., 1963, стр

o'ynaydi. Chunki hayotda ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar, fan va texnika hamda madaniyatning rivojlanishi tilning ichki imkoniyatlaridan maksimal foydalanishni taqozo etadi. Har bir tilda bo'lganidek, o'zbek tilida ham u yoki bu tushunchani ifodalash uchun bir qancha usullardan foydalanadilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Terminlarning semantik yo'l hisobiga boyishi.
2. Terminlarning morfologik usul bilan yasalishi.
3. Terminlarning sintaktik yo'l bilan yasalishi.

Terminlarning "aniqligi va qat'iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko'rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo'lib, ma'lum fanning taraqqiyotiga bog'liq. Bu taraqqiyot to'xtovsiz bo'lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga ushishi ham uzluksiz bo'ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo'llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo'lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta'sir ko'rsatadi"

"Maktab ta'limini takomillashtirish munosabati bilan o'quvchilarga taqdim etiladigan o'quv materiallari va ularni o'zlashtirishga sarflanadigan vaqtini qisqartirish nazarda tutiladi. Biroq o'quv materiallari hajmini qisqartirish o'quv predmeti yoki o'quv kursi mazmunini ilmiy jihatdan sayozlashtirishga olib kelmasligi kerak"⁹⁷.

Terminlarni o'rgatish til o'rganish jarayonining ajralmas qismidir. Ushbu tadqiqotdan kelib chiqib, samarali termin o'rgatish uchun interaktiv yondashuvlar, kontekstual foydalanish va multimediyaviy vositalarni joriy etish tavsiya etiladi. Kelgusida ushbu mavzu bo'yicha yanada kengroq va fanlararo tadqiqotlar o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Н.А.Щетлова, К вопросу о грамматических средствах терминологизации русских глаголов в профессиональной речи XVII-XVIII вв. – «Ученые записки МОПИ» Т. XXXVIII, вып. 8, М., 1963, стр
2. А.Мадалиев О'zbek terminologiyasi va leksikografiyasi masalalari "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2017.
3. J.Hasanboev, X. To'raqulov, M. Haydarov, O. Hasanboeva, Pedagogika fanidan izohli lug'at. –T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2008-yil. 38-41-bet.
4. Sobirjonovna, Z.S. Boshlangich sinf o'qituvchilarini kompetensiyalarni takomillashtirish. *Taxририят Editorship*, 109.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ВЫРАЖЕНИЯ ЯЗЫКОВЫХ ЗНАКОВ И ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В ЛИНГВИСТИКЕ

Нурматова Садбархон Эркиновна

преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук заочного отделения ФарДУ

Амирова Фатимасон Тохирджон кизи

студентка ФарДУ

Аннотация: В статье изложены теоретические взгляды на научное применение концепции языкового знакового выражения. Также утверждается, что формирование антропоцентрической парадигмы связано с изучением фактора говорящего — носителя языка. Возникновение антропоцентрического поворота в языкознании рассматривается

⁹⁷ Sobirjonovna, Z. S. Boshlangich sinf oqituvchilarini kompetensiyalarni takomillashtirish. *Taxририят Editorship*, 109.

как отход от структуралистского принципа изучения языка «в себе и для себя» и сосредоточение на индивидуальном факторе.

Ключевые слова: языкознание, антропоцентрическая парадигма, системно-структурная парадигма, язык, знак, система, знаковая система, языковая семантика, личностный фактор, лингвокогнитивизм, психолингвистика, лингвокультурология, прагматическая парадигма.

В мировой лингвистике изучение текста на основе антропоцентрической парадигмы в основном представлено в исследованиях по лингвистической семантике, лингвокогнитологии, психолингвистике, лингвокультурологии, тогда как изучение текста на основе прагматической парадигмы в основном представлено в исследованиях по лингвистической семантике, лингвокогнитологии, психолингвистике, лингвокультурологии и прагматической лингвистике. В частности, языковая система изучалась в связи с фактором личности в трудах таких лингвистов, как Н.Хомский, У.Шеф, Б.А.Серебренников, Л.В.Щерба, Ю.А.Смирнов, В.А.Смирнов, А.Н.Степанов, И.Р.Гальперин, Н.И.Караулов, Н.И.Джинкин, А.А.Леонтьев, Я.Лакофф, Т.А.Ван Дейк, А.Вежбиская, Е.С.Кубрякова, Е.Рош, В.П.Белянин, В.З.Демьянков, В.А.Маслова, Т.М.Дридзе, К.Ф.Седов. Формирование антропоцентрической парадигмы связано с изучением фактора говорящего — носителя языка. Возникновение антропоцентрического поворота в языкознании отодвинуло структуралистский принцип изучения языка «в себе и для себя» и сосредоточило его внимание на индивидуальном факторе. Корни антропоцентризма, который в настоящее время признан одной из ведущих парадигм в языкознании, были подпитаны и укреплены теоретическими взглядами В. фон Гумбольдта и Л. Вайсгербера. Это слово происходит от греческого *anthropos*, что означает человек, и латинского *centrum*, что означает центр. Термин «антропоцентризм» первоначально применялся к взгляду древнегреческой философии, продвигавшей идею о том, что «Человек — центр вселенной», идею, которая получила особое распространение в Европе в Средние века. Антропоцентрическая парадигма сформировалась в результате появления антипозитивистских взглядов на изучение языка имманентно, то есть отдельно от его носителя. Профессор Ш.Сафаров так объясняет возникновение антропоцентрической парадигмы: «Системно-структурная парадигма стремилась устранить недостатки предшествовавшей ей сравнительно-исторической парадигмы, возникшей в результате «атомистического», то есть анализа языковых явлений по отдельности, оторванности друг от друга. Главный эффект системно-структурного направления состоит в доказательстве того, что язык есть системное явление. Однако выяснилось также, что эти две парадигмы имеют общий недостаток: в этих направлениях язык отделен от своего хозяина — человека. Попытки устранить этот недостаток привели к созданию прагматической и когнитивной лингвистических парадигм». Профессор Н. Махмудов, размышляя о формировании антропоцентрической парадигмы в языкознании, высказывает следующие мысли: «В соответствии с такой объективной природой языка антропоцентрическая парадигма на главное место ставит человека, а язык — главный элемент, составляющий человеческую личность. В процессе познания окружающего мира человек отражает его элементы в своем сознании посредством образов, а отраженные в этом сознании элементы мира выражаются посредством знаков. Знаками являются любые материальные представители социальной информации. Тот факт, что язык представляет собой систему знаков, является его главной характеристикой и универсальной стороной. Среди философских трудов XIX века, посвященных системе знаков, выделяется труд К. С. Пирса. Неслучайно Ч. Моррис, считающийся основоположником семиотики, опирался на взгляды К. С. Пирса. Хотя «Курс общей лингвистики» Ф. де Соссюра не ссылается на труды К. С. Пирса, во взглядах этих двух учёных на знаки есть много общего. Вот почему Р.О. Якобсон сказал: «Было бы очень интересно решить вопрос о том, существует ли какая-то генетическая связь или интеллектуальная согласованность в работе двух ученых

по изучению системы знаков». К. Пирс первым классифицировал знаки. В ее основе лежит различие в классификации материальной стороны знака — означающего и означаемого. На основании этого признака Ч. Пирс делит знаки на три большие группы: 1. Символы Санам. В таких знаках означающее имеет определенную степень сходства с означаемым (например, изображение животных в виде изобразительных знаков). 2. Индексные знаки. В таких знаках означающее связано с означаемым посредством причинно-следственной или иной связи (близости, связи в пространстве и времени и т. д.). Например, дым считается признаком пожара. 3. Символы. В таких знаках существует условная, конвенциональная, немотивированная связь между представляющим и представляющим. Эти отношения свободны и возникают на основе определенных правил. В этом отношении языковые знаки схожи с символическими знаками. Но в типологии знаков он занимает особое место. Среди немотивированных знаков особое место занимает языковой знак. Хотя языковые знаки имеют сходство со всеми немотивированными знаками по своей условности, они отличаются от других немотивированных знаков широтой своих информационных возможностей, дискретностью, акустикой, многоуровневостью и сложностью иерархических отношений между этими уровневными единицами. Следовательно, языковой знак — это особый тип знака. Ф. де Соссюр также предложил модель построения языкового знака, выделив два ее основных принципа: свободу выражения и последовательность. Первый принцип определяется отношениями между представляющим и представляемым. В этом месте особое внимание следует уделить значению термина «свобода». Хотя соотношение между экспрессивным и выражаемым аспектами языкового знака является свободным, это не должно приводить к выводу, что говорящий свободно выбирает экспрессивный аспект знака. Говорящий не может внести даже малейшего изменения в социально принятый выразительный аспект языкового знака. Он усваивает языковой знак как целое, состоящее из присущих только ему экспрессивных и выразительных отношений в его языковой памяти. Свобода языкового знака относительна лишь по отношению к выраженному аспекту его экспрессивного аспекта. Потому что между этими двумя сторонами нет естественной связи. Вторым принципом языкового знака является последовательность означающего. Хотя этот принцип менее значим в творчестве Ф. де Соссюра, чем первый принцип, ему придаётся большое значение. Говорящий со временем расширяется, поскольку по своей природе он воспринимается посредством слуха. Поэтому он характеризуется признаком времени: а) имеет признак удлинения; б) Длина считается одномерной. Последовательность языкового знака указывает на его синтагматическую связь с другими знаками. Эта особенность языкового знака относится также к взаимосвязи языка и речи. Есть и третья особенность языкового знака. Это дискретность выражения, то есть свойство разделяться на малые элементы. Дискретность неразрывно связана с последовательным характером языкового знака. Языковые знаки, которые последовательно используются в речевом процессе, обладают свойством фрагментарности. С точки зрения выразительности наименьшая часть деления считается звуком. Символ также имеет свойство фрагментироваться представленной стороной. В лингвистике существует два различных подхода к идее о том, что язык — это система знаков. Первая из них полностью отрицает, что язык — это система знаков. Эта теория считается идеалистической теорией, противоречащей марксистской философии. В частности, эта точка зрения отчетливо отражена в ранних работах Л.О. Резников. По его мнению, агностицизм в языкознании выражается прежде всего в теории языка как системы знаков. Диалектико-материалистическое учение, основанное на теории восприятия, подчеркивает необходимость резкой критики этой формы агностицизма. Теория языкового знака — ненаучная теория. Он утверждает, что это средство проникновения в лингвистику самых вредных агностических взглядов, и поэтому его необходимо разоблачить и отвергнуть. Р.А. Будагов также отрицает теорию языковых

знаков. Он утверждает, что любой национальный язык — это не только система определенных выражений, но и результат своеобразного отражения всей деятельности тех, кто общается на этом языке. Он утверждает, что концепция самобытной природы языка существенно недооценивает природу национальных языков, а значит, и лингвистику. Появление и развитие в мировом языкознании таких направлений, как прагматика, дискурсивный анализ, когнитивная лингвистика, лингвокультурология, привело к появлению серьезных теоретических взглядов на интерпретацию ряда языковых единиц. В частности, подход к анализу текста с антропоцентрической точки зрения стал сегодня одним из ведущих направлений в лингвистике. Многие исследователи подчеркивают, что при изучении текста, представляющего собой сложное и многогранное явление, основным объектом должна быть триада говорящий – текст – слушатель (автор текста – текст – реципиент). Хотя изначально акцент на создателе текста в текстологии проявился в исследованиях в области психолингвистики и прагматики, сегодняшние быстро развивающиеся направления, такие как когнитивная лингвистика, функционализм, этнолингвистика, лингвокультурология и дискурсивный анализ, сделали этот вопрос одной из центральных проблем языкознания. Абдулхамид Нурмонов, хотя всеми лингвистами признано, что язык – это система знаков, принимая во внимание отсутствие в узбекском языкознании единого труда, обобщающего взгляды на теорию знаков, и соответственно, принимая во внимание тот факт, что некоторые лингвисты неверно трактуют учение о знаках, языковой знак и его виды, специфические характеристики: свобода и последовательность знака, дискретность знака; В ней на материале узбекского языка освещены теоретические взгляды на аспекты неизменности и изменчивости, а также ее структуру и пять аспектов, которые послужили теоретической основой для многих исследований в нашей лингвистике. С.М. Муминов, анализируя в своих исследованиях психолингвистический аспект общения, подчеркивает, что воздействие языка на человека является одной из его функций: «Общение — явление, тесно связанное с психологией и физиологией человека. Потому что всякая речь связана с мышлением, а мышление связано с психикой. Телом управляет психика. Поэтому все, что воздействует на психику, воздействует и на тело. Все это составляет психофизиологический аспект общения».

ЛИТЕРАТУРА:

1. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovlenie antropotsentricheskoy paradigmi v yazikoznani G'G' Filologicheskie nauki. – Moskva, 2001. – № 1. – S. 64.
2. Demyankov V.Z. Kratkiy slovar kognitivnix terminov. Sostaviteli: Kubryakova Ye.S., Demyankov V.Z., Pankras Yu.T., Luzina L.G. – M.: MGU im. M.V.Lomonosova, 1997. – S. 47.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Academia, 2001. – S. 17;
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... G'G' O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild. – S. 17.
6. Pimenova M.V., Kondrateva O.N. Konseptualnie issledovaniya. Vvedenie. – M.: Flinta, 2014.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 91.

FURQAT IJODINING DAVRIY MATBUOTDA O'RGANILISHI

Qo'ldasheva Dilnavoz Xatamovna

*Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
(PhD)*

Kamolova Moxira O'lmasaliyevna,

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi ta'lim talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining yirik vakili Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ijodining milliy adabiyotimizdagi o'rni, badiiy merosining o'rganilishi haqida so'z yuritiladi. Unda Furqat ijodiga oid tadqiqotlarning yoritilishida davriy matbuotning alohida o'rni ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'rifatparvarlik adabiyoti, furqatshunoslik, matnshunoslik, davriy matbuot, "Ahvolot", *sarv, sabo*.

Ma'lumki, Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat o'zbek adabiyoti va ma'naviyati tarixida shoir va adib, adabiyotshunos, tarixchi, tarjimon va elshunos sifatida nom qoldirgan. Uning ijodi tadqiqi bilan shug'ullangan olimlarning izlanishlari natijasida Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat haqida to'laqonli ma'lumotlar xalqimizga yetkazildi. Furqat adabiy merosining o'rganilishi, asosan, adabiyotshunoslik, matnshunoslik nuqtayi nazaridan keng ko'lamli bo'lib, shoir ijodining lingvistik xususiyatlari borasidagi o'rganishlar juda kam.

Furqat ijodiga oid tadqiqotlarning yoritilishida davriy matbuotning alohida o'rni bor. Furqatshunos olimlarning gazeta va jurnallarda chop etilgan maqolalarida Furqat merosiga oid turli jihatlar haqida so'z yuritilib, ularda shoir ijodining yangi qirralari kashf etilgan. Buni G'afur G'ulomning "Shoir ayblaydi", Sharif Yusupovning "Zabonim qushi ul xirmandin donachin o'ldi" va Nurboy Jabborovning "Nurli istiqbol umidi", "Furqat istilochini maqtaganmidi?" sarlavhali maqolalari misolida tahlil qilish o'rinlidir.

"Sharq yulduzi" jurnalining 1949-yil 11-sonida e'lon qilingan G'afur G'ulomning "Shoir ayblaydi" maqolasida Furqatning Hindistondan yozgan uchta maktubi haqida so'z boradi. Qayd etilishicha, "har uch maqola ham "Turkiston viloyatining gazetasi"ning 1897-yil 28- noyabrdagi 45-soni 6-7-sahifalarida bosilgan. Ma'rifatparvar va gumanist shoirlarimizdan bo'lgan Furqat mazlum, bechora, himoyasiz hind va afg'on xalqining ingliz zulmi ostida qattiq jabr-u jafoda chekkanini o'zko'zi bilan ko'rib, shu xabarlarni yozgan ekan..."⁹⁸.

Aytish kerakki, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi o'zbek adabiyoti tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Ushbu davriy nashrda uzoq yillardan buyon o'zbek adabiyotining yetuk vakillari ijodini tadqiq etishga qaratilgan badiiy, ilmiy maqolalar chop etilib kelinadi. Xususan, furqatshunos olimlarning Furqat hayoti va faoliyatiga oid qarashlarini ifoda etuvchi ko'plab xulosalari aynan u "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi sahifalari orqali keng jamoatchilikka yetkazilgan. Ixcham va sermazmun maqolalarda Furqat adabiy merosi o'rganilishiga doir fikr va xulosalar berib borilgan.

Sharif Yusupovning "Zabonim qushi ul xirmandin donachin o'ldi" maqolasi gazetaning 2009-yil 42-sonida e'lon qilingan bo'lib, unda o'zini o'zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Alisher Navoiyning shogirdi, u zot boshlab bergan an'analarning davomchisi, deb hisoblaydigan Zokirjon Furqat va uning ijodiga Navoiyning ta'siri haqida so'z yuritiladi.

Olim Zokirjon Furqat to'qqiz yoshligida tush ko'rib, hazrat Navoiydan "oq fotiha" olgani voqeasini shoirning o'zi tomonidan yozilgan "Ahvolot"i misolida ochib beradi. Shoirning ayni o'sha yoshida bitgan:

Mening maktab aro buldur murodim,

⁹⁸Фулом Ғ. Шоир айблаиди // Шарк юлдузи, 1949. –№11.

*Xatimdek chiqsa imlou savodim*⁹⁹.

bayti qutlug' "oq fotiha"dan keyingli ilk misralar edi.

Qayd etilganidek, Furqat o'z ijodini avvaliga buyuk Navoiy ijodiga taqlidiy munosabatda olib boradi, bora-bora yuksalish bosqichiga ko'tarilib, daho shoirning o'lmas an'alarini o'ziga xos yo'sinda davom ettirish va kamol toptirish salohiyatiga ega bo'ladi. Uning Navoiy g'azallariga bog'lagan tatabbu va muxammaslari el ichida shuhrat qozongani ham bejiz emas. Ulardan biri uning "O'lturg'usi" radifli g'azalidir.

Zokirjon Furqat "daho ustoz merosining eng noyob namunalari qayta-qayta murojaat etib, o'quvchi tasavvurini lol qoldiradigan benazir timsollar topishga, hazrat Navoiydek tengsiz qalam sohibi bilan eng yaxshi ma'noda musobaqalashishga unnab ko'radi. Endi u Navoiy nazmida cho'qqi hisoblangan qanchadan-qancha timsollarga yangicha munosabatda bo'la boshlaydi, ularning daho ijodkor asarlarida pinhon qolgan yangi-yangi qirralarini ochish darajasiga yetadi"¹⁰⁰. Sh. Yusupov Furqat ijodi Sharq she'riyatidan samarali bahramandlik sababidan yuksaligani, shoir mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilgan *it, lola, sarv, sabo* kabi timsollarni o'z ijodiga mahorat bilan olib kirgani va yangi-yangi qirralarini kashf etganini yuksak baholaydi. Olim maqola xulosasida Furqat yaratgan betakror timsollar "hali ko'plab yangi-yangi tadqiqotlarga mavzu bo'lishi muqarrar"¹⁰¹ ekanligini ta'kidlaydi.

"O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan furqatshunos olim Nurboy Abdulhakimning "Furqat istilochini maqtaganmidi?" maqolasi ham Furqat merosining o'rganilishida alohida ahamiyatga ega. Maqolada Furqat qalamiga mansub, ayrim mutaxassislar orasida munozaraga sabab bo'lgan "Rus askarlari ta'rifida" nomli she'riy asari tahlili berilib, uning asl mazmun-maqsadini ochib berishga e'tibor qaratiladi. Va ayni she'r "tor fikrlilar" nazarda tutganidek, "oq podshoh" siyosatini ma'qullash yoki istilochi rus askarini maqtashga qaratilgan emas, aksincha, xalqni Vatan va millat manfaatiga sadoqatga chorlovchi, ko'p qatlamli ma'noga ega baytlar zamiriga berkitilgan misralar ekanligi, u orqali shoir har qanday sharoitda ham Ona Vataniga sodiq turganligi oydinlashtiriladi. Bunda uning o'ziga xos til boyligi, ifoda usuli asosiy vosita bo'ladi. "Shuning o'ziyoq "Yurtdan ketgan har zot Furqat emas"ligiga yorqin bir dalildir."¹⁰² Shu bois ham qancha davrlar o'tsa-da, Furqat nomi ona yurtga sadoqat va vatanparvarlikning yuksak namunasi sifatida tilga olinadi.

Ma'lumki, XIX asrning ikkinchi yarmida erk va ozodlik, milliy o'zlikni anglash g'oyalari birinchilardan bo'lib Furqat ijodida namoyon bo'ladi. Shoir o'z vatandoshlarini davr holidan ogoh bo'lishga, jaholatdan uyg'onib, ma'rifat sari yuz tutishga da'vat etdi. Milliy ma'rifiy taraqqiyotni orzu qildi. Rus gimnaziyasi, vistavka yoki teatr haqida yozganida o'sha davrdagi fan-texnika yutuqlaridan foydalanib, zamonaviy bilim olishga intilish naqadar zarur ekanligini uqtiradi. Ayniqsa, "Mumtoz she'riyatning deyarli barcha janrlariga mansub qariyb o'n ikki ming misrali nazmiy merosi, "Ahvolot", "Qavoidi Chin va umuroti siyosiy" singari salmoqli nasriy asarlari, ijtimoiy-siyosiy mavzudagi publisistik maqolalari buning dalilidir.

Furqat hayotining qariyb uchdan bir qismi g'urbatda, ya'ni aziz Vatani, ona tuprog'idan ayri holda o'tgan. Shunday bo'lsa-da, u butun umr o'zi mansub bo'lgan Vatan va millatini yuksak taraqqiy etishiga ishonadi, nurli istiqbol umidi bilan yashaydi. Bugun esa shoir orziqib kutgan zamonlar keldi, xalqimiz taraqqiyot sari yuzlandi. Bunday yuksalishlardan Furqat singari mutafakkir, ma'rifatparvar ajdodlarimiz ruhining shod bo'layotgani haqiqatdir.

Mustaqillik davri furqatshunosligida haqqoniy yoritilgan mavzulardan biri Furqatning Rusiya istibdodiga munosabati masalasi¹⁰³ ekanligini ta'kidlash joiz. Chunki aynan mazkur yo'nalishdagi o'rganishlar ma'rifatparvar shoirning mustamlaka siyosati bilan murosasiz holda

⁹⁹Furqat. Сайланма. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б.76.

¹⁰⁰Юсупов Ш. Забоним куши ул хирмандин доначин ўлди // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2009. –№42.

¹⁰¹ Юсупов Ш. Забоним куши ул хирмандин доначин ўлди // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2009. –№42.

¹⁰²Абдулҳаким Н. Фурқат истилочини мақтаганмиди? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2002. –№9.

¹⁰³Қосимов Б; Жабборов Н. Фурқат (1859-1909). ziyouz.uz

yashagani, mazkur siyosatning xalqimiz taqdiridagi ayanchli oqibatlarini o'z ijodi orqali jiddiy fosh etganligini ko'rsatib berdi.

Xulosa qilib aytganda, matbuot nashrlarida e'lon qilingan badiiy va ilmiy maqolalar Furqat merosining tadqiq etilishi, shoir ijodiga oid yangilik va aniqliklarni ifoda etib kelgani bilan alohida qimmatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдулҳаким Н. Фурқат истилочини мақтаганмиди? // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2002. –№9.
2. Гулом Ғ. Шоир айблайди // Шарқ юлдузи, 1949. –№11.
3. Қосимов Б; Жабборов Н. Фурқат (1859-1909). ziyouz.uz
4. Фурқат. Сайланма. – Тошкент: Маънавият, 2009. – Б.76.
5. Юсупов Ш. Забоним куши ул хирмандин доначин ўлди // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2009. –№42.

ХАРАКТЕРИСТИКА ТВОРЧЕСКОГО МЕТОДА Л.ПЕТРУШЕВСКОЙ

Нурматова Садбар Эркиновна,

Преподаватель кафедры социально-гуманитарных наук заочного отделения ФерГУ,
Жураева Диера
магистр ФерГУ

Аннотация. Статья посвящена творчеству Людмилы Петрушевской, одной из ярких и самобытных авторов современной русской прозы. В ней анализируется специфика жанра рассказа в произведениях писательницы, особенности её стиля и художественных приёмов. Особое внимание уделено таким темам, как безнравственность, алкоголизм, кризис семейных отношений и духовная утрата

Ключевые слова: современная русская проза, актуальная проблема, метафора, символ, художественные детали, постмодернизм.

Л.С. Петрушевская является одним из ярких, самобытных авторов современной русской прозы. В своем творчестве она отдает предпочтение жанру рассказа. Автор в своих произведениях освещает такие актуальные проблемы современности, как безнравственность, алкоголизм, вопросы воспитания детей, утрата преемственности поколений в семье, обретение веры и религиозности. В многочисленных произведениях, она поднимает сложные, противоречивые вопросы действительности, раскрывая в них мысли и переживания, желания и стремления современников. Для отображения бытия во всей противоречивости писательница мастерски владеет широким диапазоном изобразительных средств – метафорой, символами, художественными деталями и разными другими формами. В творчестве Л. Петрушевской жанр рассказа занимает значительное место. В этом отношении особого внимания заслуживают рассказы, вошедшие в сборник «Черное пальто. Страшные случаи».

Писательница придает большое значение жанровой форме рассказов, их стилевой специфике. Чувства сострадания, поиска правды и смысла жизни, глубокие переживания героев являются эмоциональной точкой рассказов автора. В рассказе «Черное пальто» героиня, не сумевшая выдержать проблемы, решает закончить свою жизнь самоубийством. В рассказе «Черное пальто» прослеживается классическая для Петрушевской тема отчаяния, поиска выхода из ситуации и, как следствие, желание героини завершить свою жизнь самоубийством. Этот поступок — не просто трагедия, но и момент глубокого личного кризиса, отчаяния и невозможности найти решение для своих проблем. Один из ключевых аспектов произведения — это тот факт, что героиня,

несмотря на свою слабость и утрату смысла жизни, переживает сложные внутренние переживания. Ее борьба с собой, с внутренними демонами, и чувство, что она утратила свою идентичность, создает драму, которая затрагивает читателя на эмоциональном уровне. Каждый волен трактовать смысл этого произведения по-своему.

Еще одной характерной чертой, свойственной творчеству писателя, является синтетизм. Даже если она точно определяет жанр произведений, писательница постоянно ищет новые изобразительные средства и формы для наиболее полного отражения общественных отношений и взаимоотношений людей. Для ее произведений характерны резкие сюжетные повороты, обычно это явление наблюдается в конце произведения. Л. Петрушевская в рамках одного произведения довольно часто использует признаки, присущие другой жанровой форме. Одним из них является введение элементов, характерных для жанра новеллы. Иными словами, писатель, переплетая в одном рассказе свойства разных жанров, одни из которых свойственны рассказу, а другие – новелле, создает своеобразное художественное произведение с новыми гранями и чертами. В. В. Кожин пишет: «Новеллу и рассказ выделяют как острое, ярко выраженное событийное, напряженно-динамичное повествование (новелла) и, наоборот, как повествование с естественно развитым сюжетом, эпическое, спокойное»¹⁰⁴.

Эти авторские приемы позволяют раскрыть героев рассказа в психологической плоскости, тем самым усиливая эстетическое и эмоциональное воздействие на читателя.

В рассказах Л. Петрушевской важное место занимают художественные детали. Они могут помочь раскрыть смысл происходящего события в произведении, каким-то образом охарактеризовать героя либо сыграть важную роль в объединении всей канвы повествования.

В своих рассказах Л. Петрушевская удачно использует прием кольцевой композиции. Создание событий внутри события – этот прием со временем превратился в стилевое качество, характеризующее творчество писателя.

В своих рассказах писательница раскрывается как мастер психологизма. Для отображения душевного мира героев автор уделяет особое внимание подробной характеристике и описанию их портретов, окружающих явлений.

Таким образом, творчество Людмилы Петрушевской представляет собой глубокий и многогранный взгляд на современную русскую действительность. Ее произведения, наполненные острыми социальными проблемами, такими как безнравственность, алкоголизм, кризис семейных отношений, а также поиски веры и духовности, отражают не только индивидуальные переживания героев, но и более широкие вопросы человеческого существования. Петрушевская мастерски использует различные художественные средства, включая метафоры, символы и художественные детали, чтобы раскрыть психологию своих персонажей и создать эмоционально насыщенные произведения.

Жанр рассказа занимает центральное место в ее творчестве, а такие произведения, как «Черное пальто», демонстрируют ее умение глубоко проникать в мир внутреннего кризиса человека. Использование синтетизма, смешение жанров и резкие сюжетные повороты делают ее стиль уникальным и ярким. Вдобавок, прием кольцевой композиции и внимание к художественным деталям позволяют создать произведения с глубокой внутренней связью и смысловой насыщенностью.

Таким образом, Л. Петрушевская является не только мастером психологизма, но и новатором, который, исследуя темные и сложные стороны человеческой души, создает произведения, вызывающие глубокие размышления и эмоциональный отклик у читателя.

¹⁰⁴ В.В.Кожин (Словарь литературоведческих терминов, 1974, с. 309

ЛИТЕРАТУРА

1. Беляева, С. В. "Социальные проблемы и моральные дилеммы в произведениях Людмилы Петрушевской". — Москва: Либроком, 2015.
2. Бродский, И. "Людмила Петрушевская: Проза, трагедия, философия". — Москва: Водолей, 2004
3. Воробьев, С. "Современные литературные формы и жанры". — Санкт-Петербург: Издательство РГГУ, 2012.
4. Гроссман, Д. В. "Психологическая реальность в литературе". — Москва: Наука, 2009.
5. Зверева, И. В. "Психологизм в современной русской прозе". — Санкт-Петербург: Алетейя, 2005
6. Кожин, В. В. "Теория литературы". — Москва: Просвещение, 2007.
7. Носов, А. "Жанровые особенности современной русской прозы". — Санкт-Петербург: Инапресс, 2008.
8. Липовецкий, М. "Литературные течения в постмодернизм". — Москва: Академический проект, 2010.
9. Петрушевская, Л. С. "Интервью и статьи о творчестве". — Москва: Молодая гвардия, 2006.
10. Петрушевская, Л. С. "Черное пальто. Страшные случаи". — Москва: Время, 2003

SHAVKAT RAHMON SHE'RIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Madinaxon Yusupova Egamberdi qizi

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sobirova Mamura, Turg'unboeva Nazokat, Abduxalilova Mexrinso

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek zamonaviy poeziyasining yirik namoyandalaridan biri — Shavkat Rahmonning she'riyati o'ziga xosligi, undagi badiiy-estetik tamoyillar, falsafiy teranlik, poetik izlanishlar va milliy ruh tahlil etiladi. Shoirning obrazlar yaratish mahorati, vaqt va hayot mohiyatiga bo'lgan yondashuvi ilmiy nuqtayi nazardan yoritilgan.

Kalit so'zlar: Shavkat Rahmon, zamonaviy o'zbek she'riyati, poetik tafakkur, vaqt timsoli, badiiy obraz, falsafa, milliylik.

O'zbek adabiyotida Shavkat Rahmon nomi zamonaviy poeziyaning yetuk namoyandasi sifatida alohida o'rin egallaydi. Uning she'riyati nafaqat badiiy mahorati, balki inson ichki olamining nozik jihatlarini yoritishdagi falsafiy teranligi bilan ham ajralib turadi. Shoir asarlarida milliylik va umuminsoniylik uyg'unlashgan bo'lib, har bir she'r hayot, vaqt va umr haqida mushohada qilishga undaydi.

Shavkat Rahmon she'riyati o'zbek adabiyotida o'ziga xos uslub, mazmun va badiiy-estetik yondashuvi bilan ajralib turadi. Quyida uning she'riyati o'ziga xosligini belgilovchi asosiy jihatlar keltiriladi. Jumladan, ruhiy-intellektual teranlik Shavkat Rahmon she'rlarida inson ichki olami, falsafiy mushohadalar, ruhiy kechinmalar chuqur ifoda etiladi. U hayot, o'lim, vaqt, abadiyat kabi mavzularga intellektual yondashuv bilan murojaat qiladi. Milliy va umuminsoniy g'oyalar uyg'unligi Shavkat Rahmon o'z she'rlarida o'zbek xalqining tarixiy xotirasi, qadriyatlarini, madaniy merosini tarannum etish barobarida, umuminsoniy muammolar — axloq, haqiqat, adolat kabi mavzularni ham yoritadi. Badiiy tilning boyligi va metaforik ifoda uning she'riyati badiiy tasvirlar, metaforalar, timsollar bilan boy. Shavkat Rahmon so'z ustasi sifatida

oddiy hodisani chuqur badiiy ifoda bilan tasvirlay oladi. Yangi poetik shakllar izlanishi shoir she'rlarida klassik shakllardan tashqari, erkin vazn, g'oya va shakl uyg'unligini izlash, yangicha badiiy ifoda vositalarini sinab ko'rish holatlari ko'p uchraydi. Shuningdek, ko'plab she'rlarida vatan, millat, ona tiliga muhabbat g'oyasi markaziy o'rinda turadi. Bu sevgi shunchaki hissiyot emas, balki chuqur ma'naviy ehtiyoj sifatida ifodalanadi.

Umr... Avvalboshda hech poyoni yo'qday bo'lib ko'rinuvchi, ammo qancha yurganingni bilmay manzilga eltib qo'yuvchi yo'l... Hayotingdagi kunlaringni bir-bir yo'qlik qa'riga to'kuvchi qumsoat. Avvaliga beparvo qaragan odam qumsoat yarimlar ekan, birdan xushyor tortib, o'tgan umrini sarhisob qila boshlaydi. Shunda o'zi yo'l qo'ygan xatolarni ko'rib, ko'zi yoshga, qalbi g'ashga to'ladi. Ularni tuzatmoq uchun ham yana yashagisi keladi. Ammo nachora: "umrni qumsoat singari to'nkarib bo'lmas"...

Umr — qumsoat ham yarimlab qoldi, ko'nglim to'lgani yo'q bilganlarimdan.

Yodimni og'ritar kechirganlarim, ko'pdir qilmaganim qilganlarimdan.

Kechalar tobora oydinlashadi, ko'zingda quyoshning chechagi so'lmas,
yashaging keladi, faqat umrni qumsoat singari to'nkarib bo'lmas.

Go'zallar yodimdan o'chdilar bir-bir, do'stlarim bag'rimdan ko'chdilar bir-bir, yillarim
uzilib tushdilar bir-bir, faqat bu ko'ngilni to'ldirib bo'lmas.

Kun keldi, ohlaring uchadigan kun, yuraging olamga sig'maydigan kun, yuzingni
bosgancha yerning yuziga, silkinib-silkinib yig'laydigan kun.

Kimni baxtli qildim, kimni umidvor, kimlarga ko'nglimni yorib so'yladim. Qo'limni
berdimmi moziy qa'ridan cho'zilgan sanoqsiz ojiz qo'llarga?!

Quyosh daldasida egilganlarning yengilroq qildimmi og'irligini?

Aytdimmi kimlarning asl do'stligin, kimlarning haqiqiy yog'iyiligini?!

Kun keldi, boshingni egadigan kun, hattoki o'zgaralar gunohi uchun
Yuzingni bosgancha yerning yuziga, silkinib-silkinib yig'laydigan kun.

Mendan nima qolur, abadiy nurlar barq urib yashnagan dunyo tomonda?

Urinib-surinib, sira to'lmagan bir ko'ngil qoladi qolsa ham mendan.¹⁰⁵

Shavkat Rahmonning "Umr – qumsoat" she'ri — shoirning hayot, vaqt va inson taqdiri haqida chuqur falsafiy mulohazalari mujassam bo'lgan asarlaridan biridir. Quyida ushbu she'rning tahlili va uning badiiy o'ziga xosligi haqida fikr yuritamiz: She'rning asosiy mazmuni "Umr – qumsoat" she'rida inson umrining vaqtga bo'lgan bog'liqligi, uning o'tkinchiligi va tezlikda o'tib ketishi qumsoat timsolida tasvirlangan. Shoir qumning sekin-asta to'kilib tushishiga o'xshatib, inson hayotining har lahzasi beqiyos va qadrli ekanini eslatadi.

Har bir qum donasi — bir lahza, bir nafas, bir qadriyat. Falsafiy qatlam She'r hayotning abadiy emasligini, vaqtning esa hech qachon ortga qaytmasligini anglatadi. Shoir o'quvchini o'z umriga mas'uliyat bilan qarashga, har lahzaning qadriga yetishga da'vat etadi. Bu yerda vaqt nafaqat o'lchov birligi, balki hayot falsafasining o'zagi sifatida ko'riladi. Badiiy vositalar Qumsoat metaforasi – bu obraz orqali vaqtning o'tishini, hayotning o'zgaruvchan tabiati ifodalanadi. Allegoriya va timsollar – vaqt, umr, nafas kabi tushunchalar jonlantirib, obrazga aylantirilgan. Oddiy so'zlar orqali chuqur mazmun – she'r murakkab iboralardan yiroq, ammo falsafiy yuklama kuchli. She'rda kuzatiladigan hissiy ohang "Umr – qumsoat"da g'amgin, lekin uyg'otuvchi, ogohlikka undovchi ohang mavjud. Shoir insonni vaqtga befarq bo'lmaslikka, har daqiqani qadrlashga chorlaydi. Shavkat Rahmonning "Umr – qumsoat" she'ri — o'zbek zamonaviy she'riyatida vaqt va hayot falsafasini badiiy tilda chuqur ifodalagan namunadir. Shoir har bir insonga hayotining qumsoati asta-sekin to'kilib borayotganini eslatadi va shu orqali har bir lahzani go'zal va ma'no bilan yashashga undaydi.

Tong ochar ko'zlarin erinib, sevinchdan yig'laydi qiyochlar,

Chechaklar jilmayar sevinib, shamolda cho'milar giyohlar.

¹⁰⁵ <https://tafakkur.net/umr-qumsoat/shavkat-rahmon.uz> Shavkat Rahmon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.

O'ynoqi shu'lalar — bolalar jimgina tarqalar sayhonga,
O'rgimchak to'qiydi tolalar, xonqizi boradi mehmonga.
Qurbaqa varaqlar bayozin, guldin bol so'radi arilar,
Chigirtka qayraydi ovozin, parvozda ninachi — parilar.
Chumoli, mehnatkash chumoli, kuyinma, atrofga bir qara — maysalar,
Oh, qanday himoli, dunyoni qilma ko'p masxara.¹⁰⁶

She'r hayotning go'zal bir oni - tong lavhasidan hikoya qiladi. U majoziy xarakterda. Tong ko'zlarini erinib ochar ekan, butun olam munavvar bo'lib, yorishib ketadi. Tabiatdagi har bir mavjudot, hatto mitti hasharotlar ham bu go'zallikni his etadi, qalbi zavq-u shavqqa, betimsol lazzatga to'ladi. She'rning shu yerida badiiy kashfiyot bor: shoir chumolining shu paytga qadar ulug'lanib kelgan xislati - mehnatkashligiga salbiy munosabatini bildiradi! Turmushning ikir-chikirlari bilan o'ralashib, hayotning unutilmas lahzalariga beparvo qarash, uning go'zalligini ko'rmay olamdan o'tib ketish dunyoni masxara qilish bilan teng, deydi shoir.

Xulosa qilib aytganda, Shavkat Rahmon o'zbek she'riyatida o'z ovozigina, o'z falsafiy qarashlariga ega bo'lgan noyob shoirdir. Uning she'rlari o'quvchini nafaqat estetik zavq bilan to'ldiradi, balki hayot haqida chuqur mushohadaga chorlaydi. Shoir ijodida badiiylik, falsafa va milliy ruh uyg'unlashib, zamonaviy o'zbek adabiyotining yuksak namunalaridan birini tashkil etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Rahmon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.
2. Qo'chqor Norqobil. She'riyat va tafakkur. – Toshkent: Akademnashr, 2015.
3. Karimov N. O'zbek she'riyati: Poetik tafakkur yo'nalishlari. – Toshkent: Fan, 2012.
4. Zohidov A. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2020.
5. <https://tafakkur.net/tong-ochar-kozlarin/shavkat-rahmon.uz>.

BADIIY ASARDA TARIXIY SHAXS OBRAZI VA XARAKTERI. (BAXTIYOR ABDUG'AFURNING “MADAMINBEK: QONLI GULLAR VODIYSI” TARIXIY ROMANI ASOSIDA)

**Vosiljonov Azizbek Bahodirjon o'g'li,
Soliyev Shoxrux Xolmuxammad o'g'li**
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Madaminbek:Qonli gullar vodiysi” tarixiy romanida Madaminbek obrazi, xarakteri ochib berilgan. Tarixiy asarda tarixiy shaxsning ochib berilishi, asarning muhim o'ringa ekanligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'z va iboralar: Tarixiy asar, badiiy haqiqat, shaxs, obraz, Baxtiyor Abdug'afur, “Madaminbek:Qonli gullar vodiysi”, xarakter, tarixiy haqiqat.

Аннотация: В данной статье раскрыт образ и характер Мадаминбека в историческом романе «Мадаминбек: Долина кровавых цветов». В историческом произведении показано раскрытие исторической личности, а также подчеркивается важность данного произведения.

Ключевые слова и фразы: Историческое произведение, художественная правда, личность, образ, Бахтиёр Абдугафур, «Мадаминбек: Долина кровавых цветов», характер, историческая правда.

¹⁰⁶ <https://tafakkur.net/tong-ochar-kozlarin/shavkat-rahmon.uz>. Shavkat Rahmon. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2006.

Abstract: This article explores the image and character of Madaminbek in the historical novel *Madaminbek: Valley of Bloody Flowers*. The historical figure is revealed through the work, highlighting the significant role of the novel.

Key words and expressions: Historical work, artistic truth, personality, image, Baxtiyor Abdug'afur, *Madaminbek: Valley of Bloody Flowers*, character, historical truth.

Hozirgi kunda Tarixiy asarlarga bo'lgan qiziqish borgan sari ortib bormoqda. Hozirgi yoshlarning ko'p qismi tarixiy-badiiy asarlar o'qishmoqda. Bu esa yozuvchilardan tarixga xolis baho bera oladigan asarlar yozilishini talab qilmoqda. Har bir inson ma'navi shakllanishida tarixni o'rni beqiyosdir. Bu albatta badiiy adabiyot bilan chambarchas bog'liqdir. Tarixiy mavzudagi asarlar orqali inson tarixni anglashga intiladi. Tarix doimo xolis bahoga muhtojdir. Zero, o'tmishdan ibrat olinishi, qachondir yo'l qo'yilgan xatolar takrorlanmasligi, erishilgan muvaffaqiyatlar mustahkamlanishi uchun alohida bir shaxs ham, butun bir millat ham tarixiy haqiqatni qanday bo'lsa, shunday ko'ra bilishi kerak bo'ladi. Taassufki, sho'ro tuzumi davrida o'tmish ham, hozir-u kelajak ham faqatgina mafkuraga ma'qul keladigan shaklda talqin etildi. Tarixning soxtalashtirilishi, hayotning yolg'onga o'ralishi oqibatida kelajak sarobga aylantirildi. Jumladan, turkiy xalqlar tarixidagi eng qudratli saltanatlardan birini tuzgan Amir Temur, Shayboniyxon, Bobur, Madaminbek, Shermuhammadbek, Kichik Ergash kabi yurt qahramonlarimiz "yovuz", "bosqinchi", "qonxo'r", "bosmachi" kimsa sifatida qoralandi, ular haqida tarixiy haqiqatni yozgan ijodkorlar tarixni bilmaslikda ayblandilar.

Xuddi shunday noxolis yondashuv, hozir aytganimdek, XX asrning boshlarida Turkiston o'lkasining katta qismini qamragan milliy ozodlik harakatiga nisbatan ham qaror topdi. Aniqrog'i, o'sha davr ishtirokchilariga nisbatan faqatgina ikki tusda: «dushman» va «tarafdor» tarzida baho berildi. Natijada taloto'plardan foydalanib, xalqni talagan, o'zining chirkin manfaatinigina o'ylagan kimsalar qatorida ona-Vatanini bosqinchilardan ozod qilishni orzulagan, millatning erkin, mustaqil, hur yashashini istagan fidoi o'g'lonlar ham "bosmachi", "qaroqchi", "talonchi", "kallakesar", "xalq qonini so'rgan zuluk" degan haqoratli nomlar bilan ataldi. Boshqacha aytganda, milliy ozodlik harakati ishtirokchilari sho'rolarning qurol-yarog'idan talofat ko'rgan bo'lsalar, ularning avlodlari makkor dushmanning kuchliroq va samaraliroq quroli – g'oyaviy urushdan undanda ko'proq zarba oldilar.

Baxtiyor Abdug'afurning "Madaminbek:Qonli gullar vodiysi" tarixiy romanida XX asr boshlarida Turkiston alg'ov-dalg'ov voqealar girdobida qolganligi tarixiy haqiqat sifatida ochilgan. Shunday og'ir vaziyatda Turkiston xalqi orasidan chinakam yurt fidoyilari yetishib chiqdi va vatan ozodligi yo'lida tengsiz kurashga kirishdi. Asarda Turkistondagi Milliy-istiqlolchilik harakati rahbari bo'lgan Madaminbek hayoti bosh qahramonlaridan biri Maqsudbek Ibrohimbek o'g'lining tilidan hikoya qilinadi. Qo'qondagi qirg'in, xunrezliklarning guvohi bo'lgan, yaqinda madrasani tamomlab, otasining paxta zavodini qurish orzusida yurgan shoirtabiat yigit – Maqsudbek, qo'lga qurol oladi va Farg'onaning eng yirik qo'rboshisi Muhammad Aminbek Ahmadbek o'g'li – Madaminbek bilan tanishadi. Tez orada Madaminbekning ishongan yigitlari qatoridan joy oladi. Madaminbek vodiya qarshilik harakatlarini boshqarayotgan yagona qo'rboshi emas. Qo'rboshilarning 1-yig'ilishida Katta Ergash „Amir-ul muslimin“ sifatida saylanadi. Biroq qobiliyat va salohiyat borasida ustun bo'lgan Madaminbek tez orada Amir ul-musliming bo'ysunmay, mustaqil harakat qilishni boshlaydi. Madaminbek rus xristianlari bilan ittifoq tuzishi musulmon qo'rboshilar orasida Madaminbekka qarshi fikrlarni kuchaytiradi. Shunga qaramay, Madaminbek salmoqli janglar olib boradi va Jalolobodni qo'lga kiritadi. Maqsudbekning tog'asi Islomxon To'ra hamda Hojimat eshon harakatlari bilan Madaminbekning qarorgohi bo'lgan Oyimqishloqda bo'lib o'tgan qurultoyda Madaminbek „Amir ul-muslimin“ deb saylanadi. Madaminbek qadrdon do'sti Shermuhammadbek bilan ittifoq tuzish uchun muzokara o'tkazish maqsadida hamrohlarsiz yo'lga chiqadi. Madaminbek Shermuhammadbek bilan ko'rishishga ulgurmay yo'lida xoinlar tomonidan suiqasdga uchraydi.

Asarda Madaminbek qat'iyatli, o'ziga ishonchi baland, ma'rifatparvar, ilmli, jasur, dovyurak, aqlli, shoirtabiat, ko'ngilchan, zehni o'tkir, adolatparvar inson sifatida tasvirlangan.

Asar voqealar rivoji quyidagicha rivojlanadi. Madaminbek (Muhammad Aminbek) Ahmadbek o'g'li 1892 yilda Marg'ilonning So'qchilik kasabasida qashshoqlanib qolgan bekozodalar xonadonida tug'ilgan. Marg'ilonda Madaminbekning avlod-ajdodlarining "Bekulug'" deb yuritishardi. Bu bejiz emas. Asli hozirgi Toshloq rayoning Sadda qishloq sho'rosi hududida joylashgan So'xchilik qishlog'ida 1892-yili tavallud topgan Madaminbek el-yurtga taniqli yigit edi. Madaminbek bekklik unvonini qo'rboshilik faoliyatini boshlaganidan so'ng olgan emas. So'qchilik qishlog'idagi keksalar va Madaminbekning turmush o'rtog'i Saodat ayaning xotirlashicha, u nasl-nasbi jihatidan ham bek bo'lgan. Ruslar Farg'onani bosib olganlaridan so'ng, Madaminbek ajdodlari o'z mavqelarini yo'qotadilar. Uning otasi Ahmadbek qoshiq, cho'mich va boshqa ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqaradigan kichik ustaxonaning egasi edi. Ozmoz savdogarchilik bilan shug'illanar edi. Madaminbekning bir akasi va ikki opasi bo'lgan. [3] Madaminbek yoshligida otasiga yordam berib, yog'ochdan turli buyumlar yasab sotib yurdi, keyinchalik bozorda hammollik, do'kondorlik, karvonlarda sarbonlik qildi. Savodi tuzuk bo'lganligi uchun savdogarlar, zakunchilar, amaldorlar doiralariga ham kirib bordi.[4] Madaminbek Birinchi jahon urushi arafasida chor Rossiyasi hukmronligiga qarshi bosh ko'taradi. 1914-yili qamoqqa olinadi. Sud Madaminbekni o'zi tan olmagan ayblar - qotillik va o'g'irlikni unga to'nkab, 14 yilga Sibirdagi Nerchinsk degan joyga katorgaga hukm qiladi. 1917-yil Fevral inqilobidan keyin siyosiy mahbus sifatida Madaminbek ozodlikka chiqadi va Marg'ilonga qaytib keladi.[5]

"Madaminbek:Qonli gullar vodiysi" asarida Madaminbek quyidagicha tasvirlanadi "o'rta bo'ylik, oq yaktak ustidan marg'iloncha to'n kiygan, nigohi vazmin va sinovchan boquvchi, belbog'iga to'pponcha qistirgan, qo'nji baland etik kiygan yigit turardi.[2] Yana bir o'rinda esa "Madaminbek o'rta bo'ylik, to'ladan kelgan, qizilga moyil yuzlik, xotirjam va o'ziga ishonch bilan gapirguvchi yigirma olti yoshlardagi yigit edi. Uning qat'iy, qandaydir sirli, o'tkir nigohi suhbatdoshlarini muvozanatdan chiqarishga qodir edi.[2] Demak Madaminbek qo'lga qurol olib bolsheviklarga qarshi kurashyotganda endigina yigirma olti yoshda ekanligini ko'rmoqdami.

Madaminbekning Sibirga nohaq surgun qilinishi ham berib o'tilgan. Muallif bu voqealarni tasvirlab berishda ichki holatdan foydalanadi, ya'ni to'g'ridan to'g'ri berib qo'ya qolmaydi. Madaminbek yoniga kelgan rus zobiti voqeasida ozgina to'xtalib o'tadi va o'quvchida qiziqish uyg'otadi. Voqealar rivojida esa keyinchalik Shermuhammadbekning tashrifida u bilan suhbat jarayonida yana Sibirga surgun qilingani, hayotida duch kelgan qiyinchiliklar, hatto bir parcha qora nonga zor bo'lganligi ochib beradi va Madaminbek endi Narchinskka "etap" qilingan shoirtabiat yigit emas balki diydasi qotgan, uncha-munchaga ko'ngil yoravermaydigan inson ekanligi oydinlashadi.

Asarda Madaminbekning adolatparvarligi bir necha marotaba berib o'tilgan. Masalan, Marg'ilon "Ulomo" jamiyatining faol a'zosi Abdurahmon zakonchini qotillar so'yib ketishadi. Bu vaqtda Madaminbek shahar mirshabboshisi edi va u tez orada qotillarni topib jazolashini aytadi. Tezda qotillar topilib, omma oldida otib tashlanadi.

Madaminbek qobilyatli, zehni o'tkir, shoirlika moyil inson bo'lgan. Bu ham asarda o'z ifodasini topgan. Masalan asarda Bekni savodi bor ekanligi hamsaboqdoshi Hojixon Maxsum tilidan berilgan. Madaminbek va Hojixon Maxsum Mirhadarning ilg'or usuldagi maktabida tahsil olgani, madaminbekning bir o'qigan narsasini shundoq yod olishi, o'shandayoq Qur'onni yod olib qori bo'lganligi tariflab o'tilgan. Shuningdek, Madaminbekni Fuzuliy va Navoiy g'azallarini yod olganligi Maqsudbek bilan suhbatda ochib beriladi. Asarda " – Ularni men ham qo'limga olib turaman. Ayniqsa Fuzuliy. Hazrat Navoiy esa Benazir! Kishiga kuch beradi uning misralari... – Madaminbek ko'zlarini xiyla yumib, yoddan bir g'azalni o'qiy boshladi:

*Hajr o'turdi meni, anglasam erdi muncha,
Do'stlar yordin ayrilmasdim o'lguncha.
Zohido, do'zax o'tida meni ne qo'rqtasan?*

Hajr o'ti qoshida ko'rmasmen oni uchquncha..[2]

Ushbu g'azal Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidan olingan. Demak, ko'rib turganimizdek Madaminbek marifatparvar va shoirtabiat bo'lganligini kitobxon anglab yetishi qiyin emas.

Xulosa qilib aytganda asarda Madaminbek xalqni ozodlikka chiqarish uchun jon bergan fidoyi, jasur, adolat uchun kurashadigan inson, marifatli tarixiy shaxs sifatida ochib berilganligi, bolsheviklarga qarshi kurashgan yurt qahramoni sifatida ochib berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baxtiyor G'ofurov, Qo'rboshi Madaminbekni kim o'ldirgan? 2020., 3-son
2. Baxtiyor Abdug'afur Madaminbek: Qonli gullar vodiysi. – Toshkent: Akademiya nashri, 2023. – 496 b.
3. Alisher Ibodov, Qo'rboshi Madaminbek, Yozuvchi. 1993., B.15.
4. Mansurxo'ja Xo'jayev, Shermuhammadbek, Sharq., T.:, 2008., 18-bet
5. Q.Rajabov, O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 2002., 21-son.
6. Yo'lchiyev Q.V. Lirik she'rda badiiy makon muammosi. So'z san'ati xalqaro jurnali, 2020-yil, 5-son.
7. Soliyev Sh.X. Baxtiyor Abdug'afurning "Madaminbek: qonli gullar vodiysi" tarixiy romanida tarixiy shaxslar obrazi. Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Vol 3, Issue 10, 243-245-bet <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/download/5777/5659/5803>

BADIIY OBRAZ VA ESTETIK IDEAL SINTEZLASHUVI

Yusupova Madinaxon Egamberdi qizi

Farg'ona davlat universiteti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

To'xtasinova Mohigul, Isaqova Zarnigor

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi 2M.23.34-guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir olim Alisher Navoiy obrazi va estetik idealning sintezlashuvi masalasi o'zbek adabiyoti she'riyati misolida yoritib berilgan. Adabiyotshunoslikning muhim ilmiy kategoriyalaridan biri bo'lgan "estetik ideal" tushunchasi "go'zallik, estetik mukammallikning yuksak darajasi haqidagi his etiladigan konkret-timsoliy shaklda aks etuvchi tasavvurlar" yig'indisi demakdir. Ijtimoiy hayotdagi har bir inson ongida "mukammal jamiyat, mukammal ijtimoiy munosabatlar, mukammal inson haqidagi tasavvurlar mavjud bo'lib, ularning bari idealni tashkil qiladi".

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, badiiy obraz, estetik, ideal, sintez

Badiiy adabiyotda har bir yozuvchi jamiyat hayotini qalamga olar ekan, undagi badiiy voqelik, badiiy voqelikni tashkil etayotgan obrazlar, amaldagi jamiyat a'zolariga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi, estetik vazifasini bajaradi. Yaxshi voqeliklar orqali insoniyatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkam qilsa, salbiy voqeliklar ifodasi bilan ayrim shaxslarning to'g'ri yo'lni topishida "oyna" vazifasini o'taydi. Bunda badiiy obrazlarning ahamiyati beqiyos. Ayniqsa, tarixiy voqelik va undagi tarixiy shaxslarning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi asarlar kelajak avlod ong va shuurini yanada teranlashtiradi, bunday obrazlar sifatida tarixda o'zining jangovar qobiliyati, podshohlik salohiyati yoki ijodkor sifatida qalbga yaqin misralar muallifi, olam sirlarini anglagan insonlar, jamiyatning boshqa vakillari uchun xaloskor bo'lgan shaxslar muhim ahamiyat kasb etadi. Lirik poeziyada ko'pincha tarixiy shaxs sifatida allomalar, shoirlar, davlat va jamoat arboblari gavdalanadi. Beruniy, Ibn Sino, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur va h.k.

Tarixiy siymolar obrazi muallifning badiiy niyatini o'quvchiga anglatishda estetik ideal vazifasini bajaradi. Jumladan, Alisher Navoiy "fikrat ibrat, jasorat ibrat, ta'b ibrat, zakovat ibrat" kabi bir qancha ibratlarni o'zida jo qilgan inson obrazi sifatida muallif-shoirning ijodiy niyatini ifoda etishda estetik ideal vazifasini o'taydi. Shoirlar Navoiy obrazini she'riyatda ifoda etishda bu obrazni faqatgina "ibrat" qilib emas, balki o'zlarini Navoiydek ulug' ajdodlariga munosib avlod va voris sifatida qalbida g'urur hamda iftixor tuyg'usini tuyadigan yoshlar nomidan ham so'zlaydi.

Buyuk shoir haqida yozilgan she'rlarni shartli ravishda quyidagi asosda tahlil etish mumkin:

1. Alisher Navoiy tarixda qanday inson bo'lganligi haqidagi ayrim tarixiy voqealiklar asosida yaratilgan she'rlar (G'ulom "Alisher", Mirtemir "Navoiy", E.Vohidov "Alisher Navoiy kemasi", A.Oripov "Alisher", Shavkat Rahmon "Shoirlar hiyobonida", Xurshid Davron "Alisher Navoiy", Azim Suyunning "Fevral", Aziz Saidning "Karvon tortib Navoiyga kelib qoldik", Asqar Mahkamning "Alisher Navoiyning so'nggi kunlari" kabi she'rlari).

2. Navoiy siymosini siyratidek jonlantirishda uning ijodiga, asarlariga murojaat qilinib yaratilgan she'rlar (Shukur Qurbonning "Navoiyni anglash", Abdulla Sher "Navoiyni sog'inib..." turkum she'rlari, Zebo Mirzoning "Oybek. "Navoiy"ni o'qib", Nodir Jonuzoqning "Navoiy" kabi she'rlari).

Bugungi o'zbek she'riyatida ko'plab shoirlar Navoiy ijodiga to'xtalib, buyuk mutafakkir siymosi she'riy misralarda aks ettirilgan. Bu siymoga murojaat etishdan asosiy maqsad kitobxonlarni insonparvarlik, hilmlilik, yaxshi fazilatlar sohibi bo'lishga undash, ularning jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishida xalq e'tirofidagi tarixiy shaxslar hayotini o'rnatib qilib ko'rsatish, o'z ajdodlariga nisbatan ular qalbida faxr tuyg'usini uyg'otish, ular qoldirib ketgan ilmiy-madaniy merosdan to'laqonli bahramand bo'lishga intilishlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ideal timsollarga xos xususiyatlar orqali o'quvchi-kitobxon estetik didini shakllantirish, Navoiy dahosidan ruhiy madad olish, buyuk shoir ijodiy olamini anglatishga erishishdan iborat. Jumladan, G'ofur G'ulomning "Alisher" nomli she'ri 1948-yilda, mustaqillikdan oldingi davrda yozilgan bo'lsa-da, besh yuz yil naridan baland yulduzlar sari so'zlab, bo'ynida "majburiyat" atalmish zanjir bo'lsa-da, qalban ozod sherdek mag'rur Navoiy siymosi insoniy mehr-muhabbat va erk-u baxt timsoli sifatida aks ettirilgan:

Yuksak tog' oralab o'kirgan she'rning,
Na'rasiga tengdir aksi sadosi,
Besh yuz yil yangradi tog'day Vatanda
Buyuk Alisherning asriy nidosi.
Daraxshon yulduzlar sari o'kirgan,
Bo'ynida zanjir-u, qalbi ozod sher.
Insoniy muhabbat, mehri-la vafo,
Erk-u baxt timsoli ulug' Alisher.

She'rning keyingi misralarida Navoiy ijodining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. "Ma'rifat mulkida xazina" bo'lgan ijodning bugungi kun shoir va yozuvchilari uchun "oltindan zina" vazifasini o'tashi ham G'ofur G'ulom lirik misralarining mazmundor, ifodalanayotgan fikrning serjilo bo'lishini ta'minlagan:

Zavolni bilmagan porloq ijoding,
Ma'rifat mulkida bitmas xazina!
Insoniy kamolot katta yo'lida,
Bir poya yuksakroq oltindan zina.

Lirik poeziya, avvalo, poetik ifodalash tamoyiliga asoslangani uchun buyuk shoir obrazini talqin etishda muallif asarlarida tasvirlangan qahramonlar nomini keltirish hamda ijodkor she'rlariga murojaat etish, bevosita asarlariga ishora tarzida lirik kechinma oqimiga kiritib, fikrni poetik ta'sirchan ifodalashga erishish hamda ana shu qahramonlar, she'riy parchalar va asarlar muallifini o'quvchi xotirasida jonlantirish yo'lidan boradi. Bugungi zamonaviy o'zbek

she'riyatida Navoiy obrazini poetik tadqiq qilishning yangi-yangi yo'nalishlari yuzaga kelmoqda. Badiiy ifodada yuzaga kelgan bu kabi xilma-xillik, eng avvalo, she'riyatimizga kirib kelgan yangi bo'g'in shoirlari ijodida ko'zga tashlandi. Ushbu qatlam vakillari Navoiy obrazini yaratishda poetik ifodaning yangi ko'rinishlaridan unumli foydalandilar, she'riyatimiz badiiyatini yangicha poetik ifoda va tasvir vositalari bilan boyitdilar. Natijada, ular buyuk shoir obrazini yaratishdagi zo'rma-zo'raki tavsiflashdan yiroqlashib, bevosita shoir shaxsi va faoliyatiga oid tarixiy lavhalar yaratish yo'lidan borib, shoir siymosi-yu suratini emas, balki uning siyratini ham yaratishga kirishdilar. Bu yo'lda Navoiy obrazini to'laqonli aks ettirish uchun goh tarixiy voqelikka suyanib, goh shoirning ijod namunalariga murojaat etib, ulug' shoir shaxsiyatini yaqindan anglash uchun muhim bo'lgan haqqoniylik tamoyilini aks ettirishga harakat qildilar.

Navoiyning ijodiga g'oyibona ergashgan munosib voris, bugungi kun g'azal janri rivojiga salmoqli hissa qo'shgan shoir Erkin Vohidov "Alisher Navoiy kemasi" nomli she'rida azaldan chaqnab turgan mushtariy yulduzi – Navoiy bugun ham "bahri muhit aro kezib" yurganligini ta'kidlaydi. Bu talqin shoir asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bilan hamohangdir: "Kimki so'z san'atini yaxshi egallagan bo'lsa, ya'ni "so'z bahrida g'avvos" bo'lsa, o'sha odam badiiy ijod sohasida biron yutuqqa ega bo'ladi". Navoiy erishgan yutuq undan keyingilar va hozirgi adabiy meros avlodlari yutug'iga ham asos bo'lmoqda:

Azaliy davrada charx uradi yer,
Mushtariy azaldek chaqnab turipti...
Besh asr so'ngida buyuk Alisher
Bahri muhit aro kezib yuripti.

Navoiy timsolining butun "bo'y-bastini" ko'rsatib berayotgan, dunyo uzra tanho "beorom yurak", "achchiq to'lqinlarga" urilayotgan "ko'krak" "asr so'ngida kema bo'lgan" bu buyuk "ruh" Nuh kemasi insonlarni qutqarib qolgani kabi, adabiyotning do'lvor "kema"si vazifasini o'tayotirki, shu jihatdan bu buyuk "kema"ni navoiyshunoslik nomi bilan atash joiz bo'ladi, zero, bu "kema"ga munosib avlod yorqin kelajak manzillarini ko'zlagan:

Tiriklikda charxdan topmagan omon,
Boshiga g'am gardin yog'dirgan falak –
Dahr aro tanho-yu zor-u sargardon
Qalqib bormoqdadur beorom yurak.
Ulug'vor bastida o'ychan bir shukuh,
Kilkidan to'kilgan g'azaldek boqiy,
Besh asr so'ngida kema bo'lgan ruh,
Besh qit'a oralab kezar Navoiy...

"Navoiyni mehr va ixlos ila yetarli darajada bilish – din-u diyonat, imon-u e'tiqod, muruvvat va shafqat kuchiga ishonch demak"dir. Mana shu "kuch"ga "ishonch" nafaqat Navoiy obrazi yaratilgan epik asarlarda, balki lirik asarlarda ifoda etilgan timsol orqali ham yuzaga keladi. Bunda shoir-muallifning ijodiy mahorati, qalb prizmasidan o'tganlarini o'zgalarga ham yetkazib bera olish qobiliyati muhim rol o'ynaydi. Erkin Vohidov ta'kidlaganidek, agar shoir o'zi yonmasa, o'zgalarni ham yondira olmaydi. El-yurt muhabbatini qozonish uchun tug'ma iste'dodning o'zi kamlik qiladi. Shoir "ruhan, fikran zamon darajasida" bo'lishi, "xalq hayoti to'lqinlari ichida keng quloq" ochishi zarur.

Shoir Abdulla Oripov "Alisher" nomli she'rini buyuk mutafakkir obrazining "nuroniy" davridagi holati tasviridan boshlagan, she'rning ilk misralaridayoq o'xshatish san'atidan mohirona foydalanib, muallif hayotni – "ona"ga mengzaydi, jahon ishlariga guvoh bu hayot bolasining barcha ishlaridan voqif ona kabi ifoda etiladi. Mutafakkir obrazining gavdalanishida aksariyat she'rlarda uchraganidek, Abdulla Oripov ham "besh yuz yil"lik tarixdan so'z ochadi, oradagi vaqt to'siqlari olib tashlanib, "nurli yuz"larga boqib turgan Navoiy siymosi gavdalanadi. Bu o'rinda shoir she'rning birinchi bandida qism orqali butunni ifoda etuvchi "nurli yuzlar" ifodasi orqali bugunning yoshlarini nazarda tutadi:

Jahonki muqaddas neni ko'ribdi,—
Bariga onasan, ey qodir hayot.
Besh yuz yil naridan boqib turibdi,
Nurli bu yuzlarga nuroniy bir zot.

“O‘zbek” degan nomning Navoiy nomi bilan atalishi, butun xalq uni e'zozlab ta'zim qilishi, bu buyuk siymoning bugungi avlod tasavvurida yanada jonliroq aks etishida she'riy misralarda ifodalangan tarixiy voqelik, tarixiy shaxsga xos individual xususiyatlar Navoiy obrazining estetik ideal sifatidagi mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi:

Shu buyuk o'g'lingni ardoqlab dildan,—
Xalqim, ta'zim etsang arzigay tamom.
Uning nomi bilan birga bitilgan
Dunyo daftarida o'zbek degan nom.

Tarixiy shaxslar ifodalangan aksariyat she'rlarda talmeh she'riy san'ati ham samarali qo'llanadi. Quyidagi misralar buning yorqin misoli bo'la oladi. Parchadagi Boyqaro va Alisher siymolari lirik qahramon anglatmoqchi bo'lgan fikrini yanada teranlashtiradi:

Boyqaro irg'ishlab istak otida
Jahonga boqqanda misli bola sher.
Hirot darvozasin bir qanotida
She'riy lashkarini tizgan Alisher.

Misralararo o'sib borayotgan g'oyaviy butunlik ushbu misrada “bola sher”ning, Boyqaro “istak”larining ro'yobi uchun “she'riy lashkarini tizgan” Navoiy timsoli gavdalanadi. Bu “lashkar”lar “qalam” orqali “tizil”gan. Keyingi misrada Husayn Boyqaroning davlat ishlarida yaqin ko'makdoshi bo'lgan Navoiy tinchlikni “yurt buzish” bilan emas, balki ma'naviyat va aql bilan yengish lozimligini uqtiradi, mantiqan qaralganda quyidagi parchada davlat a'yonlari bilan olib borilayotgan majlisda dunyoda “iz” qoldirish uchun “nayza”ning “kuch”ini “pesh” qilgan amaldorlarga “qalam”ni ko'rsatgan mutafakkir obrazi gavdalanadi. Garchi bu o'rinda majlis haqida so'z bormasa-da, misralarning tub mazmunida ushbu holat anglashilib turadi:

Dunyoda biror nom qoldirmoq uchun
Yurt buzish shart emas, degan gap-ku, rost.
Kimdir pesh qilganda nayzaning kuchin,
Alisher qalamni ko'rsatgan, xolos.

Navoiy “qalam kuchining qudrati” shoir Erkin Vohidovning “O‘zbekiston” qasidasida go'yo qayta jonlangandek taassurot uyg'otadi:

Temur tig'i yetmagan joyni
Qalam bilan oldi Alisher.

Ushbu misralarda Alisher “qalamining tig'i” ne-ne manzillarni fath etgan Temur tig'idan ham o'tkir va keskir ekanligi, buyuk sohibqiron qilichi (tig'i)ning qudrati Xitoy sarhadlarigacha borgan bo'lsa, Alisher Navoiy “qalam”i ko'lami esa butun dunyoni “zabt etadi”. Bugun ham shoir jahon va o'zbek adabiyotida “yangi qalam sohiblari” uchun “salaf” vazifasini bajarmoqda.

Keyingi parchada shoir zidlash, qiyoslash orqali obrazning o'ziga xos xususiyatlarini yanada aniq ifoda etadi. Tazod she'riy san'ati asosida she'rda “tun” bilan “tong”, “zahr-u shakar”, “quyosh” va “zulmat” kabi bir-biriga qarama-qarshi tushunchalarning qo'llanishi misralar ta'sirchanligini yanada oshirgan:

Tun bilan tong erur tashbehda udum,
Misoli zahr-u may, hajr-u shakar lab.
Kimnidir quyoshday eslasa mardum,
Kimnidir zulmatday yurarlar qarg'ab.

“Quyosh”day eslanuvchi tarixiy siymolar – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jaloliddin Manguberdi kabi, “zulmat”day xalq boshiga qora quyun kabi kelgan obrazlar sifatida Chingizxon, Husayn Boyqaro (nabirasi Mo'min Mirzoni o'limga hukm qilishi, mayparastligi) obrazlarini ko'rsatish mumkin. She'riy parchadagi “quyosh” kabi eslanadigan Navoiy siymosi

yosh avlodni tarbiyalashda, ularning tarixga qiziqishi va ajdodlarning namunaviy ilmiy-amaliy, jamoaviy-ommaviy insonparlik faoliyatlaridan o'rnak olishlarida ushbu obrazning estetik ideal vazifasini o'tashi ta'kidlanadi. Kelajak avlod – “nabira”lari uchun ideal shaxs bo'lgan, “olis Hirotda maskan topgan” Navoiy bugungi yosh avlodning har ikkitasidan birida akslanishi, yaxshi fazilatlar bilan ko'rinishidan “ogoh”lantiriladi. Chunonchi:

Nido tingla, bu kun, yurtning tarafdin,
Ey, yiroq Hirotda maskan topgan er!
Ogoh bo'l, Alisher, sen ushbu gapdan:
Har ikki nabirang — biri Alisher.

To'qqiz banddan iborat ushbu she'rda shoirning buyuk mutafakkir obrazini gavdalantirishda boshqa tarixiy shaxslarga ham murojaat etishi Navoiy obrazining ayrim qirralarini gavdalantirishda muhim ahamiyatga ega. Ba'zi o'rinlarda tarixiy voqeliklar, ijodiyotga murojaat etish orqali butun jahonni o'zining mazmundor baytlari bilan tug'ilgan yurtiga qaratib turgan Alisher Navoiy siymosi ifodalanadi:

Baytingga bir bora qovushgan har lab,
Takrorlab ketgusi mahshargacha to.
Qaratib turibsan bu yon, ne ajab,
Milliard martabali jahonni hatto.

Yuqorida keltirilgan she'rda Abdulla Oripov Navoiyga lirik qahramon sifatida emas, balki chetdan turib, bu ulug' siymoga baho beradi. Uning insonparvarlik va boshqa individual xususiyatlarini o'ziga xos tarzda talqin etadi. Bu o'rinda “she'rlari doim hayotbaxsh, pafosi baland, ovozi dadil, ruhi tetik” Abdulla Oripovning ham shoir sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari (xalqchilligi, tarixiy shaxslarga bo'lgan hurmat va e'tibori), she'rning yaratilish mahorati o'laroq paydo bo'ladi.

She'rning keyingi baytida mavzudan anchagina yiroqlashgan shoir o'zga voqelik orqali ifodalamoqchi bo'lgan fikrini anglatishga urinadi, butun Osiyoga o'zgalar nazdida “johil” sifati beriladi, bunda ilmsizlik nazarda tutiladi, hamisha “zavol ko'rib”, “kamol”ga erishmagan Osiyo holati tasviri bilan birga “Tur tog'ida – Tuvo deb atalgan muqaddas vodiya Muso alayhissalom boshqalarga nasib etmagan marhamatlarga, jumladan, Haq subhanahu va taolo bilan roz aytishish – bevosita so'zlashish sharafiga muyassar” bo'lgani voqeligini keltirish orqali Navoiyning hammaga ham in'om etilmagan xislatlar sohibi ekanligiga, shuningdek, insonparvarlik, odillik, yuqtirilgan noyob iste'dod egasi, kuyunchak, haqiqatparvar, so'zni so'zdan farqlovchi, adabiyot ixlosmandi kabi ta'riflarning bir shaxsda jamlanishidek noyob hodisaga ishora qilinadi:

Birovlar nazdida johil Osiyo
Faqat zavol ko'rib, ko'rmagan kamol.
Muso iltijosi etdi-yu, go'yo
Haq Tur tog'i uzra ko'rgazdi jamol—
Jahon mehrobida paydo Alisher...

Tahlilga tortilgan yuqoridagi she'rlarda gavdalangan Navoiy siymosi tasvirida o'xshashliklar kuzatiladi, shoir Abdulla Oripov Navoiyni “besh yuz yil naridan” “boqib turgan nuroniy” desa, shoir Erkin Vohidov “besh asr so'ngida kema bo'lgan ruh” sifatida tasvirlaydi, buyuk Navoiyning hayoti va ijodi butun dunyo xalqlarini o'ziga rom qilganligi shoirlardan birida “milliard martabali jahonni” “o'ziga qaratib tursa”, yana birida esa “besh qit'a oralab” ham hayotiy, ham ijodiy faoliyati bilan “kezib yurgan ruh” sifatidagi mutafakkir timsoli namoyon bo'ladi. Shoirlarning obraz ifodalashdagi o'xshashliklari yana bir o'rinda ko'zga tashlanadi. She'rlardan she'rlarga tomon o'sib borayotgan Navoiy siymosi shoirlarning qasidalarida ham gavdalanadi. Qasidalar mavzusi Vatan haqida bo'lsa-da (Abdulla Oripovning “O'zbekiston”, Erkin Vohidovning “O'zbekim” qasidalari), har ikki talqinda ham Navoiy timsoli go'zallik va komillikning nodir namunasi sifatida, estetik ideal darajasida she'riy misralarda ifoda topadi.

She'rlarni tushunish, undagi yozuvchi anglatmoqchi bo'lgan ma'no mazmunning nozik qirralarini anglash uchun o'quvchi-kitobxonning bilim saviyasi, estetik didi yuksak darajada bo'lishi lozim. She'r tahlilida misralar mazmunini anglamakning o'zi ham iste'dod. "Biz bu iste'dodning nomini nazokat deymiz, nozikfahmlik deymiz. Bu fazilatga yangilikni anglash va baho bera olish sifati qo'shilganda u didga aylanadi. Didni esa yoshlikdan tarbiyalamoq, bilim va tuyg'ular boyligi bilan kamolotga yetkazmoq zarur"¹⁰⁷. Bu jarayon salmog'ida badiiy adabiyotning ahamiyati katta bo'lib, bunda asarlardagi obrazlarning ta'sir doirasi, ifodadagi ishonchliligi kitobxonning "estetik did"ini shakllanishida ahamiyatli omillardan sanaladi.

Epik asarlarda muallifning g'oyaviy niyati asarlardan asarlarga tomon o'sib borganidek, she'riyatda ham ushbu hodisa ko'zga tashlanadi, bir she'rda berilgan tasvir ikkinchisida yanada mukammalroq tarzda ifodalanishi holatlari kuzatiladi. Bu jarayon epik va lirik asarlardagi kichik bir o'xshashlik hisoblansa-da, ularning farqli jihatlari talaygina. Bayon usuli (epikda nasriy, lirikda she'riy)ning xilma-xilligi, hajmi, ifodalayotgan voqelik va obrazlarning tarkibi bilan farqlanadi. Epik asarlarda keng ko'lamlilik ustun bo'lsa, lirikada qisqalik, ta'sirchanlik ustuvor hisoblanadi.

Yuqoridagi she'rlar tahlilidan anglashiladiki, Navoiy siymosini yaratishda, uni keng ommaga yaqindan tanitishda mualliflarga XIV-XV asrning ikkinchi yarmidagi O'rta Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarining ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayoti haqida original material bera oladigan mavjud tarixiy va biografik asarlarni, shuningdek, o'sha tarixiy davrlardan bizgacha yetib kelgan turli mazmundagi hujjatlarni atroflicha o'rganish va ularning muhim qismlarini bilish ijodiy niyatni amalga oshirishda ajralmas qism vazifasini o'taydi. Navoiy hayoti va ijodini ilmiy o'rganish barobarida badiiy adabiyotda ham shoir shaxsining badiiy talqinlari namoyon bo'la boradi. Yozuvchilar o'zlarining estetik idealini Navoiy misolida aks ettiradilar.

Xulosa qilib aytganda, she'r shoirning voqelikka faol munosabatidan, tuyg'u va ichki kechinmalaridan yaratiladi. Ijod mahsuli shoirning yuksak ideallari, sezimlari, dunyoqarashiga hamohang bo'lib, tafakkurida sintezlashadi va go'zal voqelikka aylanib, ijod gulshanida barq uradi. Biz istaymizmi-yo'qmi, har qanday she'rda shoir shaxsiyatining muayyan darajadagi aksi bo'ladi. Tarixiy shaxslar obraziga murojaat etishda shoirlar kitobxon dunyoqarashini yana bir pog'onaga ko'taradi, bu obrazlarning ibratli umr va ijod yo'li, tarixiy siymolarning individual namunaviy xulq-atvori va insonparvarlik xususiyati mualliflarning ijodida estetik ideal vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

7. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 106.
8. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Ayxodjayeva G. Estetika asoslari. – Toshkent, 2004. – B. 47.
9. Расулов А. Истеъдод ва эътикод. – Тошкент, 2000. – Б. 6.
10. Фафур Фулом Мукамал асарлар тўплами. Ўн икки томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1984. – 143 б.
11. Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Т. 1987. – Б. 46.
12. Орипов А. Йиллар армони. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги санъат нашриёти, 1984. – Б. 216.
13. www.kh-davron.uz
14. Қўшжонов М. Камалакдай сержило. Орипов А. Йиллар армони. Б 3.
15. Пайғамбарлар қиссаси. – Тошкент, 1993. – Б. 89.
16. Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент, 1987. – Б. 56.
17. Abdulla Sher. Navoiy sog'inchi. Turkum. www.kh-davron.uz

¹⁰⁷ Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент, 1987. – Б. 56.

18. Эргашева Ш. Саида Зуннунова шеърятда ижодкор шахсияти ва лирик қаҳрамон муаммоси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2008. – Б. 125.
19. Воҳидов Э. Сўз латофати. – Тошкент, 2014. – Б. 5.
20. Сенть-Бёв. Литературные портреты. – М.: Художественная литература, 1970. – С. 40.
21. Орипов А. Эҳтиёж фарзанди. – Тошкент, 1998. – Б. 124.

BADIIY MATNDA O'XSHATISHLARNING O'RNI

Qo'ldasheva Dilnavoz Xatamovna

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD)

Xosilova Komilaxon Solijon qizi,
Farg'ona davlat universiteti talabasi.

Annotatsiya. O'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Furqat g'azaliyotining o'ziga xos xususiyati unda badiiy uslubiy vositalarning unumli qo'llanilishida faol aks etadi. Fikr va tasvirning obrazli ifodalanishi, ma'no ko'lamini yanada kengayishiga xizmat qiluvchi bunday vositalar badiiy matn salmoqdorligini oshiradi. Ushbu maqolada badiiy matnda o'xshatishlarning o'rni o'rganilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, badiiy tasvir vositalari, o'xshatish, obrazli fikr, personifikatsiya, reifikatsiya, emotsional-ekspressivlik.

Mumtoz she'riy asarlarda eng ko'p ishlatilishi nuqtayi nazaridan o'xshatish san'ati alohida yetakchilik qiladi. Badiiy nutqda voqea-hodisalarni obrazli tasvirlash, nutq ifodaliligini oshirish, biror narsaning xarakteri, xususiyati va ko'rinishini qisqa hamda obrazli ifodalash uchun foydalaniladi¹⁰⁸. M.Mukarramov o'z tadqiqotlarida o'xshatishni sof tilshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganagan.

O'xshatish olamni idrok etish jarayonida o'ta muhim aqliy operatsiya bo'lib, uning amalini biz personifikatsiya va reifikatsiyada ko'rishimiz mumkin. U tasvirlanayotgan shaxs, buyum yoki tushunchani o'quvchi ko'z o'ngida aniqroq, jozibaliroq gavdalantirishga xizmat qilib, asar timsollari ma'naviy qiyofasini yorqinroq ochish, binobarin, shoir g'oyasini o'quvchi ongiga to'laroq yetkazishga imkon beradi¹⁰⁹. Shuningdek, badiiy matndagi o'xshatishlar haqiqiy va majoziylik nuqtayi nazaridan farqlanadi. Bunda o'xshatish uchun aniq va hayotiy narsalar tanlangan bo'lsa, haqiqiy, mavhumiy tushunchalar o'xshatish vositasi hisoblansa, majoziy o'xshatish hisoblanadi.

O'xshatishlarning "ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash"¹¹⁰ vazifasi badiiy adabiyot tilini bezashda alohida ahamiyatga egadir. Bu, ayniqsa, mumtoz badiiy matnlarda tasvirning aniqligi va obrazliligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. O'xshatish subyekti, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichlari deb nomlanuvchi to'rt unsur tilda o'xshatish munosabati ifodalanishini ta'minlaydi. Ba'zi manbalarda uning uch unsur ishtirokida yuzaga kelishi ta'kidlanadi¹¹¹, o'xshatishning mundarijasini o'xshatish, o'xshovchi va o'xshamish tashkil etishi ifoda etiladi.

O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati mualliflarining qayd etishicha, **"o'xshatishlar o'ziga xos obrazli tafakkur tarzining mahsuli sifatida yuzaga keladi, shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo'ladi, nutqning emotsional-**

¹⁰⁸Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.19

¹⁰⁹Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б.14

¹¹⁰Қурбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 2014. – Б.79

¹¹¹Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.27

ekspressivligi, ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qiladi"¹¹². "Har bir millatning o'ziga xos o'xshatishlari shu xalqning o'z mentaliteti, diniy va dunyoviy qarashlari, yashash hududi va sharoitining har xilligi bilan izohlanadi"¹¹³.

O'zbek tilida o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi sifatida *-day* qo'shimchasi juda keng qo'llanadi, uning *-dek* fonetik varianti esa nisbatan kam ishlatiladi¹¹⁴. Ilmiy manbalarda o'xshatishni ifoda etuvchi vositalar: affikslar (*-day*, *-dek*, *-simon*, *-ona*, *-noma*, *-omuz*, *-larcha* kabi), leksik vositalar (kabi, singari, yanglig', xuddi, go'yo, bamisoli, misli, shakl, holat, barobar kabi), o'xshatish qo'shimchalari (sifat, qomat, nusxa, rang, bashara, taxlit kabi)¹¹⁵ shaklida bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, o'xshatishlar badiiy matnga tasviriylik, aniqlik, ta'sirchanlik va obrazlilik baxsh etish xususiyati bilan qimmatlidir. Badiiy matnda an'anaviy (ko'p takrorlangan) va xususiy-mualliflik o'xshatishlar o'zaro farqlanib, ularning har ikkisidan unumli foydalanish yozuvchi-shoirning badiiy mahoratiga bog'liq.

Furqat g'azallarining badiiy uslubiy qirralari tadqiq etilganda, o'xshatish badiiy uslubiy vosita sifatida alohida o'rin tutishini ko'rish mumkin. Ma'lumki, badiiy matnlarda yor go'zalligini tasvirlashda fitonimlardan unumli foydalaniladi. Ayniqsa, "mumtoz she'riyatda yorning yuzini gulga, qomatini sarv daraxtiga, labini g'unchaga, pistaga, sochini sumbulga, yonoqlarini lolaga, ko'zlarini bodomga, kipriklarini maysaga, tishlarini dur-u marjonga qiyoslash asosida go'zallik mezonlari shakllangan. Bu o'xshatishlar, albatta, ma'lum bir motivasiyaga, leksemalarning leksik-semantik maydoniga kiruvchi semalarning assosiativ tutashuviga asoslanadi"¹¹⁶. Shoir g'azallarida ham mumtoz adabiy asarlarda keng qo'llaniladigan *lab* – *g'uncha*, *yuz* – *gul*, *qad* – *sarv*, *soch* – *sunbul* kabi an'anaviy o'xshatishlar ko'p uchraydi.

Masalan,

Labing g'uncha, yuzing ikki qizil gul,

Qading sarvu, soching go'yoki sunbul. (Muhabbat yo'lida. -B. 115)

Yoki

Orazi gul, zulfi sunbul, ko'ylagi bargi suman,

Xil'ati ra'no, bo'yi zebo gulistonim mening. (-B.97)

misralarida turg'un o'xshatishlar ishlatilgan bo'lsa-da, go'zal tasviriy obraz yaratilishiga erishilgan.

Shuningdek, shoir o'zining alohida kuzatishlari, tasvirni yaratish iqtidori sabab o'ziga xos individual o'xshatishlar ham yaratgan:

Nogahon oshiqlaringg'a tiyri mujgonlar otib,

*Rahna dil mulkig'a soldi **nomusulmon ko'zlarining.***

Bunda shoir yorning ko'zlarini rahm-shafqat, to'g'rilik va mehrni bilmas, iymonsiz kishiga – nomusulmonga o'xshatadi. Ma'shuqa ko'zlarining bunday tasviriy ifodasi boshqa mumtoz manbalarda uchramaydi.

Yorning sadoqati va vafosining abadiy emasligini "*xinoning rangi yanglig'*" deya ta'riflanishi Furqat tomonidan qo'llanilgan o'ziga xos, individual o'xshatishdir:

Ko'ngul qo'yimoq xatodur, husn ahlining vafosi yo'q,

***Xinoning rangi yanglig'dur,** ketar bir kun, baqosi yo'q* (-B.85).

"Odatda, bir predmet-holat boshqasiga muayyan bir belgiga ko'ra emas, balki butunicha, to'lasicha, aynan o'xshatilmog'chi bo'lsa, o'xshatish asosi bevosita ifodalanmaydi. Bunday hollarda o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi sifatida ham ko'pincha *o'xshamoq* fe'lidan

¹¹²Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.- Б. 5

¹¹³Ашуров Д. "Алпомиш" достонинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Наманган, 2021. – Б.12

¹¹⁴Махмудов Н., Худойбергана Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б.19.

¹¹⁵Қаранг: Бобоев. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.204.

¹¹⁶Маруфова З. Мумтоз бадий матнларда "гўзаллик" концептининг вербаллашуви: Фил. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD). ...дисс. – Фарғона, 2022.

foydalaniladi”¹¹⁷. Mazkur fe’lning qo’llanilishi badiiy nutqda o’xshatish vositasi mavjudligini yaqqol ko’rsatadi.

Furqatning

Meni nomehribonim ko‘b sitamkor o‘ldi o‘xshaydur,

Jafojo ‘yu g‘azabnoku dilozor o‘ldi o‘xshaydur. (-B. 40)

misrasi bilan boshlanuvchi g’azali o’xshatishning o’ziga xos namunasi hisoblanadi. Yuqoridagi misrada shoir yorni mehrsiz, sitamkor, dilozor insonga o’xshatadi. Bunda o’xshatish etalonining salbiy ma’no-xususiyatlari yaqqol ko’zga tashlanadi.

Umuman olganda, o’xshatish ham o’z nomi, vazifasiga ko’ra adabiy hodisa sifatida baholanib, badiiy san’at bo’lsa-da, u til va uning imkoniyatlari orqali shakllantiriladi. Bu borada Furqat ijodining lisoniy boyligi she’riyatda o’xshatishning o’ziga xos namunalari yaratilishiga yetarli asos bo’lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ашуров Д. “Алпомиш” достонинг лингвокультурологик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Наманган, 2021.
2. Йўлдошев М. Чўлпон сўзининг сирлари. – Тошкент: Маънавият, 2002.
3. Қурбонова М., Йўлдошев М. Матн тилшунослиги. – Тошкент: Университет, 2014.
4. Лапасов Ж. Бадий матн ва лисоний таҳлил. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
5. Маруфова З. Мумтоз бадий матнларда “гўзаллик” концептининг вербаллашуви: Фил. фанл. бўйича фалс. докт. (PhD). ...дисс. – Фарғона, 2022.
6. Маҳмудов Н., Худойберганаева Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013.
7. Усманов Ф.Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвوماданий тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ...дисс. автореф. – Тошкент, 2020.
8. Фурқат. Муҳаббат йўлида. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009
9. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малохати. – Тошкент: Шарқ, 1999.

BADIIY ASARDA TAKRORNING LISONIY-POETIK O‘RNI

Siddiqova Sayyora Rasuljonovna

Farg‘ona davlat universiteti Sirtqi bo‘lim talabasi.

Annotatsiya. Badiiy takror badiiy asarda nutqqa alohida emotsional bo‘yoq, o‘ziga xos ohang, ifodaviylik berish vazifasini bajaradi. Ushbu maqolada takrorning turlari, ularning badiiy matndagi ahamiyati va ta’sirchanlikni oshirishdagi roli misollar yordamida ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: poetik nutq, alliteratsiya, assonans, anafora, epifora, poetik obraz, badiiy obraz, poetik maqsad, mazmun urg‘usi.

Ma’lumki, takror poetik nutqda, asosan, alliteratsiya, assonans, anafora, epiforalar ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, “...konsonans, pleonazm, tavnologiya, radif, refren, naqarot, simploka, poliptoton, xalqa (doira), asindeton, polisinteton va boshqalar badiiy takrorlarning ko‘rinishlaridir”¹¹⁸. “Takrorning funksiyasi avtor nutqini ta’sirchan etish, fikrni konkretlashtirish va eng muhimi, unga tinglovchi va o‘quvchini ishontirish kabi xususiyatlarni ifodalashdan iborat”¹¹⁹.

Takrorning o‘ziga xos usullaridan biri xiazmdir. Xiazm (yunoncha chiasm - yunon alifbosidagi X xarfidan, ya’ni shu harf shaklida joylashgan) - teskari tartibdagi sintaktik parallelizm, misradagi so‘z (bo‘lak)larni teskari tartibda takrorlashga asoslangan stilistik figura.

¹¹⁸Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.280

¹¹⁹Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.18

Xiazm mohiyatan mumtoz she'riyatdagi tardu aks (q.) san'atiga yaqin turadi. Aksariyat hollarda xiazm she'ning ketma-ket keluvchi misralarida namoyon bo'ladi. Shuningdek, xiazm ba'zan she'ning dastlabki misralaridan biridagi so'z (bo'lak)larni teskari tartibda joylashtirgan holda takrorlashasosida ham yuzaga chiqishi mumkin. Bunda xiazm she'r g'oyasini yuzaga chiqaruvchi muhimkompozitsion unsur vazifasini o'taydi.

Takror sonining ortishi o'quvchiga o'ziga xos tarzda ta'sir qiladi, uni bir qaraganda oddiy raqsdek taassurot qoldiradigan "Tanovar"ning mohiyatini anglashga, mushohada yuritishga undaydi. She'r so'ngida takror shoirning maqsadini yuzaga chiqarishda asosiy badiiy vosita bo'lib keladi:

Dillarga bundan zo'r hamroh bo'lmagay,
Dunyo bor ekanki, bu gul so'lmag'ay,
Bunday san'ati bor millat o'lmag'ay,
Tanovar bu, tanovar bu, tanovar!

Замонавий ўзбек шеърятининг йирик вакилларида бири, taniqli shoir Minhojiddin Mirzoning "Tanovar" she'rida millat tarixi, ajdodlarimizning orzu - armonlari, qalb dialektikasi, ko'ngil evrilishlari raqs ruhiyati va uning nozik nuqtalari bilan falsafiy uyg'unlashadi. She'rda poetik obrazlar ruhiyat, sog'inch, musiqiy ohang va ramzlar asosida ifodalangan. Shoir "Tanovar" raqsining talqini orqali, zamondoshlarimizning o'tmish va millat taqdiri bilan bog'liq nuqtalarini go'zal poetik tarzda ifoda qilarkan, milliy san'atimiz oldidagi ma'naviy mas'uliyatni, ma'rifiy-ruhiy bog'liqlik asoslarini mohirona ochib beradi¹²⁰.

O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyoti namoyondalaridan biri Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ijodida, xususan, g'azallarida, takrorning ko'plab ko'rinishlariga o'ziga xos namunalar uchraydi. Shoirning takror san'atini mahorat bilan ko'rsata olganligi uning she'riyati, xususan, g'azaliyotining badiiy-lisoniy qiymatini oshirishga, o'ziga xosligi, ta'sirchanligini ta'minlashga xizmat qilganini ko'rish mumkin.

Furqat g'azallarida radif asosidagi takrorlarning ot, sifat, fe'l, ravish, ravishdosh shakllari ko'p uchraydi va shoir badiiy maqsadini yanada bo'rttirib ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan:

Radif vazifasidagi holat ravishi takrori:

Ey, visolingga yetushmak koru borib, sog'inib,
Qolmadi bir zarraye sabru qarorim, sog'inib. (-B.18)¹²¹

Shoir sog'inch hissi oshiqning butun borlig'ini o'rab olgan shirin og'riq ekanligini, ahvoli tangligining sababi ham shu tuyg'u ekanligini qat'iy ta'kidlash uchun sog'inib so'zini takrorlaydi.

Radif vazifasidagi predmet takrori:

Chamanda g'unchadin bo'yningg'a toqmishsan jaras, bulbul,
Magarkim o'zga gulshan rahlatin qilding havas, bulbul. (-B.111).

Mazkur g'azalda *bulbul* leksemasi ot so'z turkumiga mansub, lekin baytda undalma vazifasida kelib, shoirning barcha xitobi unga qaratilgani uchun ham qayta-qayta murojaat qilinmoqda.

Radif vazifasidagi harakat takrori:

To so'zga lab uyurding, jono, shakar to'kildi,
Ham aylading tabassum, mavji guhar to'kildi (-B. 182).

Shoir g'azallarida eng ko'p uchraydigan radifiy takrorlar aynan fe'l shaklidir. Shoir g'azallarida eng ko'p uchraydigan radifiy takrorlar aynan fe'l shaklidir. "Topmisham", "Ayrilib qoldim", "Aylading", "Ayladi", "Topdi", "Bo'lurmu", "Kelarmukin", "Dushti" radifli g'azallari shular jumlasidandir.

¹²⁰ Ганиев С. Минхожиддин Мирзо шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фанл.б-ча фалс. д-ри. дисс. – Тошкент, 2022.

¹²¹ Фурқат. Сайланма. –Тошкент: Маънавият, 2009. Misollar ushbu manbadan olingan.

O'zbek she'riyati, xususan, mumtoz adabiyotimizda keng qo'llanilayotgan badiiy takrorlardan biri xalqa (doira) bo'lib, "bu usulning o'ziga xosligi shundaki, bunda she'ning boshida kelgan misra, bayt, hatto, band shu asarning oxirida aynan takrorlanadi. Xalqa, birinchidan, she'r g'oyasini ta'kidlab ko'rsatsa, ikkinchidan, she'ning boshqa bandlarini o'z doirasiga qamrab oladi – she'ning kompozitsion bir butunligini vujudga keltiradi"¹²².

Furqatning

Koshki bir yerda bo'lsak erdi jonon ikkimiz,

Ko'zi shum ag'yorlardin anda pinhon ikkimiz. (-B.63)

bayti bilan boshlanuvchi g'azali mazkur hodisaga misol bo'lib, g'azalning birinchi misrasi uning oxirgi misrasi bo'lib ham takrorlanadi. Shoir ushbu g'azalda xalqani qo'llash orqali poetik nutqdan ko'zlangan bosh maqsadni – yor bilan turfa *ag'yorlardan pinhon* bo'lib, *qayg'uni yakson* qilib, olamga *to'fon solib*, ... nima qilib bo'lsa-da, bir yerda, yonma-yon bo'lish muddaosini ta'kidlab, takrorlaydi va g'azalning so'nggi bayti – maqta'da ham hammaning diqqatini shu ma'noga tortadi:

Kamtaring Furqat bu yanglig' muddaog'a yetmadi,

Koshki bir yerda bo'lsak erdi jonon ikkimiz.

Yuqoridagi ta'kidlanganidek, badiiy matnda so'z va so'zlar birikmasi, gaplar takrorlanib, ma'no kuchaytiriladi¹²³.

T. Boboyevning qayd etishicha, badiiy nutqda so'z yoki so'zlar birikmasigina emas, balki ot, sifat, son, olmosh kabi so'z turkumlarining qaytarilishidan ham badiiy takrorlar kelib chiqishi mumkin¹²⁴. Furqat g'azallarida sifatlar uyushib, badiiy takrorni hosil qilgan misralar, ayniqsa, faol qo'llanilgan. Masalan,

Sarvqad, siymbadan, gulpirahan, mastonalar,

Ko'rmayam mehri ruhing, sargashtayu afsonalar. (-B. 60).

Umuman olganda, badiiy takrorlar faol uslubiy vositalar hisoblanib, shoir yoki yozuvchining uslubi va mahoratini ko'rsatish bilan birga, badiiy matndagi maqsadning ta'sirchanligini oshirishga, poetik nutqqa o'quvchi e'tiborini qaratish va mulohazaga undayshga xizmat qiladi, ma'noni kuchaytirib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Бобоев Т. Шеър или таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.
2. Ганиев С. Минхожиддин Мирзо шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фанл. б-ча фалс. д-ри. дисс. – Тошкент, 2022.
3. Йулдошев М. Бадий матн ва унинг лингвопоэтик таҳлили асослари. – Тошкент, 2007.
4. Қўлдашева Д. Фурқат ғазалларининг лингвопоэтик таҳлики. Филол. ф. б-ча фалс. д-ри дисс. – Фарғона, 2023.
5. Мамажонов А. Қўшма гап стилистикаси. – Тошкент: Фан, 1990.
6. Раҳматуллаев Ш. Параллел синтактик бутунликлар: Филол. фан. номз. ... дисс. – Фарғона, 2005.
7. Томашевский Б. Стилистика. – Ленинград: ЛГУ, 1983.
8. Тўланова Н. Ҳозирги ўзбек шеърятининг бадий санъатларининг лисоний-усlubий таҳлили: Фил. ф. н. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2008.
9. Фурқат. Сайланма. – Тошкент: Маънавият, 2009.
10. Шодиева Д. Муҳаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси. – Тошкент, 2007.

¹²²Бобоев Т. Шеър или таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.282

¹²³Қўлдашева Д. Фурқат ғазалларининг лингвопоэтик таҳлики. Филол. ф. б-ча фалс. д-ри дисс. – Фарғона, 2023.

¹²⁴Бобоев Т. Шеър или таълими. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.282.

**INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING INGLIZ TILI DARSLARIDA
LEKSIK-PRAGMATIK KOMPETENSIYANI TAKOMILLASHTIRISHDA TUTGAN
O'RNI.**

Yusupova Nodiraxon Erkinjon qizi

Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn bilan ishlash darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning afzalliklari hamda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga ta'siri tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'limda texnik vositalar va raqamli platformalarning keng joriy etilishi darslarni individualizatsiyalash, takroriy amaliyotni samarali tashkil qilish hamda o'quv jarayonini istalgan joyda va vaqtda davom ettirish imkoniyatini yaratmoqda. Tadqiqotda Ted Hasselbringning nazariy qarashlari asosida ta'limning moslashuvchanligi, interaktivligi va o'quvchilar motivatsiyasiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: matn bilan ishlash, innovatsion texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, kompyuter dasturlari, individual yondashuv, raqamli ta'lim, o'quv motivatsiyasi.

Matn bilan ishlash darslarida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati borasida bir qator olimlar o'z fikrlarini bayon etganlar. Innovatsion metod va yondashuvlarning dars jarayonida qo'llanilishi turli texnik vositalar va texnologiyalarning ta'limga tadbiiq etilishi bilan uzviy bog'liqdir. Rivojlanib kelayotgan zamonimizda turli texnik vositalar bilan chet tili darslarini boyitish ta'lim samaradorligini oshirishda turtki vazifasini bajara oladi. Mashhur metodist Ted Hasselbring o'qish darslarida texnologiyalarni qo'llanilishining bir qancha afzallik jihatlarini sanab o'tgan¹²⁵.

1. Moslashuvchanlik. Bugungi kunda ta'lim jarayonini yaxshilash va har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyatga ega. An'anaviy ta'lim tizimida barcha o'quvchilarga bir xil darslar va materiallar taqdim etilishi ko'plab muammolarga olib keladi. O'rta darajada o'zlashtirgan o'quvchilar uchun materiallar yengil bo'lishi mumkin, past darajada o'zlashtirganlar esa tushunish uchun qiynalishi, yuqori darajada o'zlashtirganlar esa zerikishi mumkin. Bu o'z navbatida ta'lim sifatini pasaytiradi. Kompyuter ta'limiy dasturlari esa bu muammoni hal qilishda katta rol o'ynaydi. Bunday dasturlar har bir o'quvchining bilim darajasini aniqlashga va unga mos materiallarni taqdim etishga imkon yaratadi. Masalan, onlayn o'qitish platformalarida testlar yoki mashqlar o'quvchilarning bilim darajasiga mos ravishda sozlanishi mumkin. Bu nafaqat o'quvchilarni o'zlashtirish jarayonida qo'llab-quvvatlash, balki ularning o'rganish tezligini ham moslashtirishga yordam beradi. Bundan tashqari, kompyuter dasturlari o'quvchilarni uzluksiz ravishda nazorat qilish imkonini beradi. Ular o'quvchilarning bilim darajasini tahlil qilib, ularga zarur bo'lgan qo'shimcha mashqlarni yoki yordamni taqdim etishi mumkin. Bu jarayon orqali o'quvchilar nafaqat o'z bilimlarini baholash, balki o'zlashtirishdagi zaif tomonlarni aniqlash va ularni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu tariqa, kompyuter ta'limiy dasturlari ta'lim jarayonini individualizatsiya qilish, har bir o'quvchining ehtiyojlariga javob berish va ta'lim sifatini oshirishda katta yordam beradi. Bu o'qitishning samaradorligini oshirish va o'quvchilarni yanada motivatsiya qilish uchun muhim vosita bo'lishi mumkin.

2. Takroriy amaliyotni amalga oshirish. Matn ustida ishlashda takroriy amaliyotning muhimligi inkor etib bo'lmaydi. O'qish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun talaba matnlarni ko'p marotaba o'qib chiqishi, ularni tahlil qilishi va o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlashi zarur. Texnologiyalardan foydalanish bu jarayonni yanada samarali qilish imkonini beradi, chunki kompyuter dasturlari va boshqa interaktiv vositalar takroriy mashqlarni avtomatik ravishda tashkil etishi mumkin. Misol uchun, matn ustida ishlashda talaba matnni bir

¹²⁵ <https://ascd.org/el/articles/five-reasons-readers-need-technology>

nechta usullarda qayta-qayta o'rganishi mumkin. Bunda texnologiyalar, masalan, onlayn o'quv platformalaridan foydalanish, talabning o'rganish tezligini va darajasini kuzatib, kerakli o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Kompyuter dasturlari, masalan, so'z boyligini kengaytirish uchun interaktiv mashqlarni yoki matnni qismlarga ajratib, har bir qismni alohida o'rganishga imkon beradigan imkoniyatlarni taqdim etishi mumkin.

3. Istalgan vaqtda va istalgan joyda mavjudlik. Texnologiya hayotimizda keng tarqalgan bo'lib, u darsdan tashqarida bilim olish imkonini beradi. Texnologiya sinf va uy, o'qituvchi va talaba hamda oila o'rtasida yanada uzluksiz aloqani ta'minlaydi. Bu birgalikda uy topshiriqlarini bajarish, talabalar darsni o'tkazib yuborganda virtual o'rganish va ishtiyoqmand talabalar uchun qo'shimcha ta'lim olish manbaya vazifasini o'tashi mumkin.

4. Ma'lumotlarni yig'ib va qayta ishlay olish imkoniyati. Ingliz tili darslarida matn ustida ishlashda texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarga ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va qayta ishlashda katta yordam beradi. Texnologik vositalar, masalan, interaktiv platformalar, onlayn kutubxonalar, raqamli resurslar va maxsus dasturlar o'quvchilarga bir nechta yondashuvlar orqali ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash imkonini taqdim etadi.

5. Rag'batlantirish. Ingliz tili darslarida matn ustida ishlash jarayonida texnologiyalarning qo'llanilishi o'quvchilarning darslarga qiziqishini oshirish, ularni faol ishtirok etishga undash va mustaqil o'rganishga ilhomlantirishga xizmat qiladi. Texnologiyalar yordamida o'quvchilarni kichik mukofotlar yoki reytinglar bilan rag'batlantirish mumkin. Masalan, interaktiv o'quv platformalari orqali ball yig'ish, sertifikatlar olish yoki virtual mukofotlar qo'lga kiritish o'quvchilarni faolroq bo'lishga undaydi.

Amerikalik tadqiqotchi Ted Hasselbring texnologiyalarning ta'limdagi o'rni haqida so'z yuritar ekan, texnologiyalar ta'limdagi samaradorlikni oshirish, past o'zlashtiruvchi o'quvchilarga yordam berish uchun eng kerakli vosita deb fikr bildiradi¹²⁶. Texnologiyalarning ahamiyatini qiyosiy ifodalab, zirhli sovutlar askarlar uchun, suzish kostyumlari suzuvchilar uchun qay darajada muhim bo'lsa, o'qituvchilar uchun ham turli texnik vositalardan foydalanish shunchalik zaruriy chora-tadbirlar, deb aytib o'tadi. Texnologiyalarning ta'limda qo'llanilishiga nisbatan "texnologiyalar chalg'itadi", "men hech qanday kompyutersiz yoki telefonsiz katta natijalarga erishganman" kabi fikr bildiruvchilarni urushga qurolsiz kirmoqchi bo'lgan askarga qiyoslaydi. Mazkur mulohazadan anglashimiz mumkinki, texnologiyalar ta'lim sifatini oshirishda, ta'limga yangicha innovatsion qarashlarni tadbiq etishda pedagoglarga cheksiz imkoniyatlar eshigini ochib bera oladi.

Hozirgi vaqtda ingliz tili darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish zaruriy chora hisoblanadi, chunki buning natijasida quyidagi natijalarga erishish mumkin:

1) Amaliy ko'nikmalarni takomillashtirish. Hali innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayoniga tadbiq etilmagan kezlarda chet tili o'qitish jarayonida faqatgina "doska va mel" tamoyildan foydalanilgan. Bunda o'qituvchi tomonidan bir nechta gaplar doskaga yozib ko'rsatilgan va tahlil etilgan. Hozirgi kunda esa internet sahifalari uzatayotgan autentik manbalar va til o'qitishga asoslangan kompyuter dasturlari va zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida talabalarda o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyati tug'ildi.

2) Mustaqil ishlarni samarali tashkil etish. Innovatsion texnologiyalar talabalarining mustaqil izlanishlarini qo'llab-quvvatlaydi. Zamonaviy o'qitish metodlari o'quvchilarni mustaqil o'rganishga undamoqda. Hozirgi kunda ta'lim oluvchilar faqatgina kitobda berilgan ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasligi, o'z bilimlarini o'zlari izlangan holda kengaytirib borishlari zarur;

3) Ingliz tili darslariga qiziqishni oshirish. Chet tili o'qitish jarayonlariga Innovatsion texnologiyalarning tadbiq natijasida o'quvchilarning darsga bilan qiziqishlari oshdi, buning asosiy sababi darslar talabalarining faol ishtiroki asosida, turli multimedia vositalari va qiziqarli metodlar asosida tashkil etilayotganligidir;

¹²⁶ <https://ascd.org/el/articles/five-reasons-readers-need-technology>

4) Talabalarning aqliy faoliyatini faollashtirish. Zamonaviy ta'lim metodlari (misol uchun, "aqliy hujum", "munozara") o'quvchilarni tanqidiy va tahliliy fikrlashga chorlamoqda va o'z fikrlarini erkin bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirmoqda.

Pedagogik texnologiyalarning ta'limda ahamiyati yuzasidan minglab tadqiqotlar olib borilgan, shunday tadqiqotlardan biri Graham Stanleyning tomonidan amalga oshirilgan. Grahamning fikricha, sinf xonalar multimedia vositalari bilan jihozlangani sari o'qituvchilarda "Everest sindromi" shakllanishi mumkin¹²⁷. Tabiiyki, "Everest sindromi" nima degan savol tug'iladi. "Everest sindromi", ya'ni texnologiyalardan ma'lum ta'limiy maqsadlarda (dars mavzusi, maqsadi, vazifalariga mos kelmasada) emas, balki ulardan mavjudligi va qulayligi uchungina foydalanishdir. Shuning uchun ham muallif o'z risolasida boshqa qo'llanma kitoblardan farqli ravishda texnologiyalarning darsda shunchaki maqsadsiz qo'llanilishi borasida fikr yuritmaydi. U darsda texnologiyalarning tadqiq etilishining natijalari va ijobiy yutuqlari yuzasidan o'z mulohazalarini bayon etadi. O'z fikrlari davomida tadqiqotchi texnik qurilmalardan qachon va qanday holatda dars jarayonida foydalanishga oid yondashuvlarini ta'kidlab o'tadi. Graham Stanley multimedia vositalarini darsda qo'llashdan oldin quyidagi 5 savolga javob izlash lozimligini aytib o'tadi¹²⁸:

1) Nima maqsadda texnologiyalardan foydalanish kerak, ya'ni texnologiyalardan faqatgina ular mavjud ekanligi uchungina emas, balkim ulardan erishiladigan maqsadni ko'zda tutish lozim. Agar texnologiyalar ta'lim jarayonini yaxshilash, shunchaki ulardan foydalanmaslik kerak.

2) Kimlar uchun texnologiyalardan foydalanish eng samarali hisoblanadi, ya'ni texnologiyalar ishtirokida tashkil etilgan mashg'ulotlar yoshi va bilim darajasiga mosmi?

3) Nima uchun, yoki qaysi ko'nikmalarni shakllantirish uchun texnologiyalardan foydalanish lozim. Ma'lum bir texnik qurilmadan foydalanish qaysi til ko'nikmasini rivojlantirishga yordam beradi (misol uchun, audiovizual qurilmalar eshitib tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega)?

4) Qayerda texnologiyalardan foydalanish lozim. Bu sinf dars uchun mosmi, masofaviy dars mashg'ulotlari uchunmi, yoki uy topshiriqlarini bajarayotgan paytda ma'quldir? Shu bilan birga, sinf xonani nazorat qilish (classroom management) borasidagi muammolarni ham o'ylab ko'rish tavsiya etiladi. Texnik qurilmani sinf xonasining qaysi qismiga joylashtirish ma'qul (masalan, xonani video proyektorni joylashtirishda xona yoriqligi, ekran uchun devor o'lchami e'tiborga olinishi kerak), yoki bir guruh o'quvchilar multimedia vositalari bilan ishlayotgan vaqtda, qolgan o'quvchilar nima qilayotgan bo'ladi? Shu kabi savollar pedagoglar tomonidan har bir dars rejasini tuzayotgan paytda e'tiborga olinishi dars samaradorligini oshiradi.

5) Qanday usulda texnologiyalardan foydalanish mumkin. Bunda qaysi dars mashg'uloti dars maqsadiga, vazifasiga mutanosib tarzda darsni yanada boyitishga xizmat qiladi?

Matn bilan ishlash darslarida innovatsion texnologiyalarning qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Zamonaviy texnik vositalar yordamida ta'lim jarayoni moslashuvchan, individual yondashuvga asoslangan va samarali bo'lishi mumkin. Kompyuter ta'limiy dasturlari o'quvchilarning bilim darajasini aniqlab, ularga mos mashqlarni taqdim etadi, takroriy amaliyotni tashkil etish imkonini beradi hamda istalgan joyda va vaqtda o'rganish imkoniyatini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirib, ularni o'z bilimlarini mustaqil ravishda rivojlantirishga undaydi. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalar matn ustida ishlash darslarini samarali tashkil etish, o'quv jarayonini individuallashtirish va uzluksiz ta'limni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

¹²⁷ G. Stanley. "Language learning with technology". Cambridge university press-2013. Page:3

¹²⁸ G. Stanley. "Language learning with technology". Cambridge university press-2013. Page:5

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Hasselbring, T. S., & Glaser, C. H. W. (2000). Use of Computer Technology to Help Students with Special Needs. *The Future of Children*, 10(2), 102–122.
2. Prensky, M. (2001). Digital Natives, Digital Immigrants. *On the Horizon*, 9(5), 1–6.
3. Warschauer, M., & Healey, D. (1998). Computers and language learning: An overview. *Language Teaching*, 31(2), 57–71.
4. Egamberdiyeva, G. (2020). Innovatsion ta'lim texnologiyalarining samaradorligi. *O'zDJTU Ilmiy axborotnomasi*, 3(1), 85–88.
5. Muminov, A. (2021). Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida chet tilini o'qitish. *Ta'lim va rivojlanish tahlili*, 4(2), 110–114.
6. Alimova, M. (2022). Til o'rgatishda interaktiv usullar va texnologiyalarning roli. *Zamonaviy ta'lim: muammo va yechimlar*, 2(3), 45–49.
7. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.

ФОРМИРОВАНИЕ ЛИНГВОПРАГМАТИЧЕСКИХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ

Нурматова Садбархон Эркиновна

преподаватель кафедры социально-гуманитарных дисциплин заочного отделения ФерГУ,

Машарипова Наргиза

студентка 4 курса факультета русской филологии ФерГУ

Аннотация: В статье подчеркивается, что при изучении языковых явлений текст берется и анализируется как единственный источник, средство реализации речевых возможностей говорящего. В статье также поясняется, что текст является не только продуктом художественного и научного высказывания, но и продуктом речевой деятельности говорящего, он считается высшим уровнем языковой системы, выполняющим важную функцию в коммуникативном процессе, текст представляет собой контекст, обеспечивающий реальное использование языка в речи, в котором человеческий фактор играет ключевую роль.

Ключевые слова: языковые явления, речевая способность говорящего, текст, языковая система, коммуникативный процесс, языковые средства, прагмалингвистика, грамматические и лексические средства, синтаксическое построение речи, прагматика, семантика, синтаксис, семантически-синтаксическая целостность, пресуппозиция вспомогательных конструкций.

В ходе развития языкознания его ведущая черта как социального явления получила широкое толкование. Известно, что этот вопрос активно изучался не только лингвистами, но и философами, историками, психологами, этнографами. Для исследователей при изучении языковых явлений текст берется и анализируется как единственный источник, средство реализации речевых возможностей говорящего.

Текст — это не только продукт художественного и научного выражения, но и продукт речевой деятельности говорящего. Это высший уровень языковой системы, выполняющий важную функцию в коммуникативном процессе. Текст — это контекст, обеспечивающий реальное использование языка в речи, в котором человеческий фактор играет ключевую роль.

Лингвист М.В. Ляпон подчеркивает, что человеческий фактор является одним из важнейших факторов текстообразования, что он является живым источником текстотворчества: «Человеческий фактор находится в центре внимания современной лингвистики и играет важную роль в реализации программы прагматики, семантики и

синтаксиса». Следует отметить, что элементы языка имеют абстрактно-выразительный характер. Они приобретают конкретный смысл только тогда, когда переводятся в речь. Как сказал Ш. Сафаров признавал: «Текст не есть некое аморфное, бесформенное явление; напротив, это явление, которое, как и все языковые средства, имеет внутренний и внешний уровни и формируется в рамках гармонии содержания и формы». В целом «Текст представляет собой многогранную, сложную структуру, поэтому при его описании необходимо учитывать присущие ему семиотические, коммуникативные, структурные, прагматические, когнитивные и номинативные свойства». В тексте выражены идеи, обобщенные в результате человеческого опыта в целостной форме.

В любом тексте наряду с процессом создания, то есть возникновения текста, происходит и процесс его восприятия. Исходя из этих факторов, исследователи современной лингвистики придают особое значение изучению сущности, содержания, структуры, процесса создания и восприятия текста. В частности, в европейской лингвистике многие лингвисты, такие как Ю.М. Лотман, Г.В. Шатков, Л.М. Лосева, В.В. Одинцов, О.И. Москальская, Н.Д. Зарубина, А.И. Новиков, З.Я. Тураева, М.В. Ляпон, Е.В. Сидоров, О.Л. Каменская, А.И. Горшков, Н.С. Валгина, И.Р. Гальперин, а в узбекском языкознании такие ученые, как И. Расулов, М. Аскарлова, А. Мамажонов, М. Тохсонов, Н. Турниёзов, М. Хакимов, М. Абдупаттоев, М. Курбанова, М. Юлдашев, У. Носирова проводили исследования текста, его создания и содержания, выразительных возможностей, анализа языковых единиц, его формирующих. Эти исследования внесли вклад в развитие лингвистики текста и прагматики. Стоит также признать, что он внес значительный вклад в развитие различных секторов.

Естественно, что любое языковое явление имеет план выражения и план содержания. В этом смысле текст не лишен этих характеристик. В большинстве исследований под единицей коммуникации обычно понимается связный текст. Следующее состояние — это часть существования. Текст имеет номинативный характер и является формой языковой знаковой системы.

Лингвисты включают в связанный текст следующее:

- а) текст — это набор предложений;
- б) текст представляет собой набор предложений;
- в) текст является средством достижения целей говорящих.

«Вопрос о том, является ли текст категорией речи, напрямую связан с понятиями «сам речевой процесс» и «результат речевой деятельности». Чешский ученый К. Гаузенблас трактует текст и как речевую деятельность, и как продукт (результат) речевой деятельности. Совокупность предложений, имеющих общее содержание и соответствующих грамматических и лексических средств, образует текстовый дискурс.

Текст — это законченный по содержанию и в коммуникативном отношении результат речевой деятельности. Потому что истинная реализация всегда происходит в мышлении. При этом языковые факты приравниваются к части целого. Важно также не забывать о важной роли говорящего в производстве речи, а также о роли ситуации в применении и интерпретации грамматических явлений. В научной литературе существуют различные подходы к анализу и интерпретации текста, отражающие наблюдения с точки зрения основного направления исследовательского аспекта. Вот почему структура текста и составляющие его единицы, в том числе словосочетания, широко освещаются в исследованиях профессора Н. Турниязова. В то же время исследования показывают, что в тексте, как и в других языковых единицах, существует норма.

Текст различается по размеру. Например, текстом может считаться как простое объявление, так и целое произведение. Изучение текста как целостной дискурсивной структуры требует внимания к коммуникативно-функциональной направленности произведения и его социальным аспектам.

Немецкий лингвист В. Хайнеманн в своем исследовании «Текстовая лингвистика сегодня — прогресс, проблемы, задачи» выделяет три типа текста:

- 1) текст – набор предложений;
- 2) текстово-пропозициональный комплекс;

3) рекомендует лингвистический подход к тексту как средство достижения целей говорящих. Подчеркивается, что они связаны с понятием связанного текста (его синтаксической, семантической или коммуникативно-прагматической основой), что имеет значение для определения текста и выбранного метода исследования. Другие немецкие ученые, М. Хайнеманн и С. Дальманн, утверждают, что возможности теории дискурса устной речи следует распространить и на письменный текст. В своей статье о классификации языковых наук А.И. Белич обратил внимание на то, что при грамматическом описании языковых фактов особое место должно быть отведено всей цепочке предложений, связанных на основе общего смысла и проявляющихся в виде определенной синтаксико-семантической целостности, и что это имеет решающее значение для возникновения понятия «текст», и подчеркнул целесообразность изучения взаимоотношений и связей в такой цепочке предложений в разделе языкознания «синтаксис». Этот вопрос также подробно изучался в лингвистике. В целом при изучении синтаксического построения связной речи следует исходить не из предложения, не обладающего достаточной самостоятельностью в этой связной речи, а из синтаксической единицы, не подчиненной окружающему ее контексту, о чем свидетельствуют идеи, выраженные в форме. Лексический повтор, артикли, местоимения, эллипсис, глагольные времена, повтор, структурно образующие связи между предложениями В своей работе, изучающей важнейшие средства связи, такие как союзы и вопросительные слова, К. Буст пишет: «Нити, протянутые от одного предложения к другому, столь многочисленны и образуют такую густую паутину, что можно говорить о переплетении предложений, о том, что они сплетены как единая паутина, поскольку каждое отдельное предложение тесно связано с другими». В результате исследований выясняется, что еще в начале 1950-х годов американский лингвист З. Харрис, трактовавший понятие дискурса как объект лингвистического анализа связной мысли, рекомендует методологию дистрибутивного анализа связного текста.

Интерпретация текста как сложного синтаксического целого широко изучалась и в отечественной лингвистике. Исследования велись в основном в направлении изучения особенностей стиля письма и художественной речи. В этих работах рассматриваются фонология-интонационные аспекты сложного синтаксического целого, его связь с задачами развития культуры речи, его использование в различных функциональных стилях речи. Именно в 60–70-е годы этого периода исследователи придали лингвистике текста статус самостоятельной лингвистической дисциплины и стали изучать текст как целостное речевое произведение. «Со второй половины 1960-х годов область лингвистики текста стала стремительно развиваться. Текст как целостное дискурсивное образование, его составляющие элементы, факторы и свойства стали изучаться с разных точек зрения. При этом произведение — текст — выступает точкой столкновения этих подходов.

Как отметил в своем исследовании профессор М. Юлдошев, исследователи обобщают основные правила лингвистики текста в следующие группы:

1. Основной единицей речи, выражающей законченную мысль, является не предложение, а текст; Предложение — это особый случай, особый тип текста. Текст — высшая единица синтаксического уровня.
2. Конкретные речевые произведения - тексты основываются на общих принципах построения текста: эти принципы относятся не к сфере речи, а к языковой системе или языковой компетенции. Принимая во внимание эти аспекты, следует, что текст следует рассматривать не только как единицу речи, но и как единицу языка.

3. Текст, как и другие языковые единицы, является частью языковой символической системы.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Vorkachev S.G. Lingvokulturologiya, yazikovaya lichnost, konsept: stanovlenie antropotsentricheskoy paradigmi v yazikoznani G'G' Filologicheskie nauki. – Moskva, 2001. – № 1. – S. 64.
2. Demyankov V.Z. Kratkiy slovar kognitivnix terminov. Sostaviteli: Kubryakova Ye.S., Demyankov V.Z., Pankras Yu.T., Luzina L.G. – M.: MGU im. M.V.Lomonosova, 1997. – S. 47.
3. Maslova V.A. Lingvokulturologiya. – M.: Academia, 2001. – S. 17;
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab ... G'G' O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2012. – № 5.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – 3 jildlik. – Toshkent: Akademnashr, 2012. 3-jild. – S. 17.
6. Pimenova M.V., Kondrateva O.N. Konseptualnie issledovaniya. Vvedenie. – M.: Flinta, 2014.
7. Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006. – B. 91.

XURSHID DO'STMUHAMMAD HIKOYALARI XUSUSIYATLARI

Madinaxon Yusupova Egamberdi qizi

Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sodiqova Dilafro'z, Odilova Madina, Abdujabborova Mohira

Farg'ona davlat universiteti Sirtqi bo'lim Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek zamonaviy nasrining yirik vakili Xurshid Do'stmuhammad ijodining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, uning hikoyalari kuzatiladigan badiiylik, ruhiy-falsafiy qatlam, milliylik va obraz yaratish san'ati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xurshid Do'stmuhammad, zamonaviy hikoya, badiiy tafakkur, ruhiy holat, falsafiy mazmun, milliylik.

